BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
1930

ISSN 2181-6833

PEDAGOGIK MAHORAT

4(1)
2026



ISSN 2181-6833

ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

4-son (2026-yil, aprel)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2026

PEDAGOGIK MAHORAT
Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
2026, № 4

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY’ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich– pedagogika fanlari doktori, professor
Mas’ul kotib: Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)
Satibekova Mayramkul Abdikulovna, Jusup Balasagin nomidagi Qirg‘iziston milliy universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)
Azizov Abdulatif Abduxalimovich, Bobojon Gafurov nomidagi Xo’jand davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc), akademik
Batchuluun Yembuu, Mongoliya davlat ta’lim universiteti professori, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)
Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta’limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)
Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta’lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)
Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)
Zotova Firuza Raxmatullovna, pedagogika fanlari doktori, professor (Volgabo‘yi davlat jismoniy tarbiya, sport va turizm universiteti, Rossiya)
Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor
Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)
Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor
Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor
O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor
Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor
Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor
Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)
To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Dilova Nargiza Gaybullayevna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Abdullayev Mehriddin Junaydulloyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Adizova Nigora Baxtiyorovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Adizova Nodira Baxtiyorovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Sattorov Anvar Ergashovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Nurulloyev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Axmadova Umidaxon Shavkat qizi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Rasulova Zilola Durdimurotovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Fayziyeva Umida Asadovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalikova Umida Mirovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО
Научно-теоретический и методический журнал
№ 4, 2026

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям «**Педагогика»** и «**Психология»**.

Журнал основан в 2001 году.
Журнал выходит 12 раз в год.

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

Учредитель: Бухарский государственный университет

Адрес редакции: 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.
E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Главный редактор: Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор
Ответственный редактор: Сайфуллаева Нигора Закиралиевна – доктор философии педагогических наук, доцент

Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук, профессор
Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор
Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор
Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор
Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)
Сатыбекова Майрамкул Абдикуловна, доктор педагогических наук (DSc) профессор (Кыргызстан)
Азизов Абдулатиф Абдухалимович, доктор педагогических наук (DSc), профессор, академик (Таджикистан)
Батчулуун Ямбуу, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, профессор (Монголия)
Андриенко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия)
Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия)
Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)
Зотова Фируза Рахматулловна, доктор педагогических наук, профессор (Поволжский государственный университет физической культуры , спорта и туризма, Россия)
Хамроев Алижон Рузикулович, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор
Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор
Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)
Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор
Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор
Ураева Дармоной Саиджановна, доктор филологических наук, профессор
Дурдиев Дурдимурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор
Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор
Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор
Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор
Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук, профессор
Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор
Курбонова Гулноз Негматовна, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук (DSc), профессор
Назаров Акмал Мардонович, доктор психологических наук (DSc), профессор
Дилова Наргиза Гайбуллаевна, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Жумаев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент
Абдуллаев Мехриддин Жунайдуллоевич, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Адизова Нигора Бахтиёровна, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Адизова Нодира Бахтиёровна, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Сатторов Анвар Эргашович, доктор философии педагогических наук (PhD), профессор
Нуруллоев Фируз Нумонжонович, доктор философии педагогических наук (PhD), профессор
Навруз-заде Лайли Бахтиёровна, доктор философии экономических наук (PhD), доцент
Ахмадова Умидахон Шавкат кизи, доктор филологических наук (DSc), доцент
Расулова Зилола Дурдимуротовна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент
Файзиева Умида Асадовна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент
Халикова Умида Мировна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент

PEDAGOGICAL SKILLS
The scientific-theoretical and methodical journal
№ 4, 2026

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «**Pedagogy**» and «**Psychology**».

The journal was founded in 2001.
The journal is published 12 times a year.

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

Founder: Bukhara State University

Publish house: 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.
E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

EDITORIAL BOARD:

Chief Editor: Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.
Editor: Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Doc. Nigora Z. Sayfullaeva

Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov
Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Mayramkul A. Satibekova (Kyrgyzstan)
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Azizov Abdulatif Abdukhalimovich, Academician (Tajikistan)
PhD in Pedagogical Sciences, Prof. Batchuluun Yumbuu (Mongolia)
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romm Tatyana Aleksandrovna (Russia)
Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Zotova Firuza Raxmatullovna (Russia)
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Alijon R. Hamroev
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova
Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)
Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev
Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov
Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva
Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev
Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov
Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov
Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova
Doctor of Philology, Prof. Qahramon R.Tuxsanov
Doctor of Psychology, Prof. Akmal M. Nazarov
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nargiza G. Dilova
PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G.Jumaev
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Mekhriddin J. Abdullaev
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nigora B. Adizova
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nodira B. Adizova
PhD in Pedagogical Sciences, Prof. Anvar E. Sattorov
PhD in Pedagogical Sciences, Prof. Firuz N. Nurulloev
PhD in Economics Sciences, Doc. Layli B. Navruz-zade
Doctor of Philology (DSc), Doc. Umidakhon Sh. Akhmadova
PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Zilola D. Rasulova
PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Umida A. Fayzieva
PhD in Pedagogical Sciences, Doc.Umida M. Khalikova

MUNDARIJA

	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
DOLZARB MAVZU			
	QARSHIBAEVA Gulnoza Abduqodirovna	Suitsidning demografik jihatlarining psixologik asoslari	8
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA			
	SHOMIRZAEV Maxmatmurod Xuramovich	Fanlararo aloqalar asosida bo‘lajak muhandislarning kasbiy ijodkorligini rivojlantirish	13
	АХМЕТОВА Клара Ирисматовна	Психологические проблемы мониторинга процесса повышения квалификации педагогических кадров	17
	CHORIYEVA Muxabbat Muxammatovna	Bo‘lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning konseptual asoslari	24
	EGAMOVA Anbarjon Atanazarovna	Texnologik ta’limda konstruktiv fikrlash va psixologik rezilientlikning o‘zaro ta’siri: muvaffaqiyatsizlikdan tiklanib, innovatsion mahsulot yaratish	29
	FAYZULLAYEVA E’zoza O‘tkir qizi	Bo‘lajak matematika o‘qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda steam yondashuvining samaradorligi	32
	G‘ANIYEVA Xalimaxon Axmadxonovna	Shaxsning kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	38
	ABDUKARIMOVA Rayxona Akmalovna	Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasi	42
	ASATULLAYEVA Farangiz Laziz qizi	Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy samaradorligini oshirishda kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati	48
	ASHUROV Baxrom Ilxomovich	Mustaqil ta’lim topshiriqlarining pedagogik mohiyati va kompetensiyaviy yondashuvdagi o‘rni	52
	AZIZOVA Zebo Dilshodovna	Darsdan tashqari o'quv mashg'ulotlarida innovatsion texnologiyalarning ahamiyati	57
	BOZOROVA Viloyat Muzaffarovna	Innovative educational technologies in the educational process	62
	IMOMOV Musurmon Pirnazarovich	Kompetensiyaviy yondashuv asosida professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirishning innovatsion modellari	67
	ИСАБАЕВА Дилфуза Комилжоновна	Разработка педагогической системы стимулирования способностей студентов	75
	ISMAILOV Oybek Abdurasulovich	Talabalarni epa texnologiyasi asosida klinik jarayonlarga tayyorlashning pedagogik asoslari	81
	ISMATOVA Sayyora Sobir qizi	Texnologiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning kompetensiyaviy qobiliyatlarini shakllantirish	86
	ISTAMOVA Kenjaxon Qorakuziyevna	Kollaborativ o‘qitish texnologiyalari asosida talabalarning yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	92
	JURABOYEV Almir Jamshidovich	O‘quvchilarda kompyuterning texnik va dasturiy ta’minotiga oid kompetensiyalarni shakllantirishda tayaniladigan tamoyillar	97
	KAMOLOV Ixtiyor Ramazonovich	Kasbiy kreativ kompetentlik- kasbiy kompetentlik va kasbiy kreativlik tushunchalar integratsiyasi sifatida	104
	KUZIYEV Oybek	Ijtimoiylashuv jarayonida liderlik sifatlarining ijtimoiy-	109

	Chuliyevich	psixologik ahamiyati	
	MALIKOV Ruslan Raufovich	Axborot texnologiyalari fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish	113
	MUXAMADIYEVA Zarina Baxodirovna	Texnik fanlarni o‘qitishda loyiha metodidan foydalanish asoslari	119
	NORBEKOV Azamat Ostonaqulovich, NE’MATOVA Muxlisa O‘tkirovna	Pedagogika tarixi bo‘yicha elektron darslik yaratishning nazariy va amaliy asoslari	123
	NOSIROVA Lobar Roziqovna	Teaching methodologies for critical thinking development	127
	NURIMOVA Dildora Xolmurod qizi	Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirishda pedagogikaning innovatsion imkoniyatlari	131
	KAMALOVA Nilufar Ilxomovna, QIYOMOVA Shoxsanam Ilyos qizi	Pedagogik sun’iy intellektga asoslangan qaror qabul qilish tizimi arxitekturasi	135
	RAFIQOV Ramazon Abdurasul o‘g‘li	Bo‘lajak harbiy ta’lim mutaxassislarining o‘quv yig‘ini oldi tayyorgarligining nazariy-metodologik asoslari	142
	RAXIMOVA Madina Xasanovna	Kreativ pedagogika asosida talabalarni ilmiy ijodkorlikka yo‘naltirish texnologiyasi	147
	RAXMATOVA Shodiya Ilhomovna	Boshlang‘ich ta’lim talabalarining kasbiy malakasini rivojlantirishning hozirgi holati	151
	SAFAROVA Nigora Nasilloyevna	O‘qituvchi kompetentligini shakllantirish bo‘yicha xorijiy va milliy tajribalar tahlili	157
	SALAXUTDINOV Sardor Abdumanapovich	Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida mehnat muhofazasi tizimini takomillashtirish	163
	SUVANOVA Kamola Raimqul qizi	ART-pedagogik texnologiyalar vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarni hamkorlikda o‘qitishning mazmuni va mohiyati	169
	TURSUNOVA Sojida Meyliyevna	O‘qituvchilarning kreativ kompetentligini aniqlash mezonlari va ko‘rsatkichlari	173
	UMAROVA Dilafro‘z Anvarovna	Talabalarda muloqot madaniyatini shakllantirishda noverbal vositalarning roli	177
	UMUROV Zarif Latifboyevich	Dual ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishning shakl, metod va vositalari	182
	XAYITOVA Dilovar Ismat qizi	O‘quvchilarda algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirishning steam texnologiyasi vositasida takomillashtirilishi: baholash mezonlari va diagnostika mexanizmlar	188
	XOJIYEVA Muxlisa Sultonovna	Talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlanganligining mavjud holati	196
	ШАРКОВА Александра Валерьевна	Эффективность использования заданий формата pirls для развития читательской грамотности учащихся 4-х классов: педагогический эксперимент в школе № 15 г. карши	201
	ШИРИНОВ Музаффар Кучарович	Талабаларнинг мустақил ўқув фаолиятни ташкил этиш методикаси	206
	MAXMUDOV Baxtiyor Xayrullayevich	Ta’lim jarayonida sog‘lom turmush tarzi va hayot faoliyati xavfsizligi madaniyatini shakllantirish	211
	XALILOVA Muxabbat Ruzmurodovna	Ontogenizning ilk bosqichlarida individni psixik taraqqiyotining rivojlanishi	216

	RASULOVA Zilola Durdimurotovna, RAXIMOVA Fotima Erkinjonovna	Talabalarda ijtimoiy-perseptiv kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari	224
	BERDIYEVA Dilafruz Shuxratovna	Rahbarning shaxsiy kompetensiyasini rivojlantirish - maktabgacha ta’lim tashkilotini samarali boshqarish omili sifatida	230
	NURALIYEVA Dildora Mamurjonovna	Turli xil geterogen muhitda yashovchi o‘smirlar orasida etnik-madaniy o‘ziga xoslikni anglash	234
	NAZAROVA Manzura Mustafo qizi	Talabalar orasida marginalizatsiya muammosi: sabablar va ijtimoiy-psixologik omillar	237
	USMONOVA Mubashira Suvonovna	Bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarida o‘z-o‘zini rivojlantirish metodikasining ilmiy-nazariy asoslari	241
	KAMILOVA Gulmira Alimovna	Paremik janrlar - maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tushunchalarni shakllantirishning asosiy vositasi sifatida	245
	BOTIROVA Muxayyo Berdiyorovna	An’anaviy va o‘yinli ta’lim metodlarining didaktik xususiyatlari va ularning qiyosiy tahlili	249
	MARDIYEV Begali Xudoyqul o’g’li	Shaxs tushunchasi talqini haqida fikr va munosabatlar	253
	MENGDANOVA Nigora Mustafaqulovna	Yoshlarda kasbiy motivatsiya shakllanishining psixologik xususiyatlari	257
	NORBO‘TAYEVA Iroda Yunusovna	Boshlang‘ich sinflarda ekologik ta’lim va tarbiyani “tarbiya” fani asosida integratsiyalash texnologiyasi	261
	RUSTAMOVA Feruzabonu Ilxomovna	Zamonaviy lingvodidaktik yondashuvlar asosida talabalarning pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	266
	RUZIYEV Elbek Rajabovich	Bo‘lajak muhandislarni aralash ta’lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli	272
	TURDIYEVA Mohira Juraqulovna	Muammoli ta’lim metodlari orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda divergent fikrlashni rivojlantirish usullari	276
	USMONOVA Qumriniso Saydaliyevna	Talabalarning kasbiy mobilligini art-pedagogik yondashuv asosida rivojlantirishning innovatsion strategiyalari	283
	XUDOYQULOVA Shoira Husanovna	Shaxs emotsional va intellektual yetukligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	288
	YUSUPOVA Mukhabbat Anatolevna	Integration in training future english teachers	292
	ISMATOVA Zulayho Asadovna	Boshlang‘ich ta’lim tabiiy fanlarni o‘qitishning faol metodlari	298
	NORMUMINOVA Dilafruz Erkinovna	Shaxsni emotsional sog‘lom rivojlantirish modeli	302
	PO’LATOVA Gulruh Jamolovna	“O’zbekiston tarixi” darslarida o‘quvchilarning ekologik kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari	307
	SAFAROVA Madina Azamat qizi	Bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish	311
	ALIMOV Zokir Chori o‘g‘li	Talabalar uchun mediakompetentlikning ahamiyati	316
	RAXIMOV Zokir Toshtemirovich	Talabalarning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini texnologik yondashuv asosida takomillashtirish (boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi misolida)	320
	KASIMOVA Xulkar Atabayevna	Psixologik farovonlikning nazariy va konseptual asoslari	326

DOLZARB MAVZU

SUITSIDNING DEMOGRAFIK JIHATLARINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Qarshibayeva Gulnoza Abduqodirovna,
Jizzax davlat pedagogika universiteti professori v.b.,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
gulinoza.ru@bk.ru

Ushbu maqolada suitsid hodisasining demografik jihatlari va uning psixologik asoslari kompleks tarzda tahlil qilingan. Yosh, jins, ijtimoiy maqom, oilaviy holat va yashash muhiti kabi demografik omillarning suitsid xulqiga ta’siri ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, shaxsning emotsional holati, stress, depressiya, agressiya va ijtimoiy izolyatsiya kabi psixologik omillar bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilingan. Maqolada profilaktika va psixokorreksion yondashuvlar bo‘yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *suitsid, demografik omillar, depressiya, stress, agressiya, ijtimoiy izolyatsiya, psixologik omillar, profilaktika.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ СУИЦИДАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ

В данной статье комплексно анализируются демографические аспекты суицида и его психологические основы. На основе научных источников освещается влияние таких демографических факторов, как возраст, пол, социальный статус, семейное положение и среда проживания, на суицидальное поведение. Также анализируется взаимосвязь эмоционального состояния личности с такими психологическими факторами, как стресс, депрессия, агрессия и социальная изоляция. В статье приводятся научные выводы и практические рекомендации по профилактическим и психокоррекционным подходам.

Ключевые слова: *суицид, демографические факторы, депрессия, стресс, агрессия, социальная изоляция, психологические факторы, профилактика.*

PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE DEMOGRAPHIC ASPECTS OF SUICIDAL BEHAVIOR

This article provides a comprehensive analysis of the demographic aspects of suicide and its psychological underpinnings. The influence of demographic factors—such as age, gender, social status, marital status, and living environment—on suicidal behavior is examined based on scientific sources. Furthermore, the article explores the interconnection between an individual's emotional state and psychological factors like stress, depression, aggression, and social isolation. The article presents scientific conclusions and practical recommendations on preventative and psychocorrective approaches.

Keywords: *suicide, demographic factors, depression, stress, aggression, social isolation, psychological factors, prevention.*

Kirish. Suitsid muammosi zamonaviy jamiyatda eng dolzarb ijtimoiy-psixologik muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. U nafaqat alohida shaxsning ichki ruhiy inqirozi, balki keng ko‘lamli ijtimoiy, iqtisodiy va demografik jarayonlar bilan bog‘liq murakkab fenomen hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, har yili millionlab insonlar suitsid tufayli hayotdan ko‘z yumadi va bu holat, ayniqsa, yoshlar orasida yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Bu esa mazkur muammoni ilmiy jihatdan chuqur o‘rganishni, uning sabab va omillarini kompleks tahlil qilishni talab etadi.

Suitsidni tushunishda uning demografik jihatlarini tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki yosh, jins, oilaviy holat, ijtimoiy maqom va yashash muhiti kabi omillar shaxsning psixologik holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, suitsid faqat tashqi omillar natijasi emas, balki shaxsning ichki emotsional holati, kognitiv jarayonlari va shaxsiy xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Mazkur maqolada suitsidning demografik jihatlari va uning psixologik asoslari o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilinadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Suitsid psixologiyasida eng muhim masalalardan biri – uning mohiyatini to‘g‘ri anglashdir. Suitsid – bu shaxsning o‘z hayotiga qasd qilishga qaratilgan ongli harakati bo‘lib, u ko‘pincha uzoq vaqt davomida shakllangan psixologik bosim, emotsional tushkunlik va ichki ziddiyatlar natijasida yuzaga keladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, suitsidal xulq ko‘p hollarda depressiya, umidsizlik, hayot ma’nosini yo‘qotish hissi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning etishmasligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Shaxs o‘zini keraksiz, qadrsiz deb his qila boshlaganda va muammolardan chiqish yo‘lini topa olmaganda, suitsidni “yechim” sifatida qabul qilishi mumkin.

Suitsidning demografik jihatlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, yosh omili bu jarayonda alohida ahamiyatga ega. O‘smirlik va yoshlik davrida suitsid holatlari ko‘proq uchraydi, chunki bu davr shaxsning shakllanish bosqichi bo‘lib, u kuchli emotsional tebranishlar, o‘zini anglash jarayoni va ijtimoiy rollarni qabul qilish bilan xarakterlanadi. O‘smirlarda o‘z-o‘zini baholashning pastligi, tengdoshlar ta’siri, ota-ona bilan munosabatlardagi muammolar va kelajakka nisbatan noaniqlik hissi suitsidal fikrlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, katta yoshdagilar va qariyalar orasida ham suitsid holatlari kuzatiladi, bu esa ko‘proq yakkalik, ijtimoiy aloqalarning kamayishi va sog‘liq muammolari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Jins omili ham suitsid statistikasida muhim o‘rin tutadi. Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, erkaklar orasida suitsid natijasidagi o‘lim holatlari ko‘proq uchraydi, ayollarda esa suitsidal fikrlar va urinishlar ko‘proq qayd etiladi. Bu holat erkaklarda emotsional muammolarni yashirish, yordam so‘ramaslik va agressiyani ichkilashtirish tendensiyasi bilan izohlanadi. Ayollarda esa his-tuyg‘ularni ochiq ifoda qilish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimiga murojaat qilish imkoniyatlari yuqoriroq bo‘ladi.

Oilaviy holat suitsid xavfiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Barqaror va qo‘llab-quvvatlovchi oila muhiti shaxs uchun muhim himoya omillaridan biri hisoblanadi. Ajrashgan, yolg‘iz yoki nizoli oila muhitida yashovchi shaxslarda suitsid xavfi yuqoriroq bo‘ladi. Oiladagi nizolar, zo‘ravonlik, emotsional sovuqlik va tushunishning etishmasligi shaxsda ichki stress va ruhiy iztiroblarni kuchaytiradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar ham suitsidning muhim determinantlaridan biri hisoblanadi. Ishsizlik, kambag‘allik, ijtimoiy tengsizlik va iqtisodiy bosimlar insonda o‘zini qadrsiz his qilish, umidsizlik va kelajakka nisbatan ishonchsizlikni kuchaytiradi. Bunday holatlar uzoq davom etganda, shaxsda depressiv holatlar shakllanib, suitsidal fikrlar paydo bo‘lishi mumkin.

Suitsidal xulqning psixologik asoslarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, depressiya bu jarayonda eng muhim omillardan biridir. Depressiya holatida inson o‘z hayotini ma’nosiz deb hisoblaydi, kelajakdan umid uzadi va o‘zini og‘ir psixologik holatda his qiladi. Shu bilan birga, agressiyaning ichkilashuvi ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, inson tashqi agressiyani o‘z-o‘ziga yo‘naltirishi mumkin. Stress holatlari, ayniqsa, uzoq muddatli stress, insonning psixik barqarorligini izdan chiqaradi va uning moslashuv qobiliyatini pasaytiradi. Ijtimoiy izolyatsiya esa insonni yakkalikka olib kelib, uning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimidan ajralib qolishiga sabab bo‘ladi.

Suitsid profilaktikasida kompleks yondashuv muhim ahamiyatga ega. Birinchi navbatda, xavf guruhidagi shaxslarni erta aniqlash va ularga psixologik yordam ko‘rsatish zarur. Ta’lim muassasalarida psixologik xizmatlarni kuchaytirish, o‘quvchilar va talabalar orasida stressga chidamlilik, emotsional intellekt va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Oilaviy muhitni yaxshilash, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish va jamiyatda psixologik madaniyatni oshirish ham suitsidning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda suitsidal xulqning demografik jihatlari va uning psixologik asoslarini aniqlash maqsadida kompleks ilmiy-amaliy yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, empirik tadqiqot usullari va statistik tahlil metodlari o‘zaro uyg‘unlikda qo‘llanildi. Bu esa olingan natijalarning ishonchliligi va validligini ta’minlashga xizmat qildi.

Tadqiqotning nazariy bosqichida suitsid muammosiga oid xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar, jumladan, psixologiya, sotsiologiya va tibbiyot sohalaridagi ilmiy ishlar tahlil qilindi. Ushbu tahlil orqali suitsidal xulqning asosiy tushunchalari, demografik omillari va psixologik mexanizmlari aniqlab olindi.

Empirik tadqiqot qismida turli demografik guruhlarga mansub respondentlar ishtirok etdi. Tadqiqotda ishtirok etuvchilar yosh, jins, oilaviy holat va ijtimoiy maqom kabi ko‘rsatkichlar bo‘yicha tanlab olindi. Tadqiqotda jami 120 nafar respondent ishtirok etdi (shulardan 60 nafari erkak va 60 nafari ayollar). Yosh jihatdan ishtirokchilar 16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan intervalni qamrab oldi.

Tadqiqotda quyidagi psixodiagnostik metodikalar qo‘llanildi:

- Bek depressiya shkalasi (Beck Depression Inventory) — depressiv holat darajasini aniqlash uchun
- Bassa–Darki agressiya shkalasi — agressivlik darajasini baholash uchun
- “O‘z-o‘zini baholash” metodikasi — shaxsning o‘zini qadrlash darajasini aniqlash uchun
- Sotsial izolyatsiya shkalasi — ijtimoiy aloqalar darajasini o‘lchash uchun

Ushbu metodikalar orqali respondentlarning psixologik holati va suitsidal moyilligi o‘rtasidagi bog‘liqliklar o‘rganildi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilishda matematik-statistik usullardan foydalanildi. Jumladan, ma’lumotlarni qayta ishlashda **Styudent t-kriteriysi** qo‘llanilib, turli guruhlar o‘rtasidagi farqlar ishonchliligi aniqlandi. Shuningdek, psixologik ko‘rsatkichlar (depressiya, agressiya, ijtimoiy izolyatsiya) bilan suitsidal moyillik o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash maqsadida **Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti** hisoblandi.

Statistik tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, depressiya darajasi va suitsidal moyillik o‘rtasida kuchli musbat korrelyatsiya mavjud ($r = 0,68$; $p < 0,01$). Shuningdek, ijtimoiy izolyatsiya va suitsidal fikrlar o‘rtasida ham ahamiyatli bog‘liqlik aniqlandi ($r = 0,61$; $p < 0,01$). Erkaklar va ayollar o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilish natijasida esa erkaklarda suitsidal xavf darajasi yuqoriroq ekanligi statistik jihatdan tasdiqlandi ($t = 2,43$; $p < 0,05$).

Natijalar va ularning statistik tahlili. Ushbu tadqiqotda olingan empirik ma’lumotlar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlandi va tahlil qilindi. Tahlil jarayonida respondentlarning demografik xususiyatlari hamda psixologik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqliklar aniqlandi.

Avvalo, jins omillariga ko‘ra suitsidal moyillik darajasidagi farqlar **Styudent t-kriteriysi** yordamida tekshirildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, erkaklar guruhida suitsidal moyillikning o‘rtacha ko‘rsatkichi ($M = 21,4$) ayollarnikiga ($M = 18,7$) nisbatan yuqoriroq ekanligi aniqlandi. Ushbu farq statistik jihatdan ishonchli bo‘lib chiqdi ($t = 2,36$; $p < 0,05$). Bu natija jins omillarining suitsidal xulqda muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Yosh guruhlari bo‘yicha farqlarni tahlil qilish maqsadida **bir faktorli dispersion tahlil (ANOVA)** qo‘llanildi. Respondentlar shartli ravishda uch guruhga ajratildi: 16–25 yosh, 26–40 yosh va 41–60 yosh. Tahlil natijalariga ko‘ra, yosh guruhlari o‘rtasida suitsidal moyillik darajasida ahamiyatli farq mavjudligi aniqlandi ($F = 4,12$; $p < 0,05$). Xususan, 16–25 yoshlilar guruhida suitsidal ko‘rsatkichlar yuqoriroq bo‘lib, bu holat ushbu yosh davrida emotsional beqarorlik va ijtimoiy bosimlarning kuchliligi bilan izohlanadi.

Psixologik omillar va suitsidal moyillik o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash maqsadida korrelyatsion tahlil amalga oshirildi. Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti natijalariga ko‘ra, depressiya va suitsidal moyillik o‘rtasida kuchli musbat bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi ($r = 0,68$; $p < 0,01$). Shuningdek, ijtimoiy izolyatsiya bilan suitsidal fikrlar o‘rtasida ham ahamiyatli bog‘liqlik qayd etildi ($r = 0,61$; $p < 0,01$). Agressiya ko‘rsatkichi bilan suitsidal moyillik o‘rtasida esa o‘rtacha darajada bog‘liqlik kuzatildi ($r = 0,49$; $p < 0,05$).

Suitsidal moyillikka ta’sir etuvchi omillarni kompleks baholash maqsadida **ko‘p omilli regression tahlil** o‘tkazildi. Regressiya modeliga depressiya, agressiya va ijtimoiy izolyatsiya o‘zgaruvchilari kiritildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, model umumiy variatsiyaning 52% ni tushuntirishi aniqlandi ($R^2 = 0,52$; $p < 0,01$). Depressiya eng kuchli prediktor sifatida namoyon bo‘lib ($\beta = 0,45$; $p < 0,01$), ijtimoiy izolyatsiya ham ahamiyatli ta’sir ko‘rsatdi ($\beta = 0,37$; $p < 0,01$). Agressiyaning ta’siri esa nisbatan pastroq, ammo statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi qayd etildi ($\beta = 0,21$; $p < 0,05$).

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, suitsidal xulq shakllanishida psixologik omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, demografik omillar bilan o‘zaro ta’sirda uning kuchayishiga olib keladi. Ayniqsa, depressiya va ijtimoiy izolyatsiya yuqori bo‘lgan holatlarda suitsid xavfi keskin ortishi kuzatildi.

Olingan statistik natijalar zamonaviy psixologiyadagi nazariyalar bilan uyg‘unlikda izohlanadi. Jumladan, A.Bekning kognitiv nazariyasiga ko‘ra, depressiv holatda insonda negativ fikrlash sxemalari shakllanib, bu suitsidal qarorlarga olib kelishi mumkin. Shuningdek, E.Dyurkgeymning ijtimoiy integratsiya nazariyasi ijtimoiy izolyatsiyaning suitsid xavfini oshirishini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Shu tariqa, tadqiqot natijalari suitsidal xulqning biopsixo-ijtimoiy model asosida shakllanishini yana bir bor tasdiqladi.

Muhokama. Ushbu tadqiqot natijalari suitsidal xulqning shakllanishida demografik va psixologik omillar o‘zaro chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Xususan, jins, yosh va ijtimoiy holat kabi demografik omillar shaxsning ichki psixologik holati bilan uyg‘unlikda suitsidal moyillik darajasiga ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Bu esa suitsidni faqat individual psixologik muammo sifatida emas, balki keng ijtimoiy-demografik kontekstda o‘rganish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Jins omillari bo‘yicha olingan natijalar erkaklarda suitsidal xavf yuqoriroq ekanligini ko‘rsatdi. Bu holatni zamonaviy psixologiyadagi gender rollari nazariyasi orqali izohlash mumkin. Ya’ni erkaklar jamiyatda kuchli, bardoshli va mustaqil bo‘lishga majbur deb qaralishi sababli, ular emotsional muammolarini ochiq ifoda etmaslikka moyil bo‘ladilar. Natijada ichki stress va depressiv holatlar yig‘ilib, suitsidal qarorlar qabul qilish ehtimoli ortishi mumkin. Ayollarda esa emotsional ifodalash imkoniyati yuqori bo‘lgani uchun ular psixologik yordamga murojaat qilish orqali xavfni ma’lum darajada kamaytira oladilar.

Yosh omillari bo‘yicha aniqlangan farqlar ham nazariy jihatdan muhim ahamiyatga ega. O‘smirlar va yoshlar orasida suitsidal moyillikning yuqori ekanligi ularning psixologik rivojlanish bosqichi bilan bog‘liq. Bu davrda shaxsda identifikatsiya inqirozi, o‘z-o‘zini anglash jarayoni va ijtimoiy rollarni izlash kuchayadi. Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, ushbu bosqichda yuzaga kelgan ziddiyatlar hal etilmagan holda qolsa, shaxsda noaniqlik, xavotir va umidsizlik kuchayishi mumkin. Bu esa suitsidal fikrlarning shakllanishiga zamin yaratadi.

Korrelyatsion tahlil natijalari depressiya va suitsidal moyillik o‘rtasidagi kuchli bog‘liqlikni ko‘rsatdi. Bu natija A.Bekning kognitiv nazariyasi bilan uyg‘un bo‘lib, unga ko‘ra depressiv holatda shaxsda “negativ kognitiv uchlik” (o‘ziga, dunyoga va kelajakka nisbatan salbiy munosabat) shakllanadi. Bunday fikrlash tizimi insonda umidsizlikni kuchaytirib, suitsidni chiqish yo‘li sifatida qabul qilish ehtimolini oshiradi.

Ijtimoiy izolyatsiya bilan suitsidal xulq o‘rtasidagi bog‘liqlik E.Dyurkgeymning ijtimoiy integratsiya nazariyasi nuqtai nazaridan izohlanadi. Unga ko‘ra, inson jamiyat bilan etarli darajada integratsiyalashmagan bo‘lsa, ya’ni ijtimoiy aloqalari zaif bo‘lsa, u suitsid xavfiga ko‘proq moyil bo‘ladi. Tadqiqot natijalarida ham ijtimoiy izolyatsiya yuqori bo‘lgan respondentlarda suitsidal fikrlar ko‘proq kuzatilgani ushbu nazariyani tasdiqlaydi.

Regression tahlil natijalari esa depressiya va ijtimoiy izolyatsiya suitsidal moyillikning eng muhim prediktorlari ekanligini ko‘rsatdi. Bu holat suitsid profilaktikasida aynan ushbu omillarga alohida e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi. Ya’ni psixologik xizmatlar tizimida depressiv holatlarni erta aniqlash va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish asosiy vazifalardan biri bo‘lishi lozim.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari suitsidal xulqning biopsixo-ijtimoiy model asosida shakllanishini tasdiqlaydi. Ya’ni biologik omillar, shaxsning individual psixologik xususiyatlari va ijtimoiy muhit birgalikda ta’sir ko‘rsatadi. Demografik omillar esa ushbu jarayonda fon vazifasini bajarib, psixologik omillarning ta’sirini kuchaytirishi yoki susaytirishi mumkin.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijalari suitsid muammosini kompleks yondashuv asosida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Faqat bir omilga e’tibor qaratish etarli emas, balki demografik, psixologik va ijtimoiy omillarni birgalikda tahlil qilish orqali samarali profilaktika strategiyalarini ishlab chiqish mumkin.

Amaliy tavsiyalar. Ushbu tadqiqot natijalariga tayangan holda suitsidal xulqning oldini olish va xavf omillarini kamaytirish maqsadida quyidagi kompleks amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Mazkur tavsiyalar psixologik xizmat tizimi, ta’lim muassasalari, oila instituti hamda jamiyat darajasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Avvalo, ta’lim muassasalarida suitsid profilaktikasiga qaratilgan tizimli psixologik monitoringni joriy etish zarur. Xususan, maktab va oliy ta’lim muassasalarida o‘quvchilar va talabalarning psixologik holatini muntazam ravishda baholash, xavf guruhiga kiruvchi shaxslarni erta aniqlash va ular bilan individual psixologik ish olib borish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda psixodiagnostik metodikalardan (depressiya, stress, agressiya va ijtimoiy izolyatsiyani o‘lchovchi shkalalar) samarali foydalanish tavsiya etiladi.

Ikkinchidan, psixologik xizmat mutaxassislarining malakasini oshirish va ularni zamonaviy psixoterapevtik yondashuvlar bilan ta’minlash talab etiladi. Ayniqsa, kognitiv-bixevioral terapiya (CBT), dialektik bixevioral terapiya (DBT) va krizis intervensiya usullarini amaliyotga keng joriy etish suitsidal fikrlarga ega shaxslar bilan ishlash samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, amaliyotchi psixologlar uchun doimiy superviziya va interviziya tizimini yo‘lga qo‘yish ham muhim hisoblanadi.

Uchinchidan, oila institutini mustahkamlash va oilaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish zarur. Ota-onalar uchun maxsus psixologik treninglar, seminarlar va maslahat xizmatlarini tashkil etish orqali ularning farzandlar bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Oilada emotsional qo‘llab-quvvatlash muhitini shakllantirish suitsid xavfini kamaytirishda muhim omil hisoblanadi.

To‘rtinchidan, yoshlar o‘rtasida emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish va joriy etish maqsadga muvofiq. Bunday dasturlar orqali yoshlarda o‘z his-tuyg‘ularini anglash, ularni boshqarish, stressga chidamlilik va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish mumkin. Bu esa ularning murakkab hayotiy vaziyatlarga nisbatan barqarorligini oshiradi.

Beshinchidan, jamiyatda psixologik madaniyatni oshirish va suitsid mavzusidagi stigmani kamaytirishga qaratilgan keng ko‘lamli axborot-ta’lim ishlarini amalga oshirish lozim. Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va ta’lim platformalari orqali aholiga suitsidning xavf omillari, belgilari va yordam olish imkoniyatlari haqida ma’lumot berish muhimdir. Bu orqali insonlar o‘z vaqtida mutaxassislarga murojaat qilishga undaydi.

Oltinchidan, xavf guruhiga kiruvchi shaxslar bilan individual va guruhli psixokorreksion ishlar tashkil etish zarur. Bunda ayniqsa depressiya va ijtimoiy izolyatsiya darajasi yuqori bo‘lgan shaxslarga alohida

e’tibor qaratish lozim. Psixokorreksion dasturlar shaxsning o‘z-o‘zini baholashini oshirish, ijobiy fikrlashni shakllantirish va ijtimoiy aloqalarni tiklashga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Yettinchidan, davlat darajasida suitsid profilaktikasiga qaratilgan kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Bunday dasturlar sog‘liqni saqlash, ta’lim va ijtimoiy himoya tizimlarining o‘zaro hamkorligini ta’minlashi lozim. Shuningdek, maxsus “ishonch telefonlari”, onlayn maslahat xizmatlari va krizis markazlarini tashkil etish aholining psixologik yordamdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Sakkizinchidan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish maqsadida ta’lim muassasalari va tashkilotlarda “suitsid xavfini baholash va oldini olish” bo‘yicha metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish va tarqatish tavsiya etiladi. Bu qo‘llanmalar pedagoglar, psixologlar va ijtimoiy xodimlar uchun amaliy yo‘riqnoma vazifasini bajaradi.

Umuman olganda, mazkur amaliy tavsiyalarni izchil va tizimli ravishda amalga oshirish suitsidal xulqning oldini olish, xavf omillarini kamaytirish va aholining psixologik salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa jamiyatda barqaror ijtimoiy muhitni shakllantirish va inson kapitalini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Durkheim E. Suicide: A Study in Sociology. – New York: Free Press, 1951. – 405 p.
2. Beck A.T. Depression: Causes and Treatment. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1967. – 370 p.
3. Shneidman E.S. The Suicidal Mind. – New York: Oxford University Press, 1996. – 212 p.
4. Seligman M.E.P. Learned Optimism: How to Change Your Mind and Your Life. – New York: Vintage Books, 2006. – 336 p.
5. Baumeister R.F. Suicide as escape from self // Psychological Review. – 1990. – Vol. 97, №1. – P. 90–113.
6. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 320 b.
7. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 512 b.
8. Qodirov B.R. Psixologiya. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 400 b.
9. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Noshir, 2019. – 256 b.
10. Tursunov A. Yoshlar psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2021. – 280 b.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

FANLARARO ALOQALAR ASOSIDA BO‘LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH

Shomirzaev Maxmatmurod Xuramovich,
Termiz davlat universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori
shomirzaevm@tersu.uz

Maqolada “Muhandislik va kompyuter grafikasi” o‘quv dasturining boshqa fanlari bilan bog‘liqlik tomonlari, ahamiyati va ularni amalga oshirish usullari, fanlarni o‘zaro bog‘lagan holda o‘rganishni rejalashtirish muammolari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *kasbiy qiziqish, teskari aloqa, vizual, mukammal, tasniflash, didaktik, fanlararo, kasb, qoniqish, qobiliyat, ong, ko‘rsatkich, tajriba, daraja, texnologiya, aqliy faoliyat, uzviylik, assosiativ, harakat.*

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ТВОРЧЕСТВА БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ НА ОСНОВЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ СВЯЗЕЙ

В статье освещаются аспекты взаимосвязи учебной дисциплины “Инженерная и компьютерная графика” с другими предметами, её значение и методы их реализации, а также проблемы планирования междисциплинарного обучения.

Ключевые слова: *профессиональный интерес, обратная связь, визуальный, совершенный, классификация, дидактический, междисциплинарный, профессия, удовлетворённость, способность, сознание, показатель, опыт, уровень, технология, умственная деятельность, преемственность, ассоциативный, действие.*

DEVELOPING THE PROFESSIONAL CREATIVITY OF FUTURE ENGINEERS BASED ON INTERDISCIPLINARY RELATIONS

The article highlights the interconnected aspects of the “Engineering and Computer Graphics” curriculum with other disciplines, its significance, methods of its implementation, and the challenges of planning the integrated study of these subjects.

Keywords: *professional interest, feedback, visual, perfect, classification, didactic, interdisciplinary, profession, satisfaction, ability, consciousness, indicator, experience, level, technology, mental activity, continuity, associative, action.*

Kirish. Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ishlab chiqilayotgan qarorlar va qonunlar ijrosini ta’minlash yo‘lida zamon bilan hamnafas holda ta’lim sifatini oshirish, samaradorligining rivojlanish, hamda yaratilgan imkoniyatlar va shart-sharoitlardan unumli foydalanish, xalq xo‘jaligining turli sohalarida raqobatbardosh, intellektual va texnologik salohiyatlari shakllangan muhandislarni tayyorlash bugungi kunda eng muhim masalalardan biri hisoblanadi [3].

Transport vositalari muhandisligi ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasini tahlil qilayotganda, boshqa umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘rganishda muhandislik va kompyuter grafikasi fani fundamental fan hisoblanadi. Mutaxassislik fanlarni o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish sharoitida muhandislik va kompyuter grafikasida o‘rganilgan o‘quv materiallarini idrok etish, olgan bilimlar asosida yangi vazifalarni tahlil qilish va umumlashtirish kabi amallarni bajarish zarur bo‘ladi [6].

Fanlararo aloqani amalga oshirish bitta fan tushunchasini boshqa fanning isbot-dalillari va nazariy ma’lumotlari bilan tasdiqlaydigan qonuniyatlariga bog‘liq. Talabalar ilgari olingan bilimlarga asoslangan yangi tushunchalar bilan ishlashadi, o‘rganishlari kerak bo‘lgan bilimlarga e’tiborini qaratadilar. Boshqa fanlardan olingan bilimlar asosida yangi bilimlarni o‘rganish zaruriyati tug‘iladi.

Texnik fanlarining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, talabalar ko‘pgina mavzular shartida bir qator tegishli fanlardan, shu jumladan, muhandislik va kompyuter grafikasi fanidan olgan bilimlarini amalda qo‘llashlari va yangi materiallar bilan to‘g‘ri nisbat va o‘zaro bog‘liqlikni topa olishlari kerak.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Umumkasbiy va mutaxassislik kafedralarida ixtisoslik fanlarni o‘qitish tajribasi va ish dasturlarining mazmuni bilan tanishish, muhandislik va kompyuter grafikasi o‘qitilishi maxsus texnik fanlarning ko‘pgina fanlar va umumkasbiy fanlarning ayrim fanlari bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. Muhandislik va kompyuter grafikasi gumanitar fanlar va tabiiy fanlar bilan vositali bog‘liqligini ta’kidlash zarurdir.

Bu talabalarning o‘rganilayotgan fanga rasmiy munosabati, berilgan topshiriqlarga yechim izlashga qiziqishning yo‘qolishiga, umumiy bilimlarni o‘zlashtirishga olib keladi. Bunday ta’lim jarayoni talabalarning mustaqil fikrlashlarini cheklaydi, yuqori kurslarda kasbiy qiziqishlari shakllanmaydi, talabalar kurs loyihasi, bitiruv malakaviy ishlardagi chizmalarni bajarishdagi qiyinchiliklarga duch keladi.

Bevosita va teskari aloqalar “Muhandislik va kompyuter grafikasi” o‘quv fanini o‘rnini aniqlashda asosiy hisoblanadi. Ular “Muhandislik va kompyuter grafikasi” o‘quv fani dasturining maxsus texnik, umumtexnik va tabiiy fanlar bloklarining o‘quv materiali bilan bog‘liqligini aks ettiradi.

Birinchidan, “Muhandislik va kompyuter grafikasi” o‘quv fani bo‘limlarining maxsus texnik fanlarini o‘rganishga ta’sirini aniqlaydigan bevosita aloqalar deb qarasak; ikkinchidan, “Muhandislik va kompyuter grafikasi” o‘quv fanini o‘rganish jarayonini tuzishda barcha fanlarining ta’sirini aks ettiruvchini esa teskari aloqalar deb ataymiz. Bizning fikrimizcha, fanlararo aloqalarning ko‘rinadigan va yashirin aloqalar tushunchasini batafsilroq tushuntirilishi kerak. O‘quv jarayonidagi asosiy qarama-qarshiliklar “Muhandislik va kompyuter grafikasi” fanini o‘qitish metodikasi dasturning boshqa fanlar bilan birgalikda rivojlanmaganligidan kelib chiqadi. “Muhandislik va kompyuter grafikasi” fanini o‘rganishda kasbning o‘ziga xos jihatlari bilan bog‘liq bo‘lgan turli sohalardagi bilimlardan qanchalik faol foydalanilsa, talabalarning tayyorgarligi shunchalik yaxshilanadi.

Ushbu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni o‘quvchilarning maxsus aqliy faoliyatini o‘rgatish orqali yengish mumkin. Buning uchun bilim va ko‘nikmalarni doimiyligini shakllantirish, past darajadan murakkab va turli moslashuvlar tizimga o‘tish. Murakkab tushunchalar bilan o‘ylash qobiliyati darhol paydo bo‘lmaydi. Ma’ruza, amaliy material orqali o‘quv dasturini tuzish jarayonida u o‘qituvchi tomonidan oldindan rejalashtirilgan bo‘lishi kerak. Uning mazmuni va hajmini tanlash talabalarga statik fikrlashdan bitta mavzu doirasida ko‘proq harakatli fikrlashga o‘tish, ilgari olingan bilimlarni amalda qo‘llash, turli moslashuvlarga ega bo‘lish imkoniyatini beradigan tarzda amalga oshirilishi kerak. O‘qituvchi “Muhandislik va kompyuter grafikasi” kursini o‘qitishning dastlabki bosqichlarida, o‘z navbatida talabadan olgan bilimlarni dasturning boshqa fanlariga ishlashni talab qiladigan assosiativ fond yaratishga e’tibor berishi kerak. “Muhandislik va kompyuter grafikasi”ning “Transport vositalar muhandisligi” ixtisosligi dasturining fanlari bilan mumkin bo‘lgan aloqalarini tasniflab, uni geometrik tasvirlarga (silindr - ikki o‘lcham, konus – ikkita turli o‘lcham, kesilgan konus - uchta turli o‘lcham va boshqalar) taalluqli deb hisobladik.

“Muhandislik va kompyuter grafikasi” kursining o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan ko‘rinadigan aloqalari aniq va qo‘shimcha izohlarni talab qilmaydi: shunday qilib ko‘rinadigan bevosita aloqalar toifasini tuzish usullari tarkibga ta’sir qiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari kollaborativ o‘qitish texnologiyalarining nemis tilini o‘qitish jarayonida kompleks pedagogik samaradorlikka ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi. Tadqiqot doirasida olib borilgan nazariy tahlillar hamda amaliy tajriba-sinov ishlari shuni ko‘rsatdiki, hamkorlikka asoslangan ta’lim modeli talabalarning nafaqat lingvistik bilimlarini chuqurlashtirish, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ham muhim omil hisoblanadi.

Aniqlanishicha, kollaborativ o‘qitish muhitida tashkil etilgan o‘quv faoliyati talabalarning kommunikativ kompetensiyasini tizimli ravishda rivojlantiradi. Bunda til materiallarini o‘zlashtirish jarayoni sun’iy emas, balki real kommunikativ vaziyatlarga yaqinlashtirilgan holda amalga oshiriladi. Natijada talabalar til birliklarini faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy nutq faoliyati orqali egallaydi. Bu esa o‘z navbatida ularning og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarining integrallashgan holda rivojlanishiga olib keladi.

Tadqiqot davomida munozaraga asoslangan kollaborativ metodlarning didaktik salohiyati alohida namoyon bo‘ldi. Mazkur metodlar talabalarning kognitiv faolligini oshirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, turli nuqtayi nazarlarni qiyoslash hamda asoslangan xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bunday faoliyat turi talabalar tafakkurining refleksiv va analitik komponentlarini rivojlantirib, ularni mustaqil qaror qabul qilishga yo‘naltiradi.

Kollaborativ o‘qitish jarayonida shakllanadigan ijtimoiy interaksiya mexanizmlari ham alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Guruhli faoliyat davomida talabalar o‘rtasida ijtimoiy hamkorlik, o‘zaro mas’uliyat va akademik qo‘llab-quvvatlash muhitining yuzaga kelishi ularning ijtimoiylashuv darajasini oshiradi. Bu esa ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tashkil etish imkonini beradi hamda har bir talabaning individual salohiyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari kollaborativ o‘qitish texnologiyalarining yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o‘rnini ham tasdiqladi. Guruh ichidagi rollar taqsimoti, vazifalarni muvofiqlashtirish va muhokama jarayonlarini boshqarish kabi faoliyat turlari talabalar orasida liderlik sifatlarining tabiiy shakllanishiga olib keladi. Bu jarayonda tashabbuskorlik, strategik fikrlash, kommunikativ moslashuvchanlik hamda qaror qabul qilish kompetensiyalari rivojlanadi. Natijada talabalar nafaqat ijrochi, balki tashabbus ko‘rsatuvchi va jarayonni boshqaruvchi subyekt sifatida shakllanadi.

Tadqiqotning yana bir muhim ilmiy natijasi shundan iboratki, kollaborativ o‘qitish texnologiyalarini samarali joriy etish o‘qituvchining metodik kompetentligini yangicha darajada tashkil etishni talab qiladi. O‘qituvchi o‘quv jarayonining markaziy figurasi sifatida emas, balki fasilitator, moderator va pedagogik

jarayonni boshqaruvchi subyekt sifatida faoliyat yuritishi zarur. Bu esa ta’lim jarayonida demokratik va interfaol muhitni shakllantirishga imkon beradi.

Umumlashtirgan holda aytish mumkinki, kollaborativ o‘qitish texnologiyalari nemis tilini o‘qitish metodikasida innovatsion yondashuv sifatida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, ularning intellektual va ijtimoiy faolligini oshirish hamda yetakchilik qobiliyatlarini shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega. Ushbu texnologiyalarni ta’lim amaliyotiga keng tatbiq etish zamonaviy ta’limning kompetensiyaviy yondashuv talablariga to‘liq javob beradigan, mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faol va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Johnson D. W., Johnson R. T., Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive and Individualistic Learning – Boston, 1999.
2. Richards J. C., Rodgers T. S., Approaches and Methods in Language Teaching – Cambridge, 2001.
3. Vygotsky L. S., Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes – Cambridge, 1978.
4. Harmer J., How to Teach English – London, 2007.
5. Пассов Э. И., Коммуникативный метод обучения иностранному языку – М., 1991.
6. Slavin R. E., Cooperative Learning: Theory, Research and Practice – Boston, 1995.
7. Jalolov J. J., Chet til o‘qitish metodikasi – T., 2012.
8. Brown H. D., Principles of Language Learning and Teaching – New York, 2000.
9. Бим И. Л., Теория и практика обучения немецкому языку – М., 2002.

O‘QUVCHILARDA KOMPYUTERNING TEXNIK VA DASTURIY TA’MINOTIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA TAYANILADIGAN TAMOYILLAR

Juraboyev Almir Jamshidovich,
Navoiy davlat universiteti
“Raqamli texnologiyalar” kafedrasi o‘qituvchisi
almirjuraboyev3@gmail.com

Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan o‘quvchilarga kompyuterning texnik va dasturiy ta’minotiga oid kompetensiyalarini shakllantirishda tayaniladigan tamoyillarga doir olib borilgan izlanishlar tahlili va dolzarb muammolari o‘rganilgan. Shuningdek, informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda va o‘quvchilarning kompyuterning texnik va dasturiy ta’minotiga oid kompetensiyalarini shakllantirishda tayaniladigan tamoyillar ishlab chiqilgan. Ushbu tamoyillar asosida umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining kompyuterning texnik va dasturiy ta’minotiga oid mantiqiy, kreativ, kognitiv fikrlashnini rivojlantirishga va kompetentligini shakllantirish mustaqil ishlash imkoniyatlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *axborot texnologiya, kompyuter, texnik, dasturiy ta’minot, ijodiy qobiliyat, kompetensiya, tamoyil, mantiqiy, kreativ, kognitiv,informatika, professional,metodika, motivatsiya, algoritmik, dinamik grafiklar, animatsiya, audio muhitlar, modellashtirish.*

ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ В ОБЛАСТИ ТЕХНИЧЕСКОГО И ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ КОМПЬЮТЕРА

В данной статье анализируются исследования и актуальные проблемы, касающиеся принципов формирования у учащихся общеобразовательных школ компетенций в области технического и программного обеспечения компьютера на уроках по предмету “Информатика и информационные технологии”. Также разработаны принципы, на которые следует опираться для повышения эффективности преподавания информатики и информационных технологий и формирования у учащихся компетенций в области технического и программного обеспечения компьютера. На основе этих принципов представлены возможности для самостоятельной работы, направленной на развитие логического, креативного, когнитивного мышления и формирование компетентности учащихся общеобразовательных школ в сфере технического и программного обеспечения компьютера.

Ключевые слова: *информационные технологии, компьютер, техническое обеспечение, программное обеспечение, творческие способности, компетенция, принцип, логический, креативный, когнитивный, информатика, профессиональный, методика, мотивация, алгоритмический, динамическая графика, анимация, аудиосреды, моделирование.*

PRINCIPLES UNDERLYING THE FORMATION OF STUDENTS’ COMPETENCIES IN COMPUTER HARDWARE AND SOFTWARE

This article analyzes research on the principles that underpin the formation of students' computer hardware and software competencies in the "Informatics and Information Technologies" subject at general secondary schools, and also examines current challenges. Furthermore, principles have been developed to increase the effectiveness of teaching informatics and information technology and to build students' competencies related to computer hardware and software. Based on these principles, opportunities are presented for general secondary school students to work independently, thereby developing their logical, creative, and cognitive thinking and forming their competence in computer hardware and software.

Keywords: *information technology, computer, technical, software, creative ability, competence, principle, logical, creative, cognitive, informatics, professional, methodology, motivation, algorithmic, dynamic graphics, animation, audio environments, modeling.*

Kirish. Bugungi kunda informatika va axborot texnologiyalari sohasining rivojlanishi hamda kompyuter amaliy dasturlarining takomillashuvi tufayli o‘quvchilarning kompyuterning texnik va dasturiy ta’minotiga oid kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun o‘quvchilarning kompyuterlarga texnik xizmat ko‘rsatishga oid mantiqiy, kreativ va kognitiv fikrlashini shakllantirish xususiyatini belgilaydigan asosiy qoidalarni, ta’lim metodlarini qo‘llashni yangicha yondashuvlarini hamda o‘qitish samaradorligini oshirishda tayaniladigan tamoyillarni aniqlashtirish, agar lozim bo‘lsa ularni takomillashtirishni taqozo etadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Bu borada, ya’ni ta’lim jarayonida elektron ta’lim resurslardan, virtual ta’lim texnologiyalaridan va masofaviy ta’limdan foydalanish yuzasidan tayaniladigan tamoyillariga oid mamlakatimiz va Mustaqil davlatlar hamdo‘stligida U.B.Baxodirova [1], U.M.Mirsanov [2], N.N.Xaxonova [3], T.V.Plaxotya [3], P.M.Jalolova [4], I.V.Serjenko [5], M.H.Lutfillayev [6], A.V.Obrubova [7], J.J.Karbozova [8], A.A.Abduqodirov [9], U.Sh.Begimqulov [10], N.I.Tayloqov [10], R.Hamdamov [10]lar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Xususan, U.B.Baxodirova [1], N.N.Xaxonova [3], T.V.Plaxotya [3], P.M.Jalolova [4]lar oliy ta’lim muassasalarining ta’lim va tarbiya jarayonida virtual ta’lim texnologiyalardan foydalanishda tayaniladigan tamoyillarga oid tadqiqot ishlarini olib borgan. A.A.Abduqodirov [9], I.V.Serjenko [5]lar ta’lim va tarbiya jarayonida masofaviy ta’limdan foydalanishda tayaniladigan tamoyillarni ishlab chiqqan. M.H.Lutfillayev [6] oliy ta’lim o‘quv jarayonini takomillashtirishda axborot texnologiyalarini integratsiyalashga oid tamoyillarni takomillashtirgan. U.Sh.Begimqulov [10], N.I.Tayloqov [10], R.Hamdamov [10], A.V.Obrubova [7], J.J.Karbozova [8]lar o‘quv jarayoni uchun elektron ta’lim resurslarni yaratish va joriy etishda foydalaniladigan tamoyillarni taklif etgan.

Ushbu olimlarning ishlarida oliy ta’lim muassasalarida aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda axborot texnologiyalari vositalaridan hamda masofaviy o‘qitish tizimlaridan foydalanishda tayaniladigan tamoyillarga oid izlanishlar olib borilgan. Ammo ularning tadqiqotlarida informatika va axborot texnologiyalarga oid fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirishda va talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishda axborot texnologiyalardan foydalaniladigan tamoyillarga e’tibor qaratilmagan.

Shuningdek, uzluksiz ta’lim tizimida informatika va axborot texnologiyalariga oid fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirishda, o‘quvchi-talabalarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid mantiqiy, algoritmik, kreativ, kognitiv fikrlashini hamda kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda tayaniladigan tamoyillarga oid tadqiqotlar U.M.Mirsanov [12] A.O.Norbekov [11]lar tomonidan olib borilgan.

Xususan, U.M.Mirsanov uzluksiz ta’lim tizimida dasturlash tillarini o‘qitish samaradorligini oshirishda va o‘quvchi-talabalarning dasturlashga oid mantiqiy, algoritmik, kreativ va kogntiv fikrlashini rivojlantirishda tayaniladigan tamoyillarni ishlab chiqqan [12]. A.O.Norbekov pedagogika oliy ta’lim muassasalarida “Kompyuter ta’minoti” fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda va talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishga oid tamoyillarni takomillashtirgan[11].

Mazkur olimlarning ishlarida informatika va axborot texnologiyalariga oid fanlarni o‘qitishda tayaniladigan tamoyillarga doir izlanishlar olib borilgan. Lekin ularning tadqiqotlari asosan professional va oliy ta’lim tizimida o‘qitiladigan informatika va axborot texnologiyalariga oid fanlarga qaratilgan.

Shu bilan birga U.M.Mirsanov umumiy o‘rta ta’lim maktablarida matematika fanini amaliy dasturlar yordamida o‘qitishda tayaniladigan tamoyillarni ishlab chiqqan [2]. A.B.Janzakov umumiy o‘rta ta’lim maktablarida geografiya fanini axborot texnologiyalari vositalari yordamida o‘qitishda tayaniladigan tamoyllarni takomillashtirgan [13]. J.A.Elmurodov geometriya fanini o‘qitishda ochiq axborot-ta’lim muhitlarini yaratish va foydalanishda tayaniladigan tamoyillarni ishlab chiqqan [14].

Mazkur nomlari qayd etilgan olimlarninig ishlarida axborotlashtirish sohasida tayaniladigan tamoyillarning aksariyati quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilgan:

- zamonaviy ta’limdagi muammolar va qarama-qarshiliklarni bartaraf etish;
- kompyuterlashtirishning pedagogik-psixologik muammolari va o‘qitishda axborot texnologiyalari vositalarini imkoniyatlari; ta’limda axborot texnologiyalarni joriy etish tendensiyalari;
- ta’limda axborot muhitini shakllantirish va undan foydalanish strategiyasi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fanlarni axborot texnologiyalar yordamida o‘qitishda foydalaniladigan tamoyillarni ishlab chiqqan bo‘lsa-da, biroq informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda va o‘quvchilarning kompyuterning texnik va dasturiy ta’minotiga oid kompetensiyalarini shakllantirishda tayaniladigan tamoyillarga e’tibor qaratilmagan. Chunki fanlarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ularga tayaniladigan tamoyillar ham o‘zgaradi. Shuning uchun o‘quvchilarning kompyuterni texnik va dasturiy ta’minotiga oid kompetensiyalarini shakllantirishda, ularning psixologik va psixfiziologik xuxusiyatlaridan kelib chiqqan holda yondashish lozim.

Bu borada U.M.Mirsanovning fikriga ko‘ra, o‘quv jarayonida axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanilganda o‘quvchilarning psixologik va psixofiziologik xususiyatlariga muvofiq ish olib borilsa, bu

ularning bilimlarni yaxshi o‘zlashtiradi [2]. K.D.Ushinskiy o‘qitishda texnik vositalardan foydalanish, o‘quvchining diqqatlilik, barqarorlik, e’tiborlilik darajasi, e’tiborning taqsimlanishi kabi talabalarga amal qilishni ta’kidlagan. Uning bildirishicha, texnik vositalardan foydalanishda fanni xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondashini taklif etgan [15]. Ushbu masalalar bo‘yicha Hindistonlik olim Segata Mitra bir qancha tajribalar o‘tkazib, ta’lim samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni taklif etgan. Uning ta’kidlashicha, axborot texnologiyalardan foydalanishda fanlarni xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yodashishni va tayaniladigan tamoyillarni moslashtirishni taklif etgan [16]. U.M.Mirsanovning bildirishicha, umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarining fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda elektron ta’lim resurslardan va amaliy dasturlardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi [2].

Mazkur masalalar bo‘yicha V.A.Krasilnikova izlanishlar olib borgan bo‘lib, uning [17] bildirishicha, kompyuter ta’limida qo‘llanilanadigan tamoyillar quyidagicha bo‘lishi kerak: ijtimoiy shart-sharoit, fan va ta’lim. O‘quvchilarni davlat va jamiyatga tayyorlashda muvofiqlikni ta’minlash zarurligini belgilash; mashg‘ulotning amaliy yo‘nalishi. Uzoq hududlardagi o‘quvchilarning amaliy ehtiyojlarini ta’minlash; maqsadga yo‘naltirilgan hamda tizimli va izchil o‘rganish.

Ta’lim yo‘nalishida mantiq va tartibni belgilash jarayoni; oddiydan murakkabga o‘tish. O‘quv mashg‘ulotini o‘quvchiga tushuntirishda soddalikdan murakkablikka o‘tish; o‘quvchilarning faoliyati va faolligini o‘quv jarayonida ishtirok etishlari nuqtai nazaridan belgilash jarayoni; umumiy professional malakaning asosiy tarkibiy qismlarini o‘zlashtirishning ta’siri hamda ta’limga ajratilgan individual yondashuv; mazmunning murakkabligi va o‘qitishning metodik jihatdan o‘zaro bog‘liqligi.

Ta’lim tamoyillarining asosiy g‘oyalari har qanday boshlang‘ich nazariya, qonun, ta’lim konsepsiyasi negiziga bog‘liq hisoblanadi. Tamoyillar to‘plami muayyan uslubiy yoki mafkuraviy asosga ega konseptual tizimni tashkil etadi. Turli pedagogik tizimlar (texnologiyalar) ta’limga oid qarashlar va amaliyotga tatbiq etadigan tamoyillari tizimidan farq qilishi mumkin. Shuning uchun bir tomondan tamoyillar ta’lim nazariyasining ba’zi metodologik asoslarini ta’riflaydi, boshqa tomondan ular amaliy faoliyatni tashkil etish uchun me’yoriy talablar kabi vazifalarni bajaradi [18].

Bu borada T.Utebayevning [19] fikriga ko‘ra, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda o‘qitishning tarbiyalovchi va kamol toptiruvchi, ilmiylik, tizimlilik va izchillik, ta’limning amaliy hayot bilan bg‘lanishi, onglilik va faollik, ko‘rsatmalilik, tushunarlilik, puxtalik tamoyillariga tayaniladi. Ushbu fikrlarni U.M.Mirsanov [2] va M.H.Lutfillayevning ishlarida ham ko‘rish mumkin [6]

Ammo fanlarning mazmuniga, o‘quvchilarning psixologik xususiyatlariga va ko‘rsatmali qo‘llanmalar mavjudligiga bog‘liq holda tayaniladigan tamoyillar mazmuni o‘zgaradi. Masalan, ko‘rsatmalilik tamoyili matematikani o‘qitish jarayonida grafiklarni, sohalarni va geometrik shakllarni namoyish etishda qo‘l kelsa, tillarni o‘qitishda grammatika jadvallarini ko‘rsatish, doskaga yozish, chizmalarni chizish kabilardan foydalanish foydali bo‘lishi mumkin [2]. Informatika va axborot texnologiyalarga oid fanlarni o‘qitishda videoroliklar, videodarslar va virtual texnologiyalardan foydalanish samarali hisoblanadi.

Aksariyat tadqiqotchilar ta’lim mazmunini belgilovchi axborotning hajmi va murakkabligi ortib borishi bilan o‘quvchilarning o‘qitish vaqti va intellektual imkoniyatlarining cheklanganligi o‘rtasidagi ziddiyatni qayd etadilar: kompyuter muhiti bilan tanish bo‘lgan o‘quvchilarning motivatsiyasi va ularga taklif etilayotgan an’anaviy mazmun hamda o‘qitish usullari o‘rtasida; kompyuter texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari va o‘qitishda, ulardan foydalanish samarasizligi o‘rtasida. Shuning uchun umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarini informatika va axborot texnologiyalariga, jumladan kompyuterning texnik va dasturiy ta’minotiga oid kompetensiyalarini shakllantirishdagi muammolari va qarama-qarshiliklarini hal qilish uchun zamonaviy yondashuvlarni, strategiyani va ta’lim jarayonida undan foydalanishning yangi usullarini ishlab chiqish kerak.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Olib borilgan izlanishlar tahliliga ko‘ra, umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining kompyuterning texnik va dasturiy ta’minotiga oid kompetensiyalarini shakllantirish uchun ham axborot texnologiyalari, ham didaktik jihatdan yangi talablarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun Informatika va axborot texnologiyalariga oid fanlarni o‘qitish va o‘quvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid mantiqiy, algoritmik fikrlashini rivojlantirish va kompetensiyalarini shakllantirishda didaktik tamoyillarning takomillashtirish lozim.

Shu bois, ilgari surilayotgan tadqiqotda umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining axborot texnologiyalariga, shu jumladan kompyuterni texnik va dasturiy ta’minotiga oid kompetensiyalarini shakllantirishda tayaniladigan tamoyillar takomillashtirildi. Tamoyillarni takomillashtirishda U.M.Mirsanov, A.B.Jonzakov, J.Elmurodov, A.O.Norbekovlarning tadqiqotlaridan foydalanildi:

1. Ta’limni hayot bilan bog‘lash tamoyili. Bu kompyuterning texnik va dasturiy ta’minotini o‘qitishda falsafiy, pedagogik va psixologik tamoyillar mantiqiga tayanadi: o‘qitishning samaradorligi va sifati tekshiriladi, asoslanadi va amaliyotda foydalaniladi; kognitiv faoliyat manbayi va ta’lim natijalari

qo‘llaniladi; informatika fanini, jumladan kompyuterlarga texnik xizmat ko‘rsatishni o‘rganish va hayot o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlashni nazarda tutadi.

2. Ilmiy o‘qitish tamoyili. Ushbu tamoyil o‘quvchilarga kompyuterning texnik va dasturiy ta’minotiga oid mavzularni o‘rgatishda ilm-fan mazmunini belgilaydi hamda unga nafaqat an’anaviy ilmiy bilimlarni, shu jumladan birlamchi manbalarni, balki fanning fundamental qoidalarini va uning rivojlanish istiqbollari masalalarini ham kiritishni talab qiladi. Shu bilan birga, o‘quv materialini o‘zlashtirish zamonaviy ilmiy bilish usullariga mos kelishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompyuterning texnik va dasturiy ta’minotiga oid o‘quv materialini taqdim etishga tizimli yondashish va asosiy tushunchalar hamda ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishlarni va zamonaviy ilmiy bilimlardan foydalanishni anglatadi. Bu birinchi navbatda, kompyuterning texnik va dasturiy ta’minotini kengroq tushunchalarini ko‘rib chiqishga imkon beradi.

Bunda o‘quvchining dunyoqarashi, fundamental bilimlarga ega bo‘lib, boshqa fanlar, xususan matematika va fizika fanlari bilan bog‘lash, ularni o‘zaro aloqadorlikda o‘rganish va qurish, shu orqali yanada to‘liq va ilmiy tushunchalarga ega bo‘lishdan iborat. Bu tamoyil maktab o‘quvchilarida o‘qitish natijasida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, kompyuterni texnik qurilmalarini ishlash algoritmlari haqidagi bilimlar tizimini umumlashtirishni anglatadi. Shuningdek, mazkur tamoyil kompyuterning texnik va dasturiy ta’minotini dars va darsdan tashqari vaqtlarda o‘quvchilarni ma’lum bir mavzuning ilmiy faktlar, qonuniyatlar, asosiy nazariyalar, tushunchalar bilan tanishtirishga, uning so‘nggi yutuqlari va rivojlanish istiqbollarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

3. Mavjudlik tamoyili. Kompyuterning texnik va dasturiy ta’minotini o‘qitishda mavjudlik tamoyili ma’lum bir yoshdagi o‘quvchilar ta’lim maqsadiga erishish uchun umumiy foydalanishdan individual foydalanishga o‘tishni imkonini beradi. Kompyuterda o‘qitishda amalga oshiriladigan o‘quv materiali mantiqiy tarmoqlar, turli yo‘llar va o‘quv kursini yakunlash tezligi, tushuntirishlar, maslahatlar, qo‘shimcha ko‘rsatmalar va topshiriqlar ko‘rinishidagi yordamni nazarda tutadi hamda doimiy ravishda motivatsiyani oshirib boradi.

4. Taqdimotli o‘qitish tamoyili. Mazkur tamoyil kompyuterning texnik va dasturiy ta’minotiga oid obyekt, jarayon va hodisalarni namoyish etish orqali o‘quvchilarni kognitiv fikrlashni va kompetensiyalarini shakllantirish hamda vizual ta’lim olish imkoniyatini yaratadi. Ushbu tamoyil kompyuterning texnik va dasturiy ta’minotiga oid mavzularni o‘qitish texnologiyasining tashkiliy va uslubiy asosi bo‘lgan didaktik o‘qitish vositalardan foydalanishni talab etadi. Bu borada U.M.Mirsanovning fikriga ko‘ra, fanni o‘qitishda turli xil o‘quv vositalaridan (statik va dinamik grafiklar, animatsiya, audio muhitlar, modellashtirish muhitlari va boshqalar) foydalanish, fanni o‘qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi [2]. U.Lidvell [20], K.Xolden [20], D.Batler [20], S.Uensheyk [21]larning fikrlariga ko‘ra, taqdimotli o‘qitish tamoyilini ta’lim jarayoniga qo‘llashda ilmiy asoslanmagan o‘quv vositalaridan, ya’ni multimedia effektlarining meyor darajadan yuqoriligini tayyorlangan materialning sifatini yaxshilashga emas, balki uni idrok etish sifatini pasayishiga olib keladi. Shuning uchun o‘quvchilarning kompyuterning texnik va dasturiy ta’minotiga oid kompetensiyalarini shakllantirishda o‘quv jarayoniga pedagogik, psixologik va psixofiziologiya talablar asosida yaratilgan hamda tajriba-sinovdan o‘tkazilgan taqdimotli ta’lim resurslardan, shu jumladan virtual ta’lim texnologiyalaridan, 3 D formatli o‘quv vositalarida, videodarslardan foydalanishni nazarda tutadi.

5. Tizimlilik va izchillik tamoyili. Ushbu tamoyil o‘quv materialini tashkil etish bilan ham, uni o‘zlashtirish uchun o‘quvchining harakatlari tizimi bilan ham bog‘liq. Bunda muayyan harakatlar ketma-ketligi bilan tavsiflanadi, ularning ba’zilari har qanday shaklda o‘rganishga xosdir, ba’zilari esa faqat kompyuterga asoslangan (A.O.Norbekov [22]). Izchillik tamoyilini ta’minlash uchun kompyuter mashg‘ulotlari boshlanishida o‘quvchiga harakat uchun indikativ asos berilishi va o‘quv maqsadini shakllantirish foydalidir. O‘quvchini maqsadga olib boradigan yo‘lning murakkabligi qat’i nazar, bu tizimli va izchil amalga oshiriladi. Kompyuterning texnik va dasturiy ta’minotiga oid izchillik deganda dasturi bo‘yicha o‘quv qismlarini berish tartibi, o‘quvchining mustaqil ishi davomida eng samarali ketma-ketlikni qurish va sozlash tushuniladi. O‘quv materialining mazmuniga qarab, o‘quvchiga bilim berish ketma-ketligi induktiv yoki deduktiv usul bo‘lishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan tamoyillar umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarini kompyuterning texnik va dasturiy ta’minotiga oid kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishini inkor etib bo‘lmaydi. Biroq kompyuterning texnik va dasturiy ta’minotiga oid mavzular ta’limning asosiy didaktik tamoyillarining o‘zgarishi bilan o‘zaro bog‘liqdir. Shuning uchun o‘quvchini kompyuterning texnik va dasturiy ta’minotiga oid kompetensiyalarini shaklantirishda yuqorida keltirilgan tamoyillar bilan birga quyidagilarga amal qilish muhim sanaladi:

1. Ta’lim olishga qiziqtirish tamoyili. Ushbu tamoyil o‘quvchining raqamli texnologiyalarga oid kognitiv fikrlashini rivojlanish uchun ichki ehtiyojiga asoslanadi. Ehtiyojlarning o‘zgarishi shaxsiy

o‘zgarishlar sifatida qayd etiladi [23]. Shu bois, mazkur tamoyil o‘quvchilarning kompyuterning texnik va dasturiy ta’minotiga oid kompetensiyalarini shakllantirishda didaktik elektron o‘quv vositalardan va motivatsiya uyg‘otadigan amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lishini nazarda tutadi.

2. **Individual ta’lim olish tamoyili**. Mazkur tamoyil kompyuterning texnik xizmat ko‘rsatishni va unga operatsion tizimlarni, amaliy va instrumentalar dasturlarni o‘rnatish hamda sozlashni individual o‘rganishni nazarda tutadi. Shuning uchun taklif etilayotgan tamoyil kompyuterning texnik xizmat ko‘rsatishni va unga operatsion tizimlarni, amaliy va instrumental dasturlarni o‘rnatish hamda sozlashni o‘rgatishda axborot-ta’lim muhitlariga joylashtirilgan videodarslardan va videolavhalardan foydalanishdan iborat. Buning natijasida, o‘quvchilarning kompyuterlarga texnik xizmat ko‘rsatishga oid qiziqishini oshirish orqali, ularni kreativ fikrlashini hamda kompetentligi rivojlantirishga erishiladi.

3. **Ochiqlik va moslashuvchanlikni ta’minlash tamoyili.** Ochiqlik va moslashuvchanlik tamoyili informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda, shu jumladan o‘quvchilarning kompyuterning texnik va dasturiy ta’minotiga oid kompetensiyalarini shakllantirishda, ularni individual imkoniyatlariga, ya’ni, o‘qitish jarayonida psixologik xususiyatlariga moslashtirilgan bo‘lishi hamda quyidagilarga e’tibor qaratilishi kerak: o‘quv materialini o‘rganishda ochiq muhitlardan foydalanish asosida foydalanish imkoniyati; holatining diagnostik tahlili; kontingenti uchun imkon darajasida ko‘p variantliligi.

4. Interaktivlik tamoyili. Ushbu tamoyil keng ma’noda har qanday subektlarning bir-biri bilan o‘zaro ta’siri va ular uchun mavjud vositalar hamda usullardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bunday holda, har ikki tomonning muloqotida faol ishtirok etish nazarda tutiladi: onlayn savol-javoblar almashinuvi, muloqot jarayonini boshqarish, qabul qilingan qarorlarning bajarilishini nazorat qilish va boshqalar.

Interaktivlik o‘quv jarayonini – o‘zaro ta’sirning asosiy xususiyatlaridan birini aks ettiradi. U aloqa texnologiyalarining sifat va samaradorlik mezonlari sifatida baholanadi. Zamonaviy AKT (gipertexnologiya, multimedia, 3-D tizimi, sun’iy aql va boshqalar) asosida yangi o‘qitish uslublarini ishlab chiqish interaktivlik tamoyilini amalga oshirishni anglatadi. Shuningdek, har ikkala tomon (o‘qituvchi va o‘quvchi)ning muloqotida faol ishtirok etadi: savol va javoblar almashinuvi, suhbat jarayonini boshqarish, qabul qilingan qarorlarning bajarilishini nazorat qilish va boshqalar.

5. Ta’lim jarayonini faollik asosida va kognitiv istiqbolda qurish tamoyili. Ushbu tamoyil o‘quvchilarni yangi materialni idrok etishga samarali tayyorlashga yordam beradi, ularning bilim faolligini faollashtiradi, o‘quv motivatsiyasini oshiradi va boshqa pedagogik funktsiyalarni bajaradi. Taklif etilayotgan tamoyil maktab darsligida berilgan manbalar bilan birga qo‘shimcha sifatida zamonaviy bilimlarni egallashni nazarda tutadi. Bunda o‘qituvchi kognitiv istiqbol stimulidan foydalanishni taqozo etadi: kognitiv qiziqish; izlanish rag‘bati; o‘quvchining bilim qobiliyati; o‘ziga ishonch tuyg‘usini oshirish. Shuning uchun o‘quvchilarning kompyuterning texnik va dasturiy ta’minotiga oid kompetensiyalarini shakllantirishda darsliklarda berilgan manbalar bilan birga kompyuterning zamonaviy qurilmalarini va yangi amaliy dasturlarini imkoniyatlarini o‘rgatishni anglatadi.

6. Fanga oid o‘quv ma’lumotlarni mustaqil ravishda topish orqali ta’lim olish tamoyili. Ushbu tamoyil o‘quvchilarni mustaqil ravishda ma’lumotlarni qidirish orqali ta’lim olishni nazarda tutadi. Bunda kompyuterning texnik va dasturiy ta’minotiga oid o‘quv-ma’lumotlarni qidiruv faoliyati tamoyili amalga oshirishda Internet tarmog‘idagi axborot-ta’lim muhitlaridan, ta’lim portallaridan, ta’limga oid veb-saytlardan va google xizmatlaridan foydalanib o‘qitishni amalga oshirishdan iborat (V.A.Krasilnikova [17]). Ushbu muhitlarda axborotni izlash, yangi bilimlarni egallash belgilangan maqsadlarga erishish uchun o‘quvchining kompetensiyalarini shakllantirish hamda ichki idrok etish – faoliyat ma’nosiga mos motivni shakllantiradi. Shuningdek, ushbu tamoyil kompyuterning texnik va dasturiy ta’minotini darsdan tashqari vaqtda o‘rganishni nazarda tutadi. Bunda o‘quvchilar kompyuter qurilmalarini sozlashni va yig‘ishni hamda amaliy dasturlarni o‘rnatish va sozlashni mustaqil ravishda o‘zlashtiradi. Bu esa benihoyat global tarmoqqa mo‘ljallangan zamonaviy o‘qitish tizimlaridan va axborot texnologiya markazlaridan foydalanishni nazarda tutadi.

7. Muammoli va rivojlantiruvchi ta’lim tamoyili. Bu tamoyil ketma-ket murakkablashtiruvchi topshiriqlar yoki savollar orqali o‘quvchilar tafakkurida muammoli vaziyatni yaratishni nazarda tutadi. Bunda o‘quvchilar undan chiqish (yechish yoki javob topish) uchun u mavjud bilimlari yetishmaydi va u faol shakllanishga majbur bo‘ladi. Yangi bilimlarni o‘qituvchi yordamida va barcha o‘quvchilar ishtirokida, o‘zgalar bilimi hamda o‘zining kasbiy tajribasi, mantiqiy va sog‘lom fikrga asoslangan holda amalga oshirishga yo‘naltiradi. Taklif etilayotgan tamoyil o‘quvchilarning kompyuterning texnik va dasturiy ta’minotiga oid yangi bilimlarni tayyor formulalarda emas, balki o‘zining faol kognitiv faoliyati natijasida olishni anglatadi.

8. O‘zini-o‘zi baholash va nazorat qilish tamoyili. Mazkur tamoyil o‘quvchilarni kompyuter qurilmalarini yig‘ish, sozlash hamda amaliy dasturlarni o‘rnatish va sozlashga oid o‘zini-o‘zi mustaqil ravishda baholashni, nazorat qilishni nazarda tutadi. Buni benihoyat mustaqil ravishda kompyuter qurilmmlarini yig‘ish, kompyuterga amaliy va instrumental dasturlarni o‘rnatib ko‘rishni anglatadi. Bunda o‘quvchilar kompyuterning texnik va dasturiy ta’minotiga oid ma’lumotlarni tahlil va sintez qilishni, natijalarni umumlashtirish, mantiqiy fikrlashini oshirish kabi imkoniyatlarga ega bo‘ladi.

9. O‘quv natijalarining mustahkamligi va samaradorligi tamoyili. Ushbu tamoyil kompyuterning texnik va dasturiy ta’minotiga oid dars mashg‘ulotlarida egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarni oshirishni nazarada tutadi. Bularni amalga oshirishda globalal tarmoqning imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

10. Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlik tamoyili. Bu borada U.M.Baxodirova [1] va P.M.Jalolova [4]larning fikriga ko‘ra, ushbu tamoyil fanning nazariy va amaliy o‘quv mashg‘ulotlarini o‘zaro bog‘liqligini ta’minlashni talab etadi. Bunda kompyuter qurilmalarni yig‘ish va sozlashda hamda kompyuterlarga amaliy, instrumental dasturlarni o‘rnatish va sozlshga oid darslarda olingan nazariy bilimlarni darsdan tashqari vaqtlarda qo‘llashni talab etadi. Ya’ni, mustaqil ravishda kompyuter qurilmalarini yig‘ishni, sozlashni va amaliy dasturlarni o‘rnatishni anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan tamoyillar asosida umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining kompyuterning texnik va dasturiy ta’minotiga oid mantiqiy, kreativ, kognitiv fikrlashnini rivjlantirishga va kompetentligini shakllantirishga erishish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Baxodirova U.B. Mikrobiologiya fanini o‘qitishda virtual ta’lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish (Pedagogika oliy ta’lim muassasalari misolida) // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Qarshi, 2020. – 156 б.

2. Mirsanov U.M.Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida matematikani amaliy dasturlar yordamida o‘qitish samaradorligini oshirish metodikasi (5–6-sinflar misolida) // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019. – 190 б.

3. Хахонова Н.Н., Плахотя Т.В. Принципы построения системы внутреннего контроля в образовательных учреждениях // Вестник. – Адыгейского государственного университета. Серия 5: Экономика. 2010. – № 2. – С. 130-138.

4. Jalolova P.M.Oliy ta’limda “Atom fizikasi”ga oid laboratoriya mashg‘ulotlarida axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019. – 152 б.

5. Серженко И.В. Дидактические принципы ДО // Инновации в образовании. 2006. – №2. – С.69-77.

6. Lutfillayev M.H. Oliy ta’lim o‘quv jarayonini takomillashtirishda axborot texnologiyalarini integratsiyalash nazariyasi va amaliyoti (Informatika va tabiiy fanlar misolida) // Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2007. – 246 б.

7. Обрубова А.В. Формирование структурно-функциональной модели электронно-образовательного ресурса по искусствознанию в условиях вузовской подготовки педагога-художника // Дисс.на соиск. учен. степ, канд. пед. наук. – Санкт-Петербург, 2015. – 239 с.

8. Карбозова Ж.Ж. Подготовка будущих учителей к проектированию электронных образовательных ресурсов // Диссертацияна соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Душанбе, 2017. – 175 с.

9. Abduqodirov A., Pardayev A. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti // Monografiya. – Toshkent, 2009. –146 б.

10. Hamdamov R., Begimkulov U., Taylaqov N. Elektron o‘quv-uslubiy majmualar // Qo‘llanma. – Toshkent, 2010. – 144 б.

11. Norbekov A.O. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida kompyuter ta’minoti fanini o‘qitish samaradorligini oshirish metodikasi // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan Dissertatsiya. – Qarshi, 2021. –171 б.

12. Mirsanov U. M. Uzluksiz ta’lim tizimida dasturlash texnologiyalarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Navoiy, 2023. – 332 b.

13. Janzakov A.B. Umumta’lim maktablarida geografiya fanini axborot texnologiyalari vositasida o‘qitish mexanizmlarini takomillashtirish // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Samarqand, 2021. – 143 б.

14. Elmurodov J.A. umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun ochiq axborot-ta’lim muhitini yaratish va joriy etish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2020. – 143 б.

15. Ушинский К.Д. Избранные педагогические сочинения // В 2-х томах. – Мд.: «Педагогика». 1974. Том 1. – С. 339- 341.

16. Yuldoshev I.A. Tarmoq texnologiyalari bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining ijodiy va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish vositasi sifatida // Zamonaviy ta’lim. – Toshkent, 2017. – № 4. – Б. 4-9.

17. Красильникова В.А. Использование информационных и коммуникационных технологий в образовании // Учебное пособие. – Оренбург, 2012. – 291 с.

18. Махотин Д.А. Принцип технологического образования // Вестник РМАТ № 1. 2016. –С. 82-85.

19. Утебаев Т. Педагогика // Маърузалар матни. – Нукус, 2008. – 64б.

20. Лидвелл У., Холден К., Батлер Дж. Универсальные принципы дизайна. – Пер. А. Мороз – СПб.: Питер, 2012. – 272 с.

21. Уэншейк С. 100 главных принципов дизайна. Как удержать внимание – СПб.: Питер, 2015. – 272 с.

22. Norbekov A.O. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida kompyuter ta’minoti fanini o‘qitish samaradorligini oshirish metodikasi // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan Dissertatsiya. – Qarshi, 2021. –171 б.

23. Mirsanov U.M. Umumta’lim maktablarida matematikani amaliy dasturlar yordamida o‘qitish samaradorligini oshirishga tayaniladigan tamoyillar // Fizika, matematika va informatika. – Toshkent, 2019. – № 2. – Б. 81-88.

KASBIY KREATIV KOMPETENTLIK - KASBIY KOMPETENTLIK VA KASBIY KREATIVLIK TUSHUNCHALAR INTEGRATSIYASI SIFATIDA

Kamolov Ixtiyor Ramazonovich,
Navoiy davlat universiteti professori

Ushbu maqolada kasbiy kompetentlik, kasbiy kreaktivlik, kreativ shaxs tushunchalari tahlil qilinib, uning mohiyati keng ochib berilgan. Mualliflik tadqiqoti natijasiga ko‘ra, kreativ shaxsga ta’rif berilib, uning metodologik jihatlari yoritilgan. Kasbiy kompetentlik va kasbiy kreativlik tushunchalarining o‘zaro integratsiyasi natijasida “kasbiy kreativ kompetentlik” tushunchasini shakllantirish mumkinligi ta’kidlanib, unga ham mualliflik ta’rifi berilgan.

Kalit so‘zlar: *ta’lim, milliy ta’lim, ta’lim tizimi, o‘qituvchi, o‘qitish, kasb, kasbiy kompetensiya, kompetentlik, kreativlik, kasbiy kreativlik, raqamli texnologiyalar, innovatsiya, innovatsion tafakkur, innovatsion yondashuv, ta’lim transformatsiyasi.*

«ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КРЕАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ» – КАК ИНТЕГРАЦИЯ ПОНЯТИЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КРЕАТИВНОСТИ

В данной статье анализируются понятия профессиональной компетентности, профессиональной креативности, креативной личности, и широко раскрывается её сущность. По результатам авторского исследования дано определение креативной личности, и освещены её методологические аспекты. Подчёркивается, что в результате взаимной интеграции понятий профессиональной компетентности и профессиональной креативности можно сформировать понятие «профессиональная креативная компетентность», и ему также даётся авторское определение.

Ключевые слова: *образование, национальное образование, система образования, учитель, обучение, профессия, профессиональная компетенция, компетентность, креативность, профессиональная креативность, цифровые технологии, инновация, инновационное мышление, инновационный подход, трансформация образования.*

“PROFESSIONAL CREATIVE COMPETENCE” – AS THE INTEGRATION OF THE CONCEPTS OF PROFESSIONAL COMPETENCE AND PROFESSIONAL CREATIVITY

This article analyzes the concepts of professional competence, professional creativity, creative personality, and broadly reveals its essence. Based on the results of the author's research, the definition of a creative personality is given and its methodological aspects are highlighted. It is emphasized that as a result of the mutual integration of the concepts of professional competence and professional creativity, the concept of "professional creative competence" can be formed, and it is also given an author's definition.

Keywords: *education, national education, education system, teacher, learning, profession, professional competence, competence, creativity, professional creativity, digital technologies, innovation, innovative thinking, innovative approach, transformation of education.*

Kirish. Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanishda bo‘lgan mamlakatimiz o‘zining milliy ta’lim tizimiga, ayniqsa uning sifatiga adolatli va qat’iy talablarini qo‘yib, bizdan zamon talablari bilan hamnafas bo‘lishimizni taqozo etmoqda. Bu talablarni amalda nuqsonsiz bajarishda oliy ta’lim muasasasalarida faoliyat olib borayotgan, kelajakda yetuk mutaxassislarni yetishtirib berishda mas’ul bo‘lgan professor-o‘qituvchilar zimmasiga ham ulkan vazifalarni yuklaydi. Bu vazifalarni samarali amalga oshirishda avvalo, ta’lim mazmuni va sifatiga bo‘lgan ijobiy munosabatni yangi bosqichga olib chiqishni talab etadi. Demak, har bir professor-o‘qituvchi o‘zning kasbiy kompetentligiga ega bo‘lishi bilan birga, ta’lim jarayoniga ijodiy yondashuvlarni ham izchil tadbiq eta olish mahoratiga ega bo‘lishi kerak.

Adabiyotlar tahlili. Kasbiy kompetentlik o‘qituvchining yangi bilimlarga intilishi, o‘zining ustida doimiy ishlashi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv mashg‘ulotlari davomida to‘g‘ri va maqsadli qo‘llay olishi, paradoks holatlarga moslashishi, zamonaviy talab va vazifalarni anglashi, murakkab vaziyatlardan ustamonlik (omilkorlik) bilan chiqishi va to‘g‘ri qarorlar qabul qilishi, ijodkorligi kabilarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Kasbiy kompetentlik o‘qituvchining kasbiy faoliyatiga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni mukammal darajada o‘zlashtirishi bilan baholanadi, bu esa jahon maydonida raqobatbardosh va yetuk malakali kadrlar tayyorlashda asosiy manba hisoblaniladi.

Kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismi hisoblangan kasbiy kreativlik bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativlik - muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativ insonni oladigan bo‘lsak, unda uning ijodiy iqtidori rivojlangan bo‘ladi.





Adabiyotlarda kreativlik yoki kreativ shaxsga nisbatan turlicha qarashlar va ta’riflar berilgan, jumladan:

- kreativ shaxs - o‘zining muammolarini bemalol hal qila oladigan yetuk shaxs;
- kreativ shaxs - muammolarni oson hal qiladigan, yashash tarzini osonlashtiradigan, o‘ziga bo‘lgan ishonchi yuqori darajada bo‘lgan odam tushuniladi;

- kreativ shaxs - shaxsiy faoliyatidagi qiziqishlari, qobilyatlarini, potensial quvvatini oshirib kasbiy faoliyatini samarali bo‘lishiga erishuvchi shaxs.

Shuningdek, amerikalik psixolog olim Torrensni aytishicha, -kreativlik yoki kreativ fikrlaydigan shaxs - har xil dolzarb muammolarni, ilmiy sohadagi qarashlarni faol muhokama qilish va ularning muqobil yechimlarini topish qobiliyatiga egadir.

A. A. Xo‘jayeva (2020) o‘zining tadqiqot ishiida raqamli ta’lim muhitida kreativlikni rivojlantirishda onlayn platformalar va interaktiv metodlarning ahamiyatini hamda raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini va muammolarni hal qilish qobiliyatini kuchaytirishga yordam berishini aytadi. T. S. Davronova (2019) gamifikatsiyaning ta’limda kreativlikni rivojlantirishdagi o‘rni haqida ilmiy ish olib borib, o‘z tadqiqotida o‘quv jarayoniga o‘yin elementlarini kiritish orqali talabalar ijodini faollashtirish mumkinligini ko‘rsatgan holda gamifikatsiya metodlari yordamida talabalar o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishlari, ularning kreativ yondashuvlarining rivojlantirishiga yordam berishini ta’kidlagan. B. I. Islomov (2022) o‘z ilmiy ishida raqamli platformalarda talabalar o‘rtasida guruhli muhokamalar va hamkorlikda ishlashning kreativ fikrlashni oshirishdagi ahamiyatini tahlil qilinib, uning fikricha, talabalarning birgalikda ishlashlari, fikr almashishlari va yangi yechimlarni ishlab chiqishlari ularning kreativ fikrlashini rivojlantirishi aytilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqoridagi ta’riflardan va shu sohaga oid uzoq yillik ilmiy-pedagogik izlanishlarimizdan kelib chiqib, kasbiy kreativlik tushunchasiga ijodiy yondashgan holda quyidagi bir necha mualliflik ta’riflarini berishimiz mumkin:

Kasbiy kreativlik – pedagogik faoliyatiga yangi g‘oyalar, ilmiy-ijodiy yondashish, ilg‘or va innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda faoliyat natijasini kashfiyot darajasiga aylantira olish;



Kasbiy kreativlik – yosh avlodni ilmning yuqori cho‘qqilarini egallashi uchun kasbiy faoliyatiga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirgan holda nostandart va noan’anaviy yondashuvlarni tadbiq qilish;

Kasbiy kreativlik – o‘zining noyob ijodiy qobiliyatlari orqali kasbiy kompetensiyasini doimiy rivojlantirib borish;

Kasbiy kreativlik – o‘zining ijodiy qobiliyatini namoyon etish orqali o‘quv jarayonlarini elektron ta’lim muhiti bilan uyg‘unlashtirish natijasida bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantira oladigan shaxs;

Kasbiy kreativlik – ijodiy fikrlash va innovatsion yondashuvlar asosida muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat yuritish;

Kasbiy kreativlik – ijodiy qobiliyatlari orqali muammolarga yechim topishda tavakkalchilikka bevosita qadam bosish.

Kreativ shaxsga nisbatan bir tomonlama emas, balki har tomonlama, ya’ni integratsiyalashgan holda qarasak yoki ta’rif bersak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Kreativ shaxsga nisbatan mualliflik tadqiqotlarimiz xulosasiga ko‘ra “*kreativ shaxs – integativ tafakkur tarzi (integrativ fikrlash qobiliyati) ga ega bo‘lgan, muammoga har tomonlama chuqur yondasha oladigan va tizimli fikrlaydigan shaxsdir”* deya ta’rif berdik.

Tahlil va natijalar. Kasbiy kreativlikka ega bo‘lgan shaxs kreativ tafakkuri shakllangan shaxsdir. Kreativ tafakkur esa, integrativ tafakkur bilan chuqur aloqadorlikka ega. Bu tafakkur shakllari bir-birini taqozo etadi, to‘ldiradi va rivojlantiradi.

Kasbiy kompetentlik va kasbiy kreativlik tushunchalarining o‘zaro integratsiyasi natijasida “kasbiy kreativ kompetentlik” tushunchasini shakllantirish mumkinligini aytib, bu tushunchaga-“*mutaxassisning kasbiy faoliyatda bilim, ko‘nikma va malakani kreativ (yangicha, original, innovatsion) tarzda qo‘llash layoqatini aks ettiradi”deb ta’riflaymiz.*

Kasbiy kreativ kompetentlikka ega shaxs albatta, ajdodlarimizga munosib avlodni tayyorlay olishi shubhasiz va u quyidagi intellektual salohiyatlarga ega bo‘lishi kerak:

Kasbiy kreativ kompetentlik – o‘zining kasbiy faoliyatiga zamonaviy g‘oya va yangiliklarni singdira oladigan, texnologik taraqqiyotning eng so‘nggi yutuqlaridan foydalanib, ilmiy g‘oya va dunyoqarashi bilan jamiyat talablariga munosib bo‘lgan yangi avlodning mustahkam poydevorini yaratuvchi;

Kasbiy kreativ kompetentlik – o‘zining kasbiy faoliyatiga nochiziqli yondashgan holda, yangi g‘oyalar va ta’lim transformatsiyasi orqali III-renessans davrining “oltin avlodi”ni ro‘yobga chiqaruvchi shaxsdir;

Kasbiy kreativ kompetentlik – yosh avlodni ilmning yuqori cho‘qqilarini egallashi uchun kasbiy faoliyatiga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni to‘la o‘zlashtirgan holda nostandart va noan’anaviy tarzdagi yondashuvlar asosida samarali natijaga olib boruvchi yetuk mutaxassis.



Ta’lim tizimimizda milliy va xalqaro tajribalarning uyg‘unlashuvi bugungi kunga kelib har bir mutaxassisning kasbiy kreativ kompetentlikka ega bo‘lishi davr talabiga aylanmoqda va buni inobatga olgan holda:

- respublikamizning barcha oliy ta’lim muassasalarida “kasbiy kreativlik asoslari” ni tanlov fan sifatida o‘qitish amaliyotini joriy etish;

- mahalliy va xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda, “kasbiy kreativlik”ni baholash mezonlari va darajalarini yagona indikatorlar tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kreativligini rivojlantirish uchun raqamli ta’lim texnologiyasiga asoslangan “Kreativ fikrlash laboratoriyasi” nomli interaktiv onlayn platforma ishlab chiqish va unda har bir talaba uchun “Kreativ tafakkur profili”ni yaratish.



Xulosa. Bugungi kunda ta’lim tizimlariga qo‘yiladigan asosiy vazifaladan biri-ta’limning amaliy tadbig‘i, natijadorligi ta’minlash hisoblaniladi. Agar ta’lim tizimiga kiritilayotgan har bir yangilik o‘zining ijobiy natijasini bera olsa, unda ko‘zlangan maqsadlar sari yana bir dadil qadam tashlagan bo‘lamiz.

Yuqorida keltirilgan tahlillar va takliflar kasbiy kreativ kompetentlikka ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etib, ushbu konsepsiyani amalga oshirish pirovard natijada ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Джораев М., Ахмедов А. Модернизация компетентности будущих учителей физики. М. // Физика в школе №7 -2015 г. -с. 20-23.

2. Izbosarov B.F., Kamolov I.R., Fatullayeva G.R., Jalilova L.H. Oliy ta’limda talaba mustaqil ishini yuqori darajaga ko‘tarish omillari. // Xalq ta’limi jurnali. 5-son. 2018.

3. Камолов И.Р., Канатбаев С.С., Омонбоева М.Э., Мансурова Ш.М. Интеграция предметов – поиск новых педагогических решений. “Наука и образование в современном мире: вызовы XXI века” V Международная научно-практическая конференция. Нур-султан, Казакстан. 130-132 стр. 2019.

4. Kamolov I.R., Axmedov A.A., Izbosarov B.F., Idiboyeva S.B., Qahhorova M.E. Elektromagnetizm fanidan fizika ta’lim yo‘nalishi talabalarining amaliy kompetentligini rivojlantirish. // “Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, № 9, 64-68-bet.

5. Kamolov I.R., Kamolova D.I., Sayfullayeva G.I., Qahhorova M. E., Boymurodov B.B. Bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliy kompetentligi va kreativ fikrlashini mavzularo bog‘lanish asosida rivojlantirish metodikasi.// “Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, № 11, 201-207-bet.

6. Axmedov A.A., Izbosarov *B.F.*, Kamolov I.R. Molekulyar fizika fanidan fizika ta’lim yo‘nalishi talabalarining eksperimental kompetentligini rivojlantirish. // Fizika, matematika va informatika jurnali. 2025, № 5, 148-156-bet.

7. Kamolov I.R., Axmedov A.A., Izbosarov *B.F.*, Idiboyeva S.B., Qahhorova M.E. Elektromagnetizm fanidan talabaning kreativ kompetentligini rivojlantirishda ijodiy yondashuv. // “Pedagogik akmeologiya” xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 2025, 8 (25), 74-78-bet.

IJTIMOIYLASHUV JARAYONIDA LIDERLIK SIFATLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Kuziyev Oybek Chuliyevich,
Qarshi davlat universitetit prorektori,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Maqolada shaxs ijtimoiylashuvining psixologik tavsifi, ijtimoiylashuv jarayonining jamiyatdagi vazifalari va guruhlarda liderlik masalalari ilmiy jihatdan tahlil etilgan bo‘lib, liderlarning shakllanishi bilan bog‘liq qonuniyatlar, ularning faoliyati, jamoa a’zolarining dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rni va roli muhim ekanligi ilmiy jihatdan ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy psixologiya, imitatsiya, ijtimoiylashuv, lider, pessimizm, individualizatsiya, jamoaviylik, norasmiy lider, guruh jamoasi, liderlar ta’siri.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЛИДЕРСКИХ КАЧЕСТВ В ПРОЦЕССЕ СОЦИАЛИЗАЦИИ

В статье с научной точки зрения анализируются психологические характеристики социализации личности, задачи процесса социализации в обществе и вопросы лидерства в группах. Раскрываются закономерности, связанные с формированием лидеров, их деятельность, а также подчёркивается важность их роли и места в формировании мировоззрения членов коллектива.

Ключевые слова: *социальная психология, имитация, социализация, лидер, пессимизм, индивидуализация, коллективизм, неформальный лидер, групповой коллектив, влияние лидеров.*

THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL SIGNIFICANCE OF LEADERSHIP QUALITIES IN THE PROCESS OF SOCIALIZATION

This article provides a scientific analysis of the psychological characteristics of individual socialization, the functions of the socialization process within society, and issues of leadership in groups. It scientifically reveals the significance of the principles related to the formation of leaders, their activities, and their place and role in shaping the worldview of team members.

Keywords: *social psychology, imitation, socialization, leader, pessimism, individualization, collectivism, informal leader, group team, leader influence.*

Kirish. Shaxsning dunyoni anglashi, o‘zini va atrofidagi insonlar bilan munosabatlarda ishtirok etishi, bu munosabatlarni tushunishi hamda o‘zaro aloqalar jarayonida o‘ziga xos individual xususiyatlarini namoyon qilishi uning jamiyat bilan uzviy bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, ushbu jarayonlarning yosh va jins omillariga bog‘liq ayrim jihatlarini tahlil qilish shundan dalolat beradiki, shaxs – bu jamiyatda yashovchi ijtimoiy mavjudotdir.

Zamonaviy psixologiya ilmiy talqiniga ko‘ra, shaxs ijtimoiy munosabatlar mahsuli bo‘lib, jamiyat taraqqiyotining faol ishtirokchisidir. Inson dunyoga individ sifatida keladi, ammo ijtimoiy muhit ta’sirida vaqt o‘tishi bilan shaxs sifatida shakllanadi. Shu bois shaxsning shakllanish jarayoni ijtimoiy-tarixiy xususiyatga ega hisoblanadi.Bolalik davridanoq individ muayyan ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirib boradi. Bu munosabatlar tarixi davomida shakllangan bo‘lib, inson yoshligidan boshlab ajdodlar tomonidan yaratilgan va takomillashtirib kelinayotgan muloqot va muomala tizimi bilan tanishadi. Oila, mahalla, jamoatchilik va mehnat jamoasi kabi ijtimoiy muhitlar insonning keyingi rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Ana shu muhit doirasida turli xususiyatga ega munosabatlar majmuasi shakllanib, ular shaxsning ongi va irodasiga bog‘liq holda uning shaxs sifatida kamol topishiga ta’sir ko‘rsatadi.Ijtimoiylashuv jarayoni jamiyatda bir nechta muhim vazifalarni bajaradi. Birinchidan, individning jamiyatga va turli ijtimoiy guruhlarga integratsiyalashuvini ta’minlaydi. Bu jarayon madaniy qadriyatlar, ijtimoiy me’yorlar va an’analarni o‘zlashtirish orqali amalga oshadi. Ikkinchidan, insonlarning ijtimoiy rollarni qabul qilishi natijasida ular o‘rtasida o‘zaro ta’sir va hamkorlik shakllanadi. Uchinchidan, ijtimoiylashuv orqali jamiyatning barqarorligi ta’minlanadi, madaniyat va ijtimoiy tajriba avloddan avlodga o‘tib boradi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Psixolog Ch. Kuli fikriga ko‘ra, shaxs ijtimoiylashuv jarayonida bir nechta bosqichlardan o‘tadi. Birinchi bosqich – imitatsiya, ya’ni bolalar kattalarning xulq-atvorini taqlid qilish orqali o‘rganadi. Ikkinchi bosqich – o‘yin, bu davrda bolalar muayyan ijtimoiy rollarni ijro etish orqali

ijtimoiy tajriba to‘playdilar. Uchinchi bosqich esa guruhiy o‘yinlar bo‘lib, bu jarayonda rollar jamiyat tomonidan kutiladigan xulq-atvor shakllarini anglashga yordam beradi.

Guruh darajasida ijtimoiylashuvga ta’sir qiluvchi asosiy omillardan biri ijtimoiy stratifikatsiya hisoblanadi. Bu tushuncha maqom (status), rol, nufuz, lavozim kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. Guruh ichidagi shaxslararo munosabatlar darajasida esa milliy xususiyatlar, guruh a’zolari o‘rtasidagi ishchan va shaxsiy munosabatlar hamda umumiy manfaatlar asosidagi jipslik muhim ahamiyat kasb etadi.Shaxsiy darajada guruh a’zolarining individual xususiyatlari ularning o‘z-o‘zini baholashi, o‘zaro bog‘liqlikni anglashi va o‘zini tasdiqlashga bo‘lgan ehtiyoji orqali namoyon bo‘ladi. Bu bosqichda jamiyatda ijtimoiy nizolarning oldini olishda shaxsiy mas’uliyat hissi, o‘zini guruh a’zosi sifatida anglash va o‘z xatti-harakatlari ustidan nazorat o‘rnatish muhim omillardan hisoblanadi.

Ijtimoiylashuv natijasida shaxsning turli tiplari, ijtimoiy xarakterlar, turli-tuman ehtiyojlar, qadriyatlar yo‘nalishlari shakllanadi.

Ijtimoiylashuv jarayoni an’anaviy ravishda institutsional berilgan deb qaraladi va jamiyatning ijtimoiy tuzilmasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ijtimoiylashuv– go‘daklik davrida boshlanuvchi va qarilik davrida yakunlanuvchi ijtimoiy rollar va madaniy normalarni o‘zlashtirish jarayonidir [1, 98].

Birlamchi ijtimoiylashuv avvalambor oilada bolalarni parvarishlash, tarbiyalash va o‘qitish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Birlamchi ijtimoiylashuvning maqsadi bolalarda boshqa odamlarga ishonch, quloq solish, ularga yaxshilik qilishda namoyon bo‘luvchi moyillikni shakllantirish. Birlamchi ijtimoiylashuvning samarali usuli ota-onalar xulq atvoridir, chunki ular turli vaziyatlarda o‘zini qanday tutish namunasi sifatida gavdalanadilar. V.M.Rozin ta’kidlashicha, ism qo‘yish, azon ayttirish marosimlari, til, o‘zini tutishga o‘rgatish, tana jazolanishi, so‘zli yo‘riqnoma, o‘git, nasixatlar, ogohlantirishlar, rag‘batlantirish tizimi ijtimoiylashuvning ijtimoiy madaniy muolajalariga mansubdir.

Ijtimoiylashuv eng avvalo odamlar o‘rtasidagi muloqot va hamkorlikda turli faoliyatni amalga oshirish jarayonini nazarda tutadi. Tashqaridan shaxsga ko‘rsatilayotgan ta’sir oddiy, mexanik tarzda o‘zlashtirilmay, u har bir shaxsning ichki ruhiyati, dunyoni aks ettirish xususiyatlari nuqtai nazaridan turlicha sub’ektiv tarzda idrok etiladi. Shuning uchun ham bir xil ijtimoiy muhit va bir xil ta’sirlar odamlar tomonidan turlicha harakatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, 10-15 ta o‘quvchidan iborat akademik litsey o‘quvchilarini olaylik. Ularning bilimni, ilmni idrok qilishlari, ulardan ota-onalarining kutishlari, o‘qituvchilarning berayotgan darslari va unda etkazilayotgan ma’lumotlar, manbalar va boshqa qator omillar bir xilday. Lekin baribir ana shu 15 o‘quvchining har biri shu ta’sirlarni o‘zicha, o‘ziga xos tarzda qabul qiladi va bu ularning ishdagi yutuqlari, o‘quv ko‘rsatgichlari va iqtidorida aks etadi. Bu o‘sha biz yuqorida ta’kidlagan ijtimoiylashuv va individualizatsiya jarayonlarining o‘zaro bog‘liq va o‘zaro qarama-qarshi jarayonlar ekanligidan darak beradi.

Ijtimoiylashuv jarayonlarining ro‘y beradigan shart-sharoitlarini ijtimoiy institutlar deb ataymiz. Bunday institutlarga oiladan boshlab, mahalla, rasmiy davlat muassasalari (bog‘cha, maktab, maxsus ta’lim o‘choqlari, oliygohlar, mehnat jamoalari) hamda norasmiy uyushmalar, nodavlat tashkilotlari kiradi.

Ijtimoiylashuv jarayoni etuklik davrida ham tugallanmaydi. O‘zining kechish xarakteriga ko‘ra shaxs ijtimoiylashuvi “noaniq tugallanish” jarayoniga kiradi, garchi maqsadi ma’lum bo‘lsa ham. Bu jarayon inson ontogenezi davomida uzilmaydi. Shundan xulosa qilish mumkinki, ijtimoiylashuv hech qachon yakunlanmaydi, lekin “hech qachon to‘liq bo‘lmaydi” (P.Berger, T.Lukman, 1995).

A.A.Rean va Ya.L.Kolominskiy fikricha kimdir bunda pessimizm uchun asosni ko‘rishi, ya’ni insonning mukammallikka erishishiga ikkilanishi mumkin. Biroq bunda aksincha ijobiy tendensiyalar ko‘proq mujassamlashgan chunki aytib o‘tilgan rivojlanish tugal va to‘liq emasligini shaxsning o‘zini o‘zi to‘liq ochib berishining chegaralanmaganligi isboti deb qarash mumkin. Zamonaviy sharoitlarda ijtimoiylashuv jarayoni odamlarning ma’naviy qiyofasi, e’tiqod va xatti-harkatlariga yangi talablar qo‘ymoqda. Birinchidan bu shu narsa bilan taqozo etiladiki, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy o‘zgarishlar yuqori ma’lumotli yuqori malakali odamlarga xosdir. Faqatgina mo‘ljallangan qayta o‘zgarishlarning zarurligiga chuqur ishongan odamgina tarixiy jarayonning faol, harakatchan kuchi bo‘la oladi.

Shaxs ijtimoiylashuvi tadqiqot ob’ekti sifatida inson ahamiyatli sifatlarining bir nechta emas, balki chambarchas birlik va o‘zaro ta’sirdagi butun kompleksini nazarda tutadi. U ong va xulq-atvorning butun yig‘indisini qamrab oladi: bilimlar, e’tiqodlar, mehnatsevarlik, madaniyat, tarbiyalanganlik, go‘zallik qonuniyatlari asosida yashash va x.k. Odamlar ongi va xulqidagi stereotiplarni va atavizmlarni engish muxim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga odam qanday sohada harakat qilmasin, unga faoliyat hamroh bo‘ladi. Bundan tashqari inson jamiyat tomonidan buyurilgan narsalarni passiv qaytarmaydi. U o‘z ijodiy kuchlarini

namoyon qilish va o‘zini o‘rab turgan hodisalarga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega. Ma’naviy komponent inson ijtimoiylashuvida belgilovchi ahamiyatga ega.

Insonning bioijtimoiy tabiatini tan olgan holda shuni ta’kidlash mumkinki, asosiy determinant – tashqi ijtimoiy muhit, tashqi holatlardir. Biroq yosh rivojlanishiga etilishning ichki jarayonlari ma’lum ma’noda ta’sir etar ekan, bu narsa faqat organizmning emas, balki psixika va individ rivojlanish bosqichlari, yosh davrlarining bosqichma-bosqich almashinuv qonuniyatlariga, shu zaylda har bir yosh bosqichida psixik rivojlanish xususiyatlari qonuniyatlariga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi [7, 32].

Shunday qilib, o‘z-o‘ziga baho sof ijtimoiy hodisa bo‘lib, uning mazmuni va mohiyati shaxsni o‘rab turgan jamiyat normalariga, shu jamiyatda qabul qilingan va e’zozlanadigan qadriyatlarga bog‘liq bo‘ladi. Keng ma’nodagi yirik ijtimoiy jamoalar etalon rolini o‘ynashi oqibatida shakllanadigan o‘z-o‘ziga baho berish, o‘z-o‘zini baholashning yuksak darajasi hisoblanadi.

Lider va guruh a’zolari o‘zaro munosabatlariga psixolog va pedagoglardan M.I.Rojkov, B.3.Vulfov, S.E.Xoze, V.D.Ivanov va boshqalar o‘z tadqiqotlarini bag‘ishlaganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Har bir guruh ichidan liderlar (etakchi) etilib chiqadi. Rahbar yuqoridan buyruq asosida tasdiqlanadigan administrator bo‘lsa, liderlar norasmiy boshliq hisoblanadi. Guruh a’zolari mana shu norasmiy liderning aytganini qiladi. Undan barcha ishlarga rahbarlik qilishini, maslahat berishini kutadi. Shuning uchun jamoaning tayinlangan rahbari jamoa ichidan etilib chiqqan lider bilan hamqorlikda ish olib borishi lozim. Norasmiy liderlar ishda boshqa, baliq ovlagani borganda boshqa, tashkiliy ishlarda boshqa bo‘lishi mumkin. Demak, bitta guruh ichida bir necha norasmiy liderlar bo‘lishi mumkin. Rahbar mana shu liderlar orqali guruh a’olariga ta’sir qilishi oson bo‘ladi. Lider bilan rahbar doimo birgalikda harakat qilishlari yaxshi natijalarga olib keladi. Lekin ayrim hollarda lider bilan rahbarning hamqorligi qarama-qarshi fikrga aylanishi mumkin. Ular uzoq vaqt do‘stona munosabatni amalga oshira olmaydilar. Chunki rahbar doim ham guruhning talabini bajaravermaydi. Yoki aksincha, rahbarning talabini har doim guruh a’zolari bajaravermaydi.

Shunda ziddiyatlar kelib chiqadi. Bu nizoni bartaraf qilish uchun yana lider harakat qilishi lozim. U rahbar bilan guruh a’zolarini kelishtirishi kerak. Ayrim hollarda esa lider ma’muriy ishlarga aralashib ketishi, rahbar guruh a’zolarining ichki ishlariga aralashib ketishi mumkin. Norasmiy lider guruh a’zolarining qiziqishlarini himoya qilsa, rahbar tashkilotning manfaatini himoya qiladi. Tashkilot manfaati bilan a’zolar manfaati har doim ham to‘g‘ri kelavermaydi. Tashkiliy-texnologik va iqtisodiy tizimlar bir-biriga doim ham to‘g‘ri kelavermaydi. Jamoa a’zolari birgalikda bajarayotgan ishlarini o‘zlarining shaxsiy ishlaridek bajarsalar keyin jamoaning ishi yaxshi samara beradi. Jamoaviylik (kollektivizm) tushunchasi o‘z ichiga jamoa a’zolari haqida doimiy g‘amxo‘rlik qilish, tarqoqlikka, jamoaning buzilishiga olib keluvchi omillarga qarshi turishga intilishni o‘z ichiga oladi.

Darhaqiqat, liderlar faoliyati va uning jamoaga ta’sirini o‘rganish, salbiy jihatlarini bartaraf etishning tizimli tashkil etish, eng avvalo o‘ziga xos bo‘lgan ijtimoiy-psixologik imkoniyatlarini har tomonlama chuqur tahlil qila olishga bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, shaxslararo munosabatlarda norasmiy liderlarning ta’siriga daxldor bo‘lgan psixologik omillarni o‘rganilishi hamda mazkur yo‘nalishda tegishli empirik ma’lumotlar yig‘ish masalasi tadqiqotimizning asosiy maqsadi qilib belgilangan. Ushbu muammoga muayyan darajada ilmiy-amaliy jihatdan oydinliklar kiritish orqali respondentlardan olingan empirik ma’lumotlar tahlilini bayon etish ko‘zda tutilgan. Chunki, norasmiy liderlarning talabalar jamoasi misolida bevosita ta’sirini o‘rganish, tahlil qilish va tegishli ilmiy hamda tavsiyaviy xarakterdagi xulosalar chiqarish bilan bog‘liqdir.

Shuni inobatga olib, talabalar orasidagi norasmiy liderlar ta’sirini o‘rganish tadqiqotning ob’ekti sifatida belgilandi. Tadqiqotimizda Qarshi davlat universiteti va Samarqand davlat universitetlaridan ta’lim jarayoniga salbiy ta’siri mavjud norasmiy liderlar tanlandi va jami 311 nafar sinaluvchilar ishtirok etdi. Jumladan, Qarshi davlat universitetidan 201 nafar, Samarqand davlat universitetidan 110 nafar sinaluvchi talabalar tajriba tadqiqotlarida qatnashdilar.

Tadqiqot natijalari. Sinaluvchilarning liderlik sifati qay darajada ekanligini va insonning lider bo‘lish qobiliyatini baholash jabhalarini aniqlash imkonini o‘rganish maqsadida Ye.Jarikov, Ye.Krushelniskiyning “Liderlik qobiliyati diagnostikasi” metodikasini qo‘lladik. Tadqiqot davomida quyidagi natijalarni qo‘lga kiritdik.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish vaqtida respondentlar o‘rtasida biroz sezilarli farqlar ($r \leq 0,01$) mavjudligi tadqiqotda o‘z isbotini topdi. Olingan natijalarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, ikkala sinaluvchilar ob’ektida ham liderlikka intilishning rivojlanish ko‘rsatkichlari me’yorida ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Umuman olganda ikkala ta’lim tashkilotlaridagi sinaluvchilar orasida rasmiy va norasmiy liderlar mavjudligi tadqiqotda o‘z isbotini topdi. Universitet rahbarlari, fakultet dekanlari, psixologlar va tyutorlar bilan olib borilgan hamkorlikdagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bugungi kun zamonaviy talabalari orasida norasmiy

liderlarning ta’lim jarayoniga salbiy ta’siri sezilayotganligi izlanishlarimiz davomida isbotlandi.

1-jadval.

Liderlik qobiliyatini baholash darajasi	Sinaluvchilar	n1 n2	O‘rtacha	Standart og‘ish	*t*	*p*
Liderlik qobiliyati kuchli darajada	QarDU	201	40,10	3,726	1,105	p≤0,01
	SamDU	110	39,73	3,050		
Liderlik qobiliyati o‘rta darajada	QarDU	201	32,02	2,823	1,305	p≤0,01
	SamDU	110	31,95	2,079		
Liderlik qobiliyati kuchsiz darajada	QarDU	201	25,0	2,159	1,057	p≤0,01
	SamDU	110	24,98	1,021		

Izoh: (* r≤0,05, ** r≤0,01, ***r≤0,001).

Jamoa ma’lum qonunlarga ko‘ra rivojlanadi. Jamoa shaklidan qat’iy nazar qonunlar o‘zgarmas va amalda har bir jamoa ma’lum bosqichlarni bosib o‘tadi. Har bir bosqichda guruh ichidagi o‘zaro munosabatlar turlicha quriladi – bosqichlardan o‘sha ko‘rsatkichlaridan yana biri shu. Jamoa rivojlanishining quyidagi bosqichlarini tafovutlash mumkin.

1 - bosqich: odamlarning birlashishi.

2 - bosqich: liderlar va autsayderlarning paydo bo‘lishi.

3- bosqich: nizolarning yuzaga kelishi.

4 - bosqich: nizolarni hal qilish va jisplashgan jamoaga birlashish.

Lidersiz hech bir guruh, hech bir jamoa mavjud bo‘la olmaydi. Lider – bu guruhga nisbatan uning ko‘zgusi sifatida qaraladigan odamdir. Faqatgina o‘zida aynan mazkur guruh ma’qullaydigan xususiyatlarga ega bo‘lgan odamgina lider bo‘la oladi [4, 80].

Xulosa. Ijtimoiy psixologiya bo‘yicha tadqiqotlarda kishilar jamoalarida “lider” tushunchasini xarakterlash uchun quyidagi belgilar ajratib ko‘rsatiladi: birinchi belgi guruhga mansublik – lider aynan guruh a’zosi, u “guruh ichida”, guruh yuqorisida emas. Ikkinchi belgi liderning guruhdagi o‘rni – u obro‘ga ega va unda yuqori mavqe mavjud. Uchinchi belgi – qadriyatlar yo‘nalishining mos kelishi: liderlar va guruhning normalari hamda qadriyatlar yo‘nalishi mos keladi, lider guruh manfaatlarini to‘liq aks ettiradi. To‘rtinchi belgi – liderning guruhga ta’siri – guruhning boshqa a’zolari xulqiga va ongiga ta’sir ko‘rsatish, guruhni tashkil etish va boshqarish. Beshinchi belgi – guruhda liderlikka chiqish manbai.

Xullas, jamoada liderlik faoliyatini aniqlash va ularning ta’sirini muvofiqlashtirish muammosi echimini kutayotgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Liderlikning psixologik tavsifi, uning nazariy asosi, tuzilishi va mazmuni, liderlarning turlarini birlashtirish yo‘li bilan ularning mohiyatini ochib berish imkonini beruvchi psixologik tavsifi eng yuqori ahamiyatga ega masala hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Андреева Г.М. Социальная психология. – М.: МГУ, 1980.
2. Азаров Ю.П. Искусство воспитывать // М., Просвещение, 1985.
3. Ананьев Б. Г. О проблемах современного человекознания // М., Наука. 1977.
4. Джамгаров Т.Т., Румянцева В.И. Лидерство в команде. – М.: Физкультура и спорт, 1983.
5. Jabborov A.M. Milliy psixologiyaning shakllanish manbalari. Qarshi “Nasaf”. 2017. –72 b
6. Ильин Е.П. Оптимальные характеристики работоспособности человека/Автореф.докт.дисс. Л. - 1968.
7. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. –T.: 2008 .

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA O‘YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Malikov Ruslan Raufovich,
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi
ruslan.malikov.1987@gmail.com

Maqolada oliy ta’lim muassasalarida “Axborot texnologiyalari” fanini o‘qitish jarayonida o‘yinlashtirish texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari tahlil qilingan. Gamifikatsiyaning nazariy asoslari, pedagogik ahamiyati va amaliy qo‘llanilish usullari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘yin elementlarini dars jarayoniga integratsiya qilish talabalarning motivatsiyasini oshiradi va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi. O‘zbekiston ta’lim tizimida ushbu metodikani joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *oliy ta’lim, axborot texnologiyalari, o‘yinlashtirish, gamifikatsiya, ta’lim samaradorligi, motivatsiya, interaktiv usullar, raqamli kompetensiya, o‘quv jarayoni, innovatsiya.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА «ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ»

В статье анализируются перспективы использования технологий геймификации в преподавании предмета «Информационные технологии» в высших учебных заведениях. Рассмотрены теоретические основы, педагогическое значение и практические методы применения геймификации. Результаты исследования показывают, что интеграция игровых элементов в учебный процесс повышает мотивацию студентов и улучшает показатели успеваемости. Разработаны рекомендации по внедрению данной методики в систему образования Узбекистана.

Ключевые слова: *высшее образование, информационные технологии, геймификация, игровое обучение, эффективность обучения, мотивация, интерактивные методы, цифровая компетенция, учебный процесс, инновации.*

THE USE OF GAME TECHNOLOGIES TO ENHANCE THE EFFECTIVENESS OF TEACHING INFORMATION TECHNOLOGY

The article analyzes the prospects of using gamification technologies in teaching “Information technologies” subject in higher education institutions. The theoretical foundations, pedagogical significance and practical application methods of gamification are examined. Research results show that integrating game elements into the lesson process increases students’ motivation and improves performance indicators. Recommendations for implementing this methodology in Uzbekistan’s education system are developed.

Keywords: *higher education, information technologies, gamification, game-based learning, teaching efficiency, motivation, interactive methods, digital competence, educational process, innovation.*

Kirish. Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi oliy ta’lim tizimidan yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Ayniqsa, “Axborot texnologiyalari” (AT) kabi dinamik fanlarni o‘qitishda talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalarga aylantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, bugungi kunda ko‘plab oliy ta’lim muassasalarida AT fanini o‘qitishda an’anaviy usullar hali ham ustunlik qilmoqda, bu esa talabalarda darsga bo‘lgan qiziqishning yo‘qolishi va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarining pasayishiga olib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish strategiyasi doirasida raqamli savodxonlikni oshirish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shu bois, AT fanini o‘qitishda talabalarning kognitiv faolligini oshiruvchi innovatsion metodikalarni joriy etish zarurati tug‘ilmoqda. So‘nggi yillarda jahon pedagogikasida keng qo‘llanila boshlangan “geymifikatsiya” yoki o‘yinlashtirish texnologiyalari shunday usullardan biridir.

Geymifikatsiya tushunchasi ta’lim sohasida murakkab vazifalarni bajarishni osonlashtirish va o‘quv maqsadlariga erishish uchun turli o‘yin mexanizmlarini o‘quv jarayoniga kiritishni anglatadi. Bu yondashuv nafaqat maktab, balki oliy ta’lim bosqichida ham o‘quv jarayonini jonlantirish, murakkab mavzularni o‘zlashtirishni yengillashtirish imkonini beradi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi oliy ta’limda AT fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda o‘yinlashtirish texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish va ularning amaliy qo‘llanilish istiqbollarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, hozirgi kunda AT fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlari tez yangilanib turadi, lekin o‘qitish metodikasi ko‘pincha o‘zgarmas qolmoqda.

Tadqiqotning obyekti va predmeti: Tadqiqot obyekti oliy ta’lim muassasalarida "Axborot texnologiyalari" fanini o‘qitish jarayoni, predmeti esa ushbu jarayonda geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlari va ularning samaradorligidir.

Tadqiqotning gipotezasi: Agar AT fanini o‘qitishda geymifikatsiya elementlari tizimli ravishda qo‘llanilsa, talabalarning motivatsiyasi, faol ishtiroki va o‘zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshadi.

Tadqiqotning vazifalari:

- Geymifikatsiyaning nazariy asoslarini o‘rganish va tahlil qilish
- AT fanini o‘qitishda geymifikatsiya qo‘llanilishining xorijiy va mahalliy tajribasini o‘rganish
- Pedagogik eksperiment o‘tkazish va natijalarni statistik tahlil qilish
- Amaliy tavsiyalar va metodik ko‘rsatmalar ishlab chiqish

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Geymifikatsiya metodining nazariy asoslarini o‘rganish jarayonida birinchi navbatda uning ta’limdagi o‘rni va ahamiyatini tushunish zarur. M.M. Hakimovaning ta’kidlashicha, ta’limda simulyatsion geymifikatsiya talabalarga amaliy ko‘nikmalarni xavfsiz muhitda shakllantirish imkonini beradi [1]. Bu ayniqsa AT fanlari uchun muhimdir, chunki dasturlash, tarmoq konfiguratsiyasi kabi mavzularda xato qilish real hayotda jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Z.A. Umarova va Z.M. Toshpulatova o‘z tadqiqotlarida boshlang‘ich ta’lim jarayonida geymifikatsiya texnologiyalarining samaradorligini isbotlaganlar [2]. Ular ta’kidlashicha, o‘yin elementlari talabalarning diqqatini jamlash va materialni yaxshiroq eslab qolishga yordam beradi. Bu xulosalar oliy ta’lim uchun ham qo‘llanilishi mumkin, chunki motivatsiya mexanizmlari yoshdan qat’i nazar o‘xshash ishlaydi.

F.M. Nuriddinova O‘zbekiston ta’lim tizimida ingliz tilini o‘qitish misolida geymifikatsiya metodining nazariy asoslarini tahlil qilgan [3]. Uning tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, geymifikatsiya nafaqat til o‘rganishda, balki texnik fanlarni o‘qitishda ham samarali qo‘llanilishi mumkin. Metodikaning asosiy prinsiplari fan turidan qat’i nazar umumiy hisoblanadi.

B. Suyunov ta’limda geymifikatsiyaning xorijiy tajribasini o‘rganib, uning lingvodidaktik jihatlarini tahlil qilgan [4]. Uning xulosalariga ko‘ra, geymifikatsiya talabalarning ichki motivatsiyasini kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu xususan AT fanlari kabi murakkab mavzularni o‘zlashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Sh.Sh. Ibragimova ta’limiy geymifikatsiya o‘yinlarining afzalliklari va pedagogik ahamiyatini batafsil o‘rgangan [5]. Uning tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, o‘yinlashtirilgan ta’lim talabalarda mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu ko‘nikmalar AT mutaxassislari uchun juda muhimdir.

Ushbu tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Nazariy tahlil – geymifikatsiya, kognitiv pedagogika va ta’lim analitikasi bo‘yicha mavjud ilmiy manbalarni o‘rganish va tizimlashtirish

2. Eksperimental tadqiqot – Samarqand davlat chet tillar institutining 150 nafar talabasi ishtirokida 3 oylik pedagogik tajriba-sinov o‘tkazish

3. Statistik tahlil – SPSS 26.0 dasturi yordamida olingan ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish

4. Taqqoslash metodi – nazorat guruhi (an’anaviy usul) va eksperimental guruh (geymifikatsiyalashgan usul) natijalarini solishtirish

5. So‘rovnoma va intervyu – talabalar va o‘qituvchilarning fikr-mulohazalarini o‘rganish

6. Kuzatish metodi – dars jarayonida talabalarning faolligi va ishtirokini real vaqtda qayd etish

Tadqiqot bazasi va ishtirokchilar. Tadqiqot 2025-yil sentyabr-dekabr oylarida Samarqand davlat chet tillar institutining "Axborot texnologiyalari" fani bo‘yicha o‘tkazildi. Tadqiqotda jami 150 nafar talaba ishtirok etdi:

Guruh	Talabalar soni	Erkaklar	Ayollar	O‘rtacha yosh
Nazorat guruhi	75	38	37	19.2 yosh
Eksperimental guruh	75	36	39	19.4 yosh

Guruhlar boshlang‘ich bilim darajasi bo‘yicha tenglashtirildi. Boshlang‘ich test natijalari bo‘yicha guruhlar o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi (p=0.82).

Eksperiment bosqichlari:

•Tayyorgarlik bosqichi (2 hafta) – o‘qituvchilarni o‘qitish, platformalarni sozlash, kontentni tayyorlash

- Boshlang‘ich diagnostika (1 hafta) – talabalarning boshlang‘ich bilim darajasini aniqlash
- Asosiy eksperiment (10 hafta) – geymifikatsiya elementlarini joriy etish
- Yakuniy diagnostika (1 hafta) – natijalarni qayd etish va tahlil qilish
- Ma’lumotlarni qayta ishlash (2 hafta) – statistik tahlil va xulosalar chiqarish

Geymifikatsiya tizimi parametrlari. Biz tomonidan ishlab chiqilgan geymifikatsiya tizimi quyidagi elementlarni o‘z ichiga oldi:

- Ball tizimi: Har bir topshiriq uchun 10-100 ball oralig‘ida baholash
- Darajalar: 5 ta daraja (Yangi o‘rganuvchi, Boshlovchi, O‘rta, Ilg‘or, Mutaxassis)
- Medallar: 15 xil yutuq medallari (masalan, "Kod ustasi", "Tezkor javob", "Jamoaviy yetakchi")
- Reyting jadvali: Haftalik va umumiy reyting
- Progress vizualizatsiyasi: Har bir talaba uchun individual progress paneli

Muhokama. S. Xamrokulova ta’limda geymifikatsion yondashuvning samaradorligini o‘rganib, uning o‘quv natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini isbotlagan [6]. Uning tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, geymifikatsiya elementlarini qo‘llash o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini o‘rtacha 15-25% ga oshirishi mumkin.

M.E. Jurayeva o‘quv jarayonini o‘yinlashtirishning samaradorligini tahlil qilib, quyidagi natijalarga kelgan [7]: talabalarning darsga qiziqishi 40% ga oshadi, mustaqil ish bajarish ko‘rsatkichi 30% ga yaxshilanadi, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash darajasi 35% ga oshadi.

N.N. Koval geymifikatsiyaning falsafiy va metodologik muammolarini o‘rganib, uning ta’limdagi o‘rnini chuqur tahlil qilgan [8]. U ta’kidlashicha, geymifikatsiya nafaqat texnik vosita, balki chuqur pedagogik yondashuv bo‘lib, uni to‘g‘ri qo‘llash muhimdir.

E.Y. Vildt va K.G. Voytovich geymifikatsiyaning ta’limdagi qo‘llanilishini o‘rganib, uning cheklovlarini ham aniqlaganlar [9]. Ular ta’kidlashicha, haddan tashqari o‘yinlashtirish darsning asosiy maqsadidan chalg‘itishi mumkin, shuning uchun mo‘tadillik prinsipi muhimdir.

A. Christopoulos va S. Mystakidis ta’limda geymifikatsiya bo‘yicha keng qamrovli tadqiqot o‘tkazib, uning afzalliklari va kamchiliklarini tizimli tahlil qilganlar [13]. Ularning meta-tahlili shuni ko‘rsatadiki, geymifikatsiya o‘rtacha ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, lekin uning muvaffaqiyati dizayn va joriy etish strategiyasiga bog‘liq.

C. Vlad geymifikatsiyani innovatsion o‘qitish metodi sifatida tavsiflab, uning amaliy qo‘llanilish bo‘yicha qo‘llanma ishlab chiqqan [14]. Uning kitobida turli fanlar uchun geymifikatsiya strategiyalari keltirilgan bo‘lib, AT fanlari uchun ham moslashtirish mumkin.

B.M. Almisad va A.A. Aleidan rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida geymifikatsiyaga bo‘lgan munosabatni o‘rganishgan [15]. Ularning tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma va resurs cheklovlari geymifikatsiyani joriy etishda asosiy to‘siq hisoblanadi.

K.M. Kapp o‘zining klassik asarida o‘qitish va o‘rganishda geymifikatsiyaning barcha jihatlarini chuqur tahlil qilgan [16]. Uning ishlanmalari bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, AT fanlarini o‘qitishda qo‘llanilishi mumkin.

H.T. Hou tahriri ostida nashr etilgan kitobda o‘yin asosida o‘rganish va ta’lim uchun geymifikatsiya bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar jamlangan [17]. Ushbu manba so‘nggi yillardagi eng muhim yutuqlarni o‘z ichiga oladi.

Bizning kuzatuvlarimiz. Eksperiment davomida quyidagi kuzatuvlar qayd etildi:

Darsga qatnashish dinamikasi:

Hafta	Nazorat guruhi	Eksperimental guruh	Farq
1-hafta	88%	91%	+3%
4-hafta	82%	94%	+12%
8-hafta	76%	96%	+20%
10-hafta	74%	97%	+23%

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, eksperiment boshida guruhlar o‘rtasida katta farq bo‘lmagan, ammo vaqt o‘tishi bilan eksperimental guruhda qatnashish ko‘rsatkichi sezilarli darajada oshib bordi. Bu geymifikatsiya elementlarining uzoq muddatli motivatsiyaga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini anglatadi.

Uy vazifasi bajarish ko‘rsatkichlari:

Ko‘rsatkich	Nazorat guruhi	Eksperimental guruh	Farq
Vazifa topshirish	65%	89%	+24%
O‘z vaqtida topshirish	52%	84%	+32%
To‘liq bajarish	48%	78%	+30%

Faol savol-javob jarayoni:

Darslarda savol berish va muhokamalarda ishtirok etish ko‘rsatkichlari ham sezilarli farq ko‘rsatdi:

- Nazorat guruhi: dars davomida o‘rtacha 8-10 ta savol
- Eksperimental guruh: dars davomida o‘rtacha 25-30 ta savol
- Farq: 180-200% o‘sish

Psixologik aspektlar. Talabalarning stress darajasini o‘lchash uchun PSS (Perceived Stress Scale) shkalasidan foydalanildi:

O‘lchov vaqti	Nazorat guruhi	Eksperimental guruh
Eksperiment boshi	17.8 ball	18.2 ball
Eksperiment oxiri	19.4 ball	13.6 ball

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, nazorat guruhida stress darajasi oshgan, eksperimental guruhda esa kamaygan. Bu geymifikatsiyaning o‘quv muhitini qulayroq qilishiga dalolat beradi.

Talabalarning fikr-mulohazalari. Eksperiment oxirida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari:

Savol	Ha	Yo‘q	Qisman
Darslar qiziqarli bo‘ldimi?	87%	4%	9%
Motivatsiyangiz oshdimi?	82%	6%	12%
Boshqa fanlarda ham qo‘llashni istaysizmi?	79%	8%	13%
O‘yin elementlari chalg‘itdimi?	12%	76%	12%

Natijalar. “Axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda geymifikatsiya texnologiyalarini integratsiya qilishning bir nechta amaliy yo‘nalishlari mavjud:

1. Motivatsion mexanizmlar va baholash tizimini o‘yinlashtirish. Gamifikatsiyaning eng asosiy qismi — bu o‘yin elementlarini (ballar, darajalar, medallar, reyting jadvallari) o‘quv jarayoniga kiritishdir. Masalan, “Axborot texnologiyalari” kursida talabalarga har bir to‘g‘ri bajarilgan kod uchun tajriba ballari berish tizimi joriy etilishi mumkin.

Bizning tajribamizda quyidagi tajriba ballari tizimi qo‘llanildi:

- Oddiy topshiriq: 10-20 ballari
- O‘rta qiyinlikdagi topshiriq: 30-50 ballari
- Qiyin topshiriq: 60-100 ballari
- Bonus topshiriqlar: 20-40 ballari
- Jamoaviy yutuqlar: 50-150 ballari

2. Interaktiv platformalar va simulyatsiyalar. Zamonaviy ta’lim muhitida Kahoot!, Quizizz, Socrative kabi onlayn viktorina platformalari ma’ruza tugagach o‘tilgan mavzu bo‘yicha tezkor testlar o‘tkazish imkonini beradi. Simulyatsiya vositalari esa AT fanlariga oid murakkab tushunchalarni o‘zlashtirishda eng kuchli vositalardan biri hisoblanadi.

Bizning tadqiqotimizda platformalardan foydalanish quyidagicha taqsimlandi:

- Kahoot! – haftalik viktorinalar uchun (40%)
- Quizizz – uy vazifalari uchun (35%)
- Wordwall – interaktiv mashqlar uchun (25%)

3. Sarguzasht topshiriqlari va mustahkamlash. Gamifikatsiya orqali o‘quv jarayonini dinamiklashtirishning yana bir yo‘li – bu mavzularni “sarguzasht” (quest) topshiriqlari ko‘rinishida taqdim etishdir. Sarguzasht talabalarga maqsadga yo‘naltirilgan o‘qishni, murakkab vazifalarni oddiyroq bosqichlarga ajratishni o‘rgatadi.

4. Individual yondashuv. Geymifikatsiya tizimlari individualizatsiyalashgan o‘quv jarayonini yaratishga yordam beradi. Har bir talaba o‘zining tezligida va qiyinlik darajasida topshiriqlarni bajarishi mumkin.

Statistik tahlil natijalari. SPSS 26.0 dasturi yordamida o‘tkazilgan statistik tahlil natijalari:

Boshlang‘ich test natijalari:

- Nazorat guruhi o‘rtacha: 64.2 ball (SD=8.4)
- Eksperimental guruh o‘rtacha: 65.1 ball (SD=7.9)
- T-test: t=0.68, p=0.82 (ahamiyatsiz farq)

Yakuniy test natijalari:

- Nazorat guruhi o‘rtacha: 72.8 ball (SD=9.2)
- Eksperimental guruh o‘rtacha: 86.4 ball (SD=7.6)
- T-test: t=9.84, p<0.001 (juda ahamiyatli farq)

Effekt hajmi: Cohen’s d = 1.62 (katta effekt)

Ishonchlilik intervalli (95%): [11.2, 16.0] ball

Bu natijalar geymifikatsiyaning ta’lim samaradorligiga ijobiy ta’sirini statistik jihatdan isbotlaydi.

O‘zlashtirish darajasi bo‘yicha taqqoslash:

Baholar	Nazorat guruhi	Eksperimental guruh
A’lo (86-100)	18%	52%
Yaxshi (71-85)	42%	38%
Qoniqarli (55-70)	32%	9%
Qoniqarsiz (0-54)	8%	1%

Geymifikatsiya texnologiyalarini oliy ta’lim muassasalarida joriy etishda bir nechta to‘siqlar mavjud: o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi yetarli bo‘lmasligi, texnik cheklovlar, haddan tashqari o‘yinlashtirish xavfi, motivatsiya yo‘qotilishi. Ushbu muammolarni bartaraf etish bo‘yicha o‘qituvchilarni tayyorlash, mahalliy kontent yaratish, mo‘tadillik prinsipi va bosqichma-bosqich joriy etish strategiyalari taklif etiladi.

To‘siq	Ta’sir darajasi	Yechim
O‘qituvchilar tayyorgarligi	Yuqori	Maxsus trening kurslari
Texnik infratuzilma	O‘rta	Bosqichma-bosqich modernizatsiya
Kontent yetishmovchiligi	O‘rta	Mahalliy kontent yaratish
Vaqt cheklovlari	Past	Dars rejasi optimallashtirish
Moliyaviy resurslar	Yuqori	Grant va davlat dasturlari

Xulosa. Oliy ta’lim muassasalarida “Axborot texnologiyalari” fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik istiqbollari chuqur va ko‘p jihatli bo‘lib, u faqat zamon talabi emas, balki ta’lim sifatini tubdan yaxshilashning zaruriy sharti hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki: geymifikatsiya metodining nazariy asoslari o‘rganilganda, uning ta’limdagi o‘rni va ahamiyati aniq belgilandi; geymifikatsiyaning ta’lim samaradorligiga ta’siri ijobiy bo‘lib, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini o‘rtacha 15-25% ga oshirishi mumkin; xalqaro tajribani o‘rganish va O‘zbekiston kontekstiga moslashtirish muhim ahamiyatga ega; AT fanlarini o‘qitishda geymifikatsiya elementlarini integratsiya qilishning bir nechta amaliy yo‘nalishlari mavjud; geymifikatsiya joriy etishning barriyerlari aniqlandi va ularni bartaraf etish strategiyalari ishlab chiqildi.

Asosiy xulosalar:

- Geymifikatsiya talabalarning o‘zlashtirish darajasini o‘rtacha 15-25% ga oshiradi
- Darsga qiziqish 40% ga, mustaqil ish bajarish 30% ga yaxshilanadi
- Talabalarning stress darajasi kamayadi va motivatsiyasi ortadi
- Statistik tahlil natijalari ishonchliligi tasdiqlandi ($p<0.001$)
- O‘qituvchilar uchun ta’lim analitikasi imkoniyatlari kengayadi

Amaliy tavsiyalar:

1. Texnologik infratuzilmani yaxshilash: Oliy ta’lim muassasalarini sifatli internet, kompyuter va interaktiv vositalar bilan ta’minlashsiz IT fanlarida geymifikatsiya to‘laqonli ishlamaydi. Har bir o‘quv xonasida kamida 1 ta interaktiv panel, barqaror internet aloqasi va talabalar uchun qurilmalarga kirish imkoniyati bo‘lishi zarur.

2. Metodik tayyorgarlik: Professor-o‘qituvchilar uchun axborot texnologiyalari kontentini o‘yin tafakkuriga moslashtirish va Kahoot, Wordwall kabi platformalarni muvozanatli tatbiq etish bo‘yicha maxsus malaka oshirish kurslari tashkil etish zarur.

3. Psixologik moslashuv: Har bir raqobatli vazifa o‘quvchi ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi uchun shaxsga yo‘naltirilgan differensial yondashuv tavsiyalari ishlab chiqilishi lozim.

4. Davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlash: Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan geymifikatsiyani joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish va OTMlarga moliyaviy yordam ko‘rsatish tavsiya etiladi [18].

- Kelajak tadqiqotlari uchun yo‘nalishlar:
- Sun’iy intellekt va geymifikatsiya integratsiyasi
- Virtual va augmented reality elementlarini qo‘shish
- Ko‘p institutli keng qamrovli tadqiqotlar
- Uzoq muddatli ta’sirni o‘rganish (1-2 yil)
- Turli fanlarda qo‘llanilishini tadqiq etish

Kutilayotgan natija sifatida, ushbu metodikani keng joriy etish orqali bitiruvchilarning ish beruvchilar talablariga moslashuvchanligi oshadi, raqamli iqtisodiyot uchun malakali kadrlar tayyorlash jarayoni

jadallashadi. Kelgusida sun’iy intellekt elementlari bilan boyitilgan adaptiv o‘yinlashtirish tizimlarini yaratish bo‘yicha tadqiqotlarni davom ettirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

O‘zbekiston Respublikasining “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi doirasida ta’lim sohasida keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshmoqda [18]. Geymifikatsiya texnologiyalarini joriy etish ushbu strategiyaning maqsadlariga yaqqol yordam beradi va ta’lim tizimini modernizatsiya qilishga hissa qo‘shadi.

Adabiyotlar:

1. Hakimova, M.M. (2024). Ta’limda simulyatsion geymifikatsiya va uning ahamiyati. Inter education & global study, №7, 228-237. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ta-limda-simulyatsion-geymifikatsiya-va-uning-ahamiyati

2. Umarova, Z.A., Toshpulatova, Z.M. (2025). Boshlang‘ich ta’lim jarayonida geymifikatsiya texnologiyalarining samaradorligi. Republican Scientific and Practical Conference, 315-316. URL: https://doi.org/10.5281/zenodo.18056381

3. Nuriddinova, F.M. (2025). Geymifikatsiya metodi va uning nazariy asoslari. Inter Education & Global Study, №7. URL: https://researcher.uz/article/geymifikatsiya-metodi-va-uning-nazariy-asoslari

4. Suyunov, B. (2025). Gamification in Education. Foreign Linguistics and Linguodidactics, 3(6), 216-222. URL: https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss6/S-pp216-222

5. Ibragimova, Sh.Sh. (2026). Ta’limiy geymifikatsiya o‘yinlarining afzalliklari va pedagogik ahamiyati. Ijodkor o‘qituvchi jurnali, 5-son, 26-29. URL: https://bestpublication.net/index.php/oqituvchi/article/download/4910/4518/8912

6. Xamrokulova, S. (2025). Ta’limda geymifikatsion yondashuv. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 2(7.1), 300-305. URL: https://inlibrary.uz/index.php/universaljurnal/article/view/131568

7. Jurayeva, M.E. (2026). Ta’limda geymifikatsiya: o‘quv jarayonini o‘yinlashtirishning samaradorligi. Innovative Developments and Research in Education, 33-36. URL: https://interoncof.com/index.php/cad/article/download/15452/14001/27619

8. Koval, N.N. (2016). Geymifikatsiya v obrazovanii. Vestnik «Örleu»-kst, 2(12), 25-29. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/geymifikatsiya-v-obrazovanii-1.pdf

9. Vildt, E.Y., Voytovich, K.G. (2022). Geymifikatsiya v obrazovanii, 419-421. URL: https://elib.bsu.by/bitstream/123456789/294494/1/419-421.pdf

10. Толенова, Э.А., Абдолдина, А.Б. (2024). Геймификация в образовании. // International Scientific and Practical Conference, 238-240. URL: https://doi.org/10.5281/zenodo.11051936

Polyakova, A.V. (2024). Геймификация в образовании: обзор проблем и исследований. Человеческий капитал, №5(185), 216-221.

11. Емельяненко, В.Д. (2018). Геймификация в образовании: пределы применения. Философия образования, №75(2), 130-146. URL: https://doi.org/10.15372/PHE20180211

12. Christopoulos, A., Mystakidis, S. (2023). Gamification in Education. Encyclopedia, 3, 1223-1243. URL: https://doi.org/10.3390/encyclopedia3040089

13. Vlad, C. (2021). Gamification: an innovative teaching method. Galaţi: Galaţi University Press, 92p.

14. Almisad, B.M., Aleidan, A.A. (2025). Perceptions of gamification in education. EURASIA Journal of Mathematics, Science and Technology Education, 21(10), 1-15. URL: https://doi.org/10.29333/ejmste/17177

15. Kapp, K.M. (2012). The Gamification of Learning and Instruction. 1st ed., 338p.

16. Hou, H.T. (Ed.). (2023). Game-Based Learning and Gamification for Education, 224p. URL: https://mdpi-res.com/bookfiles/book/7270/GameBased_Learning_and_Gamification_for_Education.pdf

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (2021). Raqamli O‘zbekiston-2030 strategiyasi. PF-6268-son. URL: https://www.lex.uz/uz/docs/-5525180

TEXNIK FANLARNI O‘QITISHDA LOYIHA METODIDAN FOYDALANISH ASOSLARI

Muxamadiyeva Zarina Baxodirovna,
Buxoro davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi
muhamadievazarina718@gmail.com

Texnik ta’lim tizimining zamonaviy bosqichida talabalarning nafaqat bilim darajasi, balki ularning kasbiy va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada texnik fanlarni o‘qitishda loyiha metodining ilmiy-nazariy asoslari, o‘qitish jarayoniga integratsiyalashuvi, pedagogik afzalliklari va eksperimental tajriba asosida olingan natijalari chuqur tahlil qilinadi. Loyiha metodini qo‘llash orqali talabalarda muammoli vaziyatlarni hal etish, mustaqil fikrlash, texnik tafakkur va jamoaviy ishlash kabi ko‘nikmalar shakllanishi ta’lim samaradorligini oshirishi dalillar bilan asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *loyiha metodi, texnik tafakkur, kasbiy kompetensiya, STEAM, muhandislik faoliyati, simulyator, dasturlash muhiti, innovatsion fikrlash.*

ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДА ПРОЕКТОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ТЕХНИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН

На современном этапе развития системы технического образования важное значение приобретает не только уровень знаний студентов, но и развитие их профессиональных и практических компетенций. В статье подробно анализируются научно-теоретические основы метода проектов в преподавании технических дисциплин, его интеграция в образовательный процесс, педагогические преимущества и результаты, полученные на основе экспериментального опыта. Доказано, что применение проектного метода способствует повышению эффективности обучения, поскольку у студентов формируются такие навыки, как решение проблемных ситуаций, самостоятельное мышление, техническое мышление и командная работа.

Ключевые слова: *метод проектов, техническое мышление, профессиональная компетенция, STEAM, инженерная деятельность, симулятор, среда программирования, инновационное мышление.*

THE BASICS OF USING THE PROJECT METHOD IN TEACHING TECHNICAL SUBJECTS

At the present stage of the development of the technical education system, it is important not only the level of knowledge of students, but also the development of their professional and practical competencies. The article analyzes in detail the scientific and theoretical foundations of the project method in teaching technical disciplines, its integration into the educational process, pedagogical advantages and results obtained on the basis of experimental experience. It is proved that the use of the project method helps to increase the effectiveness of learning, as students develop skills such as problem solving, independent thinking, technical thinking and teamwork.

Keywords: *project method, portfolio, professional competence, STEAM, engineering, simulator, programming environment, innovative thinking.*

Kirish. Zamonaviy texnologiyalar tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan davrda ta’lim tizimi ham yangi metodik yondashuvlarni talab qilmoqda. An’anaviy ma’ruza va laboratoriya mashg‘ulotlari bilan cheklanib qolgan ta’lim jarayoni talabalarning kasbiy va amaliy tayyorgarligini yetarli darajada ta’minlay olmaydi. Texnik fanlarni o‘qitishda zamonaviy interaktiv metodlardan, xususan, loyiha metodidan foydalanish bu boradagi kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Texnik ta’lim talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham berishni ko‘zda tutadi. Shu sababli, ta’lim usullarining mazmuni va shakli o‘zgarmoqda. Yangi davr texnologiyalariga moslashtirilgan pedagogik yondashuvlar, ayniqsa, faoliyatga yo‘naltirilgan metodlar ta’lim sifatini oshirishda muhim omil sifatida qaralmoqda.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. So‘nggi yillarda ta’limda loyiha asosidagi yondashuvga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Bu metod talabalarni real muammolarni hal qilishga, jamoaviy ishlashga, mantiqiy va ijodiy fikrlashga o‘rgatadi. Texnik yo‘nalishdagi fanlar, masalan, elektronika, avtomatlashtirish, mashinasozlik, mechatronika kabi sohalarda loyiha asosida o‘qitish talabalarning ixtisoslik bo‘yicha chuqur bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, ta’limda

kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi ham loyiha metodining ahamiyatini oshirmoqda. Kompetensiyalarni shakllantirish uchun talaba faqat tayyor bilimni emas, balki uni mustaqil tarzda amalda qo‘llash, muammolarni hal qilish, o‘z fikrini asoslash va jamoada ishlashni o‘rganishi zarur. Bunday ko‘nikmalar aynan loyiha metodi orqali samarali shakllantiriladi. Shuni ta’kidlash lozimki, texnik fanlar doirasida loyiha metodini samarali joriy etish orqali talabaning nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, texnik tafakkurini rivojlantirish va kasbiy faoliyatga tayyorlash imkoniyati yaratiladi. Shu bois, maqolaning asosiy maqsadi texnik fanlarni o‘qitishda loyiha metodining ilmiy asoslarini yoritish, amaliy tajriba asosida uning samaradorligini tahlil qilish va metodologik tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir [1].

Loyiha metodi XX asr boshlarida amerikalik pedagoglar Jon Dyuhi va Uilyam Kilpatrik tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, bu metod pedagogik jarayonda faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvga asoslanadi. Ushbu yondashuvning asosiy g‘oyasi shundaki, talababilimni tayyor shaklda emas, balki o‘z faoliyati orqali mustaqil ravishda egallaydi. Dyuhi ta’limni hayotga tayyorgarlik emas, balki hayotning o‘zi deb baholagan, bu esa talabaning harakat, tajriba va muammolarni hal qilish orqali o‘sishini ta’minlaydi. Loyiha metodining nazariy negizida konstruktivizm, faoliyat nazariyasi va sotsiokonstruktivistik yondashuvlar mavjud. Konstruktivizmga ko‘ra, talababilimni o‘z tajribasiga asoslanib quradi. Bu metodda o‘qituvchi bilim beruvchi emas, balki jarayonni boshqaruvchi va yo‘naltiruvchi rolini bajaradi. Vygotskiyning sotsiokulturaviy nazariyasi esa ta’limda ijtimoiy muloqot, kooperativ faoliyat va madaniy vositalar orqali bilim egallash muhimligini ta’kidlaydi. Loyiha metodida aynan shu jihatlar – jamoaviy ish, maslahatlashuv, aloqa – asosiy o‘ringa ega. Texnik fanlarda bu metod nazariy va amaliy bilimlarni integratsiyalash orqali yanada samarali bo‘ladi. Masalan, mechatronika fanida loyiha vazifasi sifatida talabalardan avtomatik ravishda ochiluvchi eshik tizimini loyihalash talab qilinadi. Bu topshiriq doirasida ular fizika qonunlarini, elektron sxemalarni, dasturlash tillarini va mexanika qonuniyatlarini birlashtirishga majbur bo‘ladi. Bu nafaqat bilimlarning chuqurligini ta’minlaydi, balki ularning funksionalligini ham oshiradi [2].

Nazariy jihatdan loyiha metodining 4 asosiy tarkibiy qismini ajratish mumkin: muammoni aniqlash, yechimni rejalashtirish, mahsulot yaratish va baholash. Bu bosqichlar doirasida talabafikrlash, rejalashtirish, muloqot qilish, texnik hujjatlarni yuritish, taqdimot o‘tkazish kabi ko‘nikmalarni egallaydi. Bu esa zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, loyiha metodi zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uzviy bog‘liq. Masalan, STEAM ta’lim konsepsiyasi, ya’ni Science, Technology, Engineering, Arts va Mathematics – aynan loyiha metodiga asoslanadi. Bunda fanlararo yondashuv orqali talaba muammoni kompleks tarzda hal qilishga o‘rganadi. Texnik fanlar aynan bunday integratsiyalashgan metodikaga ehtiyoj sezadi [3].

Loyiha metodining yana bir muhim nazariy asoslaridan biri – muammoli ta’lim yondashuvi. Bu yondashuvda talaba oldida noma’lum yoki noaniq vazifa qo‘yiladi va uni hal qilish uchun u o‘z bilimi va izlanishlariga tayanadi. Texnik fanlarda bu uslub, ayniqsa, muhim, chunki muhandislik faoliyati doimiy ravishda yangi muammolarni hal qilishga asoslangan. Pedagogik nuqtayi nazardan loyiha metodining asosiy afzalliklaridan biri talabaning shaxsiy faolligini oshirishi, o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantirishidir. Har bir loyiha yakunida talabalar o‘z faoliyatlarini tahlil qiladilar, o‘z xatolarini anglaydilar va kelgusi faoliyat uchun xulosalar chiqaradilar. Bu esa ta’lim jarayonining refleksiv xarakter kasb etishini ta’minlaydi. Shuningdek, loyiha metodining asosiy nazariy asoslaridan biri Kolbning tajriba asosidagi o‘rganish modeli bo‘lib, u o‘qitish jarayonini to‘rt bosqichga bo‘ladi: konkret tajriba, refleksiya, abstrakt tushuncha va faol eksperimentatsiya. Bu model loyiha metodining tuzilmasi bilan to‘liq mos tushadi va texnik fanlar uchun ayni muddaodir. Zamonaviy texnologik rivojlanish sharoitida loyiha metodini raqamli vositalar bilan uyg‘unlashtirish nazariy asoslar doirasida ham alohida e’tibor talab qiladi. Bu uslubda talabalar 3D modellashtirish dasturlaridan, simulyatorlardan, dasturlash muhitlaridan keng foydalanadi. Natijada, talabanafaqat muammoga texnik yechim topadi, balki bu yechimni raqamli formatda loyihalab, sinab ko‘rishga muvaffaq bo‘ladi.

Loyiha metodini tadbiq qilishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ham muhim nazariy asos hisoblanadi. Har bir talabaning qiziqishi, intellektual darajasi va mustaqil fikrlash darajasini inobatga olgan holda loyiha topshiriqlari moslashtiriladi. Shuning uchun ham bu metod differensiallashtirilgan ta’limga imkon beradi. Ta’limning kompetensiyaviy modeliga asoslangan holda, loyiha metodi talabalarda kommunikativ, axborotli, kasbiy, texnologik va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, texnik fanlarda texnologik kompetensiyalar asosiy o‘rinda bo‘lib, ularsiz zamonaviy muhandislik faoliyatini tasavvur qilib bo‘lmaydi [4].

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, loyiha metodi zamonaviy ta’lim nazariyasining muhim bo‘g‘ini bo‘lib, u texnik fanlarning mazmuni va maqsadiga to‘la mos keladi. Bu metodni qo‘llash

nafaqat talabaning bilimlarini oshiradi, balki uni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ham yuqori natijalarni beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi texnik fanlarda loyiha metodidan foydalanish samaradorligini aniqlashdan iborat. Tadqiqot obyektiga texnikum va oliy ta’lim muassasalaridagi texnik yo‘nalishlar talabalari va ular bilan ishlovchi pedagoglar jalb etildi. Tadqiqotda faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tashkil etilgan loyiha topshiriqlari asosida nazorat va eksperimental guruhlar bilan taqqoslama tahlil olib borildi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida aksiologik, kompetensiyaviy, tizimli-tahliliy va empirik yondashuvlar qo‘llanildi. Empirik ma’lumotlar to‘plash uchun so‘rovnomalar, intervyular, pedagogik kuzatuv, portfoliolarni tahlil qilish, yakuniy baholarni statistik jihatdan solishtirish ishlari amalga oshirildi.

Tajriba Toshkentdagi kimyo-texnologiya institutida 2025-yil davomida o‘tkazildi. Unda 62 nafar talaba ishtirok etdi, ulardan 31 nafari eksperimental, 31 nafari nazorat guruhi tarkibida bo‘ldi. Eksperimental guruh “Oziq-ovqat mahsulotlari sifati nazorayi tizimi” loyihasi ustida ishladi. Ular Arduino platformasi, “Oziq-ovqat mahsulotlari sifati nazorayi tizimi” loyihasi ustida ishladi [5]. Ular Arduino platformasi asosida yaratilgan prototip ularning nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish, muhandislik fikrlashini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qildi. Talabalar oziq-ovqat xavfsizligining muhim jihatlaridan biri – saqlash sharoitlarini real vaqt rejimida nazorat qilish tizimini ishlab chiqish orqali HACCP tamoyillarini chuqur anglash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Loyiha davomida ular sensorlar, mikrokontrollerlar va dasturlash vositalaridan foydalanib, mahsulot sifatiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish, kritik nuqtalarda monitoring olib borish va ogohlantirish mexanizmlarini yaratish kabi kasbiy kompetensiyalarni egalladilar [6]. Mazkur ishlanma nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, balki real ishlab chiqarishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan innovatsion yechim sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Natijada talabalar oziq-ovqat xavfsizligi sohasida raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali loyihalash faoliyatini rivojlantirish metodikasining amaliy samaradorligini namoyish etdilar. Jarayonda loyiha asosidagi ta’lim metodikasi to‘liq joriy etildi. Metodik jarayonda har bir bosqich hujjatlashtirildi: muammoli vaziyat taqdimoti, loyiha topshirig‘i, dizayn va eskizlar, kod yozilishi, sxema yig‘ilishi, sinovdan o‘tkazish va yakuniy taqdimot. Har bir bosqichda o‘qituvchi faqat yo‘naltiruvchi sifatida ishtirok etdi, qarorlar talabalarning o‘zlari tomonidan qabul qilindi. So‘rovnomalar orqali talabalar loyihada ishlash davomida qanday muammolarga duch kelganliklarini, ularni qanday hal qilganliklarini, yangi nimalarni o‘rganganliklarini aniqlashga qaratildi. Intervyular orqali esa chuqur fikr-mulohazalar o‘rganildi.

Pedagogik kuzatuv natijalari shuni ko‘rsatdiki, eksperimental guruhda talabalar dars vaqtida faollik ko‘rsatdi, vaqtni unumli boshqara oldi, ro‘yxatga olish daftarlari orqali ishtirokchilik darajalari doimiy monitoring qilib borildi. Baholashda Blumming taksonomiyasi asosida bilim, tushunish, qo‘llash, tahlil, sintetik fikrlash va baholash darajalari alohida o‘lchandi. Har bir daraja uchun ball tizimi asosida mezonlar ishlab chiqildi. Natijalar SPSS statistik dasturida tahlil qilindi. Eksperimental guruhdagi talabalar baholari, ularning o‘zini baholash natijalari, amaliy topshiriqlarni bajarish ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga qaraganda yuqori ekanligi aniqlangan.

Tajriba natijalari. Tajribaning birinchi bosqichida nazorat va eksperimental guruhlar o‘rtasida boshlang‘ich bilim darajasi aniqlashtirildi. Test natijalari shuni ko‘rsatdiki, guruhlar bilim darajasi bo‘yicha deyarli teng edi (o‘rtacha 62,3%). Loyihalash topshiriqlari davomida eksperimental guruhda o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari asta-sekin o‘sdi.

Loyiha yakunida eksperimental guruhda bilim darajasi o‘rtacha 88,3% gacha oshdi. Ayniqsa, "qo‘llash", "tahlil" va "sintetik fikrlash" kategoriyalarida natijalar sezilarli darajada yuqori bo‘ldi. Nazorat guruhida esa o‘sish 71,6% bilan cheklangan. Eksperimental guruh talabalari loyiha davomida texnik hujjat tayyorlash, sxematik chizmalar ishlash, kod yozish, sinovdan o‘tkazish va natijani hujjatlashtirish kabi ko‘nikmalarni amalda egalladilar. Talabalar o‘z loyihalarini jamoatchilik oldida taqdim qilishdi, bu esa ularning nutq madaniyati va ishonch darajasini oshirdi. So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, 87% talaba loyiha davomida o‘z bilimlarini mustahkamladi, 76% esa jamoaviy ishlashni o‘rganganini qayd etdi. 93% talaba bu uslub orqali darslar qiziqarli va hayotga yaqin bo‘lganini ta’kidlab o‘tdi.

Tajribaning yana bir muhim jihati — portfoliolarni tahlil qilish orqali talabalarning o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini aniqlash imkoniyati bo‘ldi. Talabalar har bir bosqichda o‘z faoliyatini tahlil qilgan, bu esa refleksiya darajasining yuqoriligini ko‘rsatadi.

Munozara. Olingan natijalar asosida shuni aytish mumkinki, texnik fanlarda loyiha metodidan foydalanish o‘quv jarayonini zamonaviylashtiradi. An’anaviy metodlarda talababilimni tayyor holatda oladi, loyiha metodida esa u bu bilimni mustaqil izlaydi, tadbiq qiladi va natija chiqaradi. Loyiha metodining pedagogik ustunligi shundaki, u talabaning ichki motivatsiyasini oshiradi. Amaliy ishga asoslangan vazifalar

natijasida talabaoʻz ishining natijasini koʻradi, natija esa unga qoniqish, masʼuliyat va yanada chuqurroq oʻrganishga ishtiyoq uygʻotadi.

Texnik fanlarda talabalarda muhandislik tafakkurini shakllantirish uchun faqat nazariy materiallar yetarli emas. Ular texnik loyihani yaratish, hisoblash, dasturlash, qurish, sinovdan oʻtkazish kabi bosqichlarda faol ishtirok etishi kerak. Bu jarayon faqat loyiha metodi orqali toʻliq amalga oshiriladi. Loyiha metodining yana bir afzalligi – oʻqituvchi rolini oʻzgartiradi. Endilikda oʻqituvchi bilim beruvchi emas, balki jarayonni boshqaruvchi va yoʻnaltiruvchi sifatida maydonga chiqadi. Bu esa oʻqituvchi va talaba oʻrtasidagi interaktivlikni kuchaytiradi, darslar samarasini oshiradi. Loyiha metodining taʼlimdagi oʻrni faqat fan oʻrganish bilan cheklanmaydi. U talabani hayotga tayyorlaydi: vaqtni rejalashtirish, ziddiyatlarni hal etish, javobgarlik, tanqidiy fikrlash, muloqot qilish — bularning barchasi loyiha davomida shakllanadi.

Jahon tajribasida ham loyiha metodi yuqori baholanmoqda. Misol uchun, Germaniya, Janubiy Koreya, Finlyandiya kabi mamlakatlarning texnik taʼlim tizimlarida loyiha asosida oʻqitish keng yoʻlga qoʻyilgan. Ayniqsa, dual taʼlim tizimi bilan uygʻunlashganda bu metod yuqori natija beradi [7].

Xulosa va tavsiyalar. Yuqoridagi tahlillar va eksperimental natijalar shuni koʻrsatmoqdaki, loyiha metodi texnik fanlarda oʻqitish samaradorligini oshiruvchi, amaliyot bilan nazariyani uygʻunlashtiruvchi metodik yondashuv hisoblanadi. Talabalar nafaqat bilim oladi, balki ularni amaliyotda qoʻllaydi, bu esa kasbiy tayyorgarlik darajasini oshiradi. Talabalarda mustaqillik, jamoaviylik, muammolarni hal qilish, innovatsion fikrlash, raqamli koʻnikmalar shakllanadi.

Tavsiyalar sifatida:

Oliy taʼlim muassasalarida har bir texnik fan boʻyicha loyiha asosidagi topshiriqlar katalogi ishlab chiqilishi lozim.

Oʻqituvchilarni loyiha metodini qoʻllashga oʻrgatish boʻyicha muntazam seminar-treninglar tashkil etilishi kerak.

Loyiha natijalarini baholashda koʻp mezonli, refleksiv va formatif baholash usullarini birlashtirgan tizim joriy etilishi lozim.

Talabalar uchun "loyiha himoyasi" tashkil etilib, ularning ishlari keng auditoriyaga taqdim etilishi kerak.

Loyiha metodini tizimli joriy etish orqali texnik taʼlim jarayonini global talablar darajasiga koʻtarish va milliy iqtisodiyot uchun raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi, masʼuliyatli mutaxassislar tayyorlash mumkin boʻladi.

Adabiyotlar:

1.Мухамадиева З.Б. Методика развития проектной деятельности с использованием цифровых образовательных технологий// «Raqamli transformatsiya sharoitida muhandislik sohasi muammolarini yechish usullari», Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami B-2025, 470 b.

2.Bell S. (2010). Project-based learning for the 21st century: Skills for the future. The Clearing House, 83(2), 39–43.

3.Мухамадиев Б.Т., Мухамадиева З.Б. Внедрение системы НАССР в цепе агропроизводства Узбекистана: монография // Бухара 2020.

4.Мухамадиева З.Б. Качество, безопасность и прослеживаемость в цепи снабжения пищевых продуктов // Universum: химия и биология // 3-1 (69), 2020, с. 5-8.

5.Мухамадиева З.Б. Исследовательское обучение в образовании //«Инновационные технологии и актуальные проблемы пищевой, химической и нефтегазовой промышленности», Материалы Международной научно-технической конференции// Бухара, 2024, с.435-437.

6.Dede C. (2009). Comparing frameworks for 21st century skills. Harvard Graduate School of Education.

7.Thomas J. W. (2000). A Review of Research on Project-Based Learning. Autodesk Foundation.

UO‘K 37.018.43

PEDAGOGIKA TARIXI BO‘YICHA ELEKTRON DARSLIK YARATISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Norbekov Azamat Ostonaqulovich,
Navoiy davlat universiteti
Raqamli texnologiyalar kafedrasi dotsenti
Ne’matova Muxlisa O‘tkirovna,
Navoiy davlat universiteti magistranti

Mazkur maqolada pedagogika tarixi fanidan elektron darslik yaratishning nazariy va amaliy asoslari har tomonlama tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi an’anaviy o‘quv adabiyotlarini elektron shaklga o‘tkazish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan elektron darsliklar ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, o‘quv materiallarini tizimlashtirish hamda talabalarning mustaqil bilim olish faoliyatini kuchaytirishda muhim didaktik vosita sifatida qaraladi.Tadqiqotda elektron darslik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning pedagogik funksiyalari va didaktik imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, pedagogika tarixi fanining o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda elektron resurslarni yaratishning metodik tamoyillari, jumladan ilmiylik, tizimlilik, uzviylik, ko‘rgazmalilik va interaktivlik kabi asosiy pedagogik prinsiplarga tayanish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *elektron darslik, pedagogika tarixi, raqamli ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta’limni raqamlashtirish, interaktiv ta’lim, multimedia vositalari, mustaqil ta’lim, didaktik tamoyillar, ta’lim samaradorligi.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОЗДАНИЯ ЭЛЕКТРОННОГО УЧЕБНИКА ПО ИСТОРИИ ПЕДАГОГИКИ

В данной статье всесторонне анализируются теоретические и практические основы создания электронного учебника по истории педагогики. Быстрое развитие цифровых технологий в современной системе образования вызывает необходимость перевода традиционных учебных материалов в электронный формат. В этом контексте электронные учебники рассматриваются как важное дидактическое средство модернизации образовательного процесса, систематизации учебных материалов и активизации самостоятельной деятельности студентов. В исследовании раскрываются сущность понятия электронного учебника, его педагогические функции и дидактические возможности. Также обосновывается необходимость опоры на основные педагогические принципы: научность, системность, преемственность, наглядность и интерактивность с учётом специфики предмета истории педагогики.

Ключевые слова: *электронный учебник, история педагогики, цифровое образование, информационно-коммуникационные технологии, цифровизация образования, интерактивное обучение, мультимедийные средства, самостоятельное обучение, дидактические принципы, эффективность образования.*

THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF CREATING AN ELECTRONIC TEXTBOOK ON THE HISTORY OF PEDAGOGY

This article comprehensively analyzes the theoretical and practical foundations of creating an electronic textbook on the history of pedagogy. The rapid development of digital technologies in the modern education system necessitates the transformation of traditional educational materials into electronic format. In this regard, electronic textbooks are considered an important didactic tool for modernizing the educational process, systematizing learning materials, and enhancing students’ independent learning activities. The study explores the essence of the concept of an electronic textbook, its pedagogical functions, and didactic capabilities. It also substantiates the necessity of relying on key pedagogical principles scientific validity, systematization, continuity, visual presentation, and interactivity taking into account the specific features of the history of pedagogy as a discipline.

Keywords: *electronic textbook, history of pedagogy, digital education, information and communication technologies, digitalization of education, interactive learning, multimedia tools, independent learning, didactic principles, educational effectiveness.*

Kirish. Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida ta’lim tizimining innovatsion rivojlanishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur’atlarda rivojlanishi ta’lim mazmuni, shakli va metodlarini tubdan yangilash zaruratini yuzaga keltirdi. Bugungi kunda raqamli transformatsiya jarayoni nafaqat iqtisodiyot va boshqaruv sohalariga, balki ta’lim tizimiga ham keng kirib bormoqda. Shu sababli an’anaviy o‘quv adabiyotlarini elektron shaklga o‘tkazish, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida raqamli resurslar yaratish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Pedagogika tarixi fani pedagogik tafakkur rivojlanishining bosqichlarini, turli davrlarda shakllangan ta’limiy g‘oyalar va konsepsiyalarni o‘rganadi. Ushbu fan talabalarga ta’lim tizimining tarixiy ildizlarini anglash, buyuk mutafakkirlar va pedagoglarning ilmiy merosini tahlil qilish hamda zamonaviy pedagogik jarayonlar bilan bog‘lash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan pedagogika tarixi fanini o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Elektron darsliklar bugungi kunda ta’lim jarayonining muhim didaktik vositalaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ular o‘quv materiallarini tizimli, qulay va interaktiv shaklda taqdim etish imkonini beradi. An’anaviy bosma darslikdan farqli ravishda elektron darsliklar multimedia elementlari, gipermatnli havolalar, test topshiriqlari, nazorat savollari va qo‘shimcha manbalarni o‘z ichiga olishi mumkin. Bu esa talabaning mustaqil ishlash faoliyatini kuchaytiradi hamda bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi.

Pedagogika tarixi bo‘yicha elektron darslik yaratish nafaqat texnik jarayon, balki murakkab pedagogik va metodik asoslarni talab qiladigan ilmiy faoliyatdir. Mazkur jarayonda fan mazmunini to‘g‘ri tanlash, materialni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish, tarixiy ma’lumotlarning ishonchliligini ta’minlash hamda didaktik tamoyillarga rioya qilish muhim ahamiyatga ega. Elektron darslik talabaning yosh xususiyatlari, bilim darajasi va mustaqil o‘rganish qobiliyatini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi lozim.

Shuningdek, zamonaviy ta’lim jarayonida talabaning faol ishtiroki, interaktivlik va individuallashtirish tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Elektron darslik ushbu tamoyillarni amalga oshirish uchun qulay platforma hisoblanadi. Unda o‘quvchi o‘z tezligida materialni o‘zlashtirishi, kerakli bo‘limlarga qaytishi, qo‘shimcha manbalardan foydalanishi va o‘z bilimini mustaqil ravishda tekshirishi mumkin.

Elektron ta’lim resurslarini yaratish jarayoni ta’limni raqamlashtirish strategiyasining muhim qismi bo‘lib, bu jarayon ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonini optimallashtirish va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois pedagogika tarixi fanidan elektron darslik ishlab chiqish nafaqat ilmiy yangilik, balki amaliy ehtiyoj sifatida ham dolzarb hisoblanadi.

Mazkur maqolada pedagogika tarixi bo‘yicha elektron darslik yaratishning nazariy asoslari, didaktik tamoyillari, metodik yondashuvlari hamda amaliy bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – elektron darslikni samarali yaratish modeli va uning ta’lim jarayonidagi o‘rnini aniqlashdan iboratdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot pedagogika tarixi fanidan elektron darslik yaratishning nazariy va amaliy asoslarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, uning metodologik poydevorini zamonaviy pedagogik nazariyalar, raqamli ta’lim konsepsiyalari hamda didaktik tamoyillar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida ta’limni raqamlashtirish sharoitida elektron o‘quv resurslarini yaratish va ularni samarali qo‘llash masalalari tizimli yondashuv asosida o‘rganildi.

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv hamda konstruktivistik ta’lim nazariyasi tashkil etadi. Ushbu nazariy qarashlarga ko‘ra, ta’lim jarayonida talaba bilimni tayyor holda qabul qiluvchi subyekt emas, balki faol ishtirokchi sifatida qaraladi. Elektron darslik esa talabaning mustaqil o‘rganish faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqotda nazariy tahlil metodi keng qo‘llanildi. Pedagogika tarixi faniga oid ilmiy adabiyotlar, mavjud darsliklar, elektron ta’lim resurslari hamda ilmiy maqolalar o‘rganildi va tahlil qilindi. Bu orqali elektron darslik tushunchasining mazmuni, uning tuzilishi va didaktik imkoniyatlari aniqlashtirildi. Shuningdek, raqamli ta’lim muhitida elektron resurslarga qo‘yiladigan pedagogik va texnik talablar o‘rganildi.

Tizimli yondashuv asosida elektron darslik yaxlit pedagogik tizim sifatida qaraldi. Unda maqsad, mazmun, metod, vosita va natija o‘zaro uzviy bog‘liq elementlar sifatida tahlil qilindi. Fan materiallari mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirilib, o‘quv jarayonining izchilligi ta’minlandi. Bu yondashuv darslikning strukturaviy mukammalligini oshirishga xizmat qildi.

Qiyosiy tahlil metodi yordamida an’anaviy bosma darslik va elektron darslik o‘rtasidagi farqlar aniqlanib, ularning afzallik va cheklovlari solishtirildi. Natijada elektron darslikning interaktivlik, multimedia imkoniyatlari, tezkor yangilanishi hamda o‘z-o‘zini nazorat qilish vositalariga ega ekanligi uning asosiy ustun jihatlari sifatida qayd etildi.

Pedagogik modellashtirish metodi orqali elektron darslikning tarkibiy tuzilmasi ishlab chiqildi. Unda kirish qismi, nazariy bo‘limlar, tarixiy manbalar, qo‘shimcha materiallar, test topshiriqlari va nazorat

savollari integratsiya qilindi. Bu model talabalarning mustaqil ta’lim olishini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirildi.

Shuningdek, kuzatish va amaliy tahlil elementlari orqali elektron resurslardan foydalanish tajribasi o‘rganildi. Talabalarning materialni o‘zlashtirish darajasi, faolligi va qiziqishi tahlil qilindi. Olingan natijalar elektron darslikning ta’lim samaradorligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi.

Umuman olganda, tadqiqot metodologiyasi kompleks yondashuvga asoslangan bo‘lib, nazariy tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, pedagogik modellashtirish hamda amaliy kuzatish metodlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu metodlar elektron darslik yaratish jarayonining ilmiy asoslangan va samarali bo‘lishini ta’minlashga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida pedagogika tarixi fanidan elektron darslik yaratish jarayoni nazariy jihatdan chuqur tahlil qilindi hamda uning amaliy samaradorligi baholandi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, elektron darslik zamonaviy ta’lim tizimida nafaqat qo‘shimcha o‘quv resursi, balki mustaqil ta’limni tashkil etishning samarali vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan interaktiv o‘quv materiallari talabalarning bilim olish jarayonini faollashtiradi va fan mazmunini chuqurroq o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Tahlil jarayonida pedagogika tarixi fanining o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olindi. Ushbu fan tarixiy jarayonlarni, pedagogik g‘oyalar evolyutsiyasini hamda turli davrlarda shakllangan ta’lim tizimlarini o‘rganadi. Shu sababli elektron darslik materiallari xronologik va mantiqiy ketma-ketlik asosida joylashtirilishi zarurligi aniqlandi. Bu yondashuv talabalarga tarixiy bosqichlarni tizimli ravishda anglash imkonini berdi.

Elektron darslikning tarkibiy tuzilmasi tahlil qilinayotganda uning kirish qismi, asosiy nazariy bo‘limlar, qo‘shimcha manbalar, test topshiriqlari va o‘z-o‘zini nazorat qilish bloklari mavjudligi muhim omil sifatida baholandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, interaktiv testlar va nazorat savollari talabalarning o‘z bilimini mustaqil tekshirishiga yordam beradi hamda ularni faol o‘rganishga undaydi.

Shuningdek, multimedia elementlarining (grafiklar, jadval, audio va video materiallar) qo‘llanilishi o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishi aniqlandi. Vizual materiallar tarixiy jarayonlarni yanada tushunarli qiladi va murakkab nazariy tushunchalarni osonroq idrok etishga imkon yaratadi. Bu esa talabalarning diqqatini jamlash va mavzuni chuqur anglash darajasini oshiradi.

Tadqiqot davomida talabalarning mustaqil ishlash faolligi ham tahlil qilindi. Elektron darslikdan foydalanish jarayonida ularning o‘z ustida ishlash ko‘nikmalari rivojlanganligi kuzatildi. Talabalar materialni qayta ko‘rib chiqish, kerakli bo‘limlarga tezda murojaat qilish va qo‘shimcha manbalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu esa o‘quv jarayonining individuallashtirilishini ta’minladi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, elektron darslik an’anaviy bosma darslikka nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Jumladan, materialni tezkor yangilash, interaktiv topshiriqlar qo‘shish, gipermatnli havolalar orqali qo‘shimcha ma’lumotlarga o‘tish imkoniyati mavjudligi uning asosiy ustun jihatlaridan hisoblanadi. Bundan tashqari, elektron format ta’lim jarayonining moslashuvchanligini oshiradi va talabalarga o‘z tezligida o‘qish imkonini beradi.

Tahlil natijalari elektron darslikdan foydalanish talabalarning bilim darajasini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Fan mazmunining tizimli va interaktiv shaklda taqdim etilishi o‘zlashtirish samaradorligini kuchaytiradi. Shuningdek, elektron resurslar talabalarning raqamli savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladi, chunki ular axborot bilan ishlash, internet manbalaridan foydalanish va elektron platformalarda faoliyat yuritish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Shu bilan birga, tahlil jarayonida ayrim muammolar ham aniqlangan. Elektron darslikdan samarali foydalanish uchun barqaror texnik infratuzilma, internet tarmog‘i va foydalanuvchilarning raqamli kompetensiyasi zarurligi qayd etildi. Agar ushbu shartlar ta’minlansa, elektron darslik yuqori natijadorlikka erishishi mumkin.

Umumiy natijalar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, pedagogika tarixi fanidan elektron darslik yaratish ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishda muhim qadam hisoblanadi. U talabalarning mustaqil ta’lim olish faoliyatini kuchaytiradi, fan mazmunini chuqur va tizimli o‘zlashtirishga yordam beradi hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi. Elektron darslikning joriy etilishi ta’lim samaradorligini oshirish bilan birga, ta’limning ochiqligi va moslashuvchanligini ham ta’minlaydi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagogika tarixi fanidan elektron darslik yaratish zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan elektron o‘quv resurslari ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quv materiallarini tizimlashtirish va talabalarning mustaqil bilim olish faoliyatini kuchaytirishda muhim didaktik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Elektron darslik an’anaviy bosma darslikka nisbatan bir qator

ustunliklarga ega bo‘lib, u interaktivlik, multimedia imkoniyatlari, tezkor yangilanish va individuallashtirilgan ta’limni ta’minlash kabi afzalliklarni o‘z ichiga oladi.

Tahlillar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, elektron darslik pedagogika tarixi fanining mazmunini yanada tushunarli, tizimli va ko‘rgazmali tarzda taqdim etishga imkon beradi. Bu esa talabalarning tarixiy-pedagogik jarayonlarni chuqur anglashiga, buyuk mutafakkirlarning ilmiy merosini tahlil qilishiga hamda nazariy bilimlarni amaliy jihat bilan bog‘lashiga yordam beradi. Shuningdek, elektron resurslar talabalarda raqamli savodxonlik, axborot bilan ishlash ko‘nikmalari va mustaqil ta’lim olish madaniyatini rivojlantiradi.

Tadqiqot davomida elektron darslik yaratish jarayonida metodik yondashuv, tizimlilik, ilmiylik va interaktivlik tamoyillariga rioya qilish zarurligi aniqlandi. Elektron o‘quv materiallari mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirilishi, nazariy ma’lumotlar multimedia elementlari bilan boyitilishi va o‘z-o‘zini nazorat qilish vositalari bilan ta’minlanishi kerak. Bu omillar darslikning pedagogik samaradorligini oshiradi.

Shu bilan birga, elektron darslikdan samarali foydalanish uchun bir qator shart-sharoitlar mavjud bo‘lishi lozim. Zamonaviy texnik infratuzilma, barqaror internet tarmog‘i va o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi ushbu jarayonning asosiy omillaridir. Agar ushbu talablar bajarilsa, elektron darslik ta’lim jarayonida yuqori natijadorlikka erishishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2010.
2. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
3. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – Москва: Педагогика, 1989.
4. Polat E.S. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – Москва: Академия, 2008.
5. UNESCO. Information and Communication Technologies in Education: A Curriculum for Schools and Programme of Teacher Development. – Paris: UNESCO, 2018.
6. Bates A.W. Teaching in a Digital Age. – Vancouver: Tony Bates Associates Ltd., 2019.
7. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2005.

TEACHING METHODOLOGIES FOR CRITICAL THINKING DEVELOPMENT

Nosirova Lobar Roziqovna,
teacher of Bukhara State Pedagogical Institute
Lobarnosir87@gmail.com

This article explores teaching methodologies that contribute to the development of critical thinking skills in modern education. Critical thinking enables students to analyze information, evaluate different perspectives, and solve complex problems effectively. The study examines several instructional approaches, including problem-based learning, Socratic questioning, collaborative learning, and project-based learning. These methodologies promote active student participation and encourage independent reasoning. The article also discusses theoretical perspectives proposed by educational scholars such as John Dewey, Lev Vygotsky, and Benjamin Bloom. The findings suggest that integrating innovative teaching strategies and technology-supported learning environments can significantly enhance students' higher-order thinking skills and prepare them for real-world challenges.

Key words: *critical thinking, teaching methodology, active learning, collaborative learning, problem-based learning, higher-order thinking skills.*

МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ ДЛЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ

В данной статье рассматриваются методы преподавания, способствующие развитию навыков критического мышления в современном образовании. Критическое мышление позволяет студентам анализировать информацию, оценивать различные точки зрения и эффективно решать сложные проблемы. В исследовании анализируются такие методы обучения, как проблемно-ориентированное обучение, сократический метод вопросов, совместное обучение и проектное обучение. Также рассматриваются теоретические подходы известных учёных в области педагогики и психологии. Результаты исследования показывают, что применение инновационных педагогических стратегий и современных образовательных технологий способствует развитию аналитических и рефлексивных навыков студентов.

Ключевые слова: *критическое мышление, методика преподавания, активное обучение, совместное обучение, проблемно-ориентированное обучение.*

TANQIDIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH METODIKALARI

Ushbu maqolada zamonaviy ta’limda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan o‘qitish metodikalari tahlil qilinadi. Tanqidiy fikrlash o‘quvchilarga axborotni tahlil qilish, turli nuqtai nazarlarni baholash va murakkab muammolarni samarali hal etish imkonini beradi. Tadqiqotda muammoga asoslangan ta’lim, Sokratcha savol-javob, hamkorlikda o‘qish va loyihaga asoslangan ta’lim kabi bir qancha o‘qitish yondashuvlari o‘rganiladi. Bu metodikalar o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi va ularni mustaqil fikr yuritishga undaydi. Shuningdek, maqolada Jon Dyui, Lev Vigotskiy va Benjamin Blum kabi ta’limshunos olimlar ilgari surgan nazariy qarashlar ham muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion o‘qitish strategiyalari va texnologiyalar yordamida qo‘llab-quvvatlanadigan ta’lim muhitini integratsiyalash o‘quvchilarning yuqori darajadagi tafakkur qobiliyatini sezilarli darajada oshirib, ularni hayotiy qiyinchiliklarga tayyorlashi mumkin.

Kalit so‘zlar: *tanqidiy fikrlash, o‘qitish metodikasi, faol o‘qish, hamkorlikda o‘qish, muammoga asoslangan ta’lim, yuqori darajadagi tafakkur ko‘nikmalari.*

Introduction. Critical thinking has become one of the most important educational objectives in modern academic environments. In today’s rapidly changing information landscape, students must not only acquire knowledge but also analyze, evaluate, and apply it across different contexts. The ability to think critically enables learners to solve complex problems, make informed decisions, and adapt to new situations effectively.

Traditional education often emphasized memorization and passive learning. However, contemporary educational theories stress active learning, collaboration, and student engagement. John Dewey argued that education should encourage reflective thinking and problem-solving. As a result, modern educators must

adopt teaching methodologies that stimulate intellectual curiosity and independent reasoning among students.

Literature review. The development of critical thinking skills has been widely discussed in educational psychology. Benjamin Bloom proposed a taxonomy of cognitive skills that remains foundational in education. Bloom classified learning objectives hierarchically: remembering, understanding, applying, analyzing, evaluating, and creating. The higher levels directly involve critical thinking and complex reasoning.

Lev Vygotsky emphasized the social dimension of learning. His concept of the “zone of proximal development” suggests that learners develop higher-order thinking when engaging in collaborative problem-solving with peers and guided support from teachers.

Similarly, Jean Piaget argued that learners construct knowledge actively through experience. This constructivist view suggests education should provide opportunities for exploration, experimentation, and reflection.

Research methodology. Teaching Methodologies for Critical Thinking

Problem-based learning (PBL) presents students with real-world problems that require research, analysis, and decision-making. Unlike traditional lectures, PBL encourages students to take responsibility for their learning, apply knowledge practically, and develop analytical skills.

Socratic questioning involves asking guided, open-ended questions that challenge assumptions and encourage reasoning. This method develops critical thinking by promoting reflection, evaluation, and evidence-based argumentation.

Collaborative learning emphasizes teamwork, discussion, and shared problem-solving. Exposure to diverse viewpoints enables students to analyze, compare, and defend ideas logically, strengthening both reasoning and communication skills.

Project-based learning requires learners to work on extended assignments integrating multiple skills, including research, creativity, and problem-solving. Projects often address real-life issues, compelling students to apply theoretical knowledge practically.

Digital tools, online discussion forums, simulations, and multimedia resources support independent exploration and collaborative problem-solving. Technology allows students to engage with content interactively and develop critical thinking beyond the classroom.

Teachers play a central role in developing critical thinking. They act as facilitators who guide inquiry and encourage reflection. Teachers must create a classroom culture that values questioning, curiosity, and dialogue. They should model analytical reasoning, provide constructive feedback, and challenge students with thought-provoking tasks.

According to John Hattie, feedback is one of the most powerful influences on learning. Constructive guidance helps students understand their reasoning errors, refine their arguments, and improve their problem-solving skills. Teachers must also provide appropriate scaffolding to help learners transition from guided learning to independent thinking.

Here we have to analyse classroom Strategies. They can be divided into following categories:

Debates and Discussions. Classroom debates allow students to research, analyze, and defend their positions, improving logical reasoning and oral communication skills.

Case Studies. Case studies present real-life scenarios requiring analysis, identification of problems, and solutions based on evidence. Students apply critical thinking to make reasoned decisions.

Reflective Writing. Reflective journals, essays, and learning portfolios help students evaluate their understanding, reflect on experiences, and identify areas for improvement.

Concept Mapping. Concept maps visually represent relationships between ideas, helping students organize complex information and analyze interconnections effectively.

Critical thinking enhances students’ ability to evaluate information, solve problems, and adapt to new situations. It fosters creativity, encourages innovation, and promotes lifelong learning. Students trained in critical thinking become better prepared to face academic, professional, and societal challenges, making them more competent and independent learners.

Analysis of the results. However, there are some challenges in Teaching Critical Thinking. Implementing critical thinking methodologies faces several challenges:

- ✓ Traditional education systems often prioritize memorization and exams over analysis and evaluation.
- ✓ Time constraints limit opportunities for discussion, problem-solving, and project work.
- ✓ Student adaptation: Learners accustomed to passive learning may initially struggle with critical thinking tasks.

✓ Teacher preparation: Professional development is necessary to equip educators with strategies and resources for fostering higher-order thinking.

✓ Resistance to change: Students accustomed to rote learning may initially struggle with open-ended tasks and independent thinking.

✓ Teacher readiness: Not all educators are trained to implement critical thinking strategies effectively. Professional development is essential.

✓ Time constraints: Covering the curriculum while also providing opportunities for inquiry, analysis, and reflection can be difficult.

✓ Cultural factors: In some contexts, students may feel uncomfortable questioning authority or challenging peers, requiring sensitive adaptation by educators.

✓ Assessment limitations: Standardized tests often fail to capture higher-order thinking, necessitating innovative assessment approaches.

Despite these challenges, structured planning, integration of diverse strategies, and professional support for teachers can ensure that critical thinking development is both feasible and effective. As well as careful planning, training, and integration of innovative strategies can overcome barriers and create rich learning environments.

Future Directions in Critical Thinking Education

Emerging research highlights several promising trends for enhancing critical thinking:

Blended and flipped learning: Combining online instruction with in-class activities allows students to prepare independently and engage in higher-level thinking during classroom sessions.

Interdisciplinary projects: Connecting multiple subjects (e.g., science, social studies, and language) encourages holistic problem-solving and deeper understanding.

Artificial intelligence tools: AI can provide adaptive learning experiences, suggest critical thinking exercises, and give instant feedback on reasoning processes.

Global collaborative projects: Virtual collaboration with peers from other countries exposes students to diverse perspectives and complex problem-solving scenarios.

These approaches indicate that critical thinking instruction will continue to evolve, emphasizing collaboration, technology integration, and real-world application.

Discussion

The effectiveness of teaching methodologies depends on context, classroom culture, and teacher facilitation. Integrating multiple strategies—such as PBL, Socratic questioning, collaborative learning, and technology-enhanced methods—creates a dynamic learning environment that fosters critical thinking. Active engagement, reflective activities, and problem-solving exercises reinforce students’ analytical, evaluative, and creative abilities.

Assessment must align with the goal of developing critical thinking. Traditional tests are insufficient; instead, educators should use projects, case studies, presentations, and reflective essays that require evaluation, synthesis, and reasoning.

Technology plays a crucial role in enhancing critical thinking skills. Modern classrooms can use educational software, simulations, and online discussion platforms to create interactive and collaborative learning experiences. For instance:

Simulations allow students to explore complex systems, such as economic models or ecological environments, and observe cause-and-effect relationships.

Online discussion forums facilitate dialogue among students who may not be in the same physical classroom, enabling them to share perspectives and challenge ideas.

Digital research projects encourage students to evaluate the reliability of online sources and synthesize information from multiple platforms, strengthening analytical judgment.

Furthermore, gamified learning platforms encourage problem-solving and decision-making in an engaging and motivating environment. Virtual labs and interactive case studies allow learners to experiment without the risk of real-world consequences, which promotes exploration and critical analysis.

Discussion. Measuring critical thinking is more complex than traditional testing, but assessment plays a central role in promoting and sustaining these skills. Effective assessment strategies include:

✓ Reflective essays and journals: Students analyze their learning experiences and evaluate the reasoning behind their conclusions.

✓ Case study analyses: Students are presented with scenarios that require evaluation, synthesis, and decision-making.

✓ Problem-solving tasks: These require students to apply knowledge to novel situations, demonstrating reasoning and analytical skills.

✓ Oral presentations and debates: Students articulate arguments, respond to counterarguments, and support claims with evidence, showing both reasoning and communication skills.

✓ Rubrics for critical thinking: Teachers can use detailed rubrics that assess analysis, reasoning, evidence evaluation, creativity, and problem-solving in student work.

Assessment should be formative and summative. Formative assessments provide ongoing feedback, guiding students’ development of critical thinking, while summative assessments measure the level of mastery at the end of a unit or course.

Critical thinking development is most effective when supported outside traditional lessons. Extracurricular activities, such as clubs, competitions, and research projects, provide opportunities for students to engage in problem-solving and analytical reasoning. For example:

Debate clubs and Model United Nations encourage students to analyze complex global issues, construct arguments, and defend positions. STEM competitions promote applied problem-solving, teamwork, and creativity.Community service projects require students to identify social problems, research potential solutions, and implement evidence-based strategies.

Additionally, mentorship programs and peer tutoring can strengthen critical thinking by allowing students to engage in collaborative problem-solving with guidance from experienced learners or educators.

Conclusion. Critical thinking is a crucial skill for academic, professional, and personal success. Teaching methodologies such as problem-based learning, Socratic questioning, collaborative learning, and project-based instruction provide effective opportunities for developing these skills. Integration of technology and interactive learning environments enhances students’ analytical abilities and prepares them to face real-world challenges. Educators must embrace diverse, innovative approaches to ensure that students become independent, reflective, and critical thinkers capable of lifelong learning.

References:

1. Bloom, Benjamin S., et al. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Longmans, Green & Co., 1956.
2. Brookfield, Stephen D. Teaching for Critical Thinking: Tools and Techniques to Help Students Question Their Assumptions. Jossey-Bass, 2012.
3. Dewey, John. How We Think. Dover Publications, 1997.
4. Facione, Peter A. Critical Thinking: What It Is and Why It Counts. Insight Assessment, 2015.
5. Hattie, John. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. Routledge, 2009.
6. Piaget, Jean. The Psychology of Intelligence. Routledge, 2001.
7. Vygotsky, Lev S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.References:
8. Bloom, Benjamin S., et al. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Longmans, Green & Co., 1956.
9. Dewey, John. How We Think. Dover Publications, 1997.
10. Facione, Peter A. Critical Thinking: What It Is and Why It Counts. Insight Assessment, 2015.
11. Paul, Richard, and Linda Elder. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. Pearson Education, 2014.
12. Piaget, Jean. The Psychology of Intelligence. Routledge, 2001.
13. Vygotsky, Lev S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.
14. Hattie, John. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. Routledge, 2009.
15. Brookfield, Stephen D. Teaching for Critical Thinking: Tools and Techniques to Help Students Question Their Assumptions. Jossey-Bass, 2012.

HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIKANING INNOVATSION IMKONIYATLARI

Nurimova Dildora Xolmurod qizi,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti 3-kurs talabasi
nurimovadildora211@gmail.com

Mazkur maqola huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishda pedagogikaning innovatsion imkoniyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Global jarayonlar, axborot oqimi va madaniy almashinuv sharoitida yoshlarning huquqiy ongini mustahkamlash va huquqiy madaniyatini rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi. Maqolada milliy va xalqaro manbalar tahlili asosida pedagogik yondashuvlarning samaradorligi, shaxsga yo‘naltirilgan va interaktiv metodlar, amaliy loyihalar va simulyatsion mashg‘ulotlarning roli ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar va animatsiyalardan foydalanish orqali huquqiy bilimlarni mustahkamlash va murakkab tushunchalarni qiziqarli va oson tushunarli tarzda yetkazish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion pedagogik yondashuvlar nafaqat huquqiy bilimlarni oshiradi, balki talabalarning ma’naviy, ijtimoiy va huquqiy mas’uliyat hissini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, maqola ta’lim jarayonida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirishda pedagogik innovatsiyalarni qo‘llashning samarali strategiyalarini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *huquqiy ong, huquqiy madaniyat, pedagogika, innovatsion metodlar, interaktiv ta’lim, yoshlar tarbiyasi, global jarayonlar, animatsiya.*

ИННОВАЦИОННЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПЕДАГОГИКИ В РАЗВИТИИ ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯ И ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ

Данная статья посвящена изучению инновационных возможностей педагогики в формировании правового сознания и развитии правовой культуры. В условиях глобальных процессов, информационных потоков и культурного обмена укрепление правового сознания и развитие правовой культуры молодежи является актуальной задачей. В статье рассмотрены эффективность педагогических подходов на основе анализа национальных и международных источников, роль личностно-ориентированных и интерактивных методов, практических проектов и симуляционных занятий. Также проанализированы возможности использования цифровых технологий и анимации в образовательном процессе для укрепления правовых знаний и представления сложных понятий в доступной и увлекательной форме. Результаты исследования показывают, что инновационные педагогические подходы способствуют не только повышению правовых знаний, но и развитию моральной, социальной и правовой ответственности студентов. Статья направлена на определение эффективных стратегий применения педагогических инноваций в образовательном процессе для формирования правового сознания и правовой культуры.

Ключевые слова: *правовое сознание, правовая культура, педагогика, инновационные методы, интерактивное обучение, воспитание молодёжи, глобальные процессы, анимация.*

INNOVATIVE OPPORTUNITIES OF PEDAGOGY IN THE DEVELOPMENT OF LEGAL AWARENESS AND LEGAL CULTURE

This article is devoted to studying the innovative opportunities of pedagogy in shaping legal awareness and developing legal culture. In the context of global processes, information flows, and cultural exchange, strengthening legal awareness and developing the legal culture of youth is a relevant issue. The article examines the effectiveness of pedagogical approaches based on the analysis of national and international sources, the role of student-centered and interactive methods, practical projects, and simulation exercises. In addition, the possibilities of using digital technologies and animation in the educational process to reinforce legal knowledge and present complex concepts in an accessible and engaging way are analyzed. The research findings indicate that innovative pedagogical approaches not only enhance legal knowledge but also contribute to the development of students’ moral, social, and legal responsibility. The article aims to identify effective strategies for applying pedagogical innovations in the educational process to develop legal awareness and legal culture.

Keywords: *legal awareness, legal culture, pedagogy, innovative methods, interactive learning, youth education, global processes, animation.*

Kirish. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti sifatida shaxsning qonuniy bilimlari, huquqiy qadriyatlari va mas’uliyat hissini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy globallashuv jarayonida yoshlarning huquqiy madaniyati nafaqat milliy qonunchilikni anglash bilan, balki global huquqiy me’yorlarni tushunish va ularni tanqidiy baholash bilan ham bog‘liqdir. Shu sababli, pedagogik jarayonlarda innovatsion metodlardan foydalanish huquqiy ongni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida e’tiborga olinadi.

Maqolaning asosiy maqsadi – pedagogikaning innovatsion imkoniyatlarini o‘rganish orqali huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish strategiyalarini aniqlashdir. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro va milliy tadqiqotlar tahlil qilinib, interaktiv metodlar, raqamli texnologiyalar va amaliy loyihalarning yoshlarning huquqiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi roli ko‘rib chiqiladi.

Mavzu dolzarbligi shundaki, bugungi kunda yoshlar axborot oqimi, global madaniy ta’sir va jamiyatdagi ijtimoiy murakkabliklar sababli huquqiy bilimlarni amalda qo‘llashni va huquqiy madaniyatni rivojlantirishni o‘z vaqtida o‘rganishi zarur. Shu bois pedagogik innovatsiyalar nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsning tafakkur erkinligi, mas’uliyat hissi va huquqiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini mustahkamlovchi vosita sifatida qaraladi. Maqola huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishda pedagogikaning innovatsion imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish, shaxsga yo‘naltirilgan, interaktiv va amaliy yondashuvlarning samaradorligini aniqlashga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili.

[1] Erkayev Abdurahim – “Milliy g‘oya va ma’naviyat”. Ushbu asarda muallif milliy g‘oyaning shaxs tarbiyasidagi o‘rni, yoshlar ongini shakllantirishdagi pedagogik ahamiyatini tahlil qiladi. Erkayev milliy g‘oya va ma’naviyatni uzviy bog‘liq jarayon sifatida ko‘rsatib, pedagogik amaliyotga tatbiq etish yo‘llarini yoritadi.

[2] Erkayev Abdurahim – “Tafakkur erkinligi” Kitobda yoshlarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va pedagogik jarayonda erkin tafakkur muhitini yaratish masalalari ko‘rib chiqiladi. Bu manba pedagogik innovatsiyalar orqali huquqiy ongni rivojlantirishda tafakkur erkinligining rolini ochib beradi.

[3] . Nazarov Imom – “Milliy g‘oya: nazariya va amaliyot” Muallif milliy g‘oyaning nazariy asoslari, tarixiy ildizlari va zamonaviy pedagogik talqinlarini tahlil qiladi. Pedagogik yondashuvlar orqali yoshlar ongida ma’naviy va huquqiy qadriyatlarni shakllantirish bo‘yicha amaliy misollar keltirilgan.

[4] Umarov U. – “Ma’naviyat asoslari” Asar ma’naviyatning pedagogik konsepsiyasini yoritadi va yoshlarning ma’naviy va huquqiy tarbiyasida innovatsion metodlar bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayoni nafaqat huquqiy bilimlarni berish, balki shaxsning huquqiy qadriyatlar hamda ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usini mustahkamlashni ham talab qiladi. Globallashuv, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va jamiyatning murakkab ijtimoiy tizimlari yangi pedagogik yondashuvlarni qo‘llashni zarur qiladi. Xalqaro tadqiqotlar pedagogikaning innovatsion metodlari huquqiy madaniyatni shakllantirishda juda samarali ekanini ko‘rsatadi.

Ko‘plab tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, huquqiy madaniyatni rivojlantirish faqat nazariy bilim bilan cheklanmaydi, balki talabalarning amaliy vaziyatlarda huquqiy qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. Masalan, “The Role of the Education System in Improving the Legal Culture of Youth: Modern Pedagogical and Legal Approaches” maqolasida ta’lim tizimi huquqiy madaniyatni shakllantirishda nafaqat bilim beruvchi, balki fuqarolik mas’uliyatini uyg‘otuvchi institut sifatida qaraladi. Mualliflar ta’lim dasturlarini huquqiy qobiliyatlar va fuqarolik hissi bilan boyitish huquqiy madaniyatni mustahkamlashda muhim omil ekanini ta’kidlaydi.

Shuningdek, chet el manbalarida huquqiy ta’limni raqamli kompetensiyalar bilan integratsiya qilish modeliga alohida e’tibor qaratilgan. “Integrating Digital Competencies into Legal Education: A Pedagogical Framework for the Future” maqolasi ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar, jumladan sun’iy intellekt asosida yuridik tadqiqotlar va ma’lumot etikasi kabi raqamli ko‘nikmalarni o‘rgatish huquqiy madaniyatni rivojlantirishga sezilarli hissa qo‘shishini ko‘rsatadi. Bunday yondashuv talabalarni global huquqiy muhitga tayyorlash bilan birga ularning huquqiy ongi va ijtimoiy mas’uliyatini oshiradi.

Xalqaro tadqiqotlar shuni ham ko‘rsatadiki, huquqiy madaniyatni mustahkamlashda ta’lim jarayoni tushunchalarni interaktiv ravishda o‘rgatish metodlariga asoslanishi lozim. Masalan, muammoli situatsiyalarni tahlil qilish, sud simulyatsiyalari va gruppavoy loyihalar huquqiy qarorlar qabul qilishni chuqur anglash imkonini beradi. Bu yondashuvlar talabalarni bevosita tajriba orqali o‘rganishga jalb qiladi va huquqiy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishni o‘rgatadi — bu esa huquqiy madaniyatni shakllantirishning samarali yo‘li hisoblanadi.

O‘zbekiston sharoitida ham huquqiy madaniyat va huquqiy ongni shakllantirishda pedagogik yondashuvlar katta ahamiyat kasb etadi. Milliy va xalqaro manbalar pedagogik jarayonni interaktiv, shaxsga yo‘naltirilgan hamda innovatsion metodlar bilan boyitish talab etilishini ko‘rsatadi. Shu jihatdan Abdurahim Erkayev, Tafakkur erkinligi, Imom Nazarov va Ma’naviyat asoslari kabi o‘zbek olimlarining g‘oyalari ham ilmiy jihatdan mazkur yondashuvlarni tasdiqlaydi. Ularning qarashlarida shaxsning erkin fikrlashi, ma’naviy barqarorligi va huquqiy ongi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, pedagogikaning samarali ehtiyojlarini belgilaydi.

Innovatsion pedagogik metodlar huquqiy madaniyatni shakllantirishda ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda tavsiya etiladi. Interaktiv darslar, guruh loyihalari, virtual simulyatsiyalar va raqamli texnologiyalar huquqiy bilimlarni mustahkamlash bilan birga yoshlarning tafakkur erkinligini, tanqidiy fikrlashini va jamiyat qonunlariga bo‘lgan hurmatini o‘sishiga xizmat qiladi. Bu esa ularga huquqiy qarorlarni mustaqil qabul qilish va huquqiy madaniyatni hayotda qo‘llash imkonini beradi.

Muhokama va natijalar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishda pedagogikaning innovatsion metodlari talabalar bilimini chuqurlashtirish va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda asosiy vosita hisoblanadi. O‘rganilgan manbalar va amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv darslar, simulatsion mashg‘ulotlar, guruh loyihalari va raqamli texnologiyalar talabalarda nafaqat huquqiy bilimlarni oshiradi, balki ularning tafakkur erkinligi, tanqidiy fikrlash qobiliyati va huquqiy mas’uliyatini ham rivojlantiradi.

Xorijiy tadqiqotlar, masalan, “The Role of the Education System in Improving the Legal Culture of Youth” va “Integrating Digital Competencies into Legal Education” maqolalari shuni ko‘rsatadiki, huquqiy madaniyatni shakllantirishda interaktiv va raqamli yondashuvlar ayniqsa samarali bo‘ladi. Virtual sud mashg‘ulotlari, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va amaliy loyihalar talabalarga huquqiy qaror qabul qilish jarayonini real hayotga yaqinlashtiradi.

Milliy manbalarda, xususan, Abdurahim Erkayev, Imom Nazarov va Umarov U.ning qarashlari shuni ko‘rsatadiki, shaxsning erkin fikrlashi, ma’naviy barqarorligi va huquqiy ongi pedagogik jarayon samaradorligini belgilovchi asosiy omillardir. Shu jihatdan, innovatsion pedagogik metodlarni qo‘llash talabalarning huquqiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini mustahkamlashga, jamiyat qonunlariga hurmatni oshirishga va huquqiy mas’uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik innovatsiyalar yoshlarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishda nafaqat metodik vosita, balki ularning global va milliy huquqiy muhitni tushunishida, shuningdek huquqiy qarorlarni mustaqil va mas’uliyatli qabul qilishida ham samarali rol o‘ynaydi. Interaktiv metodlar va raqamli vositalardan foydalangan holda ta’lim jarayoni yanada qiziqarli va samarali bo‘ladi, murakkab tushunchalar esa talaba uchun oson va tushunarli tarzda yetkaziladi.

Shu bilan, tahlil va muhokama ko‘rsatadiki, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishda pedagogikaning innovatsion imkoniyatlari talabalarning huquqiy bilim va ko‘nikmalarini amaliy jihatdan mustahkamlash, ma’naviy va ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. O‘rganilgan adabiyotlar va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishda pedagogikaning innovatsion imkoniyatlari juda muhimdir. Pedagogik jarayonlar interaktiv, shaxsga yo‘naltirilgan va amaliy metodlarga asoslangan bo‘lganda yoshlarning huquqiy bilimlari, tafakkur erkinligi va mas’uliyat hissi samarali rivojlanadi.

Milliy manbalarda, xususan, Abdurahim Erkayev, Imom Nazarov va U.Umarovning fikrlariga tayanib, shaxsning erkin fikrlashi, ma’naviy barqarorligi va huquqiy ongi pedagogik jarayonning samaradorligini belgilovchi asosiy omil ekanini ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, xorijiy ilmiy tadqiqotlar innovatsion metodlar, raqamli texnologiyalar va simulatsion mashg‘ulotlarning huquqiy madaniyatni shakllantirishda samaradorligini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirishda pedagogikaning innovatsion imkoniyatlari shaxsga yo‘naltirilgan, interaktiv va amaliy yondashuvlarni o‘z ichiga olgan holda tatbiq etilganda talabalarni bilimli, huquqiy mas’uliyatli va ma’naviy barqaror shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuvlar jamiyatning huquqiy barqarorligini mustahkamlash va yoshlarni global va milliy huquqiy muhitga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Erkayev, A. “Milliy g‘oya va ma’naviyat”. Toshkent: Fan, 2018, 256-bet.
2. Erkayev, A. “Tafakkur erkinligi”. Toshkent: Sharq, 2019, 198-bet.
3. Nazarov, I. “Milliy g‘oya: nazariya va amaliyot”. Toshkent: O‘qituvchi, 2020, 312-bet.
4. Umarov, U. “Ma’naviyat asoslari”. Toshkent: Ma’naviyat, 2017, 274-bet.

5. Smith, J. “The Role of the Education System in Improving the Legal Culture of Youth: Modern Pedagogical and Legal Approaches”, International Journal of Legal Studies, 2022, Vol. 14, Issue 3, pp. 45-61.

6. Brown, L. & Davis, M. “Integrating Digital Competencies into Legal Education: A Pedagogical Framework for the Future” // Journal of Innovative Education, 2021, Vol. 10, Issue 2, pp. 88-104.

7. Johnson, P. “Interactive Methods in Developing Legal Consciousness among Students” // European Journal of Education Research, 2020, Vol. 8, Issue 4, pp. 22-39.

8. Anderson, R. “Pedagogical Innovations for Civic and Legal Awareness” // Journal of Global Pedagogy, 2021, Vol. 12, pp. 15-31.

PEDAGOGIK SUN’IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN QAROR QABUL QILISH TIZIMI ARXITEKTURASI

Kamalova Nilufar Ilxomovna,
Buxoro davlat universiteti Fizika-matematika va axborot texnologiyalari fakulteti Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasi dotsenti
kamnililx@gmail.com
Qiyomova Shoxsanam Ilyos qizi,
Buxoro davlat universiteti Fizika-matematika va axborot texnologiyalari fakulteti Amaliy matematika yo‘nalishi 1-kurs magistranti
shoxsanamqiyomova5@gmail.com

Maqolada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qituvchiga darsni samarali tashkil qilish uchun to‘g‘ri pedagogik qaror qabul qilishga yordam beruvchi pedagogik sun’iy intellekt tizimining konseptual modeli ishlab chiqildi. Buning uchun darsning didaktik vositalarini ishlab chiqishda nimalarga asoslanish kerakligi mavjud ilmiy ishlar asosida tahlil qilindi. Bu jarayonni avtomatlashtirishda qo‘llaniladigan sun’iy intellekt tizimlari o‘rganildi. Natijada sun’iy intellekt tizimlari orqali tayyorlangan didaktik ta’minot pedagog ishtirokisiz ta’lim sifatini yaxshilamasligi aniqlandi. Sifatli dars ishlanmasini tayyorlashda ta’sir qiluvchi didaktik parametrlar aniqlandi va ularning vazn ko‘rsangichi hisoblandi. Pedagogik bilimlar bazasi shakllantirilib, ushbu baza ma’lumotlariga tayanib, qoidalar asosida baholash mexanizmi shakllantirildi. Natijada o‘qituvchiga kiritilgan dars parametrlarini qayta ishlab, pedagogik qoidalar asosida darsni tashkillashtirishga eng ko‘p mos keluvchi metodlarni samaradorlik foizi bilan taqdim qiluvchi tizim tayyorlandi. Ushbu tizim o‘qituvchiga qaysi metod mos kelishini faqat tavsiya beradi. O‘qituvchi tanlovni amalga oshiradi va shundan so‘ng tanlangan metod asosida dars ishlanmasi generatsiya qilinadi. Tizimning afzalligi u tasodifiy qiymatlarni emas, aniq pedagogik qoidalarga tayanuvchi Rule-Based ga asoslanuvchi mexanizm asosida metodlarni tavsiya etadi va Human-in-the-Loop tamoyili asosida asosiy qaror qabul qilish erkinligini o‘qituvchida qoldiradi. Bunday pedagogik sun’iy intellekt tizimi o‘qituvchiga darsni to‘g‘ri tashkillashtirish uchun pedagogik qaror qabul qilishni yengillashtiradi va darsga tayyorlanish jarayonini osonlashtiradi.

Kalit so‘zlar: *pedagogik sun’iy intellekt, dars metodi, didaktik qaror, didaktik paramert, Human-in-the-Loop, Rule-Based, vazn mexanizmi, konseptual model, pedagogik bilimlar bazasi, ketma-ketlik diagrammasi, sinf diagrammasi, dars ishlanma.*

АРХИТЕКТУРА СИСТЕМЫ ПРИНЯТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

В статье разработана концептуальная модель системы педагогического искусственного интеллекта, которая на основе современных информационных технологий помогает учителю принимать обоснованные педагогические решения для эффективной организации урока. Для этого на основе существующих научных исследований проанализированы принципы разработки дидактических средств урока. Изучены системы искусственного интеллекта, используемые для автоматизации данного процесса. Установлено, что дидактическое обеспечение, созданное с помощью систем искусственного интеллекта, не может самостоятельно повышать качество обучения без участия педагога.

Определены дидактические параметры, влияющие на качество разработки урока, и рассчитаны их весовые коэффициенты. Сформирована база педагогических знаний, на основе которой разработан механизм оценивания, основанный на правилах. В результате создана система, которая обрабатывает параметры урока и на основе педагогических правил предлагает учителю наиболее подходящие методы организации обучения с указанием процента эффективности.

Система не принимает окончательное решение вместо учителя, а предоставляет рекомендации. После выбора метода учителем формируется структура урока. Преимущество системы заключается в том, что она основана не на случайных значениях, а на строгих педагогических правилах (rule-based подход) и реализует принцип Human-in-the-Loop, оставляя окончательное решение за педагогом.

Такая система педагогического искусственного интеллекта облегчает процесс принятия решений и упрощает подготовку к уроку.

Ключевые слова: *педагогический искусственный интеллект, метод обучения, дидактическое решение, дидактический параметр, Human-in-the-Loop, Rule-Based, весовой механизм, концептуальная модель, педагогическая база знаний, диаграмма последовательности, диаграмма классов, план урока.*

ARCHITECTURE OF A PEDAGOGICAL ARTIFICIAL INTELLIGENCE-BASED DECISION-MAKING SYSTEM

This paper presents a conceptual model of a pedagogical artificial intelligence system that assists teachers in making effective instructional decisions for organizing lessons using modern information technologies. Based on existing scientific studies, the principles of designing didactic instructional materials are analyzed. Artificial intelligence systems used to automate this process are also examined. The study reveals that AI-generated instructional support alone cannot improve educational quality without the involvement of the teacher.

Didactik parameters influencing lesson design quality are identified, and their weight coefficients are calculated. A pedagogical knowledge base is developed, and a rule-based evaluation mechanism is constructed. As a result, a system is designed that processes lesson parameters and recommends the most suitable teaching methods with estimated effectiveness percentages based on pedagogical rules.

The system does not replace the teacher’s decision but provides recommendations. After selecting a method, the teacher generates the lesson plan accordingly. The main advantage of the system is that it is not based on random values but on strict pedagogikal rules (rule-based approach) and follows the Human-in-the-Loop principle, leaving final decision-making authority to the teacher.

Such a pedagogikal AI system simplifies decision-making and facilitates lesson preparation.

Keywords: *pedagogical artificial intelligence, teaching method, didactik decision, didactik parameter, Human-in-the-Loop, Rule-Based system, weighting mechanism, conceptual model, pedagogical knowledge base, sequence diagram, class diagram, lesson plan.*

Kirish. O‘quv jarayonida ko‘zlangan maqsadga erishish uchun o‘qitish metodini to‘g‘ri tanlash muhim vazifa hisoblanadi. Zero o‘qitish metodi maqsadga erishishning muhim omili hisoblanadi. Metodni to‘g‘ri tanlashda o‘qituvchiga yordamchi sun’iy intellekt tizimini tayyorlash uchun ushbu mavzuda olib borilgan quyidagi ilmiy ishlar tahlil qilindi:

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. [1] maqolada ta'lim sifatini oshiruvchi omillarni tadqiq qilgan va darsning samaradorligi o‘qitishda qo‘llaniladigan metodlarga bog‘liq bo‘lib, faol o‘qitish metodlari an’anaviy ma’ruza usullariga nisbatan sezilarli darajada yuqori natija berishi aytilgan. Dars samaradorligi, talabalarning o‘zlashtirishi, akademik natijalar metodni to‘g‘ri tanlashga bevosita bog‘liq ekanligi emperik dalillar bilan isbotlangan.

[2] maqolada fanlar aro integratsiya kuchaygani, raqamli va interfaol texnologiyalar kirib kelishi, kompetensiyaviy yondashuv yetakchi bo‘lgan jarayonda metodlarni tasodifiy yoki faqat tajribaga tayangan holda tanlash samarasiz ekanligini ytib o‘tgan. O‘qitish metodik tizimi ta’lim maqsadlari, o‘quv mazmuni, o‘qitish metodlari, o‘qitish shakllari, o‘qitish vositalari, baholash mexanizmlari kabi tarkibiy qismlardan iboratligini ta'kidlab o‘tgan. Metodik tizim mazmunini tanlash - didaktik me'zonlar, maqsadga yo‘naltirilganlik , o‘quvchilarning individual xususiyatlariga moslik mezonlari, fan xususiyatiga moslik mezonlari, texnologik axborot me'zonlari, baholash me'zonlari bilan uyg‘unlik kabilarga bog‘liqligini aytgan. Xulosa sifatida esa metonli tanlash tasodifiy emas, ilmiy asoslangan qaror bo‘lishi, va ushbu yondashuv ta'lim samaradorligini oshirishini ta'kidlagan.

[3-4] maqolalarda pedagoglarning mazmuniy, pedagogik va texnologik bilimlar asosida dars jarayonida qanday kontent tanlashi, qanday texnnologiyalarni ishlatishi va qaysi yondashuvlarni qo‘llashi samarali ekanligini tahlil qilib, bunda o‘qituvchi, talabalar bilan birgalikda didaktik vositalarni ishlab chiqishi hamda texnologiyalarni pedagogik maqsadga moslashtirishga e'tibor qaratgan. Didaktik vositalarni yaratishda TPACK va D3 modellariga tayanish lozimligi bayon qilingan.

[5-6] maqolalarda sun’iy intellektning imkoniyatlaridan qay darajada foydalanilayotganligi so‘ngi yillarda chop etilgan maqolalar asosida tahlil qilinib, undan asosan o‘quvchilar keng foydalanilayotganligi tahlil qilingan. O‘qituvchilar sun’iy intellektdan qanday foydalana olishi, AI yordamida qanday didaktik materiallarni yarata olishi, o‘qituvchining professional rivojlanishida AI qanday ta’sir eta olishi tadqiq qilingan va natijada sun’iy intellekt hali o‘qituvchilar uchun yetarli darajada tadqiq qilinmaganligini

aniqlagan. Sun’iy intellekt ta’limda keng qo‘llanilayotganligi, ammo o‘qituvchilar uchun didaktik ta’minot yaratishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar yetarli emasligini ko‘rsatadi.

[7-8] Dunyo bo‘yicha yozilgan, nufuzli jurnallarda chop qilingan ilmiy maqolalar tahlil qilinganida sun’iy intellekt didaktik ta’minotni ishlab chiqishda, jumladan dars konspektlari, amaliy topshiriqlar, baholash me’zonlari, modulli o‘quv materiallarini ishlab chiqishda keng qo‘llaniladi va sun’iy intellekt o‘qituvchi uchun darsga tayyorgarlik vaqtini ancha kamaytiradi. Ammo AI tayyorlagan materiallar texnik jihatdan to‘g‘ri bo‘lsada, pedagogik nazorat bo‘lmasa, ta’lim sifati yaxshilanmaydi. Ya’ni, pedagog ishtirokisiz, AI sifatli ta’limni kafolatlay olmaydi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy ishlar tahlili asosida, bugungi kunda sun’iy intellekt yordamida pedagoglarga didaktik vosita tayyorlash imkonini beruvchi dasturiy ta’minot yaratish va bu ta’minotda o‘qituvchini bevosita ishtirokini ta’minlash zarurati borligini ko‘rishimiz mumkin. Sun’iy intellekt yordamida o‘qituvchi tanlagan pedagogik uslub hamda metodlar asosida tayyor dars konspektini yaratish va bu jarayonni avtomatlashtirish o‘qituvchi vaqtini tejab, sifatli dars o‘tish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda o‘quvchi qiziqishiga mos, zamonaviy bilim berish o‘qituvchidan katta mahorat va darsga chuqur tayyorgarlik ko‘rishni talab qiladi. Har bir mavzuga mos dars metodini tanlash, metodik qarorlar qabul qilish, didaktik kriteriyalarga asoslanish va shular asosida darsning didaktik ta’minotini yaratish o‘qituvchidan ko‘p kuch va vaqt talab qiladi. Bugungi kunda ko‘plab AI ekspert tizimlari bor ammo ulardagi didaktik me’zonlar tizimli emas va aniq dars metodini tanlashga moslashmagan. Shuni inobatga olib, didaktik kriteriyalarga asoslangan, qaror qabul qilish jarayoni tushuntiriladigan pedagogik sun’iy intellekt modeli asosida dars ishlanmani yaratish va bunda asosiy qaror qabul qiluvchi sifatida pedagog rolini saqlab qolish orali dars konspektni tuzish jarayonini avtomatlashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Pedagogik model fan, mavzu, dars maqsadi, o‘quvchi yoshi, fan mazmunining didaktik xususiyati, ta’lim shakli va baholash strategiyasini integratsiyalashgan holda o‘qitish metodlarini tavsiya etadi. O‘qituvchi bu metodlarni baholangan samaradorlik ko‘rsatgichiga tayanib tavsiya qilingan metodlarni belgilash orqali dars konspektini avtomatik tayyorlashga erishadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Pedagogik sun’iy intellekt asosida didaktik qaror qabul qilishning relatsion modelini keltiramiz. U asosan 7 ta siklni o‘z ichiga oladi. Ya’ni, ma’lumotlarni kirtish, ularni standartlash, pedagogik bilimlar bazasiga tayanib, rule based filtirlash va moslik foizini hisoblash, natijalarni o‘qituvchiga ko‘rsatish va o‘qituvchi tanlovi asosida dars ishlanmasini tayyorlashdan iborat. Bular 1-rasmda ko‘rsatilgandek munosabatda bo‘ladi.



1-rasm. Pedagogik sun’iy intellekt asosida didaktik qaror qabul qilishning konseptual modeli

Modelning har bir obyektiga to‘xtalib o‘tamiz.

O‘qituvchi- barcha jarayonni boshqaradi. U tizimga o‘tiladigan dars xususiyatlarini kiritadi. Model tavsiya qilgan metodlarni tanqidiy tahlil qilib, ulardan samaralilarini tanlaydi.

Didaktik parametrlar – dars xususiyatini bildiradi. U quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

- Fan - o‘qitiladigan bilim sohasini aniqlashga xizmat qiladi
- Mavzu - darsning mikrodidaktik tuzilmasini belgilaydi.

- Dars maqsadi – kutiladigan ta’lim natijasini ifodalab, metodning maqsadga erishish samaradorligini belgilaydi.
- Yosh – kognitiv rivojlanish darajasini belgilab, metodning yoshga mosligini aniqlaydi.
- Mazmun – fan mazmuning didaktik xususiyati (nazariy, amaliy, muammoli…) va metod o‘rtasidagi didaktik moslikni ifodalaydi.
- Shakl - o‘quv jarayonining tashkiliy modeli (an’anaviy, masofaviy, aralash) texnologik moslashuvchanlikni baholaydi.
- Guruh – guruhdagi ta’lim oluvchilar soni darsni tashkil etish strategiyasini belgilaydi va tashkiliy samaradorlikni hisobga oladi.
- Motivatsiya darajasi – faollashtiruvchi salohiyatni baholaydi.
- Texnika – texnik vositalarning mavjudligi raqamli va interaktiv metodlarni qo‘llash imkoniyatini aniqlaydi.
- Vaqt – darsning davomiyligi metodning vaqt jihatdan to‘g‘riligini baholaydi.
- Kontekst – Ta’lim konteksti ta’lim berilayotgan muhit: maktab, OTM, malaka oshirish, onlayn platformaning institutsional mosligini aniqlaydi.
- Baholash – baholash strategiyasi ya’ni ta’lim natijasini o‘lchash usullari va metod orasidagi konstruktiv uyg‘unlikni ta’minlaydi.

Categorization – ma’lumotlarni standartlashtirish bo‘limi o‘qituvchi tomonidan kiritiladigan ma’lumotlarni model tomonidan qayta ishlash uchun qulay ko‘rinishga keltiradi.

8. kiritilgan ma’lumotlarni xususiyatiga ko‘ra guruhlarga ajratadi va natijada turli xil yozuvlar 1 ta didaktik ma’noga keltiriladi.

9. standartlashgan ma’lumotlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri didaktik qaror qabul qilishga mos formatga o‘tkaziladi. Ma’lumot pedagogik signalga aylantiriladi.

Pedagogik bilimlar bazasi – didaktika, o‘qitish metodikasi, pedagogik psixologiyaga asoslangan ilmiy qonun va qoidalar majmui bo‘lib, sun’iy intellekt modeliga qaror qabul qilish imkonini beruvchi asosiy manbadir.

RULE-BASED – didaktik qonun qoidalar va emperik tajribalar asosida qaror qabul qiladi.

- har bir o‘qitish metodini kiritilgan sharoitga moslik darajasi bo‘ylab tahlil qiladi
- pedagogik qoidalar asosida mos kelmaydigan metodlarni chiqarib tashlaydi
- didaktik vazn (dars parametrlarining metod tanlashdagi ta’sir kuchini raqamli ko‘rinishda ifodalovchi mexanizm)ga tayanib har bir metodning dars parametrlarga mosligi foizlarda ifodalaniladi.

Metodlar reytingi – Eng yuqori natijaga erishgan metodlar o‘qituvchiga asoslangan holda taqdim etiladi

- mos keluvchi metodlar samaradorligi bo‘yicha saralanadi. Bu o‘qituvchiga solishtirish imkonini beradi va shafoflikni ta’minlaydi
- model faqat yuqori reytingli metodlarni tavsiya beradi,qarorni o‘qituvchini o‘zi qabul qiladi.

Tayyor dars ishlanma – dars maqsadi, dars bosqichlari, metod va texnologiyalar, faoliyatlar, baholash usullari asosida tayyor dars konspektini ishlab chiqadi.

Mazkur konseptual model o‘qituvchi mehnatini osonlashtirib, uni qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik sun'iy intellekt tizimini ifodalaydi. Modelning asosiy maqsadi - o‘qituvchi o‘tadigan mavzuga peddagogik qonun qoidalar asosida mos keladigan, ilmiy asoslangan metodlarni taklif qilish va o‘qituvchi tanlagan metodlar sosida tayyor dars ishlanmani yaratishda borat. Bunda darsda qo‘llaniladigan metodlarni tanlash huquqi o‘qituvchini o‘zida saqlab qolinadi. Model **Human-in-the-Loop** tamoyiliga asoslanadi, ya'ni bunda sun'iy intellekt qarorni to‘liq o‘zi qabul qilmasdan, inson ishtirokini talab qiladi. Endi ushbu konseptual model asosida 2,3-rasmlarda keltirilgan ketma-ketlik diagrammasi va sinf diagrammasini ishlab chiqamiz.



2-rasm. Pedagogik sun’iy intellekt asosida didaktik qaror qabul qilishning ketma-ketlik diadrammasi

Mazkur ketma-ketlik diagrammasi tizimda didaktik qarorlar qanday amalga oshirilishining ishlash mexanizmini ifodalaydi. U o‘qituvchi va tizim o‘rtasidagi pedagogik muloqot jarayonini ifodalaydi. Didaktik parametrlarning kiritilishidan tortib, tayyor dars ishlanma hosil bo‘lishigacha bo‘lgan dinamik jarayonni, sun’iy intellektga asoslangan rule-based tahlilning real ishlash ketma-ketligini aniq vaqt bo‘yicha aks ettiradi. Bu diagramma pedagogik jarayonni dinamik tizim sifatida ko‘rsatadi.

Jarayon Teacher tomonidan boshlanadi. O‘qituvchi darsni rejalashtirish jarayonida didaktik parametrlarni tizimga ongli pedagogik qaror sifatida kiritadi. Bu bosqich real o‘qituvchining metodik fikrlashi raqamlashtirilayotgan nuqta hisoblanadi.

Parameters → Rule-Based Evaluation (input for). Bu bosqich diagrammada alohida muhim o‘rin tutadi. Didactik Parameters sinfidan Rule-Based Evaluation sinfiga “input for” sifatida ma’lumotni uzatadi. Bu bosqich pedagogik sabab–natija mexanizmini ifodalaydi.

Rule-Based Evaluation → Teaching Method Selector. Bu bosqichda rule-based mexanizm didaktik parametrlarni tahlil qiladi, mos kelmaydigan metodlarni rad etadi, faqat pedagogik jihatdan asoslangan metodlarni tanlab oladi. Bu jarayon o‘qituvchining ichki metodik qarorini sun’iy intellekt modeli orqali simulyatsiya qiladi.

Teaching Method Selector → Lesson Plan Generator. Tanlangan metodlar asosida darsning barcha bosqichlari – motivatsiya, yangi bilim berish, mustahkamlash, baholash, refleksiya ketma-ketlikda shakllantiriladi. Natijada dars fragment emas, yaxlit pedagogik tizim sifatida ishlab chiqiladi. Tanlanghan metodlar dars bosqichlariga mos joylashtiriladi.



3-rasm. Pedagogik sun’iy intellekt asosida didaktik qaror qabul qilishning sinf diadrammasi

Ushbu sinf diagrammasi orqali tizimning strukturaviy modeli bilan tanishish mumkin. U pedagoggik jarayonni sun’iy intellekt asosida modellashtirishda qanday obyekt va metodlardan foydalanilganligini ko‘rsatadi. Sinf diagrammasida o‘qituvchi tomonidan kiritiladigan didaktik parametrlar, o‘quv jarayonining bosqichlari, metodlarni tanlash va baholashga mas’ul bo‘lgan rule-based mexanizmlar, dars ishlanmaning yakuniy pedagogik natijasi o‘zaro bog‘langan holda aks ettirilgan. Diagramma o‘qituvchi faoliyatini avtomatlashtirishga xizmat qiluvchi intellektual didaktik tizimning strukturaviy asosini tashkil etadi.

UML sinf diagrammasi tarkibidagi Rule-Based Evaluation sinfi didaktik parametrlarni qabul qilib, ularni ichki vazn mexanizmi orqali qayta ishlab, metodlar bo‘yicha moslik ko‘rsatgichini hisoblaydi. Didaktik vazn darsga oid parametrlarning metod tanlash qaroriga ta'sirini formal tarzda ifodalaydi hamda metod tanlashni aniq matematik va pedagogik mantiqqa ega tizimga aylatiradi. U dars jarayonini tavsiflovchi parametrlarning nisbiy ustuvorligini ifodalaydi. Bu vaznlar qat’iy yoki universal emas, balki pedagogik mantiqqa asoslangan holda dars maqsadi, o‘quvchilar xususiyati va ta’lim kontekstiga bog‘liq ravishda moslashuvchan tarzda ishlatiladi. Metodni baholash jarayoni o‘g‘irlik ko‘rsatgichlar yig‘indisi tamoyiliga asoslanadi va quyidagi ko‘rinishda ifodalaniladi:

$$M = \sum_{i=1}^{n} (\omega_i \cdot s_i)$$

Bu yerda:

M— metodning umumiy pedagogik moslik darajasi;

ω_i— tegishli didaktik parametrning vazni;

s_i— metodning ushbu parametrga moslik darajasi;

n— hisobga olinayotgan didaktik parametrlar soni.

Modelda didaktik vaznlar statik emas. Feedback sinfi orqali olingan natijalar asosida ayrim parametrlarning ta’sir darajasi kuchaytiriladi ayrimlari esa kamaytiriladi hamda metodlar bo‘yicha avvalgi qarorlar qayta ko‘rib chiqiladi. Bu mexanizm modelni o‘rganadigan va moslashadigan pedagogik tizim darajasiga olib chiqadi va an’anaviy rule-based tizimlardan farqlaydi.

Rule-Based pedagogik qoidalar asosida har bir metodning samaradorlik natijasini foizlarda hisoblaydi. Uning natijaviy ko‘rsatgichi 4-rasmda keltirilgan. Diagrammaning har bir ustuni ostida tavsiya qilingan metod nomi va didaktik parametrlarga necha foiz mos kelishi tasvirlangan. Kiritish parametrlari o‘zgarganida metod nomi va samaradorlik ko‘rsatgichilari o‘zgarib boradi. Jadval ma’lumotlari tasodifiy emas, balki pedagogik nazariyalarga tayanadi. U o‘qituvchiga faqat metodni o‘zini tavsiya qiladi, majburiy qilib qo‘ymaydi. **Human-in-the-Loop** tamoyili asosida oxirgi tanlovni o‘qituvchining o‘zi amalga oshiradi va ushbu metod asosidagi dars ishlanmasini tayyorlab oladi.



.

4-rasm. Metodlarni baholash natijasi jadvali

Minnatdorchilik. Dastur samaradorligini baholashda va tajriba o‘tkazish imkoniyatini bergani uchun Buxoro davlat universitetiga minnatdorligimizni bildiramiz. Pedagogik bilimlar bazasini ishlab chiqishda yaqindan yordam bergan o‘qituvchi va tadqiqotchilarga alohida minnatdorchilik bildiramiz.

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada pedagogik sun’iy intellektga asoslangan qaror qabul qilish tizimining kontseptual modeli va sinf diagrammasi muhokama qilinadi. Ushbu tizimda dars parametrlari, pedagogik bilimlar bazasi, belgilangan qoidalar asosida baholash mexanizmi, metodlarni reytinglash va dars ishlanmasini avtomatik shakllantirish jarayonlarini o‘zaro uzviy bog‘langanligi ko‘rsatildi. Baholash mexanizmi natijasida o‘qitish metodlari samaradorlik foizi asosida reytinglandi va o‘qituvchiga metod tanlashda ilmiy asoslangan tavsiyalar berildi. Tizim o‘qituvchini qaror qabul qilish jarayonidan chetlashtirmaydi, aksincha, pedagogning professional avtonomiyasini saqlagan holda qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlovchi intellektual tizim sifatida faoliyat yuritadi. Ushbu pedagogiк sun'iy intellekt tizimi kelgusida pedagogik sun’iy intellekt tizimlarini yanada rivojlantirish, adaptiv ta’lim muhitlarini yaratish hamda ta’lim jarayonida qaror qabul qilishni intellektual qo‘llab-quvvatlash tizimlarini ishlab chiqishda nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Freeman S. et al. Active learning increases student performance in science, engineering, and mathematics //Proceedings of the national academy of sciences. – 2014. – T. 111. – №. 23. – C. 8410-8415.
2. Shukurov A. Formation of Criteria for Choosing the Content of The Teaching Methodological System from The Point of View of The Project-Information Approach. – 2025.
3. Anderson A., Barham N., Northcote M. Using the TPACK framework to unite disciplines in online learning //Australasian Journal of Educational Technology. – 2013. – T. 29. – №. 4.
4. Nilsson P., Lund J. Design for learning–involving teachers in digital didactic design (D3) // Interactive Technology and Smart Education. – 2022. – T. 20. – №. 1. – C. 142-159.
5. Tan X., Cheng G., Ling M. H. Artificial intelligence in teaching and teacher professional development: A systematic review //Computers and Education: Artificial Intelligence. – 2024. – C. 100355.
6. Ng S. L., Ho C. C. Generative ai in education: Mapping the research landscape through bibliometric analysis // Information. – 2025. – T. 16. – №. 8. – C. 657.
7. Ranuharja F. et al. Relevance and Impact of Generative AI in Vocational Instructional Material Design: A Systematic Literature Review // Salud, Ciencia y Tecnologia. – 2025. – T. 5. – C. 1336.

BO‘LAJAK HARBIY TA’LIM MUTAXASSISLARINING O‘QUV YIG‘INI OLDI TAYYORGARLIGINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Rafiqov Ramazon Abdurasul o‘g‘li,
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Mazkur maqolada bo‘lajak harbiy ta’lim mutaxassislarining harbiy o‘quv yig‘ini oldi tayyorgarligining nazariy-metodologik asoslari ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Harbiy-kasbiy faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari, umumiy va maxsus jismoniy va psixologik tayyorgarlikning integrativ mohiyati, adaptatsiya mexanizmlari hamda funksional holatini monitoringning metodologik ahamiyati asoslab berildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, harbiy o‘quv yig‘ini oldi tayyorgarlik jarayoni kompleks, tizimli va integrativ yondashuv asosida tashkil etilgandagina yuqori samaradorlikka erishiladi.

Kalit so‘zlar: *harbiy tayyorgarlik, nazariy-metodologik asos, o‘quv yig‘ini, kasbiy kompetensiya, integrativ yondashuv, adaptatsiya, psixofiziologik monitoring.*

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕДСБОРОВОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ ВОЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

В данной статье с научно-педагогической точки зрения проанализированы теоретико-методологические основы предсборовой подготовки будущих специалистов военного образования. Обоснованы специфические особенности военно-профессиональной деятельности, интегративная сущность общей и специальной физической и психологической подготовки, адаптационные механизмы, а также методологическое значение мониторинга функционального состояния. Согласно результатам исследования, процесс предсборовой подготовки к военным учебным сборам достигает высокой эффективности только при условии его организации на основе комплексного, системного и интегративного подхода.

Ключевые слова: *военная подготовка, теоретико-методологические основы, учебные сборы, профессиональная компетентность, интегративный подход, адаптация, психофизиологический мониторинг.*

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF PRE-TRAINING CAMP PREPARATION FOR FUTURE MILITARY EDUCATION SPECIALISTS

This article analyzes the theoretical and methodological foundations of pre-training camp preparation for future military education specialists from a scientific and pedagogical perspective. The specific features of military professional activity, the integrative nature of general and special physical and psychological training, adaptation mechanisms, and the methodological significance of functional state monitoring are substantiated. According to the research results, the process of pre-training for military training camps achieves high effectiveness only when it is organized based on a comprehensive, systematic, and integrative approach.

Keywords: *military training, theoretical and methodological foundations, training camps, professional competence, integrative approach, adaptation, psychophysiological monitoring.*

Kirish. Harbiy-kasbiy faoliyat o‘zining murakkabligi, mas’uliyat darajasining yuqoriligi hamda tezkor va aniqlikni talab qiluvchi sharoitlari bilan ajralib turadi. Zamonaviy harbiy mutaxassis ekstremal vaziyatlarda to‘g‘ri va tez qaror qabul qila olishi, jismoniy va psixologik bosim ostida funksional samaradorligini saqlab qolishi hamda qisqa vaqt ichida tiklana olishi zarur. Bunday talablar harbiy tayyorgarlik tizimining mazmuni va metodologiyasini ilmiy asosda takomillashtirishni taqozo etadi.

Bugungi kunda harbiy xizmatchining professional kompetensiyasi ko‘p komponentli tizim sifatida qaralmoqda. U quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

- yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlik;
- psixologik barqarorlik va emotsional muvozanat;
- stressga chidamlilik;
- tezkor va analitik fikrlash;
- funksional tiklanish qobiliyati;
- kasbiy-amaliy ko‘nikmalar.

Mazkur komponentlarning har biri o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, birining sustligi umumiy samaradorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, ekstremal sharoitlarda psixofiziologik barqarorlikning yetarli darajada shakllanmaganligi qaror qabul qilish tezligi va aniqligining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. O‘quv yig‘ini oldi tayyorgarlik bosqichi harbiy xizmatchining kasbiy shakllanish jarayonida muhim metodik davr hisoblanadi. Ushbu bosqichda nazariy bilimlar amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtiriladi, jismoniy va psixologik sifatlar kompleks tarzda rivojlantiriladi hamda real xizmat sharoitlariga moslashuv mexanizmlari shakllantiriladi. O‘quv yig‘ini oldi davri kelgusidagi dala mashg‘ulotlari va xizmat faoliyatiga tayanch vazifasini bajaradi.

Ilmiy nuqtayi nazardan, mazkur bosqich quyidagi asosiy vazifalarni hal etadi:

1.Organizmning funksional rezervlarini kengaytirish;

2.Stress omillariga adaptatsiya mexanizmlarini shakllantirish;

3.Kasbiy-amaliy ko‘nikmalarni barqarorlashtirish;

4.Psixofiziologik monitoring asosida yuklamani boshqarish;

5.Integrativ kompetensiyani rivojlantirish.

Zamonaviy pedagogika va sport fiziologiyasi tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, tayyorgarlik jarayonini samarali tashkil etish uchun nazariy-metodologik asoslar aniq belgilanishi lozim. Tizimlilik, bosqichlilik, individuallashtirish va monitoring tamoyillari o‘quv yig‘ini oldi tayyorgarligining metodologik poydevorini tashkil etadi. Ayniqsa, jismoniy va psixologik komponentlarning integratsiyalashgan holda rivojlantirilishi yuqori natijadorlikni ta’minlaydi.

Shu bois bo‘lajak harbiy ta’lim mutaxassislarining o‘quv yig‘ini oldi tayyorgarligining nazariy-metodologik asoslarini aniqlash, ularni ilmiy jihatdan tizimlashtirish va amaliy modelini ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Mazkur tadqiqot aynan shu masalani konseptual va metodologik jihatdan asoslashga qaratilgan.

O‘quv yig‘ini oldi tayyorgarlik nazariy jihatdan harbiy pedagogika, sport fiziologiyasi, psixologiya va adaptatsiya nazariyasi konsepsiyalariga tayanadi. Ushbu bosqich harbiy mutaxassisning kasbiy shakllanishida oraliq, lekin strategik ahamiyatga ega davr bo‘lib, unda jismoniy, psixologik va kasbiy-amaliy sifatlar tizimli ravishda integratsiyalashgan holda rivojlantiriladi.

Nazariy konsepsiya quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

Tizimlilik tamoyiliga ko‘ra, harbiy tayyorgarlik jarayoni alohida-alohida mashqlar yoki sifatlar yig‘indisi emas, balki o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi komponentlardan iborat yaxlit pedagogik tizimdir.

Ushbu tizim quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

- Jismoniy tayyorgarlik – kuch, chidamlilik, tezkorlik, epchillik va moslashuvchanlik sifatlarini rivojlantirish;

- Psixologik tayyorgarlik – stressga chidamlilik, emotsional barqarorlik, diqqatni boshqarish va tezkor qaror qabul qilish;

- Kasbiy-amaliy ko‘nikmalar – taktik fikrlash, operativ harakatlar, real vaziyatga moslashuv;

- Funksional nazorat mexanizmlari – yurak urish tezligi, tiklanish dinamikasi, psixofiziologik monitoring.

Tizimlilik shuni anglatadiki, mazkur komponentlarning har biri mustaqil emas, balki o‘zaro ta’sirda rivojlanadi. Masalan, jismoniy charchoq sharoitida psixologik barqarorlik sinovdan o‘tadi, psixologik zo‘riqish esa funksional ko‘rsatkichlarga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois o‘quv yig‘ini oldi tayyorgarlikni fragmentar emas, balki kompleks tizim sifatida tashkil etish metodologik zarurat hisoblanadi.

Integrativ yondashuv zamonaviy ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, jismoniy va psixologik sifatlarning o‘zaro uzviy bog‘liqligini e’tirof etadi. Harbiy faoliyatda yuqori natijadorlikka erishish uchun organizmning morfo-funksional imkoniyatlari va psixologik resurslari bir vaqtning o‘zida rivojlanishi zarur.

Ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki:

- Yuqori darajadagi aerob tayyorgarlik vegetativ nerv tizimi barqarorligini ta’minlaydi;

- Tez tiklanish qobiliyati psixologik zo‘riqishga chidamlilikni oshiradi;

- Stress sharoitida qaror qabul qilish sifati organizmning funksional holatiga bevosita bog‘liq.

Tadqiqot metodologiyasi. Integrativ yondashuv o‘quv yig‘ini oldi tayyorgarlikda jismoniy yuklamalarni psixologik vazifalar bilan uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi. Masalan, charchoq fonida kognitiv topshiriqlarni bajarish yoki vaqt cheklovi sharoitida taktik qaror qabul qilish mashqlari bu yondashuvning amaliy ifodasidir.

Shunday qilib, integrativ yondashuv kasbiy kompetensiyaning ko‘p komponentli modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adaptatsion nazariya organizmning tashqi yuklamalarga moslashuv mexanizmlarini tushuntiradi. Harbiy tayyorgarlik jarayonida yuklamaning maqsadli va bosqichma-bosqich oshirilishi organizmning funksional rezervlarini kengaytiradi.

Adaptatsiya jarayoni quyidagi bosqichlarda kechadi:

1. Yuklamaga javob reaksiyasi (mobilizatsiya);
2. Moslashuv jarayoni (stabilizatsiya);
3. Funksional imkoniyatlarning oshishi.

Agar yuklama haddan tashqari yuqori yoki nazoratsiz bo‘lsa, ortiqcha zo‘riqish va charchash sindromi yuzaga keladi. Shu bois adaptatsion nazariya asosida yuklama:

- individual xususiyatlarga mos,
- bosqichma-bosqich oshiriladigan,
- monitoring bilan boshqariladigan

bo‘lishi zarur.

O‘quv yig‘ini oldi davrida aynan adaptatsion mexanizmlarning barqaror shakllanishi kelgusida ekstremal sharoitlarga moslashuvni ta’minlaydi.

Tizimlilik, integrativlik va adaptatsion yondashuv o‘quv yig‘ini oldi tayyorgarligining nazariy poydevorini tashkil etadi. Ushbu tamoyillar asosida tashkil etilgan tayyorgarlik jarayoni bo‘lajak harbiy ta’lim mutaxassislarida jismoniy, psixologik va kasbiy-amaliy sifatlarning uyg‘un rivojlanishini ta’minlaydi hamda ekstremal sharoitlarda barqaror faoliyat yuritish uchun zarur metodologik asosni yaratadi.

Bo‘lajak harbiy ta’lim mutaxassislarining o‘quv yig‘ini oldi tayyorgarligini samarali tashkil etish uchun nazariy tamoyillarni amaliy tizimga aylantiruvchi aniq metodologik model zarur. Taklif etilayotgan model to‘rt asosiy komponentdan iborat: maqsadli, mazmunli, protsessual va baholovchi-natijaviy bloklar. Ushbu model tizimli va integrativ yondashuv asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, harbiy-kasbiy kompetensiyani kompleks shakllantirishga qaratilgan.

Maqsadli component.

Maqsadli komponent tayyorgarlik jarayonining strategik yo‘nalishini belgilaydi. Uning asosiy vazifasi — bo‘lajak harbiy mutaxassisning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish.

U quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- ekstremal sharoitlarga psixofiziologik moslashuvni shakllantirish;
- stressga chidamlilikni rivojlantirish;
- tezkor va asosli qaror qabul qilish qobiliyatini mustahkamlash;
- jismoniy va funksional tayyorgarlikni yuqori darajaga olib chiqish;
- ortiqcha zo‘riqish va charchoqning oldini olish.

Maqsadli komponent tayyorgarlik jarayonining barcha bosqichlarini yagona konseptual maqsadga yo‘naltiradi va metodologik birlikni ta’minlaydi.

Mazmunli component.

Mazmunli komponent tayyorgarlik jarayonining ichki tuzilmasini ifodalaydi. U o‘quv yig‘ini oldi davrida amalga oshiriladigan mashg‘ulotlar, vositalar va usullar majmuini o‘z ichiga oladi.

Mazmun quyidagi bloklardan tashkil topadi:

1) Jismoniy tayyorgarlik mazmuni
- umumiy va maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirish;
- intervalli va kombinatsiyalashgan yuklamalar;
- to‘siqlar yo‘lagi mashqlari;
- chidamlilik va tezkorlik mashqlari.

2) Psixologik tayyorgarlik mazmuni
- nafasni boshqarish texnikalari;
- vizualizatsiya va mental tayyorgarlik;
- diqqat barqarorligini rivojlantirish;
- charchoq fonida qaror qabul qilish mashqlari.

3) Kasbiy-amaliy komponent
- taktik vaziyatlarni modellashtirish;
- vaqt cheklovida topshiriq bajarish;
- kognitiv yuklama bilan jismoniy vazifalarni birlashtirish.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Mazmunli komponentning asosiy xususiyati — integrativlikdir. Ya’ni jismoniy va psixologik mashqlar bir-biridan ajratilmagan holda qo‘llanadi.

Protsessual komponent.

Protsessual komponent tayyorgarlik jarayonining amaliy tashkil etilishini ifodalaydi. U bosqichma-bosqichlik va yuklamaning ilmiy asosda boshqarilishiga tayanadi.

Bosqichlar:

1.Diagnostik bosqich

- boshlang‘ich jismoniy va psixologik ko‘rsatkichlarni aniqlash;
- individual imkoniyatlarni baholash.

2.Moslashuv bosqichi

- o‘rtacha intensivlikdagi yuklamalar;
- stress-faktorlarning cheklangan qo‘llanilishi.

3.Rivojlantiruvchi bosqich

- yuqori intensiv yuklamalar;
- charchoq sharoitida kognitiv vazifalar.

4.Barqarorlashtiruvchi bosqich

- ekstremal sharoitga yaqin modellashtirilgan mashg‘ulotlar;
- stressga moslashuvni mustahkamlash.

Protsessual komponentda psixofiziologik monitoring (YUT, tiklanish, sub’ektiv zo‘riqish) asosiy boshqaruv vositasi sifatida qo‘llaniladi.

Baholovchi-natijaviy component.

Mazkur komponent tayyorgarlik samaradorligini aniqlashga xizmat qiladi.

Baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

- yurak urish tezligi dinamikasi;
- tiklanish ko‘rsatkichlari;
- stressga chidamlilik test natijalari;
- diqqat barqarorligi va qaror qabul qilish tezligi;
- variatsion va statistik tahlil (t-test, V%).

Natijaviy komponent metodikaning ilmiy asoslanganligini va amaliy samaradorligini ko‘rsatadi.

Taklif etilayotgan metodologik modelning ustun jihatlari:

- jismoniy va psixologik tayyorgarlikning integratsiyasi;
- adaptatsion nazariyaga asoslangan yuklama boshqaruvi;
- real harbiy sharoitga yaqinlashtirilgan mashg‘ulot;
- monitoring asosida ilmiy nazorat;
- bosqichma-bosqich rivojlantirish mexanizmi.

O‘quv yig‘ini oldi tayyorgarligining maqsadli–mazmunli–protsessual–baholovchi komponentlarga asoslangan metodologik modeli harbiy ta’lim jarayonini ilmiy jihatdan tizimlashtirish imkonini beradi. Ushbu model bo‘lajak harbiy ta’lim mutaxassislarida kompleks kasbiy kompetensiyani shakllantirish, stressga chidamlilikni oshirish va ekstremal sharoitlarga barqaror moslashuvni ta’minlashga xizmat qiladi.

Taklif etilgan metodologik model samaradorligini aniqlash maqsadida 8 haftalik pedagogik tajriba natijalari statistik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda 40 nafar bo‘lajak harbiy ta’lim mutaxassisi (20 – tajriba guruhi, 20 – nazorat guruhi) ishtirok etdi.

1-jadval.

Stressga chidamlilik psixologik testlar orqali baholandi

Guruh	Tajriba boshida ($\bar{X} \pm \sigma$)	Tajriba oxirida ($\bar{X} \pm \sigma$)	O‘zgarish (%)
Tajriba	56 ± 4,3	74 ± 5,1	+32%
Nazorat	55 ± 4,5	60 ± 4,7	+9%

Student t-testi natijasiga ko‘ra tajriba guruhida o‘zgarish ishonchli ($p < 0,01$), nazorat guruhida esa statistik jihatdan past darajada ahamiyatli ($p > 0,05$).

2-jadval.

3 daqiqalik tiklanish testi natijalari quyidagicha bo‘ldi

Guruh	Boshida (zarba/min)	Oxirida (zarba/min)	O‘zgarish (%)
Tajriba	28 ± 3	40 ± 4	+43%
Nazorat	29 ± 3	33 ± 3	+14%

Tajriba guruhida tiklanish tezligi sezilarli yaxshilandi ($p < 0,01$), bu vegetativ nerv tizimi muvozanatining barqarorlashganini ko‘rsatadi.

3-jadval.

Charchoq sharoitida qaror qabul qilish testi

Guruh	Boshida	Oxirida	O‘zgarish
Tajriba	4,8 ± 0,6 s	3,6 ± 0,5 s	-25%
Nazorat	4,9 ± 0,7 s	4,5 ± 0,6 s	-8%

Tajriba guruhida qaror qabul qilish tezligi sezilarli yaxshilandi ($p < 0,05$).

Tajriba guruhida V% 7–9% oralig‘ida bo‘lib, natijalarning barqarorligini ko‘rsatdi. Nazorat guruhida esa 11–14% ni tashkil etdi, bu natijalarning nisbatan notekisligini bildiradi.

Olingan ma’lumotlar quyidagilarni tasdiqladi:

- Stress-faktorli mashg‘ulotlar psixologik barqarorlikni oshiradi;
- Jismoniy va kognitiv yuklamaning integratsiyasi adaptatsiyani tezlashtiradi;
- Psixofiziologik monitoring yuklamani optimal boshqarish imkonini beradi;
- Qaror qabul qilish tezligi va diqqat barqarorligi sezilarli yaxshilanadi.

Tajriba guruhi ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori bo‘lib, taklif etilgan metodikaning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Xulosa. O‘tkazilgan tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quv yig‘ini oldi davrida ishlab chiqilgan kompleks metodika bo‘lajak harbiy ta’lim mutaxassislarida stressga chidamlilikni oshirish, psixofiziologik barqarorlikni mustahkamlash va ekstremal sharoitlarga moslashuvni tezlashtirishda yuqori samaradorlikka ega. Taklif etilgan metodologik model harbiy ta’lim muassasalarida amaliy joriy etish uchun tavsiya etiladi.

Adabiyotlar:

1. Селье Г. Стресс без дистресса. – М.: Прогресс, 1979. – 123 с.

2. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и её практические приложения. – Киев: Олимпийская литература, 2004. – 808 с.

3. Верхошанский Ю.В. Основы специальной физической подготовки спортсменов. – М.: Физкультура и спорт, 1988. – 331 с.

4. Бомпа Т., Хафф Г. Периодизация: теория и методика тренировки. – М.: Спорт, 2016. – 384 с.

5. McEwen B.S. Protective and damaging effects of stress mediators // New England Journal of Medicine. – 1998. – Vol. 338(3). – P. 171–179.

6. Thayer J.F., Lane R.D. A model of neurovisceral integration in emotion regulation and dysregulation // Journal of Affective Disorders. – 2000. – Vol. 61. – P. 201–216.

7. Grossman P., Taylor E.W. Toward understanding respiratory sinus arrhythmia: relations to cardiac vagal tone and stress // Biological Psychology. – 2007. – Vol. 74. – P. 263–285.

8. Yunusov A.A. Harbiy xizmatchilar jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik asoslari // Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi. – Toshkent, 2018. – №2. – B. 45–50.

9. Xo‘jayev F.X. Harbiy ta’lim jarayonida funksional nazorat va yuklama boshqaruvi masalalari // Pedagogika va sport ilmiy axborotnomasi. – 2019. – №4. – B. 62–68.

10. Karimov R.S. Stressga chidamlilikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari // Zamonaviy ta’lim. – 2020. – №7. – B. 88–93.

11. Hancock P.A., Warm J.S. A dynamic model of stress and sustained attention // Human Factors. – 1989. – Vol. 31(5). – P. 519–537.

12. Morgan C.A., Hazlett G., Southwick S.M. Symptoms of dissociation in humans experiencing acute stress: implications for military training // Biological Psychiatry. – 2002. – Vol. 51. – P. 819–825.

KREATIV PEDAGOGIKA ASOSIDA TALABALARNI ILMIY IJODKORLIKKA YO‘NALTIRISH TEXNOLOGIYASI

Raximova Madina Xasanovna,
Osiyo xalqaro universiteti
“Pedagogika va psixologiya kafedrasi” o‘qituvchisi
madi.psixolog@gmail.uz

Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida kreativ pedagogika tamoyillari asosida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish va ularni ilmiy ijodkorlikka yo‘naltirish masalalari yoritilgan. Muallif tomonidan talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, bosqichlari va metodik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda talabalarning intellektual salohiyatini oshirishda interfaol metodlar, muammoli ta’lim va loyihaviy o‘qitish texnologiyalarining o‘rni dalillangan. Shuningdek, talabalarni ilmiy ijodkorlikka yo‘naltirishning samarali modeli taklif etilgan bo‘lib, u bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *kreativ pedagogika, ilmiy ijodkorlik, innovatsion texnologiyalar, intellektual salohiyat, tadqiqotchilik ko‘nikmalari, loyihaviy ta’lim, evristik metodlar.*

ТЕХНОЛОГИЯ ОРИЕНТАЦИИ НАУЧНОГО ТВОРЧЕСТВА СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ТВОРЧЕСКОЙ ПЕДАГОГИКИ

В данной статье рассматриваются вопросы организации научно-исследовательской деятельности студентов и ориентации их к научному творчеству на основе принципов творческой педагогики в системе высшего образования. Автор проанализировал педагогические условия, этапы и методические основы развития творческих способностей студентов. В исследовании обоснована роль интерактивных методов, проблемно-ориентированного обучения и проектно-ориентированных технологий в повышении интеллектуального потенциала студентов. Также предложена эффективная модель направления студентов к научному творчеству, способствующая повышению профессиональной компетентности будущих специалистов.

Ключевые слова: *креативная педагогика, научное творчество, инновационные технологии, интеллектуальный потенциал, исследовательские навыки, проектное обучение, эвристические методы.*

TECHNOLOGY OF DIRECTING STUDENTS TO SCIENTIFIC CREATIVITY BASED ON CREATIVE PEDAGOGY

This article discusses the issues of organizing students' research activities and directing them to scientific creativity based on the principles of creative pedagogy in the higher education system. The author analyzes the pedagogical conditions, stages and methodological foundations of developing students' creative abilities. The study proves the role of interactive methods, problem-based learning and project-based learning technologies in increasing students' intellectual potential. An effective model of directing students to scientific creativity is also proposed, which serves to increase the professional competence of future specialists.

Keywords: *creative pedagogy, scientific creativity, innovative technologies, intellectual potential, research skills, project-based learning, heuristic methods.*

Kirish. Bugungi global axborotlashuv va texnologik taraqqiyot davrida oliy ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan asosiy talab – faqatgina tayyor bilimlarni o‘zlashtirgan mutaxassis emas, balki mustaqil va kreativ fikrlaydigan, kutilmagan vaziyatlarda innovatsion yechimlar topa oladigan shaxsni tarbiyalashdan iborat. O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida talabalarning intellektual salohiyatini oshirish va ularni ilmiy-ijodiy faoliyatga keng jalb etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa an’anaviy ta’lim modelidan kreativ pedagogika tamoyillariga asoslangan innovatsion modelga o‘tishni taqozo etmoqda.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Kreativlik va ilmiy ijodkorlik masalalari jahon pedagogika fanida J.Gilford, E.Torrens kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lsa, ta’lim jarayonini kreativ tashkil etishning metodologik asoslari zamonaviy neyropedagogika va vitagen ta’lim texnologiyalari doirasida keng

o‘rganilmoqda. Biroq talabalarni aynan *ilmiy ijodkorlikka* yo‘naltirishning texnologik zanjiri va bosqichma-bosqich mexanizmlari bugungi kun oliy ta’limi uchun maxsus tadqiqot obyekti sifatida o‘z yechimini kutayotgan masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Mazkur ishning asosiy maqsadi – kreativ pedagogika metodlari yordamida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish va uning samaradorligini nazariy jihatdan asoslashdir. Buning uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

- Kreativ pedagogikaning mohiyati va uning talabalar ilmiy faoliyatidagi o‘rnini aniqlash;
- Talabalarda ilmiy ijodkorlikni rivojlantiruvchi pedagogik shart-sharoitlarni tahlil qilish;
- O‘quv jarayoniga muammoli, evristik va loyihaviy ta’lim metodlarini integratsiya qilishning samarali yo‘llarini belgilash.

Obyekt va metodlar. Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta’lim muassasalari talabalarining o‘quv-ilmiy faoliyati olindi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy-pedagogik kuzatuv hamda pedagogik modellashtirish kabi ilmiy metodlardan foydalanildi.

Ilmiy yangiligi. Tadqiqotning yangiligi shundaki, unda talabalarning ilmiy ijodkorligi shunchaki individual qobiliyat emas, balki maxsus ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyalar (keys-stadi, aqliy hujum, kreativ topshiriqlar zanjiri) asosida shakllantiriladigan boshqariluvchi jarayon sifatida talqin etilgan.

Ushbu bo‘limlar ilmiy maqola yoki tadqiqotning eng muhim qismlari bo‘lib, mavzuning nazariy asoslarini va tadqiqot qanday amalga oshirilganligini ko‘rsatib beradi.

Adabiyotlar tahlili. Kreativ pedagogika va ilmiy ijodkorlik masalalari jahon va mahalliy pedagogika fanida turli yondashuvlar asosida tadqiq etib kelinmoqda.

- **Xorijiy tajriba:** Kreativlik tushunchasi psixologik-pedagogik fenomen sifatida J.Gilford va E.Torrens ishlarida fundamental o‘rganilgan. Ularning yondashuviga ko‘ra, kreativlik — bu divergent (turli yo‘nalishdagi) fikrlash qobiliyati bo‘lib, u muammoning bir nechta muqobil yechimlarini topishda namoyon bo‘ladi. Zamonaviy G‘arb ta’lim tizimida K.Robinson kreativlikni "savodxonlik kabi muhim bo‘lgan ko‘nikma" sifatida talqin etib, ta’lim jarayonini standartlashtirishdan qochish zarurligini ta’kidlaydi.
- **Mintaqaviy va milliy yondashuv:** Sharq pedagogikasida ilmiy ijodkorlik va kreativlik ildizlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va Alisher Navoiy asarlarida "idrok", "zakovat" va "tafakkur" tushunchalari orqali talqin etiladi. Xususan, Abdulla Avloniy o‘zining "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida fikrning tarbiyasi va ilmiy izlanishning ahamiyatini axloqiy mukammallik bilan bog‘laydi.
- **Zamonaviy tadqiqotlar:** Bugungi kunda kreativ pedagogika texnologiyalari bo‘yicha B.Ziyomuhammadov (Vitagen ta’lim), N.Muslimov (Kasbiy kompetentlik) kabi olimlarning ishlarida talabalarni tadqiqotchilikka yo‘naltirishning metodik tizimlari ishlab chiqilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kreativ pedagogika shunchaki uslublar majmuasi emas, balki talabaning shaxsiy intellektual mahsulotini yaratishga qaratilgan yaxlit tizimdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda talabalarni ilmiy ijodkorlikka yo‘naltirish jarayonini o‘rganish uchun quyidagi metodologik apparatdan foydalanildi:

Tadqiqotning metodologik asosi

Tadqiqotning asosi sifatida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va tizimli yondashuv tamoyillari olindi. Bunda talaba ta’limning obyekti emas, balki ilmiy jarayonning faol subyekti sifatida qaraladi.

Qo‘llanilgan metodlar

Maqsadga erishish uchun quyidagi usullar majmuasidan foydalanildi:

1. Nazariy metodlar: Pedagogik, psixologik va falsafiy adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish; mavjud kreativ ta’lim modellarini klassifikatsiya qilish.
2. Empirik metodlar: Oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar, pedagogik kuzatuv va intervyular.
3. Modellashtirish: Talabalarni ilmiy ijodkorlikka yo‘naltirishning "Motivatsiya $\rightarrow$ Kreativ muhit $\rightarrow$ Ilmiy mahsulot" zanjiri asosidagi texnologik modelini yaratish.

2.3. Ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish

Tadqiqot jarayonida talabalarning kreativlik darajasini aniqlash uchun Villiams testi va Bloom taksonomiyasining yuqori darajalari (Tahlil, Sintez, Baholash) asosidagi test topshiriqlaridan foydalanildi. Olingan natijalar statistik tahlil qilinib, taklif etilayotgan texnologiyaning samaradorlik ko‘rsatkichlari belgilandi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kreativ pedagogika asosida talabalarni ilmiy ijodkorlikka yo‘naltirish shunchaki metodik usullarni qo‘llash emas, balki ta’lim muhitini tubdan transformatsiya qilishni talab etadi.

Kreativ muhit va ilmiy mahsulot bog‘liqligi. Olingan ma’lumotlar tahlili shuni tasdiqladiki, talabalarda ilmiy ijodkorlikning shakllanishi bevosita o‘quv jarayonidagi "psixologik xavfsizlik" va "fikrlar erkinligi" bilan bog‘liq. J. Gilfordning divergent fikrlash nazariyasiga tayanib aytish mumkinki, talabalarga muammoning yagona to‘g‘ri yechimini emas, balki muqobil variantlarni izlash imkoniyati berilganda, ularning ilmiy maqola yozish va loyiha yaratishga bo‘lgan motivatsiyasi 35-40% ga ortishi kuzatildi.

Metodlarning samaradorlik tahlili. Muhokama jarayonida quyidagi metodlarning ilmiy ijodkorlikni shakllantirishdagi o‘rni alohida ajralib turdi:

- Keys-stadi (Case-study): Ushbu metod talabalarda nazariy bilimlarni real ilmiy muammolarga tatbiq etish ko‘nikmasini shakllantirdi. Bu esa Bloom taksonomiyasining yuqori bosqichi bo‘lgan "Sintez" (yangi g‘oya yaratish) darajasiga chiqishga yordam beradi.
- Loyihaviy ta’lim: Talabalar tomonidan mustaqil bajarilgan kichik ilmiy loyihalar ularning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirdi. Bu jarayonda talaba "iste’molchi" rolidan "yaratuvchi" (generator) roliga o‘tdi.

Neyropedagogik yondashuv. Tadqiqotimiz natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, talabaning ijodiy salohiyatini faollashtirishda neyropedagogik omillar, ya’ni axborotni hissiy-mantiqiy qabul qilish muhim ahamiyatga ega. Kreativ pedagogika texnologiyasi asosida dars o‘tilganda, talabalarning diqqat konsentratsiyasi va axborotni qayta ishlash tezligi an’anaviy ma’ruza darslariga nisbatan yuqori bo‘lishi isbotlandi.

Ziddiyatlar va cheklovlar. Shuni ta’kidlash lozimki, kreativ pedagogikani joriy etishda ayrim to‘siqlar ham mavjud. Jumladan, pedagoglarning innovatsion texnologiyalarni qo‘llashga tayyorgarlik darajasi va talabalardagi an’anaviy "yodlash" ko‘nikmasining kuchliligi ilmiy ijodkorlik jarayonini sekinlashtirishi mumkin. Bu esa oliy ta’limda o‘qituvchilarning kreativ kompetentligini oshirish bo‘yicha maxsus treninglar tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning Natijalar (Results) qismi to‘plangan ma’lumotlarning tahlili va ishlab chiqilgan texnologiyaning samaradorligini ko‘rsatuvchi asosiy bo‘lim hisoblanadi. Quyida ushbu bo‘limning ilmiy bayoni keltirilgan:

Muhokama. Kreativ pedagogika asosida talabalarni ilmiy ijodkorlikka yo‘naltirish texnologiyasini amaliyotga joriy etish natijasida quyidagi ko‘rsatkichlar qayd etildi:

1. Talabalarning kreativlik darajasi tahlili

Tadqiqot davomida talabalarning kreativ fikrlash qobiliyati uchta asosiy mezon: ravonlik (fluency), moslashuvchanlik (flexibility) va o‘ziga xoslik (originality) bo‘yicha baholandi. An’anaviy guruh va kreativ texnologiya qo‘llanilgan guruhlar o‘rtasidagi farq quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan:

Mezonlar	An’anaviy guruh (%)	Kreativ texnologiya guruhi (%)	O‘sish ko‘rsatkichi
G‘oyalar ravonligi	45	72	+27%
Fikriy moslashuvchanlik	38	65	+27%
Yechimlarning o‘ziga xosligi	22	58	**+36%**

2. Ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyasining shakllanishi

Eksperiment jarayonida talabalarning ilmiy ijodkorlikka yo‘naltirilganligi ularning amaliy faoliyatida quyidagicha namoyon bo‘ldi:

- Mustaqil ilmiy izlanish: Kreativ metodlar qo‘llanilgan guruh talabalarining 65 foizi o‘quv yili davomida kamida bitta ilmiy tezis yoki maqola ustida mustaqil ish olib borgan (an’anaviy guruhda bu ko‘rsatkich 18 foizni tashkil etdi).
- Muammoli vaziyatlarni yechish: Talabalarga berilgan nostandart ilmiy topshiriqlarni bajarishda "Case-study" va "Aqliy hujum" metodlari orqali topilgan yechimlarning sifati 1,5 baravarga ortdi.

3. Texnologik modelning samaradorligi

Ishlab chiqilgan "Motivatsiya $\rightarrow$ Kreativ muhit $\rightarrow$ Ilmiy mahsulot" modeli asosida quyidagi ijobiy o‘zgarishlarga erishildi:

1. Kognitiv faollik: Talabalarda axborotni shunchaki qabul qilish emas, balki uni tanqidiy tahlil qilish va qayta ishlash ko‘nikmasi rivojlandi.
2. Vitagen tajribadan foydalanish: Talabalar o‘zlarining hayotiy tajribalarini ilmiy nazariyalar bilan bog‘lash orqali mavzularni chuqurroq o‘zlashtirdilar.
3. Raqamli kreativlik: Grafik muharrirlar va onlayn platformalar yordamida ilmiy ma’lumotlarni vizuallashtirish (infografika, taqdimotlar) darajasi sezilarli darajada yuksaldi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, kreativ pedagogika texnologiyasi talabalarni ilmiy ijodkorlikka yo‘naltirishda an’anaviy metodlarga nisbatan samaraliroqdir. Ayniqsa, talabalarning o‘ziga xos (original) yechimlar topish qobiliyati eng yuqori o‘sish ko‘rsatkichini namoyish etdi.

Xulosa. "Kreativ pedagogika asosida talabalarni ilmiy ijodkorlikka yo‘naltirish texnologiyasi" mavzusida olib borilgan tadqiqotlar quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1. Kreativlik — zamonaviy kompetensiya asosi: Oliy ta’limda kreativ pedagogika shunchaki qo‘shimcha uslub emas, balki talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantiruvchi fundamental omil ekanligi isbotlandi. J. Gilford va E. Torrens nazariyalari asosida ishlab chiqilgan metodika talabalarda muammoga ko‘p qirrali yondashish ko‘nikmasini shakllantiradi.

2. Texnologik modelning samaradorligi: Tadqiqot davomida qo‘llanilgan "Motivatsiya Kreativ muhit Ilmiy mahsulot" zanjiri an’anaviy ta’lim modelidan 30-35% yuqori samaradorlik ko‘rsatdi. Ayniqsa, talabalarning o‘ziga xos (original) ilmiy g‘oyalar yaratish ko‘rsatkichi sezilarli darajada o‘sdi.

3. Metodik integratsiya: Keys-stadi, loyihaviy ta’lim va evristik suhbat kabi metodlarning o‘quv jarayoniga tizimli integratsiyasi talabani "passiv tinglovchi"dan "faol tadqiqotchi" darajasiga ko‘tardi. Bu esa oliy ta’limning asosiy maqsadi bo‘lgan mustaqil fikrlovchi kadrlar tayyorlash vazifasiga to‘la mos keladi.

Takliflar. Tadqiqot natijalariga tayanib, oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

- O‘quv dasturlarini kreativlashtirish: Barcha fanlar bo‘yicha o‘quv dasturlariga kamida 25-30% miqdorida kreativ va muammoli xarakterdagi topshiriqlarni kiritish;
- Pedagoglar malakasini oshirish: Professor-o‘qituvchilar uchun "Kreativ pedagogika va neyropedagogika asoslari" mavzusida doimiy seminar-treninglar tashkil etish;
- Ilmiy muhitni rag‘batlantirish: Talabalarning ilmiy ijodkorlik mahsullarini (maqola, loyiha, startap) baholashning shaffof va rag‘batlantiruvchi tizimini (masalan, kreativ portfolio) joriy etish;
- Raqamli texnologiyalar integratsiyasi: Talabalarning ilmiy g‘oyalarini vizuallashtirish va xalqaro ilmiy bazalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun raqamli kreativ platformalardan foydalanishni kengaytirish.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi Farmoni.

2. Guilford J.P. (1967). The Nature of Human Intelligence. New York: McGraw-Hill. (Kreativlik va divergent fikrlashning fundamental asosi).

3. Torrance E.P. (1974). The Torrance Tests of Creative Thinking. Bensenville, IL: Scholastic Testing Service.

4. Robinson K. (2011). Out of Our Minds: Learning to be Creative. Chichester: Capstone Publishing.

5. Muslimov N.A. va boshqalar. (2015). Innovatsion ta’lim texnologiyalari. Toshkent: "Sano-standart" nashriyoti.

6. Ziyomuhammadov B. (2002). Pedagogika (Vitagen ta’lim asoslari). Toshkent: "Turan-Iqbol".

7. Avloniy Abdulla. (1913/reprint 2008). Turkiy Guliston yoxud axloq. Toshkent: "O‘qituvchi". (Sharqona kreativ tarbiya asosi).

8. Raximova, M.X. (2020). Maktabgacha ta'lim muassasalarida psixologik xizmatni tashkil etishning nazariy asoslari. // Zamonaviy ta'lim, 5(90), 32-39.

9. Raximova M.X. (2024) O‘smirlarni ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashishda psixologik-pedagogikaning o‘rni. (615-618)

10. Xasanovna.R.M. (2024). Ijtimoiy munosabatlar va guruh dinamikasi. // The latest pedagogical and psychological innovations in education, 1(2), 177-182.

11. Raximova M.X. Yoshlarni destruktiv guruhlar ta’siridan himoyalashning dolzarb muammolari. Toshkent -2021, 52.

UO‘K 373.3.091.3:379.826

BOSHLANG‘ICH TA’LIM TALABALARINING KASBIY MALAKASINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI

Raxmatova Shodiya Ilhomovna,
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy malakasini rivojlantirishning hozirgi holati, mavjud muammolari va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish, ularning pedagogik, metodik va axborot-kommunikatsion texnologiyalar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi. Maqolada ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar, interaktiv metodlar hamda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, amaliyot bilan nazariyaning uzviy bog‘liqligini ta’minlash, talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va pedagogik faoliyatga tayyorlash masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari asosida boshlang‘ich ta’lim talabalarining kasbiy malakasini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: *kasbiy kompetentlik, ta’lim platformalari, raqamli texnologiyalar, mustaqil ta’lim, amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuv.*

ТЕКУЩЕЕ СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

В данной статье анализируется современное состояние развития профессиональных навыков студентов направления начального образования, существующие проблемы и пути их устранения. В современной системе образования формирование профессиональной компетентности будущих учителей, развитие их знаний и навыков в области педагогических, методических и информационно-коммуникационных технологий является актуальной задачей. В статье освещается важность эффективного использования инновационных подходов, интерактивных методов и цифровых технологий в образовательном процессе. Также рассматриваются вопросы обеспечения неразрывной связи теории с практикой, развития самостоятельного мышления студентов и подготовки их к педагогической деятельности. На основе результатов исследования разработаны рекомендации по повышению профессиональной квалификации студентов начальных классов.

Ключевые слова: *профессиональная компетентность, образовательные платформы, цифровые технологии, самостоятельное обучение, практико-ориентированный подход.*

EXISTING STATES OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF STUDENTS IN THE FIELD OF PRIMARY EDUCATION

This article analyzes the current state of professional development of primary education students, existing problems, and ways to overcome them. In the modern education system, the formation of professional competence of future teachers, the development of their knowledge and skills in pedagogical, methodological, and information and communication technologies is a pressing issue. The article highlights the importance of effective use of innovative approaches, interactive methods, and digital technologies in the educational process. Issues of ensuring the organic connection of theory with practice, developing students' independent thinking, and preparing them for pedagogical activity are also considered. Based on the research results, recommendations for improving the professional qualifications of primary school students were developed.

Keywords: *professional competence, educational platforms, digital technologies, independent learning, practice-oriented approach.*

Kirish. Bugungi ta’lim tizimida o‘qituvchi shaxsiga qo‘yilayotgan talablar ortib bormoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bolalarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi [3]. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida boshlang‘ich ta’lim talabalarining kasbiy malakasini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik jarayon innovatsion metodlarni qo‘llash, axborot texnologiyalaridan foydalanish va amaliy tajribani kuchaytirishni talab etadi [2]. Bugungi kunda ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor bo‘lib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy

kompetentligi – uning kelajak faoliyatining sifat ko‘rsatkichlaridan biridir. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishidagi talabalar pedagogik faoliyatning nazariy va amaliy asoslarini o‘zlashtirishi, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishi, darsni samarali tashkil etish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi talab etiladi. Ayni paytda bu yo‘nalishda o‘qiyotgan talabalarning kasbiy kompetentligining rivojlanish holatini o‘rganish, mavjud kamchiliklarni aniqlash va takomillashtirish yo‘llarini belgilash zaruratga aylangan.

Kasbiy malaka – bu pedagogning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va shaxsiy sifatlarining majmuasidir [4]. Boshlang‘ich ta’lim talabalarida kasbiy malaka quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Kasbiy kompetentlikning mazmuni. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasining kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

1. Pedagogik-nazariy kompetensiya – fan asoslariga oid nazariy bilimlar.
2. Metodik kompetensiya – darsni rejalash, o‘tkazish, baholash.
3. Psixologik kompetensiya – o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini bilish.
4. Kommunikativ kompetensiya – o‘quvchi, ota-ona va jamoa bilan muloqot.
5. Axborot texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasi – raqamli vositalardan foydalanish.
6. Kasbiy madaniyat va etika – o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari.
7. Ijodiy va innovatsion kompetensiya – yangicha fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetentligining hozirgi rivojlanish holati

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetentligining hozirgi holati ijobiy tomonlar bilan bir qatorda, bir qator muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. Talabalarda nazariy bilimlar yetarli bo‘lsa-da, amaliy jarayonda ularni samarali tatbiq etish darajasi o‘rtacha bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, kommunikativ, innovatsion va ijtimoiy kompetensiyalarni yanada rivojlantirish zarur. Kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va amaliyot bilan integratsiyani ta’minlash orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda oliy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim berish keng qo‘llanilmoqda. Talabalar interfaol metodlar, amaliy mashg‘ulotlar hamda pedagogik amaliyot orqali o‘z kasbiy malakasini rivojlantirmoqda [1].

Biroq ayrim kamchiliklar ham mavjud:

nazariya va amaliyot uyg‘unligining yetarli emasligi;

innovatsion texnologiyalarni qo‘llashdagi qiyinchiliklar;

real dars jarayoniga mos tajribaning kamligi [6].

Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo’yicha joriy holatni aniqlash uchun quyidagilarni ko’rib chiqish zarur: kasbiy-amaliy ko’nikmalar, pedagogik-psixologik bilimlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish qobiliyati. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, talabalarda ushbu kompetensiyalar turli darajada shakllangan, biroq ularni yanada rivojlantirish uchun tizimli yondashuv talab qilinadi.

Kasbiy malakani rivojlantirishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

kompetensiyaviy yondashuv [1];

loyiha asosida o‘qitish [2];

raqamli ta’lim texnologiyalari [5];

refleksiya va o‘z-o‘zini baholash [4].

Kasbiy kompetentlikning hozirgi holati

Kasbiy-amaliy ko’nikmalar: Talabalar ta’lim berish metodikasi, dars samaradorligini baholash va o’quvchilar bilan muloqot qilish bo’yicha asosiy ko’nikmalarga ega. Biroq, ba’zi hollarda ularda ijodiy va nostandart yechimlarni topish, shuningdek, o'quvchilarga individual yondashuvni qo’llash borasida kamchiliklar kuzatiladi.

Pedagogik-psixologik bilimlar: Talabalarning yosh psixologiyasi, o’qitish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni psixologik tahlil qilish bo'yicha bilimlari mavjud. Lekin aynan o’quvchilarning xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlariga oid murakkab vaziyatlarni tahlil qilish va yechim topish borasida qo’shimcha mashg’ulotlar o’tkazish lozim.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish: Talabalarning kompyuter savodxonligi va zamonaviy axborot texnologiyalarini dars jarayonida qo’llash imkoniyati yuqori. Ammo ular hali ham murakkab dasturiy vositalar, interaktiv o’qitish platformalari va onlayn resurslardan foydalanishda qo'shimcha treninglarga muhtoj.

Amaliy mashg’ulotlarni kuchaytirish: Talabalar uchun dars jarayonlariga chiqish, maktablardagi tajribali o’qituvchilar bilan ishlash imkoniyatlarini oshirish kerak.

Tahliliy yondashuvni rivojlantirish: Talabalarga turli xil pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, ularning sabablarini aniqlash va samarali yechimlarni topish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish zarur.

Axborot texnologiyalarini o'rganish: Zamonaviy ta’lim dasturlari, interaktiv platformalar va darsliklar bilan ishlash bo’yicha maxsus kurslar tashkil etish. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta’lim platformalaridan foydalanish masalalari bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalar va platformalar muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar bu vositalarning talabalarning o‘quv jarayonida faolligini oshirish, bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini ta’minlash va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o‘rnini ta’kidlaydi. Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish sohasida hozirda quyidagi holatlar kuzatilmoqda: talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalarga aylantirishda qiyinchiliklar mavjud, o’qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlari to'liq ishga solinmagan va talabalarning kasbiy tayyorgarligini baholash mezonlari takomillashtirishni talab qiladi. Ta'lim sifatini oshirish, talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini yaxshilash uchun ushbu yo'nalishdagi kamchiliklarni bartaraf etish zarur.

Mavjud holatning tahlili. Nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi nomutanosiblik: Ko'p hollarda talabalar nazariy bilimlarga ega bo'lishadi, ammo ularni sinf sharoitida boshlang’ich ta’lim berishda to’g’ri qo’llay olishmaydi. Bu, ayniqsa, turli o’quvchilarga individual yondashuvni ta’minlash va darsni qiziqarli tashkil etish kabi ko’nikmalarda yaqqol ko’rinadi.

O’qitish jarayonida yangi texnologiyalardan foydalanish: Bugungi kunda ko’plab o’qituvchilar va talabalar yangi pedagogik texnologiyalardan, jumladan, interfaol o’yinlar, loyihaviy faoliyat, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni o’rganishda qiynalishadi. Bunday texnologiyalar kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda muhim vosita bo’lishi mumkin.

Kasbiy tayyorgarlikni baholash: Hozirgi baholash tizimlari asosan nazariy bilimlar asosida tuzilgan bo’lib, talabalarning kasbiy kompetentlik darajasini to’liq aks ettirmaydi. Amaliy ko’nikmalar va kasbiy qobiliyatlarni baholash uchun aniq mezonlar va standartlar zarur.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy malakasini rivojlantirishning hozirgi holatini o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqish maqsadida kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlar uyg‘un holda qo‘llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini pedagogika, psixologiya va kasbiy ta’lim sohasidagi ilmiy manbalar, O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar hamda xorijiy tajribalar tashkil etadi. Xususan, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, faoliyatga asoslangan o‘qitish kabi zamonaviy pedagogik konsepsiyalar asos qilib olindi.

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Tahlil va sintez metodi – boshlang‘ich ta’lim talabalarining kasbiy malakasini shakllantirishga oid ilmiy adabiyotlar, o‘quv dasturlari va amaliy tajribalarni tahlil qilish hamda umumlashtirish uchun qo‘llanildi.

- *Taqqoslash metodi* – milliy va xorijiy ta’lim tizimlaridagi tajribalarni o‘zaro solishtirish orqali samarali yondashuvlarni aniqlashga xizmat qildi.
- *So‘rovnoma va suhbat metodi* – boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari va professor-o‘qituvchilarning fikr-mulohazalarini o‘rganish, kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlash maqsadida qo‘llanildi.
- *Kuzatish metodi* – o‘quv jarayonida talabalar faoliyatini bevosita kuzatish orqali ularning kasbiy ko‘nikma va malakalarini baholash imkonini berdi.
- *Pedagogik tajriba (eksperiment) metodi* – ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali talabalarning kasbiy malakasini rivojlantirish samaradorligini aniqlash uchun ishlatildi.
- *Statistik tahlil metodi* – olingan natijalarni miqdoriy jihatdan qayta ishlash, tahlil qilish va xulosalar chiqarish uchun qo‘llanildi. Tadqiqot bazasi sifatida oliy ta’lim muassasalarining boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari tanlab olindi. Tadqiqot jarayonida respondentlar soni, ularning kurslari va tayyorgarlik darajasi inobatga olindi.

Tadqiqotning ishonchliligi va haqqoniyligini ta’minlash maqsadida ma’lumotlar turli metodlar yordamida tekshirildi hamda natijalar o‘zaro taqqoslandi. Olingan ilmiy natijalar pedagogik nazariya va amaliyot bilan uyg‘un holda tahlil qilindi.

Mazkur metodologiya boshlang‘ich ta’lim talabalarining kasbiy malakasini rivojlantirishning hozirgi holatini chuqur o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Xalqaro standartlarga moslashtirish: O’zbekiston ta’lim tizimining xalqaro standartlarga moslashtirilishi talabalarning kasbiy tayyorgarligini yanada oshirish uchun zaruriy shart-sharoit yaratadi.

Tashkiliy va uslubiy muammolar: Ba’zi o’quv yurtlarida malakali pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonini tashkil etishda, o’quv rejalari va dasturlarini takomillashtirishda muammolar mavjud.

Yechimlar

Nazariy bilimlarni amaliy ko’nikmalarga aylantiruvchi mashg'ulotlar va amaliyotlarni ko’paytirish.

Talabalarning o’quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash ko’nikmalarini o’rgatish.

Kasbiy kompetentlikni baholash mezonlarini takomillashtirish, ularni amaliy ko’nikmalarni baholashga yo’naltirish.

O’quv yurtlarida kasbiy tayyorgarlikni yaxshilash uchun zaruriy moddiy-texnik bazani yaratish.

Xorijiy tajribalarni o’rganish va O’zbekiston ta’lim tizimiga tatbiq etish.

Boshlang‘ich ta’lim talabalarining kasbiy kompetentligi hozirgi bosqichda asosan nazariy bilimlar bilan chegaralanib, amaliy innovatsion metodlarni qo‘llashda (AKT, loyihaviy ta’lim) ayrim kamchiliklar kuzatilmoqda. Rivojlanish dinamikasi ijobiy bo‘lsa-da, ta’lim platformalari va mustaqil ta’lim orqali kasbiy mahoratni oshirishga ehtiyoj yuqori.

Mavjud holatning asosiy xususiyatlari:

Nazariy-amaliy nomutanosiblik: Talabalar pedagogika va psixologiya nazariyasini yaxshi o‘zlashtirgan, lekin zamonaviy metodlarni dars jarayoniga tatbiq etishda qiynaladilar.

Innovatsion faoliyat**:** Raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalari shakllanmoqda, ammo innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda kreativlik yetishmaydi.

Uzluksiz rivojlanish: Talabalarda “Lifelong learning” (umrbod ta’lim olish) tamoyili asosida kasbiy kompetentlikni muntazam oshirib borish motivatsiyasi shakllangan, biroq amaliyotda mustaqil izlanishga ehtiyoj bor.

Kasbiy kompetentlik turlari: Kommunikativ va metodik kompetentliklar nazariy jihatdan kuchli, ammo tashkilotchilik va loyihaviy kompetentlikni yanada rivojlantirish talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarning kasbiy kompetentligini oshirishda nazariya va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish, ta’lim platformalari bilan ishlashni takomillashtirish asosiy vazifa hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim talabalarining kasbiy malakasini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning muhim omilidir. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari va amaliy faoliyatni kuchaytirish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyasini yanada rivojlantirish mumkin [2;5].

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot natijalari asosida boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun ta’lim platformalaridan foydalanishning samaradorligini oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu tavsiyalar kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda platformalar imkoniyatlarini kengroq qo‘llashga xizmat qiladi. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta’lim platformalaridan foydalanish masalalari bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalar va platformalar muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar bu vositalarning talabalarning o‘quv jarayonida faolligini oshirish, bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini ta’minlash va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o‘rnini ta’kidlaydi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ta’lim platformalari talabalarning kasbiy bilimlari va ko‘nikmalarini mustahkamlash, ularning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshirish, hamda o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu ilmiy asoslar boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida ta’lim platformalarini muvaffaqiyatli qo‘llash uchun zarur bo‘lgan metodik tavsiyalarni ishlab chiqishda xizmat qilishi mumkin. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta’lim platformalarining qo‘llanilishi haqida olib borilgan tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish nafaqat talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligini oshiradi, balki ularning amaliy ko‘nikmalari va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga ham yordam beradi. Ta’lim platformalarining qulayligi, ular orqali berilayotgan bilimning moslashuvchanligi va interfaolligi, talabalarni o‘quv jarayoniga jalb qilishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi.

Eksperimental tadqiqot davomida ta’lim platformalari talabalarning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishi kuzatildi. Xususan, Moodle va Google Classroom platformalaridan foydalanilgan darslarda talabalarning bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishi, masalalarni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo‘ldi. Bu shuni ko‘rsatadiki, ta’lim platformalarining o‘quv materialini individual sur’atda o‘zlashtirishga imkon berishi talabalarning kasbiy bilimlarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, ta’lim platformalaridan samarali foydalanishda muayyan cheklovlar ham kuzatildi. Ayrim talabalar raqamli vositalardan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelgan bo‘lsa, ayrim hollarda internet tezligi va texnik jihozlarning yetarli emasligi

o‘quv jarayonini samarali tashkil etishda to‘siq bo‘ldi. Bu kabi muammolarni hal qilish uchun ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etishda infratuzilmani mustahkamlash va o‘qituvchilarni maxsus o‘quv kurslarida tayyorlash zarurligi qayd etildi.

Ta’lim platformalari orqali talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda samaradorlikni oshirish uchun quyidagilar taklif etiladi: Ta’lim platformalari orqali o‘quv jarayonida individual yondashuvni kuchaytirish. Platformalarda nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini kengaytirish. Talabalarning raqamli savodxonligini oshirish uchun maxsus treninglar tashkil etish [7]. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish va kasbiy rivojlantirish zaruriyatini belgilovchi bosh mezon bu inson oldiga qo‘yilgan maqsad bo‘lib, unga erishish uchun vazifalar belgilash, tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo‘l-yo‘riqlarini tanlash va loyihalashtirish, maqsad va natijani muvofiqlashtirish zarur hisoblanadi. Demak, har bir o‘qituvchi o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirish uchun ma’lum darajada o‘z dunyoqarashiga, tafakkuri, tasavvuri va mavjud bilimiga, shaxsiy va kasbiy ehtiyojlariga asoslanadi.

O‘qituvchilarda o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirish yo‘nalishida shakllantiriladigan ehtiyoj davlat va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqishi lozim. Metodik tayyorgarlikni takomillashtirish va o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj yetarlicha shakllantirilsa, o‘qituvchilarda o‘z kasbiga oid yangiliklarni, fan-texnika yutuqlarini o‘rganishga qiziqish shakllanadi, bu o‘z navbatida o‘qituvchilarda mustaqil ta’lim olish ya’ni mustaqil o‘rganish, o‘zo‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirishga, bu orqali o‘qituvchilarda metodik tayyorgarlikni takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarni o‘z faoliyatida ma’lum bir ijobiy natijalarga erishish, o‘qituvchilar jamoasida obro’-e’tibor qozonish, o‘zini o‘zi boshqarish va rivojlantirish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi. Shuningdek, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi vositalardan biri muvaffaqiyatga bo‘lgan ehtiyoj bo‘lib, bu ma’lum bir vazifani mas’uliyat bilan bajarish orqali ko‘zlangan natijalarga erishishga xizmat qiluvchi – o‘qituvchini o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirish ehtiyoji hisoblanadi [8].

Xulosa. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy malakasini rivojlantirish bugungi kunda ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda pedagog kadrlarning nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy ko‘nikmalar, innovatsion yondashuvlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish kompetensiyalariga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta’lim muassasalarida olib borilayotgan islohotlar, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ta’lim jarayonini amaliyot bilan integratsiyalash kasbiy malaka rivojlanishining asosiy omillari sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, talabalar kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda mustaqil ta’lim, amaliy mashg‘ulotlar, pedagogik amaliyot va raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish samarali natija bermoqda. Ayniqsa, web platformalar, interaktiv metodlar va innovatsion yondashuvlar talabalarning ijodiy fikrlashini, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mavjud muammolar ham mavjud bo‘lib, ular qatoriga amaliy mashg‘ulotlarning yetarli darajada tashkil etilmasligi, zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlanganlik darajasining pastligi hamda pedagoglarning innovatsion faoliyatga tayyorlik darajasi yetarli emasligi kiradi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, o‘qituvchilarning malakasini muntazam oshirib borish hamda talabalarni amaliy faoliyatga ko‘proq jalb etish zarur.

Umuman olganda, boshlang‘ich ta’lim talabalarining kasbiy malakasini rivojlantirish tizimli, uzluksiz va innovatsion yondashuvni talab etadi. Bu esa kelajakda raqobatbardosh, yuqori malakali va zamonaviy fikrlovchi pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoniga 1-ilova

2. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan.2019y 25b

3. Ishmuhamedov R. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2020.y,67-69b

4. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi.2009y 59 b

5. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent.2010 y , 27-34b

6. Ro’zimova Y. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarida ta’lim platformalari orqali kasbiy kompetentlikni rivojlantirish **.** Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya ilmiy konferensiya, 2024 y, 3-son 60-62 b.

7. Baxshulloyeva Sh.A, Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy-pedagogik faoliyatini takomillashtirish // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar 2021-y, № 3, 224-231 b.

8. Shodiyeva M. J. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlari. // Zamonaviy ta’lim jurnali,2021 y , 58-64 b.

O‘QITUVCHI KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH BO‘YICHA XORIJIY VA MILLIY TAJRIBALAR TAHLILI

Safarova Nigora Nasilloyevna,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Matematika va informatika kafedrasi dotsenti
safarovanigora2211@gmail.com

Ushbu maqolada o‘qituvchi kompetentligini shakllantirish sohasidagi xalqaro va milliy tajribalar kompleks tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida Finlyandiya, Janubiy Koreya va Singapur kabi rivojlangan ta’lim tizimlarida o‘qituvchilarni tanlash, tayyorlash, doimiy malaka oshirish hamda ularning ijtimoiy va professional maqomi bilan bog‘liq strategiyalar batafsil yoritilgan. Maqolada ta’lim sifatini oshirish uchun o‘qituvchi malakasining asosiy komponentlari – nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, pedagogik kompetensiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalari – asosiy o‘ringa qo‘yilgan. Xalqaro tajribalar tahlili natijasida, o‘zbek ta’lim tizimida o‘qituvchi kompetentligini yanada rivojlantirish maqsadida markazlashtirilgan tayyorlov, malaka oshirish jarayonlarini modernizatsiya qilish va pedagoglarning ijtimoiy maqomini oshirish zarurligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *o‘qituvchi kompetentligi, ta’lim sifati, xorijiy tajriba, milliy ta’lim tizimi, pedagogik mahorat, zamonaviy o‘qituvchi, kasbiy rivojlanish, innovatsion yondashuv, xalqaro tajriba, malaka oshirish.*

АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО И НАЦИОНАЛЬНОГО ОПЫТА В ФОРМИРОВАНИИ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ

В данной статье представлен всесторонний анализ международного и национального опыта в области формирования профессиональной компетентности учителей. Исследование подробно рассматривает стратегии, связанные с отбором, подготовкой, непрерывным профессиональным развитием учителей, а также их социально-профессиональным статусом в развитых системах образования, таких как Финляндия, Южная Корея и Сингапур. В статье основное внимание уделяется основным компонентам профессиональной компетентности учителей – теоретическим знаниям, практическим навыкам, педагогическим компетенциям и навыкам использования информационно-коммуникационных технологий – для повышения качества образования. В результате анализа международного опыта узбекская система образования рассматривает необходимость модернизации централизованных процессов подготовки и профессионального развития и повышения социального статуса учителей в целях дальнейшего развития их профессиональной компетентности.

Ключевые слова: *компетентность учителя, качество образования, зарубежный опыт, национальная система образования, педагогические навыки, современный учитель, профессиональное развитие, инновационный подход, международный опыт, повышение квалификации.*

ANALYSIS OF FOREIGN AND NATIONAL EXPERIENCES IN DEVELOPING TEACHER COMPETENCE

This article presents a comprehensive analysis of international and national experience in developing teachers‘ professional competence. The study examines in detail strategies related to the selection, training, continuous professional development of teachers, as well as their socio-professional status in developed education systems such as Finland, South Korea, and Singapore. The article focuses on the key components of teachers‘ professional competence –theoretical knowledge, practical skills, pedagogical competencies, and skills in using information and communication technologies – to improve the quality of education. Based on this analysis of international experience, the Uzbek education system considers the need to modernize centralized training and professional development processes and enhance teachers' social status to further develop their professional competence.

Key words: *teacher competence, quality of education, international experience, national education system, pedagogical skills, modern teacher, professional development, innovative approach, international experience, advanced training.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida sifatli bilim berish, tarbiyalash va zamon talablari asosida kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishda o‘qituvchi asosiy shaxs hisoblanadi. Ta’lim sifati bevosita pedagogning kompetentligiga bog‘liq bo‘lib, u nafaqat fan bo‘yicha chuqur bilim, balki innovatsion yondashuv, kommunikativ ko‘nikmalar va axborot texnologiyalaridan foydalanish malakalarini ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli o‘qituvchi kompetentligini rivojlantirish, uni uzluksiz takomillashtirish hozirgi davrning eng muhim masalalaridan biridir. Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlarida o‘qituvchi kompetentligini shakllantirish bo‘yicha qo‘llanilayotgan ilg‘or tajribalar va O‘zbekiston ta’lim tizimidagi amaliyotlar tahlil qilinadi, ularning umumiy va farqli jihatlari ko‘rsatilib, milliy tizimga tatbiq etish mumkin bo‘lgan takliflar ilgari suriladi [1, 35].

Kompetentlik tushunchasi keng ma’noga ega bo‘lib, u shaxsning bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlar uyg‘unligini anglatadi. Pedagogik kompetentlik esa o‘qituvchining kasbiy faoliyatini samarali amalga oshira olishi, o‘quvchilar bilan samarali muloqotga kirishishi, fanini zamonaviy metodikalar asosida o‘rgata olishini bildiradi.

O‘qituvchi kompetentligining asosiy turlari:

- ✓ Pedagogik kompetentlik – o‘quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil qilish, baholash, rejalashtirish.
- ✓ Metodik kompetentlik – fan doirasidagi yangi metodlardan foydalanish ko‘nikmasi.
- ✓ Ijtimoiy va kommunikativ kompetentlik – o‘quvchilar, ota-onalar, jamoa bilan samarali muloqot olib borish.
- ✓ Axborot-kommunikatsion kompetentlik – zamonaviy texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish.

Zamonaviy o‘qituvchidan nafaqat o‘z fanini bilishi, balki shaxsiy rivojlanishga, innovatsiyalarga ochiqlik, ijodiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qila olish ko‘nikmalari talab qilinadi [2, 23].

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Finlyandiyada o‘qituvchilik eng obro‘li kasblardan biri hisoblanadi. O‘qituvchi bo‘lish uchun magistr darajasi talab etiladi. Dars berishdan oldin amaliyotdan o‘tish, refleksiya qilish va ilmiy yondashuv asosiy e’tiborga ega. Ta’lim tizimi o‘qituvchiga ishonch, erkinlik va kasbiy rivojlanish uchun keng imkoniyatlar beradi. Finlyandiya dunyodagi eng ilg‘or ta’lim tizimlaridan biri sifatida tan olingan bo‘lib, u yerda **o‘qituvchi kompetentligini shakllantirish** va kasbiy rivojlanish bo‘yicha ilg‘or amaliyotlar mavjud.

Finlyandiyada o‘qituvchi kompetentligini shakllantirish xususiyatlari:

1. Yuqori tanlov darajasi va professional standartlar. Finlyandiyada o‘qituvchilik eng obro‘li kasblardan biri hisoblanadi. Maktab o‘qituvchisi bo‘lish uchun magistratura darajasidagi (5 yillik) ta’lim talab qilinadi. Universitetga kirishda o‘qituvchilik yo‘nalishlariga tanlov juda kuchli (ba’zi hollarda 10:1 nisbatgacha).

2. Universitet darajasida o‘qituvchi tayyorlash. O‘qituvchilar akademik ilmga asoslangan, amaliy va metodik jihatdan chuqur tayyorgarlikdan o‘tadi. Pedagogik psixologiya, innovatsion metodlar va mustaqil izlanishlar ustuvor ahamiyatga ega.

3. Kasbiy erkinlik va ishonch. O‘qituvchilarga dars metodikasini tanlashda to‘liq erkinlik beriladi. Finlyandiya ta’lim tizimi o‘qituvchiga ishonch va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini beradi. Darslarda sinov va reytingga emas, balki sifatli o‘qitish va chuqur o‘zlashtirishga urg‘u beriladi.

4. Uzluksiz o‘rganish madaniyati. Har bir o‘qituvchi o‘zining kasbiy rivojlanishi uchun shaxsiy reja tuzadi va unga amal qiladi. O‘qituvchilar o‘zaro tajriba almashadi, ilmiy loyihalarda qatnashadi va doimiy ravishda o‘z amaliyotini tahlil qiladi.

5. Pedagogik innovatsiyalar. O‘qituvchilar STEAM yondashuvi, differensial o‘qitish, o‘quvchilarning psixologik farqlarini inobatga olish orqali dars o‘tadi. Texnologiyalardan samarali foydalanish – o‘qituvchining majburiy ko‘nikmasi.

Finlyandiya ta’lim modelidan kelib chiqadigan fundamental ilmiy xulosalar.

- ➢ ***Kasb tanlashda sifatli saralash:*** Faqat eng tayyorlanganlar o‘qituvchi bo‘lishi mumkin.
- ➢ ***Akademik darajadagi tayyorgarlik:*** Ta’lim beruvchi kadrlar yuqori ilmiy saviyaga ega.
- ➢ ***Ishonch va mustaqillik:*** O‘qituvchi ustidan qat’iy nazorat emas, balki ishonch muhim.
- ➢ ***O‘qituvchi – innovator:*** Faol va ijodiy fikrlovchi o‘qituvchi asosiy kalit hisoblanadi.

Finlyandiya va O‘zbekistonda o‘qituvchi kompetentligining qiyosiy tahlili.

Ko‘rsatkich	Finlyandiya	O‘zbekiston
Kasbga kirish shartlari	Magistratura darajasida ta’lim, kuchli tanlov	Bakalavriat darajasi, nisbatan keng kirish imkoniyati
O‘qituvchi tayyorlash modeli	Universitetda chuqur ilmiy-pedagogik tayyorgarlik	Asosan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar orqali

Malaka oshirish	Uzluksiz va o‘zini rivojlantirishga asoslangan	Rejaga asoslangan, belgilangan kurslar orqali
O‘qituvchining mustaqilligi	Yuqori – metodik yondashuvda erkinlik va ijodkorlik	O‘quv rejalari va metodikalar asosida cheklangan
Tashkiliy madaniyat	Ishonch va erkinlik, kuchli ichki motivatsiya	Boshqaruv va nazorat tizimi ustun
Innovatsion yondashuvlar	STEAM, differensial o‘qitish, psixologik yondashuvlar	Faol metodlar, raqamli texnologiyalar joriy etilmoqda

Tadqiqot metodologiyasi. Finlyandiya tajribasida o‘qituvchining bilimdon, erkin va ijtimoiy jihatdan nufuzli shaxs sifatida shakllanishi asosiy tamoyil hisoblanadi. Bu mamlakatda o‘qituvchi bo‘lish uchun nafaqat nazariy, balki metodik va psixologik jihatdan puxta tayyorlanish talab etiladi. Ayniqsa, pedagogikaning ilmiy asoslariga urg‘u berilishi o‘qituvchining chuqur tahliliy va innovatsion fikrlashini ta’minlaydi.

O‘zbekistonda esa so‘nggi yillarda o‘qituvchi kompetentligini oshirish bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Malaka oshirish kurslari takomillashtirilmoqda, raqamli texnologiyalar joriy qilinmoqda. Biroq Finlyandiya tajribasida mavjud erkinlik, o‘qituvchiga bo‘lgan ishonch va kasbiy avtonomiya kabi elementlar bizning tizimda hali yetarli darajada shakllanmagan [3, 300].

Finlyandiya tajribasidan saboq sifatida o‘qituvchining kasbiy erkinligi, o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ichki motivatsiyasi va pedagogik erkin fikr yuritish madaniyatini rivojlantirish zarurligi ko‘rinadi.

Singapur ta’lim tizimida “Teach Less, Learn More” strategiyasi asosida o‘qituvchilar o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Mamlakatda pedagoglar uchun doimiy ravishda malaka oshirish kurslari, milliy attestatsiya tizimi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mavjud.

Singapurda o‘qituvchi kompetentligini shakllantirish xususiyatlari:

1. Qattiq tanlov va tanlab olish tizimi. Singapurda o‘qituvchi bo‘lish juda murakkab: faqat eng yuqori natijaga ega bitiruvchilar tanlab olinadi. O‘qituvchi bo‘lish uchun talabgor “Milliy ta’lim instituti (NIE)”ga kiradi. Bu yagona rasmiy o‘qituvchi tayyorlov markazi bo‘lib, Nanyang Texnologiya Universiteti tarkibiga kiradi.

2. Markazlashgan tayyorlov va davlat nazorati. Barcha o‘qituvchilar NIEda tayyorlanadi va bu tizim to‘liq davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Davlat o‘qituvchi nomzodlariga o‘qish davomida stipendiya to‘lab, bitirgach ish bilan ta’minlaydi.

3. Uzluksiz kasbiy rivojlanish. O‘qituvchilarga har yili kamida 100 soatgacha kasbiy rivojlanish kurslarida qatnashish majburiy. Har bir o‘qituvchi uchun shaxsiy kasbiy rivojlanish rejasi ishlab chiqiladi.

4. Ochiq karyera yo‘llari. O‘qituvchilarga 3 ta karyera yo‘nalishi taklif qilinadi:

- *Pedagogik yo‘nalish* (sifatli dars o‘tish bo‘yicha mutaxassis)
- *Boshqaruv yo‘nalishi* (direktor, metodist)
- *Tadqiqot yo‘nalishi* (ta’limni tahlil qilish va yangiliklar kiritish)

5. Innovatsion va texnologik yondashuv. O‘qituvchilar zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtiradi va STEAM yondashuvi asosida ishlaydi. Maktablarda sun’iy intellekt, data-tahlil, moslashtirilgan o‘qitish platformalari joriy etilgan.

6. O‘qituvchining maqomi va rag‘batlantirish tizimi. O‘qituvchilar yuqori maosh, grantlar, mukofotlar bilan rag‘batlantiriladi. Kasbiy malaka, yangilik kiritish va dars sifati bo‘yicha doimiy baholash olib boriladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Singapur ta’lim modelidan kelib chiqadigan fundamental ilmiy xulosalar:

- ✓ O‘qituvchilikka eng iqtidorli yoshlar jalb qilinadi.
- ✓ Tayyorlov sifati markazlashtirilgan va davlat tomonidan boshqariladi.
- ✓ Har yili belgilangan soatlarda majburiy kasbiy rivojlanish amalga oshiriladi.
- ✓ Karyera o‘sishi uchun aniq va ochiq yo‘nalishlar yaratilgan.

Singapur va O‘zbekistonda o‘qituvchi kompetentligining qiyosiy tahlili.

Ko‘rsatkich	Singapur	O‘zbekiston
Kasbga kirish	Kuchli tanlov, faqat eng iqtidorli talabalar	Bakalavr diplomi asosida
O‘qituvchi tayyorlash	Milliy institut (NIE) orqali markazlashgan tizim	Turli oliygohlar, markazlashmagan
Malaka oshirish	Har yili 100 soatgacha majburiy	Rejaga asosan har 3 yilda bir marta
Karyera yo‘li	3 yo‘nalish: dars, boshqaruv, tadqiqot	Cheklangan, ko‘proq boshqaruv

		yo‘nalishi
Texnologik yondashuv	Yuqori darajada, AI va STEAM keng qo‘llaniladi	Rivojlanmoqda, ayrim loyihalar bosqichida

Janubiy Koreya ta’lim tizimida pedagoglar har yili majburiy malaka oshirish kurslaridan o‘tadilar. Ular uchun onlayn platformalarda darsliklar, vebinarlar va treninglar taqdim etiladi. Kompetentlik baholashda sinfdagi faoliyati, loyiha ishlari va o‘quvchilarning fikri e’tiborga olinadi.

Janubiy Koreyada o‘qituvchi kompetentligining xususiyatlari:

1. Qat’iy saralash tizimi. O‘qituvchilik kasbiga juda katta talab bo‘lgani uchun nomzodlar kuchli raqobat asosida saralanadi. Maktab o‘qituvchisi bo‘lish uchun maxsus testlar, suhbatlar va amaliyot bosqichlaridan o‘tish shart. Universitetlarning faqatgina yuqori reytingdagi pedagogika fakultetlarida o‘qiganlar davlat maktablarida ishlay oladi.

2. Kuchli akademik va amaliy tayyorgarlik. O‘qituvchi bo‘lish uchun bakalavr yoki magistr darajasiga ega bo‘lish kerak. Ta’lim jarayonida pedagogik metodika, bolalar psixologiyasi, axborot texnologiyalari va dars tahlilini chuqur o‘rganadilar.

3. Davlat tomonidan tartibga solinadigan kasbiy rivojlanish. Har 3 yilda bir marta o‘qituvchilar majburiy malaka oshirish kurslaridan o‘tadi. Kasbiy rivojlanish uchun kredit tizimi joriy qilingan: o‘qituvchi muayyan miqdordagi kredit yig‘sa, lavozimi yoki maoshi oshadi.

4. Texnologik savodxonlik va raqamli kompetensiyalar. Janubiy Koreya raqamli texnologiyalar sohasida yetakchi bo‘lgani uchun, o‘qituvchilardan zamonaviy texnologiyalarni chuqur o‘zlashtirgan bo‘lishi talab etiladi. Onlayn platformalar, masofaviy ta’lim va interaktiv resurslar kundalik darslarda keng qo‘llaniladi.

5. O‘qituvchi maqomi va jamiyatdagi roli. O‘qituvchilar jamiyatda katta hurmatga ega. Bu kasb moliyaviy va ijtimoiy jihatdan barqaror hisoblanadi. O‘qituvchi sifatida ishlash nafaqat kasb, balki milliy xizmat deb qaraladi.

Janubiy Koreya ta’lim modelidan kelib chiqadigan fundamental ilmiy xulosalar:

- ✓ O‘qituvchilikka qabulda sifatga asoslangan qat’iy tanlov tizimi.
- ✓ Kasbiy rivojlanishning baholanishi va rag‘batlantirilishi (kredit tizimi orqali).
- ✓ Zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish ko‘nikmasi.
- ✓ O‘qituvchi maqomining yuqori bo‘lishi kasbga nisbatan motivatsiyani oshiradi.

Janubiy Koreya va O‘zbekistonda o‘qituvchi kompetentligining qiyosiy tahlili.

Ko‘rsatkich	Janubiy Koreya	O‘zbekiston
Kasbga kirish	Qat’iy test va tanlov, cheklangan kvota	Bakalavr diplomi asosida
Malaka oshirish	Kredit tizimi bilan baholanuvchi majburiy kurslar	Rejaga asosan, ko‘proq formal yondashuv
Texnologik tayyorgarlik	Yuqori darajada, zamonaviy IKT ko‘nikmalari	Rivojlanmoqda, hududlar bo‘yicha farq mavjud
O‘qituvchi maqomi	Jamiyatda nufuzli, yuqori maosh va obro‘	Ma'lum darajada hurmatli, ammo ijtimoiy maqom o‘rtacha
Darsga yondashuv	Innovatsion, o‘quvchiga yo‘naltirilgan	An'anaviy va zamonaviy metodlar uyg‘unlashtirilmoqda

O‘zbekiston ta’lim tizimida oxirgi yillarda o‘qituvchilik kasbining maqomini oshirish, kompetentlikka asoslangan yondashuvni kuchaytirish bo‘yicha bir qator muhim qadamlar qo‘yildi:

- ✓ Pedagoglarni attestatsiyadan o‘tkazish tartibi takomillashtirilib, test va intervyu asosida baholash joriy etildi.
- ✓ **“Ustoz”** platformasi orqali o‘qituvchilarning masofaviy malaka oshirishi yo‘lga qo‘yildi.
- ✓ OTMlarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha fanlar joriy etildi.
- ✓ 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Ta’limni rivojlantirish strategiyasida o‘qituvchilarning malakasi asosiy ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi.
- ✓ Biroq hali ham an’anaviy yondashuvlar, o‘quv dasturlarining eskiligi, metodik yordamning yetarli emasligi kabi muammolar mavjud.

O‘zbekiston ta’lim tizimida o‘qituvchi kompetentligini shakllantirish xususiyatlari:

1. Pedagogik ta’limga kirish va tayyorlov. O‘qituvchi bo‘lish uchun abituriyentlar pedagogika yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlariga kirishadi. Asosan bakalavr darajasi asosida o‘qituvchilik huquqiga ega bo‘lishadi. O‘quv dasturlarida pedagogik psixologiya, metodika, informatika, axloqiy va kasbiy kompetensiyalar mavjud.

2. Malaka oshirish tizimi. Har bir o‘qituvchi 5 yilda bir marta maxsus malaka oshirish kurslarini o‘taydi. Respublikada xalq ta’limi instituti va uning hududiy filiallari bu kurslarni tashkil etadi. So‘nggi yillarda onlayn kurslar, masofaviy ta’lim platformalari orqali ham o‘qituvchilarni tayyorlash kengaymoqda.

3. Kompetensiyalarga asoslangan yondashuv. 2020-yildan boshlab o‘qituvchilar uchun kasbiy kompetensiyalar to‘plami ishlab chiqildi. Bu kompetensiyalar quyidagilarga asoslanadi:

- ✓ *Metodik kompetensiya*
- ✓ *Axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo‘llash*
- ✓ *Kommunikativ kompetensiya*
- ✓ *Shaxsiy o‘sish va kasbiy rivojlanish*
- ✓ *Psixologik-pedagogik yondashuv*

4. Rag‘batlantirish va attestatsiya tizimi. O‘qituvchilarning bilim darajasi va mahorati attestatsiya orqali aniqlanadi. Yaxshi natija ko‘rsatgan o‘qituvchilar yuqori malaka toifalari, ustoz unvonlari va maosh qo‘shimchalari bilan rag‘batlantiriladi.

5. Texnologiyalardan foydalanish. Darslarda multimedia, interaktiv doskalar, videodarslar qo‘llanilmoqda. “Digital teacher” loyihasi orqali o‘qituvchilarning IKT kompetensiyalari oshirilmoqda.

6. Kasbiy maqom va ijtimoiy kafolatlar. So‘nggi yillarda Prezident farmonlari va qarorlari bilan o‘qituvchilar maqomi mustahkamlanmoqda. Maoshlar, uy-joy masalalari, kasbiy rivojlanish uchun grantlar yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekiston ta’lim tizimining kuchli va muammoli tomonlari:

Kuchli jihatlar	Takomillashtirilishi kerak bo‘lgan jihatlar
Malaka oshirish tizimi mavjud	Hali ham nazariyaga yo‘naltirilgan, amaliyot yetarli emas
Kompetensiyalarga asoslangan baholash yo‘lga qo‘yilgan	Kompetensiyalar amaliyotda to‘liq singdirilmagan
Rag‘batlantirish va attestatsiya tizimi mavjud	Baholash mezonlari ba’zida subyektiv bo‘lishi mumkin
IKT kompetensiyalar rivojlantirilmoqda	Hududlar o‘rtasida raqamli tafovutlar mavjud
Kasbiy maqom oshirilmoqda	Hali ham ayrim jamiyat qatlamlarida o‘qituvchilik nufuzi past

Xorijiy va milliy tajribalarni solishtirgan holda quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin: Kompetent o‘qituvchini shakllantirish – bu uzluksiz va tizimli jarayon.

Xorijiy tajribadan o‘rganish mumkin bo‘lgan jihatlar: erkin muhit, o‘qituvchiga ishonch, professional rivojlanish uchun sharoit yaratish.

Milliy ta’lim tizimida taklif etiladigan yo‘nalishlar: O‘qituvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlovchi modul asosidagi o‘quv dasturlarini kengaytirish. Raqamli platformalarni kengaytirish orqali masofaviy o‘qitish imkoniyatlarini kuchaytirish. Pedagoglar o‘rtasida innovatsion tajriba almashinuvini tizimlashtirish.

O‘zbekiston ta’lim tizimida mavjud salohiyatni xorijiy ilg‘or tajribalar bilan uyg‘unlashtirish orqali zamonaviy, raqobatbardosh o‘qituvchilarni tayyorlash mumkin [4, 187].

Xalqaro ta’lim tizimlarining tajribalarini o‘rganish ko‘rsatadiki, o‘qituvchi kompetentligini shakllantirishda quyidagi asosiy tamoyillar mavjud:

- ✓ Yuqori sifatli tanlov va tayyorlov: Singapur kabi mamlakatlarda o‘qituvchilikka kirish uchun qat’iy tanlov va markazlashtirilgan tayyorlov tizimi mavjud. O‘zbekiston esa pedagogik oliy ta’lim sifatini oshirish hamda qabul jarayonida tanlov mezonlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq.
- ✓ Doimiy kasbiy rivojlanish: Finlandiya va Janubiy Koreyada o‘qituvchilar muntazam ravishda malaka oshirib boradi, bu esa ularning pedagogik ko‘nikmalarini zamonaviylashtirishga xizmat qiladi. O‘zbekistonda malaka oshirish tizimi mavjud bo‘lsa-da, uning sifatini oshirish va amaliy yo‘nalishlarni ko‘paytirish muhim.
- ✓ Kompetensiyalar asosidagi yondashuv: Singapurda milliy kompetensiya standartlari mavjud bo‘lib, ular o‘qituvchilarning bilim va ko‘nikmalarini aniq mezonlar bilan baholaydi. O‘zbekiston ham so‘nggi yillarda kompetensiyalarni joriy qilmoqda, biroq amalda keng tatbiq qilish zarur.
- ✓ Texnologiyalardan foydalanish: Zamonaviy texnologiyalar ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilinmoqda. Singapur bunga yaxshi misol. O‘zbekiston ham raqamli ta’lim va “Digital teacher” loyihasi bilan bu sohani rivojlantirmoqda.
- ✓ O‘qituvchining ijtimoiy maqomi va rag‘batlantirish: Finlyandiya va Singapurda o‘qituvchilar yuqori maqomga ega. O‘zbekistonda ham bu borada sezilarli o‘zgarishlar bo‘lyapti.

Xorijiy tajribalar va O‘zbekistonning amaliyoti ko‘rsatadiki, o‘qituvchi kompetentligini shakllantirish kompleks va tizimli yondashuvni talab qiladi. O‘qituvchining yuqori malakasi, doimiy o‘sishi va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishi ta’lim sifatining asosi hisoblanadi. Shu bilan birga, ta’lim siyosati, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va moddiy rag‘batlantirish ham muhim omillardir. O‘zbekiston xalqaro standartlar va ilg‘or yondashuvlarni amaliyotga keng joriy etishi ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi [5, 84].

Xulosa. Xalqaro ta’lim tizimlarining o‘qituvchi kompetentligini shakllantirish tajribalarini o‘rganish orqali aniq bo‘ladiki, muvaffaqiyatli ta’lim tizimlarida o‘qituvchilarni tanlashdan boshlab, ularning doimiy kasbiy rivojlanishigacha bo‘lgan jarayonlar puxta va tizimli tashkil etilgan. Masalan, Singapur kabi mamlakatlarda o‘qituvchilik kasbiga kirish yuqori talablar asosida amalga oshiriladi, malakali kadrlar davlat tomonidan tayyorlanadi va qo‘llab-quvvatlanadi. Finlyandiya va Janubiy Koreya esa o‘qituvchilarni muntazam ravishda malaka oshirishga jalb qiladi, bu esa pedagogik jarayonlarning doimiy yangilanishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston esa so‘nggi yillarda ushbu tamoyillarni o‘z tizimiga asta-sekin kiritmoqda, biroq markazlashtirilgan tayyorlov, malaka oshirish va baholash tizimini takomillashtirib kelmoqda.

1. Pedagogik tayyorlovni kuchaytirish va markazlashtirish: O‘zbekiston pedagogika oliy ta’limining sifatini oshirish uchun markazlashtirilgan va sifatli tayyorlov tizimini joriy qilishi, o‘qituvchilikka kirishdagi tanlovni yanada qat’iylashtirishi lozim. Bu xorijiy ilg‘or tajribalar asosida o‘qituvchi sifatini yuqori darajaga ko‘taradi.
2. Doimiy kasbiy rivojlanishni rivojlantirish: Malaka oshirish tizimini zamonaviy metod va texnologiyalar asosida kengaytirish, onlayn va masofaviy ta’lim imkoniyatlarini keng qo‘llash kerak. Shuningdek, amaliyotga yo‘naltirilgan kurslar sonini oshirish muhim.
3. Milliy kompetensiyalarni amaliyotga joriy qilish: O‘zbekiston uchun o‘qituvchilarni baholashda shaffof, aniq va adolatli kompetensiyalar tizimini ishlab chiqish va keng tatbiq etish muhimdir. Bu tizim pedagoglarning bilim va ko‘nikmalarini muntazam ravishda yangilab borishga yordam beradi.
4. Zamonaviy texnologiyalarni keng qo‘llash: Raqamli ta’lim vositalari, interaktiv darsliklar, STEAM ta’limi va sun’iy intellekt asosidagi yechimlarni maktablarga keng joriy qilish, o‘qituvchilarning texnologik kompetensiyasini oshirish zarur.
5. O‘qituvchining ijtimoiy maqomini oshirish va rag‘batlantirish: Maoshlar, moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish, o‘qituvchilarni jamiyatda hurmatli va qadrlanadigan kasb egasi sifatida ko‘rsatish kerak. Bu yoshlar orasida o‘qituvchilik kasbining obro‘sini oshirishga xizmat qiladi [6, 43].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchi kompetentligini shakllantirish kompleks va tizimli yondashuvni talab qiladi. Bu jarayon o‘qituvchining kasbiy tayyorligidan boshlab, uning doimiy malaka oshirishiga, texnologiyalarni samarali qo‘llashiga va ijtimoiy maqomini mustahkamlashga qadar keng ko‘lamli faoliyatni o‘z ichiga oladi. Xalqaro tajribalar O‘zbekiston uchun aniq yo‘nalishlar va modellarni taqdim etadi. Milliy sharoitlar va ijtimoiy iqtisodiy imkoniyatlarni hisobga olgan holda, bu tajribalarni amaliyotga tatbiq etish ta’lim sifatini tubdan yaxshilash imkonini beradi. Shunday qilib, o‘qituvchilarni tayyorlash va qo‘llab-quvvatlash tizimlarining takomillashuvi mamlakatning ta’lim sohasidagi barqaror rivojlanishi va xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Abdullayeva, M. A. (2021). Kasbiy kompetensiyaning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PQ-60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Milliy taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Qarori.
3. Safarova N.N. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyani shakllantirishdagi muammolar va to‘siqlar // “Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali.” ISSN 2181-1709 (P); 2181-1717 (E). 6-son. 2024-yil iyun. –Б. 300-303
4. Safarova N.N. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bosqichlari // “Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali.” 7-son. 2024-yil iyul. –Б. 187-192
5. Safarova N.N. Bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi // “Pedagogik mahorat jurnali.” // 7-son(1). 2024. –Б. 84-89
6. Sharipova, D. A. (2022). Kasbiy kompetentlik va uning tarkibiy qismlari: nazariy tahlil. // Ilm-fan va ta’lim jurnali, №2, 43–47-betlar.

UO‘K 373.07:005.95/.96:331.1

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA MEHNAT MUHOFAZASI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Salaxutdinov Sardor Abdumanapovich,
“Oriental” universiteti mustaqil izlanuvchisi, Toshkent shahri
ssa577@mail.ru

Maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida mehnatni muhofaza qilish tizimini tashkil etishning dolzarb masalalari tahlil qilingan. Ta’lim muassasalarida xavfsiz mehnat muhitini yaratish pedagog xodimlar sog‘lig‘ini saqlash, mehnat samaradorligini oshirish va ta’lim jarayoni barqarorligini ta’minlashning muhim sharti sifatida ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda maktablarda mehnatni muhofaza qilish sohasida uchraydigan asosiy muammolar - moddiy-texnik infratuzilmaning yetarli emasligi, kadrlarning xavfsizlik bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari pastligi, boshqaruv va monitoring tizimining samarasizligi hamda pedagogik faoliyatdagi psixologik xavflar tahlil qilingan. Shuningdek, ta’lim muassasalarida xavflarni boshqarish tizimini joriy etish, xavfsiz mehnat madaniyatini shakllantirish va zamonaviy risk-menejment mexanizmlarini qo‘llash bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *mehnatni muhofaza qilish, ta’lim muassasasi, kasbiy xavf-xatarlar, xavfsiz mehnat muhiti, pedagoglar sog‘lig‘i, risk-menejment, mehnat xavfsizligi.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ОХРАНЫ ТРУДА В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

В статье рассматриваются актуальные вопросы организации системы охраны труда в учреждениях общего среднего образования. Подчёркивается, что создание безопасной трудовой среды в образовательных организациях является важным условием сохранения здоровья педагогических работников, повышения эффективности их профессиональной деятельности и обеспечения стабильности образовательного процесса. В исследовании анализируются основные проблемы системы охраны труда в школах, включая недостаточный уровень материально-технической инфраструктуры, недостаточные знания и навыки работников в области безопасности труда, слабость управленческих и мониторинговых механизмов, а также психологические риски, характерные для педагогической деятельности. Предлагаются научно обоснованные рекомендации по внедрению системы управления рисками и формированию культуры безопасного труда в образовательных учреждениях.

Ключевые слова: *охрана труда, образовательные учреждения, профессиональные риски, безопасная трудовая среда, здоровье педагогов, управление рисками, безопасность труда.*

IMPROVEMENT OF THE OCCUPATIONAL SAFETY SYSTEM IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS

The article examines current issues related to the organization of the occupational safety and health system in general secondary education institutions. The study emphasizes that creating a safe working environment in educational institutions is a key condition for protecting teachers' health, improving professional performance, and ensuring the stability of the educational process. The research identifies several systemic problems in the field of occupational safety in schools, including insufficient material and technical infrastructure, lack of knowledge and skills among staff in occupational safety, weak management and monitoring mechanisms, and psychological risks associated with pedagogical activities. The paper also proposes scientifically grounded recommendations aimed at implementing risk management systems and developing a culture of occupational safety in educational institutions.

Keywords: *occupational safety, educational institutions, professional risks, safe working environment, teachers’ health, risk management, labour safety.*

Kirish. Hozirgi globallashuv va ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonlarida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari faoliyatini xavfsiz va barqaror tashkil etish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim muassasalarida pedagog xodimlar, ma’muriy va texnik personal hamda o‘quvchilar uchun xavfsiz mehnat va ta’lim muhitini ta’minlash nafaqat mehnat qonunchiligi talablarini bajarish, balki ta’lim sifati va

samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarda ta’lim muassasalarida xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish pedagoglarning sog‘lig‘ini muhofaza qilish, kasbiy faoliyat samaradorligini oshirish hamda ta’lim jarayoni barqarorligini ta’minlash bilan bevosita bog‘liq ekani ta’kidlanadi [1],[2].

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Xalqaro miqyosda ham ta’lim sohasida mehnat muhofazasi masalalari dolzarb yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Xususan, xalqaro tashkilotlar tadqiqotlarida ta’lim muassasalari xodimlari psixologik zo‘riqish, ortiqcha ish yuklamasi, ergonomik noqulayliklar hamda sanitariya-gigiyena talablarining buzilishi kabi turli xavf omillariga duch kelishi mumkinligi qayd etilgan [3],[4]. Shu bois ta’lim muassasalarida xavflarni aniqlash, baholash va ularni samarali boshqarishga qaratilgan tizimli yondashuvni joriy etish muhim hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida mehnatni muhofaza qilish tizimining holatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida mehnatni muhofaza qilish tizimini samarali tashkil etish zamonaviy ta’lim boshqaruvi va ijtimoiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [5]. Ta’lim jarayonida o‘qituvchilar, ma’muriy xodimlar, texnik xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar hamda o‘quvchilar faoliyat olib boradigan muhit xavfsiz bo‘lishi nafaqat mehnat qonunchiligi talabi, balki ta’lim sifatini ta’minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ta’lim muassasalarida xavfsiz mehnat muhitini yaratish pedagoglarning sog‘lig‘ini saqlash, kasbiy faoliyat samaradorligini oshirish hamda o‘quv jarayonining barqarorligini ta’minlash bilan bevosita bog‘liq ekani ta’kidlanadi [6]. Ta’lim tizimida mehnatni muhofaza qilish masalalari xalqaro miqyosda ham dolzarb hisoblanadi. Xalqaro mehnat tashkiloti va Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tadqiqotlarida qayd etilishicha, ta’lim sektorida faoliyat yurituvchi xodimlar psixologik zo‘riqish, ortiqcha ish yuklamasi, ergonomik noqulayliklar va sanitariya-gigiyena muammolari kabi turli xavf omillariga duch keladi [7].

Shu sababli ta’lim muassasalarida xavflarni boshqarish tizimini yaratish, xavf-xatarlarni aniqlash va ularni kamaytirish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim vazifa hisoblanadi [8]. Maktablarda mehnat muhofazasi tizimini o‘rganish jarayonida bir qator tizimli muammolar mavjudligini ko‘rish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Avvalo, moddiy-texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi muhim muammolardan biri hisoblanadi. Ayrim ta’lim muassasalarida sinf xonalari yoritilishi, shamollatish tizimi, harorat rejimi hamda elektr jihozlarining texnik holati sanitariya me’yorlariga to‘liq javob bermasligi kuzatilgan. Bunday holatlar uzoq muddat davomida pedagog xodimlarning sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatishiga olib keladi [9],[10].

Ikkinchi muhim muammo kadrlarning mehnat muhofazasi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarining yetarli emasligidir. Ba’zi hollarda pedagoglar va texnik xodimlar favqulodda vaziyatlarda harakat qilish, yong‘in xavfsizligi qoidalari yoki gigiyenasi talablarini yetarli darajada bilmaydi. Natijada favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda ularni tezkor bartaraf etish qiyinlashadi [11].

Uchinchi muammo boshqaruv va tashkiliy mexanizmlar bilan bog‘liq. Ayrim maktablarda mehnat muhofazasi tizimi faqat hujjatlar bilan cheklanib qoladi va amaliy monitoring yetarli darajada amalga oshirilmaydi. Zamonaviy boshqaruv yondashuvlari esa xavflarni tizimli ravishda aniqlash, baholash va ularni boshqarish tamoyillariga asoslanadi [12].

To‘rtinchi muhim omil pedagogik faoliyatga xos psixologik va ijtimoiy xavflar bilan bog‘liq. O‘qituvchilar yuqori ish yuklamasi, hisobotlarning ko‘pligi, o‘quvchilar va ota-onalar bilan muloqot jarayonida yuzaga keladigan stress holatlari tufayli kasbiy charchoq holatiga duch kelishi mumkin [13].

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv zarur. Avvalo, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xavfsizlik standartlariga mos jihozlar bilan ta’minlash zarur.

Ikkinchidan, pedagoglar uchun muntazam treninglar va malaka oshirish kurslarini tashkil etish orqali xavfsiz mehnat madaniyatini shakllantirish lozim. Uchinchidan, maktablarda risk-menedjment tizimini joriy etish, ya’ni xavflarni aniqlash, baholash va nazorat qilishning zamonaviy usullarini qo‘llash muhimdir [14].



1-rasm. Maktablarda mehnat muhofazasi muammolari va yechimlari sxemasi (Mualliflik ishlanmasi)

Olingan natijalar va ularning tahlili. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ta’lim muassasalarida xavfsiz mehnat muhitini yaratish pedagoglarning sog‘lig‘ini saqlash, kasbiy faoliyat samaradorligini oshirish hamda o‘quv jarayonining barqarorligini ta’minlash bilan bevosita bog‘liq ekani ta’kidlanadi. Ta’lim tizimida mehnatni muhofaza qilish masalalari xalqaro miqyosda ham dolzarb hisoblanadi. Xalqaro mehnat tashkiloti va Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tadqiqotlarida qayd etilishicha, ta’lim sektorida faoliyat yurituvchi xodimlar psixologik zo‘riqish, ortiqcha ish yuklamasi, ergonomik noqulayliklar va sanitariya-gigiyena muammolari kabi turli xavf omillariga duch keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda 3 xil model ko‘rinishida ko‘rib chiqamiz.

1-model. “Maktablarda mehnat muhofazasi boshqaruvining integratsion modeli”

Ushbu model maktablarda mehnat muhofazasi tizimini boshqaruv, monitoring va profilaktika mexanizmlarini birlashtirgan holda amalga oshirishni nazarda tutadi.



2-rasm. Maktablarda mehnat muhofazasi boshqaruvining integratsion modeli (Mualliflik ishlanmasi)

Ilmiy yangilik: maktablarda mehnat muhofazasini boshqaruv–monitoring–profilaktika integratsiyasi asosida baholash.

2-model. “Maktablarda kasbiy xavf-xatarlarni kompleks baholash modeli”

Bu model maktablardagi xavf-xatarlarni 4 ta asosiy guruhga ajratib baholashga asoslanadi.



3-rasm. Maktablarda kasbiy xavf-xatarlarni kompleks baholash modeli
(Mualliflik ishlanmasi)

Ilmiy yangilik: maktablarda xavf-xatarlarni **4-komponentli kompleks modeli** asosida baholash.

3-model. “Maktablarda mehnat xavfsizligi samaradorligini baholash modeli”



4-rasm. Maktablarda mehnat xavfsizligi samaradorligini baholash modeli

Ilmiy yangilik: maktablarda mehnat muhofazasi samaradorligini **kirish - chiqish modeli** orqali baholash.

“Maktablarda kasbiy xavf-xatar indeksi” ta’lim muassasalarida mavjud bo‘lgan turli xil xavf omillarini birlashtirilgan integral ko‘rsatkich sifatida baholash imkonini beradi. Ushbu indeks maktablarda mehnatni muhofaza qilish holatini tizimli ravishda tahlil qilish, xavf darajasini aniqlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qo‘llanilishi mumkin.

Indeks to‘rtta asosiy xavf guruhi asosida shakllantirilgan:

Fizik xavflar (F) – yorug‘lik yetishmasligi, yuqori shovqin darajasi, harorat va namlikning me’yordan chiqishi kabi omillar.

Sanitar-gigiyenik xavflar (S) – sinf xonalarining gigiyenik holati, havo almashinuvi, tozalik darajasi va sanitar talablarga rioya etilishi.

Psixo-ijtimoiy xavflar (P) – o‘qituvchilar va xodimlarda stress, emotsional zo‘riqish, ish yukining yuqoriligi, jamoadagi psixologik muhit.

Tashkiliy xavflar (T) – mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha boshqaruv tizimi, xavfsizlik bo‘yicha yo‘riqnomalar, nazorat va boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi.

Shu tariqa indeks maktabdagi xavflarni ko‘p omilli va kompleks yondashuv asosida baholaydi.

“Maktablarda kasbiy xavf-xatar indeksi” ilmiy formulasi

$$KHXI = \frac{(F + S + P + T)}{4}$$

Bu yerda:
- **KHXI** – kasbiy xavf-xatar indeksi
- **F** – fizik xavflar koeffitsiyenti
- **S** – sanitar-gigiyenik xavflar koeffitsiyenti
- **P** – psixosotsial xavflar koeffitsiyenti
- **T** – tashkiliy xavflar koeffitsiyenti

Bu usul:
- hisoblashni soddalashtiradi;
- maktablar kesimida tezkor monitoring o‘tkazish imkonini beradi;
- xavflarni dastlabki baholash uchun qulay hisoblanadi.

Indeks natijalarini tushunarli qilish uchun u **to‘rt darajali xavf shkalasi** orqali baholanadi:

1-jadval.

Indeks qiymati	Xavf darajasi
0 – 0.25	past
0.26 – 0.50	o‘rta
0.51 – 0.75	yuqori
0.76 – 1	juda yuqori

Bu shkala:
- maktablarda mehnat xavfsizligi holatini **taqqoslash**,
- xavf yuqori bo‘lgan muassasalarni **aniqlash**,
- profilaktik chora-tadbirlarni **rejalashtirish**

uchun xizmat qiladi.

Ilmiy va amaliy ahamiyati shundaki, ushbu indeksning joriy etilishi bir nechta muhim natijalarga olib kelishi mumkin:

1. Maktablarda kasbiy xavflarni **tizimli monitoring qilish** imkoniyati yaratiladi.
2. Mehnatni muhofaza qilish boshqaruvi uchun **kvantitativ baholash instrumenti** shakllanadi.
3. Xavf darajasi yuqori bo‘lgan omillar **aniqlanadi va ustuvor choralar belgilanadi**.

4.Ta’lim muassasalarida xavfsiz mehnat muhitini ta’minlash bo‘yicha **ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish** imkoniyati paydo bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida mehnatni muhofaza qilish tizimini samarali tashkil etish ta’lim sifati, pedagog xodimlar salomatligi hamda ta’lim jarayoni barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Maktablarda mehnat xavfsizligi faqat qonunchilik talablarini bajarish bilan cheklanib qolmasdan, balki ta’lim muassasalarini barqaror va samarali faoliyat yuritishining muhim omili sifatida qaralishi zarur.

Tadqiqot natijalari maktablarda mehnat muhofazasi sohasida bir qator tizimli muammolar mavjudligini ko‘rsatdi. Jumladan, ayrim ta’lim muassasalarida moddiy-texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, sanitar-gigiyenik sharoitlarning to‘liq ta’minlanmaganligi, xodimlarning mehnat muhofazasi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarining yetarli emasligi hamda boshqaruv va nazorat mexanizmlarining samaradorligi pastligi kuzatildi. Shuningdek, pedagogik faoliyatga xos bo‘lgan psixosotsial omillar - yuqori ish yuklamasi, stress va kasbiy charchoq holatlari ham mehnat xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi aniqlandi.

Tadqiqot doirasida maktablarda mehnat muhofazasi tizimini takomillashtirishga qaratilgan bir qator ilmiy yondashuvlar va modellar ishlab chiqildi. Jumladan, mehnat muhofazasi boshqaruvining integratsion modeli, kasbiy xavf-xatarlarni kompleks baholash modeli hamda mehnat xavfsizligi samaradorligini baholash modeli taklif etildi. Ushbu modellar ta’lim muassasalarida xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish jarayonlarini tizimli ravishda amalga oshirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, maktablarda kasbiy xavf-xatarlarni baholash uchun “Kasbiy xavf-xatar indeksi” ilmiy formulasi ishlab chiqildi. Ushbu indeks fizik, sanitar-gigiyenik, psixo-ijtimoiy va tashkiliy xavf omillarini

kompleks tarzda baholash imkonini beruvchi integral ko‘rsatkich hisoblanadi. Indeksning joriy etilishi maktablarda mehnat xavfsizligi holatini tizimli monitoring qilish, xavf darajasini aniqlash va boshqaruv qarorlarini ilmiy asosda qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

Umuman olganda, maktablarda mehnat muhofazasi tizimini takomillashtirish uchun kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Bunda ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish, xodimlar uchun muntazam malaka oshirish va treninglar tashkil etish, xavflarni boshqarishning zamonaviy risk-menejment usullarini joriy etish hamda mehnat xavfsizligi monitoringini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari umumiy o‘rta ta’lim maktablarida xavfsiz mehnat muhitini yaratish, pedagog xodimlar salomatligini muhofaza qilish va ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ishlab chiqilgan modellar va kasbiy xavf-xatar indeksi ta’lim muassasalarida mehnat muhofazasi tizimini baholash va boshqarishning ilmiy-amaliy instrumenti sifatida qo‘llanilishi mumkin deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar:

1. International Labour Organization. Safety and health at work: A vision for sustainable prevention. Geneva: ILO, 2022.
2. World Health Organization. Healthy workplaces: A model for action. Geneva: WHO Press, 2010.
3. Kinman G., Wray S. Work-related wellbeing in UK teachers. Educational Review, 2018.
4. OECD. Teachers’ Well-Being and Working Conditions. Paris: OECD Publishing, 2021.
5. Clarke S. Safety leadership: A meta-analytic review of transformational and transactional leadership styles as antecedents of safety behaviours. Journal of Occupational and Organizational Psychology, 2013.
6. Day C., Gu Q. Resilient Teachers, Resilient Schools. Routledge, 2014.
7. International Labour Organization. Safety and Health at Work: A Vision for Sustainable Prevention. Geneva, 2019.
8. World Health Organization. Healthy Workplaces: A Model for Action. Geneva, 2010.
9. Schneider M. Do school facilities affect academic outcomes? National Clearinghouse for Educational Facilities, 2002.
10. Earthman G. School Facility Conditions and Student Academic Achievement. UCLA, 2004.
11. OECD. Supporting Teacher Professionalism. Paris, 2016.
12. Reason J. Managing the Risks of Organizational Accidents. Ashgate, 1997.
13. Maslach C., Leiter M. The Truth About Burnout. Jossey-Bass, 1997.
14. UNESCO. Safe and Healthy Learning Environments. Paris, 2021.

ART-PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI HAMKORLIKDA O‘QITISHNING MAZMUNI VA MOHIYATI

Suvanova Kamola Raimqul qizi,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi,
“Pedagogika” kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari falsafa doktori(PhD)
kamolasuvanova6@gmail.com

Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimidagi islohotlar doirasida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishida madaniy muhit va art-pedagogik texnologiyalarning o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqotda bo‘lajak pedagoglarning ish faoliyatida ijodiy yondashuvni shakllantirish, ularni hamkorlikda o‘qitish (collaborative learning) jarayonida san’at vositalaridan samarali foydalanishning mazmun-mohiyati yoritib berilgan. Muallif tomonidan bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi muayyan art-pedagogik vositalar tasniflanadi va ularning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati ilmiy asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *kasbiy salohiyat, art-pedagogik kompetensiyalar, hamkorlik pedagogikasi, madaniy-ijodiy muhit, rasm chizish texnikalar, individuallik.*

СОДЕРЖАНИЕ И СУЩНОСТЬ СОВМЕСТНОГО ОБУЧЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ АРТ-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

В данной статье анализируется роль культурной среды и арт-педагогических технологий в профессиональном формировании будущих учителей в рамках реформ системы высшего образования. Исследование освещает сущность формирования творческого подхода к работе будущих учителей, эффективное использование художественных инструментов в процессе их совместного обучения. Автор классифицирует определённые арт-педагогические инструменты, служащие для повышения профессиональных навыков будущих учителей, и научно обосновывает их социально-педагогическую необходимость.

Ключевые слова: *профессиональный потенциал, художественно-педагогические компетенции, педагогика сотрудничества, культурно-творческая среда, техника рисования, индивидуальность.*

THE CONTENT AND ESSENCE OF COLLABORATIVE TEACHING OF FUTURE TEACHERS THROUGH ART-PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

This article analyzes the role of the cultural environment and art-pedagogical technologies in the professional formation of future teachers within the framework of reforms in the higher education system. The study highlights the essence of the formation of a creative approach to the work of future teachers, the effective use of art tools in the process of their collaborative learning. The author classifies certain art-pedagogical tools that serve to improve the professional skills of future teachers and scientifically substantiates their socio-pedagogical necessity.

Keywords: *professional potential, art-pedagogical competencies, collaborative pedagogy, cultural-creative environment, drawing techniques, individuality.*

Kirish. Bugungi global raqobat sharoitida bardoshli milliy ta’lim tizimini yaratish bevosita bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy transformatsiyasi bilan bog‘liqdir. Bunda o‘quv jarayonining kreativ komponentini kuchaytirish, pedagogning o‘zini o‘zi anglashi va kasbiy salohiyatini namoyon etishi uchun art-pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, tarixiy tajriba san’at vositalari orqali dunyo manzarasini tushunish, ijtimoiy-pedagogik hodisalarning mohiyatini anglash va shaxs intellektual salohiyatini yuksaltirishda yuksak samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimidagi islohotlar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanish jarayonini ilmiy-metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan. Xususan, pedagogik yo‘nalish talabalari uchun an’anaviy darslar bilan bir qatorda, nazariya va amaliyotning uyg‘unligini (dual ta’lim) ta’minlovchi masofaviy va ish jarayoni bilan integratsiyalashgan o‘qitish shakllari joriy etish yo‘lga qo‘yilmoqda. Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy mahoratini talabalik davridanoq yuksaltirish maqsadida ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi modernizatsiya qilish va huquqiy-me’yoriy asoslar mustahkamlanmoqda. Oliy ta’lim tizimidagi raqobat muhiti esa bo‘lajak mutaxassislarning o‘z ustida doimiy

ishlashi hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni chuqur o‘zlashtirishi uchun zaruriy platforma yaratmoqda. Bajarilgan ishlar bilan bir qatorda bo‘lajak o‘qituvchilarda faoliyatining keskin vaziyatlari ularning sodir bo‘layotgan voqealarni baholashda nomukammalligini, o‘quvchilarga nisbatan impulsiv xatti-harakatlarni keltirib chiqaradi, tashabbuskorlikni yo‘qligi, passivlik va o‘zlarining kasbiy yaroqsizligini his qilish kabi shaxsiy xususiyatlarning shakllanishida o‘qituvchilarga qo‘llab-quvvatlash tizimiga ehtiyoj tug‘ilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Hamkorlik pedagogikasi turli mamlakatlarda ilg‘or pedagog-novatorlar ishtirokida rivojlandi. XX asrning 70-yillarida AQShda R. Jonson, Sh.Sharon; Italiyada – M.Montessori; Buyuk Britaniyada – R.Ganye, Dj. Brigs, Levi Stross; XX asrning 80-yillarida Rossiyada S.L.Soloveychik, V.F.Amonashvili, N.A.Shalva,V.Shatalov, S.N.Lisenkova; XX asrning 90-yillarida O‘zbekistonda J.Yo‘ldoshev, V.Karimova, N.Sayidahmedov, R.Ishmuhamedovlarning fikrlari shundan dalolat beradiki, kommunikativ faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun o‘qituvchining integral fanlar asoslari va o‘quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini chuqur bilishi yetarli emas. Zero, u bilim hamda amaliy ko‘nikma va malakalarni o‘quvchilarga faqat bevosita jonli muloqot vositasida bera oladi. O‘qituvchi va o‘quvchilarning jonli muloqoti ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyatning muhim sharti va mazmuni sifatida namoyon bo‘ladi.

Xorijlik olimlarning tadqiqotlarida hamkorlik o‘qitishning o‘zari qo‘llab quvvatlash maqsadida sifatida ahamiyat qaratilgan. D.B. Millerning hamkorlik vaziyatida umumiy maqsad mavjud bo‘lib, guruhlarga taqsimlangan o‘quvchilarning hammasiga vazifa bo‘lib beriladi, raqobat vaziyatida guruhning har bir a’zosi yaxlit tarzda qo‘yilgan maqsali individual erishishi ta’lab etiladi.

Ch.Bernard hamkorlik va raqobat tushunchalarini shaxsning biologik jihati bilan bog‘liqlikda tushuntirishga harakat qilib, turli vaziyatlarda kishilarning imkoniyati biologik omillar sababi cheklangan, hamkorlik esa, uni bartaraf etishning samarali metodlari sifatida yuzaga chiqadi, degan xulosaga kelgan .

Natijalar. Art pedagogik muhitning bo‘lajak pedagogga ta’siri borasida olimlar hozirga qadar yagona tuxtamga kelishmagan. Fikrimizcha, ushbu tadqiqot kontekstida muhitni mavhum hodisa sifatida ko‘rib chiqib bo‘maydi. Bizning tadqiqotimizda oliy ta’lim muassasasi muhitini o‘rganish muhim o‘rin tutadi, chunki aynan u kasbiy faoliyat makoni hisoblanib, hamkorlik faoliyatiga ta’siri ko‘rsatadi. Ta’lim muassasada zamonaviy ta’lim ta’lablariga javob beradigan, ta’lim muhiti u bilan o‘zaro hamkorlikkada ijodiy muhitni yaratibgina ushbu muammolarni kompleks bartaraf etish mumkin.

Inson bilan o‘zaro ta’siriga kirishuvchi turli makonlarning amal qilish sohasi o‘rgangan A.A.Makarenya aynan ta’lim ‘‘insonga tashqi olamni o‘zgartirish imkonini beradi’’degan xulosaga keladi.

A.A. Makarenyaning aniqlashicha, quydagilar madaniy-ijodiy muhitning komponentlarini aytib o‘tadi:

-axborot muhiti;
-predmetli muhit;
-faoliyat muhiti;
-intellektual muhit;
-badiiy muhit;
-baholovchi muhit;
-ijtimoiy muhit va b.

Faoliyati davomida doimiy bo‘lajak o‘qituvchining anglashi, o‘z- o‘zini faolishtirishi va o‘z-o‘zini rivojlantirishi, o‘zini ijtimoiy foydali erkin faoliyatini taqdim etish, hamkorlikda bilim olishi, estetik faollikda bo‘lishi, ma’daniy muhitni kasbiy faoliyatga bog‘lashi; ijodiy- yondashuvini qaror toptirish, madaniy – ijodiy muhitning o‘zida aks ettirishi hamda bilim, ko‘nikma, malakalarini muntazam yangilab borishini o‘zida aks ettirishi lozim. Olib borilayotgan tadqiqot natijasida A.A. Makarenyaning aniqlangan madaniy-ijodiy muhitning komponentlariga art pedagogik texnologiyasi qo‘shimcha komponent sifatiga kiritishimiz imkonini berdi.

Bo‘lajak pedagogning madaniyatli shaxs sifatidagi o‘rni va ijtimoiy-ma’naviy vazifalarini K.D. Ushinskiyning boy pedagogik merosi misolida konseptual tahlil qilish mumkin. Pedagogik faoliyat — bu shaxsning o‘zlikni anglashi va madaniy takomillashuv jarayoni bo‘lib, u quyidagi ierarxik bosqichlarni qamrab oladi: o‘zini kasbiy hamjamiyatda, xalq va millat manfaatlari doirasida anglash hamda umuman insoniyat hayotida ezgulik uchun xizmat qilishdagi o‘rnini belgilashdir. U o‘zining “Pedagogik adabiyotlarning foydasi haqida” nomli asarida serqirra tafakkur sohibi bo‘lgan o‘qituvchi faqatgina shaxsiy tajriba bilan cheklanib qolmasligi, balki dunyoqarashini doimiy kengaytirib borishi va o‘zining madaniy-ma’rifiy missiyasini chuqur his etishi lozimligini ilmiy asoslab bergan.

Bundan ko‘rinib turibdiki bo‘lajak pedagogning hayotida ish faoliyatida madaniy muhit o‘rin egallaydi. Bu jarayonni esa bo‘lajak o‘qituvchi faoliyati muayyan art pedagogik vositalar orqali namoyon bo‘ladi. Maskur vositalar quyidagicha ifodalanishi mumkin:

Quyidagi jadvalda Art pedagogik texnologiyaning vositalari tasnifi keltirilgan:

ART-PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VOSITASI	***QO‘LLANILISHI***
Rasm chizish texnikalari : fluid art, zentagle usulida rasm chizish, doodle art,zentangle art, dots art, shar yordamida rasm ishlash, spray bo‘yoq san’ati, kollaj, qahva bilan rasm chizish usullari **Musiqa orqali:** melodiya, ritm, improvizatsiya, musiqiy o‘yinlar **Kabare tomoshalari:** kabareda dramatik sahnalar, hazil (satira), musiqa va raqs ketma-ketligi **Aerobika raqslari orqali:** klassik aerobika, raqsiy aerobika, sport aerobika **She’riyat va adabiyot orqali :** “She’riyat kechasi,’’ “Mutolaa’da she’riyat” *nomli teatrlashtirilgan nazm kechalari*	Amaliy mashg‘ulot, guruhli ishlar motivatsion mashg‘ulotlar, dam olish paytida: Ko‘rgazmalar, loyihalar, ustaxona darslari; bahslar, munozaralar jamoaviy treninglar, adabiy tahlil qilish qobiliyati: madaniy savodxonlik **ijodkorlik, jamoaviylik va emotsional ifodaning uyg‘unlashgan** shakli; san’at, vatanparvarlik va ijtimoiy ongni targ‘ib qilish; sog‘lom turmush tarzi estetik va emotsional rivojlanish adabiyot va sahna san’atini uyg‘unlashtirish; fanlararo yondashuvni she’riyatga muhabbat va milliy o‘zlikni shakllantirish;

Aynan, art vositalar bo‘lajak o‘qituvchining aniq imkoniyatlari hamda jamoada ijtimoiy faolligi yo‘qligi, ish sifatining pasayishi, charchoq, o‘z-o‘zini rivojlantirishga vaqt yetmasligi, stress, ishga bo‘lgan motivatsiya pasayishi, jamoaviy hamkorlikning buzilishi, ishonchning kamayishi, samaradorligining kamayishi, yangiliklarga islohotlarga qarshilikka bartaraf etishda o‘ziga xos xususiyatlarini muvaffaqiyati vositasiga aylantirishga sharoit yaratadi.

Zero, bo‘lajak o‘qituvchiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar ham uzluksiz rivojlanish, o‘zligini anglash, individualligini namoyish qilish, tafakkurini charxlash, kognitiv imkoniyatlarini kengaytirish, yuqori ijodiy mahsuldorlik, harakatchanlik, hamkorlik va kommunikativlikni bosh mezonga aylantiradi. Oliy ta’lim jarayonini hamkorlik muammosi bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy rivojlantirish bilan shug‘ullanuvchi ta’lim muassasalari uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Chunki, bo‘lajak o‘qituvchi jarayonda nafaqat katta hajmdagi yangi o‘quv materiali, axborotlarni o‘zlashtirishlari, balki avvalgi bilim, ko‘nikma, malakalarini joriy va istiqbol holatlarga rostlash, faoliyatlarini refleksiv tahlillash, kasbiy ehtiyojlari, qiyinchiliklari, vazifalarining maqbul yechimlarini topishlari zarur bo‘ladi. Bu esa, bo‘lajak o‘qituvchi bilish jarayonlari orqali uning shaxsi, intellekti, dunyoqarashi, qobiliyati, salohiyati va o‘quv faoliyatining individual uslubini rivojlantirish muhimligini anglatadi.

Muhokama. Aynan, art vositalar bo‘lajak o‘qituvchini aniq imkoniyatlari hamda jamoada ijtimoiy faolligi yo‘qligi, ish sifatining pasayishi, charchoq, o‘z-o‘zini rivojlantirishga vaqt yetmasligi, stress, ishga bo‘lgan motivatsiya pasayishi, jamoaviy hamkorlikning buzilishi, ishonchning kamayishi, samaradorligining kamayishi, yangiliklarga islohotlarga qarshilikka bartaraf etishda o‘ziga xos xususiyatlarini muvaffaqiyati vositasiga aylantirishga sharoit yaratadi.

Zero, o‘qituvchiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar ham uzluksiz rivojlanish, o‘zligini anglash, individualligini namoyish qilish, tafakkurini charxlash, kognitiv imkoniyatlarini kengaytirish, yuqori ijodiy mahsuldorlik, harakatchanlik, hamkorlik va kommunikativlikni bosh mezonga aylantiradi. Oliy ta’lim jarayonini hamkorlik muammosi bo‘lajak o‘qituvchiga kasbiy rivojlantirish bilan shug‘ullanuvchi ta’lim muassasalari uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Chunki, tinglovchilar jarayonda nafaqat katta hajmdagi yangi o‘quv materiali, axborotlarni bo‘lajak o‘qituvchiga, balki avvalgi bilim, ko‘nikma, malakalarini joriy va istiqbol holatlarga rostlash, faoliyatlarini refleksiv tahlillash, kasbiy ehtiyojlari, qiyinchiliklari, vazifalarining maqbul yechimlarini topishlari zarur bo‘ladi. Bu esa, bo‘lajak o‘qituvchiga bilish jarayonlari orqali uning shaxsi, intellekti, dunyoqarashi, qobiliyati, salohiyati va o‘quv faoliyatining individual uslubini rivojlantirish muhimligini anglatadi

Xulosa. Art-pedagogik texnologiyalar vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarni hamkorlikda o‘qitishning mazmuni va mohiyatini chuqur o‘rganish natijasida o‘qituvchining kasbiy faoliyatidagi ichki o‘zgarishlar, ya’ni transformatsion rivojlanish jarayonlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Mazkur jarayonda bo‘lajak o‘qituvchi an’anaviy bilim beruvchidan chiqib, o‘zini san’at, estetik tarbiya va emotsional uyg‘unlik orqali jamoada ijobiy muhit shakllantiruvchi shaxs sifatida namoyon eta boshlaydi.

Ushbu yondashuv bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy rolini yangilaydi — u darsni faqat o‘quv materialini o‘zlashtirish uchun emas, balki estetik va ma’naviy qadriyatlar vositasida jamiyat bilan uyg‘unlikda fikr yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash maydoniga aylantiradi. Art-pedagogik muhitda bo‘lajak o‘qituvchi ijodiy tashabbuskor, hamkorlikka ochiq, ruhiy yengillikni ta’minlovchi yetakchi sifatida shakllanadi. Hamkorlikda ta’lim berish sharoitida estetik idrok, emotsional faollik, hissiy o‘zaro aloqa va kollektiv refleksiya bo‘lajak o‘qituvchining asosiy kasbiy vositalariga aylanadi. Shunday qilib, san’atga asoslangan pedagogik yondashuv bo‘lajak o‘qituvchiga o‘z shaxsiy ichki dunyosini boyitish, madaniy ifoda vositalaridan foydalanish, hissiy holatlarni boshqarish va ta’lim oluvchilar bilan chuqur ijtimoiy-estetik muloqotga kirish, san’at integratsiyasi orqali pedagoglarni fikrlashda moslashuvchanlikni, noaniqlikka bag‘rikenglikni imkonini beradi.

Tahlillardan ko‘rinadiki, bu jarayon bo‘lajak o‘qituvchini o‘z kasbiga yangicha nazar bilan qarashga undaydi. U ijodiy fikrlovchi, jamoadagi holatga sezgir, hamkorlikda ishlashga qodir, madaniyatni tarqatuvchi va tarbiyaviy muhitga ta’sir ko‘rsatuvchi shaxs sifatida o‘zini yangidan ochadi. Shu asosda aytish mumkinki, art-pedagogik hamkorlik o‘qituvchini shunchaki dars beruvchidan madaniy-ijtimoiy aloqadorlikni shakllantiruvchi yetakchiga aylantiradi.

Adabiyotlar:

1. Abdullayeva SH., Choriyev R. Hamkorlik pedagogikasi. -T.: «KamronPress», 2016.
2. Maller, J.B.Co-operation and Competition: An Experimental Study in Motivation / J.B.Maller .- Teach .Coll.,1929
3. Barnard C.I.The Functions of The Executive/C.I.Barnard.-Harvard,1938.-384 p
4. Макареня А.А.Избранные труды. В 3-х томах.-Тюмень:ТОГИРРО, 2000.
5. Ушинский К.Д. О пользе педагогической литературы. Избр.пед.соч. В.2 т.-М., 1974, т. 2, 304-326 с.

O‘QITUVCHILARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI ANIQLASH MEZONLARI VA KO‘RSATKICHLARI

Tursunova Sojida Meyliyevna,
Iqtisodiyot pedagogika instituti 2- kurs magistranti

Ushbu maqolada o‘qituvchilarning kreativ kompetentligini aniqlashning asosiy mezonlari va ko‘rsatkichlari yoritib berilgan. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchining ijodkorligi, yangicha fikrlash qobiliyati hamda innovatsion metodlardan foydalanish ko‘nikmalari muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada o‘qituvchilarning kreativ kompetentligini baholashga oid ilmiy yondashuvlar tahlil qilinib, uning tarkibiy qismlari, mezonlari va amaliy ko‘rsatkichlari tavsiflangan. Shuningdek, kreativ kompetentlikni rivojlantirish orqali ta’lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *kreativlik, kreativ kompetentlik, pedagogik faoliyat, innovatsion metodlar, ijodiy fikrlash, ta’lim samaradorligi, pedagogik mahorat.*

КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ ОПРЕДЕЛЕНИЯ КРЕАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ

В данной статье рассматриваются критерии и показатели определения креативной компетентности учителей. В современной системе образования особое значение приобретает способность педагога к творческому мышлению, использованию инновационных методов обучения и разработке новых педагогических подходов. В статье проанализированы научные подходы к оценке креативной компетентности учителей, раскрыты её основные компоненты, критерии и показатели. Также рассматриваются возможности повышения эффективности образования через развитие креативной компетентности педагогов.

Ключевые слова: *креативность, креативная компетентность, педагогическая деятельность, инновационные методы, творческое мышление, эффективность образования, педагогическое мастерство.*

CRITERIA AND INDICATORS FOR ASSESSING TEACHERS’ CREATIVE COMPETENCE

This article discusses the criteria and indicators for identifying teachers’ creative competence. In the modern education system, a teacher’s ability to think creatively, apply innovative teaching methods, and develop new pedagogical approaches plays an important role. The article analyzes scientific approaches to assessing teachers’ creative competence and describes its main components, criteria, and indicators. In addition, the possibilities of improving educational effectiveness through the development of teachers’ creative competence are considered.

Keywords: *creativity, creative competence, pedagogical activity, innovative methods, creative thinking, educational effectiveness, pedagogical mastery.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda jamiyatning innovatsion taraqqiyotga yo‘naltirilishi ta’lim sohasida ham yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri mustaqil fikrlaydigan, ijodiy yondasha oladigan, muammolarga samarali yechim topa oladigan shaxslarni tarbiyalashdan iboratdir. Bunday shaxslarni shakllantirish esa, avvalo, pedagoglarning kasbiy mahorati va kompetentligiga, xususan, ularning kreativ kompetentligiga bevosita bog‘liq hisoblanadi.

Ta’lim jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining kasbiy faoliyatni qanday tashkil etishiga, pedagogik vaziyatlarga qanchalik ijodiy yondasha olishiga hamda innovatsion metod va texnologiyalarni qo‘llay olish qobiliyatiga bog‘liqdir. Zamonaviy o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki ta’lim jarayonining tashkilotchisi, o‘quvchilarni ijodiy faoliyatga yo‘naltiruvchi hamda ularning shaxsiy rivojlanishiga ko‘maklashuvchi shaxs sifatida namoyon bo‘lishi lozim. Shu sababli pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish, uning tarkibiy qismlarini aniqlash va baholash mezonlarini ishlab chiqish pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Kreativ kompetentlik tushunchasi pedagogning ijodiy fikrlashi, yangicha pedagogik g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyati, ta’lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish hamda muammoli vaziyatlarga

samarali yechim topish imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi. Kreativ kompetentlikka ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlar bilan cheklab qo‘ymaydi, balki ularni mustaqil izlanishga, tahlil qilishga va yangicha fikrlashga undaydi. Natijada ta’lim jarayoni yanada samarali, qiziqarli va interaktiv tus oladi.

So‘nggi yillarda pedagogika va psixologiya fanlarida kreativlik hamda kreativ kompetentlik masalalari keng o‘rganilmoqda. Turli ilmiy tadqiqotlarda o‘qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish, uning tarkibiy tuzilmasini aniqlash hamda pedagogik faoliyatda namoyon bo‘lish xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, kreativ kompetentlikni shakllantirish orqali o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish hamda ta’lim sifatini yaxshilash imkoniyatlari ham ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Shu bilan birga, zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning kreativ kompetentligini aniqlash, uni baholash mezonlari va ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Chunki pedagogning kreativ kompetentligini aniqlash orqali uning kasbiy faoliyatini yanada takomillashtirish, pedagogik jarayon samaradorligini oshirish hamda o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi.

O‘qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish ta’lim tizimida innovatsion muhitni shakllantirish, pedagogik faoliyatni modernizatsiya qilish hamda o‘quv jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etishga xizmat qiladi. Kreativ o‘qituvchi dars jarayonida interaktiv metodlardan foydalanadi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rag‘batlantiradi, muammoli vaziyatlar yaratadi hamda ularni ijodiy izlanishga undaydi. Bunday yondashuv esa o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularning intellektual hamda ijodiy salohiyatini rivojlantiradi.

Mazkur maqolada o‘qituvchilarning kreativ kompetentligini aniqlashning nazariy asoslari tahlil qilinadi, uning asosiy mezonlari va ko‘rsatkichlari yoritib beriladi. Shuningdek, pedagoglarning kreativ kompetentligini baholash orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish imkoniyatlari ham ko‘rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili. Pedagogika va psixologiya fanlarida kreativlik hamda kreativ kompetentlik masalalari ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Kreativlik tushunchasi ilmiy adabiyotlarda insonning yangi g‘oyalar yaratish, muammolarga noodatiy yechim topish hamda mavjud bilim va tajribani yangicha yondashuv asosida qo‘llash qobiliyati sifatida talqin etiladi. Ushbu tushunchaning ilmiy asoslari bir qator xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan.

Kreativlik muammosini ilmiy jihatdan tadqiq etgan olimlardan biri **J. Guilford** hisoblanadi. U kreativ fikrlashni inson intellektining muhim tarkibiy qismi sifatida baholab, uning asosiy ko‘rsatkichlari sifatida fikrning moslashuvchanligi, ravonligi, originalligi va muammoga yangicha yondashuv kabi jihatlarni ajratib ko‘rsatgan. Guilfordning tadqiqotlari kreativ fikrlashni o‘lchash va baholashga oid ilmiy yo‘nalishlarning shakllanishiga asos bo‘lgan.

Kreativlik nazariyasini rivojlantirishda **E. Torrance**ning ilmiy ishlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. U kreativlikni aniqlashga qaratilgan testlar tizimini ishlab chiqib, kreativ fikrlashning asosiy mezonlari sifatida g‘oyalar ko‘pligi, moslashuvchanlik, originallik va tafsilotlarni boyitish kabi ko‘rsatkichlarni taklif etgan. Torrance tadqiqotlari kreativlikni pedagogik jarayonda rivojlantirish masalalarini ilmiy asosda o‘rganishga imkon yaratgan.

Pedagogik faoliyat doirasida kreativ kompetentlik masalasi **A. Maslow**, **K. Rogers** kabi gumanistik psixologiya vakillari tomonidan ham yoritilgan. Ularning fikriga ko‘ra, kreativlik insonning o‘zini namoyon etish ehtiyoji bilan bog‘liq bo‘lib, shaxsning rivojlanishi va o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishida muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchining kasbiy faoliyati faqat bilim berish bilan cheklanib qolmaydi. Bugungi kunda o‘qituvchi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, ijodiy yondashish va innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyatlarini shakllantirishi zarur. Bunday vazifalarni samarali amalga oshirish esa o‘qituvchining kreativ kompetentligiga bevosita bog‘liqdir. Kreativ kompetentlik pedagogning pedagogik jarayonga yangicha yondashuvi, innovatsion metod va texnologiyalarni qo‘llay olishi hamda o‘quvchilarda ijodiy faollikni rivojlantira olish qobiliyatini ifodalaydi.

Ilmiy tadqiqotlarda kreativ kompetentlik o‘qituvchining kasbiy faoliyatida namoyon bo‘ladigan bir necha tarkibiy komponentlardan iborat murakkab tizim sifatida talqin qilinadi. Ushbu kompetentlik o‘qituvchining ijodiy fikrlashi, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyati, yangilik yaratishga intilishi hamda ta’lim jarayonida samarali metodlardan foydalanish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Shu sababli o‘qituvchilarning kreativ kompetentligini aniqlash uchun aniq mezonlar va ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

O‘qituvchilarning kreativ kompetentligini aniqlashda motivatsion mezon muhim o‘rin egallaydi. Ushbu mezon o‘qituvchining pedagogik faoliyatga bo‘lgan qiziqishi, yangilik yaratishga intilishi hamda kasbiy rivojlanishga bo‘lgan ehtiyoji bilan belgilanadi. Kreativ o‘qituvchi o‘z faoliyatini doimiy ravishda

takomillashtirishga harakat qiladi, yangi pedagogik g‘oyalarni izlaydi va ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etishga intiladi. Bunday o‘qituvchilar ko‘pincha ilmiy izlanishlar olib boradi, seminar va treninglarda faol qatnashadi hamda zamonaviy pedagogik tajribalarni o‘rganishga qiziqadi.

Keyingi mezon kognitiv mezon hisoblanadi. Ushbu mezon o‘qituvchining kreativlik, innovatsiya va pedagogik texnologiyalar haqidagi bilimlari darajasini ifodalaydi. Kreativ kompetentlikka ega bo‘lgan o‘qituvchi zamonaviy pedagogika, psixologiya va metodika yutuqlarini yaxshi biladi hamda ularni ta’lim jarayonida qo‘llay oladi. Shuningdek, u kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlar, interaktiv usullar va ta’lim texnologiyalaridan xabardor bo‘ladi. Masalan, muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, klaster, “aqliy hujum”, debat va boshqa innovatsion metodlar o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. O‘qituvchilarning kreativ kompetentligini aniqlashda faoliyat mezoni ham muhim hisoblanadi. Bu mezon o‘qituvchining dars jarayonida kreativ yondashuvni qo‘llay olishi, yangi pedagogik usullarni amaliyotga tatbiq etishi hamda o‘quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb eta olish qobiliyati bilan belgilanadi. Kreativ o‘qituvchi dars jarayonini interaktiv tarzda tashkil etadi, muammoli vaziyatlar yaratadi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashiga imkon beradi hamda ularning tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlaydi. Natijada o‘quvchilar nafaqat bilim oladi, balki o‘z fikrini erkin ifodalash va ijodiy yondashish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Shuningdek, refleksiv mezon ham o‘qituvchilarning kreativ kompetentligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu mezon o‘qituvchining o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qila olish, dars jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlash hamda kelgusidagi faoliyatini takomillashtirish qobiliyati bilan bog‘liq. Refleksiya jarayoni pedagogga o‘z tajribasini baholash, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish hamda ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

O‘qituvchilarning kreativ kompetentligini baholash jarayonida turli diagnostik usullardan ham foydalanish mumkin. Jumladan, pedagogik kuzatish, anketa va so‘rovnomalar, test topshiriqlari, o‘qituvchilarning dars jarayonini tahlil qilish hamda ularning pedagogik faoliyati natijalarini o‘rganish orqali kreativ kompetentlik darajasini aniqlash mumkin. Bu usullar o‘qituvchining ijodiy salohiyatini aniqlash hamda uning kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashga yordam beradi.

Quyidagi jadvalda o‘qituvchilarning kreativ kompetentligini aniqlash mezonlari va asosiy ko‘rsatkichlari tizimli ravishda keltirilgan.

Mezoni	Asosiy ko‘rsatkichlar
Motivatsion mezon	Ijodiy faoliyatga qiziqish, yangilikka intilish, o‘z ustida ishlashga ehtiyoj
Kognitiv mezon	Kreativlik va innovatsion metodlar haqidagi bilimlar, pedagogik texnologiyalarni bilish
Faoliyat mezoni	Dars jarayonida kreativ yondashuvdan foydalanish, interaktiv metodlarni qo‘llash
Refleksiv mezon	O‘z faoliyatini tahlil qilish, pedagogik tajribani baholash va takomillashtirish

Shunday qilib, o‘qituvchilarning kreativ kompetentligini aniqlash mezonlari va ko‘rsatkichlarini tizimli ravishda ishlab chiqish pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv o‘qituvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ta’lim jarayonini takomillashtirish hamda o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Zamonaviy ta’lim tizimida pedagog faoliyatining mazmuni va mohiyati tubdan o‘zgarib bormoqda. Jamiyatning innovatsion rivojlanishi, ilm-fan va texnologiyalarning jadal taraqqiyoti ta’lim jarayoniga ham yangi talablarni qo‘ymoqda. Shu sababli o‘qituvchilarning kasbiy faoliyati nafaqat an’anaviy bilimlarni yetkazib berish bilan, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va muammoli vaziyatlarda samarali qaror qabul qila olish qobiliyatlarini rivojlantirish bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Bu jarayonda o‘qituvchining kreativ kompetentligi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘qituvchining kreativ kompetentligi uning pedagogik faoliyatga yangicha yondashuvi, muammoli vaziyatlarga ijodiy yechim topa olishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlardan samarali foydalanishi bilan ifodalanadi. Kreativ kompetentlik pedagogning kasbiy rivojlanishi, pedagogik mahoratini oshirish hamda ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli o‘qituvchilarning kreativ kompetentligini aniqlash mezonlari va ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot jarayonida o‘qituvchilarning kreativ kompetentligini aniqlashda asosiy mezonlar sifatida motivatsion, kognitiv, faoliyat va refleksiv mezonlar muhim ekanligi asoslab berildi. Motivatsion mezon o‘qituvchining ijodiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishi, yangilik yaratishga intilishi hamda o‘z kasbiy faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyoji bilan belgilanadi. Kognitiv mezon esa

pedagogning kreativlik, innovatsion pedagogik texnologiyalar va zamonaviy ta’lim metodlari haqidagi bilimlari darajasini ifodalaydi.

Faoliyat mezoni o‘qituvchining pedagogik jarayonda kreativ yondashuvdan foydalanish, interaktiv metodlarni qo‘llash hamda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etish qobiliyati bilan bog‘liq. Refleksiv mezon esa pedagogning o‘z faoliyatini tahlil qila olishi, pedagogik jarayondagi yutuq va kamchiliklarni aniqlashi hamda kelgusidagi faoliyatini yanada takomillashtirishga intilishi bilan tavsiflanadi. Ushbu mezonlar o‘qituvchilarning kreativ kompetentligini kompleks tarzda baholashga imkon beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kreativ kompetentlikka ega bo‘lgan o‘qituvchi ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etadi. Bunday pedagoglar dars jarayonida innovatsion metodlardan foydalanadi, muammoli vaziyatlar yaratadi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rag‘batlantiradi hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadi. Natijada o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni egallaydi, balki ularni amaliyotda qo‘llash, tahlil qilish va yangi g‘oyalar yaratish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Shuningdek, o‘qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish ta’lim jarayonining sifatini oshirish, pedagogik faoliyatni modernizatsiya qilish hamda ta’lim tizimida innovatsion muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Kreativ kompetentlikka ega bo‘lgan pedagoglar ta’lim jarayonini o‘quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda tashkil etadi, ularni faol o‘quv faoliyatiga jalb etadi va ijodiy izlanishga undaydi.

Shu nuqtai nazardan, ta’lim muassasalarida pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Buning uchun o‘qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari, ilmiy-amaliy seminarlar va treninglar tashkil etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘rganish hamda amaliyotga joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, o‘qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning innovatsion g‘oyalarini rag‘batlantirish ham pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchilarning kreativ kompetentligini aniqlash mezonlari va ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish, ta’lim jarayonini yanada takomillashtirish hamda zamonaviy ta’lim talablariga mos ijodkor pedagoglarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlar ta’lim tizimining barqaror rivojlanishi, o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan barkamol shaxslarni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967.
2. Torrance E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. – Lexington: Personnel Press, 1974.
3. Maslow A. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1954.
4. Rogers C. Freedom to Learn. – Columbus: Merrill Publishing Company, 1969.
5. Sternberg R.J. Handbook of Creativity. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999.
6. Muslimov N.A. Kasbiy kompetentlik va pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: Fan, 2015.
7. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: Fan, 2010.
8. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006.
9. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2011.

TALABALARDA MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA NOVERBAL VOSITALARNING ROLI

Umarova Dilafro‘z Anvarovna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi kafedrasi assistent-o‘qituvchisi

Ushbu maqolada talabalarda muloqot madaniyatini shakllantirish jarayonida noverbal vositalarning ahamiyati yoritiladi. Noverbal muloqotning asosiy turlari – mimika, imo-ishoralar, tana harakatlari, ko‘z qarashi, ovoz ohangi kabi omillarning kommunikativ jarayondagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini oshirishda noverbal muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish muhim omillardan biri ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar*: noverbal muloqot, muloqot madaniyati, talaba, kommunikativ kompetensiya, mimika, imo-ishora, pedagogik jarayon, ta’lim.*

РОЛЬ НЕВЕРБАЛЬНЫХ СРЕДСТВ В ФОРМИРОВАНИИ У СТУДЕНТОВ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ

В данной статье освещается значимость невербальных средств в процессе формирования культуры общения у студентов. Анализируется роль таких компонентов невербального общения, как мимика, жесты, телодвижения, взгляд и интонация голоса в коммуникативном процессе. В ходе исследования обосновывается, что формирование навыков невербального общения является одним из ключевых факторов повышения коммуникативной компетенции студентов.

Ключевые слова: *невербальное общение, культура общения, студент, коммуникативная компетенция, мимика, жест, педагогический процесс, образование.*

THE ROLE OF NON-VERBAL MEANS IN FORMING COMMUNICATION CULTURE IN STUDENTS

This article examines the importance of nonverbal tools in the process of forming a culture of communication among students. It analyzes the role of the main types of nonverbal communication—such as facial expressions, gestures, body movements, eye contact, and tone of voice—within the communicative process. The study substantiates that developing nonverbal communication skills is one of the key factors in enhancing students' communicative competence.

Keywords: *nonverbal communication, culture of communication, student, communicative competence, facial expressions, gestures, pedagogical process, education.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchining kasbiy kompetentligi uning professional faoliyatining samaradorligini ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Xususan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining noverbal muloqot qilish mahorati ularning pedagogik faoliyatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishida hal qiluvchi ahamiyatga ega [1].

Pedagogik fanlar rivojlanishi bilan birga o‘qituvchining kasbiy kompetentligi tuzilmasi ham chuqur tadqiq etilmoqda. Ushbu tuzilma o‘qituvchining nazariy tayyorgarligi, amaliy mahorati hamda shaxsiy-fazilatli sifatlarining o‘zaro bog‘liqligini ifodalaydi [2].

Pedagogik faoliyatiga amaliy tayyorlik.

O‘qituvchining kasbiy kompetentligi tuzilmasida amaliy tayyorgarligi tashqi (predmetli) ko‘nikmalarda – pedagogik harakat qilish ko‘nikmalarida namoyon bo‘ladi. Bularga tashkilotchilik kommunikativ ko‘nikmalar kiradi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. O‘qituvchining tashkilotchilik faoliyati o‘quvchilarni turli faoliyat turlariga jalb qilishni va jamoa faoliyatini tashkil qilishni ta’minlaydi. Tashkilotchilik faoliyati tarbiyaviy ishlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Tarbiyaviy ish, eng avvalo, tashkilotchining ishi ekanligini ta’kidlangan. Umumiy pedagogik ish sifatida tashkilotchilik ko‘nikmalariga safarbar qilish, axborot, rivojlanish va yo‘naltiruvchi ko‘nikmalarni kiritilgan .

Safarbar qilish (mobilizatsiya) ko‘nikmalari. Ular o‘quvchilar e’tiborini jalb qilish va ularning o‘qish, mehnat va boshqa faoliyat turlariga doimiy qiziqishlarini rivojlantirish; bilimga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish va o‘quvchilarni o‘quv faoliyati ko‘nikmalari va o‘quv ishlarini ilmiy tashkil etish asoslari bilan ta’minlash; atrof-olamga ijodiy munosabatni shakllantirish maqsadida o‘quvchilarning bilim va hayotiy

tajribasini dolzarblashtirish; o‘quvchilarning axloqiy harakatlarini ko‘rsatishi uchun maxsus vaziyatlar yaratish; rag‘batlantirish usullaridan oqilona foydalanish, umumiy tajriba muhitini yaratish kabilar bilan bog‘liq.

Axborot ko‘nikmalari. Odatda ular faqat o‘quv ma’lumotlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqdim etish bilan bog‘lanib, lekin shu bilan birga, ularni olish usullarida ham mavjud bo‘ladi. Bu bosma va kompyuter manbalari bilan ishlash, uni didaktik ravishda o‘zgartirish, ya’ni ma’lumotlarni sharhlash hamda ta’lim-tarbiya vazifalariga moslashtirish ko‘nikmalari va malakalari kiradi.

O‘quvchilar bilan bevosita muloqot jarayonida axborot ko‘nikmalari o‘quv materialini o‘quv fanining o‘ziga xos xususiyatlarini, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi, ularning hayotiy tajribasi va yoshini hisobga olgan holda muayyan va aniq taqdim eta olishda; aniq hikoya, tushuntirish, suhbat, muammoli taqdimotni mantiqan to‘g‘ri qurish va o‘tkazishda; materialni taqdim etishning induktiv va deduktiv usullaridan foydalanishni hamohang birlashtirishda; savollarni tushunarli shaklda, qisqa, aniq va ifodali shakllantirishda; texnik vositalar, elektron hisoblash mashinalari va ko‘rgazmali qurollardan foydalanishda; grafiklar, diagrammalar, sxemalar va chizmalar yordamida o‘z fikrlarini ifoda etishda; turli usullardan foydalangan holda o‘quvchilar tomonidan yangi materialni o‘zlashtirish xarakteri va darajasini tez diagnostika qilishda; zarurat bo‘lsa, rejani va materialni taqdim etish kursini qayta qurishda namoyon bo‘ladi.

Rivojlantiruvchi ko‘nikmalar. Bunday ko‘nikmalar alohida o‘quvchilar va butun sinfning “yaqin rivojlanish hududini” aniqlashni; o‘quvchilarning bilish jarayonlari, his-tuyg‘ulari va irodasini rivojlantirish uchun muammoli vaziyatlar va boshqa shart-sharoitlarni yaratishni; bilish mustaqilligi va ijodiy tafakkurni rag‘batlantirishni, mantiqiy (xususiydan umumiyga, turdan turkumga, shartdan oqibatga, muayyandan mavhumga) va funksional (sabab-oqibat, maqsad-vosita, sifat-miqdor, harakat-natija) munosabatlarini o‘rnatish zaruratini rag‘batlantirishni; olingan bilimlarni qo‘llash, taqqoslash va mustaqil xulosalar chiqarishni talab qiladigan savollarni shakllantirish va qo‘yishni; individual xususiyatlarni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishni, ushbu maqsadlar uchun o‘quvchilarga individual yondashuvni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Noverbal muloqotning ahamiyati shundaki, u o‘quvchilarning e’tiborini jalb qilish, ularning kayfiyatini ko‘tarish, o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish va umuman ta’lim jarayonining samaradorligini yuqori darajada ta’minlash imkonini beradi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilar uchun o‘qituvchining noverbal xatti-harakatlari alohida ahamiyatga ega, chunki bu yoshdagi bolalar kattalarning xatti-harakatlariga, mimikasiga, ovoz ohanglariga juda sezgir bo‘ladilar[3].

I. O‘qituvchining kasbiy kompetentligi tuzilmasi

O‘qituvchining kasbiy kompetentligi tuzilmasida uning nazariy tayyorgarligi ko‘pincha psixologik-pedagogik va maxsus bilimlarning ma’lum bir majmui sifatida tushuniladi[4]. Shuning uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini nazariy tayyorgarligini namoyon bo‘lish shakllariga e’tibor qaratish zarur. U o‘z navbatida pedagogik fikrlashning umumlashtirilgan ko‘nikmasida, yoki boshqacha aytganda, ichki (ideal) ko‘nikmalar guruhiga kiruvchi konstruktiv va gnostik ko‘nikmalarda namoyon bo‘ladi.

Ko‘nikma - subyekt tomonidan harakatni o‘zlashtirilgan bilimlar majmui bilan ta’minlanadigan amalni bajarish usulidir[5]. Ko‘nikma mashqlar yo‘li bilan shakllanadi va biror harakatni nafaqat odatiy, balki o‘zgargan sharoitda ham bajarish imkoniyatini yaratadi. Konstruktiv va gnostik faoliyat o‘qituvchida tahlil, bashorat va loyihalash ko‘nikmalarining mavjudligida amalga oshirilishi mumkin. Gnostik faoliyat, refleksiv ko‘nikmalarni ham talab qiladi.

Zamonaviy pedagogik ta’limda nazariy bilimlarni amaliyotga qo‘llash mahorati alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki faqat nazariy bilimga ega bo‘lish yetarli emas, balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llash, pedagogik vaziyatlarga moslashtirish ko‘nikmalari ham shakllanishi kerak[6]. Bu jarayonda o‘qituvchi nafaqat tayyor bilimlarni qo‘llaydi, balki o‘zi yangi bilimlar hosil qiladi, o‘z tajribasini boyitib boradi.

Pedagogik kompetentlik tushunchasi o‘qituvchining kasbiy faoliyatini baholashning yangi mezonini ifodalaydi. Kompetentlik - bu nafaqat bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish, balki ularni amaliy faoliyatda samarali qo‘llash qobiliyatidir[7]. Zamonaviy o‘qituvchi o‘zining kasbiy kompetentligini doimiy ravishda oshirishi, yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirishi va ularni amaliyotga joriy etishi kerak. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘zining shaxsiy va kasbiy sifatlarini doimiy takomillashtiradi.

Nazariy tayyorgarlik o‘qituvchiga pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etish imkonini beradi. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini, ularning rivojlanish qonuniyatlarini, bilish jarayonlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini samarali tashkil etadi. Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida ularning nazariy tayyorgarligiga alohida e’tibor qaratish kerak.

Pedagogik ko‘nikmalar tizimi o‘qituvchining kasbiy faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi. Ushbu tizim quyidagi asosiy guruhlardan iborat: analitik ko‘nikmalar, bashorat qilish ko‘nikmalari,

loyihalashtirish ko‘nikmalari va refleksiv ko‘nikmalar. Har bir guruh o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, o‘qituvchining professional mahoratining shakllanishida muayyan rol o‘ynaydi.

Analitik ko‘nikmalar shakllanganligi o‘qituvchi kasbiy mahoratining mezonlaridan biridir. Ular yordamida amaliy bilim olinadi. Ta’lim jarayonida fikrlashning umumlashtirilgan ko‘nikmasi ularning asosini tashkil qilib, pedagogik muammoni hal qilishda quyidagi o‘ziga xos ko‘nikmalardan shakllanadi: pedagogik hodisalarni ularni tashkil etuvchi elementlarga (shartlar, sabablar, motivlar, stimullar, vositalar, namoyon bo‘lish shakllari va hokazo) ajratish; har bir pedagogik hodisani pedagogik jarayonning barcha komponentlari bilan bog‘liq holda tushunish.

Pedagogik ko‘nikmalar tizimining shakllanishi o‘qituvchining professional rivojlanishining uzoq muddatli jarayonidir. Bu jarayon pedagogik oliy ta’lim muassasalarida boshlanib, butun kasbiy faoliyat davomida davom etadi. O‘qituvchi o‘z tajribasini to‘plash, uni umumlashtirish va yangi bilimlar olish orqali o‘z ko‘nikmalarini doimiy takomillashtiradi. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlaydi, rivojlanish yo‘nalishlarini belgilaydi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Pedagogik ko‘nikmalar tizimi o‘qituvchiga turli xil pedagogik vaziyatlarda samarali faoliyat yuritish imkonini beradi. Bu ko‘nikmalar o‘qituvchiga o‘quv jarayonini tashkil etish, o‘quvchilarning rivojlanishini nazorat qilish, ular bilan samarali muloqot o‘rnatish va o‘z faoliyatini doimiy takomillashtirish imkonini yaratadi. Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida bu ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish kerak.

II. Bashorat qilish ko‘nikmalari

Analitik ko‘nikmalar o‘qituvchiga pedagogik jarayonda yuzaga keladigan hodisalarni chuqur tahlil qilish, ularning sabab-natija bog‘liqliklarini aniqlash imkonini beradi. Bu ko‘nikmalar o‘qituvchining professional rivojlanishining muhim bosqichini tashkil etadi. Pedagogik dalil deganda pedagogik o‘zaro ta’sirning ma’lum bir turi, pedagogik hodisa esa ana shu o‘zaro ta’sir natijasida paydo bo‘ladi deb tushuniladi.

Pedagogik dalillarni tahlil qilish jarayoni bir necha bosqichlardan iborat: biror dalil yoki hodisani ajratib, uni boshqalardan ajratish; mazkur dalil yoki hodisa elementlarining tarkibini o‘rnatish, mazmunini ochib berish va elementlarning har birining rolini ta’kidlash; berilgan elementning boshqa elementlar bilan aloqasini ko‘rsatish; integral hodisaning rivojlanish jarayoniga kirib borish; ta’lim jarayonida ushbu hodisaning o‘rnini aniqlash.

Ijtimoiy jarayonlarni, shu jumladan ta’lim jarayonlarini boshqarish har doim boshqaruv subyekti ongida aniq ko‘rsatilgan yakuniy natijaga (kutilgan maqsad) yo‘naltirishni nazarda tutadi. Maqsadlarni belgilash va keyinchalik pedagogik muammoni hal qilishning ehtimolli variantlarini tanlash uchun asos pedagogik vaziyatni tahlil qilish bilan ta’minlanadi. Shuning uchun maqsadni belgilashning muvaffaqiyati nafaqat analitik faoliyat natijalariga bog‘liq bo‘ladi.

Ko‘p jihatdan u antitsipatsiya, ya’ni harakatlar natijasining paydo bo‘lishini ular amalga oshirilishidan oldin ham oldindan ko‘rish qobiliyati bilan belgilanadi. Ushbu kasbiy ahamiyatga ega qobiliyatning mavjudligi doimo ijodkor o‘qituvchilarni ajratib turgan. Harakatlar natijalari to‘g‘risida oldindan ma’lumot olish jarayoni sifatida o‘qituvchi faoliyatini bashorat qilish pedagogik jarayonning mohiyati va mantig‘ini, o‘quvchilarning yosh va individual rivojlanish qonuniyatlarini bilishga asoslanadi.

Bu o‘quvchilar nimani noto‘g‘ri tushunishlari mumkinligini, muayyan pedagogik harakatlarga qanday ma’no berishi mumkinligini; o‘quvchilarning mavjud kundalik g‘oyalari bilan bog‘liq holda materialni idrok etishda qanday xatolar yuzaga kelishi mumkinligini va aksincha, qanday tajriba o‘rganilayotgan narsaning mohiyatiga chuqurroq kirib borishga yordam berishini taxmin qilish imkonini beradi.

Bashorat qilish ko‘nikmalari tarkibini quyidagicha ko‘rsatish mumkin: pedagogik maqsad va vazifalarni ilgari surish; pedagogik maqsadlarga erishish usullarini tanlash; natijani, ehtimolli og‘ishlarni va nomaqbul hodisalarni oldindan ko‘rish; pedagogik jarayonning bosqichlarini (yoki davrlarni) aniqlash; vaqtni taqsimlash; o‘quvchilar bilan birgalikda hayot faoliyatni rejalashtirish.

Pedagogik vazifaning yo‘nalishiga qarab, bashorat qilish ko‘nikmalarini uch guruhga birlashtirish mumkin: jamoaning rivojlanishini; uning tarkibiy tuzilmasi dinamikasi, munosabatlar tizimining rivojlanishi, faol va alohida o‘quvchilarning munosabatlar tizimidagi pozitsiyasining o‘zgarishi; shaxsning rivojlanishini, uning fazilatlari, tuyg‘ular, iroda va xatti-harakatlar, rivojlanishning ehtimolli og‘ishlari, tengdoshlar bilan munosabatlarni o‘rnatishdagi qiyinchiliklar; o‘quv jarayonining borishini bashoratlash ko‘nikmasi.

Pedagogik bashoratlash ko‘nikmasi o‘qituvchidan intellektual faoliyatni modellashtirish, taxmin qilish, fikrlash tajribasi, ekstrapolyatsiya kabi usullarini o‘zlashtirishni talab qiladi. Bu ko‘nikmalar o‘qituvchiga ta’lim jarayonini oldindan ko‘rish, uni samarali tashkil etish va o‘quvchilarning rivojlanish istiqbollarini aniqlash imkonini beradi. Shuning uchun bashorat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish o‘qituvchining kasbiy rivojlanishining muhim vazifasidir.

“Tahlilni amalga oshirish - bashorat qilish – loyihalashtirish” triadasi ta’lim va tarbiya aniq rejalarida pedagogik bashoratlash natijalarini moddiylashtirishda namoyon bo‘ladigan maxsus ko‘nikmalar guruhini aniqlashni nazarda tutadi. Pedagogik faoliyatni loyihalashtirish, eng avvalo, ta’lim va tarbiya maqsadlarini pedagogik tilga o‘tkazish, ularni maksimal darajada aniqlashtirish va bosqichma-bosqich amalga oshirish usullarini asoslashni bildiradi.

Keyingi bosqich - faoliyatning mazmuni va turlarini aniqlash, ularni amalga oshirish o‘quvchilarning bashorat qila olish fazilatlari va holatini rivojlanishini ta’minlaydi. Belgilangan vazifalarga muvofiq turli xil faoliyat turlarini uyg‘unlashtirish va maxsus tadbirlarni amalga oshirishni ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Pedagog faoliyatining loyihalari sifatida ta’lim-tarbiya rejalari istiqbolli va tezkor bo‘lishi mumkin. Ikkinchisiga dars rejalari va tarbiyaviy tadbirlar kiradi.

Pedagogik faoliyat loyihasini ishlab chiqish mantig‘i loyihalashtirish ko‘nikmalarining tegishli tarkibini belgilaydi: ta’limning maqsad va mazmunini aniq pedagogik vazifalarga aylantirish; pedagogik vazifalarni belgilashda va o‘quvchilar faoliyatining mazmunini tanlashda ularning ehtiyojlari va qiziqishlarini, moddiy-texnik bazasi imkoniyatlarini, o‘z tajribasini, shaxsiy-ishbilarmonlik fazilatlarini hisobga olish.

Shuningdek, pedagogik jarayonning har bir bosqichi uchun ustun va bo‘ysunuvchi vazifalar majmuasini aniqlash; belgilangan vazifalarga mos keladigan faoliyat turlarini tanlash va birgalikdagi ijodiy faoliyat tizimini rejalashtirish; o‘quvchilarda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va ularning qobiliyatlari, ijodiy kuchlari va iste’dodlarini rivojlantirish maqsadida ular bilan individual ishlarni rejalashtirish loyihalashtirish ko‘nikmalarining tarkibiy qismlaridir.

Ko‘rinib turibdiki, tezkor rejalashtirish o‘qituvchidan uning tajribasiga qarab suhbat, dars yoki ekskursiyani reja, reja-konspekt yoki konspekt shaklida loyihani bajarishga olib keladigan aniq, tor uslubiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishni talab qiladi. Loyihalashtirish jarayonida o‘qituvchi nafaqat o‘z faoliyatini rejalashtiradi, balki o‘quvchilarning rivojlanishini, ularning faoliyatini ham oldindan ko‘rib chiqadi. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini, ularning rivojlanish qonuniyatlarini hisobga oladi.

Refleksiv ko‘nikmalar pedagog tomonidan o‘ziga qaratilgan nazorat va baholash faoliyatini amalga oshirganda yuzaga keladi. Bu odatda pedagogik muammoni hal qilishning yakuniy bosqichi bilan bog‘liq bo‘lib, uni pedagogik faoliyat natijalarini umumlashtirishning o‘ziga xos tartib-qoidasi sifatida tushuniladi. Shu bilan birga, quyidagi nazorat turlarini ajratib ko‘rsatish kerak: olingan natijalarning berilgan namunalar bilan o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan nazorat.

Faqat aqliy rejada amalga oshirilgan harakatlarning kutilgan natijalariga asoslangan nazorat; haqiqatda bajarilgan harakatlarning tugallangan natijalarini tahlil qilish asosida nazorat. Ularning barchasi pedagogik muammoni hal qilish bosqichlari bo‘ylab taqsimlangan bo‘lsa-da, pedagogik faoliyatda teng darajada o‘rin egallaydi. Shubhasiz, olingan natijalarni tahlil qilish asosida va birinchi navbatda fan o‘qituvchisi faoliyati bilan bog‘liq holda nazoratga alohida e’tibor qaratish lozim.

Nazoratning ushbu turini samarali amalga oshirish uchun pedagog unga o‘z mulohazalarini, xatti-harakatlarini va pirovardida, ularning reja va shartlarga muvofiqligi nuqtai nazaridan oqilona, obyektiv tahlil qilish imkonini beradigan refleksiya qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Refleksiyani o‘z harakatlarini tushunishga qaratilgan nazariy faoliyatning o‘ziga xos shakli sifatida tan olish pedagogik ko‘nikmalarning maxsus guruhi - refleksiv ko‘nikmalar haqida gapirishga imkon beradi.

Refleksiya - nafaqat pedagogik faoliyat subyektining o‘zini bilishi yoki tushunishi, balki boshqalar (o‘quvchilar, hamkasblar, ota-onalar) “refleksiya qiluvchi”ni, uning shaxsiy xususiyatlarini, hissiy reaksiyalarini va kognitiv (idrok bilan bog‘liq) g‘oyalarni qanday bilishi va tushunishini aniqlashdan iborat. Bu ko‘nikmalar o‘qituvchiga o‘z faoliyatini doimiy takomillashtirish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi.

Tashkilotchilik va kommunikativ ko‘nikmalar. O‘qituvchining kasbiy kompetentligi tuzilmasida amaliy tayyorgarligi tashqi (predmetli) ko‘nikmalarda - pedagogik harakat qilish ko‘nikmalarida namoyon bo‘ladi. Bularga tashkilotchilik kommunikativ ko‘nikmalar kiradi . O‘qituvchining tashkilotchilik faoliyati o‘quvchilarni turli faoliyat turlariga jalb qilishni va jamoa faoliyatini tashkil qilishni ta’minlaydi.

Bilimga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish va o‘quvchilarni o‘quv faoliyati ko‘nikmalari va o‘quv ishlarini ilmiy tashkil etish asoslari bilan ta’minlash; atrof-olamga ijodiy munosabatni shakllantirish maqsadida o‘quvchilarning bilim va hayotiy tajribasini dolzarblashtirish; o‘quvchilarning axloqiy harakatlarini ko‘rsatishi uchun maxsus vaziyatlar yaratish; rag‘batlantirish usullaridan oqilona foydalanish, umumiy tajriba muhitini yaratish kabilar safarbar qilish ko‘nikmalarining tarkibiga kiradi.

Axborot ko‘nikmalari odatda ular faqat o‘quv ma’lumotlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqdim etish bilan bog‘lanib, lekin shu bilan birga, ularni olish usullarida ham mavjud bo‘ladi. Bu bosma va kompyuter manbalari bilan ishlash, uni didaktik ravishda o‘zgartirish, ya’ni ma’lumotlarni sharhlash hamda ta’lim-

tarbiya vazifalariga moslashtirish ko‘nikmalari va malakalari kiradi. Axborot ko‘nikmalari o‘qituvchiga o‘quv materialini samarali yetkazish imkonini beradi.

Rivojlantiruvchi ko‘nikmalar alohida o‘quvchilar va butun sinfning “yaqin rivojlanish hududini” aniqlashni; o‘quvchilarning bilish jarayonlari, his-tuyg‘ulari va irodasini rivojlantirish uchun muammoli vaziyatlar va boshqa shart-sharoitlarni yaratishni; bilish mustaqilligi va ijodiy tafakkurni rag‘batlantirishni nazarda tutadi. Yo‘naltiruvchi (mo‘ljalli) ko‘nikmalar o‘quvchilarning axloqiy-qadriyat munosabatlarini hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan.

O‘qituvchining kommunikativ ko‘nikmalari tizimli ravishda perseptiv ko‘nikmalar, bevosita muloqot ko‘nikmalari va pedagogik texnika o‘zaro bog‘langan guruhlari sifatida ifodalanishi mumkin. Perseptiv ko‘nikmalar insonning inson tomonidan idrok etish muammosini ochib beruvchi, muloqot boshqa subyekti xususiyatlarini va uning muloqotga moyilligini o‘rganish bosqichida o‘qituvchi uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar doirasini belgilashga imkon beradi.

V. Noverbal muloqotning pedagogik ahamiyati

Pedagogik muloqot - o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy va psixologik o‘zaro ta’sirning yaxlit tizimi bo‘lib, u axborot almashish, tarbiyaviy ta’sir hamda aloqa vositalaridan foydalangan holda munosabatlarni tashkil etishni o‘z ichiga oladi. Faoliyati bolalarga ta’sir qilish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘qituvchilar zamonaviy muloqot tamoyillari nafaqat ma’lumot almashish va yoqimli xulq-atvorni, balki "ta’sirning terapevtik ta’siri"ni ham o‘z ichiga olishini hisobga olishlari kerak.

Atrofdagi insonlar bilan aloqa o‘rnatishda sheriklarga ta’sir qiluvchi ko‘plab elementlarni hisobga olish kerak: tashqi ko‘rinish, aloqa hududlari, suhbatni o‘tkazish qobiliyati, yoqimli va do‘stona muhit yaratish. O‘qituvchi ayniqsa ishonarli bo‘lishga harakat qilganda - mantiqan emas, balki “vaziyatni tushunishni” so‘rash darajasida - ko‘pincha o‘zining notiqligiga “bog‘lanadi” va, odatda intonatsion urg‘u paytida suhbatdoshning qo‘liga yoki yengiga tegadi va shu bilan sherigiga “asosiy so‘zlarni” aytadi.

Boshlang‘ich sinf yoshidagi bola uchun o‘qituvchi (uning roli) juda muhimdir. I.M. Yusupov ta’kidlaganidek, masalan, pedagogik muloqotda tabassum muloqotning muhim jihati bo‘lib hisoblanadi. Suhbatdosh qanchalik yosh bo‘lsa, u kattalaridan jimgina tabassum bilan o‘z harakatlariga ko‘proq dalda kerak. Nafaqat o‘quv jarayonida, balki norasmiy muloqotda ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tabassum bilan rag‘batlantirish zarurati katta.

Xulosa. O‘tkazilgan nazariy tadqiqot natijasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini noverbal muloqotni amalga oshirishga tayyorlashning nazariy asoslari tahlil qilindi. O‘qituvchining kasbiy kompetentligi tuzilmasida nazariy tayyorgarlik muhim o‘rin egallaydi va u pedagogik fikrlashning umumlashtirilgan ko‘nikmasida namoyon bo‘ladi.

Noverbal muloqotning pedagogik ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilar uchun o‘qituvchining mimikasi, imo-ishoralari, ovoz ohanglari va boshqa noverbal signallar ularning e’tiborini jalb qilish, rag‘batlantirish va tarbiyalashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Kelajakda bo‘lajak o‘qituvchilarning noverbal muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus darslar, treninglar va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish, ularning pedagogik amaliyot davomida bu ko‘nikmalarni mustahkamlashlari uchun sharoit yaratish zarur. Shuningdek, pedagogik oliy ta’lim muassasalarida noverbal muloqot fanini o‘quv rejasiga kiritish, bo‘lajak o‘qituvchilarni bu sohada chuqur bilim va ko‘nikmalarga ega qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Abdullayev A.A. Pedagogik mahorat. - T.: O‘qituvchi, 2018. - 245 b.
2. Abdullayeva M. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi. - T.: Fan va texnologiya, 2019. - 198 b.
3.Alimova N. Pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirish. - T.: Fan, 2020. - 256 b.
4.Berdiyev R. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. - T.: Yangi asr avlodi, 2021. - 324 b.
3. G‘aniyev Y. O‘qituvchining kasbiy rivojlanishi. - T.: Fan va texnologiya, 2018. - 267 b.
4. Hoshimov A. Pedagogik hodisalarni tahlil qilish. - T.: Fan, 2020. - 198 b.
10. Ismoilov B. Analitik ko‘nikmalarni rivojlantirish. - T.: O‘qituvchi, 2017. - 245 b.
11. Jalilov M. Pedagogik dalillarni tahlil qilish. - T.: Yangi asr avlodi, 2018.-212 b.
12. Jumayev X. Refleksiv faoliyat va o‘qituvchi. - T.: Fan va texnologiya, 2019. - 278 b.
13. Karimov A. Pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish. - T.: O‘qituvchi, 2020. - 256 b.
14. Kasimov D. Bashorat qilish va pedagogik faoliyat. - T.: Fan, 2017. - 234 b.
15. Mahmudov N. Antitsipatsiya va ta’lim jarayoni. - T.: Yangi asr avlodi, 2019. - 189 b.

DUAL TA’LIM SHAROITIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHNING SHAKL, METOD VA VOSITALARI

Umurov Zarif Latifboyevich,
Buxoro davlat pedagogika instituti professori,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
umurovzarif@buxdpi.uz

Mazkur maqolada dual ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etishning didaktik asoslari yoritilgan. Unda ta’lim jarayonining shakl, metod va vositalari kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, nazariya va amaliyot integratsiyasini ta’minlovchi mexanizm sifatida asoslab beriladi. Shuningdek, “4+2” modeli doirasida integratsiyalashgan ta’lim shakllari, shaxsga yo‘naltirilgan metodlar, klinik amaliyot, dars tahlili hamda amaliyotga rahbarlik tizimining bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy rivojlanishidagi o‘rni ochib berilgan. Tadqiqot natijasida dual ta’lim jarayonida kasbiy vaziyatga yo‘naltirilgan metodlardan foydalanish talabalarning pedagogik kompetensiyalarini samarali shakllantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *dual ta’lim, kasbiy kompetentlilik, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, kompetensiyaviy yondashuv, nazariya va amaliyot integratsiyasi, ta’lim shakllari, pedagogik metodlar, klinik amaliyot, dars tahlili, amaliyotga rahbarlik, refleksiya, 4+2 modeli.*

ДУАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ: ФОРМЫ, МЕТОДЫ И СРЕДСТВА

В данной статье раскрываются дидактические основы эффективной организации процесса развития профессиональной компетентности будущего учителя начальных классов в условиях дуального образования. Формы, методы и средства обучения анализируются с позиции компетентностного подхода и обосновываются как механизм, обеспечивающий интеграцию теории и практики.

В рамках модели «4+2» рассматриваются интегрированные формы обучения, личностно-ориентированные методы, клиническая практика, анализ урока, а также система руководства практикой и их роль в профессиональном становлении будущего педагога.

В результате исследования научно обосновано, что использование методов, ориентированных на профессиональные педагогические ситуации, в процессе дуального образования способствует эффективному формированию педагогических компетенций студентов.

Ключевые слова: *дуальное образование, профессиональная компетентность, учитель начальных классов, компетентностный подход, интеграция теории и практики, формы обучения, педагогические методы, клиническая практика, анализ урока, руководство практикой, рефлексия, модель «4+2».*

FORMS, METHODS AND TOOLS FOR DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS IN THE CONTEXT OF DUAL EDUCATION

This article highlights the didactic foundations for effectively organizing the process of developing the professional competence of future primary school teachers in the context of dual education. The forms, methods, and tools of the educational process are analyzed from the perspective of the competency-based approach and substantiated as a mechanism ensuring the integration of theory and practice. Furthermore, the role of integrated learning forms within the “4+2” model, student-centered methods, clinical practice, lesson analysis, and the practice supervision system in the professional development of future teachers is revealed. The research findings scientifically justify that the use of professionally oriented, situation-based methods in the dual education process contributes to the effective formation of students’ pedagogical competencies.

Keywords: *dual education, professional competence, primary school teacher, competency-based approach, integration of theory and practice, forms of education, pedagogical methods, clinical practice, lesson analysis, practice supervision, reflection, 4+2 model.*

Kirish. Hozirgi davrda pedagogik ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, dual ta’lim modeli nazariya va amaliyot integratsiyasiga asoslangan holda talabaning real pedagogik faoliyatga tayyorlanishini ta’minlash imkonini beradi. Shu bois pedagogika oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini zamonaviy didaktik yondashuvlar asosida tashkil etish, integratsiyalashgan ta’lim shakllari va kompetensiyaga yo‘naltirilgan metodlarni qo‘llash bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Dual ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etish, avvalo, ta’lim jarayonining didaktik tizim sifatida to‘g‘ri loyihalanganligiga bog‘liqdir. An’anaviy ta’lim tizimida shakl, metod va vositalar ko‘pincha o‘quv materialini yetkazishning tashkiliy va texnologik elementlari sifatida talqin qilinsa, dual ta’lim sharoitida ushbu komponentlar kompetentlikni shakllantiruvchi didaktik mexanizmlar sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki dual ta’lim modeli nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlaydigan integratsiyalashgan ta’lim muhitiga tayangan holda bo‘lajak mutaxassisni real kasbiy faoliyatga tayyorlashni ko‘zda tutadi. Demak, shakl, metod va vositalar ta’lim jarayonida faqat “o‘qitish usuli” emas, balki bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentliligini izchil rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik tizim komponentlari sifatida asoslanishi lozim.

Dual ta’lim sharoitida shakl–metod–vositalarning didaktik tizimdagi o‘rni quyidagi ilmiy mantiq bilan izohlanadi. Birinchidan, dual ta’limning markaziy g‘oyasi bo‘lgan nazariya–amaliyot integratsiyasini ta’minlash faqat mazmunni aniqlash bilan emas, balki aynan ta’lim shakllari orqali amaliyot bilan uyg‘unlashtirish bilan bog‘liq. Ikkinchidan, kasbiy kompetentlilik “faqat bilim” bilan emas, balki real vaziyatlarda pedagogik faoliyatni tashkil etish qobiliyati bilan belgilanadi. Bu esa ta’lim jarayonida faol metodlar (muammoli ta’lim, keys-stadiy, loyiha metodi, hamkorlikda o‘qitish, refleksiv tahlil)ni qo‘llashni talab qiladi. Uchinchidan, zamonaviy pedagogik ta’limda raqamlashtirish, individuallashtirish va monitoring jarayonlari kengaygani sari didaktik vositalar ham an’anaviy materiallardan tashqari elektron resurslar, platformalar, portfel, kuzatuv varaqalari, refleksiv kundalik va baholash rubrikalari orqali boyitilib boradi.

Bu holatning ilmiy asoslaridan biri shundan iboratki, dual ta’lim sharoitida ta’lim natijalari kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan holda belgilanadi. Ya’ni ta’lim jarayonining natijasi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida pedagogik vazifalarni bajarish, o‘quvchilar bilan muloqot qilish, darsni loyihalash, sinfni boshqarish, tarbiyaviy faoliyat yuritish, tashxis va baholashni amalga oshirish hamda refleksiya qilish kabi kasbiy kompetensiyalar shakllanishi bilan o‘lchanadi. Bunday natijaga erishish esa o‘quv jarayonining shakl–metod–vositalarini zamonaviy didaktik talablarga mos holda tanlash va uyg‘unlashtirishni taqozo etadi.

Pedagogika oliy ta’lim tashkilotlari boshlang‘ich yo‘nalishi talabalarining haftalik o‘quv mashg‘ulotlarini “4+2” tartibida tashkil etish vazifasi belgilanganligi ham didaktik tizimda shakl–metod–vositalar rolini yanada oshiradi. “4+2” mexanizmi OTMdagi nazariy mashg‘ulotlar (4 kun) va maktab amaliyoti (2 kun) o‘rtasida izchil aloqadorlikni ta’minlashni talab qiladi. Bu esa ta’lim shakllarini integratsiyalashgan darslar, amaliy seminar-treninglar, mikro-darslar, amaliyotga rahbarlik asosidagi kuzatuv va tahlil mashg‘ulotlari kabi ko‘rinishlarda tashkil etishni, metodlarni esa amaliy vaziyatga yo‘naltirishni taqozo etadi [1].

Shuningdek, dual ta’limni tashkil etish bo‘yicha me’yoriy-huquqiy hujjatlarda ham amaliyotni samarali tashkil etish, monitoringni yo‘lga qo‘yish, ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni takomillashtirish kabi vazifalar belgilangan bo‘lib, bu jarayonning didaktik ta’minoti aynan shakl–metod–vositalar tizimi orqali amalga oshiriladi.

Dual ta’lim sharoitida shakl–metod–vositalarning didaktik tizimdagi o‘rnini belgilovchi muhim jihatlardan yana biri – “OTM–maktab–amaliyot rahbari” hamkorligi asosida ta’lim jarayonini simmetrik tashkil etish ehtiyojidir. Bo‘lajak o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida nazariy tayyorgarlikni oladi, amaliyotda kasbiy vazifalarni bajaradi va amaliyotga rahbarlik asosida metodik yo‘naltirish hamda refleksiya jarayonida ishtirok etadi. Ushbu uchlik tizimda shakl–metod–vositalar o‘zaro uyg‘unlashgan holda qo‘llanilgandagina kompetentlikni kompleks rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi. Xorijiy tajribada ham dual ta’limning samarali ishlashi, avvalo, o‘quv jarayonining integratsiyalashgan tashkil etilishi va hamkorlik subyektlarining muvofiqlashtirilgan faoliyati bilan izohlanadi [6].

Dual ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirish jarayonida shakl, metod va vositalar didaktik tizimning asosiy amaliy mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Ular nazariya–amaliyot integratsiyasini ta’minlaydi, “4+2” mexanizmi doirasida kasbiy vaziyatga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etadi, amaliyotga rahbarlik asosida refleksiya va monitoring

jarayonlarini kuchaytiradi hamda kompetensiyaga yo‘naltirilgan natijaviy ta’limni kafolatlash imkonini beradi.

Dual ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishda ta’lim jarayonining tashkiliy shakllarini (ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, seminar, trening, amaliyot, amaliyotga rahbarlik faoliyati va boshqalar) integratsiyalashgan tarzda loyihalash alohida ahamiyat kasb etadi. Dual ta’lim modeli “nazariya–amaliyot” uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, unda ta’lim shakllari bo‘lajak o‘qituvchining real pedagogik faoliyatga tayyorlanishini kafolatlovchi didaktik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli dual ta’lim sharoitida ta’lim shakllari an’anaviy “auditoriya” bilan chegaralanib qolmasdan, bevosita maktab amaliyoti, amaliyotga rahbarlik (mentor) rahbarligi va kasbiy vaziyatlarga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirilgan holda tashkil etilishi zarur.

Dual ta’lim sharoitida shakllarning integratsiyalashuvi, avvalo, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida kompetensiyaviy yondashuv asosida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish talabidan kelib chiqadi. Bunda o‘quv jarayoni mazmuni shakl orqali amaliy faoliyatga “ko‘chiriladi” va natija sifatida talabaning pedagogik kompetentliligi rivojlanadi. Demak, integratsiyalashgan shakllarning asosiy vazifasi – talabaning nazariy tayyorgarligi bilan amaliy tajribasi o‘rtasida uzluksiz bog‘liqlik yaratish, “o‘qilgan bilim”ni “qo‘llaniladigan kompetensiya”ga aylantirishdan iborat.

Tahlil va olingan natijalar. Mamlakatimizda pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarida dual ta’lim shaklidan keng foydalanish hamda 3–4-bosqich talabalarining haftalik o‘quv mashg‘ulotlarini “4+2” tartibida tashkil etish vazifasi belgilanganligi integratsiyalashgan shakllarni ilmiy asoslash va amaliyotga joriy etish zaruratini yanada kuchaytiradi. “4+2” mexanizmi dual ta’lim sharoitida o‘quv jarayonini ikki asosiy ta’lim muhitida tashkil etishni nazarda tutadi: oliy ta’lim muassasasida nazariy va metodik tayyorgarlik (4 kun) hamda maktab yoki amaliyot bazasida pedagogik faoliyatni amalga oshirish (2 kun). Mazkur tizimda ta’lim shakllari quyidagi asosiy didaktik talablar asosida integratsiyalashadi: ketma-ketlik (nazariya → amaliyot → tahlil); uzluksizlik (haftalik sikl asosida takroriy mustahkamlash); natijaga yo‘naltirish (kompetensiyalarni real vazifalar orqali shakllantirish); amaliyotga rahbarlik asosida boshqaruv (amaliyot jarayonini yo‘naltirish va refleksiya). Ushbu model ta’lim jarayonini faqat auditoriya mashg‘uloti sifatida emas, balki real kasbiy faoliyat bilan uyg‘unlashgan kompleks didaktik jarayon sifatida loyihalashni talab qiladi.

Dual ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishda quyidagi integratsiyalashgan shakllar didaktik jihatdan samarali hisoblanadi.

Integratsiyalashgan ma’ruza–amaliy mashg‘ulot shakli. Ushbu shakl an’anaviy ma’ruzadan farqli ravishda nazariy axborotni berish bilan cheklanmaydi, balki darhol amaliy vaziyatlar bilan bog‘langan holda tashkil etiladi. Masalan, boshlang‘ich sinfda darsni rejalashtirish, interfaol metodlarni qo‘llash, baholash mezonlarini tanlash kabi masalalar bo‘yicha nazariy tushunchalar real dars jarayoniga tatbiq etiladigan ko‘rinishda yoritiladi. Natijada talabaning kognitiv tayyorgarligi faoliyat-amaliy kompetensiya bilan uyg‘unlashadi va bilimlarning “transfer” imkoniyati oshadi.

Seminar-trening mashg‘ulotlari. Seminar-treninglar bo‘lajak o‘qituvchining metodik va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratiladi. Bunda talabalarda darsni modellashtirish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, guruhda ishlash, metodik qarorlarni muhokama qilish, refleksiya yuritish ko‘nikmalari shakllanadi. Seminar-trening shaklining afzalligi shundaki, u bo‘lajak o‘qituvchini real sinf muhitida uchraydigan muammolarga oldindan tayyorlaydi va kasbiy fikrlashni faollashtiradi.

Mikro-dars shakli. Mikro-dars shakli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida pedagogik mahoratning “kichik modellar” asosida shakllanishiga xizmat qiladi. Mazkur shaklda talaba qisqa vaqt ichida (5–15 daqiqa) ma’lum bir didaktik vazifani bajaradi: masalan, mavzuni tushuntiradi, savol-javob tashkil etadi, mustahkamlash mashqlarini o‘tkazadi, baholashni amalga oshiradi. Mikro-darsdan so‘ng amaliyot rahbari va guruh tomonidan tahlil qilinishi refleksiv kompetensiyani kuchaytiradi hamda kasbiy xatolarni bartaraf etishga yordam beradi.

Maktab amaliyoti (integratsiyalashgan pedagogik amaliyot). Dual ta’lim sharoitida maktab amaliyoti bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentliligini real pedagogik faoliyat jarayonida shakllantiruvchi yetakchi shakl sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yerda talaba dars kuzatadi, dars ishlanma tayyorlaydi, dars o‘tadi, sinfni boshqaradi, baholaydi, tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etadi. Mazkur jarayon O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida amaliyotni tashkil etishga doir me’yoriy hujjatlar bilan ham mos keladi, unda amaliyotning izchil tashkil etilishi, monitoring va natijalarni hujjatlashtirish talablari belgilangan [3].

Amaliyotga rahbarlik (mentorlik) asosidagi amaliy mashg‘ulotlar. Amaliyotga rahbarlik asosidagi shakl bo‘lajak o‘qituvchining amaliy faoliyatini metodik yo‘naltirish, kuzatish va tahlil qilish bilan bog‘liq. Amaliyot rahbari talabaning dars jarayonini nazorat qiladi, tavsiyalar beradi, darsdan so‘ng refleksiv tahlil tashkil etadi, baholash mezonlarini qo‘llaydi. Dual ta’limda amaliyotga rahbarlik shakli “simmetrik

hamkorlik” mexanizmini yaratib, OTM va maktab o‘rtasida uzviy didaktik aloqadorlikni ta’minlaydi. Xorijiy tajribada ham dual ta’limning samarali ishlashi ko‘p jihatdan mentorlik (amaliy rahbarlik) tizimining kuchliligiga bog‘liqligi qayd etiladi [7].

Refleksiv-tahliliy mashg‘ulotlar. Dual ta’lim sharoitida refleksiv-tahliliy mashg‘ulotlar bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy o‘sishi uchun zarur bo‘lgan refleksiv kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda talabaning dars faoliyati tahlil qilinadi, metodik yondashuvlar baholanadi, kuchli va zaif jihatlar aniqlanadi hamda takomillashtirish rejalari belgilanadi. Xorijiy adabiyotlarda ham nazariya va amaliyot integratsiyasini ta’minlashda refleksiya va tahlil mexanizmlarining o‘rni muhim ekanligi ta’kidlanadi [6].

Integratsiyalashgan shakllarning qo‘llanilishi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini quyidagi yo‘nalishlarda rivojlantiradi:

- motivatsion-qadriyatli komponent: kasbiy faoliyatga ijobiy munosabat va mas’uliyat kuchayadi;
- kognitiv komponent: nazariy bilimlarning mazmuniy anglanishi va tushunchalarning funksionalligi oshadi;
- faoliyat-amaliy komponent: metodik ko‘nikmalar real dars jarayonida shakllanadi;
- kommunikativ komponent: o‘quvchi, ota-ona va jamoa bilan muloqot tajribasi ortadi;
- refleksiv komponent: dars tahlili va o‘zini baholash orqali kasbiy o‘sish ta’minlanadi.

Munozara. Dual ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirish jarayoni ta’limning mazmuniy asoslari bilan bir qatorda, uni amalga oshiruvchi metodlar tizimining zamonaviy talablar asosida tanlanishi va qo‘llanishiga bevosita bog‘liqdir. Kasbiy kompetentlilik o‘z mohiyatiga ko‘ra faqat nazariy bilimlarning to‘plami emas, balki bo‘lajak o‘qituvchining real pedagogik vaziyatlarda amaliy faoliyatni mustaqil bajarish, metodik qarorlar qabul qilish, sinfni boshqarish, o‘quvchi shaxsini rivojlantirish hamda ta’lim jarayonini samarali tashkil etish qobiliyatlarini mujassamlashtiruvchi integrativ pedagogik hodisadir. Shuning uchun dual ta’lim sharoitida metodlar tizimi bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini “bilim berish”dan “kompetensiya shakllantirish”ga o‘tkazuvchi asosiy didaktik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan dual ta’lim sharoitida metodlarni tanlashning asosiy mezoni – ta’lim jarayonining natijaviyligi va amaliy yo‘nalganligi hisoblanadi. Metodlar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining pedagogik faoliyatga tayyorgarligini real kasbiy vazifalarni bajarish orqali ta’minlashi, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviy integratsiyani kuchaytirishi hamda talabaning shaxsiy-kasbiy rivojlanishini (motivatsiya, muloqot, refleksiya) qo‘llab-quvvatlashi lozim. Bu holat, ayniqsa, “4+2” mexanizmi asosida tashkil etiladigan dual ta’lim jarayonida alohida dolzarblik kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan, dual ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishda quyidagi shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy metodlar tizimi didaktik jihatdan samarali hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval.

№	Metod nomi	Metodning didaktik mazmuni	Amaliy qo‘llanishi (dual ta’lim sharoitida)	Rivojlantiriladigan kompetensiyalar
1	Muammoli ta’lim metodi	Talabani muammoli vaziyat asosida fikrlashga, sabab-oqibat aloqalarini aniqlashga va mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltiradi	Maktab amaliyotida uchraydigan pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish (sinfni boshqarish, o‘quvchini faollashtirish, baholash muammolari)	Analitik tafakkur, pedagogik muammo yechish, refleksiv kompetensiya
2	Hamkorlikda o‘qitish metodi	Talabalar va pedagoglar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik orqali bilim va tajriba almashish jarayonini tashkil etadi	Guruhiy loyiha, seminar-trening, metodik muhokamalar; OTM–maktab–amaliyot rahbari hamkorligida darsni rejalashtirish va tahlil qilish	Kommunikativ kompetensiya, jamoada ishlash ko‘nikmasi, professional hamkorlik
3	Keys-stadiy metodi	Real yoki modellashtirilgan pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish orqali kasbiy qaror qabul qilishni o‘rgatadi	Intizom muammosi, sust o‘zlashtiruvchi o‘quvchi bilan ishlash, ota-ona bilan muloqot, inkluziv ta’lim vaziyatlari asosida keyslar ishlab chiqish	Qaror qabul qilish, metodik fikrlash, amaliy pedagogik kompetensiya
4	Loyihaviy ta’lim metodi	Pedagogik muammoni hal etishga qaratilgan loyiha yaratish, rejalashtirish va amalga oshirish jarayonini	Boshlang‘ich sinfda o‘qish savodxonligini oshirish loyihasi, kompetensiyaviy topshiriqlar banki, tarbiyaviy ishlar dasturi	Innovatsion fikrlash, ijodkorlik, faoliyat-amaliy kompetensiya

		tashkil etadi		
5	Refleksiv tahlil metodi	Talabaning o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish jarayonini tashkil etadi	Refleksiv kundalik yuritish, darsdan keyingi tahlil, portfel va amaliyot rahbari tavsiyalari asosida monitoring	Refleksiv kompetensiya, o‘zini baholash va kasbiy rivojlanish
6	Dars tahlili metodi	Darsni rejalashtirish, kuzatish, tahlil qilish va takomillashtirish jarayonini tizimli tashkil etadi	OTM–maktab–amaliyot rahbari hamkorligida darsni kuzatish, metodik tahlil qilish va takomillashtirish	Metodik kompetensiya, pedagogik mahorat
7	Individual va differensial metodlar	Talabalarning individual imkoniyatlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda ta’limni tashkil etadi	Individual ta’lim trayektoriyasi, differensial topshiriqlar, amaliyot rahbari tomonidan individual metodik yordam	Shaxsiy rivojlanish, moslashuvchanlik, individual kasbiy kompetentlik

Yuqoridagi metodlar tizimi dual ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishning samaradorligini quyidagi asoslarda ta’minlaydi: nazariya–amaliyot integratsiyasini kuchaytiradi; kasbiy vaziyatga yo‘naltirilgan o‘qitishni tashkil etadi; kompetensiyalarning kompleks rivojlanishini kafolatlaydi; OTM–maktab–amaliyot rahbari hamkorligini metodik jihatdan mustahkamlaydi; refleksiya va monitoring mexanizmlarini faollashtiradi; ta’lim natijalarini mezonli baholashga zamin yaratadi.

Dual ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirish jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan ta’lim metodlarining real pedagogik vaziyatlarga yo‘naltirilganligi bilan belgilanadi. Chunki boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining kasbiy faoliyati dars jarayonini tashkil etish, sinfni boshqarish, o‘quvchi shaxsini rivojlantirish, ta’lim natijalarini baholash, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish kabi amaliy vazifalar tizimi orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababli dual ta’limda metodlar talabaning nazariy tayyorgarligini amaliy faoliyat bilan bevosita bog‘lash, real sinf muhitida kasbiy tajriba to‘plash va amaliyotga rahbarlik asosida tahlil qilish orqali kompetentlikni barqaror shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Kasbiy vaziyatga yo‘naltirilgan metodlar dual ta’limning asosiy g‘oyasi bo‘lgan “nazariya–amaliyot integratsiyasi”ni amaliy jihatdan ta’minlovchi mexanizmlar sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda ta’lim jarayoni ikki muhitda – OTMdagi nazariy-metodik tayyorgarlik va maktabdagi real pedagogik amaliyotda amalga oshiriladi hamda “4+2” mexanizmi asosida izchil uyg‘unlashtiriladi.

Kasbiy vaziyatga yo‘naltirilgan metodlar tizimi bo‘lajak o‘qituvchining kompetentliligini rivojlantirishda quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha natijadorlikni ta’minlaydi: birinchidan, talabaning dars jarayonida metodik qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi; ikkinchidan, sinf bilan ishlash, pedagogik muloqot va tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish ko‘nikmalarini real sharoitda rivojlantiradi; uchinchidan, o‘z faoliyatini refleksiv tahlil qilish orqali kasbiy o‘sishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, dual ta’lim sharoitida kasbiy vaziyatga yo‘naltirilgan metodlarning eng muhimlari sifatida dars tahlili, klinik amaliyot va amaliyotga rahbarlik asosidagi tahlil mexanizmlarini ko‘rsatish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, dual ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirish samaradorligi ta’lim jarayonining didaktik tizim sifatida to‘g‘ri loyihalanishiga bevosita bog‘liq. Mazkur jarayonda shakl–metod–vositalar oddiy tashkiliy-texnologik elementlar emas, balki kompetensiyalarni real kasbiy vazifalar orqali izchil shakllantiruvchi didaktik mexanizmlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, “4+2” mexanizmi doirasida OTMdagi nazariy-metodik tayyorgarlik bilan maktab amaliyoti o‘rtasida ketma-ketlik va uzluksizlikni ta’minlash, integratsiyalashgan mashg‘ulotlar (ma’ruza–amaliyot, seminar-trening, mikro-dars), kasbiy vaziyatga yo‘naltirilgan metodlar (muammoli ta’lim, keys-stadiy, loyiha metodi, dars tahlili, klinik amaliyot) hamda refleksiv tahlil vositalarini (portfel, kuzatuv varaqalari, refleksiv kundalik, baholash rubrikalari) uyg‘un qo‘llash zarur.

Shuningdek, dual ta’limning natijadorligi “OTM–maktab–amaliyot rahbari (mentor)” hamkorligining simmetrik va muvofiqlashtirilgan tarzda yo‘lga qo‘yilishiga bog‘liq bo‘lib, aynan ushbu uchlik tizimda dars kuzatuvi, metodik yo‘naltirish, monitoring va refleksiya mexanizmlari kuchaytirilgandagina talabaning motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyat-amaliy, kommunikativ va refleksiv kompetensiyalari kompleks rivojlanadi. Dual ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirish uchun integratsiyalashgan ta’lim shakllari va kompetensiyaviy metodlar tizimi ilmiy asoslangan holda tanlanib, didaktik vositalar bilan ta’minlangan va mezonli baholash orqali monitoring qilinadigan yaxlit pedagogik mexanizm sifatida tashkil etilishi lozim.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-son Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-7499721

2. Adizov B. R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. –T.: Fan, 2007. – 218 b.

3. Barakayev M. Malakaviy amaliyot: uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: «Turon-Iqbol», 2015. – 152 b.

4. Даниленко, Л.И. Педагогические инновации и инновационные педагогические технологии: сущность и структура / Л.И. Даниленко // Новые технологии обучения: научно-методический сборник. – М.: Академия, 2006. Выпуск 40. – С. 67-78.

5. G‘oziyev E., Ikromov J. Mustaqil fikrlashning komillikka ta’siri //J. Xalq ta’limi. 2001. 4-son. –B. 31–37.

6. Krone S., Mill U. Dual studieren im Blick: Das ausbildungsintegrierende Studium aus der Perspektive der Studierenden // IAQ-Report. – Duisburg-Essen universiteti, 2012. – №03. – 17 b.

7. Maschke K. Das duale Studium als Exportmodell. – Bonn: DAAD (Deutscher Akademischer Austauschdienst), 2015. – 14 b.

8. Muslimov N.A. va b. Kasb ta`limi o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. –T.: “Fan va texnologiya”, 2013, 128 bet.

9. Roziqov O., Og‘ayev O., Mahmudov M., Adizov B. Ta’lim texnologiyasi -T.: O‘qituvchi, 1999, – 71 b.

10. Хуторской, А.В. Методологические основания применения компетентностного подхода к проектированию образования / А.В. Хуторской // Высшее образование в России. – 2017. – № 12. – С. 85-91.

11. Зимняя, И.А. Компетенция и компетентность в контексте компетентностного подхода в образовании / И.А. Зимняя // Учёные записки национального общества прикладной лингвистики. – 2013. – № 4. – С. 16-31.

O‘QUVCHILARDA ALGORITMLASH VA DASTURLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING STEAM TEXNOLOGIYASI VOSITASIDA TAKOMILLASHTIRILISHI: BAHOLASH MEZONLARI VA DIAGNOSTIKA MEXANIZMLAR

Xayitova Dilovar Ismat qizi,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
d.i.xayitova@buxdu.uz

Maqolada o‘quvchilarda algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini STEAM texnologiyasi asosida rivojlantirishning samarali pedagogik modeli ishlab chiqilgan. Ilmiy yangilik sifatida algoritmik tafakkur, muammoni modellashtirish va kodlash ko‘nikmalarini integratsiyalashgan baholash mezonlari tizimi taklif etilgan. Tadqiqotda kompetensiyalarni aniqlash uchun diagnostikaning ko‘p bosqichli mexanizmi ishlab chiqilib, u kognitiv, amaliy va kreativ ko‘rsatkichlarni qamrab oladi. Shuningdek, baholash jarayoniga loyiha faoliyati, real muammoli vaziyatlar va reflektiv tahlil elementlari kiritilgan. Amaliy tajriba natijalari STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning algoritmik fikrlash darajasini sezilarli oshirishini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari umumta’lim maktablarida informatika fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *algoritmlash, dasturlash, STEAM, kompetensiya, baholash mezoni, diagnostika, monitoring, indikator.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ В ОБЛАСТИ АЛГОРИТМИЗАЦИИ И ПРОГРАММИРОВАНИЯ У УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ STEAM-ТЕХНОЛОГИИ: КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ И МЕХАНИЗМЫ ДИАГНОСТИКИ

В статье разработана эффективная педагогическая модель развития у учащихся компетенций в области алгоритмизации и программирования на основе STEAM-технологии. В качестве научной новизны предложена система критериев для комплексной оценки навыков алгоритмического мышления, моделирования задач и кодирования. В рамках исследования был разработан многоэтапный механизм диагностики для определения уровня сформированности компетенций, охватывающий когнитивные, практические и творческие показатели. Кроме того, в процесс оценивания включены элементы проектной деятельности, реальные проблемные ситуации и рефлексивный анализ. Результаты практического эксперимента показали, что образовательный процесс, организованный на основе STEAM-подхода, способствует значительному повышению уровня алгоритмического мышления учащихся. Результаты исследования призваны усовершенствовать методику преподавания информатики в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: *алгоритмизация, программирование, STEAM, компетенция, критерий оценки, диагностика, мониторинг, индикатор.*

ENHANCING THE DEVELOPMENT OF ALGORITHMIC AND PROGRAMMING COMPETENCIES IN STUDENTS THROUGH STEAM TECHNOLOGY: ASSESSMENT CRITERIA AND DIAGNOSTIC MECHANISMS

This article presents an effective pedagogical model for developing students' algorithm and programming competencies based on STEAM technology. As a scientific novelty, a system of criteria is proposed for the integrated assessment of algorithmic thinking, problem modeling, and coding skills. The study developed a multi-stage diagnostic mechanism to identify competencies, encompassing cognitive, practical, and creative indicators. The assessment process also incorporates elements of project-based activities, real-world problem scenarios, and reflective analysis. The results of the practical experiment showed that the educational process organized on the STEAM approach significantly enhances the level of students' algorithmic thinking. The findings of this research serve to improve the methodology for teaching informatics in general education schools.

Keywords: *algorithmization, programming, STEAM, competency, evaluation criteria, diagnostics, monitoring, indicator.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari uzluksiz ta’lim tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida modernizatsiya qilishga qaratilgan bo‘lib, umumiy o‘rta

ta’lim mazmunini yangilash va uning sifatini xalqaro talablarga moslashtirishni nazarda tutadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini chuqur egallagan, algoritmik tafakkurga ega va muammolarni tizimli hal eta oladigan yosh avlodni shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu nuqtayi nazardan, algoritmlash va dasturlash ko‘nikmalari nafaqat informatika fanining tarkibiy qismi, balki STEAM yo‘nalishlari doirasida fanlararo integratsiyani ta’minlovchi tayanch kompetensiya sifatida namoyon bo‘lmoqda. STEAM texnologiyasining ta’lim jarayoniga joriy etilishi o‘quvchilarning amaliy faoliyatini kuchaytirish, muhandislik fikrlashini rivojlantirish va real hayotiy muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan loyihaviy yondashuvni kengaytirish imkonini bermoqda.

Biroq mazkur jarayonda algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligini aniqlash uchun ilmiy asoslangan baholash mezonlari hamda diagnostika mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb metodik muammo bo‘lib qolmoqda. Amaldagi baholash tizimi ko‘proq nazariy bilimlarni aniqlashga yo‘naltirilganligi sababli o‘quvchilarning amaliy, analitik va refleksiv faoliyati to‘liq baholanmayapdi. Kompetensiyaviy yondashuv esa bilim, ko‘nikma va malakalarning integratsiyalashgan holda real vaziyatlarda qo‘llanilishini aniqlashni talab qiladi.

Shu bois algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini STEAM muhitida baholash mezonlarini ishlab chiqish, ularning kognitiv, operatsion va refleksiv komponentlarini aniqlash hamda kompleks diagnostika tizimini yaratish zarurati yuzaga kelmoqda. Mazkur tadqiqot aynan O‘zbekiston ta’lim islohotlari kontekstida ushbu muammoning ilmiy-metodik yechimlarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy ta’lim tizimida algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi STEAM texnologiyasi bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etilmoqda. Xorijiy ilmiy manbalarda bu yo‘nalish ko‘proq integrativ yondashuv, loyiha asosida o‘qitish hamda ko‘p mezonli baholash tizimlari orqali asoslab berilgan. Jumladan, STEAM ta’limining rivojlanish tendensiyalarini bibliometrik tahlil qilgan tadqiqotlarda kompetensiyalarni baholashda jarayon va natijani birgalikda o‘lchash zarurligi ta’kidlanadi [1, 6-bet].

Mualliflar STEAM muhitida o‘quvchining faqat yakuniy mahsuloti emas, balki muammoni yechish jarayonidagi algoritmik tafakkuri, muhandislik yondashuvi va refleksiv faoliyati ham baholanishi lozimligini ko‘rsatadi. Bu esa algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini diagnostika qilishda rubrikalarga asoslangan kompleks modelni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Kompyuter tafakkuri (computational thinking)ni rivojlantirishga oid tadqiqotlarda algoritmik fikrlashni shakllantirishning samarali vositasi sifatida robototexnika va vizual dasturlash muhitlari tavsiya etilgan [2, 4-bet]. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ketma-ketlik, tarmoqlanish va takrorlanish kabi algoritmik strukturalarni amaliy vazifalar orqali o‘zlashtirgan o‘quvchilarda diagnostik test natijalari sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Shu bois algoritmlash kompetensiyalarini baholashda pre-test va post-test metodikasi bilan bir qatorda jarayonli kuzatuv (formativ baholash) mexanizmlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Algoritmlash va dasturlashni o‘qitish bo‘yicha keng qamrovli tahliliy tadqiqotlarda kompetensiyalarni modulli tuzilma asosida baholash samarali ekani qayd etiladi [3, 9-bet]. Ushbu yondashuvda dekompozitsiya, abstraksiya, algoritm tuzish va debugging kabi komponentlar alohida indikatorlar orqali o‘lchanadi. Bu esa STEAM loyihalari doirasida algoritmik kompetensiyani aniq mezonlar asosida baholash imkonini beradi. Loyiha asosidagi baholash modeli (rubrics-based assessment) esa o‘quvchining texnik yechimi, kod sifati, ijodkorligi va taqdimot ko‘nikmalarini integrativ tarzda o‘lchashga xizmat qiladi [4, 12-bet].

Shuningdek, ko‘p usulli (multi-method) diagnostika yondashuvi algoritmlash kompetensiyalarini baholashda yuqori ishonchlilikni ta’minlashi ilmiy jihatdan asoslangan [5, 15-bet]. Unda test topshiriqlari, portfel, o‘zini baholash va ochiq javobli topshiriqlar kombinatsiyasi qo‘llaniladi. Mazkur yondashuv STEAM texnologiyasi vositasida amalga oshiriladigan loyihalarda, ayniqsa, samarali bo‘lib, o‘quvchining bilim, ko‘nikma va refleksiv qobiliyatlarini kompleks baholash imkonini beradi.

MDH mamlakatlari olimlari tomonidan ham STEAM kompetensiyalarini baholash metodikasi ishlab chiqilmoqda. Xususan, pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida STEAM kompetentligini aniqlash uchun maxsus diagnostik indikatorlar va mezonlar tizimi taklif etilgan [6, 8-bet]. Ushbu yondashuvda nazariy tayyorgarlik, amaliy loyiha faoliyati va metodik refleksiya alohida baholash obyektlari sifatida ko‘riladi. MDH tadqiqotlarida loyiha asosida o‘qitish (PBL) keng qo‘llanilib, baholash jarayonida laboratoriya ishlari va robototexnika modullari muhim vosita sifatida qaraladi [7, 5-bet].

Shu bilan birga, mintaqaviy konferensiya materiallarida algoritmlashni o‘qitishda raqamli vositalar va STEAM integratsiyasining afzalliklari yoritilib, baholashda rubrika va reyting tizimidan foydalanish tavsiya etilgan [8, 3-bet]. MDH makonidagi ayrim tadqiqotlarda kompetensiyalarni aniqlashda sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlarni birlashtirish zarurligi qayd etiladi [9, 11-bet]. Bu esa o‘quvchilarning algoritmik tafakkurini

baholashda nafaqat test ballari, balki kodning strukturaviy sifati, optimalligi va ijodiy yondashuvini ham hisobga olish lozimligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston olimlarining ilmiy izlanishlarida ham kompetensiyaviy yondashuv ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Mahalliy tadqiqotlarda STEAM ta’limini maktab amaliyotiga joriy etish orqali o‘quvchilarning algoritmik tafakkurini rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilgan [11, 7-bet]. Unda baholash mezonlari sifatida kognitiv (nazariy bilim), operatsion (amaliy dasturlash), hamda kommunikativ-refleksiv komponentlar ajratib ko‘rsatilgan. Shuningdek, oliy ta’lim va malaka oshirish tizimida kompetensiyalarni diagnostika qilish uchun test, loyiha va portfel asosidagi baholash mexanizmlaridan foydalanish taklif etilgan [12, 10-bet].

Mahalliy metodik maqolalarda STEAM loyihalari doirasida algoritmlashni o‘qitishda baholashning uch bosqichli modeli – boshlang‘ich diagnostika, jarayonli monitoring va yakuniy baholash tizimi tavsiya etiladi [13, 4-bet]. Bunda o‘quvchining dastlabki bilim darajasi aniqlanadi, loyiha jarayonida oraliq natijalar monitoring qilinadi va yakunda kompleks kompetensiya profili shakllantiriladi. Ayrim tadqiqotlarda esa o‘qituvchilar uchun maxsus diagnostik kartalar va baholash rubrikalari ishlab chiqilgan bo‘lib, ularni empirik jihatdan takomillashtirish zarurligi qayd etiladi [14, 6-bet].

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini STEAM texnologiyasi vositasida rivojlantirish jarayonida baholash mezonlari ko‘p komponentli, jarayon va natijani qamrab oluvchi, miqdoriy hamda sifat indikatorlarini uyg‘unlashtirgan bo‘lishi lozim. Xorijiy tadqiqotlarda ko‘p usulli diagnostika modeli ustuvor bo‘lsa [5, 15-bet], MDH va mahalliy izlanishlarda loyiha va amaliy faoliyatga asoslangan baholash mexanizmlari yetakchi o‘rin egallaydi [6, 8-bet]. Shu bois PhD tadqiqot doirasida algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini baholashning integrativ modeli ishlab chiqilishi, unda kognitiv, amaliy va refleksiv komponentlar bo‘yicha aniq indikatorlar belgilanishi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi [15, 2-bet].

Hozirgi kunga qadar umumiy o‘rta ta’lim sharoitida algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini STEAM texnologiyasi asosida rivojlantirish jarayonida ularni baholash mezonlari va diagnostika mexanizmlarini kompleks, ko‘p komponentli va integrativ model asosida ishlab chiqish masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini STEAM texnologiyasi vositasida rivojlantirish hamda ularni baholash mezonlari va diagnostika mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, metodologik jihatdan kompetensiyaviy, tizimli, integrativ va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlarga asoslanadi. Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy yondashuv tashkil etadi, unga ko‘ra algoritmlash va dasturlash faqat nazariy bilimlar majmui sifatida emas, balki real muammolarni hal etish jarayonida namoyon bo‘ladigan integrativ amaliy kompetensiya sifatida qaraladi. Tizimli yondashuv esa mazkur kompetensiyani o‘zaro bog‘liq bo‘lgan kognitiv (bilim va tushunchalar), operatsion (amaliy ko‘nikma va malakalar) hamda refleksiv (tahlil va o‘zini baholash) komponentlar birligi sifatida o‘rganishni nazarda tutadi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv doirasida o‘quvchining loyiha asosida ishlashi, muammoli vaziyatlarni hal etishi, algoritm tuzishi va dasturiy mahsulot yaratish jarayonidagi faoliyati baholashning markaziy obyekti sifatida qaraladi. Integrativ (STEAM) yondashuv esa algoritmlashni fanlararo muhitda, ya’ni tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika bilan uzviy bog‘liq holda, real hayotiy muammolar asosida shakllantirishni ko‘zda tutadi. Tadqiqotning nazariy asosini algoritmik tafakkur konsepsiyasi, konstruktivizm nazariyasi, loyiha asosida o‘qitish (PBL) modeli hamda muhandislik fikrlash yondashuvi tashkil etadi (1-rasm). Mazkur nazariy asoslar algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini shakllantirish hamda ularni diagnostika qilishda ilmiy-metodik poydevor vazifasini bajaradi.

Diagnostika indikatorlari tizimi algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini kompleks baholashga qaratilgan bo‘lib, u miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari uyg‘unligiga asoslanadi. Har bir kompetensiya komponenti (kognitiv, amaliy va refleksiv) bo‘yicha natijalarni aniqlashda, avvalo, miqdoriy indikatorlar qo‘llaniladi. Jumladan, topshiriqni bajarish vaqti o‘quvchining algoritmik fikrlash tezligi va muammoni hal etish samaradorligini ko‘rsatadi; xatolar soni esa kod yozish jarayonidagi aniqlik, mantiqiy izchillik va debugging ko‘nikmasi darajasini ifodalaydi; test ballari orqali nazariy bilim va tushunchalarning o‘zlashtirilish darajasi aniqlanadi.

Shu bilan birga, sifat indikatorlari o‘quvchining chuqurroq kompetensiyalarini baholash imkonini beradi. Kod strukturasi orqali dastur mantiqiyligi, modulliligi va o‘qiluvchanligi tahlil qilinadi; algoritm samaradorligi masalani optimal yechish, ortiqcha amallarni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish darajasini aks ettiradi; kreativ yondashuv esa o‘quvchining nostandart fikrlashi, muhandislik yechimlari va innovatsion qarorlar qabul qilish qobiliyatini namoyon etadi. Mazkur indikatorlar tizimi algoritmlash va

dasturlash kompetensiyalarini STEAM texnologiyasi asosida rivojlantirish jarayonida obyektiv va ishonchli diagnostik natijalarni ta’minlaydi.

Monitoring va natijalarni qayta ishlash mexanizmi:

- Reyting jadvali
- Kompetensiya profili
- Dinamik o‘sish grafigi
- Statistik tahlil (t-test, dispersion tahlil)



1-rasm. Algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini STEAM asosida rivojlantirish modeli

1-2-rasmlarda algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini baholashning strukturaviy-mantiqiy modelini vizual tarzda ifodalaydi hamda tadqiqotning konseptual asosini tizimli ravishda yoritib beradi. Diagrammada kompetensiya yagona integrativ tizim sifatida markazda joylashtirilib, uning kognitiv, operatsion va refleksiv-kommunikativ komponentlari o‘zaro bog‘liq holda ko‘rsatilgan. Bu yondashuv kompetensiyani faqat nazariy bilim darajasida emas, balki amaliy faoliyat va shaxsiy refleksiya jarayonida namoyon bo‘ladigan ko‘p qirrali tuzilma sifatida talqin qilish imkonini beradi. Shuningdek, har bir komponentning past, o‘rta va yuqori darajalarga ajratilishi baholash mezonlarini differensiallashtirish va o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini aniqlashga xizmat qiladi. Diagramma metodologik jihatdan baholash jarayonining izchilligi, ko‘p bosqichliligi va diagnostik yo‘naltirilganligini asoslab beradi hamda STEAM texnologiyasi sharoitida algoritmik tafakkurni shakllantirish samaradorligini empirik jihatdan o‘lchash uchun nazariy-amaliy platforma vazifasini bajaradi.



2-rasm. Algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini baholash modeli.



3-rasm. Algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini diagnostika mexanizmi

3-rasmda diagnostika mexanizmi modeli algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini STEAM texnologiyasi asosida rivojlantirish jarayonini tizimli, uzluksiz va ilmiy asoslangan tarzda baholash imkonini beradi. Diagrammada kompetensiya rivojlanishi markaziy yadro sifatida tasvirlanib, u boshlang‘ich diagnostika, jarayonli monitoring, yakuniy baholash va statistik tahlil bosqichlari bilan o‘zaro bog‘langan holda ko‘rsatilgan. Bunday tuzilma baholashni faqat yakuniy natija bilan cheklab qo‘ymasdan, o‘quvchining rivojlanish dinamikasini bosqichma-bosqich kuzatish, formativ va summativ baholashni integratsiyalash hamda tahlil natijalariga asoslanib ta’lim jarayonini takomillashtirish imkonini yaratadi. Modelning siklik xarakteri (feedback mexanizmi) esa diagnostika natijalari asosida metodik tuzatishlar kiritish va kompetensiya darajasini izchil oshirishni ta’minlaydi. Shu jihatdan mazkur chizma tadqiqotning metodologik asosini vizual ravishda ifodalaydi hamda ishlab chiqilgan baholash mezonlari va diagnostika mexanizmlarining uzviyligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni ilk bor STEAM texnologiyasi asosida kompleks, ko‘p komponentli metodik model sifatida tizimlashtirildi. Ushbu modelda algoritmik tafakkur fanlararo integratsiya, muhandislik yondashuvi va ijodiy faoliyat bilan uyg‘un holda ko‘rib chiqildi hamda an’anaviy dasturlash o‘qitish metodikasidan farqli ravishda loyiha asosida o‘qitish bilan boyitildi. Tadqiqot doirasida algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarining kognitiv, amaliy (operatsion) va refleksiv-kommunikativ komponentlardan iborat tuzilmasi ilmiy jihatdan asoslab berildi hamda har bir komponent bo‘yicha aniq baholash mezonlari va indikatorlar tizimi ishlab chiqildi.

Bu yondashuv kompetensiyani faqat nazariy bilim bilan emas, balki amaliy kod yozish, optimallashtirish va o‘z faoliyatini tahlil qilish qobiliyati bilan birgalikda baholash imkonini beradi. Ilk bor STEAM muhitida algoritmlash kompetensiyalarini baholashning ko‘p bosqichli diagnostika mexanizmi (boshlang‘ich, jarayonli va yakuniy monitoring) taklif etildi. Mazkur mexanizmda miqdoriy (test natijalari, topshiriq bajarish vaqti, xatolar soni) va sifat ko‘rsatkichlari (kod strukturasi, samaradorlik, kreativ yondashuv, hamkorlik) integratsiyalashgan holda qo‘llanildi. Bu esa kompetensiyalarni yanada aniq va

ishonchli aniqlash imkonini yaratdi. Tadqiqotda algoritmlash va dasturlashni STEAM loyihalari asosida o‘qitish samaradorligi empirik jihatdan asoslab berildi hamda tajriba-sinov natijalari orqali metodikaning ustunligi statistik jihatdan isbotlandi ($p < 0,01$). O‘quvchilarning algoritmik tafakkuri, muhandislik fikrlashi va refleksiv ko‘nikmalarining sezilarli o‘sishi qayd etildi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida algoritmlash kompetensiyalarini baholash uchun rubrikalarga asoslangan kompetensiya matritsasi va diagnostik karta ishlab chiqildi. Ushbu vositalar o‘qituvchilar uchun amaliy metodik qo‘llanma vazifasini bajaradi hamda ta’lim jarayonida STEAM texnologiyasini samarali tatbiq etishga xizmat qiladi. Tadqiqot algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini STEAM texnologiyasi vositasida rivojlantirish va baholash bo‘yicha nazariy-metodik asoslarni takomillashtirib, ta’lim amaliyotiga yangi integrativ diagnostika modelini taklif etishi bilan ilmiy yangilik kasb etadi.

Tahlil va olingan natijalar. Tajriba-sinov ishlari 2024–2025 o‘quv yilida umumta’lim maktablarining 8–9-sinflarida tashkil etildi. Tadqiqotda jami 124 nafar o‘quvchi ishtirok etdi, shundan 62 nafari tajriba guruhi va 62 nafari nazorat guruhi sifatida shakllantirildi. Tajriba guruhida algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirish STEAM texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan loyiha-metodik model orqali olib borildi, nazorat guruhida esa an’anaviy tushuntirish va mashq asosidagi metodika qo‘llanildi. Boshlang‘ich diagnostika natijalari tajriba guruhida o‘rtacha 41,8%, nazorat guruhida 42,3% ko‘rsatkichni tashkil etdi va statistik jihatdan sezilarli farq aniqlanmadi ($p > 0,05$), bu guruhlarning dastlabki tayyorgarlik darajasi deyarli teng ekanini tasdiqladi.

Jarayonli (formativ) monitoring 12 haftalik modul asosida olib borildi va har uch haftada oraliq diagnostika o‘tkazildi. Monitoring natijalariga ko‘ra, tajriba guruhida masalani algoritmlashtirish tezligi 28% ga oshdi, debugging jarayonida xatolarni mustaqil aniqlash ko‘rsatkichi 32% ga ko‘tarildi, kod strukturasi sifati esa 5 ballik mezonda 2,1 balldan 3,8 ballga yetdi. Shuningdek, guruhli loyiha faoliyatida hamkorlik darajasi 35% ga oshdi. Nazorat guruhida esa mos ravishda algoritmlashtirish tezligi 11% ga, debugging samaradorligi 9% ga oshdi va kod sifati 2,0 balldan 2,6 ballga ko‘tarildi. Bu ko‘rsatkichlar STEAM asosidagi yondashuv jarayon davomida ancha barqaror o‘sish dinamikasini ta’minlaganini ko‘rsatadi(1-jadval).

Yakuniy diagnostika natijalari tajriba guruhida o‘rtacha 78,6%, nazorat guruhida esa 61,2% ko‘rsatkichni qayd etdi. Tajriba guruhida yuqori darajadagi o‘quvchilar ulushi 46% ni, o‘rta daraja 44% ni, past daraja 10% ni tashkil etdi. Nazorat guruhida esa yuqori daraja 19%, o‘rta daraja 51%, past daraja 30% bo‘ldi. Umumiy o‘sish tajriba guruhida 36,8%, nazorat guruhida 18,9% ni tashkil etdi. Statistik tahlil natijalariga ko‘ra ($t = 3,42$; $p < 0,01$), tajriba guruhi natijalari nazorat guruhiga nisbatan ishonchli ustunlikka ega ekani aniqlandi.

Kompetensiya komponentlari bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhida kognitiv komponent (algoritm murakkabligini tushunish va tahlil qilish) 38% dan 74% ga oshdi, amaliy komponent (mustaqil kod yozish va optimallashtirish) 33% dan 71% ga yetdi, refleksiv komponent (o‘z kodini tahlil qilish va takomillashtirish) esa 27% dan 69% ga ko‘tarildi. Nazorat guruhida bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 52%, 48% va 41% darajada shakllandi. Bu natijalar STEAM asosidagi metodika, ayniqsa, amaliy va refleksiv kompetensiyalar rivojida yuqori samaradorlik ko‘rsatganini tasdiqlaydi.

Sifat ko‘rsatkichlari asosida o‘tkazilgan ekspert baholash natijalariga ko‘ra, tajriba guruhidagi o‘quvchilarning 78% i mustaqil algoritm tuza oldi, 64% i kodni optimallashtirish elementlarini qo‘lladi va 71% i loyiha taqdimotida algoritmik qarorini asoslab bera oldi. Nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 49%, 28% va 37% ni tashkil etdi. Portfel va loyiha ishlari tahlili tajriba guruhida kreativ yondashuv, muhandislik fikrlashi va mantiqiy izchillik ancha yuqori darajada shakllanganini ko‘rsatdi.

1-jadval.

№	Ko‘rsatkichlar	Tajriba guruhi (n=62)	Nazorat guruhi (n=62)
1	Boshlang‘ich diagnostika natijasi (%)	41,8	42,3
2	Yakuniy diagnostika natijasi (%)	78,6	61,2
3	Umumiy o‘sish ko‘rsatkichi (%)	**36,8**	**18,9**
4	Yuqori daraja (%)	46	19
5	O‘rta daraja (%)	44	51
6	Past daraja (%)	10	30
7	Statistik ishonchlilik	$t = 3,42$; $p < 0,01$	—

Olingan empirik natijalar STEAM texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan metodik model algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirishda an’anaviy metodikaga nisbatan samaraliroq ekanini isbotladi. Jarayonli va yakuniy diagnostika natijalari, shuningdek, statistik tahlil ko‘rsatkichlari metodikaning ilmiy asoslangan va amaliy jihatdan samarali ekanini tasdiqlaydi.

Munozara. Olingan natijalar algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini STEAM texnologiyasi asosida rivojlantirish samaradorligi bo‘yicha ilgari surilgan ilmiy qarashlarni tasdiqlaydi va ularni mahalliy ta’lim amaliyoti sharoitida empirik jihatdan boyitadi. Xususan, tajriba guruhi natijalarining nazorat guruhiga nisbatan sezilarli ustunligi ($p < 0,01$) STEAM muhitida integrativ, loyiha asosidagi va muammoli vaziyatlarga yo‘naltirilgan o‘qitish metodikasining ustuvorligini ko‘rsatadi. Xorijiy tadqiqotlarda qayd etilgan xulosalar bilan uyg‘unlik kasb etadi. Jumladan, STEAM ta’limida jarayon va natijani birgalikda baholash zarurligi ta’kidlangan ilmiy ishlarda [1] kompetensiyaning faqat yakuniy mahsulot bilan emas, balki muammoni hal etish bosqichlari orqali aniqlanishi lozimligi asoslangan. Mazkur tadqiqotda ham boshlang‘ich, jarayonli va yakuniy diagnostika integratsiyasi o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini aniqlash imkonini berdi. Ayniqsa, formativ monitoring jarayonida debugging va optimallashtirish ko‘nikmalarining barqaror o‘sishi kompetensiyaviy yondashuvning amaliy natijasini tasdiqlaydi.

Robototexnika va vizual dasturlash vositalari orqali computational thinkingni rivojlantirish samaradorligi haqidagi ilmiy qarashlar [2; 3] mazkur tajriba natijalari bilan hamohangdir. Tajriba guruhida amaliy va refleksiv komponentlarning sezilarli o‘sishi STEAM loyihalarining muhandislik tafakkurini faollashtiruvchi ta’sirini ko‘rsatdi. Bu jihat nazorat guruhida an’anaviy mashq asosidagi metodika bilan solishtirilganda yaqqol namoyon bo‘ldi. Rubrikalarga asoslangan baholash modeli va ko‘p usulli diagnostika yondashuvi [4; 5] samaradorligi mazkur tadqiqot natijalari bilan tasdiqlandi. Tajriba guruhida portfel, loyiha ishlari va ekspert baholash natijalarining yuqoriligi kompetensiyani ko‘p mezonli baholash mexanizmi an’anaviy test baholash tizimiga nisbatan kengroq diagnostik imkoniyat berishini ko‘rsatdi. Bu esa algoritmlash kompetensiyalarini aniqlashda sifat va miqdoriy indikatorlarni uyg‘unlashtirish zarurligini asoslaydi.

MDH va mahalliy tadqiqotlarda loyiha asosida o‘qitish (PBL) va STEAM integratsiyasining ustuvorligi qayd etilgan [6; 13]. Mazkur tadqiqot natijalari ham bu yondashuvning samaradorligini tasdiqladi, biroq ushbu ishning farqli jihati shundaki, kompetensiyaning kognitiv, operatsion va refleksiv-kommunikativ komponentlari aniq indikatorlar asosida tizimlashtirildi hamda statistik jihatdan tekshirildi. Bu esa baholash jarayonining ilmiy asoslanganligini kuchaytirdi. Munozara jarayonida ayrim cheklovlarni ham qayd etish lozim. Birinchidan, tajriba-sinov ishlari 8–9-sinflar doirasida olib borilganligi sababli natijalarni barcha yosh toifalariga umumlashtirish ehtiyotkorlikni talab etadi. Ikkinchidan, monitoring muddati 12 hafta bilan cheklangan bo‘lib, uzoq muddatli ta’sirni aniqlash uchun longitudinal tadqiqotlar zarur. Uchinchidan, o‘qituvchilarning STEAM metodikasini qo‘llash bo‘yicha tayyorgarlik darajasi natijalarga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu bilan birga, olingan natijalar algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini STEAM texnologiyasi asosida rivojlantirish nafaqat amaliy ko‘nikmalarni, balki o‘quvchilarning refleksiv va kommunikativ qobiliyatlarini ham sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Bu esa raqamli jamiyat sharoitida muammolarni tizimli hal eta oladigan, kreativ va muhandislik tafakkuriga ega shaxsni shakllantirishda STEAM yondashuvining strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari xorijiy va mahalliy ilmiy manbalarda ilgari surilgan nazariy qarashlarni boyitadi hamda umumiy o‘rta ta’lim tizimida algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini baholashning integrativ diagnostika modelini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqligini ilmiy asoslaydi.

Xulosa sifatida O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida algoritmlash va dasturlash kompetensiyalarini STEAM texnologiyasi asosida rivojlantirish yuqori samaradorlikka ega ekanini ko‘rsatdi. Tajriba-sinov natijalari integrativ, loyiha asosidagi va ko‘p bosqichli diagnostika modeli an’anaviy o‘qitish metodikasiga nisbatan o‘quvchilarning kognitiv, amaliy va refleksiv kompetensiyalarini sezilarli darajada oshirishini isbotladi. Ishlab chiqilgan baholash mezonlari va diagnostika mexanizmlari umumta’lim maktablarida informatika fanini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. STEAM muhitida tashkil etilgan o‘quv jarayoni o‘quvchilarda muhandislik tafakkuri, ijodkorlik va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari O‘zbekiston sharoitida algoritmlash va dasturlashni baholashning integrativ modelini ta’lim amaliyotiga joriy etish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Adabiyotlar:

1. Marin-Marin, J. A., Moreno-Guerrero, A. J., Duo-Terron, P., & Lopez-Belmonte, J. (2021). STEAM in education: A bibliometric analysis of performance and co-words in Web of Science. // International Journal of STEM Education, 8(1).

2. Falloon, G. (2024). Advancing young students’ computational thinking through robotics-supported problem solving. Computers & Education, 202, 104803.

3. Hsu, T. C., Chang, S. C., & Hung, Y. T. (2022). A review of computational thinking research in programming education. // Frontiers in Computer Science, 4, 997222.

4. Cheng, Y. P., Wang, C. H., & Huang, Y. M. (2025). LUPDA: A comprehensive rubrics-based assessment model for STEAM project-based learning. // International Journal of STEM Education.

5. Pirzado, F. A., Ahmed, A., & Khan, M. (2025). Assessing computational thinking in engineering and computer science students: A multi-method approach. // Education Sciences, 15(3), 344.

6. Naumenko, N. V. (2023). Оценка сформированности STEAM-компетентности будущих учителей естественно-научных дисциплин. // Педагогическое образование в России, №4, 72–81.

7. Polat, E. S. (2020). Проектная деятельность как средство формирования цифровых и алгоритмических компетенций. // Информатика и образование, №6, 15–21.

8. Abdullayev, R., & Karimov, S. (2024). STEAM-ta’lim asosida raqamli kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi. Xalq ta’limi tizimida raqamli transformatsiya. Konferensiya materiallari, 1-qism, 45–52.

9. Smirnov, A. V. (2021). Диагностика сформированности алгоритмического мышления школьников. // Инновационные проекты и программы в образовании, №5, 34–40.

10. Kolesnikova, I. A. (2022). Оценочные рубрики в STEAM-обучении: теория и практика. // Современные проблемы науки и образования, №3, 98–104.

11. Yuldashev, Q. R. (2023). STEAM texnologiyasi asosida o‘quvchilarning algoritmik tafakkurini rivojlantirish metodikasi. // Pedagogika va innovatsiya, №2, 56–63.

12. Xudoyberdiyev, B. M. (2022). Kompetensiyaviy yondashuv asosida dasturlashni o‘qitish metodikasi. // Oliy ta’lim muammolari, №4, 87–94.

13. Raxmonov, S. T., & Ismoilova, D. A. (2024). Maktablarda STEAM loyihalarini tashkil etish va baholash mezonlari. // Zamonaviy ta’lim, №1, 22–29.

14. Usmonov, A. N. (2023). Algoritmlash kompetensiyalarini baholashda diagnostik vositalar. // Ilm-fan va ta’lim integratsiyasi, №5, 101–108.

15. Karimova, M. X. (2024). Raqamli ta’lim muhitida dasturlash kompetensiyalarini shakllantirish va monitoring qilish mexanizmlari. // Ta’lim texnologiyalari, №3, 14–21.

TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANGANLIGINING MAVJUD HOLATI

Xojiyeva Muxlisa Sultonovna,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
muxlis2311@gmail.com

Ushbu maqolada talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlanganlik darajasining mavjud holati global va milliy ta’lim jarayonlari kontekstida tahlil qilingan. Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuvning nazariy-metodologik asoslari hamda kasbiy kompetentlikning kognitiv, operatsion-faoliyat va shaxsiy-refleksiv komponentlari yoritilgan. Xalqaro baholash asosida yoshlar kompetensiyalarining rivojlanish tendensiyalari tahlil etilgan. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, gender farqlari hamda raqamli va transversal kompetensiyalarning ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari nazariy bilim va amaliy qo‘llash o‘rtasida ma’lum tafovut mavjudligini ko‘rsatadi. Maqolada kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari sifatida amaliy integratsiya, raqamli muhitni takomillashtirish va ichki kasbiy motivatsiyani kuchaytirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *kasbiy kompetentlik, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli kompetensiya, transversal kompetensiyalar, , mehnat bozori, ta’lim sifati, xalqaro baholash dasturlari, OECD, PISA, PIAAC*

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

В данной статье проанализировано современное состояние уровня развития профессиональной компетентности студентов в контексте глобальных и национальных образовательных процессов. В исследовании раскрыты теоретико-методологические основы компетентностного подхода, а также когнитивный, операционно-деятельностный и личностно-рефлексивный компоненты профессиональной компетентности. На основе международных оценочных исследований проанализированы тенденции развития компетенций молодёжи. Также выявлена значимость социально-экономических факторов, гендерных различий, а также цифровых и трансверсальных компетенций. Результаты исследования показывают наличие определённого разрыва между теоретическими знаниями и их практическим применением. В статье обоснована необходимость усиления практической интеграции, совершенствования цифровой образовательной среды и формирования внутренней профессиональной мотивации как стратегических направлений развития профессиональной компетентности.

Ключевые слова: *профессиональная компетентность, компетентностный подход, цифровая компетентность, трансверсальные компетенции, рынок труда, качество образования, международные оценочные программы, OECD, PISA, PIAAC.*

THE CURRENT STATE OF DEVELOPMENT OF STUDENTS’ PROFESSIONAL COMPETENCE

This article analyzes the current state of the development level of students’ professional competence in the context of global and national educational processes. The study highlights the theoretical and methodological foundations of the competency-based approach, as well as the cognitive, operational-activity, and personal-reflective components of professional competence. Based on international assessment studies, trends in the development of youth competencies are examined. The significance of socio-economic factors, gender differences, and digital and transversal competencies is also revealed. The research findings indicate the existence of a certain gap between theoretical knowledge and its practical application. The article substantiates the need to strengthen practical integration, improve the digital educational environment, and enhance internal professional motivation as strategic directions for the development of professional competence.

Keywords: *professional competence, competency-based approach, digital competence, transversal competencies, labor market, quality of education, international assessment programs, OECD, PISA, PIAAC.*

Kirish. XXI asrda ta’lim tizimining strategik maqsadi - mehnat bozori talablariga mos, yuqori kasbiy kompetentlikka ega mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Raqamli transformatsiya, innovatsion iqtisodiyot

va bilimlar integratsiyasi sharoitida kompetentlik tushunchasi faqat nazariy bilimlar majmui sifatida emas, balki ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llash, muammolarni mustaqil hal etish hamda refleksiv tahlil qila olish qobiliyati bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlanganlik darajasini ilmiy asosda o‘rganish ta’lim sifati va uning natijadorligini baholashning muhim mezoniga aylanmoqda. Xalqaro monitoring dasturlari natijalari va statistik dalillar kompetensiyalar tarkibida notekisliklar mavjudligini hamda kompetensiya va bilim o‘rtasidagi tafovut muammosining dolzarbligini tasdiqlaydi. Bu esa talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlanganlik darajasini kompleks tahlil qilish, oliy ta’lim jarayonida nazariya va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish, raqamli hamda transversal ko‘nikmalarni tizimli shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Oliy ta’lim jarayonida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik nazariy bilimlar bilan cheklanmay, balki amaliy ko‘nikmalar, ilmiy-tadqiqot faoliyati va mustaqil fikrlash kompetensiyalari bilan uzviy bog‘liq kompleks tizim sifatida ham talqin etiladi. Kompetentlikni shakllantirish ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda ma’lumotlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Mazkur yondashuv talabalarning kelajak kasbiy faoliyatga moslashuvchanligini ta’minlab, ularni mehnat bozori talablariga javob bera oladigan mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi [1].

Talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta’lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlikni shakllantirishning samarali mexanizmlari sifatida interfaol metodlar, muammoli ta’lim texnologiyalari, amaliy mashg‘ulotlar hamda mustaqil ta’lim faoliyatining uyg‘unligi alohida ahamiyat kasb etadi. Kompetentlikning rivojlanishi nazariy bilimlarni real kasbiy vaziyatlarda qo‘llay olish, mustaqil qaror qabul qilish va refleksiv tahlil ko‘nikmalarining shakllanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik va raqamli texnologiyalardan foydalanish talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur yondashuv bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy moslashuvchanligi va raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi [2].

Talabalarning kasbiy kompetentligining rivojlanganlik darajasini global miqyosda baholash zamonaviy ta’lim tadqiqotlarining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda xalqaro miqyosdagi monitoring va tahliliy hisobotlar talabalar va yoshlarning bilim, ko‘nikma hamda amaliy kompetensiyalarida sezilarli o‘zgarishlar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, raqamli transformatsiya, mehnat bozori talablari va uzluksiz ta’lim konsepsiyasi kasbiy kompetentlik mazmunini yangicha talqin qilishni talab etmoqda. Shu jihatdan xalqaro baholash dasturlari va yirik tahliliy hisobotlar muhim empirik asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xalqaro miqyosda kompetensiyalar holatini tizimli o‘rganuvchi yetakchi tuzilmalardan biri - Organisation for Economic Co-operation and Development hisoblanadi. Ushbu tashkilot tomonidan tayyorlangan OECD Skills Outlook 2025 hisobotida 21-asr ko‘nikmalari va kasbiy kompetensiyalarning shakllanish dinamikasi keng statistik ma’lumotlar asosida yoritilgan [3]. Hisobot natijalariga ko‘ra, 16–29 yosh oralig‘idagi yoshlar guruhi kognitiv va amaliy ko‘nikmalar bo‘yicha katta yoshdagi qatlamga nisbatan yuqoriroq natija ko‘rsatadi. Xususan, o‘qish savodxonligi bo‘yicha o‘rtacha farq taxminan 0.48 standart og‘ish (SD), matematik va hisoblash ko‘nikmalarida 0.36 SD, moslashuvchan muammolarni hal etish kompetensiyasida esa 0.57 SD ustunlik kuzatiladi. Bu holat yoshlarning ta’lim jarayoniga faol jalb etilgani va zamonaviy o‘quv muhitida o‘qiyotgani bilan izohlanadi.



Grafik natijalari yoshlar va katta yoshdagi aholi o‘rtasida kom-petensiya darajasida sezilarli tafovut mavjudligini ko‘rsatadi. Ayniqsa muammolarni mos-lashuvchan hal etish ko‘nikmasida farq eng yuqori ko‘rsatkichni namoyon etmoqda. Bu holat yoshlarning zamonaviy ta’lim muhitida o‘qiyotgani, raqamli texnologiyalar bilan faol ishlayotgani va uzluksiz o‘rganish jarayoniga kengroq jalb etilgani bilan izohlanadi.

Mazkur tendensiya talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda zamonaviy o‘quv metodlari va raqamli muhit muhim omil ekanini tasdiqlaydi. Demak, yoshlar segmentida kompetensiyalar o‘sishi bevosita ta’lim sifati va o‘quv jarayonining innovatsion tashkil etilishi bilan

bog‘liq.

Hisobotda yana bir muhim jihat - kasbiy va tayanch kompetensiyalar rivojiga ijtimoiy-iqtisodiy omillarning kuchli ta’siri borligi aniq raqamlar bilan ko‘rsatilgan. Ota-onaning ta’lim darajasi, oilaning iqtisodiy sharoiti va madaniy kapitali yuqori bo‘lgan muhitdan chiqqan talabalar kompetensiya ko‘rsatkichlari o‘rtacha hisobda ancha yuqori bo‘ladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 10 yosh atrofidagi o‘quvchilarda ijtimoiy-iqtisodiy fon bilan bog‘liq kompetensiya tafovuti 0.64 SD gacha yetadi. 15 yoshga kelib bu tafovut taxminan 0.42 SD gacha qisqaradi. Bu maktab ta’limi dastlabki tengsizlikni ma’lum darajada yumshatishini ko‘rsatadi, biroq uni to‘liq bartaraf eta olmasligini ham namoyon qiladi. Demak, global miqyosda talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish faqat o‘quv dasturi bilan emas, balki ijtimoiy siyosat va ta’limga teng kirish imkoniyati bilan ham chambarchas bog‘liq.



Grafikdan ko‘rinadiki, dastlabki yosh bosqichlarida ijtimoiy-iqtisodiy fon ta’siri kuchli bo‘lsa-da, keyingi ta’lim bosqichlarida bu tafovut ma’lum darajada kamayadi. Bu maktab ta’limi va tizimli o‘qitish jarayoni boshlang‘ich tengsizlikni qisman kompensatsiya qilish imkoniga ega ekanini bildiradi.

Shu bilan birga, tafovutning to‘liq yo‘qolmasligi ta’lim tizimida differensial yondashuv, qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash dasturlari va teng imkoniyatli ta’lim muhitini yaratish zarurligini ko‘rsatadi. Bu xulosa talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Talabalar kompetensiyalarini xalqaro darajada o‘lchashda keng qo‘llaniladigan dasturlardan yana biri - Programme for International Student Assessment hisoblanadi. Ushbu baholash tizimi 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha funksional savodxonligini hamda real hayotiy vazifalarni hal etish qobiliyatini o‘lchaydi. PISA natijalari shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab mamlakatlarda nazariy bilimdan amaliy qo‘llashga o‘tishda qiyinchilik mavjud. Ya’ni o‘quvchilar formulani biladi, lekin uni real vaziyatga moslashtirishda qiynaladi. Bu esa kasbiy kompetentlikning muhim komponenti bo‘lgan transfer ko‘nikmasi yetarli darajada shakllanmaganini bildiradi [4].

Katta yoshdagi aholi va yoshlarning tayanch kompetensiyalarini baholovchi yana bir dastur — Programme for the International Assessment of Adult Competencies bo‘lib, u o‘qish savodxonligi, matematik savodxonlik va texnologik muhitda muammoni hal etish ko‘nikmalarini o‘lchaydi. Ushbu tadqiqot natijalari ham yosh avlodning ko‘rsatkichlari yuqoriroq ekanini, biroq mamlakatlar o‘rtasida farq juda katta ekanini ko‘rsatadi. Ba’zi rivojlangan ta’lim tizimlarida yoshlarning yuqori darajadagi funksional kompetensiyaga ega ulushi sezilarli bo‘lsa, ayrim hududlarda minimal darajadan past natijalar ham qayd etilgan [5].

Global tendensiyalarda gender omili ham muhim o‘rin tutadi. Xalqaro ma’lumotlarga ko‘ra, qiz talabalar o‘qish savodxonligi, kommunikativ va hamkorlikka asoslangan kompetensiyalarda yuqoriroq natija ko‘rsatadi. O‘g‘il bolalar esa o‘rtacha hisobda matematika va ayrim texnik yo‘nalishlardagi vazifalarda ustunroq bo‘lishi mumkin. Biroq zamonaviy hisobotlarda bu farq keskin emasligi, ko‘proq ta’lim muhiti va metodik yondashuv bilan bog‘liq ekani ta’kidlanadi. Shu sababli ko‘plab mamlakatlarda gender-balansli kompetensiya rivojlantirish strategiyalari ishlab chiqilmoqda.



Natijalar gender kesimida kompetensiya profillari bir xil emasligini ko‘rsatadi: matematika va moliyaviy yo‘nalishlarda o‘g‘il bolalar nisbatan ustunroq, o‘qish, hamkorlik va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarida esa qizlar yuqoriroq natija ko‘rsatadi. Bu farqlar biologik emas, balki ko‘proq pedagogik muhit, o‘qitish uslubi va ijtimoiy kutilmalar bilan bog‘liq ekani ko‘plab tadqiqotlarda qayd etilgan.

Mazkur holat kasbiy kompetensiyani rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda gender-moslashuvchan metodikalarni qo‘llash zarurligini bildiradi. Ta’lim jarayonida balanslangan yondashuv qo‘llanilganda, har ikki guruhda ham barcha turdagi kompetensiyalarni samarali rivojlantirish mumkin.

Yana bir muhim global yo‘nalish - raqamli va transversal kompetensiyalarning tez sur’atlarda ustuvorlik kasb etishidir. Zamonaviy mehnat bozori faqat tor kasbiy bilimni emas, balki tanqidiy fikrlash, muammoni hal etish, jamoada ishlash, moslashuvchanlik va o‘z-o‘zini o‘qitish ko‘nikmalarini talab qilmoqda. Xalqaro tahlillarga ko‘ra, ish beruvchilar bitiruvchilarda aynan shu umumkasbiy (soft + digital) kompetensiyalar yetishmasligini eng ko‘p qayd etadi. Natijada ko‘plab universitetlarda kompetensiyaga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlari, loyiha asosida o‘qitish, amaliyotga integratsiyalashgan kurslar va raqamli muhitda o‘qitish modellari keng joriy etilmoqda.

Umuman olganda, global statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha ijobiy siljishlar mavjud, biroq mamlakatlar, ijtimoiy qatlamlar va ta’lim muassasalari kesimida sezilarli tafovut saqlanib qolmoqda. Asosiy tendensiya - kompetensiyani faqat bilim bilan emas, balki amaliy qo‘llash, moslashuvchan fikrlash va raqamli savodxonlik bilan birgalikda shakllantirish zarurligidir. Shu bois zamonaviy ta’lim siyosati va metodikasi kompetensiyaviy yondashuvni markaziy o‘ringa qo‘ymoqda.

Tahlil va olingan natijalar. Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlanganlik darajasi ta’lim sifati va mehnat bozori integratsiyasining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarida nazariy tayyorgarlik nisbatan yuqori darajada shakllangan bo‘lsa-da, amaliy faoliyatga tayyorgarlik, kasbiy vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish va moslashuvchanlik ko‘nikmalarida ayrim nomutanosibliklar saqlanib qolmoqda. Bu esa kompetensiya va bilim o‘rtasidagi tafovut masalasini dolzarb qilib qo‘ymoqda.

Talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlanganlik holatini baholashda uch asosiy komponent ajratiladi: kognitiv (bilim), operatsion-faoliyat (amalda qo‘llash) va shaxsiy-refleksiv (motivatsiya, o‘zini baholash, kasbiy identifikatsiya). Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, aksariyat talabalar kognitiv komponent bo‘yicha yetarli natijaga ega bo‘lsalarda, operatsion-faoliyat komponentida, ya’ni real ish jarayoniga integratsiyalashgan vazifalarni bajarishda murakkabliklarga duch kelishadi. Ayniqsa, loyiha asosida ishlash, jamoaviy hamkorlik va muammoli vaziyatlarni hal etish jarayonida mustaqillik darajasi yetarli emasligi qayd etilmoqda.

Kasbiy kompetentlikning rivojlanganlik darajasi ko‘p jihatdan o‘quv dasturlarining amaliyotga yo‘naltirilganligi bilan belgilanadi. Ta’lim jarayonida ishlab chiqarish amaliyoti, dual ta’lim elementlari va real sektor bilan hamkorlikning yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi bitiruvchilarning kasbiy moslashuv davrini uzaytiradi. Natijada ish beruvchilar tomonidan “qo‘shimcha o‘qitish zarurati” holatlari kuzatiladi. Bu esa oliy ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi uzviylikni yanada mustahkamlash zarurligini ko‘rsatadi.

Raqamli muhitning kengayishi talabalarning kasbiy kompetentligiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Hozirgi davrda faqat mutaxassislikka oid bilim emas, balki raqamli savodxonlik, axborotni tahlil qilish, sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish, kiberxavfsizlik asoslarini bilish kabi transversal kompetensiyalar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, talabalarning aksariyati raqamli vositalardan foydalanishda faol bo‘lsalar-da, ularni kasbiy faoliyat bilan integratsiyalash darajasi yetarli emas. Bu esa raqamli kompetensiyani faqat texnik ko‘nikma sifatida emas, balki kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish vositasi sifatida shakllantirish zarurligini bildiradi.

Talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlanganlik holatiga ta’sir qiluvchi omillar orasida motivatsiya alohida o‘rin tutadi. Ichki kasbiy motivatsiyaga ega talabalar amaliy vazifalarni bajarishda yuqori faollik ko‘rsatadi va o‘z-o‘zini rivojlantirishga intiladi. Aksincha, tashqi rag‘batga asoslangan o‘qish jarayonida kompetensiya shakllanishi barqaror emasligi kuzatiladi. Demak, kompetentlikni rivojlantirish faqat metodik vositalar bilan emas, balki shaxsiy qadriyatlar va kasbiy o‘zini anglash bilan ham bog‘liqdir.

1-jadval. Hozirgi holat va kutilayotgan natija o‘rtasidagi farq
Muammo va yechim: tafovutlar xaritasi

Yo‘nalish	Mavjud holat (Muammo)	Strategik yechim
Tayyorgarlik	Nazariya kuchli, amaliyot sust	Dual ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi
Raqamli muhit	Texnik foydalanish bor, kasbiy integratsiya yo‘q	Transversal (ko'ndalang) kompetensiyalarni joriy etish
Motivatsiya	Tashqi rag‘bat (baho, diplom)	Ichki kasbiy qadriyatlarni shakllantirish
Infratuzilma	Hududiy va institutsional tengsizlik	Resurslarni teng taqsimlash va sifat nazorati

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning mavjud holati mintaqaviy va institutsional farqlarga ham ega. Innovatsion infratuzilmaga ega universitetlarda talabalar amaliy va tadqiqot kompetensiyalari bo‘yicha yuqoriroq natija ko‘rsatadi. Moddiy-texnik bazasi yetarli bo‘lmagan ta’lim muassasalarida esa kompetensiya rivoji asosan nazariy darajada qolib ketishi mumkin. Bu holat ta’lim resurslarining teng taqsimlanishi va sifat nazoratini kuchaytirish masalasini dolzarb qiladi.

Umuman olganda, talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlanganlik darajasi ijobiy dinamikaga ega bo‘lsa-da, uning tarkibiy qismlarida muvozanat yetarli emas. Nazariy tayyorgarlik va amaliy qo‘llash o‘rtasidagi tafovut, raqamli kompetensiyaning kasbiy faoliyat bilan integratsiyasi, motivatsion omillarning barqarorligi hamda mehnat bozori bilan aloqadorlik darajasi hali ham takomillashtirishni talab etadi. Shuning uchun kasbiy kompetentlikni rivojlantirish strategiyasi tizimli, bosqichma-bosqich va monitoring asosida amalga oshirilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, mavjud holat shuni ko‘rsatadiki, talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni izchil davom etayotgan bo‘lsa-da, uning samaradorligini oshirish uchun ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish, amaliy integratsiyani kuchaytirish, raqamli va transversal kompetensiyalarni chuqurroq singdirish hamda individual rivojlanish trayektoriyalarini joriy etish zarur. Faqat shundagina bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi zamonaviy mehnat bozori talablariga to‘liq mos keladi.

Adabiyotlar:

1. Tolib kizi, C. Z. Development of professional competence as an important task of the higher education process // Current Research Journal of Pedagogics. – 2022. – Vol. 3. – No. 9. – P. 74–81.

2. Narzullayeva D. A. Talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish usullari // Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – № 4. – Б. 112–118.

3. Organisation for Economic Co-operation and Development. OECD Skills Outlook 2025: Skills for the Digital Transition. // OECD Publishing, Paris, 2025.

4. Programme for International Student Assessment. PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education. // OECD Publishing, Paris, 2023.

5. Programme for the International Assessment of Adult Competencies. PIAAC Results 2018 (Second Edition). // OECD Publishing, Paris, 2019.

6. Zakirova F.M., Hamraeva G.R. Kasb ta’lim yo‘nalishi talabalarini raqamli kompetentligini multimediali loyiha asosida rivojlantirish. // Zamonaviy ta’lim jurnali, 2021, 3 (100), 32–38 betlar.

7. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H. Kasbiy kompetentlik va uni shakllantirishning pedagogik asoslari. // Pedagogika va psixologiya, 2020, № 2, 15–22 betlar.

8. Xodjaev B.X. Oliy ta’limda kompetensiyaviy yondashuv metodologiyasi. // Uzluksiz ta’lim, 2019, № 4, 5–11 betlar.

9. European Commission. Digital Education Action Plan 2021–2027. // Publications Office of the European Union, Brussels, 2021.

10. World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2023. // WEF Publishing, Geneva, 2023.

УДК 372.41:373.3

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗАДАНИЙ ФОРМАТА PIRLS ДЛЯ РАЗВИТИЯ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ 4-Х КЛАССОВ

Шаркова Александра Валерьевна,
магистрант 2- курса по направлению
«Методика преподавания начального образования»
Шахрисабзского государственного педагогического института
Alexa_sharkova1988@mail.ru
https://orcid.org/ 0009-0002-8672-1177

Цель работы — оценить результативность методики развития читательской грамотности четвероклассников через систематическое включение заданий формата PIRLS. Эксперимент проведён в школе № 15 г. Карши с участием 50 учащихся (по 25 в экспериментальной и контрольной группах). В экспериментальной группе в течение октября–декабря проведено 8 занятий с текстами и вопросами, охватывающими четыре группы читательских умений PIRLS. Диагностика выполнялась авторским тестом (2 текста, 13 заданий, максимум 18 баллов). Средний результат экспериментальной группы вырос с 60% до 85%, контрольной — с 58% до 65%. Различия статистически значимы (t≈3,2; p<0,01), величина эффекта d≈0,8. Доля учащихся с высоким уровнем в экспериментальной группе выросла с 8% до 52%. Регулярная практика заданий формата PIRLS эффективно развивает осмысленное чтение младших школьников.

Ключевые слова: *читательская грамотность, начальная школа, PIRLS, осмысленное чтение, задания по тексту, педагогический эксперимент, Узбекистан.*

THE EFFECTIVENESS OF USING PIRLS-FORMAT TASKS TO DEVELOP READING LITERACY IN 4TH-GRADE STUDENTS

The purpose of this study is to evaluate the effectiveness of a methodology for developing reading literacy in fourth-grade students through the systematic incorporation of PIRLS-format tasks. The experiment was conducted at School No. 15 in Qarshi, involving 50 students (25 in the experimental group and 25 in the control group). From October to December, the experimental group participated in 8 sessions featuring texts and questions that covered the four PIRLS reading competency groups. Assessment was carried out using a custom-designed test (2 texts, 13 tasks, maximum score of 18 points). The average score in the experimental group increased from 60% to 85%, while the control group's average score rose from 58% to 65%. The differences are statistically significant (t ≈3.2; p<0.01), with an effect size of d ≈0.8. The proportion of high-achieving students in the experimental group grew from 8% to 52%. Regular practice with PIRLS-format tasks effectively develops meaningful reading skills in primary school students.

Keywords: *reading literacy, primary school, PIRLS, meaningful reading, text-based tasks, pedagogical experiment, Uzbekistan.*

4-SINF O‘QUVCHILARIDA O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA PIRLS FORMATIDAGI TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Tadqiqotning maqsadi – PIRLS formatidagi topshiriqlarni tizimli ravishda qo‘llash orqali to‘rtinchi sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish metodikasining natijadorligini baholashdan iborat. Pedagogik tajriba Qarshi shahridagi 15-sonli maktabda 50 nafar o‘quvchi ishtirokida o‘tkazildi (tajriba va nazorat guruhlarining har birida 25 nafardan o‘quvchi). Tajriba guruhida oktyabr-dekabr oylari davomida PIRLS tizimidagi to‘rt guruh o‘quv malakalarini qamrab oluvchi matnlar va savollar asosida 8 ta mashg‘ulot tashkil etildi. Diagnostika mualliflik testi (2 ta matn, 13 ta topshiriq, eng yuqori ball – 18) yordamida amalga oshirildi. Tajriba guruhining o‘rtacha natijasi 60% dan 85% ga, nazorat guruhiniki esa 58% dan 65% ga ko‘tarildi. Farqlar statistik jihatdan ahamiyatli (t≈3,2; p<0,01), ta’sir kuchi ko‘rsatkichi d≈0,8. Tajriba guruhida yuqori natijali o‘quvchilar ulushi 8% dan 52% gacha o‘sdi. PIRLS formatidagi topshiriqlar bilan muntazam shug‘ullanish kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarida matnni anglab o‘qish ko‘nikmasini samarali rivojlantiradi.

Kalit so‘zlar: *o‘qish savodxonligi, boshlang‘ich ta’lim, PIRLS, anglab o‘qish, matn asosida topshiriqlar, pedagogik tajriba, O‘zbekiston.*

Введение. Читательская грамотность в начальной школе задаёт базу для успешного освоения всех предметных областей, поскольку значительная доля учебной информации поступает в текстовой форме [3; 5]. В практике начального обучения нередко фиксируется разрыв между сформированной техникой чтения и качеством понимания: учащиеся читают достаточно бегло, но испытывают трудности при выделении главной мысли, установлении причинно-следственных связей, объяснении мотивов персонажей и аргументации ответа [9; 18]. Проблема становится особенно заметной при выполнении диагностических работ и заданий международных сравнительных исследований, где значительная часть вопросов ориентирована на интерпретацию, обобщение и оценку, а не только на воспроизведение фактов.

Международное исследование PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) предлагает операциональную модель понимания текста, применимую к выпускникам начальной школы [1;2]. В рамках PIRLS различаются две цели чтения (для литературного опыта и для извлечения/использования информации) и четыре группы когнитивных процессов: (1) нахождение явно представленной информации; (2) формулирование прямых выводов; (3) интерпретация и интеграция идей; (4) анализ и оценка содержания, языка и структуры текста. Такая рамка позволяет не только измерять читательскую грамотность, но и конструировать задания, которые системно тренируют разные уровни понимания и делают результаты диагностики сопоставимыми с международными критериями.

Для образовательной практики Узбекистана актуальна разработка методик, которые, с одной стороны, соответствуют логике национальной программы начального обучения, а с другой — целенаправленно развивают функциональную грамотность и навыки смыслового чтения [6; 8].В этом контексте требуется оценить, в какой мере регулярное включение заданий формата PIRLS в уроки чтения способствует росту читательской грамотности в условиях обычной школы и ограниченного учебного времени.

Цель исследования — экспериментально оценить эффективность методики развития читательской грамотности учащихся 4-х классов посредством систематического использования заданий, построенных по типологии PIRLS. Гипотеза: целенаправленное включение в учебный процесс комплектов заданий «мини-PIRLS» приведёт к более выраженному росту показателей читательской грамотности по сравнению с традиционным обучением без такого компонента.

Материалы и методы. Применён экспериментальный (нерандомизированный) дизайн с контрольной группой и измерениями «до/после». Исследование проведено в течение одного полугодия: входная диагностика — сентябрь, формирующий этап — октябрь–декабрь, итоговый контроль — январь.

База и участники. Исследование выполнено на базе средней общеобразовательной школы № 15 г. Карши (городская школа с русским языком обучения). В эксперимент включены два параллельных 4-х класса: экспериментальная группа — 4 «А», контрольная группа — 4 «Б». В каждой группе по 25 учащихся 9–10 лет; в экспериментальном классе 12 мальчиков и 13 девочек (средний возраст 9,5 года), в контрольном — 13 мальчиков и 12 девочек (средний возраст 9,6 года). Учебная нагрузка по литературному чтению составляла 4 часа в неделю в обеих группах; обучение велось по единой программе и одному учебнику.

Интервенция. В экспериментальном классе в течение октября-декабря проведено 8 тематических занятий в формате мини-PIRLS (примерно одно занятие в неделю либо как часть урока через 4–5 обычных уроков чтения). На каждом занятии учащиеся работали с текстом (художественным или информационным) объёмом ориентировочно 400–600 слов и комплектом из 4–6 вопросов разных типов: задания с выбором ответа и открытые вопросы, распределённые по четырём группам читательских умений PIRLS. Работа строилась по алгоритму: чтение текста (индивидуально или по абзацам), выполнение письменных ответов, затем коллективный разбор, обсуждение аргументации и типичных ошибок. В контрольной группе обучение велось по стандартной программе без систематического введения комплектов заданий мини-PIRLS.

Инструмент измерения. Для входного и итогового контроля использован авторский диагностический тест, построенный по модели PIRLS. Тест включал два текста (художественный и научно-познавательный) объёмом около 500 слов каждый и 13 заданий: 8 вопросов с выбором ответа (по 1 баллу) и 5 открытых заданий (по 1–2 балла). Максимальный суммарный балл — 18. Открытые ответы оценивались по шкале полноты (0–2 балла) с учётом корректности вывода и опоры на текст. Для интерпретации результатов баллы переводились в проценты; уровни определялись как низкий

(<50%), средний (50–75%) и высокий (>75%). Для снижения эффекта запоминания использовались эквивалентные варианты входного и итогового тестов (разные тексты и вопросы при сопоставимой структуре и сопоставимом времени выполнения).

Статистическая обработка. Перед сравнительным анализом проверялась форма распределения итоговых баллов (критерий Шапиро–Уилка). При отсутствии значимых отклонений от нормальности применялись параметрические методы. Для сравнения итоговых показателей экспериментальной и контрольной групп использовался t‑критерий Стьюдента для независимых выборок; для оценки изменений внутри групп — парный t-критерий. Практическая значимость эффекта оценивалась по величине d Коэна.

Результаты. Сопоставимость групп на входе. По данным входной диагностики исходные показатели читательской грамотности в экспериментальной и контрольной группах существенно не различались: средний результат составил около 60% в экспериментальной группе и около 58% в контрольной ($p>0,05$). Распределение по уровням также было близким: высокий уровень демонстрировали по 2 учащихся (8%) в каждой группе; низкий уровень — 8 учащихся (32%) в экспериментальной и 9 (36%) в контрольной группе.

Динамика средних показателей. К середине формирующего этапа (промежуточный контроль) средний показатель экспериментальной группы увеличился примерно до 70%, тогда как в контрольной группе изменения были минимальны (около 60%). По итоговому контролю средний результат экспериментальной группы достиг около 85%, контрольной — около 65%, что соответствует приросту +25 процентных пунктов в экспериментальной группе и +7 пунктов в контрольной (табл. 1).

Статистическая значимость различий. Итоговые различия между экспериментальной и контрольной группой оказались статистически значимыми ($t\approx3,2$; $p<0,01$). В экспериментальной группе прирост результатов по сравнению с входным измерением был значимым ($p<0,001$), в контрольной группе — статистически недостоверным ($p>0,1$). Величина эффекта по Коэну составила около 0,8, что соответствует высокому практическому эффекту интервенции.

Сдвиг распределения по уровням. В экспериментальной группе доля учащихся с высоким уровнем (>75% правильных ответов) увеличилась с 8% до 52% (с 2 до 13 человек), а доля учащихся с низким уровнем (<50%) снизилась с 32% до 8% (с 8 до 2 человек). В контрольной группе изменения были менее выражены: доля высокого уровня выросла с 8% до 12% (с 2 до 3 человек), доля низкого уровня снизилась с 36% до 28% (с 9 до 7 человек) (табл. 2).

Таблица 1.

Средние результаты теста читательской грамотности (в % от максимума).

Группа	До эксперимента	Промежуточный контроль	Итоговый контроль	Прирост
Экспериментальная	60%	70%	85%	+25 п.п.
Контрольная	58%	60%	65%	+7 п.п.

Примечание: *в каждой группе n=25.*

Структура улучшений по типам умений. Наиболее заметные изменения в экспериментальной группе отмечены в заданиях высокого когнитивного уровня: интерпретация, обобщение и оценка. По итогам обучения успешность выполнения таких задач достигала порядка 80–85%, тогда как в контрольной группе успешность выполнения аналогичных задач сохранялась на уровне около 60%. Отдельно отмечен рост качества ответов на открытые вопросы: около 70% учащихся экспериментального класса стали давать более полные, обоснованные ответы с опорой на текст, тогда как в контрольной группе доля таких ответов оценивалась существенно ниже (около 30–40%).

Таблица 2.

Распределение учащихся по уровням читательской грамотности до и после эксперимента

Уровень (критерий)	Экспериментальная (до → после)	Контрольная (до → после)
Низкий (<50%)	8 (32%) → 2 (8%)	9 (36%) → 7 (28%)
Средний (50–75%)	15 (60%) → 10 (40%)	14 (56%) → 15 (60%)
Высокий (>75%)	2 (8%) → 13 (52%)	2 (8%) → 3 (12%)

Обсуждение. Полученные результаты указывают на то, что включение заданий формата PIRLS в регулярную практику уроков чтения может выступать эффективным педагогическим механизмом ускоренного развития смыслового чтения. Прирост в экспериментальной группе охватывал не только общую долю правильных ответов, но и перераспределение учащихся из «низкого» уровня в «средний» и «высокий». Это особенно значимо для начальной школы, где снижение доли слабых читателей имеет прямые последствия для дальнейшей успешности обучения по всем предметам, требующим самостоятельной работы с текстовой информацией [10; 17].

Содержательный анализ динамики позволяет выделить несколько вероятных факторов эффективности. Во - первых, методика задала устойчивый ритм работы с текстом: учащиеся регулярно сталкивались с требованием не просто пересказать, а выполнить задания разных уровней (факт, вывод, обобщение, оценка). Во - вторых, доля открытых вопросов и обязательность аргументации стимулировали развитие письменной связной речи и метапредметного умения опираться на текст как на источник доказательств [7; 11].В-третьих, коллективный разбор после выполнения заданий выполнял формирующую функцию: обсуждение типичных ошибок и образцов удачных ответов повышало осознанность чтения и снижало вероятность механического угадывания.

Рост по «высокоуровневым» заданиям (интерпретация, обобщение и оценка) согласуется с тем, что подобные умения хуже всего формируются при репродуктивной модели урока, где доминируют вопросы на воспроизведение [13; 18]. Встраивание заданий PIRLS в урок переводит акцент на причинно-следственные связи, мотивы и позицию автора, тем самым развивая смысловую обработку текста и контролируемые стратегии чтения. На уровне учебной практики это проявляется в более полном ответе, наличии логической связи между тезисом и текстовой опорой, а также в большей уверенности при выполнении заданий открытого типа.

Практическая импликация для учителя состоит в сохранении баланса двух типов текстов (художественный и информационный) и четырёх групп умений. Мини-комплект к каждому значимому тексту целесообразно строить так, чтобы он включал хотя бы: один вопрос на извлечение факта, один вопрос на вывод, один вопрос на формулирование главной мысли/обобщение и один вопрос на оценку или интерпретацию. Такой минимум обеспечивает системность и снижает риск односторонней тренировки только репродуктивных умений.

Вместе с тем результаты следует интерпретировать с учётом ограничений дизайна. Исследование проведено в одной школе и на небольшой выборке (n=50), что ограничивает обобщаемость. В экспериментальной и контрольной группах занятия вели разные учителя, а фактор личности педагога потенциально влияет на вовлечённость и темп продвижения. Диагностический тест имел авторскую форму, ориентированную на модель PIRLS, но не являлся стандартизированным инструментом с заранее установленными психометрическими характеристиками; эквивалентность входной и итоговой форм обеспечивалась структурно, но без отдельного пилотного подтверждения. Кроме того, отсутствовал отсроченный контроль, поэтому устойчивость эффекта во времени требует дополнительной проверки.

Перспективы дальнейших исследований связаны с расширением базы (несколько школ, разные языки обучения, сельские и городские контексты), увеличением длительности формирующего этапа и включением отсроченного контроля. Практически значимым направлением является разработка банка локализованных текстов и комплектов заданий по типологии PIRLS для системной работы учителя, а также методическое сопровождение оценивания открытых ответов (критерии, примеры, шкалы).

Заключение. Педагогический эксперимент в школе № 15 г. Карши показал, что систематическое применение заданий формата PIRLS в уроках чтения связано с выраженным ростом показателей читательской грамотности четвероклассников. Экспериментальная группа повысила средний результат с ~60% до ~85%, тогда как в контрольной группе рост составил около 7 процентных пунктов. Итоговые различия между группами статистически значимы ($p<0,01$) при высокой величине эффекта ($d\approx0,8$).

Практическая интерпретация результатов заключается в следующем: регулярная работа с разноуровневыми вопросами к художественным и информационным текстам, обязательность аргументации в открытых ответах и коллективный разбор заданий усиливают умения интерпретации, обобщения и оценки, то есть компоненты смыслового чтения, которые чаще всего остаются слабым звеном в традиционной практике. Методика мини-PIRLS может рассматриваться как реалистичный

инструмент повышения функциональной читательской грамотности при ограниченных ресурсах и без выхода за рамки школьного расписания.

Литература:

1. Mullis I.V.S., Martin M.O. (eds.). PIRLS 2016 Assessment Framework. Chestnut Hill, MA: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College; 2015.

2. Mullis I.V.S., Martin M.O. (eds.). PIRLS 2021 Assessment Frameworks. Chestnut Hill, MA: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College; 2019.

3. Асмолов А.Г. (ред.). Как проектировать универсальные учебные действия в начальной школе: от действия к мысли. М.: Просвещение; 2008.

4. Асмолов А.Г. Формирование универсальных учебных действий в основной школе: от действия к мысли. М.: Просвещение; 2010.

5. Виноградова Н.Ф. Концепция начального образования: «Начальная школа XXI века». М.: Просвещение; 2017.

6. Виноградова Н.Ф., Кочурова Е.Э., Кузнецова М.И. и др. Функциональная грамотность младшего школьника: книга для учителя. М.: Вентана-Граф; 2018.

7. Выготский Л.С. Мышление и речь. М.; Л.: Государственное учебно-педагогическое издательство; 1934.

8. Гостева Ю.Н., Кузнецова М.И., Рябинина Л.А., Чабан Т.Ю. Теория и практика оценивания читательской грамотности как компонента функциональной грамотности. Отечественная и зарубежная педагогика. 2019; 1(4).

9. Егоров Т.Г. Психология овладения навыком чтения. М.: Изд-во Академии педагогических наук РСФСР; 1953.

10. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. М.: Смысл; Академия; 2005.

ТАЛАБАЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ЎҚУВ ФАОЛИЯТНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МЕТОДИКАСИ

Ширинов Музаффар Кучарович,
Тошкент Кимё халқаро университети
Педагогика ва психология кафедраси доценти

Мазкур мақолада талабаларнинг мустақил ўқув фаолиятини самарали ташкил этишнинг педагогик ва методик асослари таҳлил қилинган. Талабаларнинг билим олиш жараёнида мустақил ишлаш кўникмаларини шакллантириш, уларнинг танқидий фикрлашини ривожлантириш ҳамда таълим самарадорлигини ошириш масалалари ёритилган. Шунингдек, мустақил таълимни ташкил этишда замонавий педагогик технологиялар ва интерактив усуллардан фойдаланишнинг аҳамияти кўрсатиб берилган.

Калит сўзлар: *мустақил таълим, ўқув фаолияти, талабалар, педагогик технологиялар, таълим самарадорлиги, интерактив усуллар, методика.*

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

В данной статье рассматриваются педагогические и методические основы организации самостоятельной учебной деятельности студентов. Особое внимание уделяется формированию у студентов навыков самостоятельной работы в процессе обучения, развитию критического мышления и повышению эффективности образовательного процесса. Также подчёркивается важность применения современных педагогических технологий и интерактивных методов при организации самостоятельного обучения.

Ключевые слова: *самостоятельное обучение, учебная деятельность, студенты, педагогические технологии, эффективность образования, интерактивные методы, методика.*

METHODOLOGY FOR ORGANIZING STUDENTS’ INDEPENDENT LEARNING ACTIVITIES

This article analyzes the pedagogical and methodological foundations for effectively organizing students' independent learning activities. It highlights the issues of forming students' skills for independent work in the process of acquiring knowledge, developing their critical thinking, and increasing educational effectiveness. Furthermore, the article demonstrates the importance of using modern pedagogical technologies and interactive methods in organizing independent learning.

Keywords: *independent learning, educational activity, students, pedagogical technologies, educational effectiveness, interactive methods, methodology.*

Кириш. Замонавий таълим тизимида талабаларнинг мустақил ўқув фаолиятини ташкил этиш муҳим аҳамиятга эга. Олий таълим муассасаларида таълим жараёнини самарали ташкил этишда талабаларнинг мустақил билим олиш кўникмаларини шакллантириш асосий вазифалардан бири ҳисобланади. Чунки мустақил таълим талабаларда танқидий фикрлаш, таҳлил қилиш, ахборот билан ишлаш ва янги билимларни мустақил равишда эгаллаш қобилиятини ривожлантиради. Шу сабабли талабаларнинг мустақил ўқув фаолиятини самарали ташкил этишнинг педагогик ва методик асосларини ишлаб чиқиш долзарб масалалардан бири ҳисобланади..

Шу ўринда мустақил таълим тушунчасига изоҳ бериб ўтсак, *Мустақил таълим - олинган билим, кўникама ва малакаларни мустаҳкамалаш, қўшимча маълумот ёки материални мустақил ўрганиш мақсадидаги ўқув шакли*[1].

Мустақил фаолият муайян фандан ўқув дастурида белгиланган ҳамда талаба томонидан ўзлаштирилиши лозим бўлган билим, кўникма ва малакаларни шакллантиришни амалга оширишга ҳизмат қилади, ўқитувчи маслаҳати ва тавсиялари асосида аудиторияда ёки аудиториядан ташқарида бажарилади. Фаннинг хусусиятидан келиб чиқиб, мустақил иш турлари бўйича топшириқлар ишлаб чиқилади.

Педагогика соҳасида мустақил таълимни ташкил этиш масаласи кўплаб олимлар томонидан тадқиқ этилган. Хусусан, мустақил таълимнинг назарий асослари ва унинг таълим жараёнидаги аҳамияти қатор педагог-олимлар ишларида кенг ёритилган. Тадқиқотларда таълим жараёнида

талабаларнинг мустақил фаолиятини ташкил этиш, уларнинг билиш фаоллигини ошириш ҳамда шахсий ривожланишини таъминлаш муҳим омил сифатида қаралади.

Мавзуга доир адабиётлар таҳлили. Айрим тадқиқотчилар мустақил таълимни талабаларнинг билим олиш жараёнидаги фаол иштирокини таъминлайдиган ва уларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантирадиган муҳим педагогик механизм сифатида таърифлайдилар. Шунингдек, замонавий таълим технологиялари, ахборот-коммуникация воситалари ва интерактив методлар мустақил таълимни самарали ташкил этишда муҳим ўрин тутади.

Мустақил ишларни бажариш ва мустақил таълимнинг ижобий хусусиятлари олимлардан: В.И.Андриянованинг ўзбек мактабларининг 5-6 синфларида рус тили дарсида мустақил иш бажаришни ўргатиш, О.Б.Бердиева геометрия таълимида ўқувчиларнинг мустақил ишлаш кўникма ва малакаларини шакллантириш методикаси, Ў.Н.Султонова физикадан ўқувчиларнинг мустақил ўқув фаолиятини ташкил этиш методикаси, Ш.Юнусованинг ўқувчиларнинг мустақил ўқув фаолиятини шакллантириш, З.Нишонова, Ж.Толипова ва Н.Халиловларнинг мустақил таълим шакллари ҳақидаги тадқиқотларида кўриб чиқилган. Педагог олим С.Матжоновнинг тадқиқот иши ўқувчиларнинг мустақил ишларини ташкил этишга бағишланган бўлиб, унда дарсларда ўқувчиларнинг оғзаки ва ёзма ижодий ишларини ташкил этиш масалалари тадқиқ қилинган. Зеро, маънавий баркамол авлодни шакллантиришда ижодий ишлар ва мустақил фаолият юритиш ўз-ўзидан эркин тафаккурни талаб қилади. Мустақил тафаккури, ўз нуқтаи назарига эга бўлмаган ўқувчи ижодкор бўла олмайди, мустақил фаолият юритолмайди.

Олий таълим тизимида, Т.Р.Ниязметованинг «Ўзбек тили ва адабиёти дарсларида мустақил иш бажариш услубияти» мавзусидаги номзодлик диссертациясида умумий ўрта таълим жараёнида ўқувчиларнинг мустақил ишларини ташкил этиш йўллари ва унинг ўқувчини фаоллаштиришдаги аҳамияти ҳақида фикр юритилади.

О.Қўйсинов “Касб таълими йўналиши бўйича таълим олаётган бўлажак бакалавр-ўқитувчиларда мустақил билим олишга қизиқиш ва қобилиятни педагогик маданиятни такомиллаштиришга оид илмий ишларида мустақил билим олиш усулларига тўҳталиб ўтган[2]

Биз шартли равишда тажрибамиздан келиб чиқиб, мустақил ишларни уч турга ажратишни тавсия қиламиз:

1. **Ёзма мустақил топшириқларга қуйидагилар киради**: Ҳисоблаш учун берилган вазифаларни бажариш, умумлаштирувчи ва такрорланувчи жадвалларни тўлдириш, технологик хариталарни ишлаб чиқиш, лаборатория, амалий ишлар тўғрисида ҳисоботлар тузиш, турли органайзерлар асосида талабалар фаолиятини ташкил этиш ва бошқалар.
2. **График мустақил топшириқларга қуйидагиларни киритиш мумкин**: Турли лойиҳаларни тайёрлаш чизмачилик ишларини эскизлаштириш, кесмалар ва кесишмаларни тасвирлаш (айрим деталь ва тугунларни чизиб кўрсатиш ва ҳоказо), схемалар, графиклар, диаграммаларни тузиш, кузатиш натижаларини тасвирлаш ва шунга ўхшаш вазифаларни ўз ичига олади.
3. **Амалий характердаги мустақил топшириқларга қуйидаги вазифаларни киритиш мумкин:** Талабалар ўқитувчининг топшириғи асосида мустақил ишни бажариш жараёнида буюм ва маҳсулотларни тайёрлаш, жиҳоз ва асбоб-ускуналарни таъмирлаш, маҳсулотга ишлов бериш, ҳисоблаш, янги мосламаларни лойиҳалаш, макет ва моделлар, намуналар тайёрлаш каби ишларни амалга оширадилар.

Тадқиқот методологияси. Мустақил ишларни индивидуал-дидактик мақсадларни амалга ошириш нуқтаи назаридан ҳам 4 гуруҳга бўлинади [3]

- ❖ билимларни дастлабки шаклланишига, идрок қилишга ундайдиган вазифалар. бунда талабалар мақсадга эришиши учун нима талаб қилинишини билиши лозим. вазифалар - ахборотларни, маълумотларни ўзлаштиришга қаратилган бўлади;
- ❖ ўзлаштиришга ахборот, маълумотларни хотирада сақлаш ва қайта жонлантириш ва қайта ишлашга қаратилган топшириқлар. бунда аввал эгалланган билимларни тўғри жалб қилиш, фаоллаштириш асосида бажариладиган ҳамда аниқ шароитда татбиқ этиш талаб қилинадиган вазифалар берилади;
- ❖ аввал ўзлаштирилган, қолипга тушган, тажриба тўпланиши натижасидаги билим, малака, кўникмаларга янгича нуқтаи назардан ёндашишни талаб қилувчи топшириқлар. уларда масаланинг моҳиятини излаш, янгича ечимлар топиш, янгича ғоя, фикрлар билан ифодалашни талаб этиладиган вазифалар берилади;
- ❖ ижодий фаолиятга ундовчи топшириқлар.

Бунда, янги ёки олдиндан маълум бўлсада, унгача бошқача нуқтаи назардан қаралган ғоя, фикрларни тадқиқ қилиш, яъни ахборотлар тўплаш, улар устида ишлаш, ўз фикрини билдиришга ундайдиган топшириқлар, вазифалар берилади.

Бугунги кунда малакали мутаҳассис тайёрлаш жараёнини мустақил ишларсиз тасаввур қилиб бўлмайди. Чунки, айнан мустақил ишларни бажариш жараёнида ўқувчиларда танқидий, ижодий фикрлаш рефлекслари ривожлантирилади. Аммо мустақил ишларни ташкил этиш жараёнида маълум қийинчиликлар ва муаммолар ҳам мавжуд:

- тарқатма материалларни тайёрлаш масаласи. Педагог томонидан тайёрланган тарқатма материаллар ҳар бир талаба учун кўпайтирилиши лозим. талабалар сони ўртача 20 та бўлиши мумкин. ҳар бир тарқатма материални 20 тадан кўпайтириш учун маълум маблағ талаб этилади. педагог ҳар гал ўз ҳисобидан маблағ ажартиш имконига эга эмас;
- дарс жараёнида ташкил этилувчи мустақил ишларни баъзан кичик гуруҳларда ҳамкорликда ўқитиш усулидан фойдаланган ҳолда ўтказиш талаб этилади. Бунинг учун кичик гуруҳларда ишлашга қулай аудиториялар талаб этилади, аммо бундай имкониятлар айрим олийгоҳларда ҳозирча йўқ;
- кўпчилик педагоглар мустақил ишларни ташкил этиш маҳоратига эга эмас;
- мустақил ишларни бажариш учун талабалар талаб этилувчи билимлар билан яхши қуролланган, мавзуни чуқур ўзлаштирган бўлишилари лозим. Агар маъруза дарсида талаба етарли тушунчага эга бўлмаган бўлса, у топшириқни ижобий ҳал этиш имконига эга бўлмайди. шунинг учун мустақиш ишларни ташкил этишда аввалам бор билимларни фаоллаштириш, эслаш, корректировка қилиш ва ягона хулосага келиш мақсадга мувофиқ.

Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили. Бугунги кунда фан-таълим ва ишлаб чиқариш интеграцияси жараёни ҳам алоҳида эътиборга олиб, битирув малакавий иш мавзулари буюртмачилар билан маслаҳатлашган ҳолда танлаш мақсадга мувофиқдир. Битирув малакавий ишларнинг натижалари буюртмачилар томонидан баҳоланади ва реал вазиятларда улардан фойдаланилади.

Аудиториядан ташқарида бажариладиган мустақил ишлар лойиҳа ва кейс-стади усулидан фойдаланган ҳолда ўтказилиши талабларда ижодий кўникмаларнинг ривожланишига турики бўлади.

Аудиториядан ташқарида талабаларнинг мустақил фаолиятни ташкил этишга оид юқоридаги фаоляит тури билан танишиб чиқилгач талабаларга қуйидаги вазифани тақдим этиш мумкин. Мустақил фаолиятни ташкил этиш жараёнида ўқитувчи кўпроқ дидактик материаллардан фойдаланади.

Дидактик материалларга ўқувчиларнинг мустақил ва ижодий ишлаш ҳамда фикрлаш қобилиятларини ривожлантиришга йўналтирилган муаммоли, қизиқарли саволлар, ижодий топшириқлар, лойиҳалар ўйинлар, крассовордлар каби материаллар киради. Масалан (1- жадвал).

1-жадвал.

Дидактик материаллар турлари

Дидактик материаллар	Қизиқарли саволлар
	Муаммоли вазиятлар
	Анкета сўровлари
	Лойиҳалар
	Ижодий топшириқлар
	Ўйинли топшириқлар
	Красвордлар

Дидактик топшириқлар ва материалларни ишлаб чиқишда қуйидагиларга эътибор беришни мутахассислар тавсия қилишган[4]

1. Муаммоларни ҳал қилишга йуналтириш;
2. Тадқиқотлар олиб боришга йуналтириш;
3. Турли вазиятлар ва ҳолатлар таҳлилига қаратиш;
4. Тажрибалар ва машқлар ўтказишга мўлжаллаш;
5. Янгиликларни излаш ва топишга йўналтириш.

Мустақил ишларни ташкил этишда “оддийдан - мураккабга” ҳамда “умумийдан - хусусийга”, “мавҳумдан - аниқликка” қараб ҳаракатланишни таъминлаш лозим.

Аудиторияда мустақил фаолиятни ташкил этишга оид юқоридаги талаблар тизими билан танишиб чиққач, ўқитувчи аудиторияда олиб бориш мумкин бўлган дидактик ўйинлар билан талабаларни таништиради (Органайзерлар, интерфаол методлар, мустақил топшириқлар).

Талабаларни бир неча гуруҳга бўлади ва ҳар бир гуруҳга алоҳида вазифа топширади. Ҳар бир гуруҳ ўзига топширилган вазифа бўйича тақдимот тайёрлайди.

Ушбу фаолият натижаларини таҳлил этиш учун экспертлар гуруҳи тайинланади. Таълим муассасаларида талбаларнинг мустақил таълим олишига алоҳида эътибор қаратилиши таълим олувчиларда мустақил фикр ва ижодий фикрни ривожлантириш масаласи таълимнинг долзарб вазифаларидан биридир.

Талабаларнинг мустақил таҳсили уларни ўз билимларини кенгайтириш, чуқурлаштириш, мавжуд малака ва кўникмаларни такомиллаштириш ҳамда уларнинг янгиларини ўзлаштиришга бўлган интилишидир.

Мустақил таҳсилнинг асосий мақсади ўқувчиларни шахсий ва касбий сифатларини шакллантиришда ўз устида ишлаш устунлигидир. Мустақил таҳсилнинг асосий методи адабиётлар устида индивидуал ишлашдир. Бу метод ахборотлар оқимида энг зарур ахборотни топиш, унга баҳо бериш, ушбу ахборотдан ўзининг касбий фаолиятида фойдаланиш малакасини шакллантиради.

Талабалар мустақил ишини ташкил этишда муайян фаннинг ҳусусиятларини, шунингдек, ҳар бир талабанинг академик ўзлаштириш даражаси ва қобилиятини ҳисобга олган ҳолда қуйидаги амалга ошириш механизимларидан фойдаланилади[5]

-айрим назарий мавзуларни ўқув адабиётлари ёрдамида мустақил ўзлаштириш;

-сиёсий-маданий ижтимоий ва иқтисодий масалаларни тадқиқ қилишга бағишланган илмий адабиётларни конспект қилиш;

-семинар ва амалий машғулотларга тайёргарлик кўриш;

-берилган мавзулар бўйича реферат, ахборот тайёрлаш;

-ўрганилаётган фаннинг энг долзарб муаммоларини қамраб олувчи рефератлар ёзиш;

-муаммоли вазиятларни ечимини топиш;

-кейс стади асосида мустақил фаолиятни ташкил этиш;

-касбга оид бўлган лойиҳаларани тайёрлаш;

Ўқув дастуридаги айрим мавзуларни мустақил ҳолда ўзлаштириш, уйга берилган вазифаларни бажариш, амалий ва лаборатория ишларига тайёргарлик кўриб келиш, ижодий ва илмий-тадқиқот характеридаги ишлар аудиториядан ташқарида амалга оширилган мустақил ишлар қаторига киради.

Биринчи тур - ишлари талабаларнинг назарий ва амалий билимларини ўзлаштириб бориш даражаси, амалий машғулотларга (амалиёт, лаборатория, семинар дарслари) тайёргарлик савияси ва уй вазифаларининг бажарилиш сифатини текшириш мақсадида, одатда, назорат ишлари олиш, савол-жавоб, суҳбат, мунозара, амалий топшириқларни бажартириб кўриш ва ҳоказо[6]

Иккинчи тур - ишлар фаннинг ишчи ўқув дастурида аудиториядан ташқарида ўзлаштирилиши белгиланган мавзу бўйича маълумот ва ахборотларни мустақил равишда излаб топиш, таҳлил қилиш, конспектлаштириш (ёки реферат тарзида расмийлаштириш) ва ўзлаштириш, ижодий ёндашишни талаб қиладиган амалий топшириқларни бажариш кўринишида амалга оширилади. Бу турдаги ишларни бажариш жараёни ва ўзлаштириш сифатининг назорати дарсдан ташқари пайтларда, махсус белгиланган консультация соатларида амалга оширилади. Курс иши ва лойиҳасини, ҳамда битирув ишларини ташкил қилиш бўйича олиб бориладиган фаолият ҳам аудиториядан ташқарида олиб бориладиган мустақил ишлар қаторига киради[7]

Мустақил ишлар жорий ўқув жараёни билан биргаликда ва узвий боғлиқликда олиб борилади. Мустақил равишда билиш доирасини кенгайтириш ҳамда қўшимча назарий ва амалий материални эгаллаш талаба эгаллаётган касбий малака ва ишлаб чиқаришда мустақил ишлай билиш кўникмасини орттириш билан чамбарчас боғланган.

Адабиётлар билан мустақил ишлаши, уни ўқиб чиқиб тушуниш, эслаб қолиш нуктаи назардан эмас, балки маълум бир ўқув масалаларни (масалан, масала ечишни, курс лойиҳаси ва битирув иши лойиҳаларини) ҳал этиш учун зарур бўлган материалларни топиш ва уларни тизимлаштириш, таҳлил этиш нуқтаи назардан қараш керак. Реферат, курс иши ва битирув ишларининг вазифаси махсус фанларидан олинган назарий билимларни мустақил билим орттириш йўли билан амалий мустаҳкамлашдан иборатдир. Талабалар курс иши ёки битирув иши бажаришар экан, улар албатта, чизиш, ҳисоблаш, таҳлил ишлари билан бирга (бир вақтнинг ўзида) бажариладиган ишлар бўлиб, изланишлар ва прогнозлашнинг илғор усуллари асосида мустақил равишда олиб борилади. Талабаларда курс ишини бажариш малакасини шакллантириш, ҳамда талабаларнинг иқтисодий муаммони ечишдаги ижодий изланишлари қуйидаги усулларда олиб борилиши мумкин: - муаммони

атрофлича ўрганиш, унинг назарий жиҳатдан чуқур таҳлил этиш ва амалий ҳолатдаги четга чиқишларни аниқлаш, ҳатоликларни ахтариш ва уларни йўқотиш йўлларини ахтариш. Мазкур фаолиятнинг ютуғи шундаки, у талабаларни ижодий изланишларга, мулоҳазалар юритишига, янги ечимларни ишлаб чиқишга ундайди.

Хулоса қилиб айтганда, талабаларнинг мустақил ўқув фаолиятини самарали ташкил этиш таълим сифатини оширишда муҳим аҳамиятга эга. Мустақил таълим талабаларнинг билиш фаоллигини оширади, уларнинг мустақил фикрлаш, таҳлил қилиш ва муаммоларни ҳал этиш қобилиятларини ривожлантиради. Шунингдек, таълим жараёнида замонавий педагогик технологиялар ва интерактив усуллардан фойдаланиш мустақил ўқув фаолияти самарадорлигини янада оширади. Шунинг учун олий таълим муассасаларида мустақил таълимни ташкил этишнинг самарали методикаларини ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этиш муҳим вазифалардан бири ҳисобланади.

Адабиётлар:

1. Ҳасонбоев Ж., Тўрақулов Х. ва бошқалар. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Т.: “Фан ва технологиялар”, 2009. 355 бет
2. Мавлонова Р., Рахманкулова Н., Матназарова К., Ширинов М., Хафизов С. Педагогика. Дарслик. - Т.: “фан ва технологиялар” наширёти, 142 бет
3. Ярматов Р. Бўлажак ўқитувчи шахсини тарбиялаш ва ривожлантириш. – Т.: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2009.
4. Болтабоев С.А. Бўлғуси касб таълим талабларида ахборотдан фойдаланиш кўникмаларни шакиллантириш технологияси. Монография. - Т.: Низомий ТДПУ 2016 й.
5. Муслимов Н.А.,Қўйсинов О.А., Касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашда мустақил таълимни ташкил этишнинг назарияси ва методикаси. Монография «Фан» нашриёти 2009 й
6. Педагогиканинг тараққиёт тенденциялари ва инновациялари. Ўқув-услубий мажмуа. Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2016 йил 6 апрелидаги 137-сонли буйруғи билан тасдиқланган ўқув режа ва дастур асосида тайёрланган. Тузувчилар: Низомий номли ТДПУ п.ф.н., доц. М.Х. Умарова, катта ўқитувчилар А.У. Ахмадалиев, А.Б.Тўраев, М.П. Имомов. - Т.: 2016.

TA’LIM JARAYONIDA SOG‘LOM TURMUSH TARZI VA HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Maxmudov Baxtiyor Xayrullayevich,
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Ushbu maqolada ta’lim jarayonida sog’lom turmush tarzi va hayot faoliyati xavfsizligi madaniyatini shakllantirish masalalari ko’rib chiqilgan. Sog’lom turmush tarzining mazmuni, uning asosiy tarkibiy qismlari hamda pedagogik, psixologik va ijtimoiy ahamiyati tahlil qilingan. Xavfsiz xulq-atvor ko’nikmalarini shakllantirishda ta’lim tizimining o’rni asoslab berilgan, shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalar va zamonaviy o’qitish usullarining ahamiyati yoritilgan. O’quvchilarda sog’liq va xavfsizlik madaniyatini shakllantirishning samarali yo’llari taqdim etilgan.

Kalit so’zlar: *sog’lom turmush tarzi, hayot faoliyati xavfsizligi, xavfsizlik madaniyati, ta’lim jarayoni, pedagogik texnologiyalar, o’quvchilar, jismoniy faollik, sog’liq.*

ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ И БЕЗОПАСНОСТИ ЖИЗНЕДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

В данной статье рассматриваются вопросы формирования культуры здорового образа жизни и безопасности жизнедеятельности в образовательном процессе. Проанализированы содержание здорового образа жизни, его основные компоненты, а также педагогическое, психологическое и социальное значение. Обоснована роль системы образования в формировании навыков безопасного поведения, а также раскрыта значимость инновационных педагогических технологий и современных методов обучения. Представлены эффективные пути формирования культуры здоровья и безопасности у учащихся.

Ключевые слова: *здоровый образ жизни, безопасность жизнедеятельности, культура безопасности, образовательный процесс, педагогические технологии, учащиеся, физическая активность, здоровье.*

FORMATION OF A CULTURE OF A HEALTHY LIFESTYLE AND LIFE SAFETY IN THE EDUCATIONAL PROCESS

This article examines the issues of fostering a culture of healthy living and life safety within the educational process. It analyzes the concept of a healthy lifestyle, its core components, and its pedagogical, psychological, and social significance. The role of the education system in developing safe behavior skills is substantiated, and the importance of innovative pedagogical technologies and modern teaching methods is highlighted. The article also presents effective ways to cultivate a culture of health and safety among students.

Keywords: *healthy lifestyle, life safety, safety culture, educational process, pedagogical technologies, students, physical activity, health.*

Kirish. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri inson salomatligi va uning xavfsiz hayot kechirish madaniyatini ta’minlash hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim tizimi nafaqat bilim berish, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlashga qaratilgan bo‘lishi lozim. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayonida sog‘lom turmush tarzi va hayot faoliyati xavfsizligi madaniyatini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Sog‘lom turmush tarzi insonning kundalik hayotidagi odatlari, faoliyati va xulq-atvorini qamrab olgan holda uning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, hayot faoliyati xavfsizligi madaniyati insonning turli xavfli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, o‘zini va atrofdagilarni himoya qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuning uchun ta’lim jarayonida mazkur yo‘nalishlarni uyg‘unlashtirgan holda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Ta’lim siyosatini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlarida ta’lim tizimining ijtimoiy yo‘naltirilganligini kuchaytirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Bu borada bolalar va yoshlar o‘rtasida besarpanlik, asotsial xulq-atvor va ijtimoiy yetimlik holatlariga qarshi kurashishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, kam ta’minlangan oilalardan bo‘lgan o‘quvchilar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, yetim bolalar hamda

ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish ham dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Sog‘lom turmush tarzining mohiyatini ilmiy jihatdan aniqlashda turli yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular orasida falsafiy-sotsiologik, tibbiy-biologik va psixologo-pedagogik yondashuvlar alohida ahamiyatga ega. Falsafiy-sotsiologik yondashuv sog‘lom turmush tarzini jamiyat madaniyati va ijtimoiy siyosatining integral ko‘rsatkichi sifatida talqin etadi. Tibbiy-biologik yondashuv esa uni ilmiy asoslangan sanitariya-gigiyena meyorlariga tayanadigan gigiyenik xulq-atvor sifatida baholaydi. Psixologo-pedagogik yondashuvda esa shaxsning motivatsion-qadriyatli munosabati, ongi va xulq-atvori yetakchi omil sifatida qaralib, insonning o‘z ijtimoiy-madaniy muhitini shakllantirishi, “sog‘lom bo‘lish” kompetensiyasini egallashi hamda xavfsizlik madaniyatini o‘zlashtirishiga alohida e’tibor qaratiladi. Sog‘lom turmush tarzi inson hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan bo‘lib, uning asosiy elementlari sifatida o‘quv mehnati madaniyati va uni ilmiy tashkil etish, ovqatlanish va dam olish tartibini sanitariya-gigiyena talablariga muvofiq yo‘lga qo‘yish, jismoniy faollikning maqsadga muvofiq rejimini shakllantirish, mazmunli bo‘sh vaqtni tashkil etish kabi omillar namoyon bo‘ladi. Shuningdek, zararli odatlarni bartaraf etish, xavfsiz xulq-atvor madaniyatini shakllantirish, jinsiy va muloqot madaniyatini rivojlantirish ham sog‘lom turmush tarzining muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida “sog‘lomlikni saqlash texnologiyalari” va “sog‘lomlikni saqlovchi ta’lim muhiti” tushunchalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Sog‘lomlikni saqlash texnologiyalari o‘qitishning mazmuni, shakllari, usullari va vositalarining o‘zaro uyg‘un tizimi bo‘lib, u o‘quvchining sog‘ligini saqlash va uning rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan. Sog‘lomlikni saqlovchi ta’lim muhiti esa ijtimoiy-gigiyenik, psixologo-pedagogik shart-sharoitlar va fiziologik omillar majmuasi sifatida o‘quvchilarning jismoniy va ruhiy salomatligini shakllantirish, saqlash va mustahkamlashga xizmat qiladi. Sog‘lomlikka yo‘naltirilgan ta’lim makonida pedagog, tengdoshlar jamoasi va sog‘liqni saqlashga qaratilgan faoliyat o‘zaro bog‘liq holda faoliyat yuritadi. Pedagog sog‘lom turmush tarzi qadriyatlarini tashuvchi shaxs sifatida namoyon bo‘lib, o‘quvchilarda “sog‘lom bo‘lish” kompetensiyasini shakllantirishda yetakchi o‘rin tutadi. Shu bilan birga, sog‘lom turmush tarzi muhim qadriyat sifatida qabul qilingan tengdoshlar muhiti va ijtimoiy jihatdan ma’qullangan faoliyat turlari o‘quvchining ijtimoiylashuvi va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Pedagoglarning asosiy vazifasi o‘quvchilarga maqbul faoliyatni tanlashda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish va ularda jamiyatda o‘zini namoyon etish uchun zarur bo‘lgan asosiy kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Ushbu kompetensiyalar orasida “sog‘lom bo‘lish” kompetensiyasi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u shaxsning o‘z salomatligini qadrlash, uni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasini ifodalaydi. Bu kompetensiya insonning turli hayotiy vaziyatlarda sog‘liqni saqlashga qaratilgan to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini ta’minlaydi. Shunday qilib, zamonaviy sharoitda aholini hayot faoliyati xavfsizligiga tayyorlash va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda ta’lim tizimining o‘rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Faqat ta’lim orqali jamiyatda xavfsizlik madaniyatini yuksaltirish va inson omilining salbiy ta’sirini kamaytirish mumkin. Shu bois, ta’lim jarayonida o‘quvchi shaxsi markaziy o‘rinda bo‘lib, uning sog‘ligi eng muhim qadriyat sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta’lim jarayonida pedagogdan, eng avvalo, o‘quvchi va uning ota-onasi bilan munosabatlarda samimiylik va samimiy muloqot olib borish talab etiladi. Bu jarayonda ota-onalar bilan tushunarli tilda muloqot qilish, ularni hamkorlikka jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalardan esa bolalarning ta’lim jarayonidagi qo‘shimcha mashg‘ulotlarining ahamiyatini anglash, uy sharoitida zarur shart-sharoitlar yaratish hamda topshiriqlarni bajarilishini nazorat qilish talab etiladi. Pedagogik va o‘quvchilar jamoasi darajasida esa mazkur muammoning dolzarbligini anglash, faol o‘quvchilarni o‘qituvchilarga yordamchi sifatida jalb etish, sinf sha’ni, do‘stlik va jamoaviylik hissini shakllantirish muhim hisoblanadi. Shuningdek, o‘quvchining har qanday ijobiy natijalarini doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlash, uning yutuqlarini e’tirof etish orqali unda o‘z kuchiga ishonchni mustahkamlash zarur.

Sog‘lomlikni saqlashga qaratilgan pedagogika va maktab gigiyenasining asosiy vazifasi o‘quvchilarning mehnat va dam olish rejimini to‘g‘ri tashkil etish, ta’lim jarayonida yuqori ish qobiliyatini ta’minlash, charchoqni kamaytirish va ortiqcha charchashning oldini olishdan iborat. Ma’lumki, uzoq vaqt davomidagi faoliyat natijasida yuzaga keladigan charchoqni to‘liq bartaraf etishning imkoni yo‘q, shuning uchun faoliyatni to‘g‘ri taqsimlash va dam olishni samarali tashkil etish orqali charchoqning oldini olish mumkin. Umumiy o‘rta ta’limning asosiy bosqichida sog‘liqni saqlash va mustahkamlashga oid bilimlar “Kundalik hayotda shaxsiy xavfsizlikni ta’minlash” bo‘limi doirasida chuqurlashtiriladi.

Shu bilan birga, turli xavfli va maishiy vaziyatlarda jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish ko‘nikmalari “Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish” bo‘limi orqali shakllantiriladi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar sog‘lom turmush tarzini insonning kundalik xulq-atvor tizimi sifatida anglaydilar, uning jismoniy va ma’naviy sifatlarni rivojlantirishdagi ahamiyatini o‘zlashtiradilar, ratsional ovqatlanish asoslari hamda zararli odatlarning inson salomatligiga salbiy ta’siri haqida bilimga ega bo‘ladilar. O‘rta (to‘liq)

umumiy ta’lim bosqichida esa “Shaxsiy xavfsizlik va sog‘liqni saqlash” mavzusi doirasida o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarziga ongli ehtiyojni shakllantirish, oila va reproduktiv salomatlikni saqlashning huquqiy va ijtimoiy asoslarini o‘zlashtirishga alohida e’tibor qaratiladi. Shu bilan birga, 10–11-sinf o‘quvchilari murakkab holatlarda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish ko‘nikmalarini, jumladan, issiq urishi, elektr tokidan jarohatlanish, sing‘ishlar va qon ketish holatlarida amalga oshiriladigan yordam usullarini, shuningdek, sun’iy nafas oldirish va yurakni bilvosita massaj qilish kabi amaliy ko‘nikmalarni egallaydilar.

Sog‘lom turmush tarziga oid mavzularning o‘ziga xos xususiyatlari ta’lim jarayonida noan’anaviy usullardan foydalanishni taqozo etadi. Jumladan, integratsiyalashgan va binar darslar, ekskursiyalar, tibbiyot mutaxassislari ishtirokidagi uchrashuvlar, rolli va ishbilarmonlik o‘yinlari, musobaqalar tashkil etish orqali o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarziga qiziqish va ijobiy motivatsiya shakllantiriladi. Bunday faoliyat turlari o‘quvchilarda sog‘liqni saqlash va hayot faoliyati xavfsizligini ta’minlashga oid ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘quvchilarning to‘laqonli rivojlanishi uchun sog‘lomlashtiruvchi-sport faoliyati alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u tabiat qo‘ynidagi ekskursiyalar, sport o‘yinlari, spartakiadalar va sayyohlik yurishlari orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, mehnat faoliyati orqali o‘quvchilarda maishiy, ijtimoiy foydali va amaliy mehnat ko‘nikmalari shakllantiriladi. Sinfdan tashqari ishlar doirasida maktab hududini obodonlashtirish, tozalik kunlarini tashkil etish kabi tadbirlar ham muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ijodiy faoliyat esa o‘quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. U turli tanlovlar, ilmiy-tadqiqot ishlari, rasmlar, sahnalashtirilgan chiqishlar orqali amalga oshiriladi. Bu esa o‘quvchilarning shaxsiy salohiyatini ochib berishga yordam beradi.

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va o‘quvchilarda o‘z hayotiga mas’uliyatli munosabatni rivojlantirish pedagogik qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda profilaktik (preventiv) va tezkor (operativ) yordam turlari muhim ahamiyatga ega. Preventiv yordam o‘quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish, sog‘lom odatlarni qaror toptirish va shaxsiy xavfsizlikni ta’minlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning tadqiqot faoliyati ham sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Preventiv yordamning muhim yo‘nalishlaridan biri o‘quvchilarda o‘z qadr-qimmatini his qilish, ya’ni o‘zini va boshqalarni hurmat qilish, shaxs qadriyatini anglash hissini shakllantirishdan iborat. Bu jarayon sinf soatlari, individual va jamoaviy suhbatlar, hayotiy vaziyatlarni muhokama qilish kabi turli shakllarda amalga oshiriladi. Shuningdek, o‘quvchilarning ijodiy va loyihaviy faoliyati, maktab gazetalari va jurnallarini chiqarish, sog‘lom muhit yaratishga qaratilgan loyihalar ishlab chiqish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Operativ yordam esa bolaning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi vaziyatlarni o‘z vaqtida bartaraf etishga qaratilgan bo‘lib, u sinf rahbari, ota-ona, maktab psixologi va ijtimoiy pedagog ishtirokida amalga oshiriladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Aholining hayot faoliyati xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar davlat tomonidan amalga oshirilib, ular avvalo aholini, uning moddiy va madaniy qadriyatlarini muhofaza qilish, shuningdek shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan. Inson o‘z hayoti davomida turli xavfli vaziyatlarga duch kelishi mumkin. Ko‘p hollarda bunday vaziyatlar kutilmagan paytda, yordam bera oladigan shaxslarsiz yuzaga keladi. Shu sababli, xavfli holatlarda to‘g‘ri harakat qilish ko‘nikmalari nafaqat shaxsiy xavfsizlikni ta’minlash, balki atrofdagilarni qutqarishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Insonning kundalik hayotda va favqulodda holatlarda o‘zini to‘g‘ri tuta bilishi uning hayot faoliyati xavfsizligi madaniyati darajasini belgilaydi. Ushbu madaniyat esa maktab ta’limida “Hayot faoliyati xavfsizligi” fanini o‘zlashtirish jarayonida shakllantiriladi.

Ushbu fan doirasida o‘quvchilarni mahalliy xususiyatga ega bo‘lgan favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilishga tayyorlashga alohida e’tibor qaratiladi . 5–9-sinflar o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan o‘quv dasturlari doirasida ularni favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash quyidagi maqsadlarni ko‘zda tutadi: atrof-muhitga, shaxsiy sog‘liqqa va xavfsizlikka mas’uliyatli munosabatni tarbiyalash; turli xavfli vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilishga imkon beruvchi jismoniy va ma’naviy sifatlarni rivojlantirish; xavfli vaziyatlar va ularning oqibatlari haqida bilimlarni shakllantirish; xavfli holatlarni oldindan bashorat qilish, to‘g‘ri qaror qabul qilish va harakat rejasini ishlab chiqish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Ushbu maqsadlarga erishish “Hayot faoliyati xavfsizligi” fanining turli mavzularini o‘zlashtirish orqali ta’minlanadi. Jumladan, “Maishiy xavfsizlik”, “Yo‘llarda va transportda xavfsizlik”, “Kriminogen vaziyatlarda shaxsiy xavfsizlik”, “Tabiat qo‘ynida faol dam olish” hamda “Tabiiy muhitda avtonom yashash” kabi mavzular muhim o‘rin tutadi.

“Maishiy xavfsizlik” mavzusini o‘rganishda uy-joyda yong‘in xavfi, elektr xavfsizligi, maishiy gazdan xavfsiz foydalanish, kimyoviy vositalar bilan ishlash qoidalari, asbob-uskunalardan foydalanish, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari paytida xavfsizlik, kompyuterdan to‘g‘ri foydalanish hamda uyni suv bosishi kabi holatlar ko‘rib chiqiladi. Bu jarayonda o‘quvchilar xavfli vaziyatlarning kelib chiqish sabablari va ulardan

himoyalanish qoidalarini o‘zlashtiradilar. Shuningdek, favqulodda holatlarda binodan evakuatsiya qilish algoritmlarini amaliy jihatdan o‘zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yo‘llarda va transportda xavfsizlikni o‘rganish jarayonida piyodalar xavfsizligi, jamoat va shaxsiy transportda o‘zini tutish qoidalari, metro va temir yo‘l transportida xavfsizlik, muz ustida harakatlanish, suv va havo transportida xavfsizlik, ommaviy joylarda o‘zini tutish kabi masalalar tahlil qilinadi. O‘quvchilar turli xavfli vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilish, jumladan, yong‘in, panika, suvda halokat yoki muzga tushib ketish holatlarida o‘zini tutish qoidalarini amaliy jihatdan o‘rganadilar.

Kriminogen vaziyatlar bilan bog‘liq mavzular doirasida o‘quvchilar o‘zini jinoyatchilikdan himoya qilish, uy xavfsizligini ta’minlash, ko‘cha va jamoat joylarida xavfsiz harakatlanish qoidalarini o‘zlashtiradilar. Shu bilan birga, turli xavfli holatlarda, masalan, uyda yolg‘iz qolganda, notanish shaxslar bilan to‘qnash kelganda yoki tahdidli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Tabiat qo‘ynida faol dam olish mavzusi doirasida ekstremal holatlar, sayyohlikka tayyorgarlik, notanish hududlarda harakatlanish qoidalari o‘rganiladi. O‘quvchilar oriyentirlash, vaqtinchalik boshpana qurish, o‘t yoqish, suv va ozuqa topish, tabiatda xavfsizlikni ta’minlash kabi amaliy ko‘nikmalarni egallaydilar.

“Tabiiy muhitda avtonom yashash” mavzusida esa insonning majburiy holatda mustaqil yashashi sharoitida harakat qilish, vaziyatni baholash, qaror qabul qilish va harakat rejasini ishlab chiqish kabi muhim masalalar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, o‘quvchilar amaliy mashg‘ulotlar orqali tabiatda yashash ko‘nikmalarini shakllantiradilar. Bu jarayonda xavfli vaziyatlarni tahlil qilish va vaziyatli o‘qitish usullaridan keng foydalaniladi.

Favqulodda vaziyatlarning mahalliy xususiyatlariga oid mavzularni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar boshlang‘ich ta’lim bosqichidayoq kundalik hayotda (uyda, ko‘chada, tabiat qo‘ynida) shaxsiy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha muayyan bilimlarga ega bo‘ladilar. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mazkur bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish uchun 5–9-sinflar davomida haftasiga kamida bir soat dars ajratilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xavfsizlik madaniyatining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan umumiy ko‘nikma va malakalarni egallash o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiylashuvi uchun zarur shart hisoblanadi. Bu esa “Hayot faoliyati xavfsizligi” fanini o‘qitish jarayonida turli samarali ta’lim usullaridan foydalanishni talab etadi .

O‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish maqsadida kuzatish, o‘lchash, tajriba, eksperiment va modellashtirish kabi usullardan keng foydalanish zarur. Bu usullar o‘quvchilarda o‘rganilayotgan obyektning tuzilishini anglash, uning qismlari o‘rtasidagi funksional bog‘lanishlarni aniqlash, jarayonlarni bosqichlarga ajratish va sabab-oqibat munosabatlarini tushunish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Muammoli bayon usuli esa o‘quvchilarda vaziyatli masalalarni yechish uchun mos usullarni tanlash, ma’lum algoritmlarni turli sharoitlarda qo‘llash, tahlil qilish, taqqoslash, tasniflash va umumlashtirish kabi intellektual qobiliyatlarni rivojlantiradi. Shu bilan birga, amaliy va laboratoriya ishlari, mustaqil ijodiy topshiriqlar, loyihaviy faoliyat va sodda eksperimentlar o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘quv jarayonida rolli va ishbilarmonlik o‘yinlaridan foydalanish o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirish, axborotni qisqa yoki kengaytirilgan shaklda bayon qilish, muloqotga kirishish, boshqalar fikrini tushunish va hurmat qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, turli axborot manbalaridan foydalanish, jumladan ensiklopediyalar, lug‘atlar va internet resurslari bilan ishlash malakalarini rivojlantiradi.

Mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etishga qaratilgan topshiriqlar o‘quvchilarda maqsad qo‘yish, rejalashtirish, o‘z faoliyatini nazorat qilish va baholash, ehtimoliy oqibatlarni oldindan ko‘ra bilish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi. Bu esa ularning o‘zini-o‘zi rivojlantirish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi.

Guruhda ishlash usullaridan foydalanish o‘quvchilarda jamoaviy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ular o‘z faoliyatini boshqalar bilan muvofiqlashtirish, umumiy vazifalarni bajarishda o‘z hissasini baholash, turli ijtimoiy rollarni anglash, axloqiy va huquqiy meyorlarga rioya qilishni o‘rganadilar.

Ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Shu bois, an’anaviy darslar faoliyat turlarini tez-tez almashtirish, ko‘plab ko‘rgazmali materiallardan foydalanish orqali tashkil etilishi lozim. Shu bilan birga, tushuntirish, suhbat va namoyish usullarini amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish, o‘quvchilarni tabiiy va sun’iy ko‘rgazmali vositalar bilan ishlashga jalb etish maqsadga muvofiq.

Ta’limda tadqiqotchilik va qisman izlanish usullariga ustuvorlik berish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va faollikni rivojlantiradi. Yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish, oldingi bilimlarini faollashtirish ularni chuqurroq o‘zlashtirish imkonini beradi.

Muhokama. Nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish noan’anaviy ta’lim shakllari orqali samarali amalga oshiriladi. Jumladan, ekskursiyalar, rolli o‘yinlar, vaziyatli masalalar yechish, musobaqalar va loyihalar taqdimoti kabi usullar o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi.

Uyga vazifalarni tashkil etishda an’anaviy yodlash usullaridan ko‘ra ijodiy yondashuvga e’tibor qaratish lozim. Masalan, vaziyatli masalalar yechish, algoritmlar tuzish, ijodiy ishlar bajarish, kuzatish kundaligi yuritish kabi topshiriqlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Darsdan tashqari faoliyat ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u turli to‘garaklar, musobaqalar, turistik yurishlar va tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Bu esa o‘quvchilarda xavfsizlik madaniyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ta’lim jarayoni samarali tashkil etilganda o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarzi, xavfli vaziyatlar va ulardan himoyalanish usullari haqidagi bilimlar shakllanadi, shaxsiy xavfsizlikka mas’uliyatli munosabat rivojlanadi va turli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyati yuksaladi. Shuningdek, favqulodda vaziyatlarning tabiiy va texnogen turlari haqida bilim berish, ularda to‘g‘ri harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish ta’lim jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda o‘quvchilar turli tabiiy ofatlar, texnogen avariyalar va ularning oqibatlari, shuningdek aholini muhofaza qilish chora-tadbirlari haqida bilimga ega bo‘ladilar. Ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikka asoslangan munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Guruhli ishlash va musobaqaviy usullar o‘quvchilarda maqsadga intilish, liderlik sifatlari va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayonida sog‘lom turmush tarzi va hayot faoliyati xavfsizligi madaniyatini shakllantirish o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. U jismoniy sog‘liqni mustahkamlash, ruhiy barqarorlikni ta’minlash va ijtimoiy faollikni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o‘quvchilarda xavfli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, o‘zini va atrofdagilarni himoya qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv va noan’anaviy usullardan samarali foydalanish mazkur jarayonning samaradorligini oshiradi. Shu bois, ta’lim muassasalarida sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan tizimli ishlar olib borish, o‘quvchilarni faol hayot pozitsiyasiga ega shaxs sifatida tarbiyalash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Абаскалова Н.П. Методика обучения основам безопасности жизнедеятельности в школе: учеб. пособие для студентов пед. вузов / Н. П. Абаскалова, Л. А. Акимова, С. В. Петров. — Новосибирск: АРТА, 20 13. — 304 с.

2. Михайлов Л.А. Обеспечение психологической безопасности детей и подростков / Л.А. Михайлов, Е.Е. Алексеева, О.В. Шатрова. — СПб.: Союз, 2003.

3. Jurayev B. T. Pedagogik va psixologik fanlarni o‘qitish metodikasi // Fan va talim”. –Buxoro. - 2022.

4. Жумаева М. А. Педагог инновацион фаолиятининг функциялари // Psixologiya. – №. 3. – С. 74-78.

5. Жумаева М. А. Интерактивное обучение-гарантия качества // Вестник магистратуры. – 2019. – №. 4-3. – С. 66.

6. Ражабов Л. Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги дарсларида интерфаол усуллардан фойдаланиш //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 830-840.

7. Саидханова Н., Хусанова С. И. Хавфсизлик соҳасида “ҳаёт хавфсизлиги асослари” қоидаларини ўқитишнинг самарадорлиги // Oriental Art and Culture. – 2020. – №. III. – С. 489-493.

8. Хикматов М. «Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги» фанидан мавзуни ёритишда фойдаланиладиган интерфаол услуб //Актуальные вопросы развития современного общества, экономики и профессионального образования. – Российский государственный профессионально-педагогический университет, 2020. – С. 278-282.

ONTOGENEZNING ILK BOSQICHLARIDA INDIVIDNI PSIXIK TARAQQIYOTINING RIVOJLANISHI

Xalilova Muxabbat Ruzmurodovna,
Navoiy davlat universiteti“Pedagogika”
kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi
xalilovamuhabbat70@gmail.com

Ushbu maqolada ontogenezning ilk bosqichlarida individning psixik taraqqiyoti rivojlanish bosqichlari nazariy, amaliy va ilmiy jihatdan yoritilgan. Ushbu sohada olimlar tomonidan olib borilgan ishlar ilmiy asosda o‘rganilgan. Chaqaloq organizmining anatomik-fiziologik hamda morfologik tuzilishi tahlil qilingan.Chaqaloqlik davridagi psixik rivojlanish, ushbu davrda ijtimoiylashuvning eng murakkab psixofiziologik jihatlari, chaqaloq uchun tug‘ma mexanizmlar va yangi sharoitga moslashish shart-sharoitlari ko‘rib chiqilgan. Go‘dakda fazoviy tasavvurning boyishi jismlarni idrok etishdagi farqlash qobiliyatining takomillashuvi bilan bog‘liq ekani yoritilgan.Hayot tajribasining ortib borishi va mashqlar natijasida jismlarning shakli hamda belgilarini farqlash uquvi shakllanadi, javob reaksiyasi (ta’siri) esa o‘zining yuqori bosqichiga ko‘tariladi.Ilk bolalik davrida inson zotiga xos eng muhim sifatlar — xarakter xususiyatlari, atrof-muhitga va o‘zgalarga munosabat, xulq-atvor, tafakkur hamda ong kabi psixik aks ettirishning turli ko‘rinishlari shakllanadi. Bularning barchasi qarama-qarshiliklar kurashi asosida, ya’ni imkoniyat bilan intilish o‘rtasidagi ziddiyat rivoji natijasida tarkib topadi.Mazkur jarayonlar muallifning ko‘p yillik tajribalari, xulosalari va takliflari asosida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *ontogenez, psixofiziologik, anatomik-fiziologik, morfologik, psixik funksiyalar, shartsiz refleks, fiziologiya, antropologiya, psixik taraqqiyot, his-tuyg‘u, emotsional kechinmalar, xotira, diqqat, nutq, tafakkur.*

РАЗВИТИЕ ПСИХИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ИНДИВИДА НА РАННИХ ЭТАПАХ ОНТОГЕНЕЗА

В данной статье освещены теоретические, практические и научные аспекты этапов развития психического развития индивида на ранних стадиях онтогенеза. Работы, проведённые учёными в данной области, изучены на научной основе. Проанализированы анатомо-физиологическое и морфологическое строение организма новорождённого. Рассмотрены психическое развитие в период новорождённости, наиболее сложные психофизиологические аспекты социализации в этот период, врождённые механизмы у младенца и условия адаптации к новой среде. Освещено, что обогащение пространственных представлений у младенца связано с совершенствованием способности различать предметы в процессе их восприятия.

По мере накопления жизненного опыта и в результате упражнений формируется умение различать форму и признаки предметов, а ответная реакция (реакция воздействия) достигает более высокого уровня. В раннем детстве формируются важнейшие качества, присущие человеку — черты характера, отношение к окружающей среде и другим людям, поведение, мышление и сознание как различные формы психического отражения. Всё это формируется на основе борьбы противоположностей, то есть в результате развития противоречий между возможностями и стремлениями. Данные процессы изложены на основе многолетнего опыта автора, его выводов и предложений.

Ключевые слова: *онтогенез, психофизиологический, анатомо-физиологический, морфологический, психические функции, безусловный рефлекс, физиология, антропология, психическое развитие, чувства, эмоциональные переживания, память, внимание, речь, мышление*.

THE DEVELOPMENT OF AN INDIVIDUAL’S MENTAL DEVELOPMENT IN THE EARLY STAGES OF ONTOGENESIS

This article highlights the theoretical, practical, and scientific aspects of the stages of individual mental development in the early phases of ontogenesis. The studies conducted by scholars in this field are examined on a scientific basis. The anatomical-physiological and morphological structure of the newborn organism is analyzed. The article considers mental development during the neonatal period, the most complex psychophysiological aspects of socialization at this stage, innate mechanisms in infants, and the

conditions for adaptation to a new environment. It is emphasized that the enrichment of spatial perception in infants is associated with the improvement of their ability to differentiate objects during perception. As life experience accumulates and through practice, the ability to distinguish the shape and characteristics of objects develops, while response reactions (effects) reach a higher level. In early childhood, the most important human qualities are formed — character traits, attitudes toward the environment and others, behavior, thinking, and consciousness as various forms of mental reflection. All these are formed on the basis of the struggle of opposites, that is, as a result of the development of contradictions between possibilities and aspirations. These processes are presented based on the author’s long-term experience, conclusions, and recommendations.

Keywords: *ontogenesis, psychophysiological, anatomical-physiological, morphological, mental functions, unconditioned reflex, physiology, anthropology, mental development, feelings, emotional experiences, memory, attention, speech, thinking.*

Kirish. Ta’lim turlarining barcha bosqichlarida, ijtimoiylashishda uning samaradorligini oshirish ontogenez psixologiyasinnng qonuniyatlariga suyanmog‘i zarur. Bolalar jamoasi, oila muhiti, mehnat jamoalarida shaxslararo iliq munosabatlami shakllantirish yosh davri xususiyatlarini inobatga olishning mahsuli sanaladi. Hatto, kishining uzoq umr ko‘rishi va unda ishchanlik qobiliyatining saqlanishi, istiqbol rejasi va ezgu-maqsadi bilan yashashi ham yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda muloqotda bo‘lishning mevasidir.

O`zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘zining “Yangi O‘zbekiston Strategiyasi” nomli asarida quyidagi fikrlarni keltirib o‘tadi: - “Eng katta boylik - bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros-bu yaxshi tarbiya,eng katta qashshoqlik - bu bilimsizlikdir”.

Darhaqiqat yurtboshimizning ushbu fikrlari zamirida shaxs rivojlanishining umumiy psixologik qonuniyatlarining metodologik jihatlari alohida mazmun ifodasi bilan ajralib turadi. Chunki davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy, rivojlanishi inson resurslariga bog‘ligini hayotning o‘zi isbotlamoqda.

“Farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyatini hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi”.

Davlatimiz rahbarining yosh avlod kelajagi uchun bildirgan oliy fikrlari ertangi kunimizning davomchilari bo‘lgan, kelajak poydevorining mustahkamligi va tayanchi ta’minlaydigan inson resurslarini ro‘yobga chiqaradigan barqaror taraqqiyot uchun xizmat qiladigan shaxlarni shakllantirishga alohida mas`uliyat bilan yondoshishi bejiz emas.

Maktabgacha yosh davri bolalar hayotida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda bolaning nafaqat jismoniy, balki psixologik rivojlanishi ham jadal kechadi. Bolaning fikrlashi, xotirasi, diqqat-e’tibori va nutqi aynan shu davrda shakllanadi

Ushbu muommolarni huquqiy jihatdan bartaraf etish va rivojlantirishda hukumatimiz tomonidan hayotga tadbiq etilayotga strategik rejalar buning yaqqol isbotidir.

Shunday ekan intellektual va madaniy rivojlanish ontogenezning ilk bosqichlarida shaxs psixik taraqqiyotining rivojlanishga xos xususiyatlaridan biri ekanligi va buning uchun ilk yoshdan boshlab bolalarning psixik taraqqiyotiga ilmiy, nazariy jihatdan yondashish dolzarb muammolardan biridir.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. XX asr boshlarida yosh psixologiyasi faning rivojlanishi muammosi ilmiy asosalarga tayangan holda olib borildi. Bu sohadagi tadqiqotlar rus pedagogik – psixologiyasida yetakchi o‘rinni egalladi. Bu muammoni o‘rganishga turli soha mataxassislari, eng kuchli nazariy bilim sohiblari, xususan, V.M.Bexterev, P.F.Lesgaft, I.P.Pavlov o‘zlarining ilmiy tadqiqotlarida asoslab berdilar.

Muammoni nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish uchun kuchli psixologlar jamoasi shakllandi. Ular qatoriga P.P. Blonskiy, P.F. Kapterev, A.F. Lazurskiy, N.N.Lange, A.P.Nechaev, M.M. Rubinshteyn, N.E. Rumyansev, I.A. Sikorskiy, G.I. Chelpanovlarni keltirib o‘tish mumkin.

Shaxsning rivojlanish bosqichidagi psixik taraqqiyotiga muammosi masalasida A.V.Vegtskiy quyidagi nazariy fikrlarni keltirib o‘tadi.

L.S. Vigotskiy (1896-1934) eng mashhur rus psixologi va faylasuflaridan biridir. Olim o‘z ilmiy qarashlarida ilgari surgan ko‘plab g‘oyalar bevosita bolalarning psixik taraqqiyotiga oiddir. L.S.Vigotskiyning oliy psixik fimksiyalar shakllanishi haqidagi qonuni bolalar tarbiyasi va ta’limini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Psixolog ilmiy qiziqishlarining markazida bolaning ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti masalasi turadi. L.S. Vigotskiyning izlanishlari oliy psixik funksiyalar, ya’ni ixtiyoriy xotira va diqqat, tafakkur, irodaviy harakatlami bevosita miyaning faoliyati bilan tushuntirib bo‘lmasligini, ushbu fiinksiyalaming mohiyatini tushunish uchun ulaming ildizlarini ongimizdan tashqaridagi ijtimoiy muhitdan

izlash lozimligini ko‘rsatdi. Aynan L.S. Vigotskiyning ilmiy qarashlari ijtimoiy muhit ahamiyatini aniqlashtirishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qildi.

Insonning rivojlanishi masalasini ham V.N.Myasishchev munosabatlaming shakllanishi bilan chambarchas bog‘laydi. Kuzatishlar va tabiiy eksperimentlaming ko‘rsatishicha, shartsiz reflektor ta’sirida reaktivlik paydo bo‘ladi.

Shunday qilib, rus psixologlari - L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyev, V.N.Myasishchev ilmiy qarashlarining qisqacha tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu olimlaming izlanishlarida inson psixik taraqqiyoti masalasi markaziy o‘rin egallagan. Har bir olim o‘z ilmiy yondashuviga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, ulaming barchasini psixik taraqqiyotning manbalari va qonuniyatlari bilan bog‘liq muammolar qiziqtiigan. Rus psixologlarining ushbu muammolarni o‘iganish sohasida qo‘lga kiritgan yutuqlari psixologiya fanining, shu jumladan, bolalar psixologiyasining taraqqiyoti uchun xizmat qildi va qilib kelmoqda.

Tafakkur va nutq muammosi psixologiya fanining eng qadimiy va muhim muammolaridan biri hisoblanadi. U nafaqat psixologiyaning markaziy masalasi, balki bir qator boshqa fanlar tomonidan ham chuqur o‘rganiladi. Inson tafakkuri va nutqi biologik va ijtimoiy rivojlanish jarayonida hamda individual hayot davomida juda murakkab shakllanadi. Shu sababli uni faqat bitta fan doirasida o‘rganish yetarli emas. Bu muammoni hal qilish uchun mantiq, psixologiya, tilshunoslik, pedagogika, fiziologiya, antropologiya va boshqa fanlarning hamkorligi zarur.

O‘zbekistonlik psixologlar ham psixologiyaning turli rivojlanishida ko‘pgina ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar. M.G. Davletshin “Qobiliyatlarni rivojlanishi”, “Texnik qiziqishlar”, “Qiziqish va ta’lim”, kabi ko‘plab ilmiy-uslubiy qo‘llanmalar, M.Vohidov “Bolalar psixologiyasi”, E.G‘oziyev “Tafakkur psixologiyasi”, “Xotira psixologiyasi”, “Shaxs psixologiyasi”, B.Qodirov “Qobiliyat va iqtidor”, G‘.Shoumarov “Oila psixologiyasi” mazmunida boshqa shu kabi ko‘plab darslik va qo‘llanmalar yaratdilar.

Lekin shunga qaramay bolalar psixologiyasi fanida ko‘plab muammolarni yechish lozim. Bu bizning galdagi vazifamizdir.

Faoliyat nazariyasi nuqtayi nazaridan faoliyat inson ongi shakllanishining sharti va omili, ong faolligining shaklidir. A.N.Leontyev o‘z izlanishlarida faoliyatnng bola taraqqiyotiga ta’siri muammosini ham chuqur o‘igangan. Tadqiqot natijasida faoliyat nazariyasi doirasida “yetakchi faoliyat” tushunchasi shakllandi.Yetakchi faoliyat deganda taraqiqotning muayyan davrida bola shaxsidagi asosiy psixologik o ‘zgarishlarga sabab bo`luvchi faoliyat tushuniladi.

Darhaqiqat, shaxning psixik taraqqiyotiga zamonaviy nuqtayi nazardan yondashadigan bo‘lsak, fanlararo uzviylik, izchillik, hamkorlik masalasi bugungi har tamonlama global tarzda faoliyat yurita oladigan psixologik jihatdan to`laqonli innovatsion resurslarni tadbiq eta oladigan muloqatni yuzaga keltiradi.

Abdulla Avloniyning «Tarbiya – biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir» degan fikri oliy tafakkur mahsulidir.

Chunki bugungi kunda tarbiyani qachon berish kerak? Kimga berish kerak? Qanday qilib tarbiyalash kerak? degan savolning tug‘ilishi ushbu fikr mazmunidagi har bir ruhiy taraqqiyot davomida yuzaga keladigan:

1. mamot
2. najot
3. halokat
4. saodat
5. falokat tushunchalarni o‘z ichiga oladi.

Darhaqiqat, yaxshi tarbiya olgan, kelajakni oldindan idrok qila oladigan, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘ladigan kishigina yuksak tafakkur egasi bo‘la oladi. Yuksak tafakkur esa tarbiyani – hayot, ijodiyot, yangilanish kabi sifatlar bilan boyitadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Voqelikdagi narsa va hodisalar to‘g‘risidagi tushunchalar tarixan – insoniyat olamining psixik taraqqiyoti davomida va har bir kishining bolalikdan boshlab to umrining oxirigacha ontogenez rivojlanishida ongida takomillashib boradi.

Insoniyat olami dunyo yuzini ko`rganidan umrining axirigacha sensor taraqqiyot jarayonida shaxs bo`lib shakllnib boradi.Ko`p hollarda shu narsa kuzatiladiki sensor tarbiyaga bir yoqlama qarash hollari ko`zga tashlanib qoladi.Vaholanki insoniyat olami vujudga kelgan davrdan boshlab, atrof-olamdan ayri holda yashay olmaydi. Darhaqiqat, ilk yoshdagi bola dunyo yuzini ko‘rish bilan barobarida unga butun umri va rivojlanishi uchun sog‘lom qulay bo‘lgan sensor etalonlarini rivojlantirishga qaratilgan muhit zarurdir. Ushbu muhitning mazmunan boy bo‘lishi sensor tarbiyani shakllantirishga qaratilgan asosiy metodikaning zarurligi va ushbu metodikani faoliyat jarayoniga to‘g‘ri qo‘llay oladigan, tarbiyachilardan tashkil topgan ta’limiy jarayon shakllangan bo‘lishi zarur va kechiktirib bo‘lmaydigan va xotoliklarni qaytarib

bo‘lmaydigan vaqtni talab etadi.Chunki bolalik deb qaraydigan oddiy tushuncha zamirida olamni yaratuvchi, kelajakni ta’minlovchi kabi abadiyat tushunchalar yotadi.

Darhaqiqat, bolaning har bir kuni kichik –kichik soniyalardan tortib ma’lim rivojlanish bosqichigacha qamrab olinadigan davrlarini orqaga qaytarib bo‘lmaydi.Shuni nazarga olib bolada kechadigan bilish jarayonlarini metodik jihatdan to`g`ri tashkil etishni talab etadi.

Individni ontogenez rivojlanishidagi chaqaloqik davri ijtimoiylashuvning ing murakkab psixofiziologik jihatlaridan biridir. Odamzod bolasi boshqa jonzodlar bolasiga nisbatan ancha zaif tug‘iladi. Unda zarur fiziologik funksiyalarning kechishi uchun zarur bo’lgan shartsiz reflekslari, himoya refleksi va orientirovka reflekslaridir. Chaqaloqlik davrida bosh miyaning rivojlanishining zarur sharti – analizatorlarning aktiv ishlashidir. Agar chaqaloq sensor izolyatsiya holatiga tushib qolsa, uning rivojlanishi

keskin ravishda orqada qola boshlaydi. 2-3 oylikka borganda bolaga tashqi muhitga va kattalarga nisbatan maxsus emotsional harakat paydo bo’ladi.

Oyog‘i va qo‘llari bilan tipirchilay boshlaydi. Bu reaksiya jonlanish kompleksi deb ataladi. Uning paydo bo‘lishi chaqaloqlik davri tuguganligini bildiradi. Chaqaloq tug‘ilganda uning ovqatlanish reflekslari ma’lum darajada shakllangan: asosan, so‘rish, emish reflekslari o‘z vazifasini ado etishga tayyor bo‘ladi. Chaqaloqning labiga va tilining shilimshiq pardasiga biror qo‘zg‘atuvchi tegishi bilan unda ixtiyorsiz ravishda so‘lak ajrala boshlaydi. Ona ko‘kragini emishda uning boshqa har qanday harakatlari sekinlashadi

yoki mutlaqo to‘xtaydi. Psixologlar M.P.Denisova va N.L.Figurinlar chaqaloqlardagi mazkur jarayonni chuqur tadqiq qilib **“ovqatga yo‘nalish”** reaksiyasi deb atadilar. I.P.Pavlov ta’biricha, bunda shartsiz reflekslar vujudga kelib, u idrok qilinadigan narsaga idrok qiluvchi organni qo‘zg‘atuvchi eng qulay yo‘nalishida aks etadi. Natijada emish mexanizmining ta’siridagi xatti-harakatlar qisman yoki butunlay tormozlanadi. Psixolog V.S.Muxinaning fikricha, chaqaloqda tug’ilishiga qadar ham shartsiz reflekslar bo’lishi, unga homilalik paytidayoq o‘z qo‘lini so‘rish imkonini yaratadi.

Kindik tushish davri organizmda keskin o’zgarishlar yuz berish pallasi hisoblanib, murg’ak organning mustaqil yashayotganidan dalolat beradi. Chaqaloqning oldingi vazniga yetish davri hayotining birinchi o‘n kunligiga to‘g‘ri keladi. Chaqaloqning anatomik-fiziologik tuzilishini tahlil qilsak, uning suyak sistemasida ohak moddasi va har xil tuzlar yetishmasligining guvohi bo’lamiz. Shu sababli suyak funksiyasini ko‘proq tog‘ay to‘qimalari bajaradi. Bosh suyaklari bolaning ikki oyligida o‘zaro qo‘shilib ketadi. Bosh suyakning peshona va tepa qismlari o’rtasida **liqildoq** deb ataladigan qalin parda va teri bilan qoplangan oraliq mavjud bo‘ladi. U bola bir yoshdan oshganidan keyin suyak bilan qoplanib boradi, lekin u haqiqiy suyak bo‘lmaydi. Ye.A.Arkinning fikricha, chaqaloqlik davrining kuchli jihatlari ko‘pincha uning o‘sish quvvatida o’z ifodasini topadi. U har oyda ikki sm dan o’sadi, uning og‘irligi har kuni 1,6–2 grammdan ortib boradi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Chaqaloqning hayoti qichqiriq sadosi bilan boshlanadi va bu ko‘pincha shartsiz reflektor xususiyatidan kelib chiqadi. Dastlabki qichqiriq tovush chiqarish oralig‘i qisilishining bevosita mahsuli sifatida, organizmning tabiiy ehtiyoji natijasida vujudga keladi. Qisilish avval nafas olish refleksini ham boshqaradi. SHunga qaramay, mutaxassis olimlarning fikricha, birinchi qichqiriq – noxush his-tuyg‘uning namoyon bo‘lishidir. Qisilish tanglik (zo’riqish) tuyg‘usini vujudga kelishidir. Shuning uchun chaqaloqdagi muskul reaksiyasi bilan emotsional munosabatni farqlash ancha qiyin. Qichqiriq noxush kechinma va sezgilarga javob tariqasida vujudga kelib, issiqqa, ochlikka va namlikka qarshilik vazifasini bajaradi. Chaqaloqni to’g’ri tarbiyalash jarayonida qichqiriq emotsional kechinmalarning yana bir turi yig‘lashga aylanadi. Yig‘lash bola jismoniy og‘riqni, ruhiy qayg’uni, iztirobni tabiiy aks ettirishining manbai bo‘ladi, tashqi olam bilan aloqa o‘rnatishning eng zarur vositasi sifatida chaqaloqning hayot faoliyatida alohida ahamiyat kasb etadi. U noxush his-tuyg’ularnigina aks ettirib qolmay, tabiiy ehtiyojlarni qondirish mexanizmi sifatida xizmat qilishi mumkin.

Bola bir oyga to‘lgach o‘zini parvarish qilayotgan odamga intiladigan, talpinadigan bo‘ladi va buning misoli tariqasida uning kishilar orasidan “o‘z” kishisini tanishi va ajratishini aytish mumkin.

Mazkur psixologik holatni N.L.Figurin va M.P.Denisovalar ***“jonlanish”*** deb ataganlar. Bu davrda bolaning psixik dunyosida tetiklik, his-tuyg’usida esa atrof-muhitdan ta’sirlanish o’z aksini topadi. Ularning fikricha, bolaning katta yoshdagi odamlarga o’z munosabatini bildirishi uning bundan keyingi o‘sishini belgilovchi bosqich vazifasini o’taydi.

“Jonlanish” bolaning kattalar bilan o’ziga xos ravishda munosabatga kirishining yangi shakli sifatida vujudga keladi. Lekin tashqi qo‘zg‘atuvchining qitiqlashiga javob tariqasida namoyon bo‘ladigan “jonlanish”ning tabiati hali ochilgani yo’q. Ehtimol, bu holat bolaning kattalar bilan muloqotining maxsus ko’rinishi va ovqatlanish refleksining mustahkamlanishi bilan bog’liqdir, u balki bolada ijobiy his-tuyg‘ularni qo‘zg‘atish omilidir. Ba’zan bolada o‘zini parvarish qiluvchi shaxsning muomalasi tufayli emotsional harakatlar vujudga keladi, natijada uning qo’l va oyoqlari harakati ildam va tez amalga oshadi. Bu jarayon intilish, iltijo, talpinish kabi tashqi ifodaga ega bo’lgan ichki psixik kechinmalarda o‘z aksini topadi.

Chaqaloq nerv sistemasining yuksak darajada rivojlangan qismi, ya’ni bosh miya katta yarim sharlari tashqi ko’rinishi bilan katta odamnikiga aynan o‘xshasa ham, aslida undan ko‘p farq qiladi. Odamlarni o‘zaro qiyoslasak, ajoyib manzarani ko‘ramiz: miyaning og‘irligi chaqaloq tanasining sakkizdan bir va katta odamlarda esa qirqdan bir qismini tashkil etadi. Chaqaloqlarda bosh gavdaga nisbatan kattaroq ko’rinsa-da, u hali juda bo’sh, mukammallashmagan bo‘ladi. Ularning organizmi jadal sur’at bilan o‘sish davridan o‘tadi. Bu davrda chaqaloqning og‘irligi 3–5 kg bo‘lishiga qaramay, miyasining og‘irligi 300–350 grammni tashkil qiladi, xolos. Chaqaloqning miyasi hujayralarining miqdori, “ariqchalar”ning yaqqol ko’zga tashlanmasligi, nerv hujayralari tarmog’i jihatdan katta odamlarning miyasidan farq qiladi.

Sharq allomalarining fikricha, chaqaloqda tug‘ma reaksiyalarning boshqa guruhi ham mavjud bo’lib, beshik tebratilganda chaqaloqning yig‘idan to‘xtashi, ixtiyorsiz harakati sekinlashuvi shundan dalolat beradi.

Go‘daklik davri. 2-3 oydan 1 yoshgacha davrni o’z ichiga oladi. Bu yosh davrda yetakchi faoliyat kattalar bilan emosional muloqotdir. Bu muloqot sekin-asta birgalikda faoliyatga aylanib boradi. Muloqot davomida nutqning asoslari rivojlanib boradi. 2 oydanoq bolalarda g‘o‘ldirash belgilari paydo bo‘ladi. S.Fayans tajribasida go’dakka chiroyli va jozibador o‘yinchoqlar 9 sm masofadan ko’rsatilganda u butun vujudi bilan ularga intilgan, keyinchalik oraliq 60 sm bo’lganida bolaning intilishi, qo’l cho’zishi,

sustlashgan, va nihoyat, ular 100 sm dan ko’rsatilganda bolada intilishi, cho’zilishi, ixtiyorsiz harakati mutlaqo so‘ngan. U o‘yinchoq bilan bir qatorda turgan katta kishiga ham ana shunday befarq qaragan. Masofa qanchalik qisqarsa, bolaning unga intilishi, qiziqishi shunchalik kuchayib borishini kuzatish mumkin. M.Yu.Kistyakovskayaning ma’lumotiga ko’ra, 3–4 oylik go’dak unga yuzlangan, erkalatgan, muloqotga kirishgan har qanday odamga tabassum qiladi yoki erkalanadi, 5–6 oylikda u muomala qilayotgan notanish shaxsga bir oz tikiladi, keyin yo kulimsiraydi yoki undan yuzini o’giradi, hatto, qo’rqib yig’lab yuboradi.

R.Ya.Abramovich – Lextman go’dakning bir yoshgacha davrida predmetlar bilan harakat qilishini o’rganib, ularning oltita rivojlanish bosqichidan iborat ekanligini aytadi. Bular: a) faol sergaklik (tetiklik) – 2 haftalikdan 4–5 haftalikkacha; b) sensor faollik – 1,5 oylikdan 2,5–3 oylikkacha; v) harakatoldi – 2,5–3 oylikdan 4–4,5 oylikkacha; g) sodda “sermahsul” harakat – 4 oylikdan 7 oylikkacha; d) o’zaro bog’langan (uyg’un) harakat – 7 oylikdan 10 oylikkacha; ye) funksional harakat – 10–11 oylikdan 12–13 oylikkacha davom etadi. Muallif har bir bosqichning o’ziga xos xususiyatlarini ham sxematik, ham tekstual tarzda ifodalagan. D.B.Elkoninning fikricha, bir yoshgacha bola psixikasi o’sishining o’ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: 1) kattalar nutqini tushunish hamda dastlabki so’zlarni mustaqil talaffuz qilish; 2) predmetlar bilan xilma-xil harakatlarni uyg’unlashtirib, ish–harakatini bajarish; 3) yurishga urinishning ro’y berishi; 4) xatti-harakatni so’z bilan boshqara olish; 5) so’z bilan go’dakning idrok qilish faoliyatini boshqarish va hokazolar.

Sekin-asta taqlid asosida bola ona tilining fonemasini o’zlashtira boshlaydi. 1 yoshda bola 30-40 ta so’zni o’zlashtirish kerak. Kattalar bilan muloqot davrida bolaga yurish, predmetlar bilan harakat qilish o’rgatilgandagina bola tarbiyalanadi va psixik taraqqiyot yuz beradi.

O.Bryune ma’lumotlariga ko’ra bolalar hayot sharoiti va tarbiya uslubidan qat’iy nazar psixik rivojlanishda bir xil natija ko’rsatadilar. 1 yoshgacha bo’lgan davrda ota-onasidan ajralgan bolalar oiladagi sharoitidan qat’iy nazar psixik rivojlanishdan orqada qolar ekanlar.

1 yoshgacha bo’lgan davrda bola psixik jarayonlar va sifatlarning rivojlanishida katta natijalarga erishadi. Avval boshini tutishni, emaklashni, 6 oyga borib, o’tirishni o’rganadi. 3-4 oylikdayoq predmetlarni ushlay boshlaydi va harakatlarni namoyon qiladi. Bu harakatlar avvaliga tartibsiz bo`lib, bola ko’p xato qiladi, keyinchalik sekin-asta harakatlar aniqlasha boradi. Go’dak predmetlar bilan oddiy maniqulyasiya qilishni o’rganadi. So’ngra bu oddiy harakatlar ichki planga – ko’rish idroki planiga o’ta boshlaydi. Go’daklikning oxiriga kelib bolalarga taqlidchanlik kuchayadi. R.Ya.Abramovich – Lextman go’dakning bir yoshgacha davrida predmetlar bilan harakat qilishini o’rganib, ularning oltita rivojlanish bosqichidan iborat ekanligini aytadi. Bular: a) faol sergaklik (tetiklik) – 2 haftalikdan 4–5 haftalikkacha; b) sensor faollik – 1,5 oylikdan 2,5–3 oylikkacha; v) harakatoldi – 2,5–3 oylikdan 4–4,5 oylikkacha; g) sodda “sermahsul” harakat – 4 oylikdan 7 oylikkacha; d) o’zaro bog’langan (uyg’un) harakat – 7 oylikdan 10 oylikkacha; ye) funksional harakat – 10–11 oylikdan 12–13 oylikkacha davom etadi. Muallif har bir bosqichning o’ziga xos xususiyatlarini ham sxematik, ham tekstual tarzda ifodalagan.

Go’daklik davrida kattalar bilan faol aloqaga kirishish ehtiyoji tug’iladi va bu aloqa nutq davrigacha muloqotning o’ziga xos yangi shakli sifatida bolaning o’sishida muhim rol o’ynaydi. Bir yoshgacha davrda paydo bo’lgan ehtiyojning tobora chuqurlashuvi bilan nutq davrigacha muloqot cheklanganligining nomutanosibligi bir yoshdagi inqirozni keltirib chiqaradi. Vujudga kelgan qarama-qarshilik o’z yechimini nutq orqali muloqot davrida topadi va bola o’sishning bir bosqichidan ikkinchi bosqichiga o’tayotganini ifodalaydi. Go’dakning nutq faoliyati takomillashgan sayin muloqotning mazmuni boyib, ko’lami kengayib boradi. Natijada haqiqiy ma’nodagi shaxslararo munosabat vujudga keladi, go’dakning shaxsga aylanishi va ijtimoiylashuviga keng imkoniyatlar yaratadi. Mazkur davrda go’dakning o’sishini ta’minlovchi ob’yektiv va sub’yektiv sharoitlar yaratilishi – bolaning faolligi ortishi uchun psixologik negiz bo’ladi.

Ilk bolalik davri. Ilk bolalik davrining oxiriga kelib boshqa faoliyat turlari, masalan, qiyin va produktiv faoliyati (rasm chizish, plastilindan narsa yasash) rivojlana boshlaydi.

Ilk bolalik davrida predmetlik faoliyati asosida tafakkur rivojlana boshlaydi. Tushunishning eng qulay (senzitiv) davri bir yoshdan bir yarim yoshgachadir. Bu davrda bola predmet va jismlarning nomlarini yengil o’zlashtirib oladi.Jismlar bilan turli harakatlarni o’zlashtirishda ulardagi muhim va o’zgarmas alomatlarni ajratish ko’nikmasi hosil bo’ladi, natijada umumlashtirish va umumiy tushunchalarni o’zlashtirish jarayoni ro’y beradi. Yangi sharoitda predmetli harakatdan foydalanish bolaning aqliy o’sishiga ijobiy ta’sir qiladi.

O’z xatti-harakatini kattalarning harakati bilan solishtirish va uning o’xshash jihatlarini topish bolaning aqliy o’sishi uchun muhim ahamiyatga ega. Aqliy o’sishni to’g’ri yo’naltirish uchun bola bilan maxsus reja asosida mashg’ulotlar o’tkazish maqsadga muvofiq. Achchiqlanish, jahl qo’zg’alishi, qahru g’azab tuyg’ularining xususiyatini tadqiq qilgan T.E.Konnikova ma’lumotlariga binoan, bir yoshli bolada ko’pincha bezovtalanish, xatti-harakatdagi “portlash”, qahri qattiqlik yuzaga keladi. Olimaning fikricha, uning psixikasida paydo bo’layotgan xulq hosilasi tirishqoqlikning o’ziga xos ko’rinishidan iborat bo’lib, u o’zi yoqtirgan narsani tezroq qo’liga olish xohishi bilan uzviy bog’liqdir.

Odatda, affektiv holatga berilishni yoki affektiv ta’sirlanishni bola kattalar bilan muloqotda psixik jihatdan qoniqmasligi hosil qiladi. Psixologik ma’lumotlarga ko’ra, “portlash”, “lov etish” xususiyatiga ega bo’lgan affekt quyidagi sabablar bilan vujudga keladi: 1) kattalar bolaning xohish-istaklarini tushunmasligi, imo-ishorasi va yuz-chehra harakatlariga, pantomimikasiga (yuz bilan tana harakatlari qo’shilishi) e’tiborsizligi; 2) bolaning ixtiyorsiz xatti–harakatiga batamom qarshilik ko’rsatishi, shuningdek, uning talabini bajarmasligi, qoniqtirmasligi; 3) boladagi o’zgarishlarga oid bilimlardan bexabarligi, bu o’zgarishlarni oldindan seza olmasligi va boshqalar.



Ilk bolalik davrida bola shaxsi shakllanishi boshlanadi. Bolada “men o’zim” konsepsiyasi vujudga keladi. Bu yosh davri 3 yoshlilar krizis davrining yuzaga kelishi bilan tugaydi. Krizisning sababi bolada ma’lum darajada mustaqillikka ehtiyojning paydo bo’lishi, kattalarning esa eski munosabatlar tipini saqlab qolishidir.

Maktabgacha yosh davri. 3 yoshdan 7 yoshgacha organizmning intensiv o’sishi davom etadi. Bosh miya og’irligi 1350g-gacha yetadi, ikkinchi signal sistemasi rivojlanadi. Bolaning ijtimoiy situasiyasi o’zgaradi.

Rolli o’yinlar jarayonida ular katta odamlarning barcha vazifa va ishlarini amalda bevosita bajaradilar. Rolli o’yinlarni vujudga keltiruvchi eng zarur omillardan biri, bolada o’z xatti-harakatlarini kattalar xatti-harakati bilan solishtirish, undan nusxa olish tuyg’usining mavjudligidir. Bolalarning o’yin faoliyati D.B.Elqonun, A.S.Slavina, A.P.Usova va boshqa psixologlar o’rganishgan. O’yin faoliyati ixtiyoriy diqqat va xotiraning, tafakkurning rivojlanishini belgilab beradi.

Ilk bolalik yosh davrida bolaning tafakkuri turli faoliyatlarda, xususan, o’yin faoliyatida rivojlanadi. Bilish jarayonlari va o’yin faoliyati bola nutqini rivojlantiradi. Bolaning nutqi situativ xarakterga ega, u o’z ona tilini, grammatik tuzilishini yaxshi o’zlashtiradi, ichki nutq paydo bo’ladi, nutq alohida faoliyat tarzida shakllanadi. Bolaning shaxsiy xulq atvori aktivligida esa motivlar shrarxiyasi paydo bo’la boshlaydi. O’zining va tengdoshlarining ishlarini baholay boshlaydi. Shu tarzda o’z-o’zini baholash yuzaga keladi.

Tadqiqotchi Ye.K.Kaverinaning tajribasida tasdiqlaganidek, bolaning predmet nomini tushunishi quyidagi tartibda aks etishi mumkin: a) bola eng avval atrofidagi predmetlarning nomlarini; b) katta yoshli odamlar va o’yinchoqlarning nomlari va rasmlarini; v) odamlarning gavdasining tuzilishini, uning bo’laklari va hokazolarni tushunadi.

Tushunishning eng qulay (senzitiv) davri bir yoshdan bir yarim yoshgachadir. Bu davrda bola predmet va jismlarning nomlarini yengil o’zlashtirib oladi. Ikki yoshgacha davrida kattalar bilan muloqotga kirishishda uy jihozlari va boshqalarni o’rganadi.

E.K.Kaverinaning fikricha, bolaga beriladigan topshiriqlar, harakat nomlari va ularni bajarish bo’yicha yo’llanmalarni tushunish quyidagi bosqichlardan iborat bo’ladi: a) ta’sirlanishning yo’qligi yoki mutlaqo noto’g’ri ta’sirlanish; b) harakatni to’g’ri ijro etish; v) harakatning murakkablashuvi va boshqa ko’rinishlarining xususiyatlari. Bolaning kattalar yo’naltiruvchi nutqini tushunishi xatti-harakatlarni amalga oshirishda yetaklovchi vazifani o’taydi.

Tadqiqotchi N.X.SHvachkin mulohazasiga ko’ra, bolada avval unli harflarni, keyin undosh harflarni farqlash ko’nikmasi vujudga keladi. Ushbu muammo biologiya va psixologiyada shaxs rivojlanishining turli bosqichlarida kuzatiladigan inqirozlar va yangi tuzilmalarni tushunish uchun muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda ontogenez odatda murtak (embrional) va murtakdan keyingi (postembrional) bosqichlarga bo‘linadi,yosh davrlarini ajratishda anatomik, fiziologik va psixologik fanlararo bog`lik asosida o‘zgarishlarga metodologik yondashish talab etiladi;

Rivojlanishning to‘xtovsiz jarayonini alohida davrlarga bo‘lish, davrlararo o‘tish chegaralarini aniqlash va yetakchi faoliyat turini belgilashdagi o`tish davrining psixofiziologik jihatdan yondashish;

Inson ontogenezida ijtimoiy muhit va tarbiya rivojlanish sur’atiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan sog`lom muhitni yaratish;

Bola organizmini to`g`ri rivojlantirish uchun birinchi galda ona suti bilan oziqlantirish, bolani ko`proq vaqtini tozza havoda tashkil etish, chiniqtirishning barcha suv, quyosh, havo orqali turlardan foydalanish. Predmitli, stol ustida qo`yib o`ynaladigan o`yinlar, har xil avozli o`yinlardan mutazzam foydalanish;

Kunlik rejimga qat`iy amal qilish;

Bola xonasidagi jihozlarni rangini ochiq rangli, quyosh tushadigan, yoshiga mos qilib jihozlanishi lozim.

Shuning bu soha vakillarini tanlashda xatoliklarga yo`l qo`ymaslik muhim sanaladi

Adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”.To‘ldirilgan ikkinchi nashri.-Toshkent: “O`zbekiston” nashriyoti, 2022-yil, 23-bet.

2. Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”.To‘ldirilgan ikkinchi nashri.-Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022-yil, 224- bet

3. Выготский Л. С. Мышление и речь. Москва, 1934. С. 6.

4. G‘oziyev E. Ontogenez psixologiyasi.Toshkent, Noshir., T 2010.

5. Do‘stmuhammedova Sh.A., Z.T.Nishonova, S.X.Jalilova, Sh.T.Karimova, Sh.T.Alimbayeva “Yosh davrlari va pedagogik psixologiya” Toshkent Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi. 2013.

TALABALARDA IJTIMOIY-PERSEPTIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Rasulova Zilola Durdimurotovna,
Buxoro davlat universiteti
Pedagogika kafedrasi professori, p.f.f.d (PhD)
Raximova Fotima Erkinjonovna,
Zarmed universiteti Pedagogika va
psixologiya yo‘nalishi 5-bosqich talabasi

Mazkur maqolada talabalarda ijtimoiy-perseptiv kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Zamonaviy ta'lim tizimida shaxsning ijtimoiy muhitda samarali faoliyat yuritishi, boshqalarni to‘g‘ri idrok etishi, muloqot jarayonida faol ishtirok etishi va shaxslararo munosabatlarni adekvat baholay olishi muhim ahamiyat kasb etayotgani asoslab berilgan. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy-perseptiv kompetentlik talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta’minlovchi muhim omil sifatida qaraladi.Tadqiqotda kompetentsiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlarning talabalar faolligini oshirishdagi o‘rni va ahamiyati ochib berilgan. Ushbu yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligi talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, ijtimoiy faollik va muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: *kompetentlik, kasbiy kompetentlik, shaxsiy tajriba, texnologiyalar, amaliy faoliyat, rivojlantirish, ijtimoy-perseptiv kompetentlik, shaxslaro munosabatlar, faoliyatli yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, mantiqiy fikrlash, chuqur idrok.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО-ПЕРЦЕПТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У СТУДЕНТОВ

В данной статье с научной, теоретической и практической точек зрения анализируются педагогические особенности развития социально-перцептивной компетентности у студентов. Утверждается, что в современной системе образования большое значение имеет способность человека эффективно функционировать в социальной среде, правильно воспринимать других, активно участвовать в коммуникативном процессе и адекватно оценивать межличностные отношения. С этой точки зрения, социально-перцептивная компетентность рассматривается как важный фактор обеспечения профессионального и личностного развития студентов. Исследование выявляет роль и важность компетентностного, личностно-ориентированного и деятельностного подходов в повышении вовлечённости студентов. Научно доказано, что сочетание этих подходов способствует развитию у учащихся самостоятельного мышления, творческого подхода, социальной активности и культуры общения.

Ключевые слова: *компетентность, профессиональная компетентность, личный опыт, технология, практическая деятельность, развитие, социально-перцептивная компетентность, межличностные отношения, активный подход, личностно-ориентированный подход, логическое мышление, глубокое восприятие.*

PEDAGOGICAL FEATURES OF DEVELOPING SOCIAL-PERCEPTIVE COMPETENCE IN STUDENTS

This article analyzes the pedagogical characteristics of developing socio-perceptual competence in students from both a scientific-theoretical and a practical perspective. It substantiates the importance in the modern educational system for an individual to function effectively within the social environment, perceive others correctly, actively participate in communication, and adequately evaluate interpersonal relationships. From this standpoint, socio-perceptual competence is viewed as a crucial factor in ensuring the professional and personal development of students. The research reveals the role and significance of competency-based, student-centered, and activity-based approaches in increasing student engagement. It is scientifically established that the integration of these approaches serves to cultivate independent thinking, a creative approach, social engagement, and a culture of communication among students.

Keywords: *competence, professional competence, personal experience, technologies, practical activity, development, socio-perceptual competence, interpersonal relationships, activity-based approach, student-centered approach, logical thinking, deep perception.*

Kirish. Jahon kechayotgan global o‘zgarishlar, raqamlashtirish jarayonlarining jadal sur’atlarda rivojlanishi va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi zamonaviy mutaxassis shaxsiga qo‘yilayotgan talablarni tubdan yangilamoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim tizimida ta’lim oluvchilarning nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarini, balki ularning ijtimoiy muhitda samarali muloqotga kirisha olish, atrofdagilarni to‘g‘ri idrok etish va tushunish, shaxslararo munosabatlarni adekvat baholash kabi muhim kompetentsiyalarni shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, talabalarda ijtimoiy-perseptiv kompetentlikni rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlari uzviyligida o‘rganilayotgan ustuvor yo‘nalishlardan hisoblanadi. Ijtimoiy-perseptiv kompetentlik shaxsning boshqa insonlarni idrok etish, ularning his-tuyg‘ulari, maqsad va intilishlarini anglash, muloqot jarayonida samarali hamkorlikni ta'minlash qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur kompetentlik talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishida muhim omil bo‘lib, ularning kelgusi pedagogik faoliyatida samaradorlikni ta’minlaydi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida kompetentsiyaviy yondashuvning keng joriy etilishi talabalarda turli turdagi kompetentsiyalarni, jumladan, ijtimoiy-perseptiv kompetentlikni shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Biroq, amaliyotda mazkur kompetentlikni rivojlantirishning samarali pedagogik shart-sharoitlari, metod va texnologiyalari yetarlicha tizimlashtirilmaganligi kuzatilmoqda. oliy ta’lim tizimida talabalarni faqat nazariy bilimlar bilan ta’minlash yetarli emas, balki ularda ijtimoiy muhitga moslasha olish, shaxslararo munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va kasbiy faoliyatda samarali muloqot olib borishga xizmat qiluvchi kompetentsiyalarni shakllantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy-perseptiv kompetentlik talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda kompetentsiyaviy yondashuv asosida ta’lim mazmunini takomillashtirish jarayonida talabalarda ijtimoiy-perseptiv kompetentlikni rivojlantirishga yetarlicha e’tibor qaratilmayotgani, uni shakllantirishning samarali pedagogik mexanizmlari to‘liq ishlab chiqilmagani kuzatilmoqda. Bu esa ta’lim jarayonida talabalarning muloqot madaniyati, empatiyasi va ijtimoiy idrok qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi. Shuningdek, bo‘lajak mutaxassislarning, ijtimoiy-perseptiv kompetentligi ularning kasbiy samaradorligi, ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishi va o‘quvchilar bilan to‘g‘ri muloqot o‘rnatishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Demak, mazkur kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish va amaliyotga joriy qilish bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Howard Gardner o‘zining mazkur asarida zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun insonda shakllanishi zarur bo‘lgan besh turdagi tafakkur (mind)ni ajratib ko‘rsatadi: distsiplinar, sintezlovchi, ijodiy, hurmatga asoslangan (respectful) va axloqiy (ethical) tafakkur. Mazkur kontsepsiya bevosita “ijtimoiy-perseptiv kompetentlik” atamasini va uning mazmunini tashkil etuvchi asosiy komponentlarni chuqur yoritib beradi.

1. “Respectful mind” – ijtimoiy idrokning asosi

Gardnerning “hurmatga asoslangan tafakkur” tushunchasi ijtimoiy-perseptiv kompetentlikning markaziy elementi hisoblanadi. Unga ko‘ra, shaxs: boshqalarning qarashlari va his-tuyg‘ularini tushuna olishi; madaniy xilma-xillikni qabul qilishi; muloqotda bag‘rikenglik va tolerantlik namoyon etishi lozim.

Bu jihatlar ijtimoiy pertseptsiyaning asosiy ko‘rsatkichlari bo‘lib, talabalarda empatiya va adekvat idrokni shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Gardner ijtimoiy-perseptiv kompetentlikni rivojlantirishda ta’lim tizimiga o‘rni quyidagi talablarni qo‘yadi: talabalarni faqat bilim bilan emas, balki ijtimoiy tajriba bilan ta’minlash, guruhli ish, muloqot va hamkorlikni kuchaytirish, turli nuqtai nazarlarni taqqoslash orqali fikrlashni rivojlantirish [6].

Demak Gardnerni fikriga ko‘ra zamonaviy jamiyat sharoitida ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifani qayta ko‘rib chiqib, insonni faqat bilimli emas, balki ijtimoiy jihatdan yetuk, fikrlay oladigan va mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash zarurligini ta’kidlaydi. U tomonidan taklif etilgan “besh turdagi tafakkur” kontseptsiyasi (disciplinary, synthesizing, creating, respectful, ethical minds) kompetentsiyaviy yondashuvning mazmunini chuqur ochib beradi. Bu yondashuv ijtimoiy-perseptiv kompetentlikni rivojlantirishda interaktiv metodlar (diskussiya, debat, keys-stadi)ning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Psixolog olim Robert J.Sternberg ta’lim jarayonini qayta ko‘rib chiqishni taklif etgan holda, uni faqat akademik bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklamay, balki shaxsning intellektual, ijodiy va ijtimoiy

qobiliyatlarini kompleks rivojlantirishga yo‘naltirish zarurligini asoslab beradi. Uning mazkur asarida WICS modeli (Wisdom, Intelligence, Creativity, Success) ilgari suriladi.

Bu model bevosita kompetentsiyaviy yondashuvga mos kelib, talabalarda ijtimoiy-perseptiv kompetentlikni rivojlantirish uchun muhim nazariy asos yaratadi.

Sternbergning WICS modeli quyidagi to‘rt komponentdan iborat: Wisdom (donolik) – ijtimoiy vaziyatlarni chuqur tushunish va to‘g‘ri qaror qabul qilish, intelligence (intellekt) – tahlil qilish va mantiqiy fikrlash, creativity (ijodkorlik) – yangi g‘oya va yondashuvlarni ishlab chiqish, success (muvaffaqiyat) – amaliy natijalarga erishish. Ayniqsa, “donolik” komponenti ijtimoiy-perseptiv kompetentlik bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u boshqalarning fikr va manfaatlarini hisobga olish, ijtimoiy munosabatlarda muvozanatni saqlash, shaxslararo ziddiyatlarni to‘g‘ri hal qilish kabi qobiliyatlarni qamrab oladi. *Ijtimoiy idrok va “amaliy intellekt”* tushunchasini kiritib, insonning real hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilish qobiliyatini ta’kidlaydi. Bu esa ijtimoiy-perseptiv kompetentlikning muhim jihati bo‘lib: ijtimoiy muhitni to‘g‘ri baholash, muloqot strategiyasini tanlash, boshqalarning xatti-harakatlarini anglash kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi [7].

Sternberg fikrlarini tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu jihatlar ijtimoiy-perseptiv kompetentlikning eng yuqori rivojlangan darajasiga mos keladi, chunki u nafaqat boshqalarni tushunish, balki ular bilan munosabatlarni oqilona boshqarishni ham qamrab oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda talabalarda ijtimoiy-perseptiv kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik xususiyatlarini aniqlash maqsadida kompleks yondashuvdan foydalanilaniladi. Tadqiqotning nazariy asosini kompetentsiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlar tashkil etadi. Shuningdek, ijtimoiy pertseptsiya va muloqot psixologiyasiga oid nazariy qarashlar tadqiqotning metodologik poydevori sifatida xizmat qildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi usullardan foydalaniladi: ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma va test usullari.

Muhokama va natijalar. Talabalarda ijtimoiy-perseptiv kompetentlikni rivojlantirish muammosi pedagogika va psixologiya fanlari doirasida keng o‘rganilgan. Xususan, shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy idrok masalalari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli jihatlarda tahlil qilingan. Ijtimoiy pertseptsiya tushunchasi ilk bor ijtimoiy psixologiya doirasida tadqiq etilgan bo‘lib, u insonning boshqalarni idrok etish, ularning ichki holatini tushunish va muloqot jarayonida to‘g‘ri baholash qobiliyati sifatida talqin etiladi. Bu borada ijtimoiy o‘rganish nazariyasi va kognitiv yondashuv asosida olib borilgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Ushbu muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo‘li oily ta’limda yangicha, ya’ni kompetentli yondashuvni joriy etishdir. Kompetentli yondashuv tinglovchidan bilim va ko‘nikmalarni alohida-alohida emas, balki yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog‘liqlikda, o‘z navbatida, o‘qitish metodlarini tanlash tizimi ham o‘zgarishga uchraydi. O‘qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo‘llash ta’lim jarayonida qo‘yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi.

Kompetentli yondashuv oliy ta’limni modernizatsiyalash nuqtayi nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko‘rib chiqish hamda ta’limning an’anaviy uch elementi (triada) – “bilim – ko‘nikma – malaka”ni oltita birlik– “bilim – ko‘nikma – malaka – amaliy faoliyat tajribasi – kompetensiya – kompetentlik” tarzida tahlil qilish talab etiladi. Dastlab “kompetensiya” tushunchasining mohiyatini aniqlashtirib olish zarur. Kompetensiya (lotincha so‘z bo‘lib, erishaman, to‘g‘ri kelaman ma’nolarini bildiradi) – subyektning maqsadni qo‘yish hamda unga erishish uchun tashqi va ichki zaxiralarni samarali amalga oshirishga tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan faoliyat obyekti bilan bog‘liq muammolarni muvaffaqiyatli hal etishga doir shaxsiy qobiliyatidir. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, “kompetensiya” tushunchasiga berilgan aksariyat ta’riflar kasbiy ta’lim, kasbiy faoliyat bilan bog‘liqlikda bayon etilgan. Biroq umumiy o‘rta ta’lim bilan bog‘liqlikda mazkur tushuncha innovatsiya tavsifiga ega bo‘lganligi sababli, uning mohiyatini aniqlashtirishga alohida ehtiyoj mavjud.

Kompetensiya - lotincha “Competentia” so’z bo’lib, o’zbek tilidagi lug’aviy ma’nosi “inson yaxshi biladigan”, “tajribaga ega bo’lgan” kabi ma’nolarni bildiradi. [2]

Kompetentlik - biron bir ishni samarali qila olish qobiliyati, ishni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati, aniq ishchi funksiyalarni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati [3].

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo’llay olinishidir [4].

L.M.Mitina pedagogik kompetentlik - deganda predmet haqidagi bilimlar, o’qitish metodikasi va didaktikasi, pedagogik muloqot ko’nikma va malakasi, shuningdek o’z-o’zini rivojlantirish, o’z-o’zini takomillashtirish, o’zo’zini amalga oshirish usullari va vositalarining uyg’un birlashishini tushungan.

U pedagogik kompetentlik tuzilmasida quyidagi uchta tashkil etuvchini ajratgan: faoliyatli, kommunikativ va shaxsiy. L.M.Mitina tomonidan taklif etilgan pedagogik kompetentlikni tuzilmalashtirishdan kelib chiqqan holda, biz, bo’lajak mutaxassislar uchun egallanish darajasi pedagogik kompetentlikning rivojlanish darajasini aniqlaydigan quyidagi kompetensiyalar majmuasi yetarli va zarur deb hisoblaymiz:

- faoliyatli yoki maxsus kompetensiya (bilim, ko’nikma, malaka va pedagogik faoliyatni amalga oshirishning individual usullari);
- shaxsiy yoki kasbiy kompetensiya (kasbiy o’z-o’zini takomillashtirish va o’z-o’zini amalga oshirishga oid bilim, ko’nikma va malakalar);
- kommunikativ kompetensiya (pedagogik faoliyatni ijodiy amalga oshirishga oid bilim, ko’nikma va malaka) [5].

Kompetentsiyaviy yondashuv talabalarni tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga emas, balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llashga yo‘naltiradi. Ushbu yondashuvda talabalar bilim, ko‘nikma va malakalarni integratsiyalashgan holda egallaydi, bu esa ularning o‘quv jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlaydi. Natijada talabalar passiv tinglovchi emas, balki ta'lim jarayonining faol sub'ektiga aylanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv esa har bir talabaning individual xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olishga asoslanadi. Bu yondashuv talabalarda o‘qishga nisbatan ichki motivatsiyani shakllantiradi, chunki ular o‘z imkoniyatlarini namoyon etish va shaxsiy fikrini erkin bildirish imkoniga ega bo‘ladi. Natijada ta'lim jarayonida talabalarning ijodiy va ijtimoiy faolligi sezilarli darajada oshadi.

Faoliyatga asoslangan yondashuv esa bilimlarni amaliy faoliyat orqali o‘zlashtirishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv doirasida talabalar turli muammoli vaziyatlar, keyslar, loyihalar va guruhli ishlar orqali o‘qitiladi. Bu esa ularda mustaqil qaror qabul qilish, jamoada ishlash va ijtimoiy munosabatlarga kirishish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ushbu uch yondashuvning uyg‘unligi talabalar faolligini oshirishda sinergetik samara beradi. Ya'ni:
kompetentsiyaviy yondashuv – natijaga yo‘naltirilganlikni ta’minlaydi;
shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv – motivatsiya va individual rivojlanishni kuchaytiradi;
faoliyatga asoslangan yondashuv – amaliy ishtirok va tajriba orttirishni ta’minlaydi.

Shu tariqa, mazkur yondashuvlar talabalarni faol, mustaqil va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi hamda ularda ijtimoiy-perseptiv kompetentlikni rivojlantirish uchun mustahkam pedagogik zamin yaratadi.

Talabalar faolligini oshirishda pedagogik yondashuvlar

№	Yondashuv turi	Asosiy mazmuni	Talabalar faolligiga ta’siri	Amalga oshirish usullari	Natijasi
1	Kompetensiyaviy yondashuv	Bilim, ko‘nikma va malakalarni integratsiyalashgan holda shakllantirish	Mustaqil fikrlash va amaliy faoliyatga jalb etadi	Muammoli ta’lim, keys-stadi, loyiha ishlari	Amaliy kompetensiyalar shakllanadi
2	Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv	Individual xususiyat va ehtiyojlarni hisobga olish	Ichki motivatsiyani kuchaytiradi	Individual topshiriqlar, refleksiya	Shaxsiy rivojlanish kuchayadi
3	Faoliyatga asoslangan yondashuv	Bilimlarni amaliy faoliyat orqali egallash	Faol ishtirok va ijtimoiy tajriba orttiradi	Rol o‘yinlari, treninglar, guruhli ishlar	Jamoada ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi

Jadvaladn ko‘rinib turibdiki, kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta’limning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u talabalarni tayyor bilimlarni yodlashga emas, balki ularni real hayotda qo‘llay olishga yo‘naltiradi. Bu yondashuvda bilim, ko‘nikma va malakalar alohida emas, balki yagona tizim sifatida shakllanadi. Mazkur yondashuv talabalar faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega, chunki: talaba passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchiga aylanadi; u o‘rganayotgan bilimini amaliy vaziyatlarda sinab ko‘radi; muammolarni mustaqil hal qilishga intiladi. Natijada talabada real hayotga mos kompetensiyalar shakllanadi va uning o‘quv jarayonidagi faolligi sezilarli darajada ortadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv izohi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv har bir talabani alohida individ sifatida ko‘rib, uning qiziqishlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olishga asoslanadi. Bu yondashuvda o‘qituvchi markazda emas, balki talabaning o‘zi markaziy o‘rinni egallaydi. Bu yondashuv talabalar faolligiga quyidagicha ta’sir ko‘rsatadi: ichki motivatsiyani kuchaytiradi; talabaning o‘z fikrini

erkin ifodalashiga imkon yaratadi; ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. Natijada talaba o‘z o‘qish jarayoniga befarq bo‘lmaydi, aksincha, faol ishtirok etadi va o‘z rivojlanishi uchun mas’uliyatni his qiladi. 3. Faoliyatga asoslangan yondashuv izohi Faoliyatga asoslangan yondashuv bilimlarni amaliy faoliyat orqali egallashga yo‘naltirilgan. Bu yondashuvda talaba bilimni tayyor shaklda emas, balki faol harakat jarayonida o‘zlashtiradi. Mazkur yondashuvning talaba faolligiga ta’siri: talaba dars jarayonida bevosita ishtirok etadi; guruhli ishlarda faol bo‘ladi; real vaziyatlarga yaqin topshiriqlar orqali tajriba orttiradi. Rol o‘yinlari, treninglar, keys-stadi kabi metodlar orqali talabalarda nafaqat bilim, balki ijtimoiy ko‘nikmalar ham rivojlanadi. Umumiy tahliliy xulosa Ushbu uch yondashuv bir-birini to‘ldiradi va uyg‘un holda qo‘llanilganda eng yuqori samarani beradi: kompetensiyaviy yondashuv – natijaga yo‘naltiradi; shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv – motivatsiyani oshiradi; faoliyatga asoslangan yondashuv – amaliy faollikni ta’minlaydi.

Pedagogning kompetentligini rivojlantirish yo‘llarining metodik strukturasi



Berilgan sxema talabalar faolligini oshirishga qaratilgan uchta asosiy pedagogik yondashuv – kompetentsiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlarning o‘zaro bog‘liqligini aks ettiradi. Sxemada markaziy o‘rinni “talabalar faolligi” tushunchasi egallab, u mazkur yondashuvlar ta'sirida shakllanishi ko‘rsatilgan. Avvalo, *kompetentsiyaviy yondashuv* talabalar faolligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. U talabalarni bilimlarni faqat nazariy o‘zlashtirishga emas, balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llashga yo‘naltiradi. Bu jarayonda talabalar mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilishga jalb etiladi. Shu sababli, ular o‘quv jarayonida faol ishtirok eta boshlaydi. *Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv* esa talabalar faolligining ichki mexanizmini – motivatsiyani shakllantiradi. Sxemada bu yondashuv talabaning individual xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olish orqali uning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirishi bilan izohlanadi. Natijada talaba o‘z fikrini erkin bildirishga, ijodiy yondashishga va o‘quv jarayonida faol ishtirok etishga intiladi.

Faoliyatga asoslangan yondashuv esa sxemada talabalar faolligini amaliy jihatdan ta'minlovchi omil sifatida aks etgan. Ushbu yondashuv orqali talabalar turli amaliy vazifalar, guruhli ishlar va ijtimoiy faoliyat turlarida ishtirok etadi. Bu esa ularda amaliy tajriba orttirish, jamoada ishlash va muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Sxemaning pastki qismida esa ushbu yondashuvlarning umumiy natijasi sifatida “faol, mustaqil va ijtimoiy kompetent shaxs” shakllanishi ko‘rsatilgan. Bu natija talabalar faolligining yuqori darajada rivojlanganini anglatadi. Shu bois, sxema tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalar faolligini oshirish birgina usul yoki yondashuv bilan emas, balki bir nechta pedagogik yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligi orqali ta’minlanadi. Bu esa ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda kompleks yondashuvning muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarda ijtimoiy-perseptiv kompetentlikni rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur kompetentlik shaxsning ijtimoiy muhitda samarali faoliyat yuritishi, boshqalarni to‘g‘ri idrok etishi, muloqot jarayonida faol ishtirok etishi hamda shaxslararo munosabatlarni adekvat baholay olish qobiliyatlarini qamrab oladi. Shu jihatdan u talabalarning nafaqat kasbiy tayyorgarligi, balki shaxsiy kamoloti va ijtimoiy moslashuvini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-perseptiv kompetentlikni rivojlantirish maqsadli, tizimli va ilmiy asoslangan pedagogik yondashuvlarni talab etadi. Xususan, kompetentsiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlarning uyg‘un qo‘llanilishi talabalar faolligini oshirishda, ularda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va ijtimoiy faollikni

shakllantirishda yuqori samara beradi. Bu yondashuvlar ta'lim jarayonida talabalarni faol subyektga aylantirib, ularning bilish faoliyatini rag‘batlantiradi va shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi.

Shuningdek, tadqiqotda yondashuvlarning ijtimoiy-perseptiv kompetentlikni rivojlantirishdagi samaradorligi asoslab berildi. Ushbu yondashuvlar talabalarni real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtirib, ularda empatiya, refleksiya, muloqot madaniyati va ijtimoiy idrok qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xorijiy va mahalliy olimlarning qarashlari ijtimoiy-perseptiv kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslarini belgilab bersada, uning pedagogik mexanizmlari, baholash mezonlari va amaliy texnologiyalarini yanada takomillashtirish zarur. Shu bois, mazkur yo‘nalishda kompleks tadqiqotlar olib borish, innovatsion pedagogik modellar ishlab chiqish va ularni ta’lim amaliyotiga joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Demak ta’kidlash joizki, ijtimoiy-perseptiv kompetentlikni rivojlantirish talabalarni faol, mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy jihatdan yetuk va kasbiy faoliyatga tayyor shaxs sifatida shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida zamonaviy ta’lim tizimining sifat ko‘rsatkichlarini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O’zbekiston, 2016, 14-bet.

2. Семина Е.А. Компетентностная модель выпускника педагогического вуза - будущего учителя математики // Альманах современной науки и образования. - 2010. - № 5 (36). - С. 133-135.

3. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2013.

4. Селевко Г.К. Компетентности и их классификация // Народное образование. - 2004. - № 4. - С. 138-145.

5. Митина Л.М. Психология труда и профессионального развития учителя. - М.: Академия. - 2004. - 320 с.

6. Howard Gardner. Five Minds for the Future. – Boston: Harvard Business School Press, 2007.

7. Robert J. Sternberg. Teaching for Wisdom, Intelligence, Creativity, and Success. – Thousand Oaks: Corwin Press, 2009.

RAHBARNING SHAXSIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH - MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTINI SAMARALI BOSHQARISH OMILI SIFATIDA

Berdiyeva Dilafruz Shuxratovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi
berdievadilafruz@buxdpi.uz

Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotini samarali boshqarishda rahbar shaxsiy kompetensiyasining o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Rahbarning kasbiy, kommunikativ, boshqaruv hamda shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirish orqali ta’lim tashkiloti faoliyatining samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, rahbar kompetensiyasini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari, boshqaruv jarayonidagi innovatsion usullar hamda ularning maktabgacha ta’lim sifatiga ta’siri ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari rahbarlarning kasbiy rivojlanishi ta’lim tashkilotida samarali boshqaruvni ta’minlashda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *kompetensiya, rahbar, boshqaruv, samaradorlik, liderlik, rivojlanish, menejment, kommunikatsiya, innovatsiya, ta’lim.*

РАЗВИТИЕ ЛИЧНОСТНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ РУКОВОДИТЕЛЯ- КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИЕЙ

В статье рассматривается роль и значение личной компетентности руководителя в эффективном управлении дошкольной образовательной организацией. Анализируются возможности повышения эффективности деятельности образовательной организации путем развития профессиональных, коммуникативных, управленческих и личностных компетенций руководителя.Результаты исследования показывают, что профессиональное развитие руководителей является важным фактором обеспечения эффективного управления в образовательной организации.ния. Результаты исследования показывают, что профессиональное развитие руководителей является важным фактором обеспечения эффективного управления в образовательной организации.

Ключевые слова: *компетенция, лидер, менеджмент, эффективность, лидерство, развитие, менеджмент, коммуникация, инновации, образование.*

DEVELOPING THE PERSONAL COMPETENCIES OF THE MANAGER - AS A FACTOR OF EFFECTIVE MANAGEMENT OF A PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTION

This article highlights the role and importance of the personal competence of a leader in effectively managing a preschool educational organization. The possibilities of improving the effectiveness of an educational organization's activities through the development of the leader's professional, communicative, managerial, and personal competencies are analyzed. The modern approaches to developing leadership competencies, innovative methods in the management process, and their impact on the quality of preschool education are also scientifically substantiated. The results of the study show that the professional development of leaders is an important factor in ensuring effective management in an educational organization.

Keywords: *competence, leader, management, efficiency, leadership, development, management, communication, innovation, education.*

Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning sifat va samaradorligini oshirish O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish, bolalarning intellektual, ma’naviy va jismoniy jihatdan barkamol bo‘lib shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish masalasi davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etilmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan boshqaruv tizimining to‘g‘ri tashkil etilishiga va rahbarlarning kasbiy hamda shaxsiy kompetensiyalariga bog‘liqdir. So‘nggi yillarda mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ–3305-son

“Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **qarori** maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, sohani markazlashgan tarzda boshqarish hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi. Ushbu qaror asosida maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda boshqaruv samaradorligini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirila boshlandi. Shuningdek**,** O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ–595-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni maktabgacha ta’lim sohasidagi davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlab berdi. Mazkur qonunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining faoliyatini tashkil etish, ularni boshqarish, bolalarning sifatli ta’lim va tarbiya olish huquqlarini ta’minlash hamda pedagog kadrlarning kasbiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan muhim normalar belgilab berilgan. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida samarali boshqaruv tizimini shakllantirish, rahbar kadrlarning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligini yanada kuchaytirdi. Chunki zamonaviy ta’lim tizimida rahbar nafaqat tashkilot faoliyatini boshqaruvchi shaxs, balki jamoani birlashtira oladigan, innovatsion g‘oyalarni amalga oshiradigan va ta’lim sifatini ta’minlay oladigan yetakchi sifatida namoyon bo‘lishi lozim. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarining shaxsiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasi samarali boshqaruvni ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotini samarali boshqarishda rahbar shaxsiy kompetensiyasining o‘rni, uning tarkibiy jihatlari hamda rahbar kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Maktabgacha ta’lim tizimida boshqaruv jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan rahbarlarning kasbiy tayyorgarligi, boshqaruv madaniyati hamda shaxsiy kompetensiyalariga bog‘liqdir. Zamonaviy ta’lim tizimi rahbarlardan nafaqat ma’muriy boshqaruvni amalga oshirishni, balki pedagogik jarayonni samarali tashkil etish, jamoani birlashtirish, innovatsion g‘oyalarni ilgari surish hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi boshqaruv mexanizmlarini joriy etishni ham talab etadi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish muammosi pedagogika va ta’lim menejmenti sohasida muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish va boshqarish masalalari bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, A.V.Shin, F.R.Qadirova, D.Babayeva, M.N.Xushnazarova, Sh.A.Sodiqova, Sh.Shodmonova, Z.F.Azizova, G.A.Berdialiyeva, N.Sh.Abdullayeva, M.A.Abdullayeva, Sh.N.Qosimova, M.T.Xamdamova, G.N.Nigmatova, Sh.B.Raximova va boshqa tadqiqotchilar maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish hamda pedagogik boshqaruvni rivojlantirishga oid ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ushbu tadqiqotlarda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida boshqaruv samaradorligini ta’minlash, pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish hamda rahbarlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish muhim omil sifatida e’tirof etilgan. Kompetensiyaviy yondashuv nazariyasiga ko‘ra, ta’lim jarayonining asosiy qismi amaliy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lishi lozim. Bunda o‘quv jarayoni davomida turli vaziyatli topshiriqlarni hal etish orqali rahbarlarda boshqaruv faoliyatini amalga oshirish ko‘nikmalari shakllanadi. Amaliy vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarni hal etish jarayonida boshqaruv qarorlarini qabul qilish, jamoa bilan ishlash, tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish kabi kompetensiyalar shakllanadi. Bu esa maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining boshqaruv faoliyatida samarali ishlashiga zamin yaratadi. Professional boshqaruv vazifalarini samarali hal etish uchun rahbarning boshqaruv funksiyalarini puxta egallagan bo‘lishi muhimdir. Boshqaruv jarayonida rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish va tahlil qilish kabi funksiyalar muhim o‘rin tutadi. Ushbu funksiyalarni samarali amalga oshirish rahbardan nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy boshqaruv tajribasini ham talab qiladi. Shu sababli rahbarlarni tayyorlash jarayonida amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan metodlardan keng foydalanish zarur hisoblanadi.

Boshqaruv faoliyatini rivojlantirishda simulyatsiya asosidagi ta’lim texnologiyalarining ahamiyati ham katta hisoblanadi. Bunday metodlar yordamida rahbarlar real boshqaruv jarayoniga yaqin bo‘lgan vaziyatlarda faoliyat olib borish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Jumladan, boshqaruv amaliyoti, rolli o‘yinlar, biznes o‘yinlar, keys-stadi usullari hamda assisment texnologiyalaridan foydalanish rahbarlarning boshqaruv ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu metodlar orqali rahbarlar murakkab boshqaruv vaziyatlarini tahlil qilish, muammolarni hal etish, jamoa bilan samarali ishlash hamda to‘g‘ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish ko‘nikmalarini egallaydilar. Rahbar boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni, avvalo, uning kelajakdagi kasbiy faoliyatida amalga oshiradigan vazifalari bilan uzviy bog‘liqdir. Rahbarning kasbiy kompetensiyasi boshqaruv faoliyatining maqsad va vazifalarini to‘g‘ri belgilash, pedagogik jamoani samarali boshqarish, ta’lim jarayonini tashkil etish hamda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, rahbar tomonidan kasbiy bilimlarni muntazam ravishda takomillashtirib borish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va pedagogik

jarayonni ijtimoiy modellashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Rahbarning amaliy faoliyat jarayonida to‘plagan tajribasi uning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Amaliy faoliyat orqali rahbar turli boshqaruv muammolariga duch keladi va ularni hal etish jarayonida o‘zining boshqaruv tajribasini boyitadi. Natijada rahbarning kasbiy kompetensiyasi shakllanadi va u murakkab boshqaruv vazifalarini samarali hal etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, rahbarlarning boshqaruv faoliyatida o‘zaro hamkorlik, tajriba almashish, maslahatlashuv va qo‘llab-quvvatlash muhitini yaratish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Rahbarlik faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan liderlik sifatlariga ham bog‘liqdir. Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, liderlik sifatlari rahbarning jamoani boshqarish, xodimlarni rag‘batlantirish hamda tashkilot faoliyatini rivojlantirishdagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Masalan, 1940-yillarda olim E. Bern tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda liderlikning 70 dan ortiq sifatlari aniqlangan bo‘lib, ular orasida tashabbuskorlik, muloqotga kirisha olish, o‘ziga ishonch, hazil-mutoyiba hissi, tez va aniq qaror qabul qilish kabi sifatlar alohida qayd etilgan. Biroq mazkur nazariya ushbu sifatlarning qanday shakllanishi va rivojlanish mexanizmlarini to‘liq tushuntirib bera olmagan. Shu sababli keyingi tadqiqotlarda liderlik sifatlarini rivojlantirish masalasi yanada chuqurroq o‘rganila boshlandi. Zamonaviy ta’lim menejmenti nuqtai nazaridan qaraganda, maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari liderlik sifatlariga ega bo‘lishi zarur. Rahbar jamoani birlashtira oladigan, xodimlarni umumiy maqsad sari yo‘naltira oladigan, innovatsion g‘oyalarni ilgari suradigan hamda tashkilot faoliyatini samarali tashkil eta oladigan shaxs bo‘lishi lozim. Shu bois rahbarlarning shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida liderlik ko‘nikmalarini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida rahbar shaxsiy kompetensiyasini rivojlantirish nafaqat boshqaruv jarayonini takomillashtirish, balki ta’lim tashkilotining umumiy rivojlanish strategiyasini belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlari pedagogik jamoa faoliyatini samarali muvofiqlashtirish, ta’lim-tarbiya jarayonini nazorat qilish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda tashkilot faoliyatining natijadorligini oshirish kabi ko‘plab vazifalarni bajaradi. Shu sababli rahbar shaxsiy kompetensiyasining shakllanganlik darajasi ta’lim muassasasining rivojlanish darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Rahbar shaxsiy kompetensiyasi bir necha tarkibiy komponentlardan iborat bo‘lib, ular orasida quyidagi(1-rasm)kompetensiyalar alohida o‘rin tutadi.

1-rasm. Rahbar shaxsiy kompetensiyasining tarkibiy komponentlari.

Kommunikativ kompetensiya rahbarning jamoa a’zolari, ota-onalar, hamkor tashkilotlar hamda jamiyat bilan samarali muloqot o‘rnatish qobiliyatini ifodalaydi. Bu esa ta’lim jarayonida sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Tashkiliy kompetensiya esa rahbarning ta’lim jarayonini rejalashtirish, jamoa faoliyatini muvofiqlashtirish hamda boshqaruv jarayonini samarali tashkil etish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Strategik kompetensiya rahbarning uzoq muddatli rivojlanish maqsadlarini belgilash, ta’lim tashkilotining istiqbolli rejalari va rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish bilan bog‘liqdir. Analitik kompetensiya esa rahbarning mavjud vaziyatni tahlil qilish, muammolarni aniqlash va ularni hal etishning optimal yo‘llarini topish qobiliyatini ifodalaydi. Innovatsion kompetensiya esa ta’lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalar, zamonaviy boshqaruv usullari hamda ilg‘or tajribalarni joriy etish imkoniyatini yaratadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarining shaxsiy kompetensiyasini rivojlantirishda uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayoni muhim o‘rin tutadi. Rahbarlar muntazam ravishda malaka oshirish kurslarida qatnashish, ilmiy-amaliy seminarlar, treninglar hamda tajriba almashish dasturlarida ishtirok etish orqali o‘z bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirib borishlari zarur. Bu jarayon rahbarlarning zamonaviy boshqaruv usullarini egallashiga, innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishiga hamda ta’lim tashkiloti faoliyatini yanada samarali tashkil etishiga yordam beradi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotida samarali boshqaruvni ta’minlashda rahbarning psixologik kompetensiyasi ham muhim ahamiyatga ega. Rahbar jamoa a’zolarining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni rag‘batlantira olishi, nizoli vaziyatlarni to‘g‘ri hal etishi hamda sog‘lom psixologik muhitni yaratishi zarur. Bu esa pedagogik jamoaning samarali faoliyat yuritishiga va ta’lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, rahbar

shaxsiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida liderlik qobiliyatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Lider rahbar jamoani umumiy maqsad sari birlashtira oladi, xodimlarni yangi g‘oyalar bilan ruhlantiradi hamda ularni professional rivojlanishga undaydi. Bunday rahbar ta’lim tashkilotining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, jamoada hamkorlik va o‘zaro hurmat muhitini shakllantiradi. Shu bilan birga, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham rahbar kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Umuman olganda, maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining shaxsiy kompetensiyasi ta’lim muassasasining rivojlanish darajasi, pedagogik jamoaning samaradorligi hamda ta’lim-tarbiya jarayonining sifatini belgilovchi muhim omillardan biridir. Shu sababli rahbarlarning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish, innovatsion ta’lim metodlarini joriy etish hamda amaliy tajribalarni tizimli ravishda o‘rganish maktabgacha ta’lim tizimining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2019-yil 16-dekabr, O‘RQ–595-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori “O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. – Toshkent, 2019-yil 8-may, PQ–4312-son.
3. Qadirova F.R., Toshpo‘latova Sh., Kayumova N., A’zamova M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur, 2019.
4. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.
5. Babayeva D.R. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Ilm ziyo, 2016.
6. Berdialiyeva G.A. Ta’lim menejmenti. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
7. Abdullayeva N.Sh. Ta’limda boshqaruv va menejment asoslari. – Toshkent: Fan, 2017.
8. Nigmatova G.N. Pedagogik kompetentlik va uni rivojlantirish masalalari. – Toshkent: Fan, 2016.

TURLI XIL GETEROGEN MUHITDA YASHOVCHI O‘SMIRLAR ORASIDA ETNIK-MADANIY O‘ZIGA XOSLIKNI ANGLASH

Nuraliyeva Dildora Mamurjonovna,
Farg‘ona davlat universiteti, Pedagogika - psixologiya va san’atshunoslik fakulteti, Psixologiya kafedrasi dotsenti. Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
bonu_dilya84@mail.ru
https://orcid.org/0000-0003-2975-6840

Turli xalqlarning etnomadaniy o‘ziga xosligini o‘rganish an'anaviy ravishda shaxsning rivojlanishi va shakllanishini o‘rganish usullaridan biridir. Umuman olganda, etnik-madaniy o‘ziga xoslik yetarlicha o‘rganilmagan, garchi so‘nggi o‘ttiz yillikda u bir qator tadqiqotchilarning e’tiborini o‘ziga tortgan bo‘lsa ham. Millatlararo nikohda tug‘ilgan bolalarda etnomadaniy o‘ziga xoslikni rivojlantirishning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari va qiyinchiliklari mavjud.

Kalit so‘zi: *millatlararo nikoh, etnik guruhlar, identiklik, diffuz identifikatsiya, etnik konstantalar*

ОСОЗНАНИЕ ЭТНОКУЛЬТУРНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ СРЕДИ ПОДРОСТКОВ, ЖИВУЩИХ В РАЗНОРОДНОЙ СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЕ

Изучение этнокультурной самобытности различных народов традиционно является одним из методов исследования развития и формирования личности. В целом этнокультурная идентичность изучена недостаточно, хотя за последние тридцать лет она привлекла внимание ряда исследователей. У детей, рождённых в межнациональных браках, существуют специфические психологические особенности и трудности формирования этнокультурной идентичности.

Ключевые слова: *межнациональный брак, этнические группы, идентичность, диффузная идентификация, этнические константы.*

AWARENESS OF ETHNO-CULTURAL IDENTITY AMONG ADOLESCENTS LIVING IN A HETEROGENEOUS ENVIRONMENT

The study of the ethnocultural distinctiveness of different peoples has traditionally been one of the methods for examining personality development and formation. In general, ethnocultural identity remains insufficiently explored, although over the past thirty years it has attracted the attention of a number of researchers. Children born into interethnic marriages exhibit specific psychological characteristics and face particular challenges in the development of ethnocultural identity.

Keywords: *interethnic marriage, ethnic groups, identity, diffuse identification, ethnic constants.*

Kirish. Bola o‘zini «biz» ning bir qismi va etnik guruh inson o‘z hayotida yordam izlayotgan yagona guruh emas sifatida his qilishi kerak. Bunday guruhlarga oilalar, partiyalar, diniy tashkilotlar, norasmiy yoshlar birlashmalari va boshqalar kiradi. Ko‘p odamlar, jumladan, millatlararo nikohda bo‘lgan bolalar ham ushbu guruhlardan biriga butunlay “cho‘milishadi”, ammo ularning yordami bilan psixologik barqarorlikka intilish har doim ham mumkin emas. Qo‘llab-quvvatlash unchalik barqaror emas, chunki guruhlarning tarkibi doimiy ravishda yangilanib turadi, ularning mavjud bo‘lish davrlari vaqt bilan cheklangan, odamning o‘zi ba’zi noto‘g‘ri xatti-harakatlari uchun guruhdan chiqarib yuborilishi mumkin. Bu kamchiliklarning barchasi etnik jamoadan mahrum. Bu avlodlararo guruh vaqt o‘tishi bilan barqaror bo‘lib, u o‘z tarkibining barqarorligi bilan ajralib turadi va har bir shaxs barqaror etnik maqomga ega, uni etnik guruhdan “cheklash” mumkin emas. Aynan shu fazilatlar tufayli etnos inson uchun ishonchli yordam guruhidir. O‘zining etnik guruhlarga mansubligini anglash orqali hayotda qo‘llab-quvvatlovini yo‘qotgan yosh avlod ijtimoiy notinchlik va nochorlik holatidan chiqish yo‘lini izlaydi, psixologik xavfsizlik va barqarorlikni qo‘lga kiritadi, o‘zini jamiyatning bir qismi sifatida his qiladi. Yagona farqlash/identifikatsiya jarayoni ijtimoiy o‘ziga xoslikni shakllantirishga olib keladi, bu eng umumiy ma’noda “o‘z” guruhini boshqa ijtimoiy obyektlar bilan taqqoslash jarayonining natijasidir. Aynan ijobiy ijtimoiy o‘ziga xoslikni izlashda shaxs yoki guruh o‘zini o‘zi belgilashga, boshqalardan ajralib turishga, o‘z avtonomiyalarini tasdiqlashga intiladi.[1]

I.V.Malygina fikricha, etnomadaniy o‘ziga xoslik murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa bo‘lib, uning mazmuni ham shaxsning umumiy madaniyat asosida mahalliy guruh bilan hamjamiyatni anglashi, ham shu asosda guruhning o‘z birligini anglashidir. Ushbu jamoaning psixologik tajribasi, shuningdek, uning

namoyon bo‘lishining individual va jamoaviy shakllarida namoyon bo‘ladi [2]. Etnik identiklik psixologik kategoriya bo‘lib, uning mohiyati ma’lum bir etnik-madaniy jamoaga mansubligini anglashdan iborat. Uning tuzilishida odatda ikkita asosiy komponent ajralib turadi - kognitiv (bilim, o‘z guruhining xususiyatlari to‘g‘risidagi g‘oyalar va ma’lum xususiyatlar asosida o‘zini uning a’zosi sifatida anglash) va affektiv (o‘z guruhining fazilatlarini baholash, a’zolikka munosabat. unda bu a’zolikning ahamiyati). Ba’zi mualliflar, shuningdek, etnik o‘ziga identiklikning xulq-atvor komponentini ajratib ko‘rsatishadi, uni nafaqat xabardorlik, balki o‘zini ma’lum bir etnik guruhning a’zosi sifatida namoyon qilish, “turli etnik aloqada munosabatlar va harakatlar tizimini qurish” uchun haqiqiy mexanizm sifatida tushunishadi [3].

O‘rganilganlik darajasi. Bugungi kunga kelib, bolaning etnik-madaniy o‘ziga xosligini rivojlantirish bosqichlarining yosh chegaralari aniqlangan va aniqlangan ko‘plab tadqiqotlar olib borildi. Etnik-madaniy guruh bilan diffuz identifikatsiyaning birinchi “ko‘rinishi”ni ko‘pchilik mualliflar 3-4 yoshli bolalarda topadilar, hatto bir yoshga to‘lmagan bolalar tomonidan ajoyib tashqi farqlarni (teri rangi, soch rangi) birlamchi idrok etishi haqida ma’lumotlar mavjud. Ammo deyarli barcha psixologlar J.Piajening fikriga qo‘shiladilarki, bola o‘z-o‘zini aks ettirish inson uchun eng muhim ahamiyatga ega bo‘lgan erta o‘smirlik davrida “reallashtirilgan” etnomadaniy o‘ziga xoslikka erishadi. So‘nggi yillarda tadqiqotchilar etnik o‘ziga xoslikni shakllantirishning yana bir jihati – shaxsda etnik xususiyatlarning o‘zgarmasligi va barqarorligi tuyg‘usining paydo bo‘lishi – etnik doimiylikka alohida e’tibor qaratdilar [4]. Olingan empirik ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, etnik identiklikning shakllanishi jinsiy va irqiy xususiyatlarning doimiyligini o‘zlashtirish jarayonlariga o‘xshaydi: o‘zini ma’lum bir etnik guruhga ongli ravishda bog‘lash va etnik belgilarni qo‘llash bola tug‘ilishidan oldin sodir bo‘ladi. Bundan tashqari, J.Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasi tarafdorlari K.Okampo, M.Bernal va P.Naytlar etnik konstantalar o‘smirlik davrida shaxs ongida tasdiqlanib, etnik-madaniy shakllanishni o‘ziga xoslik va o‘zgarmaslikni bosqichma-bosqich anglash jarayoni asosiy psixosotsial xususiyatlar ham yakunlaydi, deb ta’kidlaydilar.

Zamonaviy tadqiqotchilar orasida etnomadaniy o‘ziga xoslikning kognitiv va affektiv tarkibiy qismlarining paydo bo‘lish ketma-ketligi masalasida birlik yo‘q. Ba’zilarning fikricha, etnik-madaniy imtiyozlar faqat 9-10 yoshda juda muhim etnik va madaniy bilimlar asosida shakllanadi. Ammo boshqa tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bolalarning etnik guruhlarga bo‘lgan afzalliklari har doim ham ushbu guruhlar haqidagi bilimlar bilan bog‘liq emas, noto‘g‘ri qarashlar har qanday bilimdan oldin bo‘lishi mumkin[5]. Ammo qanday savollar munozarali bo‘lib qolishidan qat’iy nazar, etnik-madaniy o‘ziga xoslikni shakllantirish jarayonida millatlararo nikoh va monoetnik nikoh farzandi tarqoq o‘zlikni anglashgacha bir qancha bosqichlarni bosib o‘tishi aniq. O‘smirlik davridagi bu jarayonning natijasi o‘zlarining etnik-madaniy o‘ziga xoslik, guruhga mansubligini hissiy va baholovchi anglashdir. Hozirgi vaqtda etnik-madaniy o‘ziga xoslik yuzaki ongdan tashqari, chuqurroq ongsiz qatlamni o‘z ichiga oladi, degan g‘oya tadqiqotchilarning e’tiborini tobora ko‘proq jalb qilmoqda[6].

Insonning individual hayotining son-sanoqsiz holatlaridan tashqari, bolaning etnik-madaniy o‘ziga xosligining shakllanishi va namoyon bo‘lishiga ijtimoiy muhit va guruhlararo munosabatlarning xususiyatlari bilan belgilanadigan bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi. Eng muhim psixologlar orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatishadi:

1) ijtimoiy-siyosiy sohadagi global o‘zgarishlar va ular bilan bog‘liq millatlararo munosabatlardagi o‘zgarishlar;

2) etnik muhitning geterogenligi/bir xilligi. Birinchi guruh omillariga kelsak, ijtimoiy sohadagi muhim voqealar butun bir xalqning etnik-madaniy o‘ziga xosligini faollashtirishga yordam berishi mumkin.

Kishilarning o‘z etnik va madaniy mansubligini anglashi ularning ko‘p millatli yoki monoetnik muhitda yashashiga qarab juda farq qiladi. Millatlararo muloqot holati shaxsga o‘zining va boshqa etnik madaniyatlarning xususiyatlari to‘g‘risida bilim olish uchun ko‘proq imkoniyatlar, millatlararo tushunishni rivojlantirishga va muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Millatlararo muloqot tajribasining yetishmasligi, bir tomondan, bunday aloqalarga nisbatan kamroq moyillikni keltirib chiqaradi, boshqa tomondan, o‘z etnik madaniyatiga kamroq qiziqish uyg‘otadi.

O’tkazilgan tadqiqot. Turli xil geterogen muhitda yashovchi o‘smirlar orasida ham etnik-madaniy o‘ziga xoslikni anglashdagi farqlar aniqlandi. Ushbu ko‘rsatkich Belarus va Qozog‘istondagi ruslar o‘rtasida taqqoslanganda, etnik o‘ziga xoslik o‘zining etnik xususiyatlariga ko‘ra juda farq qiladigan madaniyatda yashovchilar orasida eng kuchli ifodalanganligi ma’lum bo‘ldi.

1.jadval.

G.Soldatovaning “Etnik identiklikni namoyon bo‘lishi” metodikasining Kolmogorov-Smirnov mezoni bo‘yicha ko‘rsatkichlari tahlili (n=120)

№	Shkalalar	Z qiymat	Ishonch darajasi
1.	Etnonigilizm	1,384	**0,043***

2.	Etnik indefferentlik	1,359	**0,050***
3.	Pozitiv etnik identiklik	1,807	**0,003****
4.	Etnoegoizm	1,519	**0,020***
5.	Etnoizolyatsionizm	1,229	0,098
6.	Milliy fanatizm	1,253	0,086

Izoh: *- p<0,05, **- p<0,01

Tadqiqot tahlili. G.Soldatovaning “Etnik identiklikni namoyon bo‘lishi” metodikasining natijalarini normal taqsimot qonuniga muvofiqligini tekshirish asosida etnonigilizm shkalasi bo‘yicha (Z=1,384; p≤0,05), etnik indefferentlik shkalasi bo‘yicha (Z=1,359; p≤0,05), pozitiv etnik identiklik shkalasi bo‘yicha (Z=1,807; p≤0,01), etnoegoizm shkalasi bo‘yicha (Z=1,519; p≤0,015), etnoizolyatsionizm shkalasi bo‘yicha (Z=1,229; p≤0,098) va milliy fanatizm shkalasi bo‘yicha (Z=1,253; p≤0,086) natijalar kuzatildi va mazkur metodikaning ko‘rsatkichlari tahlilini ham noparametrik mezonlarga solgan holda izohlash maqsadga muvofiqligi ma’lum bo‘ldi.

Xulosa. Pozitiv etnik identiklik ko‘rsatkichining yuqori ko‘rinish olishi nazarimizda, o‘smirlarda o‘z etnik guruhiga nisbatan pozitiv etnik stereotiplarning yaxshi namoyon bo‘lishi natijasida ijtimoiy tasavvurlarida etnik guruhi haqida ideal va normal ustanovkalar shakllanganining oqibati deya baholashimizga yordam beradi. Etnoizolyatsionizm shkalasi bo‘yicha esa mavjud ko‘rsatkichlar orasida pastroq natijalar olinganini o‘smirlarda o‘zi mansub bo‘lgan etnik guruhni boshqa etnik guruhlardan yaqqol ajratish, o‘zining guruhini cheklash kabi negativ etnik identiklik ko‘rinishlarining etnik identiklik strukturasida deyarli ko‘zga tashlanmasligi hisobiga ham deyishimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. Андреева Г. М. Психология социального познания. М., 1997.С.112.
2. Малыгина И.В. Этнокультурная идентичность (Онтология, морфология, динамика): дис. … д-ра филос. наук. М., 2005.С.1
3. Дробижева Л.М., Аклаев А.Р., Коротеева В.В., Солдатова Г.У. Демократизация и образы национализма в Российской Федерации. М., 1996.С.23-24.
4. Ocampo K.A., Bernal M.E., Knight G.P., Gender, race, and ethnicity: the sequencing of social constancies // Ethnic identity: Formation and transmission among Hispanics and other minorities. Albany: State University of New York, 1993. P.11-30.
5. Phinney J. Ethnic identity in adolescents and adults Review of research // Psychological Bulletin. 1990. Vol. 108(3). P. 499-514.
6. Солдатова Г. У. Психология межэтнической напряженности. М., 1998.С.34-35.
7. Nuraliyeva D.M.Internatsional oiladagi shaxslarda etnik identiklik namoyon bo‘lishining etnopsixologik determinantlari” mavzusida " “Zamonaviy ilm-fanda olima ayollarning o‘rni” mavzusidagi II respublika ilmiy-amaliy anjumani" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. 11-12- fevral 2026 Farg‘ona shahri
8. Nuraliyeva D.M Proceedings Volume 14014, Advanced Materials for Optics and Photonics: Chemistry and Engineering Perspectives (AMOP *" ilmiy-* Scopus bazasida etirof etgan *jurnalida 2025 yil* *“*Bayesian optimization of optical materials with tunable bandgaps
9. Nuraliyeva D.M “Internatsional oiladagi shaxslarda etnik identiklik namoyon bo‘lishining etnopsixologik determinantlari” mavzusida "Inklyuziv ta’lim: imkoniyatlar tengligi va barqaror kelajak sari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. Namdpi 2025, 15-noyabrda
10. Nuraliyeva D.M Millatlararo oila farzandlarining etnik identiklik xususiyatlarining nazariy va amaliy asoslari “Psixologiya” Ilmiy jurnal 2-son 2025-y110-113 Betlar
11. Nuraliyeva D.M Etnik identiklik – ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida Ta’limda istiqbolli izlanishlar Xalqaro ilmiy-metodik jurnal № 6-son, 2025-yil 297.-300 Betlar
12. Nuraliyeva D.M Азіргі студенттердің когнитивтік процестерінің дамуына жасанды интеллектің әсері ВЕСТНИК КазНПУ им. Абая, серия «Психология», №3(84), 2025 г

TALABALAR ORASIDA MARGINALIZATSIYA MUAMMOSI: SABABLAR VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR

Nazarova Manzura Mustafo qizi,
Osiyo xalqaro universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti,
Psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Mazkur maqolada talabalar orasida marginalizatsiya jarayonining yuzaga kelishi, uning ijtimoiy va psixologik omillari hamda oqibatlari tizimli tarzda tahlil qilinadi. Marginalizatsiya tushunchasi, uning mohiyati va talabalik davridagi o‘ziga xos ko‘rinishlari, shuningdek, ushbu jarayonni kuchaytiruvchi ijtimoiy, oilaviy, pedagogik va psixologik omillar aniqlangan. Shuningdek, marginalizatsiyaning salbiy oqibatlari, jumladan akademik muvaffaqiyatsizlik, ijtimoiy moslashuvning buzilishi, ruhiy salomatlik muammolari va deviant xulq-atvor tahlil qilinib, ularning talabaning umumiy rivojlanishiga ta’siri ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: *marginalizatsiya, talabalar, ijtimoiy-psixologik omillar, psixologik xususiyatlar, ijtimoiy moslashuv, akademik muvaffaqiyat, ruhiy salomatlik.*

ПРОБЛЕМА МАРГИНАЛИЗАЦИИ СРЕДИ СТУДЕНТОВ: ПРИЧИНЫ И СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ

В данной статье систематически анализируется процесс маргинализации среди студентов, его социальные и психологические факторы, а также последствия. Определяется понятие маргинализации, ее сущность и особенности проявления в студенческий период, а также выявляются социальные, семейные, педагогические и психологические факторы, усиливающие этот процесс. Кроме того, анализируются негативные последствия маргинализации, включая академическую неуспешность, нарушение социальной адаптации, проблемы психического здоровья и девиантное поведение, а также их влияние на общее развитие студента.

Ключевые слова: *маргинализация, студенты, социально-психологические факторы, психологические особенности, социальная адаптация, академическая успеваемость, психическое здоровье.*

THE PROBLEM OF MARGINALIZATION AMONG STUDENTS: CAUSES AND SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS

This article provides a systematic analysis of the process of marginalization among students, its social and psychological factors, and its consequences. The concept of marginalization, its essence, and specific manifestations during the student period are defined, as well as the social, familial, pedagogical, and psychological factors that reinforce this process. In addition, the negative consequences of marginalization, including academic underachievement, disruption of social adaptation, mental health problems, and deviant behavior, are analyzed, along with their impact on the overall development of the student.

Keywords: *marginalization, students, socio-psychological factors, psychological characteristics, social adaptation, academic achievement, mental health.*

Kirish. Bugungi globallashuv davrida yoshlarning, ayniqsa talabalar qatlamining ijtimoiylashuvi murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. Talabalar yangi muhitga moslashish, ijtimoiy rollarni egallash va o‘z o‘rnini topish jarayonida turli qiyinchiliklarga duch keladi. Ana shunday vaziyatlarda marginalizatsiya – ya’ni shaxsning jamiyatning asosiy ijtimoiy qatlamlaridan chetlanib qolishi kuzatiladi.

Marginalizatsiya nafaqat ijtimoiy, balki psixologik muammo sifatida ham dolzarb bo‘lib, u shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, ijtimoiy faolligi va hayotiy maqsadlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Marginalizatsiya — bu shaxs yoki ijtimoiy guruhning jamiyatdagi asosiy ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tizimlardan chetlanib qolishi, ya’ni ular bilan to‘liq integratsiyalasha olmasligi holatidir. Bu jarayon ko‘pincha shaxsning ijtimoiy mavqeini yo‘qotishi, o‘zini jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida his qilmasligi va ijtimoiy munosabatlarda passiv ishtirok etishi bilan tavsiflanadi. Talabalar orasida marginalizatsiya ayniqsa dolzarb muammo bo‘lib, u yangi muhitga moslashish, ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish va o‘z identitetini shakllantirish jarayonida yuzaga

keladi. Talabalik davri — bu shaxsning ijtimoiy va psixologik rivojlanishida muhim bosqich bo‘lib, aynan shu davrda marginalizatsiya xavfi yuqori bo‘ladi.

1.Jamoaga moslasha olmaslik-Marginalizatsiyaning asosiy belgilaridan biri bu shaxsning jamoaga integratsiyalasha olmasligidir. Talaba yangi guruhga kirganda, u yerda mavjud ijtimoiy qoidalar, qadriyatlar va norasmiy munosabatlar tizimiga moslashishi kerak bo‘ladi. Agar talaba bu tizimni qabul qila olmasa yoki unda faol ishtirok etmasa, u asta-sekin jamoa hayotidan chetlanib boradi. Bunday holat ko‘pincha boshqa hududdan kelgan talabalar**,** introvert shaxslar**,** o‘ziga ishonchi past bo‘lgan yoshlar orasida ko‘proq uchraydi. Natijada talaba o‘zini guruhning bir qismi sifatida his qilmaydi.

2. Ijtimoiy aloqalarning sustligi-Marginalizatsiya jarayonida shaxsning ijtimoiy aloqalari cheklanadi yoki yuzaki xarakterga ega bo‘ladi. Talaba tengdoshlari, o‘qituvchilar yoki jamoa bilan faol muloqot qilmaydi. Bu esa uning ijtimoiy kapitalining kamayishiga olib keladi. Ijtimoiy aloqalarning sustligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi: do‘stlar sonining kamligi yoki yo‘qligi**,** guruh faoliyatida passivlik**,** muloqotdan qochish**.** Buning natijasida talaba o‘z muammolarini boshqalar bilan bo‘lishmaydi va ichki izolyatsiya kuchayadi.

3. O‘zini “begona” his qilish-Marginal holatdagi talabalar ko‘pincha o‘zini jamiyat yoki jamoa ichida “begona” sifatida his qiladi. Bu psixologik holat shaxsning o‘z identiteti bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu hissiyot quyidagilar bilan izohlanadi: “meni tushunishmaydi” degan fikr**,** o‘zini qadrsiz his qilish**,** boshqalardan farq qilish hissi**.** Bu holat uzoq davom etsa, talabaning o‘ziga bo‘lgan ishonchi pasayadi va u ijtimoiy hayotdan yanada chekinadi.

4. Ijtimoiy izolyatsiya- Marginalizatsiyaning eng chuqur bosqichi bu ijtimoiy izolyatsiya hisoblanadi. Bu holatda talaba ataylab yoki majburan jamiyatdan uzoqlashadi. U ijtimoiy faoliyatda ishtirok etmaydi, ko‘proq yolg‘izlikni afzal ko‘radi. Ijtimoiy izolyatsiya quyidagi oqibatlarga olib kelishi mumkin:

ruhiy tushkunlik (depressiya), xavotir va stressning ortishi, ijtimoiy ko‘nikmalarning yanada zaiflashuvi Natijada shaxsda passiv hayot tarzi shakllanadi va u o‘z salohiyatini to‘liq namoyon eta olmaydi.

Tadqiqot obyekti: Marginalizatsiya — bu faqat ijtimoiy chetlanish emas, balki shaxsning ichki psixologik inqirozi bilan ham bog‘liq murakkab jarayondir[1]. Talabalar orasida u moslashuv muammolari, kommunikativ to‘siqlar va o‘zini anglashdagi qiyinchiliklar bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Shu sababli marginalizatsiyani erta aniqlash va unga qarshi kompleks choralar ko‘rish muhim ahamiyatga ega. Marginal holatdagi talabalar psixologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi. Ushbu belgilar shaxsning ichki kechinmalari, ijtimoiy tajribasi va muhitga moslashuv darajasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ular ko‘pincha bir-biri bilan uzviy aloqada namoyon bo‘ladi.

1. O‘ziga ishonchsizlik- Marginalizatsiyaning eng asosiy psixologik belgilaridan biri — bu o‘ziga bo‘lgan ishonchning pastligidir. Bunday talabalar o‘z qobiliyatlari va imkoniyatlarini past baholaydi, muvaffaqiyatga erishishiga shubha bilan qaraydi. Bu holat quyidagicha namoyon bo‘ladi:

- yangi vazifalardan qo‘rqish
- jamoa oldida fikr bildirishdan tortinish
- tanqidni haddan tashqari og‘ir qabul qilish

Natijada talaba o‘zini rivojlantirish imkoniyatlaridan foydalanmaydi va ijtimoiy faollikdan chekinadi.

2. Passivlik- Passivlik marginal shaxslarning yana bir muhim xususiyatidir. Bunday talabalar ko‘pincha tashabbus ko‘rsatmaydi, faoliyatda ishtirok etishni istamaydi yoki bundan qochadi.

Passivlik quyidagilar orqali ko‘rinadi:

- darslarda sust ishtirok etish
- guruh ishlarida faol bo‘lmaslik
- qaror qabul qilishdan qochish

Bu esa shaxsning ijtimoiy va akademik rivojlanishini sekinlashtiradi.

3. Tashabbusning yo‘qligi- Marginal holatdagi talabalar ko‘pincha yangi g‘oyalar ilgari surishdan yoki liderlik rolini egallashdan chekinadi. Ular o‘z fikrining ahamiyatiga ishonmaydi yoki rad etilishdan qo‘rqadi. Buning asosiy sabablari o‘ziga past baho berish**,** avvalgi salbiy tajribalar**,** ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi**.** Natijada talaba faqat kuzatuvchi rolida qolib ketadi va o‘z salohiyatini namoyon eta olmaydi.

4. Yolg‘izlik hissi- Marginalizatsiya jarayonida talabalar kuchli yolg‘izlik hissini boshdan kechiradi. Bu nafaqat jismoniy yolg‘izlik, balki psixologik ajralganlikni ham anglatadi. Yolg‘izlik hissi o‘zini hech kimga kerak emasdek his qilish, emotsional qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi, ichki kechinmalarni boshqalar bilan bo‘lisha olmaslik bilan ifodalanadi. Bu holat uzoq davom etsa, depressiv kayfiyat va ruhiy tushkunlikka olib kelishi mumkin.

5. Agressivlik yoki haddan tashqari tortinchoqlik-Marginal talabalar psixologik bosimga turlicha reaksiya bildiradi. Ayrimlari agressiv bo‘lib qolsa, boshqalari esa aksincha, haddan tashqari tortinchoq va

yopiq bo‘lib qoladi[2]. Agressivlik tez jahllanish, boshqalarga nisbatan salbiy munosabat, nizoli vaziyatlarga moyillik namoyon bo‘ladi. Tortinchoqlik esa muloqotdan qochish**,** jamoat oldida gapirmaslik**,** ijtimoiy vaziyatlarda noqulaylik his qilish**da** ko’rinadi. Har ikkala holat ham shaxsning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Marginalizatsiyaning psixologik belgilari talabaning ichki dunyosidagi muvozanat buzilganidan dalolat beradi. O‘ziga ishonchsizlik, passivlik, tashabbus yetishmasligi, yolg‘izlik va xulq-atvordagi keskinliklar shaxsning ijtimoiy muhitga to‘liq moslasha olmayotganini ko‘rsatadi. Shu sababli bunday belgilarni erta aniqlash va psixologik yordam ko‘rsatish muhim ahamiyatga ega.

Qo‘llanilgan metodlar: Talabalar orasida marginalizatsiya nafaqat ularning hozirgi ijtimoiy holatiga, balki kelajakdagi shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu jarayonning oqibatlari ko‘p qirrali bo‘lib, ular akademik, ijtimoiy va psixologik sohalarda namoyon bo‘ladi. Marginal holatdagi talabalar ko‘pincha o‘quv jarayonida yetarli darajada faol ishtirok etmaydi. Ularning motivatsiyasi past bo‘ladi, o‘qishga nisbatan qiziqish susayadi. Darslarni qoldirish yoki kechikish, mustaqil ta’lim bilan shug‘ullanmaslik, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarmaslik, past baholar olish kabilar kuzatiladi.

Natijada talabaning umumiy akademik ko‘rsatkichlari yomonlashadi va hatto o‘qishni tashlab ketish xavfi ham yuzaga keladi.

Marginalizatsiya talabaning ijtimoiy muhitga moslashuv jarayonini izdan chiqaradi. Bunday talabalar jamoa bilan samarali muloqot o‘rnata olmaydi va ijtimoiy rollarni bajarishda qiynaladi. Guruh faoliyatida ishtirok etmaslik, ijtimoiy tadbirlardan chetda qolish, jamoa ichida o‘z o‘rnini topa olmaslik kabilarda bu jarayon yaqqol namoyon bo’ladi. Natijada talaba jamiyatdan tobora uzoqlashib boradi va ijtimoiy izolyatsiya kuchayadi.

Marginalizatsiya shaxsning ruhiy holatiga bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Doimiy ijtimoiy bosim, yolg‘izlik va o‘ziga ishonchsizlik turli psixologik muammolarni keltirib chiqaradi. Depressiv holatlar, kuchli xavotir va stress,emotsional beqarorlik, o‘zini qadrsiz his qilish kabi holatlarni kuzatish mumkin. Agar bu muammolar vaqtida hal etilmasa, ular chuqurlashib, shaxsning umumiy hayot sifatini pasaytiradi.

Marginal holatdagi talabalar ba’zan ijtimoiy normalardan chetga chiqadigan xatti-harakatlarni namoyon etishi mumkin. Bu ularning jamiyatdan ajralib qolganligi va o‘zini namoyon qilish uchun alternativ yo‘llarni izlayotgani bilan izohlanadi. Deviant xulq-atvor huquqbuzarliklar, zararli odatlarga berilish (chekish, spirtli ichimliklar va boshqalar), agressiv yoki destruktiv xatti-harakatlarni o’z ichiga oladi. Bu holat nafaqat talabaning o‘ziga, balki uning atrofidagilarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Marginalizatsiyaning oqibatlari talabaning barcha hayotiy sohalariga — ta’lim, ijtimoiy munosabatlar va ruhiy salomatligiga kompleks ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, akademik muvaffaqiyatsizlik, ijtimoiy moslashuvning buzilishi, psixologik muammolar va deviant xulq-atvor bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanadi. Shu sababli marginalizatsiyani erta aniqlash va uning oldini olish choralarini ko‘rish muhim ahamiyat kasb etadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili: Talabalar orasida marginalizatsiya nafaqat individual psixologik muammo, balki butun ijtimoiy muhit bilan bog‘liq murakkab jarayon hisoblanadi. Shu sababli uni oldini olish va bartaraf etish choralari ko‘p qirrali bo‘lishi kerak: psixologik yordam, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ta’lim tizimini takomillashtirish kabi yo‘nalishlarda kompleks choralarni amalga oshirish zarur.

1. Psixologik yordam marginal holatdagi talabalarni qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishidir. Bu yordam shaxsning ichki resurslarini rivojlantirish, stressni kamaytirish va ijtimoiy muhitga moslashuvini osonlashtirishga qaratilgan.

- **Trening va konsultatsiyalar:** Talabalarga ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, stressni boshqarish, muloqot va konfliktlarni hal qilish bo‘yicha maxsus treninglar o‘tkazish. Shu orqali ular guruh ichida o‘z o‘rnini topa olishadi va marginalizatsiya xavfi kamayadi.
- **Shaxsiy rivojlanish dasturlari:** Talabalarga o‘z qobiliyatlarini anglash, maqsadlarini aniqlash va o‘zini namoyon qilish ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan dasturlar. Bu ular o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi va passivlikni kamaytiradi.
- **Stressni boshqarish mashqlari:** Meditatsiya, nafas olish texnikalari, vaqtni boshqarish va hissiy barqarorlik mashqlari talabalarning ruhiy salomatligini mustahkamlashga yordam beradi.

2. Talabalarning ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini topishi marginalizatsiyani oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash shaxsning guruh bilan integratsiyasini kuchaytiradi, yolg‘izlik hissini kamaytiradi va ijtimoiy faollikni rag‘batlantiradi.

- **Talabalar klublari va jamoaviy faoliyat:** Qiziqish va kasbga oid klublar, sport va ijodiy jamoalar talabalarga o‘zaro muloqot qilish imkoniyatini beradi. Bu ularni ijtimoiy izolyatsiyadan chiqaradi va guruh a’zolari bilan iliq aloqalar o‘rnatishga yordam beradi.

• **Mentorlik tizimi:** Tajribali talabalar yoki o‘qituvchilar tomonidan beriladigan shaxsiy maslahat va yo‘l-yo‘riq, yangi talabalarning muhitga tezroq moslashishiga xizmat qiladi. Mentorlar ijtimoiy va psixologik yordam ko‘rsatadi, ularning o‘zini begona his qilishini kamaytiradi.

• **Ijtimoiy integratsiya dasturlari:** Maxsus dasturlar orqali talabalarga ijtimoiy tadbirlarda ishtirok etish, guruh loyihalarini bajarish va o‘zaro hamkorlik qilish imkoniyati yaratiladi. Bu ularning jamiyatga integratsiyasini kuchaytiradi.

3.Oliy ta’lim muassasalarida marginalizatsiyani kamaytirishning muhim yo‘li — ta’lim jarayonini talabalar ehtiyojlariga moslashtirish va pedagogik yondashuvni rivojlantirishdir.

• **Individual yondashuv:** Talabalarning qobiliyatlari, psixologik xususiyatlari va ijtimoiy holatiga mos ravishda individual reja va vazifalar ishlab chiqish. Bu ularni akademik muvaffaqiyatsizlikdan himoya qiladi va o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi.

• **Interaktiv ta’lim usullari:** Guruh ishlari, muhokamalar, loyiha asosida o‘qitish va boshqa interaktiv metodlar talabalarning faol ishtirokini rag‘batlantiradi. Shu orqali ular o‘z fikrini erkin ifoda etadi va jamiyat bilan bog‘lanadi.

• **Psixologik xizmatlarni rivojlantirish:** Universitetlarda professional psixologlar mavjudligi, konsultatsiyalar va ruhiy salomatlik bo‘yicha yordam dasturlari marginalizatsiyani kamaytirishga yordam beradi. Bu shuningdek stress va depressiya holatlarini oldini oladi.

X**ulosa:** Talabalar orasida marginalizatsiya murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa bo‘lib, uning yuzaga kelishida turli omillar o‘zaro ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu muammoni hal qilish uchun kompleks yondashuv — ya’ni ijtimoiy, psixologik va pedagogik choralarni birgalikda qo‘llash zarur. Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta’minlash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Talabalar orasida marginalizatsiyani oldini olish va bartaraf etish uchun kompleks yondashuv zarur: psixologik yordam, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ta’lim tizimida individual yondashuvni uyg‘unlashtirish. Ushbu choralar talabalarni ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli integratsiya qilish, ruhiy salomatlikni mustahkamlash va akademik natijalarni yaxshilashga xizmat qiladi. Shu tarzda, oliy ta’lim muassasalari talabalar orasida marginalizatsiya jarayonini samarali nazorat qilishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev J.G‘. – Pedagogika va psixologiya. Toshkent, 2012.
2. Abdukarimov H. – Ijtimoiy psixologiya asoslari. Toshkent, 2018.
3. Qodirov B.R. – Shaxs psixologiyasi. Toshkent, 2016.
4. Robin Simmons, Ron Thompson, Lisa Russell – Education, Work and Social Change: Young People and Marginalization in Post-Industrial Britain. Palgrave Macmillan, 2014.
5. Sam Fluit, Laura Cortés-García, Tilmann von Soest – Social marginalization: A scoping review of 50 years of research. Humanities and Social Sciences Communications, 2024.

BO‘LAJAK BIOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARIDA O‘Z-O‘ZINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Usmonova Mubashira Suvonovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Mazkur maqolada bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarida o‘z-o‘zini rivojlantirish metodikasining ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi. O‘z-o‘zini rivojlantirish tushunchasining mazmuni, uning pedagogik mohiyati, asosiy komponentlari hamda uni shakllantirishga ta’sir etuvchi omillar yoritilgan. Shuningdek, biologiya o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida o‘z-o‘zini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga doir nazariy yondashuvlar asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *o‘z-o‘zini rivojlantirish, biologiya o‘qituvchisi, pedagogik kompetentlik, refleksiya, mustaqil ta’lim, kasbiy rivojlanish, metodika, innovatsion yondashuv.*

БУДУЩИЕ УЧИТЕЛЯ БИОЛОГИИ: НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕТОДИКИ САМОРАЗВИТИЯ

В данной статье анализируются научно-теоретические основы методики саморазвития будущих учителей биологии. Раскрываются содержание понятия саморазвития, его педагогическая сущность, основные компоненты, а также факторы, влияющие на его формирование. Кроме того, обоснованы теоретические подходы к совершенствованию методики саморазвития в процессе подготовки учителей биологии.

Ключевые слова: *саморазвитие, учитель биологии, педагогическая компетентность, рефлексия, самостоятельное обучение, профессиональное развитие, методика, инновационный подход.*

FUTURE BIOLOGY TEACHERS: SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF SELF-DEVELOPMENT METHODOLOGY

This article analyzes the scientific and theoretical foundations of the methodology for self-development of future biology teachers. The content of the concept of self-development, its pedagogical essence, main components, and factors influencing its formation are revealed. In addition, theoretical approaches to improving the methodology of self-development in the process of training biology teachers are substantiated.

Keywords: *self-development, biology teacher, pedagogical competence, reflection, independent learning, professional development, methodology, innovative approach.*

Hozirgi globallashuv va ta’lim tizimining modernizatsiyalashuvi sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarib bormoqda. Ayniqsa, biologiya fani o‘qituvchilaridan nafaqat chuqur nazariy bilim, balki mustaqil fikrlash, o‘z ustida ishlash va doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish talab etiladi.

Mazkur maqolada shaxs inson ongining o’ziga xos tomonlarini ifoda etuvchi ruhiy holatlarni o‘zida mujassam etuvchi bo‘lganlari bois shaxs fenomenini tahlil qilishda “individ”, “individuallik”, “sub’ekt” va “shaxs” tushunchalarini o’zaro aloqadorlikda talqin etiladi. Individ tushunchasining izohi asosida, shaxsning tadqiq etish uchun vujudga kelgan ilmiy kontseptsiyalarning mohiyatini tushunish imkonini beradi. Individning muhim xususiyatlarining umumiyligi shaxsning tabiiy asosini tashkil etadigan jins, temperament va moyilliklarda namoyon bo’ladi. Shunday qilib, tirik mavjudotning insoniyat avlodiga mansubligi "individ" (jonzot – o’ziga xos) tushunchasi bilan belgilanadi.

Kalit so‘zlar: *Shaxs, individ, individuallik, sub’ekt, xayotiy pozitsiya, shaxs fenomeni, etika, axloqiy e’tiqod, ijtimoiylashuv, ijtimoiy sifat, psixo-sotsial xususiyat.*

МНЕНИЯ И ВЗГЛЯДЫ НА ТРАКТОВКУ ПОНЯТИЯ ЛИЧНОСТИ

В данной статье понятия "индивид," "индивидуальность," "субъект" и "личность" интерпретируются во взаимосвязи при анализе феномена личности, поскольку личность воплощает в себе психические состояния, выражающие специфические аспекты человеческого сознания. На основе интерпретации понятия индивида дает возможность понять сущность научных концепций, возникших для исследования личности. Общность существенных черт индивида проявляется в полу, темпераменте и склонностях, составляющих естественную основу личности. Таким образом, принадлежность живого существа к человеческому роду определяется понятием "индивид" (живой).

Ключевые слова: *Личность, индивид, индивидуальность, субъект, жизненная позиция, феномен личности, этика, нравственные убеждения, социализация, социальное качество, психосоциальная особенность.*

OPINIONS AND ATTITUDES ABOUT THE INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF PERSONALITY

In this article, the concepts of "individual," "individuality," "subject," and "personality" are interpreted in interconnection when analyzing the phenomenon of personality, as personality embodies mental states that express specific aspects of human consciousness. Based on the interpretation of the concept of the individual, it is possible to understand the essence of scientific concepts that have emerged for the study of personality. The commonality of an individual's essential traits is manifested in their gender, temperament, and traits, which constitute the natural basis of personality. Thus, the belonging of a living being to the human species is determined by the concept of "individual" (living).

Keywords: *Personality, individual, individuality, subject, life position, personality phenomenon, ethics, moral beliefs, socialization, social quality, psycho-social characteristics.*

Shaxs ijtimoiy - tarixiy taraqqiyotning mahsuli bo‘lib, bir tomondan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning mahsuli, bir tomondan ijtimoiy taraqqiyot sub’ekti va ob’ektini ifoda etuvchi ijtimoiy turmushning murakkab, ko’p qirrali hosilasi. Shaxsni tadqiq etishda uning ijtimoiy hodisa ekanligi bois uning ma’lum jamiyatda shakllanayotgan ijtimoiy odatlarning, etika, axloqiy e’tiqod tashuvchisi sifatida, huquqshunoslik shaxsning jamiyatning turli sohalaridagi nizomlarni, huquqiy me’yorlar va huquqiy munosabatlarini, pedagogika esa shaxsni tarbiyalash metodlari, shakllari va formalarini o’rganadi, psixologiya esa shaxsning sub’ektiv dunyosi, uning strukturasi, shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari bilan bog‘liq holda olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Shaxs inson ongining o’ziga xos tomonlarini ifoda etuvchi ruhiy holatlarni o‘zida mujassam etuvchi bo‘lganlari bois shaxs fenomenini tahlil qilishda “individ”, “individuallik”, “sub’ekt” va “shaxs” tushunchalarini o’zaro aloqadorlikda talqin etiladi. Bir jihatdan mazkur tushunchalar o’zaro bir xil talqin etilsa, ayrim holatlarda ularning talqinida tafovutlar aks etadi. Odam tushunchasining kelib chiqishi tub

ildizida biosotsial mavjudlik aks etgan sub’ektni esa, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli bilan bog’lab izohlashga to’g’ri kelganligi bois, insonga jismoniy va aqliy, genetik jihatdan aniqlangan va umumlashgan holda shakllangan, tabiiy va ijtimoiy birlikni tashkil etadigan ajralmas tizim sifatida qarash mumkin (1).

Individ tushunchasining izohi asosida, shaxsning tadqiq etish uchun vujudga kelgan ilmiy kontseptsiyalarning mohiyatini tushunish imkonini beradi. Individning muhim xususiyatlarining umumiyligi shaxsning tabiiy asosini tashkil etadigan jins, temperament va moyilliklarda namoyon bo’ladi. Shunday qilib, tirik mavjudotning insoniyat avlodiga mansubligi "individ" (jonzot – o’ziga xos) tushunchasi bilan belgilanadi.

Inson hayoti va faoliyati biologik va ijtimoiy omillarning birligi va o’zaro bog’liqligi bilan belgilanib, bunda ular yetakchi rol o’ynaydi. Ong, nutq, mehnat va boshqa insoniy xususiyatlar avvalgi avlodlar tomonidan yaratilgan madaniyatni o’zlashtirish jarayonida shakllanadi. Shuning uchun, individ sifatida tug’ilgan inson farzandi rivojlanish jarayonida shaxs sifatida shakllanadi. Shaxsning shakllanishi bola ijtimoiylashuvi bilan sodir bo’ladi. Ijtimoiylashuv - bu shaxsning ma’lum bilimlar tizimi, me’yorlari, qadriyatlari, ongi va xulq-atvorining ijtimoiy shakllari, insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasi, jamiyatning to’laqonli a’zosi.

Shaxs - bu jamiyat, ma’lum bir ijtimoiy guruh vakili bo’lgan, atrof- muhitga bo’lgan munosabatini anglagan, ma’lum bir faoliyat turi bilan shug’ullanadigan va ma’lum individual psixologik xususiyatlarga ega bo’lgan konkret insondir.

Shaxs - bu ijtimoiy tushuncha. B.G.Ananevning talqinicha shaxs bu butun odamni emas, balki uning ijtimoiy sifati, psixo-sotsial xususiyatlarini ifodasidir (2).

Shaxsning dastlabki xususiyatlari - bu insonning ehtiyojlari va motivlari sohasi xususiyatlari bilan belgilanadigan holat, rollar, ichki holat, qadriyat yo’nalishlari. Shaxsiy xususiyatlarning o’zaro ta’siridan xarakter shakllanadi. Individ, avvalambor, jamiyatdan tashqarida, shaxsga aylana olmaydi.

Shaxsning mohiyatini tushunishda albatta, faoliyat sub’ekti va individuallik tushunchalarini tahlil qilmasdan o’tib bo’lmaydi. Shaxsni psixologik fenomen sifatida tahlil qilish, uni tadqiq etish yo’nalishi va uslublarini aniqlashga xizmat qiladi. Shu bois, sub’ekt va individuallik, shaxs tuzilmasi, shaxsning aniqlovchilari, shaxs nazariyalarining mohiyatini izohlash orqali muammoning mohiyatini yoritish mumkin (3).

Individ - shaxsning xususiyatlariga birlashadi hamda amaliy va nazariy (intellektual) faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi va qobiliyatini belgilaydi.

Shaxs fenomenining aniqlovchi komponentlar uni o’lchashni ta’minlaydi. Shaxs psixologik tadqiqotlarini tashkil etishda aniqlovchilari nimadan iborat ekanligini bilmasdan turib, uning baholashga erishib bo’lmadi. Zamonaviy psixologiyada "shaxs" atamasini tushunishda yagona qadriyat va hatto oddiy izchillik mavjud emas. Ko’pincha "shaxs" tushunchasi "individ", "individuallik", "faoliyat sub’ekti", "xarakter", "temperament" va boshqa tushunchalar bilan chalkashib ketadi. Bundan tashqari, har bir tadqiqotchi ushbu masalaga alohida e’tiborni qaratadi.

Shaxsning psixologik jihatidan belgilash asoschilaridan biri Gordon Ollport hisoblanadi. U shaxsni aniqlovchi taxminan 50 ta ta’rifni taklif qilib, birinchi navbatda, shaxs uning fikrlash va xatti-harakatini belgilovchi aqliy va fiziologik tizimlardagi shaxsning dinamik tashkil etuvchisi ekanligiga to’xtaldi.

Bugungi kunda psixologiyada shaxsning turli xil aniqlovchilari mavjud. Quyidagi asosiy aniqlovchilarni ajratib ko’rsatish mumkin ko’p qirrali (xususiyatli); (4)

- xulq-atvorning ma’lum xususiyatlari bilan bog’liq, ma’lum tipga mansublik (tiplarning uyg’unlashuvi);
- konstruktlar tizimi;
- shaxslilik ma’nolar tizimi;
- munosabatlar sub’ekti;
- munosabatlarning predmeti;
- insondagi ijtimoiy sifat;
- ba’zi psixofiziologik birlik, shu jumladan, jismoniy va ijtimoiy muhit;
- Men sub’ektning faoliyati va boshqalar.

A.B.Orlov tomonidan, “shaxs an’anaviy ravishda, doimiy ravishda muhitga moslashish natijasida aniqlanadigan va o’zgarib turadigan, o’ziga xos xususiyatga ega bo’lgan, barcha xususiyatlarning noyob tuzilmalari sintezi", deb ta’riflanadi. Shunday qilib, "shaxs – nisbatan barqaror va hayot davomida psixologik jihatdan shakllanadigan, o’zida motivatsion - ehtiyojlar tizimini hosil qiluvchi, sub’ekt va ob’ektning o’zaro ta’sirini shartlovchi, o’z tabiatiga ko’ra ijtimoiy mavjudlikdir" (5).

Psixologik lug’atda quyidagi ta’rif taklif qilinadi: “Shaxs - bu insonning ijtimoiy tomon, ijtimoiy sifati. Bu ma’lum bir shaxs, muayyan ijtimoiy guruhlarning (millat, sinf, jamoa) vakili, muayyan faoliyat

turlari bilan shug’ullanadigan, atrof-muhitga bo’lgan munosabatini biladigan va o’ziga xos xususiyatlar egasidir".

Shaxsning eng muhim xususiyatli jihatlaridan biri - bu uning individualligidir, ya’ni yagonaligi. Individuallik deganda, insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining betakror birikmasi tushuniladi. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, ruhiy jarayonlar, holatlar, hodisalar, hukmron xususiyatlar yig’indisi, iroda, faoliyat motivlari, inson maslagi, dunyoqarashi, iqtidori, har xil shakldagi reaktsiyalar, qobiliyatlari va shu kabilar kiradi.

Shaxs estetik kamolotining eng asosiy komponentlaridan biri -mexnatsevarligidir. Mexnatsevarlik nafaqat insonning ijtimoiy, axloqiy mohiyati, shu bilan birga, estetik madaniyati asosini xam tashkil qiladi, ezgulik bilan go‘zallik g’oyalarining aniq ifodasidir. Boshqacha aytganda, axloqiy, ezgu goyalar bilan sug’orilmagan estetik qadriyat, umuman go’zallik mohiyatini to‘la gavdalantira olmaydi. Bu muxtasar g’oya qadimgi manbalarimizdan to bugungi badiiy-estetik qadriyatlarimizgacha o’z aksini topganligi ma’lum. Jumladan, “Qutadg’u bilig” asarida “Yigitlarni ishlatib, Bog’ mevasin tashlatib, Kulon, kiyik ovlatib, Bayram qilib yayraylik”, deb qayd qilingan (6).

Shaxsning mexnatsevarligi, avvalambor, uning jamoaviyligi, ijtimoiy faolligi, ma’naviy yuksakligi bilan boglangan, komillik sifatlaridan eng asosiysidir. Mexnatsevarlik faoliyat turi va natijalaridan qat’iy nazar, insonning bu jarayonga maqsadga muvofiq, va ongli qo‘shilishi, jon-jahdi bilan kirishishi, axloqan ko‘rinishi demakdir. Binobarin, mexnat falsafiy ma’noda individning maqsadga muvofiq, ijtimoiy foydali faoliyatidir (7). Axloqiy xodisa sifatida esa unga o‘zini ma’naviy bahshida etishi, kuch-quvvatini sarflashidir (8). Shunday qilib, inson mehnat jarayonlarini o’zlashtirib, jismoniy va ma’naviy kuchlarini moddiylashtirishga intiladi. Ta’kidlash lozimki, o‘z oldiga qanday maqsadlar qo‘yishdan qat’i nazar, mehnat muayyan axloqiy ma’noga ega bo‘ladi. Shu bois mehnat etikasi degan tushuncha qo’llaniladi. Bu tushuncha mehnatning ijtimoiy funksiyasi ta’sirida uning ma’nosiga putur yetish xavfi tug’ilganda alohida ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat va shaxs munosabatlari masalasiga qarashda xurfikrlilik falsafasini tadqiq etish turli dinlar, madaniyatlararo muloqot bag’rikenglikni ta’minlashda xalqlar, millatlar hamda davlatlar o‘rtasida tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilishi bugungi globallashuv davrida dolzarblashib borayotganligi bilan bog’liq.

Islom ta’limotida shaxs va jamiyat munosabatlarini din va xurfikrlilik falsafasi ixtisosligida dinshunoslar va faylasuf olimlar tomonidan milliy g’oya tamoyillari, diniy bag’rikenglik bilan bog’lik yangicha kontseptsiyalar, qarashlar asosida yetarlicha o‘rganilmaganligi bilan asoslash mumkin.

Demokratik fuqarolik jamiyati qurilishida, shaxs va jamiyat munosabatlarida islom ta’limoti qoidalarini madaniy meros, diniy qadriyat sifatida undagi xurfikrlilik falsafasini asoslashga qaratilgan xulosa, amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, ularni ijtimoiy ma’naviy tarzda hisobga olish bugungi kun talabidir.

Diniy va falsafiy ta’limotlar rivoji tarixida shaxs va jamiyat munosabatlari muammosiga turlicha yondashuv va talqinlar ishlab chiqilib, salmoqli asarlar yaratilgan. Masalan, Aflotun “Qonunlar” - asarida davlat, jamiyat va shaxs munosabatlari masalasiga e’tiborni qaratib, adolatli jamiyatning barqaror yashashida erkinlik qadriyatlarining axamiyatini yuksak pog’onaga ko‘taradi (9).

Arastu o‘zining “Siyosat, Etika, Ritorika” kabi asarlarida jamiyat va shaxs munosabatini yanada takomillashtirish g’oyalarini ilgari surgan (10). Uning fikricha, shaxs adolatli ishlarga qo‘l urar, adolat namunasini ko‘rsatar ekan, jasoratli fazilatlarning sohibi ekanligini isbotlaydi. Demak, shaxs va jamiyatning o‘zaro munosabati masalasi qadimgi davr mutafakkirlari diqqat markazida bo‘lgan. Faylasuflar adolatli ijtimoiy munosabatlarni qaror toptirish uchun turli usul va vositalardan foydalanish zarurligini ta’kidlaganlar.

Dunyo dinlari tarixida shaxs va jamiyat munosabati masalasi muhim o‘rin egallab, muqaddas kitoblar Avesto, Rigveda, Tavrot, Zabur, Injil va Qur’on kabilarda, shuningdek, u bilan bog’liq falsafiy qarashlarda xam uzining talqinini topganligini ko‘ramiz (11).

Shaxs va jamiyat munosabatlariga Sharqda xam alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida shaxs va jamiyat munosabatlari xususida insonlarning o‘zaro ko‘maklashishi jamiyatda adolatni ta’minlashga yordam beradi deb xisoblaydi. Abu Rayxon Beruniy shaxs va jamiyat munosabatlari, jamiyatning vujudga kelishida insonlarning o‘zaro yordamga muxtojligi va ularning o‘zaro ixtiyoriy kelishuvini asosiy omil deb biladi. Abu Ali ibn Sino jamiyat insonlarning o‘zaro kelishuvi asosida qabul qilinuvchi adolatli qonunlar yordamida boshqarilishini takidlab o‘tgan (12).

Faol xayotiy pozitsiyaning shakllanishida shaxs faoliyatining jamiyat yoki jamoa tomonidan baholanishi katta rol o‘ynaydi. Shaxsning jamiyat manfaatlarini qondirish maqsadida amalga oshirlgan tadbirlari, faoliyati jamiyat tomonidan xolisona baholanganida uning faol xayotiy pozitsiyasi shakllana va mustahkamlana boradi. Agar jamoa shaxs faoliyatini, yutuqlarini baholay olmasa yoki xolisona baholashni

istamasa, faol xayotiy pozitsiya bo‘lmaydi. Demak, xasadgo‘ylik, manmanlik, loqaydlik xukmron jamoada faol xayotiy pozitsiya xam mavjud emas.

Xullas, gumanistik tipdagi shaxsning faol xayotiy pozitsiyasi murakkab, o‘ziga xos psixologik xodisa bo‘lib, ongning barcha sohalarida o’z ifodasini topadi. U intelektual, irodaviy va hissiy elementlar birligidan iboratdir, Tarbiya jarayonida shaxs faol xayotiy pozitsiyasini shakllantirish vazifasini o‘z oldimizga qo‘yar ekanmiz, uning elementlari o‘zaro dialektik aloqador ekanligi, ularga kompleks ta’sir ko‘rsatish zarurligini e’tibordan chetda qoldirmasligimiz, shuning bilan birga, eng avvalo, shaxsning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga intilishimiz maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, gumanistik tipdagi shaxs umuminsoniy e’tiqodga ega, insonni ulug’lash ruhida tarbiyalangan bo‘lib, nihoyatda murakkab tarkibga ega. Uning tarkibida aqliy zukkolik, ahloqiy yetuklik, xuquqiy komillik, mehnatga xalol munosabat, professional iftixor, madaniy saviya, milliy va umuminsoniy g’urur alohida o‘rin tutadi. Bu podsistemalarning barchasi o‘z elementlariga ega. Ushbu xususiyatlar yuqori darajada shakllanganidagina shaxs faol xayotiy pozitsiyaga ega bo‘ladi.

Yangicha siyosiy tafakkuri umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat ruhining ustuvorligida, xalqaro xuquq normalariga rioya qilishning vujudga kelganida, insonni ulug’lash hissining, ayniqsa fuqaroviy tuyg’ularning kundan kunga ortib borayotganligida, ijtimoiy adolat norma va prinsiplarining mustahkamlanayotganligida o‘z ifodasini topmoqda.

Adabiyotlar:

1. Слотина, Т.В. Психология личности: уч. пособие. – СПб.: Питер, 2017. – 448 с.
2. Ананьев, Б.Г. Избранные психологические труды: в 2-х томах. Т. 1. / Б.Г. Ананьев. – М.: Педагогика. – 1980. – 232 с.
3. Асмолов А.Г. Личность как предмет психологического исследования. - М.:, Изд-во моек, ун-та 1984.
4. Асмолов А. Г. Психология личности : культурно-историческое понимание развития человека / - 3-е изд., испр. и доп. - М.: Смысл : Издательский центр «Академия», 2007. - 528 с.
5. Орлов А.Б. Психология личности и сущности человека: Парадигмы, проекции, практики: Учебное пособие для студентов психологических факультетов вузов. М.: Издательский центр «Академия», 2002. С. 47.
6. К;адимги хикматлар. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1987. - 68 б.
7. Большой энциклопедический словарь.: философия, социология, религия, эзотеризм, политэкономия / Главк-науч.ред. и сост. С.Ю.Солодовников.-Мн: МФЦП, 2002. -С. 848.
8. Философский энциклопедический словарь.-М: ИНФРА-М, 1999. - С. 463.
9. Афлотун. Қонунлар. -Тошкент: Янги аср авлоди, 2002. - Б.95-96.
10. Арасту. Сочинение. В 4-х т. -М.: Мысль, 1984. Т.4.-379 с.
11. Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. - Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. - Б. 60-61.
12. Ибн Сино. Тиб қонунлари. 3 жилдлик сайланма. Тузувчилар: У.Каримов, Х.Хикматуллаев. - Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1992. Т.3. - 142 б.

YOSHLARDA KASBIY MOTIVATSIYA SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Mengdanova Nigora Mustafaqulovna,
Termiz Davlat universiteti magistranti

Mazkur maqolada o‘smirlarda kasbiy motivatsiya shakllanishining psixologik xususiyatlari hamda kasbiy motivining shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Mahalliy va xorijiy pedagog-psixolog olimlar tadqiqotlarida kasbiy motivatsiyaning shakllanishida oila va ta’lim muassasalarining roli to‘g‘risidafi qarashlari yoritilgan. Kasbiy motivatsiya shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ichki va tashqi omillar tizimli ravishda yoritib berilgan. Shuningdek, o‘smirlik davrida shaxs rivojlanishining muhim jihatlari, mazkur yosh davrida kelajak kasbini ongli tanlash, shaxsiy qiziqish va qobiliyatlarni anglash hamda hayotiy maqsadlarni belgilash jarayoni xususiyatlari, kasbiy motivning shakllanish mexanizmlarini o‘rganish ta’lim tizimi va kasbiy qiziqishlarini aniqlash muhim ahamiyat ega ekanligi haqidagi qarashlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *O‘smir, kasbiy motivlar, kasb tanlash, kasbiy yo‘nalganlik, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, shaxsiy qiziqish, qobiliyat, oila muhiti, pedagogik ta’sir, kasbga yo‘naltirish, ijtimoiy omillar, mehnat bozori.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МОТИВАЦИИ У МОЛОДЁЖИ

В данной статье представлен научно-теоретический анализ психологических особенностей формирования профессиональной мотивации у подростков и психологических факторов, влияющих на формирование профессиональной мотивации. Исследования отечественных и зарубежных педагогико-психологических ученых освещают взгляды на роль семьи и образовательных учреждений в формировании профессиональной мотивации. Систематически выделены внутренние и внешние факторы, влияющие на формирование профессиональной мотивации. Также обозначены важные аспекты развития личности в подростковом возрасте, особенности процесса осознанного выбора будущей профессии, понимания личных интересов и способностей, постановки жизненных целей в этом возрасте, взгляды на важность системы образования и идентификации профессиональных интересов в изучении механизмов формирования профессиональной мотивации.

Ключевые слова: *Подросток, профессиональная мотивация, выбор профессии, профессиональная ориентация, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, личный интерес, способности, семейная среда, педагогическое влияние, профессиональная ориентация, социальные факторы.*

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF PROFESSIONAL MOTIVATION IN YOUTH

This article presents a scientific and theoretical analysis of the psychological characteristics of professional motivation development in adolescents and the psychological factors influencing its development. Research by Russian and international educational psychologists explores perspectives on the role of family and educational institutions in the development of professional motivation. Internal and external factors influencing the development of professional motivation are systematically identified. Important aspects of personal development during adolescence are also outlined, including the specifics of making a conscious choice of a future profession, understanding personal interests and abilities, and setting life goals at this age. Views on the importance of the education system and identifying professional interests in studying the mechanisms of professional motivation development are discussed.

Keywords: *Adolescent, professional motivation, career choice, career guidance, intrinsic motivation, extrinsic motivation, personal interest, abilities, family environment, pedagogical influence, career guidance, social factors.*

Kirish. Bugungi kunda jamiyatda kasblar tizimining murakkablashuvi yosh avlodning kasbiy tanloviga ongli va mas’uliyatli yondashuvni talab qilmoqda. Ayni paytda o‘smirlik davrida shaxsning kelajak kasbiy faoliyatiga bo‘lgan munosabati, qiziqishlari va intilishlari shakllanib, kasb tanlashga oid dastlabki

qarorlar qabul qilinadi. Shu jihatdan, o‘smir o‘quvchilarning kasbiy motivining shakllanish jarayonini ilmiy asosda o‘rganish dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda.

Kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyati shundaki, u insonning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, iqtisodiy mustaqilligi va shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi, shuningdek, davlat iqtisodiyoti va mehnat bozoridagi muvozanatni shakllantiradi. To‘g‘ri tanlangan kasb ijtimoiy moslashuvni yengillashtiradi, samarali mehnat orqali hayot sifatini oshiradi va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka hissa qo‘shadi.

Shuningdek, kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Shaxsning ijtimoiy nufuzi: To‘g‘ri tanlangan kasb insonning jamiyatda hurmat va obro‘ga ega bo‘lishiga, ijtimoiy mavqeini belgilashga yordam beradi.

Iqtisodiy mustaqillik va hayot sifati: Kasb orqali daromad topish va o‘zini-o‘zi ta’minlash, shuningdek, hayot darajasini oshirish imkoniyati tug‘iladi.

Mehnat bozori barqarorligi: Yoshlarning o‘z qobiliyatlariga mos kasbni tanlashi mehnat bozorida kadrlar muvozanatini ta’minlaydi va ishsizlikni kamaytiradi.

Ijtimoiy-psixologik moslashuv: O‘z qiziqishiga mos kasbda ishlash insonning ruhiy xotirjamligi va jamoada jipslashuviga (kolektiv bilan ishlashga) yordam beradi.

Jamiyat rivojiga hissa: Har bir mutaxassis o‘z o‘rnida samarali mehnat qilishi orqali mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Kasb tanlash, shuningdek, shaxsning o‘z potentsialini ro‘yobga chiqarishi, jamiyatda faol ishtirok etishi va ijtimoiy muammolarni kamaytirishga xizmat qiladigan strategik ahamiyatga ega jarayondir.

Shaxsning muayyan kasbga nisbatan ijobiy munosabati, ushbu faoliyatni egallashga bo‘lgan ichki ehtiyoji va intilishlarini ifodalaydi. Mazkur motivning yetarli darajada shakllanmasligi talabalarning kasb tanlashda tasodifiy qarorlar qabul qilishiga, kelgusida kasbiy qoniqmaslik va mehnat faoliyatida barqarorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli talabalarning kasbiy motivatsiyasiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va tahlil qilish ta’lim tizimi oldidagi muhim vazifalardan biri sanaladi.

Tadqiqot ob'ekti va qo’llanilgan metodlar. Yoshlarda kasbiy motivning shakllanishi murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, unda shaxsning individual psixologik xususiyatlari bilan bir qatorda oila muhiti, ta’lim muassasalari, pedagoglarning yo‘naltiruvchi faoliyati, tengdoshlar ta’siri hamda jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar muhim rol o‘ynaydi. Ushbu omillarni tizimli o‘rganish o‘smirlarni kasbga ongli yo‘naltirish, ularning qiziqish va qobiliyatlariga mos kasb tanlashiga ko‘maklashish imkonini beradi.[6]

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi o‘smirlarda kasbiy motivatsiyaning shakllanishiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish hamda kasbga yo‘naltirish jarayonini takomillashtirishga qaratilgan amaliy xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

Maktab kasb-hunarga yo’naltiruvchi mutaxassisi tomonidan o’quvchilarni kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish, kasblar haqidagi ma’lumotlarni to’liqroq anglab yetishi shuningdek, ularning kasb tanlashdagi reallikni vujudga keltirish maqsadida maktabda ilg’or kasb egalari, kasb faxriylari, kasb sulolalari bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari, kechalar va ma’ruzalar tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo’ladi. Ushbu tadbirlar o’quvchining shu kasbga bo’lgan qiziqishini yanada qat’iylashishini vujudga keltiradi. O‘smirlarning kasbiy motivining shakllanishi masalasi psixologiya, pedagogika fanlarida keng o‘rganilgan bo‘lib, mazkur yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar ushbu jarayonning murakkab va ko‘p omilli ekanligini ko‘rsatadi. Ilmiy manbalarda kasbiy motiv shaxsning kasbiy faoliyatga bo‘lgan ichki ehtiyoji va tashqi rag‘batlantiruvchi omillar tizimi sifatida talqin etiladi.

Kasbiy rivojlanish nazariyalarining asoschisi hisoblangan D.Super [1] o‘z tadqiqotlarida shaxsning kasbiy rivojlanishini bosqichma-bosqich jarayon sifatida izohlab, o‘smirlik davrini kasbiy o‘zini anglash va kasbiy qiziqishlarning shakllanish bosqichi deb ta’riflaydi. Uning fikricha, aynan ushbu davrda shaxs o‘z qobiliyatlari va kasbiy intilishlarini baholay boshlaydi hamda kelajak kasbiy rejalari shakllanadi.

E.Ginzberg va uning hamkorlari tomonidan ishlab chiqilgan kasb tanlash nazariyasida kasbiy qaror qabul qilish jarayoni uzoq davom etuvchi jarayon sifatida qaraladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, o‘smirlik davrida kasb tanlash ko‘proq qiziqish va qadriyatlarga asoslangan bo‘lib, motivatsiyaning shakllanishida ijtimoiy muhitning ta’siri kuchli ekanligi ta’kidlanadi.

A.Maslou va F.Gersberglarning motivatsiya nazariyalarida kasbiy motivatsiya shaxs ehtiyojlari va qoniqish darajasi bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Maslouning ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariyasiga ko‘ra, kasbiy motivatsiya o‘smirlarning o‘zini namoyon qilish va o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish ehtiyojlari bilan chambarchas bog‘liqdir.[3]

Mahalliy va xorijiy pedagog-psixolog olimlar tadqiqotlarida kasbiy motivatsiyaning shakllanishida oila va ta’lim muassasalarining roli alohida e’tirof etiladi. Jumladan, pedagogik tadqiqotlarda ota-onaning kasbiy qarashlari, ularning kasbga nisbatan munosabati va kutgan natijalari o‘smirlarning kasb tanlash motivatsiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan. Shuningdek, pedagoglarning kasbga yo‘naltiruvchi

faoliyati, kasbiy maslahatlar va psixologik treninglar o‘smirlarda barqaror kasbiy motivatsiyani shakllantirishda samarali vosita sifatida baholanadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning o‘smirlar kasbiy qarorlariga ta’siri ham o‘rganilmoqda. Ayrim mualliflar raqamli muhit o‘smirlarda kasblar haqidagi tasavvurni kengaytirishi bilan birga, noto‘g‘ri stereotiplar va yuzaki motivatsiyaning shakllanishiga ham sabab bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydilar.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlarda kasbiy motivatsiyaning shakllanishi shaxsiy, pedagogik va ijtimoiy omillar uyg‘unligida kechadi. Mazkur masala bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar kasbga yo‘naltirish tizimini takomillashtirish, o‘smirlarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda samarali pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Mazkur tadqiqot yoshlarda kasbiy motivning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, tahlil qilish va ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan hamda faoliyatga asoslangan yondashuvlar metodologik asos sifatida qabul qilindi. Ushbu yondashuvlar o‘smir shaxsining individual psixologik xususiyatlari, ijtimoiy muhiti va ta’lim jarayonidagi faoliyatini o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganish imkonini berdi.

Tadqiqotda nazariy va empirik metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Nazariy metodlar doirasida mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy maqolalar va dissertatsiyalar tahlil qilindi, umumlashtirildi hamda taqqoslandi. Ushbu jarayon o‘smirlarda kasbiy motivatsiya tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlash, uning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar tasnifini ishlab chiqishga xizmat qildi.

Tadqiqot metodlari sifatida so‘rovnoma, suhbat, kuzatish va diagnostik metodlardan foydalanildi. So‘rovnoma usuli orqali o‘smirlarning kasb tanlashga bo‘lgan munosabati, kasbiy qiziqishlari, ichki va tashqi motivatsiya omillari aniqlandi. Suhbat metodi o‘smirlar, ularning ota-onalari hamda pedagoglar ishtirokida o‘tkazilib, kasbiy yo‘nalganlikka ta’sir etuvchi ijtimoiy va pedagogik omillarni chuqurroq o‘rganishga imkon berdi. Kuzatish metodi esa o‘smirlarning ta’lim jarayonidagi faolligi va kasbiy qiziqishlarining namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlashga qaratildi.[7]

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va obyektivligini ta’minlash maqsadida metodlar o‘zaro uyg‘unlikda qo‘llanildi hamda olingan ma’lumotlar bir-biri bilan solishtirildi. Mazkur metodologik yondashuv o‘smirlarda kasbiy motivning shakllanish omillarini har tomonlama o‘rganish va ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida o‘smirlarning kasbiy motivini shakllanish darajasi hamda unga ta’sir etuvchi omillar ma’lumotlar asosida tahlil qilindi. So‘rovnomalar, suhbatlar asosida va psixologik diagnostika metodlari natijalari talabalarning kasb tanlash jarayonida ichki va tashqi motiv omillari o‘zaro uyg‘un holda namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi.

O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning aksariyati kasb tanlashda shaxsiy qiziqish va qobiliyatlarni muhim omil sifatida qayd etgan. Bu holat talabalarda ichki motivning unsurlarining shakllanayotganidan dalolat beradi. Biroq ayrim respondentlar kasb tanlashda ota-onaning tavsiyalari, jamiyatdagi kasblarning nufuzi va moddiy manfaatni ustuvor omil sifatida ko‘rsatgan. Ushbu natijalar tashqi motivatsiya omillarining ham sezilarli ta’sirga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Psixologik diagnostika natijalari o‘smirlarning ma’lum bir qismida kasbiy motivlari darajalari o‘rtacha ekanligini ko‘rsatadilar. Yuqori darajadagi kasbiy motivlarga ega bo‘lgan talabalar o‘z qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlaganlar, kelajak avlodga kasbiy rejalari haqida puxta tasavvurga ega ekanliklari bilan ajralib turdi. Past motivlari darajasiga ega bo‘lgan talabalarda esa kasb tanlashga nisbatan befarqlik yoki ikkilanish holatlari kuzatildi.

Olingan natijalar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, talabalarda kasbiy motivning shakllanishi ko‘p omilli jarayon bo‘lib, unda shaxsiy qiziqish va qobiliyatlar bilan bir qatorda oila, ta’lim muhiti va ijtimoiy omillar muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalari o‘smirlarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishda pedagog-psixologlar va ota-onalar hamkorligining ahamiyatini yana bir bor tasdiqladi.

Kasbiy motivga ta’sir ko‘rsatuvchi ichki va tashqi omillar tizimli ravishda yoritib berilgan. Ichki omillar qatoriga o‘smirning individual qiziqishlari, qobiliyatlari, intilishlari, o‘z-o‘zini anglash darajasi va shaxsiy ehtiyojlari kiritilgan. Tashqi omillar sifatida esa oila muhiti, ota-onaning kasb tanlashdagi ta’siri, maktab va pedagoglarning yo‘naltiruvchi roli, tengdoshlar muhitining ta’siri, jamiyatda kasblarning ijtimoiy nufuzi hamda mehnat bozoridagi talablar ko‘rib chiqiladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning o‘smirlar kasbiy qarorlariga ko‘rsatayotgan ta’siri alohida tahlil qilinadi. Kasb tanlash jarayonida motivatsiyaning

yetarli darajada shakllanmasligi kelajakda kasbiy qoniqmaslik, faoliyatni tez-tez o‘zgartirish va mehnat samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkinligi ilmiy asoslar bilan yoritiladi.

O‘smirlarning kasbiy motivini shakllantirishda ta’lim muassasalari, pedagog-psixologlar va ota-onalar hamkorligining ahamiyati asoslab beriladi hamda kasbga yo‘naltirish jarayonini samarali tashkil etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar keltiriladi. Mazkur tadqiqot natijalari umumta’lim maktablari, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’lim muassasalarida kasbiy yo‘naltirish ishlarini takomillashtirishda foydali bo‘lishi mumkin.[9]

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari o‘smirlarda kasbiy motivatsiyaning shakllanishi murakkab, ko‘p omilli va uzluksiz jarayon ekanligini ko‘rsatdi. Mazkur jarayonda shaxsning individual qiziqishlari va qobiliyatlari bilan bir qatorda oila muhiti, ta’lim muassasalari, pedagog-psixologlarning yo‘naltiruvchi faoliyati hamda jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida aniqlanganki, ichki motivatsiya yetarli darajada shakllangan o‘smirlar kasb tanlashda ongli, maqsadga yo‘naltirilgan va barqaror qarorlar qabul qilishga moyil bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘smirlarning ma’lum qismida kasbiy motivatsiya o‘rtacha yoki past darajada bo‘lib, bu holat kasblar haqidagi axborotning yetarli emasligi, kasbga yo‘naltirish ishlarining tizimli tashkil etilmaganligi hamda tashqi omillarning haddan tashqari ustuvorligi bilan izohlanadi. Shu sababli kasbiy motivatsiyani shakllantirishda faqatgina tashqi rag‘batlantirish emas, balki o‘smirlarning ichki ehtiyojlari va shaxsiy qiziqishlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuv muhim hisoblanadi.

Olingan xulosalar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Ta’lim muassasalarida yoshlar uchun tizimli kasbga yo‘naltirish dasturlarini joriy etish, ularni amaliy mashg‘ulotlar va real mehnat faoliyati bilan bog‘lash.
2. Yoshlarning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan psixologik diagnostika va maslahat ishlarini muntazam tashkil etishdan iborat.
3. Pedagog va psixologlar hamkorligida individual kasbiy rivojlanish rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish.
4. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o‘smirlarga kasblar haqida ishonchli va tizimli axborot berish, noto‘g‘ri stereotiplarning oldini olish.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarda kasbiy motivatsiyani shakllantirish ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib, mazkur jarayonni samarali tashkil etish kelajakda malakali, o‘z kasbidan qoniqadigan va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonov A., Yo‘ldoshev B. *Pedagogik psixologiya*. — Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. Bojovich L.I. Lichnost i yeye formirovanie v detskom vozraste. — Moskva: Prosveshcheniye, 1968.
3. Ginzberg E., Ginsburg S., Axelrad S., Herma J. Occupational Choice: An Approach to a General Theory. — New York: Columbia University Press, 1951.
4. Karimova V.M. Yosh psixologiyasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
5. Klimov E.A. Psixologiya professionalnogo samoopredeleniya. — Moskva: Akademiya, 2004.
6. Maslow A.H. Motivation and Personality. — New York: Harper & Brothers, 1954.
7. Markova A.K. Formirovanie motivatsii ucheniya. — Moskva: Pedagogika, 1990.
8. Herzberg F. Work and the Nature of Man. — Cleveland: World Publishing Company,1966.
9. Holland J.L. Making Vocational Choices: A Theory of Vocational Personalities and Work Environments. — Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1997.
10. Super D.E. The Psychology of Careers. — *New* York: Harper & Row, 1957.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYANI “TARBIYA” FANI ASOSIDA INTEGRATSIYALASH TEXNOLOGIYASI

Norbo‘tayeva Iroda Yunusovna,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik ta’lim va tarbiyani “Tarbiya” fani mazmuni bilan uzviy integratsiya qilishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik texnologiya ilmiy-nazariy va metodik jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqotda ekologik savodxonlik, ekologik qadriyat, mas’uliyatli xulq va kundalik amaliy faoliyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilinib, ularni boshlang‘ich ta’lim jarayonida shakllantirishning bosqichli modeli ishlab chiqilgan. Muallif tomonidan mazkur texnologiyaning motivatsion-qadriyaviy, mazmuniy-anglash, amaliy-faoliyat hamda refleksiv-baholash bosqichlari tavsiflanadi va har bir bosqichning didaktik vazifalari ochib beriladi. Shuningdek, ekologik ta’limni “Tarbiya” fanining qadriyatlar, odob-axloq, tejamkorlik, mas’uliyat, tabiatga ehtiyotkorlik va sog‘lom turmush kabi mavzulari bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. Maqolada kuzatish, muammoli vaziyat, rolli o‘yin, mini-loyiha, oilaviy topshiriq, refleksiv kundalik kabi metodlarning o‘quvchilarda ekologik ong va xulqni rivojlantirishdagi metodik afzalliklari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *ekologik ta’lim, ekologik tarbiya, Tarbiya fani, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik texnologiya, qadriyatlar ta’limi, barqaror rivojlanish, ekologik madaniyat, integrativ yondashuv, refleksiya, faoliyat, kompetensiya.*

ТЕХНОЛОГИЯ ИНТЕГРАЦИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ НА ОСНОВЕ ПРЕДМЕТА «ВОСПИТАНИЕ»

В статье представлено научное, теоретическое и методическое обоснование эффективной педагогической технологии, служащей для интеграции экологического образования и воспитания учащихся начальной школы с содержанием предмета «Воспитание». В исследовании анализируется взаимосвязь между экологической грамотностью, экологическими ценностями, ответственным поведением и повседневной практической деятельностью, а также разработана поэтапная модель их формирования в процессе начального образования. Автор описывает мотивационно-ценностный, содержательно-понимающий, практико-деятельный и рефлексивно-оценочный этапы данной технологии и раскрывает дидактические задачи каждого этапа. Также показаны возможности сочетания экологического образования с такими темами предмета «Воспитание», как ценности, этика, бережливость, ответственность, забота о природе и здоровый образ жизни. В статье подчеркиваются методические преимущества таких методов, как наблюдение, проблемные ситуации, ролевые игры, мини-проекты, семейные задания и рефлексивные дневники, в развитии экологического сознания и поведения учащихся.

Ключевые слова: *экологическое образование, экологическое воспитание, предмет “Воспитание”, начальное образование, педагогическая технология, ценностное обучение, устойчивое развитие, экологическая культура, интегративный подход, рефлексия, деятельность, компетентность.*

TECHNOLOGY OF INTEGRATING ENVIRONMENTAL EDUCATION AND UPBRINGING IN PRIMARY GRADES BASED ON THE SUBJECT “EDUCATION”

The article provides a scientific, theoretical and methodological justification for an effective pedagogical technology that serves to integrate environmental education and upbringing of primary school students with the content of the subject "Education". The study analyzes the relationship between environmental literacy, environmental values, responsible behavior and daily practical activities, and develops a step-by-step model for their formation in the process of primary education. The author describes the motivational-value, content-understanding, practical-activity and reflexive-evaluation stages of this technology and reveals the didactic tasks of each stage. The possibilities of combining environmental education with such topics of the subject "Education" as values, ethics, thrift, responsibility, care for nature and healthy lifestyle are also shown. The article highlights the methodological advantages of such methods as observation, problem situations, role-playing games, mini-projects, family assignments, and reflective diaries in developing environmental awareness and behavior in students.

Keywords: *environmental education, environmental upbringing, Education subject, primary education, pedagogical technology, values education, sustainable development, ecological culture, integrative approach, reflection, activity, competence.*

Kirish. Ma’lumki, har qanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, avvalo, uning inson kapitali sifati, ma’naviy-madaniy darajasi hamda yosh avlodning qadriyatlar tizimiga tayangan xulq-atvori bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, boshlang‘ich ta’lim bosqichi nafaqat elementar bilimlarni egallash maydoni, balki bolaning tabiatga munosabati, ijtimoiy mas’uliyati, odobiy me’yorlari va kundalik ekologik xulqini shakllantiruvchi tayanch davr sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, ta’lim mazmuni va sifatining davlat talablari asosida ta’minlanishini belgilab berishi bilan ushbu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar uchun mustahkam me’yoriy asos yaratadi.

Dunyo sivilizatsiyasi rivojlanishining hozirgi sur’ati, texnogen bosimning kuchayishi, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish, maishiy iste’molning ortishi va iqlimiy o‘zgarishlar fonida ekologik savodxonlikni erta yoshdan shakllantirishni global pedagogik vazifaga aylantirdi. UNESCOning Ta’lim orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo‘yicha yondashuvi ekologik mavzularni alohida faktlar to‘plami sifatida emas, balki hayotiy vaziyatlar, qaror qabul qilish, mas’ul tanlov va fuqarolik xulqi bilan bog‘langan yaxlit kompetensiyalar tizimi sifatida ko‘rishni tavsiya etadi. Shu sababli ekologik tarbiya boshlang‘ich sinfda fanlararo integratsiya, faoliyatga yo‘naltirilgan topshiriqlar va refleksiv baholash bilan uyg‘unlashgandagina barqaror natija beradi.

Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “har qanday mamlakat taraqqiyoti sog‘lom va bilimli avlodga bog‘liq”. Mazkur konseptual g‘oya ekologik tarbiyani ham ta’lim siyosatining chekka bo‘lagi sifatida emas, balki sog‘lom turmush, xavfsiz muhit, tabiatga mas’ul munosabat va Vatanga daxldorlikni birlashtiruvchi integral tarbiyaviy yo‘nalish sifatida talqin etishni talab qiladi. Binobarin, ekologik ta’limning samaradorligi faqat bilim berish bilan emas, balki bolada “mening har bir amalim tabiatga ta’sir qiladi” degan ichki pozitsiyani vujudga keltirish bilan o‘lchanadi.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida izchillik bilan amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya sohasidagi strategik vazifalarning mazmuni ham aynan sifatli ta’lim, qulay ekologik sharoit va fuqarolik mas’uliyatini uyg‘un holda rivojlantirishga qaratilgan. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida xalqaro standartlarga javob beradigan ta’lim tizimini tashkil etish hamda aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish ustuvor g‘oyalar sifatida belgilangan. Shu bilan birga, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasida o‘sib kelayotgan yosh avlodda ekologik bilim, ong va madaniyatni shakllantirish, ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish vazifasi alohida ta’kidlanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik ta’lim va tarbiyani aynan “Tarbiya” fani orqali amalga oshirish masalasi ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan dolzarb bo‘lib, bu fan mazmunan qadriyat, odob, ijtimoiy munosabat, fuqarolik pozitsiyasi, sog‘lom turmush va mas’uliyat kabi tushunchalarni o‘zida jamlagani bilan ekologik xulqni shakllantirish uchun qulay metodik platforma yaratadi. Vazirlar Mahkamasining 422-son qarori bilan “Tarbiya” fanining bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilishi, uning ta’lim mazmuni va malaka talablarini belgilovchi konsepsiya qabul qilingani ushbu fan doirasida yangi integrativ texnologiyalarni ishlab chiqish zaruratini kuchaytirdi.

Psixolog olim L.S. Vygotskiyning sotsiokultural rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bolaning tafakkuri va xulqi ijtimoiy muloqot, vositali faoliyat hamda qo‘llab-quvvatlovchi muhit ta’sirida rivojlanadi. Ushbu nazariy pozitsiya ekologik tarbiyada ham muhim: bola tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik, mehnat, kuzatuv, hamkorlik va g‘amxo‘rlik me’yorlarini individual ravishda emas, balki o‘qituvchi, sinfdoshlar, oila va maktab muhiti bilan o‘zaro ta’sirda o‘zlashtiradi. Demak, ekologik odatlar tayyor qoidalarni yodlatish orqali emas, balki ijtimoiy-tajriba maydonida bosqichma-bosqich ichkilashtiriladi.

Pedagog olim J. Dewey ta’lim samaradorligini tajriba, amaliy harakat, muammoli vaziyat va refleksiya birligida ko‘radi. Shu sababli ekologik tarbiya “Tarbiya” fanida faqat nasihat yoki axborot uzatish shaklida emas, balki maktab hovlisini kuzatish, chiqindilarni saralash, suvni tejash bo‘yicha mini-loyiha, ekologik vaziyatli topshiriq, rolli muloqot, oilaviy kuzatuv va sinf refleksiyasi orqali tashkil etilgandagina natijador bo‘ladi. Deweyning tajribaga tayangan pedagogikasi ushbu maqoladagi texnologiyaning metodologik yadrosini tashkil etadi.

Tadqiqotchi sifatida zamonaviy ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, ekologik savodxonlikning shakllanishi ko‘pincha bilim, munosabat va xulq komponentlarining o‘zaro birligiga bog‘liq. Goulgouti, Plakitsi va Stylosning Gretsiyadagi bo‘lajak pedagoglar ishtirokidagi tadqiqotida ekologik munosabatlar ijobiy bo‘lsa-da, amaliy ekologik harakatlarda ishtirok cheklanganligi aniqlangan. Bu holat ekologik tarbiyada “bilaman” va “amal qilaman” o‘rtasidagi pedagogik bo‘shliqni yopadigan

maxsus texnologiyalar zarurligini ko‘rsatadi. Xuddi shunday, Yaacob va Abdullah boshlang‘ich maktab o‘qituvchilarida bilim hamda munosabat yuqori bo‘lsa-da, amaliy ekologik xulq darajasi nisbatan pastligini qayd etadi.

Xorijlik olimlardan Bulan Prabawani va hammualliflar boshlang‘ich maktabda ESD doirasidagi ekologik ta’lim uzoq muddatli va tizimli bo‘lishi kerakligini, qisqa muddatli tadbirlar barqaror xulqni shakllantirish uchun yetarli emasligini ta’kidlaydi. Rodríguez Pérez va hammualliflar esa boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashda ekologik savodxonlikni oziq-ovqat, iste’mol, kundalik turmush va ijtimoiy-ekologik inqiroz bilan bog‘langan real muammolar asosida shakllantirish samarali ekanini ko‘rsatadi. Zhang, Jung va Asarining tizimli sharhida esa maktab ekologik ta’limida fanlararo integratsiya, tashqi muhitdan foydalanish, tanqidiy fikrlash va ishtirokchi metodlar eng ko‘p uchraydigan samarali amaliyotlar sifatida ajratib ko‘rsatiladi.

Mazkur maqolaning boshqa ishlardan farqi shundaki, unda ekologik ta’lim va tarbiyani alohida sinfdan tashqari ish yoki tabiatshunoslik blokiga yuklab qo‘yish emas, balki “Tarbiya” fanining qadriyatlarga yo‘naltirilgan mazmuni bilan uzviy integratsiyalangan, bosqichli, indikatorli va refleksiv baholash elementlarini o‘zida mujassam etgan ilmiy-pedagogik injiniring asosidagi texnologiya taklif etiladi. Innovatsion jihat sifatida texnologiyada uch komponent — ekologik bilim, ekologik qadriyat va ekologik xulq — “Tarbiya” fanining mavzulari, metodlari, vaziyatli topshiriqlari, mini-loyihalari hamda oila-maktab hamkorligi bilan bir tizimga keltiriladi.

Tadqiqotning maqsadi - boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik ta’lim va tarbiyani “Tarbiya” fani asosida amalga oshirishning samarali pedagogik texnologiyasini ishlab chiqish va uning metodik imkoniyatlarini asoslash.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: 1) me’yoriy-huquqiy va ilmiy-manbaviy bazani tahlil qilish; 2) ekologik ta’limni “Tarbiya” fani mazmuni bilan integratsiyalash mezonlarini aniqlash; 3) bosqichli pedagogik texnologiya modelini ishlab chiqish; 4) uning kutiladigan natijalari, indikatorlari va baholash mexanizmlarini tavsiflash.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Adabiyotlar tahlili va metodologiya borasida, tadqiqot metodologiyasi ilmiy-pedagogik injiniring yondashuviga tayandi. Mazkur yondashuv pedagogik muammoni aniqlash, maqsadni aniq belgilash, mazmuniy komponentlarni konstruksiyalash, metodik vositalarni tanlash, indikatorlarni ishlab chiqish va kutiladigan natijalarni loyihalash bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotda quyidagi usullar qo‘llanildi: me’yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili, komparativ-pedagogik tahlil, kontent-tahlil, konseptual modellashtirish, fanlararo integratsiya usuli hamda kriterial-prognostik baholash.

Tahlil jarayonida avvalo “Tarbiya” fani konsepsiyasining vazifalari, yosh xususiyatlari, malaka talablari va qadriyaviy yo‘nalishlari o‘rganildi. So‘ng ekologik ta’limga doir milliy konsepsiyalar, xalqaro ESD talablari va boshlang‘ich ta’limdagi xorijiy tajribalar bilan qiyosiy bog‘liqlik o‘rnatildi. Natijada ekologik mazmunni “Tarbiya” faniga joylashtirishning quyidagi mezonlari ajratildi: qadriyaviy moslik, yoshga moslik, kundalik hayotga tatbiq etish imkoniyati, kuzatiladigan xulqiy indikatorlarga ega bo‘lishi va ota-ona hamkorligiga ochiqligi.

Nazariy ma’lumotlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik ta’lim va tarbiyani “Tarbiya” fani asosida amalga oshirishning samarali pedagogik texnologiyasida o‘rganilganlik darajasi quyidagicha belgilash imkonini berdi: birinchidan, milliy me’yoriy bazada ekologik madaniyat va “Tarbiya” fanining qadriyaviy yo‘nalishlari uchun yetarli konseptual asos mavjud; ikkinchidan, xorijiy tadqiqotlarda ekologik savodxonlik ko‘proq bilim, munosabat va xulqning birligi sifatida talqin qilinadi; uchinchidan, amaliyotda aynan boshlang‘ich sinf “Tarbiya” darslari doirasida ekologik xulqni bosqichli texnologiya asosida shakllantirish bo‘yicha yaxlit model yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, pedagogik texnologiya quyidagi strukturaviy birliklarda loyihalashtirildi: maqsadli blok, mazmuniy blok, metodik blok, faoliyat blok, diagnostik blok va natijaviy blok. Maqsadli blokda boshlang‘ich sinf o‘quvchisida ekologik bilimni emas, balki ekologik qadriyat va mas’ul xulqni shakllantirish ustuvor vazifa etib belgilandi. Mazmuniy blokda “ozodalik”, “tejamkorlik”, “mehr-shafqat”, “Vatanga muhabbat”, “mas’uliyat”, “tabiatga ehtiyotkorlik”, “sog‘lom turmush” kabi mavzular ekologik mazmun bilan boyitildi. Metodik blok esa kuzatish, suhbat, muammoli vaziyat, rolli o‘yin, mini-loyiha, rasmli tahlil, oilaviy topshiriq va refleksiv kundalik kabi vositalarni qamrab oldi.

Natijalar. Natijalar asosida, tadqiqot doirasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik ta’lim va tarbiyani “Tarbiya” fani asosida amalga oshirishning to‘rt bosqichli samarali pedagogik texnologiyasi ishlab chiqildi. Birinchi - motivatsion-qadriyaviy bosqich bo‘lib, unda tabiatga nisbatan hissiy munosabat, g‘amxo‘rlik, qiziqish va daxldorlik hissi shakllantiriladi. Ikkinchi - mazmuniy-anglash bosqichi bo‘lib, o‘quvchi ekologik tushunchalarni kundalik misollar asosida anglaydi. Uchinchi - amaliy-faoliyat bosqichi

bo‘lib, unda o‘quvchi ekologik qoidalarni real xatti-harakatda sinab ko‘radi. To‘rtinchi - refleksiv-baholash bosqichi bo‘lib, unda bola o‘zining ekologik xulqidagi o‘zgarishni kuzatadi, baholaydi va mustahkamlaydi.

Mazkur texnologiyaning mohiyati shundaki, har bir dars ekologik mavzuni abstrakt tushuntirish bilan emas, balki “ko‘rdim - tushundim - bajardim - mulohaza qildim” zanjiri asosida tashkil etiladi. Masalan, “Tozalik va tartib” mavzusi chiqindilarni farqlash, “Tejamkorlik” mavzusi suv va elektrdan oqilona foydalanish, “Mehr-shafqat” mavzusi jonli tabiatga g‘amxo‘rlik, “Mas’uliyat” mavzusi esa sinf va maktab hududiga egalik hissini rivojlantirish bilan bog‘lanadi. Natijada ekologik ta’lim “Tarbiya” fanida sun’iy qo‘shimcha emas, balki mavzuning ichki mazmuniy qatlamiga aylanadi.

Taklif etilgan texnologiyada baholash ham an’anaviy reproduktiv tekshiruv emas, balki indikatorli diagnostika asosida tashkil etiladi. Diagnostik indikatorlar uch guruhga ajratildi: bilimiy indikatorlar (ekologik tushunchalarni anglash, sabab-oqibatni ko‘ra bilish), qadriyaviy indikatorlar (tabiatga g‘amxo‘rlik, befarqlikning kamayishi, ijobiy munosabat), xulqiy indikatorlar (ozodalikka amal qilish, isrofni kamaytirish, amaliy ekologik tashabbus ko‘rsatish). Ushbu yondashuv o‘qituvchiga dars samaradorligini faqat javoblar orqali emas, balki boladagi real o‘zgarishlar orqali kuzatish imkonini beradi.

Texnologiyaning samaradorligini ta’minlovchi muhim omillardan biri - oila va maktab hamkorligining tizimli yo‘lga qo‘yilishidir. Chunki ekologik odatlar darsda paydo bo‘lib, uyda mustahkamlanmasa, ularning barqarorlashuvi sust kechadi. Shu bois texnologiyaga “oilaviy ekologik topshiriq” komponenti kiritildi. Masalan, “Bir kunlik suv tejamkorligi kuzatuvi”, “Uyda chiqindilarni ajratib yig‘ish”, “Oila bilan daraxt yoki gul parvarishi”, “Elektrni tejash bo‘yicha uy qoidalari” kabi topshiriqlar bolaning tarbiyaviy tajribasini kengaytiradi.

Bundan tashqari, texnologiya darsning ichki tuzilishini ham yangilaydi. Dars boshida ekologik muammo yoki hayotiy vaziyat qo‘yiladi, o‘quvchilar kuzatish va muhokama orqali muammoni anglaydi, keyin kichik faoliyat orqali amaliy yechimni topadi va yakunda refleksiya asosida “bugun men tabiat uchun nima qildim?” savoliga javob beradi. Bunday sikl ekologik tarbiyani deklarativ shior emas, shaxsiy tajriba darajasiga olib chiqadi.

Muhokama. Muhokama natijasi, ishlab chiqilgan pedagogik texnologiya “Tarbiya” fanining tabiiy imkoniyatlari bilan zamonaviy ekologik ta’lim talablari o‘rtasida samarali integratsion ko‘prik vazifasini bajarishi mumkin. Bir tomondan, “Tarbiya” fani o‘quvchilarda qadriyatlar, odob me’yorlari, ijtimoiy pozitsiya va mas’uliyatni shakllantirishga qaratilgani sababli ekologik xulqni tarbiyalash uchun juda qulay predmet maydonidir. Ikkinchi tomondan, ekologik ta’limning xalqaro va milliy konsepsiyalari uni faoliyat, ishtirok va refleksiya bilan bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur texnologiya aynan shu ikki oqimni birlashtiradi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, amaliyotda ko‘p hollarda ekologik tarbiya aksiyalar, bayramlar yoki bir martalik suhbatlar bilan cheklanib qoladi. Natijada bilim va xulq o‘rtasida uzilish yuzaga keladi. Taklif qilinayotgan model esa ekologik ta’limni darsning ichki mexanizmi sifatida, ya’ni maqsad - mazmun - metod - faoliyat - baholash zanjiri bo‘ylab quradi. Bu esa pedagogik texnologiyaning tizimliligini va qayta qo‘llashga yaroqliligini ta’minlaydi.

Shuningdek, ushbu texnologiya o‘qituvchining metodik rolini ham o‘zgartiradi. O‘qituvchi endi faqat ma’lumot beruvchi emas, balki ekologik vaziyatlarni loyihalovchi, bolalar faoliyatini boshqaruvchi, kuzatuvchi va refleksiya tashkilotchisiga aylanadi. Bunday rol “Tarbiya” darsini nutqiy-nasihatomuz shakldan chiqarib, faol tarbiyaviy laboratoriyaga aylantiradi. Zhang va hammualliflar tizimli sharhida aniqlangan fanlararo integratsiya, tashqi muhitdan foydalanish, tanqidiy fikrlash va ishtirokchi metodlar bilan bu xulosalar hamohangdir.

Muhokamaning yana bir muhim xulosasi shuki, boshlang‘ich yoshdagi bolalarda ekologik xulqni shakllantirish uchun murakkab nazariy kategoriyalar emas, balki kundalik tajribaga yaqin mikrovaziyatlar samaraliroq ishlaydi. “Suvni bekorga oqizmaslik”, “sinfni toza saqlash”, “bir bargni uzishning oqibati haqida o‘ylash”, “hayvonga ozor bermaslik”, “o‘simlikni parvarish qilish” kabi oddiy amallar keyinchalik ekologik ongning mustahkam poydevoriga aylanadi. Demak, pedagogik texnologiyada kichik amaliy harakatlar yirik tarbiyaviy natijaning boshlang‘ich nuqtasi sifatida ko‘rilishi kerak.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik ta’lim va tarbiyani “Tarbiya” fani asosida amalga oshirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb va istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. O‘tkazilgan nazariy-komparativ tahlil, me’yoriy asoslarni o‘rganish va ilmiy-pedagogik injiniring yondashuvi asosida quyidagi umumlashgan xulosalarga kelindi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi. Ta’lim to‘g‘risida: O‘RQ-637-son Qonun. 2020-yil 23-sentabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida: 422-son qaror. 2020-yil 6-iyul.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida: 434-son qaror. 2019-yil 27-may.

4. Mirziyoyev, Sh. M. Maktab ta’limidagi islohotlarning yangi bosqichi. 2025-yil 15-may.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida: PF-158-son Farmon. 2023-yil 11-sentabr.

6. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. Paris: UNESCO, 2017.

7. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

8. Dewey, J. Experience and Education. New York: Touchstone, 1997.

9. Goulgouti, A., Plakitsi, K., Stylos, G. Environmental Literacy: Evaluating Knowledge, Affect, and Behavior of Pre-service Teachers in Greece. Interdisciplinary Journal of Environmental and Science Education, 2019, Vol. 15, No. 1.

10. Prabawani, B., Hanika, I. M., Pradhanawati, A., Budiatmo, A. Primary Schools Eco-Friendly Education in the Frame of Education for Sustainable Development. International Journal of Environmental and Science Education, 2017, Vol. 12, No. 4, pp. 607–616.

11. Rodríguez Pérez, L., Azcárate Goded, M. d. P., García-González, E. Environmental Literacy in Initial Teacher Training: Pre-Service Teachers’ Perceptions of the Socio-Environmental Impact of Food. Education Sciences, 2024, Vol. 14, No. 8.

12. Yaacob, A., Abdullah, N. Environment Education for Sustainable Development Among Primary School Teachers. EDUCATUM Journal of Social Sciences, 2023, Vol. 9, No. 2, pp. 35–42.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida: PQ-184-son qaror. 2025-yil 15-may.

14. Zhang, X., Jung, W., Asari, M. Systematic Review of Environmental Education Teaching Practices in Schools: Trends and Gaps (2015–2024). Sustainability, 2025, Vol. 17, No. 19.

ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TALABALARNING PRAGMATIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Rustamova Feruzabonu Ilxomovna,
Nemis va fransuz filologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi

Mazkur maqolada zamonaviy lingvodidaktik yondashuvlar asosida talabalarning pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Pragmatik kompetensiyaning kommunikativ kompetensiya tarkibidagi integrativ o‘rni yoritilib, uning illokutsion, diskursiv, sotsiomadaniy va strategik komponentlari mazmuni aniqlashtirilgan. Shuningdek, xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, rol o‘yinlari, keys-tahlil va simulatsiya usullaridan foydalanish orqali talabalarning real kommunikativ vaziyatlarda nutqiy moslashuvchanligi va pragmatik samaradorligini oshirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *pragmatik kompetensiya, lingvodidaktika, kommunikativ kompetensiya, diskursiv kompetensiya, illokutsion kompetensiya, sotsiomadaniy kompetensiya, strategik kompetensiya, interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, xorijiy tillarni o‘qitish, kommunikativ yondashuv.*

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ПРАГМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ

В статье научно-теоретически и практически анализируется методика развития прагматической компетентности студентов на основе современных лингводидактических подходовКлючевые слова: прагматическая компетентность, лингводидактика, коммуникативная компетентность, дискурсивная компетентность, иллокументальная компетентность, социокультурная компетентность, стратегическая компетентность, интерактивные методы, цифровые технологии, обучение иностранным языкам, коммуникативный подход.ых ситуациях посредством использования интерактивных методов, цифровых технологий, ролевых игр, кейс-анализа и методов моделирования в процессе обучения иностранным языкам.

Ключевые слова*: прагматическая компетентность, лингводидактика, коммуникативная компетентность, дискурсивная компетентность, иллокументальная компетентность, социокультурная компетентность, стратегическая компетентность, интерактивные методы, цифровые технологии, обучение иностранным языкам, коммуникативный подход.*

A METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS’ PRAGMATIC COMPETENCE BASED ON MODERN LINGUODIDACTIC APPROACHES

This article analyzes the methodology for developing students' pragmatic competencies based on modern linguodidactic approaches from a scientific, theoretical, and practical perspective. The integrative role of pragmatic competence in communicative competence is highlighted, and the content of its illocutionary, discursive, sociocultural, and strategic components is clarified. Also, the possibilities of improving the speech flexibility and pragmatic efficiency of students in real communicative situations are justified by the use of interactive methods, digital technologies, role-playing games, case-analysis and simulation methods in the process of teaching foreign languages.

Keywords: *pragmatic competence, linguodidactics, communicative competence, discursive competence, illocutional competence, sociomadanic competence, strategic competence, interactive methods, digital technologies, Foreign Language Teaching, communicative approach.*

Kirish. Jahon miqyosida ta’lim makonining transformatsiyalashuvi pedagogik strategiyalarni tubdan yangilashni hamda innovatsion-integratsion yondashuvlarni ta’lim amaliyotiga tizimli joriy etishni hayotiy zaruratga aylantirmoqda. Bugungi kunda oliy ta’limning ustuvor maqsadi - talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki murakkab kasbiy vaziyatlarda muloqot muvaffaqiyatini ta’minlovchi strategik resurs - pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishdan iboratdir. Bu borada Butunjahon ta’lim forumi va Lissabon konvensiyasining konseptual tamoyillari intellektual salohiyatli, ijodkor kadrlar tayyorlashning innovatsion trayektoriyalarini belgilab beruvchi metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Xususan, Bolonya jarayoni talablari doirasida ta’limning faol va interfaol formatlarini diversifikatsiya qilish, variativ o‘quv muhitini

yaratish orqali bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy-pedagogik kreativligini rivojlantirish zamonaviy oliy ta’lim paradigmasida dolzarblik kasb etmoqda.

Mavzuning dolzarbligi. Rivojlangan davlatlar oliy ta’lim tizimida talabalarning pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish jahon ta’lim trendlari, xususan, CEFR standartlari va YUNESKOning ta’lim strategiyalarida ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda. Bugungi xalqaro tadqiqotlar markaziga “antropotsentrik” paradigmani qo‘yish orqali shaxsning ijtimoiy-kommunikativ o‘rnini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, xorijiy til filologiyasi yo‘nalishida talabalarning pragmatik qobiliyatlarini innovatsion raqamli texnologiyalar va xalqaro ta’lim platformalari asosida rivojlantirish muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa, ta’limning global paradigmalariga o‘tish orqali talabalarning kreativ salohiyatini oshirishni hamda xalqaro ilmiy faoliyat integratsiyasini ta’minlovchi metodologik asoslarni tizimli takmillashtirishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimi rivojlanishining hozirgi bosqichi ta’lim mazmuni va metodikasiga, uning samaradorligini oshirishga sifat jihatidan yangi talablar qo‘ymoqda. Prezidentimizning “yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash” borasidagi ko‘rsatmasi mazkur ishlarni mazmunan yangi bosqichga ko’tarishga zamin hozirlaydi. Unda uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlari asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish muhim ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu nuqtayi nazardan xorijiy ta’lim yo‘nalishi talabalarida pragmatik kompetensiyani rivojlantirish metodikasini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha xalq ta’limi tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida chet tillarini o‘rganishni ommalashtirish bo‘yicha faoliyatni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2024-yil 2-fevraldagi PQ-53-son “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va ta’limga oid boshqa me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ma’lum darajada xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili Mamlakatimizda rus tilini o‘qitishning nazariy asoslari V.I.Andriyanova, L.T.Axmedova, G.X.Bakiyeva, N.N.Azizxo‘jayeva, D.R.Jumanova, L.X.Nigmatova, Z.R.Djurayevalar tomonidan, o‘quvchining til kompetentligini rivojlantirish muammolari, S.X.Abdullayeva, G.Sh.Tojiboyev, D.R.Abduganiyeva, D.R.Djumanova, S.S.Magdiyeva, S.X.Abdullayeva, R.F.Gabdulxakova, Sh.B.Babayevalar tadqiqotlarida o‘rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) olimlaridan rus tilini o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari N.M.Shanskiy, A.A.Leontev, V.G.Kostomarov, A.N.Shukin, I.A.Zimnyaya, Y.I.Passov, G.I.Gorodilova, Y.M.Vereshagin, O.D.Mitrofanova, M.N.Vyatyutnev, N.Z.Bakeyeva va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorij olimlaridan J.W.Piaget, A.N.Chomsky, D.Hymes, A.Maslow, K.Rogers va boshqalar tomonidan til o‘rgatishda kommunikativ yondashuv bilan bog‘liq masalalar o‘rganib chiqilgan.

XXI asrda til ta’limi paradigmasi tubdan o‘zgardi. An’anaviy bilimga yo‘naltirilgan yondashuv o‘rnini kompetensiyaviy yondashuv egalladi. Ushbu yondashuvda til o‘rganish jarayoni real kommunikativ vaziyatlarda samarali qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirish ko‘zda tutadi. Lingvodidaktikada kompetensiya tushunchasi o‘rganuvchining: bilimlari; ko‘nikma va malakalari; kommunikativ tajribasini integratsiyasini ifodalaydi. Aynan shu integrativ yondashuv tilni ijtimoiy hodisa sifatida anglashga imkon beradi. Ma’lumki, kompetensiyaviy yondashuvning ilmiy-nazariy asoslari N. Chomskining “lingvistik kompetensiya” haqidagi qarashlariga borib taqalsa-da, zamonaviy lingvodidaktika ushbu tushunchani kengaytirib, uni kommunikativ, sotsiomadaniy va pragmatik jihatlar bilan boyitdi.

Lingvodidaktika (lot. lingua “til”+grek. didaktikos “ta’lim”) – til o‘rgatishning umumiy nazariyasi bo‘lib, tillarning muvofiq keluvchi va farqli jihatlarini tadqiq qilish, o‘rganilayotgan til strukutrasini tahlil qilish, lingvistika va pedagogika chegarasida turgan muammolarni hal qilishga asoslanadi. Lingvodidaktika rus tilshunosligida G. Bogin, I. Xaleeva, N.Galskova, G.Boginalar qarashlari asosida shakllangan yangi soha bo‘lib, o‘zida lingvistika fani mohiyatini namoyon etadi. I.Xaleeva lingvodidaktika terminini “ta’lim, o‘quv mazmuni komponentlarini asoslovchi, til tabiati va tilning sotsial fenomeni sifatidagi individning o‘zaro harakatlari mexanizmi” deb ta’riflaydi.

Pragmatik kompetensiya – o‘rganilayotgan chet tilida kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo‘lganda takroran so‘rash, uzr so‘rash orqali murakkab vaziyatdan chiqib keta olish qobiliyatini nazarda tutadi. Mazkur kompetensiya og‘zaki yoki yozma nutqda fikrlarni tegishli til vositalari orqali ifodalashni nazarda tutadi. J.Austin tomonidan ilgari surilgan nutq aktlari nazariyasiga ko‘ra nutq: aytilgan mazmun, nutq orqali bajarilgan harakat, tinglovchiga ko‘rsatilgan ta’sir darajalaridan iborat. Zamonaviy lingvodidaktikada pragmatik kompetensiya quyidagi jihatlar orqali tavsiflanadi:

-nutqiy birliklarning kontekstga bog‘liqligi;

-kommunikativ niyatning ustuvorligi;

-madaniy va ijtimoiy me’yorlarning hisobga olinishi;

-muloqot strategiyalaridan samarali foydalanish.

Pragmatik kompetensiya til birliklarining ma’nosini vaziyat, kontekst, nutq ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlar va madaniy omillar asosida to‘g‘ri talqin qilish hamda qo‘llash qobiliyatini anglatadi. Zamonaviy lingvodidaktikada pragmatik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Canale va Swain tomonidan ishlab chiqilgan modelda kommunikativ kompetensiya quyidagi komponentlardan iborat: grammatik kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, diskursiv kompetensiya, strategik kompetensiya.

L.Bachman tomonidan taklif etilgan modelda esa pragmatik kompetensiya alohida kategoriya sifatida ajratilib, u: funksional va sotsiolingvistik kompetensiyalar bilan uzviy bog‘liq holda izohlanadi. CEFR hujjatlarida pragmatik kompetensiya “kommunikativ til kompetensiyasi” tarkibida nutqni tashkil etish, muloqot strategiyalaridan foydalanish va diskursni boshqarish qobiliyatlari bilan tavsiflanadi. Tadqiqotda pragmatik kompetensiya quyidagi asosiy tarkibiy qismlarga ajratib o‘rganildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Pragmatik kompetensiyaning tarkibiy qismlari

Demak, pragmatik kompetensiya illokutsion, diskursiv, sotsiomadaniy, strategik va kontekstual komponentlarning o‘zaro integratsiyasi asosida shakllanadi. Ushbu tarkibiy qismlarning uyg‘un rivojlanishi til o‘rganuvchining real kommunikativ vaziyatlarda muvaffaqiyatli va maqsadga muvofiq muloqot olib borishini ta’minlaydi. 1-sxema pragmatik kompetensiyaning ko‘p qatlamli va integrativ tabiatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Har bir tarkibiy qism alohida ahamiyatga ega bo‘lsa-da, ular o‘zaro uzviy bog‘liqlikda faoliyat ko‘rsatadi. Illokutsion kompetensiya nutqning maqsadga yo‘naltirilganligini ta’minlasa, diskursiv kompetensiya uning strukturaviy yaxlitligini kafolatlaydi. Sotsiomadaniy va kontekstual kompetensiyalar nutqning vaziyatga va madaniy muhitga mosligini belgilaydi, strategik kompetensiya esa muloqot jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi.

PRAGMATIK KOMPETENSIYA

Illokutsion kompetensiya	Diskursiv kompetensiya	Sotsiomadaniy kompetensiya	Strategik kompetensiya	Kontekstual kompetensiya
Nutq aktlari tanlov va mantiqiylik	**Nutq izchilligi** me’yorlar yechish	**Ijtimoiy** muhit	**Muammo** etiket strategiyalari	**Vaziyat**, ma’no

1-sxema. Pragmatik kompetensiyaning tarkibiy qismlari

Global muhitda talaba turli madaniyat vakillari bilan muloqot qiladi. Talaba til qoidalarini mukammal bilishi mumkin, biroq ijtimoiy kontekstda (iltimos qilish, rad etish, e’tiroz bildirish) tilni noto‘g‘ri qo‘llasa, bu pragmatik muvaffaqiyatsizlikka olib keladi.

Oliy ta’lim tizimida pragmatik ko‘nikmalarni rivojlantirish - bu psixologik tayyorgarlik, pedagogik sharoitlar va zamonaviy ta’lim texnologiyalari uyg‘unligida amalga oshiriladigan murakkab jarayon bo‘lib, talabaning kasbiy raqobatbardoshligini oshirib, uni real hayot va mehnat bozoriga muvaffaqiyatli tayyorlaydi.



Mazkur konseptual model oliy ta’lim jarayonida talabalarda pragmatik ko‘nikmalarni rivojlantirishning pedagogik va psixologik omillari o‘zaro uyg‘unlikda amal qilishini ifodalaydi. Model ijtimoiy buyurtma va kasbiy talablardan kelib chiqqan holda maqsadli yo‘naltirilgan bo‘lib, unda pragmatik ko‘nikmalarni shakllantirishga ta’sir etuvchi psixologik va pedagogik komponentlar tizimli ravishda joylashtirilgan.

Dissertatsiyaning **“Xorijiy tillarni o’qitishda talabalarning pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalari”** nomli ikkinchi bobida global ta’lim muhitida madaniyatlararo muloqot va nutqiy etiketni o‘rgatishning zamonaviy metodlari yoritilgan. Talabalarda pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda raqamli ta’lim resurslari va multimedia vositalaridan foydalanishga yo‘naltirilgan yangi ta’lim modeli hamda talabalarning pragmatik imkoniyatlarini oshirishga yo‘naltirilgan o‘quv topshiriqlari va mashqlar tizimini takomillashtirishga oid ilmiy tavsiyalar berilgan.

Tadqiqotimiz jarayonida talabalarning pragmatik ko‘nikmalarni rivojlantirishda task-based learning, role-play, case-study va project-based learning kabi innovatsion metodlardan foydalanildi (2-rasmga qarang).

2-rasm. Talabalarda pragmatik kompetensiyani rivojlantirish metodlari

Ushbu metodlar talabalarda muloqot strategiyalarini to‘g‘ri tanlash va nutqiy vaziyatga mos harakat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishi o‘z natijasini ko‘rsatdi. Shuningdek, raqamli ta’lim muhiti, jumladan, multimediaviy va autentik materiallardan foydalanish talabalarni real muloqot sharoitlariga yaqinlashtirib, ularda pragmatik kompetensiyasini samarali rivojlantirish imkoniyatini yaratdi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Talabalarda pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda qo‘llaniladigan metodlar tahlili

Metod nomi	Asosiy xususiyati	Rivojlantiriladigan pragmatik ko‘nikmalar
vazifaga yo‘naltirilgan o‘qitish	Real kommunikativ vazifalarni bajarishga asoslanadi	Maqsadga muvofiq nutq tuzish, muloqot strategiyalarini tanlash, kontekstni tushunish
rolli o‘yin	Turli ijtimoiy rollar orqali muloqotni modellashtirish	Iltimos, rad etish, taklif qilish kabi nutqiy aktlarni to‘g‘ri qo‘llash
Case-study	Aniq kommunikativ vaziyatlarni tahlil qilish	Muammoni baholash, nutqiy qaror qabul qilish, kontekstga moslik
loyiha asosida o‘qitish	Uzoq muddatli amaliy topshiriqlar orqali o‘qitish	Muloqotni rejalashtirish, hamkorlikda ishlash, pragmatik moslashuv
Autentik materiallar bilan ishlash	Real til muhiti materiallaridan foydalanish	Tabiiy nutqni tushunish, madaniy normalarni anglash
Raqamli simulyatsiyalar	Virtual muloqot muhitini yaratish	Tezkor reaksiya, onlayn muloqot strategiyalari

Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, barcha metodlar pragmatik kompetensiyaning turli jihatlarini rivojlantiradi:

1.Role-play va Task-based learning - nutqiy aktlar va strategiyalarga ta’sir qiladi.

2.Case-study - tahliliy va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

3.Project-based learning - uzoq muddatli kommunikativ faoliyatni ta’minlaydi.

4.Autentik va raqamli metodlar - real muloqot muhitiga moslashuvni ta’minlaydi.

Xorijiy tillarni o‘qitishda talabalarning pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish uchun ularni real muloqotdagi nutqiy strategiyalar bilan tanishtirish va amalda qo‘llash muhimdir. Quyida eng ko‘p qo‘llaniladigan va ilmiy adabiyotlarda tavsiya etilgan strategiyalarni tizimli ko‘rinishda keltirib o‘tildi (3-rasmga qarang).

3-rasm. Talabalarda pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda nutqiy strategiyalar

Real muloqotdagi nutqiy strategiyalar talabalarning pragmatik kompetensiyasini shakllantirishda markaziy rol o‘ynaydi. Ular quyidagi maqsadlarni bajaradi:

1.Til birliklarini vaziyatga mos qo‘llash.

2.Ijtimoiy va madaniy kontekstni hisobga olish.

3.Muloqot samaradorligi va ijtimoiy maqbulikni ta’minlash.

4.Nutqiy mustaqillik va o‘zini ifodalash qobiliyatini oshirish.

Talabalarning pragmatik kompetensiyalarini baholash mezonlari turli dars darayonlari mazmuni va mohiyatidan kelib chiqib ishlab chiqildi va tajribada qo‘llanildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy lingvodidaktik yondashuvlar asosida talabalarning pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirish ta’lim jarayoni samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Pragmatik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning markaziy va integrativ tarkibiy qismi sifatida talabalarning real muloqot sharoitida nutqiy moslashuvchanligi, maqsadga muvofiq fikr bildirishi va samarali kommunikatsiyani amalga oshirish qobiliyatini ta’minlaydi.

Tadqiqot doirasida illokutiv, diskursiv, sotsiomadaniy va strategik komponentlarning o‘zaro uyg‘unligiga asoslangan metodik yondashuv ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Ushbu yondashuv interfaol metodlar, xususan, rol o‘yinlari, keys-tahlil, simulatsiya va raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali talabalarning nutqiy faolligini oshirishga xizmat qildi. Amaliy natijalar talabalarda muloqotga kirishish, nutq strategiyalarini to‘g‘ri tanlash va qo‘llash, shuningdek, madaniyatlararo muloqotda samarali ishtirok etish ko‘nikmalari rivojlanganini tasdiqladi. Shu bilan birga, pragmatik kompetensiyani baholashning aniq mezon va ko‘rsatkichlariga asoslangan diagnostik tizim talabalar bilim va ko‘nikmalarini xolis baholash imkonini yaratdi. Xulosa qilib aytganda, taklif etilgan metodika xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida talabalarning pragmatik kompetensiyalarini tizimli ravishda shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi hamda zamonaviy ta’lim talablariga javob beradigan samarali lingvodidaktik yechim sifatida baholanadi.

Adabiyotlar:

1. Noam Chomsky N. *Aspects of the Theory of Syntax*. – Cambridge, MA: MIT Press, 1965.
2. Dell Hymes D. *On Communicative Competence*. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972.
3. Michael Canale M., Merrill Swain M. *Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing.* – Applied Linguistics, 1980.
4. Stephen Krashen S. *Principles and Practice in Second Language Acquisition.* – Oxford: Pergamon Press, 1982.
5. Geoffrey Leech G. *Principles of Pragmatics.* – London: Longman, 1983.
6. Jenny Thomas J. *Meaning in Interaction: An Introduction to Pragmatics.* – London: Longman, 1995.
7. Dilova N.G. Buyuk ajdodlarimizning ta’limotlarida mujassamlashgan o‘qituvchi bilan o‘quvchilar hamkorligining pedagogik xususiyatlari//«Zamonaviy ta’lim» jurnali. –Toshkent., 2018-yil, 3-son, 63-68- bet.
8. Dilova N.G. Hamkorlikka asoslangan ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘zaro ijodiy o‘quv faoliyatini shakllantirishda shaxslararo munosabat// Pedagogika jurnali., –Toshkent., 2018-yil, 4-son, 54-60-bet.
9. Dilova N.G. Sharq mutafakkirlari merosi vositasida ta’lim jarayonidagi shaxslararo munosabatlarni o`rnatishning pedagogik xususiyatlari “Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar” xalqaro jurnal, – Buxoro. 2022.№2.–356-363-bet.

UO’K 378.147:004.9

BO‘LAJAK MUHANDISLARNI ARALASH TA’LIM ASOSIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH MODELI

Ruziyev Elbek Rajabovich,
Qarshi davlat texnika universiteti, Karshi, Uzbekistan
eltin88@bk.ru

Ushbu maqolada bo‘lajak muhandislarni aralash ta’lim (blended learning) asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy-metodologik modeli taqdim etilgan. Muammoning dolzarbligi raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida muhandislik ta’limini modernizatsiya qilish zaruriyatidan kelib chiqadi. Tadqiqotda aralash ta’lim komponentlarini tizimli integratsiyalash, o‘quv jarayonini texnologik va pedagogik jihatdan loyihalash hamda tayyorgarlik sifatini baholash mezonlari tahlil qilingan. Model sinovdan o‘tkazilgan eksperimental natijalar va xalqaro tajribaga asoslanadi. Tadqiqot natijalari muhandislik ta’limi amaliyotiga tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: *aralash ta’lim, muhandislik ta’limi, kasbiy tayyorgarlik, raqamli texnologiyalar, ta’lim modeli, LMS platforma, gibrid o‘qitish.*

MODEL OF PREPARATION OF FUTURE ENGINEERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY ON THE BASIS OF BLENDED LEARNING

This article presents a theoretical and methodological model for preparing future engineers for professional activity based on blended learning. The relevance of the problem stems from the necessity of modernizing engineering education in the context of transition to a digital economy. The study analyzes the systematic integration of blended learning components, technological and pedagogical design of the educational process, and criteria for assessing the quality of preparation. The model is based on experimental results and international experience. The research results include practical recommendations that can be applied to engineering education practice.

Keywords: *blended learning, engineering education, professional training, digital technologies, educational model, LMS platform, hybrid teaching.*

МОДЕЛЬ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ СМЕШАННОГО ОБУЧЕНИЯ

В данной статье представлена теоретико-методологическая модель подготовки будущих инженеров к профессиональной деятельности на основе смешанного обучения (blended learning). Актуальность проблемы обусловлена необходимостью модернизации инженерного образования в условиях перехода к цифровой экономике. В исследовании анализируются вопросы системной интеграции компонентов смешанного обучения, педагогического и технологического проектирования учебного процесса, а также критерии оценки качества подготовки. Модель основана на результатах экспериментальной проверки и международном опыте. Результаты исследования включают практические рекомендации, применимые в практике инженерного образования.

Ключевые слова: *смешанное обучение, инженерное образование, профессиональная подготовка, цифровые технологии, образовательная модель, LMS-платформа, гибридное обучение.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatning ilmiy-texnik taraqqiyoti va raqamli transformatsiya jarayonlari muhandislik ta’limiga yangicha talablar qo‘ymoqda. Dunyo miqyosida muhandislik kadrlariga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda, shu bilan birga ularning professional kompetentligiga qo‘yilayotgan talablar ham sezilarli darajada kuchaymoqda. Xususan, Sanoat 4.0 kontseptsiyasining joriy etilishi, sun'iy intellekt, katta ma’lumotlar (big data) va narsalar interneti (IoT) texnologiyalarining ishlab chiqarishga keng kirib kelishi muhandislarga an'anaviy texnik bilimlardan tashqari keng qamrovli raqamli savodxonlik va adaptiv o‘qish ko‘nikmalarini talab qilmoqda [1].

An'anaviy auditoriya shaklida olib boriladigan ta’lim tizimi ushbu tez o‘zgaruvchan talablarga to‘liq javob bera olmaydi. Shu sababli aralash ta’lim (blended learning) konsepsiyasi global pedagogika fani va

amaliyotida muhim o‘rin egallaydi. Aralash ta’lim — bu an'anaviy yuzma-yuz o‘qitish usullari va onlayn ta’lim texnologiyalarini maqsadli integratsiyalashga asoslangan o‘quv jarayoni tashkil etish paradigmasidir. Ushbu yondashuv talabaning individual sur'atda o‘rganishini, vaqt va makonga bog'liq bo‘lmasdan bilim olishini hamda o‘qituvchi bilan interaktiv muloqotini ta’minlaydi [2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni asosida belgilangan "Yangi O‘zbekiston" strategiyasi hamda "Raqamli O‘zbekiston — 2030" dasturiga muvofiq oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni jadal joriy etish maqsad qilib belgilangan [3]. Ammo muhandislik ta’limida aralash ta’limni tizimli joriy etishning ilmiy asoslangan pedagogik modeli va uni amalga oshirishning mexanizmlari hali to‘liq ishlab chiqilmagan. Aynan shu holat tadqiqotimizning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi — bo‘lajak muhandislarni aralash ta’lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy-metodologik modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini eksperimental jihatdan asoslashdan iborat. Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar hal etildi: (1) aralash ta’limning xorijiy va mahalliy tadqiqotlardagi nazariy asoslarini tahlil qilish; (2) muhandislik ta’limiga xos aralash ta’lim modelining tarkibiy komponentlarini aniqlash; (3) modelning samaradorligini empirik ma’lumotlar asosida tekshirish.

Adabiyotlar sharhi va metodologiya. Aralash ta’lim nazariyasining ilmiy asoslari Graham (2006), Garrison va Kanuka (2004), Horn va Staker (2014) ishlarida batafsil yoritilgan. Ushbu tadqiqotchilarning kontseptual modellariga ko‘ra, aralash ta’lim uchta asosiy o‘lchovga ega: ijtimoiy mavjudlik (social presence), bilishga yo‘nalganlik (cognitive presence) va o‘qitish mavjudligi (teaching presence) [4]. So‘nggi yillarda esa Singh (2021), Dziuban va boshqalar (2018) kabi tadqiqotchilar aralash ta’limning muhandislik ta’limidagi samaradorligini empirik jihatdan isbotlab, tegishli institutsional modellarni ishlab chiqqan [5].

Mahalliy adabiyotlarda Shodmonov N.N. (2020) va Xoliqov A.A. (2023) oliy ta’limda elektron ta’lim tizimlarini joriy etishning pedagogik shartlarini o‘rganib, LMS platformalar (Moodle, Canvas) va an'anaviy o‘qitishni birlashtirish orqali o‘quv natijalarini sezilarli yaxshilash mumkinligini ko‘rsatgan [6]. Muhandislik yo‘nalishlariga nisbatan esa Toshmatov J.X. (2022) tadqiqotlari simulyatsion modellashtirish vositalarini aralash ta’lim jarayoniga integratsiyalashning kasbiy kompetentlikni shakllantirish dinamikasiga ijobiy ta’sirini tasdiqlamoqda [7].

Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy yondashuvlarga tayanadi: tizimli-faoliyatli yondashuv (L.S. Vigotskiy, A.N. Leontev), kompetentlik asosidagi ta’lim (V.I. Bidenko, I.A. Zimnyaya), hamda konstruktivistik ta’lim nazariyasi (J.Dyui, D.Kolb). Empirik tadqiqot 2022—2024 yillarda Toshkent davlat texnika universiteti va Samarqand davlat universiteti muhandislik fakultetlarida 240 nafar talaba ishtirokida olib borildi. Nazorat guruhi (n=120) an'anaviy ta’lim, eksperimental guruh (n=120) esa ishlab chiqilgan aralash ta’lim modeli asosida tahsil oldi. Ma’lumotlar pre-test/post-test dizayni va SPSS 26.0 dasturida statistik qayta ishlash orqali tahlil qilindi.

Natijalar. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan aralash ta’lim modeli to‘rtta asosiy komponentdan iborat:

1. Maqsadli-motivatsion komponent: talabalarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirish, muhandislik faoliyatining raqamli muhitdagi o‘ziga xosliklarini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyasini rivojlantirish.

2. Mazmuniy-texnologik komponent: muhandislik fanlarining modulli tuzilishi, LMS (Moodle/Canvas) orqali taqdim etiladigan onlayn materiallar, virtual laboratoriya simulyatsiyalari (Multisim, MATLAB, AutoCAD online), hamda amaliy mashg'ulotlar uchun an'anaviy auditoriya sessiyalari.

3. Tashkiliy-jarayon komponenti: flippe classroom (teskari sinf) metodologiyasi, 60/40 nisbatida onlayn/offlayn o‘quv yuklamasining taqsimlanishi, peer-learning (tengdoshlar o‘rtasida o‘rganish) va muammoga asoslangan ta’lim (PBL) metodlari.

4. Diagnostik-baholash komponenti: formativ va summativ baholashning kombinatsiyasi, raqamli portfel texnologiyasi, adaptive testing tizimlari, hamda kasbiy kompetentlik matritsasiga asoslangan yakuniy attestatsiya.

Eksperimental natijalar shuni ko‘rsatdiki, aralash ta’lim modelini joriy etgan eksperimental guruhda akademik ko‘rsatkichlar nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori bo‘ldi. Xususan, texnik muammolarni hal etish bo‘yicha test natijalari eksperimental guruhda o‘rtacha 76,4 balldan 89,2 ballga ($t=4,87$; $p<0,001$) oshdi. Kasbiy-amaliy ko‘nikmalar bo‘yicha kompetentlik indeksi esa nazorat guruhida 0,62 dan 0,71 ga o‘sgan bo‘lsa, eksperimental guruhda 0,63 dan 0,84 ga yetdi (Cohen's $d=0,72$, ya’ni o‘rtacha yuqori effekt kuchi).

Bundan tashqari, talabalarning o‘z-o‘zini tartibga soluvchi o‘quv faoliyati (self-regulated learning) ko‘rsatkichlari Pintrich va De Groot (1990) metodikasi bo‘yicha baholandi. Eksperimental guruhda

metakognitiv boshqaruv ko‘rsatkichi 12,3% ga, kognitiv strategiyalar qo‘llash darajasi esa 18,7% ga sezilarli oshdi. Motivatsion komponent bo‘yicha ham farq muhim: ichki motivatsiya darajasi eksperimental guruhda o‘rtacha 3,2 balldan (5 ballik shkala) 4,1 ballga ko‘tarildi.

Sifat tadqiqoti doirasida o‘tkazilgan fokus-guruh suhbatlari va chuqur intervyular ham miqdoriy natijalarni tasdiqladi. Talabalarning 87,5 foizi aralash ta’lim formatini an'anaviy shakldan afzal ko‘rganini bildirdi. O‘qituvchilarning fikri bo‘yicha esa aralash ta’lim dars tayyorlash vaqtini 23% ga oshirgan bo‘lsada, differensiatsiyalangan yondashuvni amalga oshirish imkoniyatini sezilarli kengaytirgan.

Muhokama. Olingan natijalar bir qator muhim ilmiy-nazariy xulosalar chiqarishga imkon beradi. Birinchidan, muhandislik ta’limida aralash ta’limning samaradorligi faqatgina texnologiyalar to‘plamiga emas, balki ularning pedagogik jihatdan asoslangan tizimli integratsiyasiga bog'liq ekanligini ko‘rsatadi. Bu holat Garrison va Kanuka (2004) tomonidan ilgari surilgan "pedagogik uyg'unlik" (pedagogical coherence) kontseptsiyasini empirik jihatdan tasdiqlaydi [4].

Ikkinchidan, tadqiqot natijalari muhandislik yo‘nalishi uchun optimal nisbat sifatida 60% onlayn va 40% an'anaviy ta’limni taklif etadi. Bu nisbat laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni an'anaviy formatda saqlab qolish zaruriyatidan kelib chiqadi, chunki muhandislik tajribasining muhim qismi fizik asbob-uskunalar va materiallar bilan bevosita ishlashni talab qiladi. Ushbu xulosa Bonk va Graham (2006) tomonidan belgilangan "gibrid" modeli tamoyillari bilan hamohang [8].

Uchinchidan, tadqiqot aralash ta’lim muhitida o‘qituvchining rolini qayta belgilash zarurligi masalasini ko‘taradi. "Bilim uzatuvchi" funksiyasidan "o‘quv jarayoni fasilitatoru" va "raqamli muhitda munosabatlar tashkilotchisi"ga o‘tish o‘qituvchidan yangicha pedagogik kompetentliklarni talab etadi. Bu esa oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini modernizatsiya qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning cheklovlari qatoriga quyidagilar kiradi: namuna bir mintaqaning ikkita universitetini qamrab olganligi, tadqiqot davomiyligining nisbatan qisqa bo‘lganligi (2 yil) va sanoat korxonalarida ishlab chiqarish amaliyoti natijalarining hisobga olinmaganligi. Kelajakdagi tadqiqotlar uchun ushbu model turli muhandislik yo‘nalishlarida (mexanika, elektrotexnika, kimyo muhandisligi va hokazo) kengaytirilgan namunaviy eksperiment asosida sinovdan o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari bo‘lajak muhandislarni aralash ta’lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash modelining quyidagi asosiy xulosalarini shakllantirishga imkon beradi:

1. Ishlab chiqilgan to‘rt komponentli model (maqsadli-motivatsion, mazmuniy-texnologik, tashkiliy-jarayon, diagnostik-baholash) muhandislik ta’limida aralash ta’limni tizimli joriy etishning metodologik asosi bo‘lib xizmat qila oladi.

2. Eksperimental guruhda akademik ko‘rsatkichlar (o‘rtacha 12,8 ball) va kasbiy kompetentlik indeksi (0,21 birlikka) statistik jihatdan muhim darajada oshganligi modelning pedagogik samaradorligini tasdiqlamoqda.

3. Muhandislik ta’limida aralash ta’lim texnologiyalarini joriy etishda pedagogik-metodologik qo‘llab-quvvatlash, o‘qituvchilarnni raqamli kompetentliklarini rivojlantirish va institutsional infratuzilmani modernizatsiya qilish birgalikda amalga oshirilishi zarur.

4. Model Xalqaro muhandislik ta’limi akkreditatsiyasi (ABET, EUR-ACE) talablari bilan muvofiqligini ta’minlash nuqtai nazaridan ham muhim amaliy ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqot natijalari O‘zbekistondagi muhandislik ta’limini modernizatsiya qilish jarayonida strategik pedagogik qarorlar qabul qilishda, o‘quv dasturlarini yangilashda va o‘qituvchilarni tayyorlashda amaliy manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Kelajakda ushbu model sun'iy intellekt asosidagi adaptiv ta’lim tizimlari bilan birlashtirilishi hamda muhandislar kasbiy tayyorgarligi uzoq muddatli monitoring natijalariga asoslanib takomillashtirish ko‘zda tutilmoqda.

Adabiyotlar:

1. Graham C.R. Blended learning systems: Definition, current trends, and future directions // The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs / C.J. Bonk, C.R. Graham (eds.). — San Francisco: Pfeiffer, 2006. — B. 3—21.

2. Garrison D.R., Kanuka H. Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education // The Internet and Higher Education. — 2004. — Vol. 7(2). — B. 95—105.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022—2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g'risida"gi Farmoni. — Toshkent, 2022.

4. Garrison D.R., Kanuka H. Community of Inquiry in Online Learning // Theoretical Frameworks in Online Learning Environments. — New York: Routledge, 2004. — B. 65—85.

5. Dziuban C., Graham C.R., Moskal P.D., Norberg A., Sicilia N. Blended learning: the new normal and emerging technologies // International Journal of Educational Technology in Higher Education. — 2018. — Vol. 15(3). — B. 1—16.

6. Shodmonov N.N. Oliy ta’limda elektron ta’lim tizimlarini joriy etishning pedagogik shartlari: ped. fan. nom. diss. — Toshkent: TDPU, 2020. — 178 b.

7. Toshmatov J.X. Simulyatsion modellashtirishni muhandislik ta’limiga integratsiyalashning metodologiyasi // Muhandislik ta’limi muammolari. — 2022. — №4. — B. 112—121.

8. Bonk C.J., Graham C.R. The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs. — San Francisco: Pfeiffer Publishing, 2006. — 624 b.

9. Horn M.B., Staker H. Blended: Using Disruptive Innovation to Improve Schools. — San Francisco: Jossey-Bass, 2014. — 336 b.

10. Pintrich P.R., De Groot E.V. Motivational and self-regulated learning components of classroom academic performance // Journal of Educational Psychology. — 1990. — Vol. 82(1). — B. 33—40.

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 13-mayidagi 299-son "Oliy ta’lim muassasalarida masofaviy ta’limni tashkil etish tartibi to‘g'risida"gi Qarori. — Toshkent, 2020.

12. Singh H. Building effective blended learning programs // Educational Technology. — 2021. — Vol. 43(6). — B. 51—54.

13. Baratov D.D. Bo‘lajak muhandislarni aralash ta’lim muhitida kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari («Qishloq xo‘jaligi mashinalari» fanini o‘qitish misolida) // ResearchGate. - 2026.

14. Baratov D.D. Talabalar kreativ kompetentligini rivojlantirishda interaktiv metodlarning samarasi // ResearchGate. - 2026.

15. Baratov D.D., Ataullayev J. Texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalar mustaqil ta’limining o‘ziga xos xususiyatlari va tarkibiy tuzilmasi // ResearchGate. - 2026.

16. Baratov D.D. Aralash ta’lim asosida bo‘lajak qishloq xo‘jaligi muhandislarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish mexanizmlari // ResearchGate. - 2026.

17. Baratov D.D. Muhandislik ta’lim yo‘nalishlarida mustaqil ta’limni tashkil etishning mazmuni va metodik asoslari // ResearchGate. - 2026.

18. Baratov D.D., Ataullayev J. Pedagogical conditions for organizing independent learning in the training of future engineers: current state and prospects // ResearchGate. - 2026.

19. Baratov D.D. A methodology for developing creative thinking in engineering students based on STEM technologies // ResearchGate. - 2026.

20. Baratov D.D., Ruziyev E.R. Technology for preparing future engineers for professional activities in a blended learning environment // The Journal of Applied Science and Social Science. - 2026.

21. Baratov D.D. The importance of using modern technologies in pedagogy // ResearchGate. - 2026.

22. Baratov D.D. Methodology for developing creative competence in preparing students for innovative engineering activities // Publishing centre of Finland. - 2026.

23. Baratov D.D. The effectiveness of using STEAM technology in teaching andragogy: results of an experiment in the field of vocational education // ResearchGate. - 2025.

24. Baratov D.D. Improving the independent creative activity of students on the basis of competent approach // ResearchGate. - 2023. - B. 45-58.

MUAMMOLI TA’LIM METODLARI ORQALI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA DIVERGENT FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Turdiyeva Mohira Juraqulovna,
RTU, Pedagogik ta’lim va psixologiya kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.,PhD.,
Turon fanlar akademiyasi faxriy dotsenti
mokhiraturdiyeva@gmail.com

Maktabgacha yoshdagi bolalarda divergent fikrlashni rivojlantirishda muammoli ta’lim metodlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonining bolalarning ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va divergent tafakkur ko‘nikmalariga ta’sirini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida tajriba va nazorat guruhlari tashkil etilib, mashg‘ulotlar muammoli ta’lim metodlari asosida olib borildi. Natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, muammoli ta’lim elementlaridan foydalanilgan mashg‘ulotlar bolalarning kreativ tafakkur darajasini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini takomillashtirish hamda bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muammoli ta’lim metodlaridan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, divergent fikrlash, kreativ tafakkur, muammoli ta’lim metodlari, ijodiy fikrlash, pedagogik texnologiyalar.*

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ДИВЕРГЕНТНОГО МЫШЛЕНИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ПОСРЕДСТВОМ ПРОБЛЕМНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ.

В данной статье рассматриваются педагогические возможности использования методов проблемно-ориентированного обучения для развития дивергентного мышления у детей дошкольного возраста. Главная цель исследования – определить влияние образовательного процесса, организованного на основе проблемных ситуаций, на творческое мышление детей, навыки самостоятельного принятия решений и дивергентного мышления. В ходе исследования были сформированы экспериментальная и контрольная группы, а занятия проводились на основе методов проблемно-ориентированного обучения. Анализ результатов показал, что занятия с использованием элементов проблемно-ориентированного обучения значительно повышают уровень творческого мышления детей. Результаты исследования позволяют разработать практические рекомендации по совершенствованию образовательного процесса в дошкольных учреждениях и эффективному использованию методов проблемно-ориентированного обучения для развития творческого потенциала детей.

Ключевые слова: *дошкольное образование, дивергентное мышление, творческое мышление, методы проблемно-ориентированного обучения, творческое мышление, педагогические технологии.*

METHODS OF DEVELOPING DIVERGENT THINKING IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH PROBLEM-BASED LEARNING

This article examines the pedagogical potential of using problem-based learning methods to develop divergent thinking in preschool children. The primary objective of the study was to determine the impact of a problem-based learning process on children's creative thinking, independent decision-making skills, and divergent thinking. The study included experimental and control groups, and lessons were conducted using problem-based learning methods. Analysis of the results showed that lessons using elements of problem-based learning significantly improved children's creative thinking. The study's findings allow for the development of practical recommendations for improving the educational process in preschool institutions and the effective use of problem-based learning methods to develop children's creative potential.

Key words: *preschool education, divergent thinking, creative thinking, problem-based learning methods, creative thinking, pedagogical technologies*

Maktabgacha yoshdagi bolalarning divergent fikrlashini rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinayotgan dolzarb yo‘nalishlardan biridir. Ilmiy adabiyotlarda kreativ tafakkur shaxsning yangi g‘oyalar yaratish, noodatiy yechimlar topish hamda

muammolarga moslashuvchan yondashish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, bolalik davrida ushbu qobiliyatlarni rivojlantirish keyingi ta’lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o‘qish va ijtimoiy moslashuv uchun muhim omil hisoblanadi.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda divergent fikrlashning shakllanishi bolaning faol bilish jarayoni bilan chambarchas bog‘liq ekani ta’kidlanadi. L.S. Vygotskiy nazariyasiga ko‘ra[9], bolaning tafakkuri ijtimoiy muhit va faoliyat jarayonida rivojlanadi, bunda muammoli vaziyatlar bolaning yaqin rivojlanish zonasini kengaytiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu yondashuv muammoli ta’lim metodlarining nazariy asosini tashkil etadi.

J.P. Guilford kreativ tafakkurni divergent fikrlash bilan bog‘lab[7], uning asosiy ko‘rsatkichlari sifatida fikrlarning ravonligi, moslashuvchanligi va originalligini ajratib ko‘rsatadi. Tadqiqotchining fikricha, aynan muammoli vaziyatlar va ochiq savollar bolalarda divergent fikrlashni faollashtiradi. Bu esa muammoli ta’lim metodlarining kreativ tafakkurni rivojlantirishdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslaydi.

E.P. Torrance tomonidan ishlab chiqilgan kreativ fikrlashni baholash testlari ham bolalarda ijodiy qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirish masalasida keng qo‘llaniladi. Torrance tadqiqotlarida maktabgacha yosh davri kreativ tafakkurning eng faol rivojlanish bosqichi ekanligi[5] qayd etilgan bo‘lib, bu davrda ta’lim jarayonini muammoli va izlanishga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etish yuqori samaradorlik berishi isbotlangan.

Zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda muammoli ta’lim (Problem-Based Learning) bolalarning mustaqil fikrlash, muammoni tahlil qilish va ijodiy yechimlar ishlab chiqish qobiliyatlarini rivojlantiruvchi samarali pedagogik texnologiya sifatida e’tirof etilmoqda. Tadqiqotchilar muammoli ta’lim jarayonida bolalarning bilish faolligi oshishi, ta’limga bo‘lgan ichki motivatsiyasi kuchayishi va divergent fikrlash elementlari izchil rivojlanishini ta’kidlaydilar.

Maktabgacha ta’lim sohasidagi ilmiy manbalarda muammoli ta’lim metodlaridan foydalanish o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashgan holda amalga oshirilganda yanada samarali bo‘lishi qayd etilgan. Muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan rolli o‘yinlar, ijodiy topshiriqlar va mantiqiy muammolar bolalarda fantaziya, tasavvur va mustaqil fikrlashni faollashtiradi[13]. Bu esa divergent fikrlashning kompleks rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, muammoli ta’lim metodlarining aynan maktabgacha yoshdagi bolalar kreativ tafakkuriga hamda divergent fikrlashiga ta’siri bo‘yicha empirik tadqiqotlar yetarli darajada emas. Ko‘plab tadqiqotlar umumiy ta’lim bosqichlariga qaratilgan bo‘lib, maktabgacha ta’lim tizimiga moslashtirilgan metodik modellarning ilmiy asoslari kam o‘rganilgan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy zarurati va dolzarbligini belgilaydi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar orasida muammoli ta’lim metodlari bolalarning mustaqil fikrlashi, muammoni anglash va yechim topish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali vosita sifatida e’tirof etilmoqda[1]. Muammoli ta’lim jarayonida bolalar tayyor bilimlarni qabul qilishdan ko‘ra, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, taxminlarni ilgari surish va ijodiy yechimlar topishga undaladi. Bu esa ularning kreativ tafakkurini rivojlantirishda muhim pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim amaliyotida muammoli ta’lim metodlaridan foydalanish bolalarning qiziqishini oshirish, bilish faolligini rag‘batlantirish[6] va ijodiy imkoniyatlarini ochib berishga hamda ularning o‘z fikrini erkin ifodalay olishiga sabab bo‘ladi. Shunga qaramay, muammoli ta’lim metodlarining aynan maktabgacha yoshdagi bolalar divergent fikrlashiga ta’siri masalasi yetarlicha chuqur tadqiq etilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqot mavzusining naqadar dolzarbligini belgilab beradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda divergent fikrlashni rivojlantirishda muammoli ta’lim metodlarining samaradorligini ilmiy asosda aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar tizimi ishlab chiqildi hamda tajriba-sinov ishlari orqali uning natijalari tahlil qilindi[12].

Bu tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarda divergent fikrlashni rivojlantirishda muammoli ta’lim metodlarining samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, tajriba-sinov tadqiqoti shaklida tashkil etildi. Tadqiqot jarayoni muammoli vaziyatlar asosida ishlab chiqilgan mashg‘ulotlar tizimini amaliyotga joriy etish hamda uning natijalarini ilmiy tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqotda maktabgacha ta’lim muassasasida tarbiyalanayotgan 5–6 yoshli bolalar ishtirok etdi. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, ishtirokchilar ikki guruhga ajratildi:

- **Tajriba guruhi**, unda ta’lim jarayoni muammoli ta’lim metodlari asosida tashkil etildi;
- **Nazorat guruhi**, unda mashg‘ulotlar an’anaviy ta’lim usullari asosida olib borildi.

Guruhlar yosh va rivojlanish darajasi jihatidan o‘zaro tenglashtirildi, bu esa tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlashga xizmat qildi.

Tajriba guruhi uchun muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar tizimi ishlab chiqildi. Ushbu mashg‘ulotlar bolalarni faol fikrlashga, muammoni anglashga, turli yechimlarni taklif qilishga va

ijodiy yondashuvni namoyon etishga yo‘naltirildi[11]. Mashg‘ulotlar davomida ochiq savollar, muammoli topshiriqlar, ijodiy vaziyatlar hamda o‘yin elementlaridan keng foydalanildi.

Nazorat guruhida esa ta’lim jarayoni asosan tayyor bilimlarni berishga yo‘naltirilgan, reproduktiv xarakterdagi mashg‘ulotlar orqali olib borildi. Bu holat muammoli ta’lim metodlarining ta’sirini aniq taqqoslash imkonini berdi.

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- pedagogik kuzatuv;
- suhbat;
- ijodiy topshiriqlar asosida diagnostika;
- tajriba va nazorat natijalarini taqqoslash;
- statistik va sifat tahlili.

Bolalarning divergent fikrlashr darajasi fikrlarning originalligi, moslashuvchanligi va mustaqilligi kabi ko‘rsatkichlar asosida baholandi.

Tadqiqot maktabgacha ta’lim muassasasida tarbiyalanayotgan **4–6 yoshli bolalar** ishtirokida o‘tkazildi. Yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ishtirokchilar quyidagi guruhlarga ajratildi:

- **Kichik guruh**– 4 yoshli bolalar
- **O‘rta guruh**– 5 yoshli bolalar
- **Katta guruh**– 6 yoshli bolalar

Har bir yosh guruhida tajriba va nazorat kichik guruhlari shakllantirildi, bu esa yosh omilining ta’sirini tahlil qilish imkonini berdi.

Qo‘llanilgan metodlar va ularning yosh guruhlari bo‘yicha taqsimoti

1. Pedagogik kuzatuv metodi

Pedagogik kuzatuv metodi (4–6 yosh guruhlari)

Tadqiqot jarayonida 4–6 yoshli bolalarning muammoli vaziyatlarga bo‘lgan munosabati, fikrlash faolligi, mustaqil yechim taklif qilish holatlari hamda ijodiy tashabbuslarini aniqlash maqsadida pedagogik kuzatuv metodidan foydalanildi. Kuzatuvlar rejalashtirilgan mashg‘ulotlar jarayonida hamda bolalarning erkin o‘yin faoliyati davomida tizimli ravishda olib borildi.

Mashg‘ulot jarayonidagi kuzatuvlar davomida bolalarga muammoli vaziyatlar taqdim etildi. Masalan, konstruktor mashg‘ulotida bolalarga “Qanday qilib kublardan balandroq va qulamaydigan uy qurish mumkin?” degan muammo qo‘yildi. Ushbu vaziyatda ayrim bolalar tayyor namunaga taqlid qilgan bo‘lsa, boshqalari yangi shakllar sinab ko‘rdi, konstruktsiyani qayta qurdi yoki tengdoshlaridan maslahat oldi. Pedagog bolalarning muammoni anglash tezligi, faol fikrlash jarayonida ishtiroki va taklif etilgan yechimlarning xilma-xilligini kuzatdi.

Erkin o‘yin faoliyatidagi kuzatuvlar bolalarning tashabbuskorligini va ijodiy faolligini aniqlashga xizmat qildi. Masalan, rolli o‘yinlar jarayonida (“Do‘kon”, “Shifoxona”, “Quruvchilar”) ayrim bolalar o‘yinning syujetini mustaqil rivojlantirib, yangi rollar va vaziyatlar kiritdi. Boshqa bolalar esa muammoli holatlar yuzaga kelganda (o‘yinchoq yetishmasligi, rollar bo‘linishi) muqobil yechimlar taklif qildi yoki vaziyatni kelishuv orqali hal qilishga harakat qildi.

Shuningdek, tasviriy faoliyat jarayonida bolalarning ijodiy tashabbuslari kuzatildi. Masalan, berilgan mavzu doirasidan chiqib, rasmga qo‘shimcha elementlar kiritish, ranglarni noodatiy uyg‘unlashtirish yoki rasm mazmunini og‘zaki izohlash jarayonida bolalarning mustaqil fikrlashi va kreativ yondashuvi qayd etildi.

Kuzatuv natijalari maxsus ishlab chiqilgan kuzatuv varaqalari orqali qayd etilib, unda bolalarning muammoli vaziyatga munosabati, fikrlash faolligi, mustaqil yechim taklif qilish darajasi va ijodiy tashabbus ko‘rsatkichlari belgilandi. Olingan ma’lumotlar yosh guruhlari kesimida tahlil qilinib, muammoli ta’lim metodlarining bolalar kreativ tafakkurini rivojlantirishdagi ta’sirini aniqlashda foydalanildi.

2. Muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar

Tadqiqot jarayonida muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar 5–6 yoshli bolalar uchun asosiy eksperimental metod sifatida qo‘llanildi. Ushbu mashg‘ulotlar bolalarning yosh va bilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan muammoli topshiriqlar, ochiq savollar hamda ijodiy vaziyatlar orqali amalga oshirildi. Mashg‘ulotlarning asosiy maqsadi bolalarni tayyor yechimlarni qabul qilishdan ko‘ra, muammoni mustaqil tahlil qilish va ijodiy yechimlar topishga yo‘naltirishdan iborat bo‘ldi.

5 yoshli bolalar bilan o‘tkazilgan mashg‘ulotlarda muammoli vaziyatlar asosan kundalik hayotga yaqin holatlar asosida tashkil etildi. Masalan, mashg‘ulot davomida bolalarga “Agar o‘yinchoqlarni saqlaydigan quti kichik bo‘lsa, barcha o‘yinchoqlarni qanday joylashtirish mumkin?” degan muammo taklif etildi. Bolalar turli yechimlarni ilgari surib, o‘yinchoqlarni tartiblash, ayrimlarini boshqa joyga qo‘yish yoki

yangi quti yasash kabi g‘oyalarni taklif etdilar. Ochiq savollar orqali ularning fikrlash jarayoni rag‘batlantirildi va har bir bolaning ijodiy yondashuvi qo‘llab-quvvatlandi.

6 yoshli bolalar bilan olib borilgan mashg‘ulotlarda muammoli vaziyatlar yanada murakkablashtirildi va bir nechta muqobil yechimlarni talab qiladigan holatlar yaratildi. Masalan, bolalarga “Agar bog‘cha hovlisida o‘ynash uchun joy kam bo‘lsa, uni qanday qilib hamma uchun qulay qilish mumkin?” kabi muammo berildi. Bolalar o‘z fikrlarini rasm, maket yoki og‘zaki izoh orqali ifodaladilar. Ushbu faoliyat jarayonida bolalarning muammoga moslashuvchan yondashuvi, fikrlarning originalligi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati kuzatildi.

4 yoshli bolalar uchun muammoli ta’lim metodlari soddalashtirilgan, o‘yin xarakteridagi vaziyatlar asosida joriy etildi. Masalan, konstruktor o‘yinida bolalarga “Qanday qilib ayiqcha ko‘prikdan o‘tishi mumkin?” degan sodda muammo qo‘yildi. Bolalar turli kublardan foydalanib, ko‘prik qurishga harakat qildilar. Ushbu jarayonda asosiy e’tibor bolaning muammoni tushunishi, harakat orqali yechim topishi va ijodiy tashabbus ko‘rsatishiga qaratildi.

Mashg‘ulotlar davomida ochiq savollar (“Yana qanday yo‘l bilan qilish mumkin?”, “Boshqacha fikr bormi?”)[13] orqali bolalarning fikrlash faolligi oshirildi. Har bir bolaning taklif etgan yechimlari baholanmasdan, rag‘batlantirildi, bu esa erkin va ijodiy muhitni shakllantirishga xizmat qildi. Natijada muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar bolalarning kreativ tafakkurini rivojlantirishda samarali metod sifatida namoyon bo‘ldi.

3. Ijodiy topshiriqlar orqali diagnostika

Tadqiqot jarayonida 4–6 yoshli bolalarning divergent fikrlash darajasini aniqlash va rivojlanish dinamikasini kuzatish maqsadida ijodiy topshiriqlar asosidagi diagnostika metodi qo‘llanildi. Ushbu metod bolalarning yosh, psixologik va bilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich tashkil etildi.

4 yoshli bolalar uchun ijodiy topshiriqlar asosan o‘yin xarakterida bo‘lib, bolaning tasavvurini erkin ifodalashiga yo‘naltirildi. Masalan, bolalarga “Agar bulutlar gapira olsa, ular nima der edi?” kabi sodda va qiziqarli savollar asosida rasm chizish topshirig‘i berildi. Shuningdek, kundalik hayotda tanish bo‘lgan predmetlar (qoshiq, kubik, qog‘oz quti) taklif etilib, ulardan noodatiy tarzda foydalanish haqida fikr bildirish so‘raldi. Ushbu topshiriqlar orqali bolaning fantaziyasi, tasavvuri va ijodiy faolligi kuzatildi.

5 yoshli bolalar bilan olib borilgan ijodiy topshiriqlar nisbatan murakkabroq bo‘lib, muammoli vaziyat elementlari bilan boyitildi. Masalan, bolalarga yarim tayyor rasm berilib, uni o‘z xohishiga ko‘ra davom ettirish topshirildi yoki “Agar o‘yinchoqlar jonlanib qolsa, nima bo‘lardi?” mavzusida qisqa hikoya tuzish so‘raldi. Bundan tashqari, oddi predmetlardan (karton, rangli qog‘oz, ip) yangi buyum yaratish vazifalari berildi. Ushbu faoliyat bolalarning muammoga ijodiy yondashuvi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini aniqlashga xizmat qildi.

6 yoshli bolalar uchun ijodiy topshiriqlar aniq muammoli vaziyatlar asosida tashkil etildi. Masalan, bolalarga “Agar bolalar bog‘chasida suv to‘satdan o‘chib qolsa, qo‘llarni qanday yuvish mumkin?” kabi hayotiy muammolar taklif etildi va turli yechimlar ishlab chiqish so‘raldi. Shuningdek, berilgan predmetlardan noodatiy foydalanish (masalan, plastik idishni o‘yinchoqqa aylantirish) yoki rasm asosida mustaqil hikoya tuzish topshiriqlari bajarildi. Bu topshiriqlar bolalarning divergent fikrlashi, originalligi va mantiqiy izchilligini baholash imkonini berdi.

Ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida bolalarning fikrlar xilma-xilligi, yangicha yondashuvi, tashabbuskorligi va mustaqil yechim taklif qilish darajasi pedagogik kuzatuv asosida qayd etildi. Olingan natijalar yosh guruhlari kesimida tahlil qilinib, muammoli ta’lim metodlarining divergent fikrlashni rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlash uchun foydalanildi.

4. Suhbat metodi

Tadqiqot jarayonida 5–6 yoshli bolalar bilan suhbat metodi asosiy diagnostik vosita sifatida qo‘llanildi. Ushbu metod orqali bolalarning muammoli vaziyatni tushunish darajasi, fikrini og‘zaki ifodalash qobiliyati va mustaqil qaror qabul qilishga tayyorligi o‘rganildi.

5 yoshli bolalar bilan suhbat jarayonida muammoli vaziyatlar kundalik hayotga yaqin misollar orqali taqdim etildi. Masalan:

- “Agar rasm chizish uchun ranglar yetishmasa, nima qilarding?”
- “Agar do‘stlaring bilan o‘yinchoqni bo‘lishish qiyin bo‘lsa, qanday yechim toparding?”

Bolalar bu savollarga turli yechimlarni taklif qilib, o‘z fikrlarini og‘zaki ravishda ifodaladilar. Ba’zilari yangi vositalar yoki ijodiy usullarni tavsiya qildi, boshqalari esa yordam so‘rash yoki navbat bilan ishlash kabi muqobil yo‘llarni ilgari surdi. Shu orqali ularning muammoga yondashuvi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati kuzatildi.

6 yoshli bolalar bilan suhbatlar yanada murakkab va kengroq kontekstga ega bo‘ldi. Masalan:

- “Agar bog‘cha hovlisida o‘yin joyi yetarli bo‘lmasa, bolalar uchun qanday joy yaratish mumkin?”

- “Agar hikoya qahramoni qiyin vaziyatga tushsa, u qanday harakat qilishi kerak?”[12]

Bolalar suhbat davomida turli g‘oyalarni ifodaladilar, o‘z fikrlarini tushuntirish uchun misollar keltirdilar va mantiqiy izohlar berdilar. Bu esa ularning muammoli vaziyatni anglash darajasi va ijodiy tafakkurini aniqlashga imkon berdi.

4 yoshli bolalar bilan suhbatlar qisqa, yo‘naltirilgan savollar asosida olib borildi. Masalan:

- “Qaysi o‘yinchoq bilan o‘ynashni xohlaysan?”
- “Agar bloklar qulab ketsa, nima qilasan?”

Ushbu savollar bolalarning e’tiborini muammoli vaziyatga yo‘naltirib, ularning fikrlarini sodda, ammo ijodiy tarzda ifodalashlariga imkon yaratdi. Shu orqali 4 yoshli bolalarning tushunish darajasi va mustaqil yechim topish qobiliyati baholandi.

Suhbatlar natijalari maxsus kuzatuv jadvallari va yozma qaydlar orqali tizimli ravishda qayd etildi. Ushbu metod bolalarning muammoli vaziyatlarda fikrlashini, ijodiy yechimlar topishini va o‘z fikrini og‘zaki ifodalash qobiliyatini baholashda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ldi.

5. Taqqoslash va statistik tahlil metodi

Tadqiqot jarayonida barcha yosh guruhlari natijalari bo‘yicha **taqqoslash va statistik tahlil** metodi qo‘llanildi. Ushbu metod orqali tajriba va nazorat guruhlarining dastlabki va yakuniy ko‘rsatkichlari o‘zaro solishtirildi hamda muammoli ta’lim metodlarining samaradorligi aniqlashtirildi.

Dastlabki bosqichda 4–6 yoshli bolalarning divergent fikrlash ko‘rsatkichlari (fikrlarning originalligi, moslashuvchanligi, mustaqil yechim taklif qilish va ijodiy tashabbus) pedagogik kuzatuv, suhbat va ijodiy topshiriqlar orqali o‘lchandi. Masalan:

- 4 yoshli bolalarda rasm chizish va o‘yin konstruksiyalari orqali yechim taklif qilish faolligi,
- 5–6 yoshli bolalarda muammoli topshiriqlar va ochiq savollarga javob berishdagi mustaqillik va ijodiy yondashuv darajasi.

Yakuniy bosqichda esa bolalar muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarni yakunladilar va natijalar qayd etildi. Har bir yosh guruhi uchun quyidagi ko‘rsatkichlar tahlil qilindi:

1. **Tajriba guruhi** – muammoli ta’lim metodlari asosida mashg‘ulotlar o‘tkazilgan bolalar;
2. **Nazorat guruhi** – an’anaviy ta’lim metodlari asosida mashg‘ulotlar o‘tkazilgan bolalar.

Olingan natijalar **sifat va miqdoriy tahlil** asosida umumlashtirildi:

- Fikrlarning originalligi va yechimlarning xilma-xilligi bo‘yicha ballar berildi;
- Muammoli vaziyatga moslashuvchan yondashuv va mustaqil qaror qabul qilish ko‘rsatkichlari jadval va diagrammalar yordamida solishtirildi;
- Har bir yosh guruhi kesimida tajriba va nazorat guruhlari natijalari tahlil qilindi.

Amaliy misol sifatida: 5 yoshli tajriba guruhi o‘yinchoqlarni joylashtirish muammosini hal qilishda o‘rtacha 3–4 mustaqil yechim taklif qilgan bo‘lsa, nazorat guruhi bolalari asosan tayyor yechimni takrorlagan. Shu tarzda, 6 yoshli bolalarda esa muammoli vaziyatlarda yechimlarning originalligi tajriba guruhida 40–50% yuqori bo‘lib chiqdi. 4 yoshli bolalar uchun esa soddalashtirilgan topshiriqlar yordamida ijodiy faollik ko‘rsatkichlari tajriba guruhi bolalarida sezilarli darajada oshgani kuzatildi.

Shu tariqa, **taqqoslash va statistik tahlil metodi** yordamida muammoli ta’lim metodlarining 4–6 yosh guruhlarida divergent fikrlashni rivojlantirishdagi samaradorligi ilmiy asosda aniqlanib, yosh omili kesimida ko‘rsatkichlar tahlil qilindi.

Tajriba va nazorat guruhlari bo‘yicha divergent fikrlash **ko‘rsatkichlari (%), 4–6 yosh guruhlari misolida ajtatib ko‘rsatilgan.(1-jadval)**

Jadval 1.

Yosh guruhi	Guruh	Fikrlarning originalligi	Moslashuvchan yondashuv	Mustaqil yechim taklif qilish	Ijodiy tashabbus
4 yosh	Tajriba	45% → 65%	40% → 60%	35% → 55%	50%→ 70%
	Nazorat	44% → 48%	39% → 43%	36% → 40%	51%→ 53%
5 yosh	Tajriba	50% → 75%	46% → 70%	42% → 68%	55%→ 78%
	Nazorat	49% → 52%	45% → 48%	43% → 46%	54%→ 56%
6 yosh	Tajriba	55% → 82%	50% → 78%	48% → 75%	58%→ 80%
	Nazorat	53% → 56%	49% → 52%	47% → 50%	57%→ 60%

Jadval 1. Jadvaldagi ko‘rsatkichlar dastlabki → yakuniy foizlar sifatida berilgan.

Tahlil va kuzatuv natijalari

1. **Fikrlarning originalligi:**

5–6 yoshli bolalar tajriba guruhida 25–27% ga oshdi, bu nazorat guruhiga nisbatan sezilarli farqni ko‘rsatadi. 4 yoshli bolalarda ham muammoli ta’lim metodlari qo‘llanilganda originallik 20% ga oshdi.

2. **Moslashuvchan yondashuv:**

Tajriba guruhidagi bolalar muammoli vaziyatlarga turli yechimlar topish va o‘yin yoki mashg‘ulot jarayonida moslashish ko‘rsatkichini oshirdi. 6 yoshli bolalarda bu parametr 28% ga oshgan, nazorat guruhida esa faqat 3–4%.

3. **Mustaqil yechim taklif qilish:**

5 yoshli bolalarda mustaqil yechim taklif qilish ko‘rsatkichi 26% ga oshdi, bu esa muammoli vaziyatlar asosida mashg‘ulotlarning samaradorligini ko‘rsatadi. 4 yoshli bolalarda 20% ga oshgan, lekin yoshning kichikligi sababli ko‘rsatkichlar nisbatan pastroq.

4. **Ijodiy tashabbus:**

Erkin o‘yin va ijodiy topshiriqlar bolalarning tashabbus ko‘rsatishini oshirdi. Tajriba guruhida barcha yosh guruhlari uchun ijodiy tashabbus 20–23% ga oshgan, nazorat guruhida esa faqat 2–5%.

Tajriba-sinov ishlari yakunida olingan natijalar dastlabki va yakuniy ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilindi. Tajriba va nazorat guruhlari natijalarining o‘zaro taqqoslanishi muammoli ta’lim metodlarining bolalar divergent fikrlashini rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlash imkonini berdi. Olingan ma’lumotlar jadval va diagrammalar orqali umumlashtirildi hamda ilmiy xulosalar chiqarildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, **muammoli ta’lim metodlari** 4–6 yoshli bolalarda divergent fikrlashning barcha asosiy ko‘rsatkichlarini (fikrlarning originalligi, moslashuvchan yondashuv, mustaqil yechim taklif qilish, ijodiy tashabbus) sezilarli darajada oshiradi.

4 yoshli bolalar uchun soddalashtirilgan o‘yin va ijodiy topshiriqlar yordamida muammoli vaziyatlarga moslashuvchanlik va ijodiy tashabbus ko‘rsatkichlari taxminan 20% ga oshdi. Bu yosh guruhida fikrlarning originalligi va mustaqil yechim taklif qilish ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq bo‘ldi, bu esa yosh bolalarda ham muammoli ta’lim metodlarining samaradorligini tasdiqlaydi.

5–6 yoshli bolalar uchun esa muammoli topshiriqlar va ochiq savollar orqali tashkil etilgan mashg‘ulotlar yanada samarali bo‘ldi. 6 yoshli tajriba guruhi bolalarining fikrlarning originalligi 27%, mustaqil yechim taklif qilish 28% ga oshdi. Bu natija **Hennessey & Amabile (2010)** va **Torrance (2016)** tadqiqotlari bilan mos keladi[5], ular ham muammoli ta’lim metodlari bolalarning ijodiy faolligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatgan.

Shuningdek, **Moslashuvchan yondashuv** va **Ijodiy tashabbus** ko‘rsatkichlarining o‘sishi shuni ko‘rsatadiki, muammoli vaziyatlarda bolalar biror bir muammoga bir nechta yechim topishga harakat qiladi. Bu esa **divergent fikrlash**ning rivojlanishiga xizmat qiladi, va **Runco & Acar (2012)** tadqiqotlari bilan mos keladi.

Qiziqarli jihati shundaki, 4 yoshli bolalarda ham soddalashtirilgan muammoli topshiriqlar yordamida ijodiy faollik oshdi. Bu esa yosh bolalarda muammoli ta’lim metodlari dastlabki rivojlanish bosqichida ham samarali ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tajriba va nazorat guruhlari natijalari o‘rtasidagi farq yosh oshishi bilan yanada aniq ko‘zga tashlanadi, bu esa yosh omilining metod samaradorligiga ta’sirini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, **muammoli ta’lim metodlari** 4–6 yoshli bolalarda divergent fikrlashni samarali rivojlantirish imkonini beradi.

Asosiy xulosalar:

1. 4–6 yoshli bolalarda muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar fikrlarning originalligi, moslashuvchan yondashuv, mustaqil yechim taklif qilish va ijodiy tashabbus ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshirdi[11].
2. 4 yoshli bolalarda soddalashtirilgan muammoli topshiriqlar yordamida ijodiy faollik va mustaqil fikrlash darajasi oshgan, bu metodning yosh bolalar uchun ham samarali ekanligini ko‘rsatadi.
3. 5–6 yoshli bolalarda muammoli vaziyatlar yanada murakkab va kengroq bo‘lib, bolalarning divergent fikrlash va ijodiy yechimlar topish qobiliyatini sezilarli darajada oshirdi.
4. Taqqoslash va statistik tahlil natijalari tajriba guruhi va nazorat guruhi o‘rtasidagi farqni aniq ko‘rsatdi: tajriba guruhi bolalarining ijodiy ko‘rsatkichlari 20–28% ga oshdi, nazorat guruhi bolalarida esa faqat 2–5% o‘sish kuzatildi.

Amaliy tavsiyalar:

1. **Maktabgacha ta’lim muassasalarida** muammoli ta’lim metodlarini muntazam qo‘llash tavsiya etiladi. Mashg‘ulotlar bolalarning yosh xususiyatlariga moslashtirilishi lozim.
2. **4 yoshli bolalar** uchun muammoli topshiriqlar o‘yin xarakterida bo‘lishi kerak, masalan, rasm chizish, konstruksiyalar yaratish, predmetlardan noodatiy foydalanish.

3. **5–6 yoshli bolalar** uchun muammoli vaziyatlar real hayotiy misollar bilan boyitilishi va ochiq savollar orqali bolalarning fikrlashini rivojlantirish tavsiya etiladi.

4. Pedagoglar **erkin o‘yin va suhbat metodlarini** qo‘llab, bolalarning ijodiy tashabbusini rag‘batlantirishlari lozim.

5. Kelajak tadqiqotlarida muammoli ta’lim metodlarini boshqa yosh guruhlari va turli pedagogik sharoitlarda qo‘llash samaradorligini o‘rganish tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, muammoli ta’lim metodlari maktabgacha yoshdagi bolalarning divergent fikrlashini rivojlantirishda ilmiy jihatdan asoslangan, samarali va amaliy ahamiyatga ega vosita ekanligi tasdiqlandi. Ushbu metodlar bolalarning ijodiy faolligini oshiradi, muammoli vaziyatlarda mustaqil yechim topish qobiliyatini rivojlantiradi hamda kelajakdagi ta’lim jarayonini yanada interaktiv va samarali qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. **“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi.** – Toshkent, 2022.

2. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.X. **Maktabgacha ta’lim pedagogikasi.**– Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

3. Davletshin M.G. **Bolalar psixologiyasi.** – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

4. Klarin M.V. **Innovatsion ta’lim texnologiyalari.** – Moskva: Pedagogika, 2017.

5. Torrance E.P. **Creativity in the Classroom.** – Washington: National Education Association, 2016.

6. Hennessey B.A., Amabile T.M. **Creativity.** *Annual Review of Psychology*, 2010, Vol. 61, pp. 569–598.

7. Runco M.A., Acar S. **Divergent Thinking as an Indicator of Creative Potential.** *Creativity Research Journal*, 2012, Vol. 24(1), pp. 66–75.

8. Craft A. **Creativity and Early Years Education.** – London: Continuum, 2015.

9. Vygotsky L.S. **Imagination and Creativity in Childhood.** – New York: Routledge, 2004.

10. Turdieva, Mokhira Jurakulovna. "Principles and methodology of development of creative skills of preschool children." *Innovative Development in Educational Activities* 2.8 (2023): 49-53.

11. Turdieva M. J. Content Of Development Of Creative Skills Of Preschool Children Based On Individual And Innovative Approach //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2022. – Т. 2. – №. 1.5 Pedagogical sciences.

12. Jurakulovna, Turdieva Mokhira, et al. "Organization Of The Process Of Preschool Education And Upbringing Based On A Student-Centered Approach." *International Journal of Early Childhood* 14.03: 2022.

13. Олимов К., Турдиева М. Инновационный подход и государственная учебная программа «первый шаг» в реализации процесса дошкольного образования и подготовки //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 2/S. – С. 419-423.

TALABALARNING KASBIY MOBILLIGINI ART-PEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION STRATEGIYALARI

Usmonova Qumriniso Saydaliyevna,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti o‘qituvchisi

Ushbu maqolada talabalarning kasbiy mobilligini rivojlantirish masalasi art-pedagogik yondashuv asosida ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy ta’lim muhitida kasbiy mobillikning mazmuni faqat kasbiy yo‘nalishni o‘zgartirish yoki yangi sharoitga moslashish bilan cheklanmasligi, balki talabaning kreativ fikrlashi, refleksiv faoliyati, kommunikativ moslashuvchanligi va emotsional barqarorligi bilan chambarchas bog‘liq murakkab integrativ sifat ekanligi asoslab beriladi. Maqolada san’atga asoslangan pedagogik texnologiyalarning talabalarda kasbiy moslashuvchanlikni shakllantirishdagi didaktik imkoniyatlari ochib berilib, art-pedagogikaning ta’lim jarayoniga estetik, hissiy va obrazli tafakkur elementlarini olib kirishi ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, art-pedagogik faoliyat asosida ishlab chiqilgan metodik modelning diagnostika, motivatsiya, integratsiya va refleksiya bosqichlari yoritilib, ularning talabaning kasbiy rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’siri tavsiflanadi. Tadqiqot natijalari art-pedagogik yondashuv qo‘llanilgan o‘quv jarayonida talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi, jamoaviy hamkorligi, kasbiy o‘zini anglash darajasi hamda ijtimoiy kompetensiyalari sezilarli ravishda rivojlanganini ko‘rsatadi. Natijada art-pedagogika oliy ta’lim tizimida raqobatbardosh, kreativ, moslashuvchan va zamonaviy mehnat bozori talablariga javob bera oladigan mutaxassisni tayyorlashning samarali vositalaridan biri sifatida talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: *kasbiy moslashuvchanlik, art-pedagogik yondashuv, kreativ kompetensiya, refleksiya, innovatsion ta’lim.*

ИННОВАЦИОННЫЕ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ АРТ-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

В данной статье проблема развития профессиональной мобильности студентов анализируется на основе арт-педагогического подхода в теоретическом и практическом аспектах. В исследовании обосновывается, что в современных условиях образования профессиональная мобильность не ограничивается лишь сменой профессионального направления или адаптацией к новым условиям, а представляет собой сложное интегративное качество, тесно связанное с креативным мышлением студента, его рефлексивной деятельностью, коммуникативной гибкостью и эмоциональной устойчивостью. В статье раскрываются дидактические возможности педагогических технологий, основанных на искусстве, в формировании профессиональной адаптивности студентов, а также показывается, что арт-педагогика вносит в образовательный процесс эстетические, эмоциональные и образно-мысленные компоненты. Наряду с этим освещается методическая модель, разработанная на основе арт-педагогической деятельности, включающая этапы диагностики, мотивации, интеграции и рефлексии, и характеризуется её влияние на профессиональное развитие студента. Результаты исследования показывают, что в учебном процессе, организованном с применением арт-педагогического подхода, у студентов заметно развиваются самостоятельное мышление, творческий подход, навыки коллективного взаимодействия, уровень профессионального самосознания и социальные компетенции. В итоге арт-педагогика рассматривается как одно из эффективных средств подготовки в системе высшего образования конкурентоспособного, креативного, адаптивного специалиста, способного соответствовать требованиям современного рынка труда.

Ключевые слова: *профессиональная адаптивность, арт-педагогический подход, креативная компетенция, рефлексия, инновационное образование.*

INNOVATIVE STRATEGIES FOR DEVELOPING STUDENTS’ PROFESSIONAL MOBILITY BASED ON AN ART-PEDAGOGICAL APPROACH

This article examines the development of students’ professional mobility through an art-pedagogical approach from both theoretical and practical perspectives. The study argues that in the contemporary educational environment professional mobility should not be reduced merely to changing a professional

direction or adapting to new conditions; rather, it is a complex integrative quality closely connected with students’ creative thinking, reflective activity, communicative flexibility, and emotional stability. The article reveals the didactic potential of art-based pedagogical technologies in shaping professional adaptability and demonstrates that art pedagogy enriches the educational process by incorporating aesthetic, emotional, and image-based modes of thinking. In addition, the paper describes a methodological model built on art-pedagogical activity, including the stages of diagnosis, motivation, integration, and reflection, and explains their role in students’ professional development. The research findings show that in the learning process where the art-pedagogical approach is applied, students demonstrate noticeable growth in independent thinking, creative engagement, collaborative performance, professional self-awareness, and social competencies. As a result, art pedagogy is interpreted as one of the effective instruments in higher education for preparing competitive, creative, adaptable specialists capable of meeting the demands of the modern labor market.

Keywords: *professional adaptability, art-pedagogical approach, creative competence, reflection, innovative education.*

Kirish. O‘zbekistonda ta’lim tizimi ham barcha sohalar kabi shiddatli o‘zgarishlarni qisqa muddatlarda samarali moslashishni, yangi bilimlarni mavjud fanlar negizida faol singdirib borishni, ta’lim oluvchilarni esa ular bilan izchil tanishtirib borishni taqozo etadi. Ta’lim jarayonida mutaxassislik fanlaridan berilayotgan o‘quv axborotlarni tezkor qabul qilish, ularning mohiyatini qisqa muddatlarda o‘zlashtirishga erishish, samarali o‘rganish va ulardan amaliyotda foydalana olish borasidagi chuqur bilim, chaqqonlik, o‘quv topshiriqlarini bajarishda rejali harakat qilish, maqsadni aniq belgilay olish va ularni qisqa muddatlarda bajarishga erishish talabalarning jismonan faollik ko‘rsatishini talab etadi. Ma’lumki, kasbiy tajriba bilim, ko‘nikma va malakalarning rivojlanish integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq kasbiy-ijodiy faoliyat ko‘nikmalarining o‘zlashtirilishi nafaqat amaliy ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni shu bilan birga kasbiy ijodkorlikdan xabardor bo‘lish, o‘zida ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarni yetarli darajada o‘zlashtirilishini talab etadi. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, ayniqsa raqamli transformatsiya sharoitida, mutaxassisdan faqat bilim emas, balki tez moslashish, yangi kasbiy rollarni egallash va ijodiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, kasbiy mobillik bugungi oliy ta’limning ustuvor natijalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.An’anaviy o‘qitish metodlari ko‘pincha reproduktiv bilimlarni shakllantirish bilan chegaralanib qoladi. Bu esa talabaning real hayotiy vaziyatlarga moslashish darajasini pasaytiradi. Shu sababli pedagogik amaliyotga innovatsion, shaxsga yo‘naltirilgan va kreativ yondashuvlarni joriy etish zarurati ortmoqda.Art-pedagogika ana shunday yondashuvlardan biri bo‘lib, u san’at vositalari orqali shaxsning ichki salohiyatini ochishga xizmat qiladi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik (lot., ing. “create ” – yaratish, “creative ” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida namaoyon bo‘ladi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi. Har qanday ko‘nikmalarni shakllantirish mumkin bo‘lgani kabi, kreativ fikrlash qobiliyati yoki ko‘nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Bu talabalarga ham taalluqli bo‘lib, kreativlik ustida ishlash talabalarga noodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi. Talabalarda kreativlikni rivojlantirish ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab etadi.

Kasbiy mobillik: konseptual yondashuvlar

Kasbiy mobillikni tor ma’noda kasbni o‘zgartirish qobiliyati sifatida talqin qilish yetarli emas. Zamonaviy ilmiy qarashlarda u quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oluvchi murakkab tizim sifatida qaraladi:

- yangi faoliyat sharoitlariga tez moslashish
- kasbiy identifikatsiyani qayta shakllantirish
- uzluksiz o‘rganishga tayyorlik
- noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish

Shunday qilib, kasbiy mobillik shaxsning dinamik rivojlanish ko‘rsatkichi sifatida namoyon bo‘ladi.

Art-pedagogik yondashuvning mohiyati

Art-pedagogika — bu ta’lim jarayonini emotsional, estetik va kreativ asosda tashkil etishga yo‘naltirilgan integrativ tizimdir. U o‘qitishning an’anaviy mantiqiy modelini boyitib, unga hissiy va obrazli tafakkurni qo‘shadi.

Mazkur yondashuvning o‘ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

- bilim va his-tuyg‘ularning uyg‘unligi
- faol ishtirokga asoslangan o‘qitish
- sub’ektiv tajribaning muhimligi

Natijada talaba passiv bilim oluvchidan faol ijodkorga aylanadi.

Art-pedagogika orqali kasbiy mobillikni rivojlantirish mexanizmi

Art-pedagogik texnologiyalar kasbiy mobillikni quyidagi yo‘nalishlar orqali rivojlantiradi:

Kreativ transformatsiya

San’at asosidagi faoliyatlar talabalarda standart bo‘lmagan fikrlashni shakllantiradi. Bu esa yangi kasbiy vaziyatlarda innovatsion yechimlar topishga yordam beradi.

Kommunikativ adaptatsiya

Teatr elementlari va rolli o‘yinlar orqali talabalar turli ijtimoiy rollarni sinab ko‘radi, bu esa ularning kommunikativ moslashuvchanligini oshiradi.

Refleksiv rivojlanish

Ijodiy jarayonlar o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni anglash va o‘z ustida ishlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Emotsional barqarorlik

San’at faoliyati stressni kamaytiradi va psixologik moslashuvni kuchaytiradi.

Tadqiqot doirasida quyidagi bosqichlardan iborat model ishlab chiqildi:

1-bosqich: Diagnostika

Talabalarning mavjud kompetensiyalari va kreativ salohiyati aniqlanadi.

2-bosqich: Motivatsiya

San’atga asoslangan faoliyatlar orqali ichki motivatsiya shakllantiriladi.

3-bosqich: Integratsiya

Art-pedagogik metodlar o‘quv jarayoniga tizimli ravishda kiritiladi.

4-bosqich: Refleksiya

Talabalar o‘z rivojlanish dinamikasini baholaydi.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot jarayonida art-pedagogik yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim faoliyati talabalarning kasbiy mobilligini rivojlantirishda sezilarli ijobiy natijalarni namoyon etdi. Kuzatuvlar, amaliy mashg‘ulotlar va refleksiv tahlillar shuni ko‘rsatdiki, san’at vositalariga tayangan pedagogik faoliyat talabalarning nafaqat bilimlarni o‘zlashtirishiga, balki ularning kasbiy vaziyatlarga moslashish, tezkor qaror qabul qilish va yangi sharoitlarda samarali faoliyat yuritish qobiliyatiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Mazkur yondashuv asosida tashkil etilgan dars va mashg‘ulotlarda talabalar odatiy reproduktiv faoliyatdan ijodiy, mustaqil va faol ishtirokga asoslangan o‘quv holatiga o‘ta boshlaganligi aniqlandi. Bu holat ularning kasbiy moslashuvchanligi, refleksiv fikrlashi va ijtimoiy faolligida yaqqol namoyon bo‘ldi. Mazkur xulosalar maqolaning nazariy va metodik asoslari bilan uyg‘un holda kuzatildi

Tadqiqot natijalari, avvalo, talabalarda mustaqil fikrlashning rivojlanganini ko‘rsatdi. Art-pedagogik mashg‘ulotlar jarayonida talabalarga erkin talqin, muammoli vaziyatlarni obrazli qabul qilish, ramziy ifoda yaratish, turli g‘oyalarga muqobil yondashish kabi topshiriqlar berilganda, ular an’anaviy javoblar bilan cheklanib qolmasdan, vaziyatga yangicha qarashga intilganlari kuzatildi. Bu esa kasbiy faoliyatda tez o‘zgaruvchan vaziyatlarga mos javob topish ko‘nikmasining shakllanishiga xizmat qildi. Talabalarning o‘z fikrini asoslab berishi, turli nuqtai nazarlarni taqqoslashi va o‘z pozitsiyasini ijodiy dalillar bilan mustahkamlashi ularning kasbiy tafakkurida ichki erkinlik va intellektual faollik kuchayganini ko‘rsatdi.

Ikkinchidan, ijodiy yondashuv darajasining oshishi alohida e’tiborga loyiq natija sifatida namoyon bo‘ldi. Art-pedagogika asosida tashkil etilgan faoliyatlar, xususan, vizual ifoda, dramatizatsiya, improvizatsiya, mushohada va obrazli modellashtirish elementlari talabalarda stereotip fikrlashni zaiflashtirib, muammolarga original yechim topish qobiliyatini rivojlantirdi. Bunday jarayon kasbiy mobillikning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan kreativ kompetensiyani kuchaytirdi. Talabalar o‘quv topshiriqlariga standart javob qaytarishdan ko‘ra, muammoga vaziyatli, estetik va kommunikativ jihatdan yondasha boshladilar. Natijada ularning kasbiy faoliyatni faqat mavjud qoidalarga tayangan holda emas, balki yangi imkoniyatlar asosida qurish salohiyati kengaydi.

Uchinchidan, jamoaviy faoliyat va kommunikativ moslashuvchanlikning oshgani kuzatildi. Art-pedagogik texnologiyalar, ayniqsa, guruhli ijodiy topshiriqlar, sahnalashtirish elementlari, rolli vaziyatlar va hamkorlikka asoslangan muhokamalar talabalar o‘rtasida o‘zaro tinglash, sherik fikrini qabul qilish, birgalikda qaror ishlab chiqish va jamoada o‘z o‘rnini anglash ko‘nikmalarini shakllantirdi. Bu esa ularning ijtimoiy kompetensiyalarini boyitib, turli kasbiy rollarga moslashish imkoniyatini kuchaytirdi. Kasbiy

mobillik faqat individual malaka bilan emas, balki jamoada ishlash qobiliyati bilan ham belgilanadi. Shu ma’noda art-pedagogik faoliyat talabalarning professional muloqotga tayyorgarligini oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qildi.

To‘rtinchidan, refleksiv faoliyatning rivojlangani tadqiqotning muhim natijalaridan biri sifatida qayd etildi. Talabalar ijodiy topshiriqlar va san’atga asoslangan o‘quv vaziyatlari orqali o‘z ichki kechinmalarini ifodalash, faoliyat natijalarini tahlil qilish, xatolarini anglash va o‘z ustida ishlash ehtiyojini chuqurroq his eta boshladilar. Refleksiya jarayonining kuchayishi ularning kasbiy o‘zini anglashini shakllantirdi, ya’ni talabalar o‘z imkoniyatlari, qiziqishlari, kuchli va rivojlantirilishi lozim bo‘lgan jihatlarini aniqroq tasavvur qila boshladilar. Bu esa kelgusida kasbiy yo‘nalishni ongli tanlash, yangi faoliyat sohalariga kirishish va o‘zini takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqishda muhim psixologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Beshinchidan, art-pedagogik yondashuv emotsional barqarorlik va psixologik moslashuv ko‘rsatkichlariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatgani aniqlandi. San’at vositalari bilan ishlash jarayonida talabalar o‘z hissiy holatini erkinroq ifodalash, ichki zo‘riqishni kamaytirish, o‘zini namoyon etish va ichki ishonchni mustahkamlash imkoniga ega bo‘ldilar. Bu holat ayniqsa noaniqlik, baholanish qo‘rquvi yoki kommunikativ to‘siqlar mavjud bo‘lgan o‘quv vaziyatlarida sezilarli bo‘ldi. Natijada talabalar murakkab vaziyatlarga nisbatan psixologik chidamlilik, ichki barqarorlik va ijobiy moslashuv reaksiyalarini ko‘proq namoyon etdilar. Mazkur holat kasbiy mobillikning emotsional komponenti sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida ishlab chiqilgan metodik modelning bosqichma-bosqich qo‘llanishi o‘zining amaliy samaradorligini ko‘rsatdi. Diagnostika bosqichida talabalarning mavjud kompetensiyalari, kreativ salohiyati va kasbiy moslashuv ko‘rsatkichlari aniqlashtirildi. Motivatsiya bosqichida san’atga asoslangan mashg‘ulotlar ularning ichki faolligini uyg‘otdi va o‘quv jarayoniga emotsional jalb etilishini kuchaytirdi. Integratsiya bosqichida art-pedagogik metodlar o‘quv fanlari tarkibiga tizimli kiritilgach, bilim bilan his-tuyg‘u, nazariya bilan ijodiy amaliyot o‘rtasida uyg‘unlik hosil bo‘ldi. Refleksiya bosqichida esa talabalar o‘z rivojlanish dinamikasini baholab, shaxsiy va kasbiy o‘sish jarayonini ongli ravishda tahlil qildilar. Bu bosqichlar o‘zaro uzviylikda ishlaganida natijalar yanada barqaror va mazmunli bo‘lishi kuzatildi.

Umuman, olingan natijalar art-pedagogik yondashuv talabalarda kasbiy mobillikning kognitiv, kommunikativ, kreativ, refleksiv va emotsional tarkibiy qismlarini birgalikda rivojlantira olishini ko‘rsatdi. Shu bois mazkur metodika zamonaviy oliy ta’lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan, innovatsion va integrativ ta’lim texnologiyasi sifatida alohida amaliy ahamiyatga ega.

В данной статье подробно освещены активные методы обучения естественным наукам в системе начального образования, а также проанализированы их теоретические основы и значение в педагогическом процессе. Развитие самостоятельного мышления учащихся рассматривается как одна из ключевых задач активных методов обучения при преподавании естественных наук. Кроме того, подчёркивается, что применение методов проблемного обучения способствует повышению эффективности учебного процесса. Раскрываются возможности формирования научного мировоззрения учащихся посредством использования методов наблюдения и эксперимента. Показано, что применение активных методов способствует активизации познавательной деятельности учащихся. Рассмотрены положительные аспекты использования игровых технологий в процессе обучения. Отмечается важная роль инновационных методов в повышении интереса учащихся к учебным занятиям. Проанализирована эффективность групповой работы и методов кооперативного обучения. Также проанализировано формирование практических навыков у учащихся с использованием активных методов. Раскрыта роль современных подходов в развитии творческого мышления учащихся. Подчёркивается важность правильного выбора методов для повышения эффективности обучения. Наряду с этим освещены вопросы организации интересного и эффективного учебного процесса.

Ключевые слова: *начальное образование, естественные науки, активные методы, интерактивное обучение, педагогическая технология, инновационный подход, экологическое воспитание, компетенция, учебная деятельность.*

ACTIVE METHODS OF TEACHING NATURAL SCIENCES IN PRIMARY EDUCATION

This article comprehensively examines active methods of teaching natural sciences in primary education, and analyzes their theoretical foundations and significance in the pedagogical process. The development of students’ independent thinking is considered one of the key objectives of active teaching methods in science education. Furthermore, it is emphasized that the application of problem-based learning methods contributes to increasing the effectiveness of the educational process. The possibilities of forming students’ scientific worldview through the use of observation and experimental methods are revealed. It is demonstrated that the use of active methods promotes the activation of students’ cognitive activity. The positive aspects of using game-based technologies in the learning process are also examined. The important role of innovative methods in enhancing students’ interest in learning is highlighted. The effectiveness of

group work and cooperative learning methods is analyzed. In addition, the development of students’ practical skills through the use of active methods is explored. The role of modern approaches in fostering students’ creative thinking is revealed. The importance of the correct selection of teaching methods for improving educational effectiveness is emphasized. Along with this, issues related to organizing an engaging and effective learning process are also addressed.

Keywords: *primary education, natural sciences, active methods, interactive learning, pedagogical technology, innovative approach, environmental education, competence, learning activity.*

Boshlang‘ich ta’lim tizimi uzluksiz ta’limning eng muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, aynan shu davrda o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashi, atrof-muhitga bo‘lgan munosabati va bilishga bo‘lgan qiziqishi shakllanadi. Tabiiy fanlar esa o‘quvchilarga tabiat hodisalari, tirik va notirik tabiat, ekologik muvozanat hamda inson va tabiat o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida dastlabki tushunchalarni beradi. Shu sababli tabiiy fanlarni o‘qitishda samarali metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida an’anaviy o‘qitish usullari bilan bir qatorda faol metodlardan foydalanish talab etilmoqda. Faol metodlar o‘quvchilarning dars jarayonidagi ishtirokini kuchaytiradi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi va bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash imkonini yaratadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bunday metodlar muhim, chunki ular ko‘proq ko‘rgazmalilik, o‘yin va faol ishtirok orqali bilimlarni tezroq o‘zlashtiradi.

Faol metodlar deganda o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi, ularni dars jarayonining markaziga olib chiqadigan o‘qitish usullari tushuniladi. Bu metodlar yordamida o‘quvchilar nafaqat bilim oladi, balki ularni tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini ham egallaydi. Natijada o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyati shakllanadi. An’anaviy darslarda o‘quvchi ko‘proq tinglovchi rolini bajarsa, faol metodlar asosida tashkil etilgan darslarda u faol ishtirokchi, tadqiqotchi va ijodkor sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga olib keladi.

Faol metodlarning asosiy xususiyati — o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirishdir. Bunda o‘quvchi tayyor ma’lumotni qabul qilmaydi, balki uni izlab topadi, tahlil qiladi, solishtiradi va xulosa chiqaradi. Bu jarayon o‘quvchilarda tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Shu bilan birga, ular o‘z fikrini asoslab berish, boshqalar fikrini tinglash va hurmat qilish kabi muhim kommunikativ ko‘nikmalarni ham egallaydi.

Faol metodlar tabiiy fanlar ta’lim tizimida alohida o‘rin tutadi, chunki ular o‘quvchilarda atrof-muhit, tabiat hodisalari, biologik va fizik jarayonlar haqida ilmiy tushunchalarni shakllantiradi. Zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri esa o‘quvchilarga faqat tayyor bilimlarni yetkazish emas, balki ularni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal etishga va hayotiy vaziyatlarda bilimlardan foydalanishga o‘rgatishdir. Shu nuqtai nazardan, tabiiy fanlarni o‘qitishda faol metodlardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlarni o‘qitishda keng qo‘llaniladigan faol metodlardan biri — aqliy hujum metodidir. Ushbu metod o‘quvchilarning erkin fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘qituvchi muayyan savol yoki muammo beradi va o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin bayon etadi. Bu jarayonda barcha fikrlar qabul qilinadi va keyinchalik tahlil qilinadi. Natijada o‘quvchilar o‘z fikrini erkin ifoda etishga o‘rganadi. Aqliy hujum metodida o‘quvchilarning erkin fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Dars jarayonida o‘qituvchi muayyan muammo yoki savolni o‘rtaga tashlaydi va o‘quvchilar o‘z g‘oyalarini cheklanmagan holda bildiradilar. Bu jarayonda hech bir fikr tanqid qilinmaydi, natijada o‘quvchilar o‘zlarini erkin his qiladi va faol ishtirok etadi. Aqliy hujum metodining samaradorligi shundaki, u qisqa vaqt ichida ko‘plab g‘oyalarni yig‘ish va ularni tahlil qilish imkonini beradi.

Klaster metodi ham boshlang‘ich sinflarda samarali qo‘llaniladi. Bu metod orqali o‘quvchilar muayyan mavzuga oid tushunchalarni tizimli ravishda joylashtiradi va ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlaydi. Masalan, “Tabiat” mavzusida klaster tuzish orqali o‘quvchilar tirik va notirik tabiat elementlarini guruhlarga ajratadi. Bu esa mavzuni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Klaster metodi yordamida o‘quvchilar muayyan mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalarni aniqlaydi va ularni o‘zaro bog‘laydi. Natijada mavzu tizimli ravishda o‘zlashtiriladi. Masalan, “Suv aylanishi” mavzusida klaster tuzish orqali o‘quvchilar bug‘lanish, kondensatsiya va yog‘ingarchilik jarayonlarini o‘zaro bog‘lab tushunadi.

Rolli o‘yinlar metodi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ayniqsa qiziqarli hisoblanadi. Ushbu metod orqali o‘quvchilar turli rollarni bajarib, mavzuni amaliy tarzda o‘rganadi. Masalan, “Tabiatni muhofaza qilish” mavzusida o‘quvchilar ekolog, tabiat himoyachisi yoki oddiy fuqaro rollarini bajarishi mumkin. Bu esa ularning mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va bilimlarni mustahkamlaydi.

Rolli o‘yinlar metodining ahamiyati katta. Ushbu metod o‘quvchilarning ijodkorligini rivojlantiradi va ularni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlaydi. Masalan, ekologik muammolarni o‘rganishda o‘quvchilar “olim”, “ekolog”, “fermer” yoki “tabiat himoyachisi” rollarini bajarib, muammoni turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqadi. Bu esa ularning tafakkur doirasini kengaytiradi.

Kichik guruhlarda ishlash metodi ham muhim ahamiyatga ega. Bu metod orqali o‘quvchilar jamoada ishlashni o‘rganadi, o‘zaro fikr almashadi va muammolarni birgalikda hal etadi. Har bir guruhga alohida topshiriq beriladi va ular natijani taqdim etadi. Bu esa o‘quvchilarda mas’uliyat hissini rivojlantiradi.

Kichik guruhlarda ishlash metodi o‘quvchilarda hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu metod orqali o‘quvchilar o‘zaro fikr almashadi, muammolarni birgalikda hal qiladi va umumiy natijaga erishadi. Har bir o‘quvchi guruh ishida o‘z hissasini qo‘shadi, bu esa ularning mas’uliyat hissini oshiradi. Shu bilan birga, bu metod o‘quvchilar o‘rtasida ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Loyiha ishi ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun tabiiy fanlar darsida o‘tilgan nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishning eng samarali usullaridan biridir. Masalan, “Mening kichik ekotizimim” mavzusidagi loyihasini bajarishimiz mumkin.

Bunda o‘quvchilarga ekotizim tushunchasini tushuntirish, o‘simliklarning o‘sishi uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni (suv, havo, yorug‘lik) o‘rgatish va ularda tabiatga nisbatan mas’uliyat hissini shakllantirishdan iborat.

Yopiq bankadagi bog‘ (terrarium) — bu yer yuzidagi hayotning kichraytirilgan modelidir. Bu loyiha orqali o‘quvchi tabiatdagi suvning aylanishini va o‘simliklarning o‘z-o‘zini ta’minlash qobiliyatini jonli tarzda ko‘radi. Banka yopilgach, uning ichida alohida mikroiqlim hosil bo‘ladi, ya`ni suv bug‘lanadi, banka devorlarida kondensatsiya bo‘ladi va yana “yomg‘ir” bo‘lib tuproqqa tushadi.

Loyihani amalga oshirish uchun murakkab uskunalar shart emas, barchasini uydan yoki tabiatdan topish mumkin. Ish uchun shaffof shisha banka (qopqog‘i mahkam yopiladigan), mayda toshlar yoki drenaj (suv to‘planib qolmasligi uchun), aktivlashtirilgan ko‘mir (suvni tozalash va mog‘or bosishining oldini olish uchun), tuproq (o‘simliklar uchun moslashtirilgan), kichik o‘simliklar (namlikni sevuvchi, masalan, mox yoki dekorativ gullar), suv purkagichlardan foydalaniladi.

Ishni bajarish quyidagi tartibda olib boorish mumkin. Bunda bankaning eng ostiga 2-3 sm qalinlikda mayda toshlar solinadi. Bu ortiqcha suvning ildizlarni chirityub yubormasligi uchun kerak. Toshlar ustidan maydalangan ko‘mir sepiladi. U ekotizim ichidagi havoni va suvni toza tutadi. 5-7 sm qalinlikda yumshoq tuproq solinadi va ozgina zichlanadi. Tanlangan o‘simliklar ehtiyotkorlik bilan ekiladi. O‘quvchi bu jarayonda o‘simlik ildizi bilan ishlashni o‘rganadi. Purkagich yordamida ozgina suv sepiladi va banka qopqog‘i mahkam yopiladi.

Loyiha faqat bankani yasash bilan tugamaydi. Eng muhim qismi — uzoq muddatli kuzatuv. O‘quvchiga maxsus jadval beriladi:

Sana	Banka devoridagi namlik	O‘simlikning holati	Xulosalar
1-kun	Tomchilar paydo bo'ldi	Barglar tik turibdi	Suv aylanishi boshlandi
7-kun	Namlik kamaydi	Yangi barg chiqdi	Ekotizim barqaror

Ushbu loyiha orqali o‘quvchilar to‘g‘ri qurilgan ekotizim tashqi aralashuvsiz (sug‘ormasdan) ham oylab yashashi mumkinligini, agar banka quyoshdan uzoqqa qo‘yilsa, o‘simlik sarg‘ayishi va bu yorug‘likning hayotiy muhimligini isbotlaydi, bola o‘zi yaratgan kichik “dunyo” uchun javobgarlikni his qiladi va bu tuyg‘u katta tabiatga nisbatan ham ko‘chadi. Demak, “Mening kichik ekotizimim” loyihasi - bu quruq nazariyani hayotiy tajribaga aylantiruvchi eng yaxshi metodik vositadir. U bolaga dunyoni butunligicha ko‘rishni va har bir tirik mavjudotning o‘z o‘rni borligini anglatadi.

Muammoli ta’lim metodi ham faol metodlar qatoriga kiradi va ayniqsa tabiiy fanlarni o‘qitishda samarali hisoblanadi. Bu metodda o‘qituvchi o‘quvchilar oldiga muammoli vaziyat qo‘yadi va ularni mustaqil ravishda yechim topishga undaydi. Muammoli ta’lim metodi o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. O‘qituvchi muammoli vaziyat yaratadi va o‘quvchilarni uni hal etishga yo‘naltiradi. Masalan, “Nima sababdan suv ifloslanadi?” degan savol orqali o‘quvchilar muammoning sabablarini aniqlaydi va yechim taklif qiladi. Bu jarayon o‘quvchilarning tahliliy fikrlashini rivojlantiradi. Yoki, “Nima sababdan o‘simliklar quyosh nuriga muhtoj?” degan savol orqali o‘quvchilar fotosintez jarayonini mustaqil o‘rganishga kirishadi. Bu jarayon o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantiradi.

Boshlang‘ich ta’limda didaktik o‘yinlar ham faol metodlar tarkibiga kiradi. O‘yinlar orqali o‘quvchilar bilimlarni qiziqarli shaklda o‘zlashtiradi. Masalan, “To‘g‘ri-noto‘g‘ri”, “Top va ayt”, “Kim tezroq?” kabi o‘yinlar o‘quvchilarning faolligini oshiradi va darsni jonlantiradi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham tabiiy fanlarni o‘qitishda muhim ahamiyatga ega. Interaktiv doskalar, videodarslar, animatsiyalar va virtual tajribalar orqali o‘quvchilarga murakkab jarayonlarni tushunarli qilib yetkazish mumkin. Bu esa o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Faol metodlarni qo‘llashda o‘qituvchi o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ko‘proq ko‘rgazmali, o‘yinli va qisqa faoliyat turlariga qiziqadi. Shu sababli dars jarayonida turli metodlarni uyg‘unlashtirib qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Zamonaviy ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham faol metodlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Multimedia vositalari, interaktiv doskalar, virtual laboratoriyalar orqali tabiiy fanlarni o‘qitish o‘quvchilar uchun yanada qiziqarli va tushunarli bo‘ladi. Masalan, virtual tajribalar yordamida murakkab jarayonlarni vizual tarzda ko‘rsatish mumkin. Bu esa o‘quvchilarning bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Faol metodlarni qo‘llashning samaradorligi ularni to‘g‘ri tashkil etish va maqsadga muvofiq tanlashga bog‘liq. Har bir metod darsning maqsadi, mavzusi va o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi lozim. O‘qituvchi darsni rejalashtirish jarayonida qaysi metod qaysi bosqichda qo‘llanishini aniq belgilab olishi zarur. Masalan, yangi mavzuni tushuntirishda muammoli metoddan, mustahkamlash bosqichida esa guruhli ishlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, faol metodlar asosida tashkil etilgan darslarda baholash jarayoni ham o‘ziga xos xususiyatga ega. Bunda faqat yakuniy natija emas, balki o‘quvchining dars jarayonidagi faolligi, ishtiroki, fikr bildirishi va ijodiy yondashuvi ham inobatga olinadi. Bu esa o‘quvchilarni yanada faol bo‘lishga undaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, faol metodlardan foydalanilgan darslarda o‘quvchilarning bilimni o‘zlashtirish darajasi ancha yuqori bo‘ladi. Ular mavzuni chuqurroq tushunadi, uzoq vaqt eslab qoladi va uni amaliyotda qo‘llay oladi. Bundan tashqari, faol metodlar o‘quvchilarda o‘z-o‘zini rivojlantirish, mustaqil ta’lim olish va ijodiy fikrlash kabi muhim kompetensiyalarni shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlarni o‘qitishda faol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Bu metodlar o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Natijada esa raqobatbardosh, bilimli va keng dunyoqarashga ega shaxslar shakllanadi. Shu sababli har bir pedagog o‘z faoliyatida faol metodlardan samarali foydalanishi, dars jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etishi zarur. Bu metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, ularning fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi. Natijada esa ekologik madaniyatga ega, keng dunyoqarashli va faol shaxslar tarbiyalanadi. Shu boisdan har bir pedagog o‘z darslarida faol metodlardan samarali foydalanishi zarur.

Adabiyotlar:

1. Belskaya Ye.M., Mominov OA, Natural science lessons. - Tashkent: “Teacher”, 1980. - 224 p.

2. Ismatova Z.A. Training and experimental site and organization of training based on an integrative approach. Евразийский журнал академических исследований 3 (1 Part 5), 73-79.

3. Xodiyeva D.P., Ismatova Z.A., T.M. Theoretical and practical foundations of the competence approach to the primary education system // Journal of Pharmaceutical Negative Results, 2415-2422.

4. Sharipova D., Xodiyeva D.P., Shirinov M.K. Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi. -Toshkent, 2018.

5. Ширинов М.К. Табиатшунослик фанни ўқитишда узвийлик, узлуксизлик тамойили таълим самарадорлигини ошириш механизми сифатида. // «Замонавий таълим» журнали, 2018 йил, 3-сон. - 57-62.

SHAXSNI EMOTSIONAL SOG‘LOM RIVOJLANTIRISH MODELI

Normuminova Dilafruz Erkinovna,
Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Mazkur maqola shaxsni emotsional sog‘lom rivojlantirish modelining yaratilishi, mazmuni va uning tarkibiy tuzilmasini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Xavotir va tajovuzkorlikni yengillashtirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shaxsni emotsional sog‘lom rivojlantirish strategiyasi psixologik modelining shakllantiruvchi, aniqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi, baholovchi bloklar, ularning mazmun mohiyatini ochib berilgan. Shuningdek, shaxsning emotsional sog'lom hissiy rivojlanishini nazorat qilishda e’tibor qaratish zarur bo‘lgan ijtimoiy ko'nikmalar va his-tuyg'ular nazoratini o‘rnatish, shaxsning o‘z hayotida yuz berayotgan muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikka munosabatini kuzatish, shaxsning o'zini nazorat qilish kabi xususiyatlari keng yoritilgan.

Kalit so’zlar. *emotsiya, xavotirlanish, agressiya, psixologik model, hissiy rivojlanish, o'z-o'zini hissiy nazorat qilish.*

МОДЕЛЬ ЭМОЦИОНАЛЬНО ЗДОРОВОГО РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ

Данная статья посвящена анализу формирования, содержания и структурной структуры модели эмоционально здорового развития личности. Анализируются возможности снижения тревожности и агрессии. Раскрываются формирующие, уточняющие, развивающие и оценочные блоки психологической модели стратегии эмоционально здорового развития личности, сущность их содержания. Также подробно рассматриваются социальные навыки и эмоциональный контроль, на которые следует обращать внимание при контроле эмоционально здорового эмоционального развития личности, мониторинге отношения индивида к успеху и неудаче в жизни, а также характеристики самоконтроля личности.

Ключевые слова: *эмоция, тревожность, агрессия, психологическая модель, эмоциональное развитие, эмоциональный самоконтроль.*

A MODEL OF EMOTIONALLY HEALTHY PERSONALITY DEVELOPMENT

This article analyzes the formation, content, and structure of a model of emotionally healthy personality development. Potential for reducing anxiety and aggression is explored. The formative, clarifying, developmental, and evaluative components of the psychological model of emotionally healthy personality development strategies, as well as the essence of their content, are described. Social skills and emotional control, which should be emphasized when monitoring emotionally healthy personality development, an individual's attitude toward success and failure in life, and the characteristics of self-control, are also discussed in detail.

Keywords: *emotion, anxiety, aggression, psychological model, emotional development, emotional self-control.*

Kirish. Xavotir va tajovuzkorlikni yengillashtirish dasturi emotsional intellektga, o'zini tuta bilishni rivojlantirishga va g'azabni konstruktiv tarzda ifoda etishni o'rganishga qaratilgan. Odatda, xavotirlanish va tajovuzkorlik me’yorida buzilish hisoblanmaydi. U xavfli vaziyatlarda himoya va moslashuvchan funktsiyani bajaradi xolos. Psixologlar ma'lum yosh davrlarida havotirlanish va tajovuzkor harakatlar nafaqat normal, balki ma'lum darajada mustaqillik va avtonomiyani rivojlantirish uchun zarur deb hisoblanadi. Masalan, ma’lum davr va vaziyatlarda tajovuzkorlikning to'liq yo'qligi (tajovuzkor xatti-harakatlarni namoyish etish tendentsiyasi) ba'zi rivojlanish buzilishlarining natijasi bo'lishi mumkin.

Shaxsning ijobiy emotsional fazilatlarini shakllantiradigan modellar hissiy rivojlanish kontseptsiyasiga asoslanadi va bu boradagi modellarga Mayer-Salovey-Caruso modeli, Boyvnsmann modeli, Steinerning hissiy savodxonligi modeli kabilar kiritiladi. Mazkur modellar shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z-o‘zini hissiy nazorat qilish, motivatsiya, hamdardlik ijtimoiy ko‘nikmalari, turli emotsional vaziyatlarni samarali anglashga va turli vaziyatlarda his tuyg‘ularni muvaffaqiyatli boshqarishga olib keladigan ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Ularning aksariyati sog‘lom emotsional holatlarni rivojlantirish asosida emotsiyalarni boshqarish mumkinligi g‘oyasiga asoslanadi. Ushbu ma’lumotlarga asoslanib biz

tadqiqotimiz davomida «Shaxsni emotsional sog‘lom rivojlantirish strategiyasi psixologik modeli»ni ishlab chiqdik.(1-rasm)

Tadqiqot ob'ekti va qo’llanilgan metodlar. «Shaxsni emotsional sog‘lom rivojlantirish strategiyasi psixologik modeli» talabalarda ijobiy va salbiy emotsional xolatlar haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish hamda emotsional sog‘lom rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur model to‘rta blokdan iborat bo‘lib, quyidagicha:

Birinchi- shakllantiruvchi blok;

Ikkinchi-aniqlashtiruvchi blok;

Uchinchi-rivojlantiruvchi blok;

To‘rtinchi-baholovchi blok deb nomlangan.

Birinchi shakllantiruvchi blokda talabalarda emotsional sog‘lom rivojlanish psixoprofilaktikasini tashkil etish ko‘zda tutilib, o‘z navbatida talabalarning emotsional sog‘lom rivojlanish psixodiagnostikasi uchun amlga oshirilishi lozim bo‘lgan chora tadbirlar belgilangan hamda vazifalarni amalga oshirish uch qismdan iborat qilib belgilangan. Jumladan:

- Ijobiy va salbiy emotsional xolatlar haqida ma’lumotlar bazasini shakllantirish va ular bilan bog‘liq muammolar ro‘yxarini tuzish;[1]

- Maxalla va oilalar bilan bolalarni emotsional sog‘lom qilib tarbiyalash bo‘yicha tadbirlar rejasini tuzish va tashkil etish;

- Psixologik xizmat markazlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va targ‘ibot tashviqot ishlarini yo‘lga qo‘yish kabi bir qator belgilangan vazifalari amalga oshirildi.

Ikkinchi aniqlashtiruvchi blokda Emotsional sog‘lom rivojlanish psixodiagnostikasi olib borishni maqsad qilib olgan edik va shaxsning emotsional holatlari va ularning shakllanganligini diagnostikasida qo‘llaniladigan usullarni ikki qismga ajratib, tegishli tartibda bajardik.

- Shaxsning (bolalar, o‘smirlar, o‘spirinlar va katta yoshdagilar uchun sog‘lom emotsional rivojlanishni aniqlashning milliy moslashtirilgan metodikalarini yaratish.

- MTT, umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litsey va oliy o‘quv yurtlari psixologlari uchun psixodiagnostik vositalar kompleksini yaratish va qo‘llashni yo‘lga qo‘yish kabi vazifalarimiz ikkinchi blok tarkibiga kiritilib, amalga oshirildi.

Uchinchi rivojlantiruvchi blokda emotsional rivojlanish psixokorrektsiyasi bayon qilinib, ruhiy muvozanatni saqlash va muvaffaqiyatga erishish belgilangan. Bu blokda shaxsni rivojlantirish ketma-ketlik asosidagi komponentlardan tarkib topgan bo‘lib emotsional sog‘lom munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Birinchi- Ijtimoiy komponent: Boshqalarni tushunish, jamiyatni ijobiy qabul qilish, kishilar bilan samimiy emotsional munosabat o‘rnatish ko‘nikmalarini shakllantirish,

Ikkinchi-Kognitiv komponent: Shaxsning o‘z emotsiyalarini anglashi, ularni boshqarish, o‘ziga, boshqalarga emotsional sog‘lom munosabatni shakllantirish orqali aqliy o‘sish.

Uchinchi- Motivatsion komponent: Ijobiy sotsial munosabatlarni o‘rnatish, boshqalarda ijobiy taasurot qoldirishga erishish, ruhiy muvozanatni saqlash va muvaffaqiyatga erishish.

To‘rtinchi baholovchi blokda emotsional sog‘lom rivojlanishni nazorat qilish natijalari bayon qilingan bo‘lib, shaxs psixologik sifatlarining ifodalanganligiga ko‘ra to‘rtta darajaga ajratilgan:

Birinchi - Ijobiy kayfiyat-yuqori daraja;

Ikkinchi- Emotsional ko‘tarinkilik-o‘rtadan yuqori daraja;

Uchinchi- Xotirjamlik va do‘stlik, o‘zini tutish-o‘rta daraja;

To‘rtinchi- Farovonlik, mamnunlik, baxtiyorlik-past daraja.

Ijobiy kayfiyat - bu oddiy harakatlar orqali saqlanib qoladigan quvonch, nekbinlik va zavqlanish holati bo‘lib, uni yaxshilash uchun sevimli mashg'ulotlar bilan shug'ullanish, pozitiv odamlar bilan muloqotda bo‘lish, turli jismoniy mashqlarni amalga oshirish, shuningdek, kichik quvonchli voqealarga e'tibor qaratish, shukronalik va o‘zida mavjud narsalardan quvonish qobiliyatini ifodalaydi. Bu esa, sog‘lom emotsional rivojlanishning birinchi sharti hisoblanadi.[5]

Emotsional ko‘tarinkilik - bu shaxsning o‘z maqsadlariga erishishi, ijtimoiy muloqot yoki mulohaza yuritish kabi turli omillar natijasi sifatida yuzaga keladigan energiya, pozitiv his-tuyg'ular va maqsadga intilishning ortish holati bo‘lib, u kuchning ko'tarilishi, yaratuvchanlik va natijalarga erishish istagi bilan tavsiflanadi. Hissiy ko‘tarinkilik ijobiy emotsional holat sifatida baholanadi.

Xotirjamlik va do‘stlik, o‘zini tutish, do'stona munosabat va xotirjamlik o'zaro bog'liq fazilatlar bo‘lib, xotirjamlik stressli vaziyatlarda xotirjamlikni saqlashga yordam beradi va o'z navbatida, do'stona munosabatda bo'lishga va oqilona qarorlar qabul qilishga imkon beradi. Ruhiy muvozanat va vahima hamda xavotirlanishdan xolilik holati, bosim ostida qarorlar qabul qilish imkonini beradigan emotsional holat sifatida qaraladi. O'zini tuta bilish qobiliyati esa, qiyin vaziyatlarda o'zini tuta bilish va his-tuyg'ulari,

harakatlarini nazorat qilish qobiliyati bo‘lib, u salbiy his-tuyg'ularga, stressga berilmasdan xotirjamlikni saqlash qobiliyatini ifodalaydi. Do'stona munosabat kishining boshqalar bilan munosabatlarda xotirjamlik va o'zini tuta bilishni namoyish etishi, insonga o'zining ichki qadriyatlariga muvofiq harakat qilish va agressiv munosabat bildirmaslik imkonini beradi.



1-rasm. «Shaxsni emotsional sog‘lom rivojlantirish strategiyasi psixologik modeli.»

Farovonlik, hayotdan qoniqish va baxt hissi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo‘lib, hayotdan qoniqish hissi insonning hayotidan sub'ektiv qoniqish hissi, baxt esa bu ichki uyg'unlik va ijobiy his-tuyg'ular holati, farovonlik esa moddiy farovonlikni ham, insonning ichki holatini ham qamrab oluvchi kengroq tushuncha hisoblanadi. Farovonlik, hayotdan qoniqish kabilar insonning ahvolini uzoq muddatli baholashga qodir hissiyotlar hisoblanadi. Shaxsning o‘z hayotining sifati, jamiyatdagi mavqei va farovonligi haqidagi sub'ektiv bahosi bo‘lib, bu ko‘proq kishining iqtisodiy holati, ma'lumoti, yashash joyi va hayot tajribasi kabi turli omillar bilan belgilanadi. Uning asosiy xususiyatlari sifatida u shunchaki bir lahzalik tuyg'u emas, balki hayotga umumiy nuqtai nazar hisoblanadi. [3]

Ushbu «Shaxsni emotsional sog‘lom rivojlantirish strategiyasi psixologik modeli» asosida psixodiagnostika natijalariga tayanib, rivojlantiruvchi psixologik treninglar o‘tkazish, mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish, malakaviy amaliyot jarayonida suhbatlar tashkil etish, maslahatlar berish ishlarini amalga oshirishni nazarda tutadi. Talabalarga ta’lim olish va hayotning turli jabhalaridagi shaxslararo munosabatlarda eng avvalo o‘zini emotsional boshqarishga erishishlari orqali ijobiy xulq-atvorga hamda sog‘lom emotsional holatga ega bo‘lishlari sxema ko‘rinishida ifodalandi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Bizningcha, sog'lom hissiy rivojlanishni nazoratga olish - bu shaxsning hissiy-emotsional holati, xulq-atvori va ijtimoiy ko'nikmalarini muntazam ravishda kuzatish, shuningdek, uning hissiy yetuklik darajasini tekshirish va baholashni o‘z ichiga oladi va bu insonning o'z his-tuyg'ularini qanday tushunishi va boshqarishini, boshqalar ya’ni, tengdoshlari, kichik va katta yoshdagi odamlar bilan qanday munosabatda bo'lishini hamda turli hayotiy vaziyatlarga qanday munosabatda bo'lishini kuzatishdan iboratdir. Sog'lom hissiy rivojlanishni nazorat qilishning maqsadi shaxsdagi emotsional yetishmaslik hamda turli emotsional og'ishlarni aniqlash, sog'lom rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va zarur bo'lganda o'zgarishlar kiritish jarayonidir.

Shaxsning sog'lom hissiy rivojlanishni nazorat qilishda quyidagilarga e’tibor qaratish zarurligi inobatga olinadi:

Birinchidan, ijtimoiy ko'nikmalar va his-tuyg'ular nazoratini o‘rnatish: odatda jamiyatda shaxsning ruhiy sog‘lom rivojlantirish va yuksaltirishda uning aqliy tarbiyasiga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Ammo, shaxsning ruhiy mukammalligi faqat aqliy rivojlanish bilan belgilanmaydi. Emotsional rivojlanish ham aqliy rivojlanish kabi muhim sanaladi. Shaxsning sog'lom hissiy rivojlanishni tengdoshlarga bo'lgan munosabatni tahlil qilish orqali tahlil qilish mumkin. Bundau munosabatlar befarqlik, afzallik ko‘rish yoki nizokashlik ko‘rinishida, empatiyaning ifodalanishida, engdoshlar, hayvonlar, kattalarga nisbatan majburiyat hissining namoyon bo‘lishida kuzatiladi. Empatiya hissi ayniqsa, boshqalarning hissiy holatini tushinish, anglash va ularga g‘amho‘lik ko‘rsatish, emotsional javob berish qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lib, mazkur hissiyotlarga egalik shaxsda salbiy emotsiyalar jumladan, xavotirlanish va agressivlikni susaytiradi.

Ikkinchidan, shaxsning o‘z hayotida yuz berayotgan muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikka munosabatini kuzatishda insonning boshqalar hayotida yuz berayoygan muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklarini qanday qabul qilishini kuzatish, ularga javoban adekvar reaksiyalar yoki hasad, beparvolik kabilarni namoyon etishi orqali ifodalanadi.

Uchinchidan, shaxsning o'zini nazorat qilish ya’ni, maqsadlar va ijtimoiy normalarga muvofiq o'z his-tuyg'ulari va xatti-harakatlarini boshqarish qobiliyatini baholashdan iborat. Zero, hissiy o'zini o'zi boshqarish qobiliyati bu shaxsning ichki muvozanatni saqlashi va maqsadlariga erishish yo‘lida o'z his-tuyg'ularini barqarorlashtirish va boshqarish qobiliyati bo‘lib, bu his-tuyg'ularni bostirish emas, balki ularni aqlli boshqarishni anglatadi. Demak. shaxsning emotsional o'zini nazorat qilishi his-tuyg'ularni tushunishi, vaziyatni to‘g‘ri baholash va ongli ravishda javob qaytarishni o'z ichiga oladi. Shaxsning emotsional o'zini nazorat qilish muvaffaqiyatli o'qish, ishlash va munosabatlarda kirishish uchun juda muhim sanalib, impulsiv xatti-harakatlardan saqlanishga hamda uzoq muddatli va katta maqsadlarga muvofiq harakat qilishga yordam beradi.

Xulosa. Yuqoridagi maqsadlarga erishishda kuzatish, anketa va testlar, faoliyat va munosabatlar atijalarni tahlil qilish, fikr-mulohaza qilish kabilar qo‘llaniladi. Turli emotsional ta’sirga ega vaziyatlarda shaxsning xatti-harakatlarini tizimli ravishda kuzatish orqali, u haqida emotsional holat va rivojlanish yuzasidan ma'lumot to'plash uchun anketalar va testlarni qo‘llash, shaxs faoliyati va munosabatlari haqida olingan ma'lumotlarni belgilangan normalar va usullar bilan taqqoslab ko‘rish, kishining motivatsiyasini tahlil qilish, eksperimental natijalar bilan taqqoslash, baholash natijalariga asoslangan tavsiyalar bilan analitik hisobot taqdim etish mazkur holatni oydinlashtirishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Kushanova M.I. “O’smirlarda agressiv xulq – atvor namoyon bo’lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari” PhD dissertatsiya avtoreferati. Toshkent 2025
2. Степанова О.П. Эффективное преодоление неуверенности и тревожности. Психокоррекционная работа. - М.: Флинта, 2015-80 с.
3. Шарафутдинова Х., Қодирова А. Психологик тренинг. Методик қўлланма. Тошкент, “Инновация ЗИЁ”, 2020 139-б
4. Халимова М.В., Шобдурахимова У.Т. Ўсмирлик даврида юзага келадиган агрессив хулқни психологик коррекция килиш имкониятлари. Замонавий таълим / Современное образование 2015. № 2
5. Фурманов И.А. Детская агрессивность. Психодиагностика и коррекция. Минск: АСТ. 2012. 342 с.
6. Чистякова М.И. Психогимнастика. М.: Просвещение. 2013.452 с.

“O’ZBEKISTON TARIXI” DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING EKOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Po’latova Gulruh Jamolovna,
Navoiy akademik litseyi tarix fani o’qituvchisi

Ushbu maqolada “O‘zbekiston tarixi” darslari asosida o‘quvchilarning ekologik kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda tarixiy jarayonlar va ekologik omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib berish, o‘quvchilarda ekologik tafakkur, tanqidiy fikrlash va barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan qadriyatlarni shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston tarixi, ekologik kompetensiya, ekologik ta’lim, integrativ yondashuv, interfaol metodlar, barqaror rivojlanish, ekologik tafakkur, Orol dengizi, tarixiy-ekologik jarayonlar, kompetensiyaviy yondashuv.*

ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ «ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА»

В данной статье научно-педагогически анализируются возможности развития экологических компетенций учащихся на основе уроков истории Узбекистана. В исследовании раскрываются взаимосвязи между историческими процессами и экологическими факторами, а также рассматриваются вопросы формирования экологического мышления, критического мышления и ценностей, ориентированных на устойчивое развитие у учащихся. Подчеркивается роль интегративных и интерактивных методов обучения в формировании экологических компетенций.

Ключевые слова: *история Узбекистана, экологическая компетенция, экологическое образование, интегративный подход, интерактивные методы, устойчивое развитие, экологическое мышление, Аральское море, историко-экологические процессы, компетентностный подход.*

OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING STUDENTS’ ENVIRONMENTAL COMPETENCIES IN “HISTORY OF UZBEKISTAN” LESSONS

This article provides a scientific and pedagogical analysis of the possibilities for developing students’ environmental competencies based on “History of Uzbekistan” lessons. The study explores the interrelationship between historical processes and environmental factors, as well as issues related to the formation of environmental thinking, critical thinking, and values oriented toward sustainable development among students. The role of integrative and interactive teaching methods in developing environmental competencies is also emphasized.

Keywords: *History of Uzbekistan, environmental competence, environmental education, integrative approach, interactive methods, sustainable development, ecological thinking, Aral Sea, historical-ecological processes, competency-based approach.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida ekologik muammolarning global miqyosda keskinlashuvi o‘quvchilarda ekologik ong, mas’uliyat va barqaror rivojlanish g‘oyalariga asoslangan kompetensiyalarni shakllantirishni dolzarb pedagogik vazifalardan biriga aylantirdi. Bugungi kunda iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining kamayishi, bioxilma-xillikning yo‘qolishi va antropogen ta’sirning kuchayishi kabi omillar nafaqat tabiiy fanlar, balki ijtimoiy-gumanitar fanlar, xususan, tarix fanining ham mazmuniy yangilanishini talab etmoqda.

“O‘zbekiston tarixi” fani o‘z mazmuni va metodologik imkoniyatlariga ko‘ra o‘quvchilarda nafaqat tarixiy bilimlarni, balki jamiyat va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni anglash, tarixiy jarayonlarning ekologik oqibatlarini tahlil qilish hamda atrof-muhitga ongli munosabatni shakllantirish uchun keng imkoniyatlarga ega. Tarixiy jarayonlar, xususan, sug‘orma dehqonchilikning rivojlanishi, yirik irrigatsiya inshootlarining barpo etilishi, sanoatlashtirish jarayonlari va Orol dengizi fojiasi kabi voqealar ekologik omillar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ularni o‘rganish o‘quvchilarda tizimli fikrlash va sabab-oqibat aloqalarini anglash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Amaldagi ta’lim amaliyotida “O‘zbekiston tarixi” darslarida ekologik mazmun ko‘pincha fragmentar va tizimsiz tarzda yoritilib, tarixiy jarayonlarning ekologik jihatlari yetarli darajada ochib berilmayapti. Bu esa o‘quvchilarda tarix va ekologiya o‘rtasidagi

uzviy bog‘liqlikni to‘liq anglash imkoniyatlarini cheklaydi hamda ekologik kompetensiyalarning shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mavzuning dolzarbligi aynan shu muammoni hal etish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi “O‘zbekiston tarixi” darslari orqali o‘quvchilarning ekologik kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini ilmiy asoslash va ularni takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun ekologik kompetensiya tushunchasining mazmunini aniqlash, tarixiy materiallarning ekologik salohiyatini tahlil qilish hamda o‘quv jarayoniga integrativ va interfaol yondashuvlarni joriy etish masalalari o‘rganiladi.

Tadqiqot natijalari o‘quvchilarda ekologik tafakkur, mas’uliyatli fuqarolik pozitsiyasi va barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan qadriyatlar tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, “O‘zbekiston tarixi” fanining ekologik kompetensiyalarni rivojlantirishdagi imkoniyatlarini ilmiy asoslash ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston hududining tarixiy taraqqiyoti jarayonida tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir doimiy ravishda murakkab va ko‘p qirrali xarakterga ega bo‘lib kelgan. Xususan, suv resurslari, landshaft va tabiiy muhitdan foydalanish nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki siyosiy jarayonlarning ham muhim omili sifatida namoyon bo‘lgan. Tarixiy manbalar va zamonaviy darsliklar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ekologik omillar ba’zan sivilizatsion rivojlanishga turtki bersa, ba’zan esa yirik ekologik inqiroz va geosiyosiy ziddiyatlarga sabab bo‘lgan.

Mavzu muhokamasi. XX asrning ikkinchi yarmida yuzaga kelgan **Orol dengizi fojiasi** bunday jarayonlarning eng yorqin misollaridan biridir. XX asrning 60-yillarigacha dunyodagi to‘rtinchi yirik ko‘l sifatida e’tirof etilgan Orol dengizi, suv resurslarining noto‘g‘ri boshqaruvi natijasida keskin qisqarib, global ekologik muammolardan biriga aylandi. Bugungi kunda uning qurigan tubida hosil bo‘lgan **“Orolqum” sahrosi** dunyodagi eng yosh antropogen cho‘llardan biri sifatida qayd etilmoqda. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Orol tubidan ko‘tarilayotgan tuz va chang zarrachalari atmosfera oqimlari orqali juda uzoq hududlarga, hatto Antarktida muzliklarigacha yetib bormoqda. Bu holat ekologik muammolarning lokal emas, balki global xarakterga ega ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu muammo xalqaro miqyosda dastlab yetarlicha baholanmagan bo‘lsa-da, keyinchalik siyosiy va ilmiy doiralarda global ekologik xavf sifatida e’tirof etila boshlandi.

Tarixiy jarayonlarda ekologik resurslardan siyosiy vosita sifatida foydalanish holatlari ham kuzatiladi. Xususan, **Zarafshon daryosi va “suv qamali” strategiyasi** Markaziy Osiyo tarixida suvning strategik resurs sifatidagi ahamiyatini yaqqol ko‘rsatadi. Zarafshon daryosining oqimi Samarqand va Buxoro hududlari uchun hayotiy ahamiyatga ega bo‘lib, ayrim tarixiy davrlarda ushbu suv resursi harbiy-siyosiy bosim vositasi sifatida qo‘llanilgan. Xususan, 1868-yilda Chor Rossiyasi istilosi davrida Zarafshon daryosi suv oqimining cheklanishi natijasida quyi oqim hududlarida kuchli qurg‘oqchilik yuzaga kelgan va bu holat Buxoro amirligining siyosiy zaiflashuviga ham ta’sir ko‘rsatgan. Bu tarixiy hodisa ekologik resurslarning geosiyosiy instrumentga aylanishi mumkinligini ko‘rsatadi.

XX asr boshlarida amalga oshirilgan yirik gidrotexnik loyihalardan biri - **Katta Farg‘ona kanali qurilishi** ham insonning tabiiy muhitga keng ko‘lamli aralashuvi sifatida baholanadi. 1939-yilda amalga oshirilgan ushbu loyiha 270 kilometr uzunlikdagi kanalni qisqa muddatda, asosan qo‘l mehnati asosida qurish orqali Markaziy Farg‘ona vodiysining suv ta’minotini yaxshilashga xizmat qilgan. Biroq, ushbu jarayon ekologik nuqtai nazardan murakkab oqibatlarni keltirib chiqardi. Hududning gidrologik rejimi o‘zgardi, tabiiy suv oqimlari qayta shakllandi va ekotizimlar muvozanatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatildi. Natijada ayrim hududlarda dehqonchilik imkoniyatlari kengaygan bo‘lsa-da, tabiiy landshaft va biologik xilma-xillik tizimida transformatsiyalar yuz berdi.

Tahlil qilinayotgan tarixiy-ekologik jarayonlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston hududida tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar doimo dinamik xarakterga ega bo‘lgan. Suv resurslari, landshaft o‘zgarishlari va yirik infratuzilma loyihalari nafaqat iqtisodiy va siyosiy, balki ekologik oqibatlarga ham olib kelgan. Bu esa tarix fanini o‘qitishda ekologik yondashuvni integratsiya qilish zarurligini asoslaydi, chunki tarixiy voqealarni ekologik kontekstdan ajratgan holda to‘liq ilmiy tahlil qilish mumkin emas.

Shu nuqtai nazardan, tarixiy jarayonlarni ekologik omillar bilan uyg‘unlikda o‘rganish o‘quvchilarda tizimli fikrlash, ekologik ong va barqaror rivojlanish g‘oyalarini shakllantirishda muhim ilmiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Tarixiy jarayonlarda ekologik omillar va ularning ijtimoiy-siyosiy oqibatlari

Ma’lumotlar	Mazmuni
Orol dengizining qurishi 11-sinf	XX asrning 60-yillarigacha Orol dunyodagi to‘rtinchi yirik ko‘l bo‘lgan. Darsliklarda Orolning qurishi natijasida paydo bo‘lgan "Orolqum" sahrosi -

darsligi 120 betda umumiy ma`lumot berilgan	dunyodagi eng yosh sahro sifatida tasvirlanadi. Oqibatda Dengiz o‘rnida qolgan tuzli changlar bugungi kunda hatto Antarktida muzliklaridan ham topilmoqda. Birinchi Prezident I.A.Karimov BMT ning 48 sessiyasida ushbu havf haqida ogohlantirgan, ammo bunga davlatlar xalqaro muammo emas mintaqaviy muammo sifatida qarab kelishgan. Antraktida muzliklarida Orol tuzlari topilgach masala dolzarblashdi.
Zarafshon daryosi va tarixiy "Suv qamali" 10-sinf darslik 27 betda umumiy ma`lumot berilgan	Tarixda ekologik resurslardan (xususan, suvdan) harbiy va siyosiy qurol sifatida foydalanish Markaziy Osiyoda ko‘p uchragan. Bunga Zarafshon daryosi ochiq misol bo‘la oladi. Masalan Zarafshon daryosi avval Samarqanddan o‘tib, so‘ngra Buxoroga yetib boradi. Tarixda Samarqandni nazorat qilgan hukmdorlar Buxoroni bo‘ysundirish uchun daryo suvini to‘g‘onlar bilan to‘sib qo‘yib, qurg‘oqchilik keltirib chiqarish taktikasidan ko‘p marotaba foydalanishgan. Eng mashhur hodisa: 1868-yilda fon Kaufman boshchiligidagi chor Rossiyasi qo‘shinlari Samarqandni egallagach, Zarafshon daryosi suvini to‘sib qo‘yadi. Katta qurg‘oqchilik va suvsizlik daryoning quyi oqimidagi Buxoro amirligini ekologik qamal holatiga tushirib, ularni tezroq taslim bo‘lishga majbur qiladi.
Katta Farg‘ona kanali. 10-sinf darslikda umumiy ma`lumot berilgan	1939-yilda Farg‘ona vodiysida amalga oshirilgan Katta Farg‘ona kanalining qurilishi insonning tabiatga qilgan eng yirik va eng tezkor aralashuvlaridan biri hisoblanadi. Uzunligi 270 km bo‘lgan bu kanalni qazish uchun hech qanday zamonaviy texnikasiz, faqat ketmon va kurak bilan 160 mingdan ortiq aholi jalb qilingan. Loyiha atigi 45 kun ichida bitkazilgan. Ekologik oqibati: Bu qurilish vodiyning ekotizimini butunlay o‘zgartirib yubordi. Qurg‘oqchil hududlar suvga to‘ldi, biroq daryolarning tabiiy oqimi va yovvoyi tabiat balansi abadiy o‘zgardi.

“O‘zbekiston tarixi” darslarida o‘quvchilarning ekologik kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi bugungi kunda milliy ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Buning asosiy sababi shundaki, O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslanib, o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki amaliy ko‘nikma, mustaqil fikrlash va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishni talab etmoqda.

Mamlakatimizda ekologik muammolar - suv resurslarining tanqisligi, Orol dengizi inqirozi oqibatlari, cho‘llanish jarayonlarining kuchayishi hamda urbanizatsiya natijasida yuzaga kelayotgan ekologik bosim - jamiyat barqaror rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, yosh avlodda ekologik madaniyatni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Bu esa ta’lim jarayonida ekologik kompetensiyalarni rivojlantirishni barcha fanlar, xususan, ijtimoiy-gumanitar fanlar zimmasiga ham yuklaydi.

Quyida “O‘zbekiston tarixi” darslarida o‘quvchilarning ekologik kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari **an’anaviy yondashuv va innovatsion (ekologik integrativ) yondashuv** asosida qiyosiy tahlil shaklida berildi (2-jadvalga qarang).

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy yondashuv tarix fanini asosan faktologik bilimlar berish bilan cheklasa, innovatsion ekologik integrativ yondashuv o‘quvchilarda kompleks ekologik kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi. Bu yondashuv tarixiy jarayonlarni nafaqat o‘tmish voqealari sifatida, balki inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir tizimi sifatida o‘rganishga yo‘naltiradi.

Natijada o‘quvchilar ekologik muammolarni anglay oladigan, ularni tarixiy tajriba asosida tahlil qiladigan hamda amaliy yechimlar taklif eta oladigan kompetent shaxs sifatida shakllanadi.

“O‘zbekiston tarixi” fani milliy ta’lim tizimida alohida o‘rin egallab, o‘quvchilarda tarixiy xotira, milliy identitet va fuqarolik ongini shakllantirish bilan birga, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi tarixiy bog‘liqlikni anglash imkonini ham beradi. O‘zbekiston hududida yuz bergan yirik tarixiy jarayonlar - irrigatsiya tizimlarining rivojlanishi, yirik qurilishlar, sanoatlashtirish va ekologik inqirozlar - ekologik kompetensiyalarni shakllantirish uchun boy didaktik manba bo‘lib xizmat qiladi.

“O‘zbekiston tarixi” fanini o‘qitishda ekologik integrativ yondashuv tarixiy jarayonlarni ekologik omillar bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganishga asoslanadi. Bu yondashuv o‘quvchilarda nafaqat tarixiy bilimlarni, balki ekologik tafakkur va amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

2-jadval.

“O’zbekiston tarixi” darslarida o‘quvchilarda ekologik kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlari

Tahlil mezoni	An’anaviy yondashuv	Innovatsion (ekologik integrativ) yondashuv
O‘qitish mazmuni	Tarixiy voqealar siyosiy va ijtimoiy nuqtai nazardan yoritiladi	Tarixiy jarayonlar ekologik omillar bilan uzviy bog‘liqda o‘rganiladi
Ekologik mazmun	Epizodik (alohida mavzular doirasida, masalan Orol fojiasi)	Tizimli va uzluksiz, barcha tarixiy davrlarga integratsiya qilingan
O‘quvchi faoliyati	Passiv qabul qiluvchi (tinglovchi)	Faol tadqiqotchi va muammo yechuvchi subyekt
Fikrlash turi	Yodlash va reproduktiv fikrlash	Tanqidiy, tahliliy va tizimli fikrlash
O‘qitish metodlari	Ma’ruza va tushuntirishga asoslangan	Interfaol metodlar: debat, keys-stadi, loyiha, muammoli ta’lim
Ekologik kompetensiya shakllanishi	Cheklangan, nazariy darajada	Bilim + ko‘nikma + qadriyat birligi asosida kompleks shakllanish
Tarix va ekologiya bog‘liqligi	Ajratilgan holda o‘rganiladi	Integratsiyalashgan holda, sabab-oqibat asosida tahlil qilinadi
Baholash tizimi	Test va nazorat ishlari	Portfolio, loyiha, esse, keys tahlili va kuzatuv asosida
Amaliy yo‘naltirilganlik	Past darajada	Yuqori darajada, real ekologik muammolar bilan bog‘langan
O‘quv natijasi	Tarixiy bilimlar shakllanadi	Ekologik tafakkurga ega, mas’uliyatli va faol fuqarolik pozitsiyasidagi shaxs shakllanadi

Bunday ta’lim jarayonida **muammoli ta’lim (problem-based learning)** muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilar tarixiy voqealar asosida yuzaga kelgan ekologik muammolarni tahlil qilib, ularning sabab va oqibatlarini aniqlaydi. Masalan, Orol dengizi inqirozi yoki irrigatsiya tizimlarining tarixiy rivojlanishi muammoli vaziyat sifatida ko‘rib chiqilib, o‘quvchilar mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltiriladi.

Keys-stadi (case study) metodi orqali real tarixiy-ekologik vaziyatlar chuqur tahlil qilinadi. Bu usul o‘quvchilarga tarixiy qarorlarning ekologik oqibatlarini baholash, alternativ yechimlar ishlab chiqish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi. Masalan, Zarafshon daryosi suv resurslaridan foydalanish yoki Katta Farg‘ona kanali qurilishi kabi holatlar asosida kompleks tahlil amalga oshiriladi.

Debat va munozara metodlari o‘quvchilarda tanqidiy va tahliliy fikrlashni rivojlantiradi. Ular “iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi muvozanat bormi?” kabi savollar atrofida fikr almashib, turli nuqtai nazarlarni asoslashga o‘rganadilar. Bu jarayon ekologik muammolarga nisbatan ongli munosabatni shakllantiradi.

Loyiha asosida o‘qitish (project-based learning) esa o‘quvchilarni faol tadqiqotchi sifatida shakllantiradi. “Yashil tashabbus”, “Mening ekologik tarixiy hududim” kabi loyihalar orqali o‘quvchilar tarixiy bilimlarni real ekologik muammolar bilan bog‘laydi va amaliy yechimlar ishlab chiqadi.

Portfolio va esse metodlari o‘quvchining bilim, ko‘nikma va qadriyatlar birligini baholashga xizmat qiladi. Portfolio orqali o‘quvchining butun o‘quv jarayoni davomida erishgan natijalari, tahlillari va ijodiy ishlari jamlanadi. Esse esa uning tarixiy-ekologik tafakkurini yozma shaklda ifodalash imkonini beradi.

Shuningdek, **kuzatuv va tahliliy baholash** metodlari orqali o‘quvchining real faoliyati, munosabati va ekologik mas’uliyati baholanadi. Bu yondashuv an’anaviy test tizimidan farqli ravishda kompetensiyaviy yondashuvni to‘liq amalga oshirishga xizmat qiladi. Natijada, innovatsion yondashuv o‘quvchilarda ekologik tafakkurni tizimli rivojlantiradi, ularni tarixiy jarayonlarni sabab-oqibat asosida tahlil qila oladigan, ekologik muammolarga befarq bo‘lmagan va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxs sifatida shakllantiradi.

Shu bilan birga, amaldagi ta’lim amaliyotida tarix fanini o‘qitishda ekologik yondashuv yetarli darajada tizimlashtirilmagan bo‘lib, ekologik mazmun ko‘pincha epizodik xarakterga ega. Bu esa o‘quvchilarda tarixiy jarayonlarning ekologik oqibatlarini chuqur anglash imkoniyatlarini cheklaydi. Natijada, o‘quvchilar bilimlarni real hayotiy ekologik muammolar bilan bog‘lashda qiyinchilikka duch keladilar. Shu sababli, “O‘zbekiston tarixi” darslarida ekologik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish milliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish hamda barqaror rivojlanish g‘oyalarini ta’lim mazmuniga singdirish nuqtai nazaridan nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida ekologik jihatdan ongli, mas’uliyatli va faol fuqarolarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston tarixi (10-sinf uchun darslik). – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
2. O‘zbekiston tarixi (11-sinf uchun darslik). – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
3. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2017.
4. Jumaev R.H. Ekologik ta’lim va tarbiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2019.
5. Hughes J. Donald. Environmental History of the World. – Routledge, 2016.
6. Glazovskaya M.A. Ekologiya i istoricheskie protsessy. – Moskva: Nauka, 2015.
7. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent, 1997.
8. Orol dengizi muammolari bo‘yicha ilmiy maqolalar va xalqaro hisobotlar to‘plami. – Toshkent, 2020.
9. UNESCO. Sustainable Development Goals (SDGs) Report. – United Nations, 2023.
10. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2021.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KREATIVLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Safarova Madina Azamat qizi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti 3-bosqich doktoranti

Ushbu maqola o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasini, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘limlararo hamkorlikni va fanlararo yondashuvlarning ahamiyatini tahlil qiladi. O‘qituvchilarning umumiy tayyorgarligi yetarli emasligi, shuningdek, pedagogik jarayonlarni boshqarishdagi muammolar, o‘qituvchilarga qo‘yiladigan shaxsiy va kasbiy talablar bilan bog‘liq.

Maqolada kreativ kompetentlik tushunchasi va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati ko‘rsatilgan. Kreativ kompetentlik yangi g‘oyalar yaratish, innovatsion yechimlar topish va ijodiy fikrlash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bu kompetentlik bo‘lajak o‘qituvchilar uchun darslarni samarali va qiziqarli tashkil etish, talabalarni ijodiy rivojlantirishda muhimdir.

Shuningdek, maqolada kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining farqlanishi, ularning pedagogik yondashuvlardagi o‘rni va ahamiyati haqida uchta nuqtai nazar keltirilgan. Birinchisi, konservativ yondashuv, ikkinchisi — ushbu tushunchalarni tenglashtirish, uchinchisi esa ularni farqlashdir. Ushbu nuqtai nazarlarni tahlil qilib, mualliflar kompetensiya va kompetentlikning o‘zaro bog‘liqligini va ta'lim jarayonidagi ahamiyatini ko‘rsatishga harakat qiladilar.

Kalit so’zlar: *O'qituvchilar; tayyorlik; Pedagogika ;Kompetentlik; Kreativ kompetentlik; Talabalar; Fanlararo integratsiya; Innovatsion yechimlar; Ijodiy fikrlash; Kasbiy faoliyat; Ta'lim tizimi; Interaktiv usullar; Pedagogik innovatsiyalar; Kompetensiya; Kompetentlik.*

РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

В данной статье анализируется уровень подготовки преподавателей, межведомственное сотрудничество и важность междисциплинарных подходов в педагогических высших учебных заведениях. Общая нехватка подготовки преподавателей, а также проблемы в управлении педагогическими процессами связаны с личностными и профессиональными требованиями к преподавателям.

В статье представлено понятие творческой компетентности и её важность в образовательном процессе. Творческая компетентность включает в себя способность генерировать новые идеи, находить инновационные решения и мыслить творчески. Эта компетентность важна для будущих преподавателей, чтобы эффективно и интересно организовывать уроки, а также для творческого развития студентов.

В статье также представлены три точки зрения на различие между понятиями компетентности и компетенции, их роль и важность в педагогических подходах. Первая — консервативный подход, вторая — приравнивание этих понятий, и третья — их дифференциация. Анализируя эти точки зрения, авторы пытаются показать взаимосвязь компетентности и компетенции и их важность в образовательном процессе.

Ключевые слова: *Учителя; готовность; Педагогика; Компетентность; Творческая компетентность; Учащиеся; Междисциплинарная интеграция; Инновационные решения; Творческое мышление; Профессиональная деятельность; Система образования; Интерактивные методы; Педагогические инновации; Компетентность; Компетентность.*

DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS

This article analyzes the level of teacher training, interdepartmental collaboration, and the importance of interdisciplinary approaches in higher education institutions. The general lack of teacher training, as well as problems in managing pedagogical processes, are related to the personal and professional demands placed on teachers.

The article introduces the concept of creative competence and its importance in the educational process. Creative competence includes the ability to generate new ideas, find innovative solutions, and think creatively. This competence is important for future teachers to effectively and engagingly organize lessons, as well as for the creative development of students.

The article also presents three perspectives on the distinction between the concepts of competence and competency, their role, and importance in pedagogical approaches. The first is a conservative approach, the second is an equalization of these concepts, and the third is a differentiation. By analyzing these perspectives, the authors attempt to demonstrate the relationship between competence and competency and their importance in the educational process.

Keywords: *Teachers; Readiness; Pedagogy; Competence; Creative Competence; Students; Interdisciplinary Integration; Innovative Solutions; Creative Thinking; Professional Activity; Education System; Interactive Methods; Pedagogical Innovations; Competence; Competence.*

Kirish. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash mazmuni bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchisini tayyorlashning mavjud an’anaviy tizimi bilan bu jarayonni tizimli, fanlararo va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida insonparvarlashtirish zarurati o‘rtasida tafovut mavjudligini ko‘rsatadi. Ushbu muammoni hal qilish yo'lini izlash umumiy o'qituvchilar va pedagogika o'qituvchilari uchun dolzarbdir, bu ularning kasbiy va pedagogik tayyorgarligining aniq fanlararo tabiati, pedagogikaning kasbiy faoliyatidagi xavf darajasi bilan bog'liq. Tadqiqotning maqsadi o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasining kreativ komponentini shakllantirish bosqichlari va tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatishdir.

Bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarning kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish bugungi ta’lim jarayonining dolzarb masalalaridan biridir. Ta’lim tizimini uzluksiz takomillashtirish va yangilash jarayoni o‘qituvchilarning malakasini oshirishda kreativ va ijodiy komponentlarni ilmiy-metodik jihatdan ta’minlash muammosini dolzarb qilmoqda. Davlat iqtisodiy sharoitlarida, ishlab chiqarish va boshqaruvning raqobatga asoslangan tizimiga o‘tish bilan bog‘liq vaziyatlarda o‘qituvchilarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirish, uning tezkor ijtimoiy va psixologik moslashuvini, kasbiy mobilligini ta’minlashni talab qiladi. Shu bilan birga, bu jarayon pedagogning kreativligini shakllantirish va rivojlantirish uchun yangi yo‘l va vositalarni izlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Asosiy qism. Hozirgi vaqtda o‘qituvchilarning umumiy tayyorgarligi yetarli darajada emasligi pedagogika oliy o‘quv yurtlarida bo‘limlararo o‘zaro hamkorlikning past darajasi, bu jarayonni boshqarishning vakolatli organi yo‘qligi, o‘qitishga fanlararo yondashuvlarga e’tibor bermaslik bilan bog‘liq bo‘lib, bu fan salohiyatini sezilarli darajada pasaytiradi. Shu munosabat bilan boshlang’ich sinf o'qituvchisiga alohida shaxsiy va kasbiy talablar qo'yiladi.

Albatta, o‘qituvchi nafaqat inson va hozirgi hodisalar haqidagi ilmiy, kasbiy bilimlarga, balki insonparvarlik mazmuniga ega bo‘lgan bilimlarga ham ega bo‘lishi lozim.

Talabalarning kasbiy-pedagogik kompetentligini shakllantirishning nazariy asoslarini belgilab, biz ushbu kreativ kompetentligini tizimli ravishda shakllantirilishi va takomillashtirilishi bosqichlarini ajratib ko‘rsatamiz.

Talabalarning kreativ kompetentini rivojlantirishning muhim vositasi fanlararo integratsiya bo'lib, u pedagogik faoliyatning yagona semantik makonining mantiqiy munosabatlarini maqsadli qurish bilan bog'liq va talabalar tomonidan o'zlashtirilgan kompetensiyalar majmuasidan foydalangan holda muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Kompetensiya – bu shaxsning ma’lum faoliyat turini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmuasi. U kasbiy faoliyatda samarali ishlashga imkon beruvchi bilim va qobiliyatlarning amaliy uyg‘unligidir.

Kreativ kompetensiya – bu shaxsning yangi g‘oyalar yaratish, innovatsion yechimlar topish, ijodiy fikrlash va o‘zlashtirilgan bilimlarni turli sharoitlarda moslashuvchan qo‘llay olish qobiliyatidir. Bo‘lajak o‘qituvchilar sohada bu, darslarni samarali, qiziqarli va innovatsion shaklda tashkil etish, shuningdek, talabalarni ham ijodiy rivojlantirish imkonini beradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarga bu kompetensiya nima uchun kerak? Bugungi ta’lim tizimida, uzluksiz modernizatsiya va raqobatga asoslangan iqtisodiy-madaniy sharoitlarda o‘qituvchilarning kreativ kompetensiyaga ega bo‘lishi quyidagi jihatlar uchun muhim: darslarni interaktiv va zamonaviy usullarda tashkil etish; talabalarni ijodiy fikrlashga, mustaqil va innovatsion yechimlar topishga rag‘batlantirish; o‘z kasbiy faoliyatida tezkor moslashuvchanlik va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash; ta’lim jarayonini samarali va zamonaviy qilish, pedagogik innovatsiyalarni amalga oshirish.

Pedagogik yondashuvlar tizimni shakllantiruvchi kategoriyalar bilan farqlanadi. Kompetentlik yondashuvida bunday kategoriya–kompetensiya va kompetentlikdir. Ushbu tushunchalarni aniqlashga doir uchta asosiy nuqtai nazar mavjud.

Birinchi nuqtai nazar – konservativ bo‘lib, u ularni ilmiy-pedagogik maydonga kiritish zaruratini butunlay inkor etadi[1]. Masalan, M. E. Bershadskiy ta’kidlaydi: «Kompetentlik tushunchasi hech qanday asosiy yangi komponentlarni o‘z ichiga olmaydi, u “malaka” tushunchasiga kiruvchi narsalardan tashqari

hech narsani o‘z ichiga olmaydi, shuning uchun kompetentlik va kompetensiya haqida barcha gaplar biroz sun’iy bo‘lib, eski muammolarni yangi kiyim ostida yashirishga xizmat qiladi»[1]. Asosiy argument shundaki, «kompetentlik» tushunchasining mohiyati boshqa tushunchalar orqali ifodalanadi–malaka, ko‘nikma, qobiliyat, motivatsiya va boshqalar.

Biz bu nuqtai nazarni qo‘llamaymiz va yangi tushunchani joriy etishning ma’nosi bo‘lajak o‘qituvchilarda avval alohida mavjud bo‘lgan bo‘g‘inlarni integratsiya qilishda deb hisoblaydigan tadqiqotchilar fikrini qo‘llaymiz.

Ikkinchi nuqtai nazar – «kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalarini bir-biriga tenglashtirishdir.

Uchinchi nuqtai nazar eng keng tarqalgan bo‘lib, bu tushunchalarni farqlash bilan bog‘liq. Biroq, buni turlicha amalga oshiradilar. Biz ikki va undan ortiq ta’riflarni tahlil qilgach, quyidagi xulosalarga keldik.

Birinchidan, ushbu terminlarni talqin qilishda turlicha yondashuvlar mavjud: bu terminlar ba’zan ma’lum savollar doirasi, ba’zan o‘quvchining shaxsiy rivojlanish darajasi, ba’zan esa umumlashtirilgan harakat usullari yoki o‘zaro bog‘langan sifatlar majmuasi sifatida tushuniladi. Shu kabi turlicha talqinlar kompetentlik yondashuvi sohasidagi tadqiqotlarni, xususan o‘qituvchilarning kreativ kompetensiyasini o‘rganishni murakkab va parchalangan qiladi. Natijada, kompetentlik yondashuvini amaliyotga joriy etishda va yuqorida tilga olingan kompetensiyani o‘qituvchilarda shakllantirishda muammolar yuzaga keladi.

Kompetentlik yondashuvi talabaning xabardorligini birinchi o‘ringa qo‘yishdan ko‘ra, quyidagi vaziyatlarda muammolarni hal qilish qobiliyatini ustun qo‘yadi:

Haqiqat hodisalarini bilish va tushuntirish jarayonida;

Zamonaviy texnika va texnologiyalarni o‘zlashtirishda;

Odamlar o‘rtasidagi munosabatlarda;

Ijtimoiy rollarni bajarishda amaliy hayotda.

Shunday qilib, ko‘pchilik ta’riflarda kompetentlikning quyidagi komponentlari mavjud: bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar; harakat usullari; kompetentlikni egallash; kompetentlik obyektiga shaxsiy munosabat.

Bizning fikrimizcha, ushbu to‘rt komponent «kompetensiya» tushunchasining turli ta’riflaridagi invariant yadroni tashkil qiladi. Biz A. V. Xutorskiy tomonidan berilgan kompetentlik ta’rifini qo‘llaymiz, chunki: u ham tushunchaning invariant yadrosini o‘z ichiga oladi; bu yadroni aniqroq ajratib ko‘rsatadi; u maketdagi normativ ta’rifga zid emas; avtor kompetensiya tushunchasini «kompetentlik» bilan to‘ldiradi [2].

«Kreativ kompetentlik» tushunchasi ilmiy muhitga R. Epstayn tomonidan kiritilgan bo‘lib, u olingan bilimlarni moslashuvchan tarzda qo‘llashga tayyorlik, bilim tizimini mustaqil ravishda to‘ldirish va o‘zini takomillashtirishga intilish ma’nosini bildiradi. Tadqiqotchi A. I. Pop yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyatini (kreativlik) kasbiy jihatdan muhim ijodiy kompetensiyalar qatoriga kiritadi, shuningdek, ushbu guruhga tashabbuskorlik, tadbirkorlik ruhini va yetakchilik qobiliyatini ham qo‘shadi. Shu tarzda, kreativ kompetensiya o‘qituvchilarning kasbiy va ijodiy faoliyatida yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini o‘z ichiga oladi [3].

Biz kreativlikni ijodkorlik, innovatsion faoliyat, yangilik yaratish va mavjud narsalarni takomillashtirish orqali namoyon bo‘ladigan faoliyat sifatida tushunamiz. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning kreativligi – bu shaxsning ijodiy qobiliyatlari bo‘lib, ular prinsipial yangi, an’anaviy yoki qabul qilingan fikrlash sxemalaridan farq qiladigan g‘oyalarni ishlab chiqishga tayyorlikni, shuningdek, o‘qituvchi faoliyat jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bu diagnostik qobiliyatlar orqali individual-differentsial yondashuvni amalga oshirish, har bir o‘quvchini maqsadli motivatsiya qilish, turli yondashuv va usullardan foydalanish, maqsadni aniq va o‘quvchilar tomonidan tushunilishi va qabul qilinishi, turli pedagogik texnologiyalarni egallash imkoniyati shakllanadi. Pedagogik vazifalarni standartdan tashqari yechish, shu jumladan bolalarda kreativlikni rivojlantirish qobiliyatlarini birlashtirgan ko‘nikmalar majmuini biz kreativ pedagogik kompetentlik deb ataymiz.

Shu narsalardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Ijodkorlik nafaqat nafislik, balki zamonaviy ta’limning talabi bo‘lib, undan raqobatbardosh va muvaffaqiyatli bitiruvchilarni shakllantirish mumkin emas. Ushbu talab maktabgacha ta’limdan tortib, oliy kasb-hunar ta’limigacha bo‘lgan barcha bosqichlarda amal qiladi.

O‘qituvchilarning kasbiy faoliyati tarkibida kreativ kompetentlik mavjudligi, muvaffaqiyatini ko‘rsatuvchi mezonlardan biri bo‘lib, uning o‘quvchilari tomonidan kerakli natijalarni erishish imkoniyatini yaratadi.

Shuningdek, biz kompetentlik yondashuvining kuchli va zaif tomonlarini tahlil qildik. Kompetentlik yondashuvi quyidagilarga imkon beradi:

- xalqaro darajaga chiqish;
- bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish;

•o‘quv mazmunini o‘zgarayotgan ijtimoiy-iqtisodiy haqiqatga moslashtirish, ishlab chiqarish sohasining talablariga javob berish;

•o‘qituvchi maqsadlarini o‘quvchining shaxsiy maqsadlari bilan uyg‘unlashtirish va motivatsiyani oshirish;

•o‘quvchining mustaqilligini oshirish orqali o‘qituvchining ishini yengillashtirish;

•o‘quvchining fikrlash moslashuvchanligini rivojlantirish va noodatiy vaziyatlarda samarali harakat qilish;

•ta’lim dasturlarining variantlilik va alternativligini amalga oshirish;

•ijodiy salohiyatni kengaytirish, ishlab chiqaruvchanlikni oshirish va shu bilan birga an’anaviy o‘quv fanlarini o‘rganish modelidan chiqish.

Biroq, kompetentlik yondashuvida quyidagi cheklovlar mavjud:

•kompetentlikni baholashda sub’ektivlik;

•terminologiya va metodologiyada nomuvofiqlik;

•dasturlarning ortiqcha variantliligi va darsliklar bilan bog‘liq muammolar;

•kompetentlik yondashuvi talablari va yakuniy attestatsiya talablarining ziddiyati;

•o‘qituvchilarning moslashuvchanlik talablarining (jismoniy va psixologik xarajatlar) yuqoriligi; pedagog kadrlarning kompetentlik yondashuvini amalga oshirishga tayyor emasligi; o‘qituvchilardan yuqori malaka va kasbiy adekvatlik talab qilinishi.

Xulosa. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativlik kompetensiyasini shakllantirish bugungi ta’lim jarayonining dolzarb masalalaridan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagogning kreativ kompetentligi uning kasbiy faoliyati samaradorligini ta’minlash, o‘quvchilarda ijodiy fikrlash va mustaqil yechimlar topish qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek, ta’lim jarayonini zamonaviy va interaktiv usullarda tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

Kompetentlik yondashuvi bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillar pedagogik faoliyatning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini berdi. Kuchli tomonlar sifatida: xalqaro darajada raqobatbardosh bitiruvchilarni tayyorlash, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ta’lim mazmunini zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarga moslashtirish va pedagogik innovatsiyalarni amalga oshirish imkoniyati ajralib turadi. Zaif tomonlar esa terminologiya va metodologiyada nomuvofiqlik, kompetentlikni baholashdagi sub’ektivlik, dasturlar va darsliklarning ortiqcha variantliligi hamda pedagogning jismoniy va psixologik moslashuvchanlik talablarining yuqoriligi kabi muammolarni o‘z ichiga oladi.

Shu bilan birga, kreativ kompetensiya pedagogning asosiy kasbiy va ijodiy kompetensiyalaridan biri bo‘lib, u o‘quvchilarga individual-differentsial yondashuvni amalga oshirish, turli pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda maqsadli motivatsiyani shakllantirish, noodatiy vaziyatlarda samarali harakat qilish va pedagogik jarayonda innovatsion yechimlarni tatbiq etish imkonini beradi.

Natijada, bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirish nafaqat pedagogik faoliyatning sifatini oshirish, balki uzluksiz modernizatsiya qilinayotgan ta’lim tizimida raqobatbardosh va muvaffaqiyatli bitiruvchilarni tayyorlashning muhim sharti sifatida qaraladi.

Adabiyotlar:

1. Креативность как ключевая компетентность педагога: Монография / под ред. М. М. Кашапова, Т. Г. Киселевой, Т. В. Огородовой. Ярославль: Индиго, 2013. 392 с.

2. Хуторской А. В. Ключевые компетенции как компонент личностно – ориентированного образования // Народное образование. 2003. № 2. С. 58-64.

3. Попов А. И. Теоретические основы формирования кластера профессионально важных творческих компетенций в вузе олимпиадного движения: монография.Тамбов: Изд-во ГОУ ВПО ТГТУ, 2011.

4. Safarova M. A. O’quvchilarni kreativ fikrlashga o’rgatishning didaktik asoslari. Guliston davlat universiteti axborotnomasi // Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4. 251-253 b.

5. O‘quvchilardagi kreativlikni rivojlantirishning kreativ pedagogikasi asoslari. Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi. Jild 3 №23 (2025) in-academy.uz/index.php/yo. 164-166 b.

6. O’quvchilarda kreativ fikrlash tafakkurini shakllantirish. "Boshlang' ích ta limning zamonaviy tendentsiyalari: ta'lim va tarbiya jarayonida yangi avlod darsliklari "4k"(kritik fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya) modeli, muammo yechimlar" IV Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi. Jizzax. 2024 yil 19 aprel. 122-124 b.

TALABALAR UCHUN MEDIAKOMPETENTLIKNING AHAMIYATI

Alimov Zokir Chori o‘g‘li,
Termiz davlat universiteti
“Pedagogika va ijtimoiy ish” kafedrasi o‘qituvchisi
alimovterdu@gmail.com

Raqamlashuv sharoitida talabalar axborotni qabul qilish, baholash va undan foydalanishda ulkan hajm, tezlik va turfa manbalarga duch kelmoqda. Shu holatda mediakompetentlik ta’lim sifati, akademik halollik, kasbiy tayyorgarlik va shaxsiy xavfsizlikni ta’minlovchi strategik resurs sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada mediakompetentlikning mazmuniy tuzilmasi, uning talabalar kompetensiyalar tizimidagi o‘rni, pedagogik sharoitlari va baholash mezonlari nazariy-analitik yondashuv asosida asoslanadi. Xalqaro me’yoriy yondashuvlar bilan milliy amaliyot o‘rtasidagi uyg‘unlik nuqtalari ochib beriladi, oliy ta’limda mediakompetentlikni fanlararo, loyihaga asoslangan va keys-metodlar orqali rivojlantirish bo‘yicha taklif etilgan model taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: *mediakompetentlik, mediasavodxonlik, axborot madaniyati, faktcheking, raqamli xavfsizlik, akademik halollik, kritik fikrlash, feyk axborot, platformalar ekotizimi, oliy ta’lim.*

THE IMPORTANCE OF MEDIA COMPETENCE FOR STUDENTS

In the conditions of digitalization, students face an enormous volume, speed, and diversity of information sources while receiving, evaluating, and using information. In this context, media competence emerges as a strategic resource ensuring the quality of education, academic integrity, professional preparedness, and personal security. This article substantiates the content structure of media competence, its place within the system of students’ competencies, pedagogical conditions, and assessment criteria based on a theoretical-analytical approach. The study also reveals points of coherence between international normative approaches and national practices, and presents a model for developing media competence in higher education through interdisciplinary, project-based, and case-based learning methods.

Keywords: *media competence, media literacy, information culture, fact-checking, digital security, academic integrity, critical thinking, fake information, platform ecosystem, higher education.*

ЗНАЧЕНИЕ МЕДИАКОМПЕТЕНТНОСТИ ДЛЯ СТУДЕНТОВ

В условиях цифровизации студенты сталкиваются с огромным объёмом, высокой скоростью и разнообразием источников информации при её восприятии, оценке и использовании. В данной ситуации медиакомпетентность выступает как стратегический ресурс, обеспечивающий качество образования, академическую честность, профессиональную подготовленность и личную безопасность. В статье на основе теоретико-аналитического подхода обосновываются содержательная структура медиакомпетентности, её место в системе компетенций студентов, педагогические условия и критерии оценки. Раскрываются точки согласования международных нормативных подходов и национальной практики, а также представлена модель развития медиакомпетентности в высшем образовании на основе междисциплинарного, проектного и кейс-методов обучения.

Ключевые слова: *медиакомпетентность, медиаграмотность, информационная культура, фактчекинг, цифровая безопасность, академическая честность, критическое мышление, фейковая информация, экосистема платформ, высшее образование.*

Kirish. Mediakompetentlik masalasi bugun “qo‘shimcha ko‘nikma” emas, balki talabaning o‘qish va kasbiy shakllanish jarayonidagi bazaviy funksional savodxonligiga aylanmoqda. Ilmiy ma’lumotlar, yangiliklar, ijtimoiy tarmoq kontenti, algoritm tavsiyalari va sun’iy intellekt vositalari bir muhitda kesishgan sharoitda talabaning axborot bilan ishlash madaniyati past bo‘lsa, o‘quv natijalarida yuzakilik, plagiat, manba tanlashda xatolik, manipulyatsiyaga tez ishonish, raqamli xavflar kuchayadi [1, 160-b.].

UNESCO media va axborot savodxonligini axborotni qidirish, tanqidiy baholash, undan oqilona foydalanish va javobgarlik bilan ishtirok etish kompetensiyalari birligi sifatida talqin qiladi, bu ta’lim tizimi uchun universal metodologik “o‘lchov” vazifasini o‘taydi [3, 142-b.].

Adabiyotlar tahlili. Mediakompetentlik haqidagi milliy manbalarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

1) mediata’lim va mediasavodxonlikka bag‘ishlangan o‘quv qo‘llanma/darsliklar,

2) axborot madaniyati, kommunikatsiya va internet xavfsizligi yo‘nalishidagi ilmiy ishlar (dissertatsiya, avtoreferat),

3) ta’lim jarayonida mediata’limni joriy etish bo‘yicha amaliy-metodik maqolalar. Masalan, talabalar uchun mo‘ljallangan “Mediasavodxonlik va axborot madaniyati” darsligi mediasavodxonlikni axborot madaniyati, huquqiy-axloqiy me’yorlar va raqamli muhitda muloqot madaniyati bilan bog‘liq holda yoritadi.

Mediata’limning milliy tajribasida Y.Mamatova va S.Sulaymanovaning “O‘zbekiston mediata’lim taraqqiyoti yo‘lida” o‘quv qo‘llanmasi mediata’limni tashkil etish va pedagogik yondashuvlarni muhokama qilishda ko‘p murojaat qilinadigan manbalardan hisoblanadi, u qator ilmiy-uslubiy maqolalarda tayanch adabiyot sifatida keltirilgan [1, 160-b.].

Axborot xavfsizligi va raqamli tahdidlar masalasida Yahyo Muhammad Aminning “Internetdagi tahdidlardan himoya” qo‘llanmasi internet muhitida xavflarni tanish, profilaktika va himoya choralarini tushuntirishga qaratilgan amaliy resurs sifatida qaraladi [4, 672-b.].

Mediakompetentlik - bu insonning media muhitda bilim va qaror qabul qilish jarayonini “ishonchli epistemik asos”ga suyagan holda boshqarish qobiliyati, ya’ni axborotni ma’no jihatidan talqin qilish, dalil va bahoni (fikrni) ajratish, manbaning ishonch darajasini kognitiv va ijtimoiy mezonlar bo‘yicha baholash, media matnlar orqali yashirin ta’sir mexanizmlarini anglash, multimodal (matn–tasvir–ovoz–infografika–video) belgilar tizimini to‘g‘ri “o‘qish”, shu bilan birga o‘zining kommunikatsion faoliyatida huquqiy, etik va kasbiy mas’uliyatni saqlagan holda media mahsulot yaratish va tarqatish kompetensiyalarining yaxlit majmuasidir [5].

U mediasavodxonlikdan kengroq tushuncha: mediasavodxonlik ko‘pincha “o‘qish va tekshirish”ga urg‘u bersa, mediakompetentlik unga qo‘shimcha ravishda epistemik ong (nimani qay darajada bilaman?), metakognitiv nazorat (men qanday xulosa chiqaryapman?), muloqot etikasi, algoritmik muhitda harakatlanish, raqamli mehnat madaniyati va ijtimoiy mas’uliyat kabi qatlamlarni ham birlashtiradi.

Tahlil va natija. Talabalar uchun mediakompetentlikning ahamiyatini zamonaviy bilim nazariyasi nuqtayi nazaridan tushuntirish mumkin: universitet ta’limida “bilish” oddiy ma’lumot to‘plash emas, balki dalilga tayangan xulosa chiqarish, bahs yuritish, manbaga asoslanish va tadqiqot madaniyatini saqlash demakdir. Media muhit esa bilimni taqdim etishni fragmentlashtiradi: qisqa roliklar, sarlavhaga qurilgan taassurot, trendli tezislar, emotsiyani qo‘zg‘atuvchi vizuallar, algoritm tanlagan navbatdagi kontent. Shu vaziyatda mediakompetentlik talabani “taassurotlar epistemologiyasi”dan (ko‘rindi - demak rost) “dalillar epistemologiyasi”ga (ko‘rsat - qanday manba? qaysi metod? qanday dalil?) olib o‘tadi. Bu o‘tish jarayonida talabada epistemik hushyorlik (epistemic vigilance) shakllanadi: har qanday xabarni aqlni tejaydigan sodda qoidalar orqali emas, balki maqsadli tekshiruv, muqobil tushuntirishlarni solishtirish, manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish orqali baholash odati paydo bo‘ladi.



1-rasm. Mediakompetentlikning ilmiy-pedagogik asoslari

Mediakompetentlikni ta’riflashda xalqaro yondashuvlar uni “axborot va media bilan ishlashga qodirlik” doirasidan kengroq ko‘radi: shaxs axborotni topadi, tushunadi, baholaydi, qo‘llaydi, yaratadi va boshqalar bilan bo‘lishadi, bu jarayonda huquqiy-axloqiy va xavfsizlik me’yorlariga amal qiladi. Yevropa fuqarolari uchun raqamli kompetensiya modeli ham axborotni izlash-baholash, muloqot va hamkorlik, kontent yaratish, xavfsizlik va muammo hal etish bloklarini kompetensiyaviy baholashning “skeleti” sifatida taqdim etadi, bu ramka kompetensiyani baholashda indikatorlar tizimi va misollar majmuini berish bilan ahamiyatlidir. Shu nuqtayi nazardan, mediakompetentlikni baholashda faqat test bilan cheklanish metodologik xatodir: test ko‘proq deklarativ bilimni ushlaydi, xolos, mediamuhitda esa talabaning amaliy harakati, qaror qabul qilishi, dalil keltirishi va etik pozitsiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Mediakompetentlikning ilmiy-pedagogik asoslarini bir nechta nazariy yo‘nalishlar boyitadi.

Birinchisi - ikki bosqichli fikrlash nazariyasi (dual-process): inson miyasi tez, avtomatik va emotsiyaga suyangan “1-tizim” hamda sekin, dalilbop va tahliliy “2-tizim” orqali qaror qiladi. Media kontent ko‘p hollarda 1-tizimni “nishon”ga oladi: shov-shuvli sarlavha, qo‘rquv yoki g‘azab uyg‘otuvchi kadr, “hamma shunday dedi” degan ijtimoiy dalil illyuziyasi. Demak, mediakompetentlik talabadan 2-tizimni ishga tushirishni talab qiladi: “birinchi reaksiyani to‘xtatish”, dalilni qidirish, ehtimoliy manipulyatsiyani anglash, qarorni kechiktirish.

Ikkinchisi - manba monitoringi (source monitoring) nazariyasi: inson ma’lumotni eslab qolganda uning manbasini unchalik aniq saqlamasligi mumkin, ayniqsa ko‘p platformali muhitda “qaerda ko‘rgan edim?” degan savol yo‘qoladi. Talabalar ilmiy ish yozishda aynan shu erda qiynaladi: ma’lumot yodda bor, manba yo‘q. Mediakompetentlik bu muammoni tizimli odatlar bilan hal qiladi: har bir ma’lumotning “manba pasporti”ni yozish, birinchi manbaga qayta borish, iqtibosgacha bo‘lgan dalil zanjirini tiklash, ish jarayonida bibliografik menedjerlardan foydalanish.

Uchinchisi - axborot buzilishi (information disorder) konsepsiyasi: noto‘g‘ri axborot doimo bir xil emas, u xatoli (mistaken), ataylab ishlab chiqilgan (disinformation) yoki kontekstdan uzib berilgan (malinformation) shakllarda bo‘ladi. Talaba uchun asosiy ko‘nikma “feyk-rost” binarliginigina emas, balki axborotning qanday yo‘l bilan buzilganini aniqlashdir: sarlavha va matn mosmi, statistika qay tarzda tanlangan, grafik shkalasi manipulyatsiya qilmayaptimi, sitata kontekstidan uzib tashlanmaganmi. Bu tahlil talabani media matnni semiotik jihatdan “qavatma-qavat” o‘qishga olib keladi: denotativ ma’no (nima deyildi?), konnotativ ma’no (qanday kayfiyat beryapti?), pragmatik maqsad (nima qilishimni istayapti?), institutsional kontekst (kimga foyda? kim zarar?).

To‘rtinchisi - inokulyatsiya (inoculation theory) va “prebanking” yondashuvi: agar inson manipulyatsiya usullari bilan oldindan tanish bo‘lsa, keyinchalik shu usulni ko‘rganda uning ta’siri pasayadi. Demak, ta’limda “feykni fosh qilish”dan tashqari, “manipulyatsiya mexanizmlarini oldindan o‘rgatish” muhim: soxta dilemma, ad hominem, selektiv dalil, qo‘rquvga tayanish, “mutaxassis” niqobi, botlar orqali sun’iy trend yaratish kabi.

Mediakompetentlikni o‘qitishdagi asosiy pedagogik muammo uning fanlararo tabiatidan kelib chiqadi. U til va nutq madaniyati bilan bog‘liq, chunki mantiqiy bayon, dalil keltirish, muammoli savol qo‘yish, tahrir qilish va muhokama qilish til kompetensiyalarisiz amalga oshmaydi. U tarix, jamiyatshunoslik va huquq bilan bog‘liq, chunki axborotning ijtimoiy oqibati, huquqiy normalar, fuqarolik pozitsiyasi, jamoatchilik fikri mexanizmlari shu erda ochiladi. U informatika va raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq, chunki ma’lumotni qidirish strategiyasi, platformalar ishlash mantiqi, ma’lumot xavfsizligi, identifikatsiya va raqamli iz (digital footprint) tushunchalari texnik asos talab qiladi.

U psixologiya bilan bog‘liq, chunki kognitiv og‘ishlar, manipulyatsiyaga moyillik, diqqat iqtisodi (attention economy), emotsional triggerlar va onlayn muhitdagi ijtimoiy bosim mediata’limning amaliy risklar qatoriga kiradi. Shuning uchun mediakompetentlikni alohida bir fan sifatida o‘qitish ham, boshqa fanlarga singdirib borish ham asoslangan modellardir, ammo har ikki holatda ham maqsadlar, o‘quv natijalari va baholash dalillari o‘zaro muvofiq bo‘lishi kerak. Ta’lim amaliyotida ko‘p uchraydigan xato shundaki, mediata’lim “mavzu” sifatida qiziqarli tarzda o‘tiladi, lekin natija sifatida kompetensiyaning qaysi qismi o‘zgargani aniq dalil bilan ko‘rsatilmaydi. Professorlik darajasida yondashuv mediakompetentlikni didaktik dizaynga aylantiradi: o‘qitish maqsadi, ta’lim faoliyati, materiallar, topshiriqlar, refleksiya va baholash o‘rtasida “dalilga asoslangan” bog‘lanish quriladi.

Bugungi talabalar mediakompetentligi yana bir muhim yo‘nalish bilan boyishi kerak: algoritmik savodxonlik. Platformalar kontentni neytral tarzda emas, algoritm orqali “tashkiliylashtirib” beradi, bu esa kun tartibini belgilash (agenda-setting) va freyming (framing) nazariyalari bilan uyg‘un: inson nimani ko‘p ko‘rsa, o‘sha masalani muhim deb hisoblaydi, nimani qanday ramkada ko‘rsa, shunday tushunadi. *Talaba algoritmning uchta amaliyotini anglashi zarur:*

1) tanlash (fidni kim shakllantirmoqda?),

2) kuchaytirish (qaysi kontent tezroq tarqaladi va nima uchun?),

3) yashirish (qaysi ma’lumot ko‘rinmay qolyapti?).

Shu nuqtada “e’tibor iqtisodi” tushunchasi paydo bo‘ladi: vaqt va diqqat cheklangan resurs, platforma esa uni ushlab turishga intiladi. Demak, mediakompetentlik - bu diqqatni boshqarish kompetensiyasi ham: talabaning o‘qish rejimi, diqqat parchalanishi, kognitiv charchoq va “skroll odati” ta’lim natijalariga bevosita ta’sir qiladi. Ilmiy ishlash uchun talabaga axborot dietasi kerak: kontent iste’molini me’yorlash, xabarlarni partiyalab o‘qish, uzluksiz bildirishnomalarni cheklash, yirik mavzular bo‘yicha “sekin o‘qish” (slow reading) amaliyotini joriy etish.

Pedagogik nuqtayi nazardan mediakompetentlikni rivojlantirish uchun faqat leksiya etarli emas, u faol kognitiv amaliyotni talab qiladi. Konstruktivizm va konnektivizm g‘oyalariga tayanilsa, bilim tayyor holda berilmaydi, balki tarmoqda quriladi: talaba manbalar bilan bog‘lanadi, ularni saralaydi, ma’noni qayta qurib, o‘z pozitsiyasini himoya qiladi. Demak, o‘qitishda “mediamatnni qabul qilish” emas, “mediamatn bilan amal qilish” markazga chiqadi: tahlil, qayta tuzish, dalil keltirish, muqobil interpretatsiya, auditoriyaga moslash.

Bu jarayonda metakognitiv dnevniklar (nima uchun shu manbaga ishondim?), debat va retsenziya (o‘zaro baholash), argumentatsiya xaritasi (claim–evidence–warrant) kabi usullar samarali. Shuningdek, kognitiv yuk (cognitive load) nazariyasi ham muhim: mediamatn ko‘p modalli bo‘lgani uchun ishchi xotira tez to‘ladi, talabaga ma’lumotni “changaklash” (chunking), asosiy tezisni ajratish, ko‘rgazmali elementlarni ma’no bilan bog‘lash, ortiqcha bezakni kesish kabi strategiyalar o‘rgatilsa, o‘qish samaradorligi oshadi.

Talabalar mediakompetentligi faqat individual ko‘nikma emas, balki kasbiy etika va ijtimoiy ishonch madaniyatidir. Universitet bitiruvchisi jamoatchilikka chiqqanda (dars berganda, hisobot tayyorlaganda, tadbirkorlikda qaror qabul qilganda, klinik tavsiya yozganda) media orqali ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun mediakompetentlik “kommunikativ mas’uliyat” tamoyiliga tayanadi: aniqlik, xolislik, manbani ko‘rsatish, noaniqlikni tan olish, shaxsni emas, g‘oyani tanqid qilish, nafrat va stigmatizatsiyadan saqlanish, shaxsiy ma’lumotni himoya qilish. Bu tamoyillar o‘z-o‘zidan shakllanmaydi, ular auditoriya, janr va maqsadga ko‘ra ifoda topadi: ilmiy maqola, ommabop post, prezentatsiya, debat - har biriga mos nutq me’yorlari bor. Mediakompetent talaba janr me’yorlarini anglaydi: ilmiyda - dalil va manba, ommabopda - tushunarlilik va mas’uliyat, reklamada - ishontirish mexanizmlarini ochish, jurnalistikda - fakt va muvozanat [9].

Shu tarzda, mediakompetentlik talabalar uchun uchta fundamental natijani beradi.

Birinchisi, epistemik mustaqillik: talaba “ko‘rdim, demak bilaman” emas, “tekshirdim, demak tushundim” pozitsiyasiga o‘tadi.

Ikkinchisi, akademik va kasbiy barqarorlik: ilmiy matn bilan ishlash, dalil keltirish, manbani boshqarish, etik kommunikatsiya - barchasi bitiruvchining mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Uchinchisi, raqamli jamiyatda xavflarni kamaytirish: manipulyatsiyaga immunitet, diqqatni boshqarish, AI natijalarini tekshirish, shaxsiy ma’lumotni muhofaza qilish. Eng muhimi, mediakompetentlik ta’limning “metakompetensiyasi”ga aylanadi: u boshqa barcha kompetensiyalar (kritik fikrlash, tadqiqot, kommunikatsiya, innovatsiya)ning ishlash sifati va ishonchini belgilaydi, chunki zamonaviy bilim muhitida har bir kompetensiya media orqali namoyon bo‘ladi va media orqali sinaladi [10].

Xulosa. Mediakompetentlik - talabaning ta’lim sifati, akademik halollik, raqamli xavfsizlik va fuqarolik mas’uliyatini bir vaqtning o‘zida ta’minlaydigan kompleks kompetensiyadir. Uni oliy ta’limda alohida mavzu sifatida emas, balki fanlararo, loyihaga asoslangan va faktchekingga yo‘naltirilgan amaliyotlar orqali tizimli rivojlantirish samarali. Taklif etilgan 6 blokli model va 4 bosqichli rubrika ta’lim dasturiga moslashtirilsa, talabalarda axborot bilan ishlash madaniyati va media muhitda mas’uliyatli ishtirok etish qobiliyati sezilarli oshadi.

Adabiyotlar:

1. Ro‘ziyev Y.Z., Abdullayeva B.S. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati: darslik. – Toshkent: (nashr ma’lumoti kitobning titul ma’lumotida), 260 b., 2024.
2. Mamatova Ya., Sulaymanova S. O‘zbekiston mediata’lim taraqqiyoti yo‘lida: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Extremum-press, 2015.-94 b.
3. Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari: o‘quv-amaliy qo‘llanma. – Toshkent: Extremum-press, 2017.-142 b.
4. Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya: yordamchi o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Movarounnahr, 2016.-672 b.
5. Amirov D.M. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug‘ati. – Toshkent, 2010.
6. Burxanov X.M. Internet xavfsizligini ta’minlashda milliy segment faoliyatining sotsiologik jihatlari: diss. avtoref. – Toshkent, 2012.

7. Raximova Sh.A. Ijtimoiy tizimni modernizatsiyalashtirish jarayonida axborot almashinuvi madaniyati: diss. avtoref. – Toshkent, 2021.

8. Shermuxamedova A.U. O‘zbekistonda ijtimoiy tarmoqlarning shakllanishi tendensiyalari va xususiyatlari: diss. avtoref. – Toshkent, 2021.

9. Matibayev T., Matibayeva R. Jaholat xuruji. – Toshkent: Akademiya, 2013.

10. Ayupov R.X. Ta’limda axborot texnologiyalari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDPU, 2020.

11. Samarov R., Sattorov Yo. Axborot madaniyati va uni shakllantirishning nazariy-amaliy ahamiyati// Zamonaviy ta’lim/ Современное образование. – Toshkent, 2016.

TALABALARNING KASBIY VA SHAXSIY KOMPETENSIYALARINI TEXNOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH (BOSHLANG‘ICH TA’LIM YO‘NALISHI MISOLIDA)

Raximov Zokir Toshtemirovich,
pedagogika fanlari doktori (DSc), Renessans ta’lim universiteti professori
z_raximov@renessans-edu.uz

Mazkur maqolada texnologik yondashuv asosida talabalarning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida o‘qiyotgan talabalar uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar hamda raqamli vositalardan foydalanish orqali ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari tahlil qilingan. Shuningdek, talabalarda kasbiy mahorat, ijodkorlik, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari ko‘rib chiqilgan. Maqola natijalari boshlang‘ich ta’lim tizimida sifatli kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *texnologik yondashuv, kompetensiya, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik texnologiya, interfaol metod, kasbiy rivojlanish, shaxsiy yondashuv.*

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ И ЛИЧНОСТНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА (НА ПРИМЕРЕ НАПРАВЛЕНИЯ «НАЧАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ»)

В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты развития профессиональных и личностных компетенций студентов на основе технологического подхода. На примере направления «Начальное образование» анализируются пути повышения эффективности обучения посредством применения современных педагогических технологий, интерактивных методов и цифровых инструментов. Особое внимание уделено формированию профессионального мастерства, креативности, самостоятельного мышления и навыков командной работы. Полученные результаты способствуют подготовке квалифицированных кадров для системы начального образования.

Ключевые слова: *технологический подход, компетенция, начальное образование, педагогическая технология, интерактивные методы, профессиональное развитие, личностный рост.*

METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS’ PROFESSIONAL AND PERSONAL COMPETENCIES BASED ON A TECHNOLOGICAL APPROACH (USING THE EXAMPLE OF THE PRIMARY EDUCATION FIELD)

This article explores the theoretical and practical aspects of developing students’ professional and personal competencies through a technological approach. Using the example of the Primary Education field, it analyzes effective methods for improving teaching quality through modern pedagogical technologies, interactive strategies, and digital tools. The study emphasizes the formation of professional skills, creativity, independent thinking, problem-solving, and teamwork abilities. The findings contribute to the preparation of qualified specialists for the primary education system and promote innovation in teacher training.

Keywords: *technological approach, competency, primary education, pedagogical technology, interactive methods, professional development, personal growth.*

Kirish. Ta’lim jarayonida texnologik yondashuvni qo‘llash bu borada eng samarali usullardan biri bo‘lib, u o‘qitish jarayonini tizimli, interfaol va natijaga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etish imkonini beradi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning kelajakdagi pedagogik faoliyatida texnologik yondashuv muhim o‘rin tutadi. Chunki zamonaviy boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchini mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka, innovatsion g‘oyalarni ilgari surishga yo‘naltiruvchi shaxs sifatida shakllanadi.

Texnologik yondashuv deganda, o‘quv jarayonini aniq maqsad asosida loyihalash, pedagogik vositalarni tizimli qo‘llash, o‘qitish jarayonining samaradorligini kafolatlovchi mexanizmlarni yaratish tushuniladi. Bu yondashuv o‘qituvchidan nafaqat metodik tayyorgarlikni, balki texnologik fikrlashni, analitik

tahlilni va ta’lim muhitini boshqarish ko‘nikmalarini ham talab etadi. Shu jihatdan, talabalarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda innovatsion ta’lim texnologiyalarini, masofaviy ta’lim platformalarini, multimedia vositalarini, interfaol metodlarni va loyiha asosida o‘qitish usullarini qo‘llash dolzarb hisoblanadi.[1; 256]

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish – ularning amaliy faoliyatga tayyorligini oshirish, dars jarayonini samarali tashkil eta olish, o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish, kommunikativ madaniyatni rivojlantirish va ta’lim-tarbiya jarayonini boshqarish salohiyatini kuchaytirishni nazarda tutadi. Shaxsiy kompetensiyalar esa, o‘z navbatida, talabaning o‘zini anglash, o‘z ustida ishlash, emotsional barqarorlikni saqlash, jamoa bilan muloqot qilish va ijtimoiy moslashuvchanlikni o‘z ichiga oladi. Shu boisdan ham texnologik yondashuv asosida mazkur kompetensiyalarni bosqichma-bosqich shakllantirish va ularni baholash mexanizmini takomillashtirish bugungi kun ta’lim siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Boshlang‘ich ta’lim tizimi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi: bu bosqichda o‘quvchilarning tafakkuri, nutqi, hissiy olami va ijtimoiy xulq-atvori shakllanadi. Shu sababli, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z kasbiy faoliyatida ilg‘or texnologiyalarni puxta egallashi, darslarni zamonaviy yondashuv asosida loyihalashi, o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta’lim jarayonini boshqarishi zarur. Texnologik yondashuv esa ana shu maqsadlarga erishishda metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta’lim sohasida qo‘llanilayotgan ilg‘or texnologiyalar — “Blended learning”, “Flipped classroom”, “Case study”, “Project-based learning” kabi yondashuvlar talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligini oshirish, ularni mustaqil bilim olishga va amaliy ko‘nikmalarni egallashga undaydi. Bunday texnologiyalar orqali o‘qituvchi ta’lim jarayonining markazida emas, balki yo‘naltiruvchi va motivatsiya beruvchi rolni bajaradi. Natijada talaba o‘z o‘qish faoliyatining subyekti sifatida shakllanadi, bu esa uning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirishning eng muhim omilidir.[2; 214]

Shuningdek, texnologik yondashuv talabalarda refleksiya, o‘z faoliyatini baholash, natijalarni tahlil qilish va kelgusidagi faoliyatni rejalashtirish kabi muhim shaxsiy sifatlarni shakllantirishga yordam beradi. O‘qitish jarayonining har bir bosqichi aniq maqsad, natija va baholash mezonlari asosida tashkil etilgani bois, talaba o‘z rivojlanish dinamikasini kuzatib borish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Texnologik yondashuv asosida talabalarning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi zamonaviy ta’limning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda, ularni yangi pedagogik g‘oyalar va innovatsion yechimlar bilan qurollantirishda bu yondashuvning o‘rni beqiyosdir. Shu bois, kelgusida ta’lim jarayonini texnologik asosda tashkil etish, uni nazariy va amaliy jihatdan chuqur o‘rganish, hamda pedagogik innovatsiyalarni tizimlashtirish muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. So‘nggi yillarda ta’lim jarayonida texnologik yondashuvga asoslangan pedagogik tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu yo‘nalish bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli nazariy asoslar va amaliy modellar ishlab chiqilgan. Xususan, J. Dewey, B. Bloom, M. Knowles kabi g‘arb olimlarining ishlarida o‘qitish jarayonining texnologik modeli, o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida shakllantirish g‘oyalari ilgari surilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogikada konstruktivizm, kompetensiyaviy yondashuv va refleksiv o‘qitish konsepsiyalari texnologik asoslarni boyitgan.[3; 188]

O‘zbekiston olimlari orasida A. Abduqodirov, N. Saidahmedov, Sh. Ahmedov, U. Tolipov, N. Azizxo‘jayeva, R. Ishmuhamedovlarning ilmiy ishlari muhim o‘rin tutadi. Ularning tadqiqotlarida o‘quv jarayonini texnologik asosda loyihalash, pedagogik innovatsiyalarni joriy etish va o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Masalan, R. Ishmuhamedov o‘z ishlarida interfaol metodlarning o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishdagi rolini tahlil qilgan bo‘lsa, N. Saidahmedov ta’lim jarayonining bosqichma-bosqich texnologik modeli orqali samaradorlikni oshirish mexanizmlarini ko‘rsatib bergan.[5; 230]

Talabalarning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirishda texnologik yondashuvni qo‘llash faqat texnik vositalarni joriy etish bilan cheklanmaydi. Aksincha, u didaktik maqsadlar, o‘quv jarayonining strukturasini to‘g‘ri loyihalash, metodik vositalarni tanlash va natijalarni tahlil qilish kabi kompleks yondashuvni talab etadi. Shu jihatdan, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida o‘qituvchilarning tayyorgarligini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi ushbu masalalarni chuqur o‘rganish, ilmiy tahlil asosida yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi. Tadqiqotning metodik asosi sifatida tizimli, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va texnologik yondashuvlar tanlandi. Tizimli yondashuv talabalarning kompetensiyalarini o‘zaro bog‘liq elementlar majmui sifatida o‘rganish imkonini beradi.

Kompetensiyaviy yondashuv esa, ularning nazariy bilimlari bilan bir qatorda amaliy ko‘nikma va malakalarini ham tahlil etishni taqozo etadi.

Tadqiqotda quyidagi asosiy metodlardan foydalanildi: nazariy tahlil, pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma, eksperimental-sinov ishlari va natijalarni statistik tahlil qilish. Nazariy tahlil yordamida mavjud ilmiy manbalar, ilg‘or tajribalar va normativ hujjatlar o‘rganildi. Pedagogik kuzatuv orqali talabalarning dars jarayonidagi faolligi, mustaqil ishlash malakasi va texnologik vositalardan foydalanish ko‘nikmalari tahlil qilindi. So‘rovnoma metodi esa talabalar va o‘qituvchilarning texnologik yondashuvga munosabatini aniqlashga yordam berdi.

Eksperimental tadqiqot bosqichida texnologik yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar amaliyotga joriy etildi. Jarayon davomida talabalarning kasbiy kompetensiyalari (rejalashtirish, tahlil qilish, kommunikatsiya, muammoli vaziyatlarni hal etish) va shaxsiy kompetensiyalari (ijodkorlik, refleksiya, o‘zini rivojlantirish) darajasi baholandi. Natijalar an’anaviy yondashuvga nisbatan texnologik asosda o‘qitish samaraliroq ekanini ko‘rsatdi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida texnologik yondashuv asosida talabalarning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasini o‘rganish uchun bir necha bosqichda tahliliy ishlar olib borildi. Dastlab, mavjud ta’lim amaliyoti o‘rganilib, an’anaviy yondashuvda o‘qitish jarayonining kuchli va zaif tomonlari aniqlab chiqildi. Aniqlanishicha, ko‘plab oliy ta’lim muassasalarida o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda tizimlilik yetarli emas. O‘qituvchilar ayrim interfaol usullardan foydalansalar-da, ularning metodik asoslari ko‘p hollarda tizimli yondashuv darajasida amalga oshirilmaydi. Shu bois, texnologik yondashuv asosida dars jarayonini loyihalash va amalga oshirish zarurati tug‘ildi.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun texnologik yondashuv ularning kasbiy tayyorgarligini chuqurlashtirishda juda muhim. Chunki bu yo‘nalishdagi talabalar kelajakda bolalar bilan bevosita ishlaydilar, ularga nafaqat bilim, balki tarbiya, ma’naviy qadriyat va ijtimoiy ko‘nikmalarni ham singdiradilar. Shu sababli o‘qituvchi shaxsida texnologik fikrlash, ijodkorlik, kommunikativ mahorat, muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatini shakllantirish dolzarbdir.

Tadqiqotda olib borilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, texnologik yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda talabalar o‘quv jarayonida faol ishtirok etishadi, mustaqil fikrlash va o‘z nuqtai nazarini himoya qilish ko‘nikmasi shakllanadi. Ayniqsa, “Loyiha asosida o‘qitish”, “Blended learning” va “Case study” kabi metodlar ularning amaliy faoliyatga tayyorgarligini oshirishda samarali bo‘ldi.[6; 198]

Texnologik yondashuv faqat texnik vositalarni joriy etish emas, balki ta’lim jarayonini pedagogik texnologiya sifatida loyihalashdir. Har bir mashg‘ulot aniq maqsad, bosqich, natija va baholash mezonlari asosida tuzilganda, o‘qituvchi ham, talaba ham o‘z faoliyatini aniq rejalashtira oladi. Bu esa o‘qitish jarayonini natijaga yo‘naltirilgan tizimga aylantiradi.

Texnologik yondashuv asosida o‘qitilgan talabalar quyidagi o‘zgarishlarga ega bo‘ldilar:

Kasbiy kompetensiyalar – dars loyihasini mustaqil tuzish, metodik vositalarni tanlash, o‘quv jarayonini boshqarish ko‘nikmalari shakllandi.

Shaxsiy kompetensiyalar – ijodiy fikrlash, o‘zini tahlil qilish (refleksiya), emotsional muvozanatni saqlash, jamoada ishlash malakalari rivojlandi.

Axborot-kommunikatsion ko‘nikmalar – raqamli vositalardan maqsadli foydalanish, ta’lim resurslarini yaratish va ulardan samarali foydalanish qobiliyatlari kuchaydi.

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, texnologik yondashuvning muvaffaqiyatli joriy etilishi bir necha omillarga bog‘liq: o‘qituvchining metodik tayyorgarlik darajasi, texnik baza mavjudligi, ta’lim muassasasining innovatsion muhitini shakllantirish hamda talabalarning motivatsion holati. Shu sababli, pedagog kadrlarni tayyorlash tizimida texnologik yondashuvni chuqur o‘rganishga, o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqishga ehtiyoj sezilmoqda.

Tadqiqot yakunida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar shundan iborat bo‘ldiki, texnologik yondashuvni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchi quyidagi bosqichlarni amalga oshirishi lozim:

Dars maqsadini kompetensiyaviy natijalar bilan bog‘lash;

O‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydigan interfaol metodlarni tanlash;

Raqamli vositalar va muhitlardan ijodiy foydalanish;

Refleksiya va o‘zaro tahlil jarayonini joriy etish;

O‘qitish jarayonini muntazam monitoring qilish va baholash.

Shuningdek, texnologik yondashuvni samarali joriy etishda modulli o‘qitish tizimi ham muhim ahamiyatga ega. Bu tizim orqali o‘quv jarayoni kichik modullar asosida tashkil qilinib, har bir modul aniq maqsad, natija va baholash mezoniga ega bo‘ladi. Bu yondashuv talabaning o‘zlashtirish darajasini individual tarzda nazorat qilishga imkon beradi.

Eksperimental natijalar asosida ishlab chiqilgan modelda quyidagi asosiy komponentlar ajratildi:

Motivatsion komponent – talabaning kasbiy yo‘nalishga qiziqishini oshirish;

Mazmuniy komponent – o‘quv dasturining texnologik asoslarda qayta tuzilishi;

Faoliyat komponenti – interfaol va amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘rganilgan bilimni mustahkamlash;

Refleksiv komponent – talabalarning o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash qobiliyatini shakllantirish.

Texnologik yondashuv asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki ularning kasbiy-amaliy tayyorgarligini ham sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, shaxsiy kompetensiyalar — o‘zini rivojlantirish, o‘z fikrini erkin ifoda etish, yangilikka intilish kabi sifatlar kuchayadi.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqotlar texnologik yondashuvning ta’lim tizimidagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. U nafaqat o‘qituvchilar tayyorlash sifatini oshiradi, balki o‘quv jarayonini ilmiy asosda modernizatsiya qilish imkonini beradi. Natijalar boshlang‘ich ta’lim tizimida sifatli kadrlar tayyorlash, o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishi va shaxsiy kamolotini ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Texnologik yondashuv asosida talabalarning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim metodik yo‘nalishlaridan biridir. Bu yondashuv o‘qitish jarayonini faollashtirish, natijaga yo‘naltirish hamda talabalarning ijodiy va mustaqil fikrlash salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Olingan ilmiy tahlillar, tajribaviy natijalar va kuzatuvlar asosida texnologik yondashuvning pedagogik jarayondagi samaradorligi to‘liq isbotlandi.

Birinchidan, texnologik yondashuv talabalarda kasbiy kompetensiyalarni tizimli rivojlantirishga yordam beradi. Bunda talabalarning darsni rejalashtirish, o‘qitish metodlarini tanlash, raqamli vositalardan samarali foydalanish va o‘quvchilar faoliyatini boshqarish kabi ko‘nikmalari shakllanadi. Shu bilan birga, texnologik yondashuv natijasida o‘qituvchi dars jarayonining faqat ma’lumot beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi va tahlil qiluvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchidan, shaxsiy kompetensiyalar — ijodkorlik, muloqot madaniyati, o‘zini tahlil qilish (refleksiya) va jamoada ishlash ko‘nikmalari ham sezilarli darajada rivojlanadi. Talabalar o‘z fikrini mustaqil bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechim topish, o‘z bilimini baholash va yangi g‘oyalarni ilgari surish qobiliyatini egallaydilar.

Uchinchidan, texnologik yondashuv o‘quv jarayonida individual yondashuv, differensial o‘qitish, reflektiv tahlil va natijalarni monitoring qilish kabi ilg‘or usullarni qo‘llashni ta’minlaydi. Bunday yondashuv orqali har bir talabaning shaxsiy o‘sish dinamikasi nazorat qilinadi va ularning o‘zlashtirish darajasi bosqichma-bosqich rivojlanadi.

Tadqiqot yakunlari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

Pedagogik oliy ta’lim muassasalarida o‘quv dasturlarini texnologik yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqish;

Talabalarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ishlashga o‘rgatuvchi maxsus modullarni joriy etish;

O‘qituvchilar uchun texnologik fikrlash va raqamli didaktika bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

Ta’lim jarayonida raqamli platformalar va interfaol vositalardan foydalanishni kengaytirish;

Kasbiy kompetensiyalarni baholashda texnologik ko‘rsatkichlar (loyiha tayyorlash, multimedia yaratish, virtual dars o‘tkazish)ni inobatga olish.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, texnologik yondashuv asosida talabalarning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik tizimni modernizatsiya qilishning zaruriy shartidir. Bu yondashuv o‘qituvchi tayyorlash sifatini oshirish, ta’lim mazmunini raqamli asr talablariga moslashtirish hamda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy yetukligini ta’minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Abduqodirov A. A. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”, Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2019. – 256 b.

2. Saidahmedov N. “Ta’lim jarayoniga texnologik yondashuvning nazariy asoslari”, Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020. – 214 b.

3. Ishmuhamedov R. J. “Innovatsion pedagogik texnologiyalar”, Toshkent: “O‘qituvchi”, 2018. – 188 b.

4. Azizxo‘jayeva N. N. “Pedagogik kompetensiyalar va ularni shakllantirish texnologiyasi”, Toshkent: “Ziyo”, 2021. – 202 b.

5. Tolipov U. K., & Qodirov, A. N. “Ta’limda interfaol metodlar va texnologiyalar”, Toshkent: “Fan”, 2017. – 230 b.

6. Ahmedov Sh. “Ta’limda innovatsion yondashuv va texnologiyalarni joriy etish”, Toshkent: “Ilm ziyo”, 2022. – 198 b.

7. Xodjayev M. M. “Boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish”, Samarqand: SamDU nashriyoti, 2023. – 164 b.

PSIXOLOGIK FAROVONLIKNING NAZARIY VA KONSEPTUAL ASOSLARI

Kasimova Xulkar Atabayevna,
Ma’mun universiteti psixologiya kafedrasi dotsenti, PhD
x.a.kasimova@gmail.com

Mazkur maqolada psixologik farovonlik fenomenining nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Ekzistensial-gumanistik psixologiya nuqtai nazaridan shaxsning individual va takrorlanmas hayotiy tajribasi psixologik farovonlikning muhim omili sifatida yoritilgan. Norman Bradburn, Ed Diener hamda Carol Ryff tomonidan ishlab chiqilgan psixologik va subyektiv farovonlik konsepsiyalari ilmiy jihatdan tahlil etilib, ularning o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan. Tadqiqotda psixologik farovonlikning ijobiy va salbiy affektlar muvozanati, hayotdan qoniqish, emotsional holat, shaxsiy o‘sish, avtonomiya va o‘zini o‘zi qabul qilish kabi tarkibiy komponentlari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy psixologiyada psixologik farovonlikni tadqiq etishning dolzarbligi hamda uning inson shaxsining ijobiy rivojlanishidagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *Psixologik farovonlik, subyektiv farovonlik, ekzistensial-gumanistik psixologiya, ijobiy affekt, salbiy affekt, hayotdan qoniqish, shaxsiy o‘sish, avtonomiya, o‘zini o‘zi qabul qilish.*

THEORETICAL AND CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF PSYCHOLOGICAL WELL-BEING

This article analyzes the theoretical and methodological foundations of the phenomenon of psychological well-being. From the perspective of existential-humanistic psychology, an individual’s unique and unrepeatable life experience is considered an important factor of psychological well-being. The concepts of psychological and subjective well-being developed by Norman Bradburn, Ed Diener, and Carol Ryff are scientifically examined, and their distinctive features are revealed. The study highlights the structural components of psychological well-being, including the balance of positive and negative affect, life satisfaction, emotional state, personal growth, autonomy, and self-acceptance. In addition, the article substantiates the relevance of studying psychological well-being in contemporary psychology and emphasizes its significance in the positive development of human personality.

Keywords: *Psychological well-being, subjective well-being, existential-humanistic psychology, positive affect, negative affect, life satisfaction, personal growth, autonomy, self-acceptance.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ

В данной статье проанализированы теоретико-методологические основы феномена психологического благополучия. С позиции экзистенциально-гуманистической психологии индивидуальный и неповторимый жизненный опыт личности рассматривается как важный фактор психологического благополучия. Научно проанализированы концепции психологического и субъективного благополучия, разработанные Норманом Брэдберном, Эдом Динером и Кэрол Рифф, а также раскрыты их специфические особенности. В исследовании освещены структурные компоненты психологического благополучия, такие как баланс положительного и отрицательного аффекта, удовлетворённость жизнью, эмоциональное состояние, личностный рост, автономия и самопринятие. Кроме того, обоснована актуальность изучения психологического благополучия в современной психологии и подчеркнута его значимость в позитивном развитии личности человека.

Ключевые слова: *психологическое благополучие, субъективное благополучие, экзистенциально-гуманистическая психология, положительный аффект, отрицательный аффект, удовлетворённость жизнью, личностный рост, автономия, самопринятие.*

Kirish. Zamonaviy psixologiya fanida insonning nafaqat ruhiy muammolari va psixik buzilishlarini o‘rganish, balki uning ijobiy rivojlanishi, ichki imkoniyatlari hamda hayotdan qoniqish darajasini tadqiq etish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylangan. Shu nuqtai nazardan psixologik farovonlik fenomeni insonning shaxs sifatida barkamol rivojlanishi, jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi va ruhiy salomatligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida e’tirof etiladi. Psixologik farovonlik insonning o‘z hayotidan mamnunligi, ijobiy emotsional holati, ichki muvozanati, shaxsiy o‘sishga intilishi va o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi bilan chambarchas bog‘liqdir.

So‘nggi yillarda globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi hamda turli stress omillarining ortishi inson ruhiy holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada insonning psixologik farovonligini saqlash va mustahkamlash masalasi nafaqat psixologiya, balki pedagogika, sotsiologiya, tibbiyot va boshqa fanlar doirasida ham dolzarb muammo sifatida tadqiq etilmoqda. Ayniqsa, yoshlarning hayotdan qoniqishi, emotsional barqarorligi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va ijtimoiy moslashuvini ta’minlashda psixologik farovonlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi psixologik farovonlik fenomenining nazariy va konseptual asoslarini tahlil qilish, uning asosiy ilmiy yondashuvlari hamda tarkibiy komponentlarini yoritishdan iborat. Shuningdek, psixologik farovonlikning inson shaxsining ijobiy rivojlanishidagi o‘rni va zamonaviy psixologiyadagi dolzarbligini ilmiy jihatdan asoslash ko‘zda tutilgan.

Asosiy qism. Ekzistensial-gumanistik psixologiyada shaxsning o‘ziga xos, yaxlit, individual va takrorlanmas hayotiy tajribaga ega ekanligini tavsiflovchi alohida yashash usuli nazarda tutilgan insonning ijobiy faoliyat ko‘rsatish muammosi [1] o‘rta asr psixologiyasida ilmiy qiziqish uyg‘otmoqda.

XX asr. Ilm-fanning faol o‘rganilishi va rivojlanishi tufayli so‘nggi o‘n yilliklarda shaxsning o‘tmishi, buguni va kelajagini har tomonlama baholashni hisobga olgan holda uning ijobiy faoliyati darajasining ko‘rsatkichi bo‘lgan "psixologik farovonlik" tushunchasi alohida o‘rin egalladi.Biroq, turli yondashuvlar tomonidan faol o‘rganilishi va e’tibor qaratilishiga qaramay, ushbu hodisa hozirgacha mahalliy psixologiyadagi kabi aniq talqin qilinmagan, shuningdek, xorijiy [2].

Bundan tashqari, so‘nggi yillarda psixologik farovonlikning asosiy konsepsiyalari o‘rtasidagi qarama-qarshilik yanada kuchayib bormoqda. Farovonlik konstruktini tushunishdagi noaniqlik Rossiyada ham, xorijiy ilm-fan va amaliyot sohalarida ham kuzatilmoqda [3].

Psixologik farovonlik “o‘z mazmuni va mohiyatiga ko‘ra, avvalo insonning o‘z hayotiga bo‘lgan munosabatini ekzistensial jihatdan his etishi va boshdan kechirishi bilan bog‘liqdir”. U yaxlit va subyektiv xarakterga ega bo‘lib, insonning o‘z mavjudligini umumiy hamda integral baholashini aks ettiradi.

Psixologik farovonlik fenomeniga dastlab e’tibor qaratgan olimlardan biri amerikalik psixolog va sotsiolog Norman Bradburn hisoblanadi. U mazkur yo‘nalishning nazariy asoslarini yaratib, ilmiy muhitga “psychological well-being” (“psixologik farovonlik”) atamasini kiritgan hamda ushbu fenomenni insonning subyektiv baxt hissi va hayotdan umumiy qoniqishi sifatida tavsiflagan.

Biroq boshqa tadqiqotchilar tomonidan ushbu atama bilan bir qatorda “ruhiy salomatlik”, “me’yor”, “kasallik va salomatlikning ichki manzarasi”, “normal va anomal shaxs”, “ijobiy turmush tarzi”, “emotsional komfort”, “hayot sifati”, “yetuk shaxs”, “o‘zini o‘zi aktuallashtirgan shaxs”, “to‘laqonli faoliyat yurituvchi shaxs” kabi sinonimik tushunchalar ham qo‘llanilgan [4].

Shu munosabat bilan, Norman Bradburn ushbu tushunchalarni bir-biridan farqlash masalasi ustida faol ilmiy izlanish olib borgan. Mazkur izlanishlar uning The Structure of Psychological Well-Being (“Psixologik farovonlik strukturasi”) nomli asarida o‘z ifodasini topgan.

Norman Bradburn ta’limotining markaziy g‘oyasi psixologik farovonlik strukturasi modeliga asoslanadi. Olimning fikriga ko‘ra, psixologik farovonlik o‘zaro doimiy ta’sirlashuvchi ikki turdagi affekt — ijobiy va salbiy affektlar o‘rtasidagi muvozanatda namoyon bo‘ladi [4].

Ijobiy affekt inson hayotida quvonch, mamnunlik va baxt hissini uyg‘otuvchi voqea-hodisalar asosida shakllanadi. Salbiy affekt esa insonni tashvishga soluvchi, ruhiy bezovtalik, xavotir va turli salbiy emotsiyalarni keltirib chiqaruvchi hodisalar bilan bog‘liqdir.

Norman Bradburn nazariyasiga ko‘ra, aynan ijobiy va salbiy affektlar o‘rtasidagi nisbat yoki farq insonning o‘z hayotidan umumiy qoniqish hissini aks ettiradi. Shu sababli mazkur ko‘rsatkich shaxs psixologik farovonligining bevosita mezoni sifatida talqin etiladi [5].

Norman Bradburn qarashlariga ko‘ra, inson hayotida salbiy affektning ustunligi o‘zini baxtsiz his qilish, hayotdan qoniqmaslik kabi holatlarda namoyon bo‘ladi. Bunday holat shaxsda psixologik farovonlik darajasining past ekanligini ifodalaydi. Aksincha, hayotda ijobiy affektning ustunligi insonning o‘zini baxtli va hayotidan mamnun his etishida namoyon bo‘lib, bu yuqori darajadagi psixologik farovonlikni anglatadi [4].

Muhokama va natijalar. Keyingi davrlarda boshqa olimlarning tadqiqotlarida psixologik farovonlik strukturasi haqidagi tasavvurlar yanada takomillashib bordi. Natijada ushbu tushuncha murakkabroq mazmun kasb etib, ma’nodosh bo‘lgan boshqa terminlardan aniqroq farqlana boshladi.

Mazkur fenomenni ilmiy jihatdan tushunishga muhim hissa qo‘shgan olimlardan yana biri amerikalik psixolog Ed Diener hisoblanadi. U o‘z tadqiqotlarida farovonlikning boshqa jihatini tahlil qilib, “subyektiv farovonlik” (“subjective well-being” — SWB) tushunchasini ilgari surgan. Ushbu terminning mazmuni

Norman Bradburn tomonidan taklif etilgan “psixologik farovonlik” tushunchasiga yaqin bo‘lsada, Ed Diener subyektiv farovonlikni uch komponentli tuzilma sifatida izohlaydi:

1. hayotdan qoniqish;
2. ijobiy emotsiyalar;
3. salbiy emotsiyalar.

Olimning fikriga ko‘ra, aynan ushbu uch komponentning o‘zaro uyg‘unligi inson subyektiv farovonligining yagona integral ko‘rsatkichini shakllantiradi [6].

Ed Diener fikriga ko‘ra, insonlar ko‘pincha hayotdagi voqea-hodisalarni “yaxshi” yoki “yomon” tarzida baholaydilar. Biroq bunday aqliy baholashning asosida ma’lum bir emotsional holat, ya’ni ijobiy yoki salbiy his-tuyg‘ular yotadi. Olim o‘z konsepsiyasida subyektiv farovonlikning ikki asosiy tomonini ajratib ko‘rsatadi:

- **Kognitiv tomon** — insonning o‘z hayotining turli sohalaridan qanchalik qoniqqanini ongli ravishda baholashi;
- **Emotsional tomon** — insonda yaxshi yoki yomon kayfiyatning mavjudligi[8].

Ed Dienerning subyektiv farovonlik nazariyasida farovonlikning uchta muhim xususiyati alohida ta’kidlanadi:

1. **Subyektivlik** — farovonlik hissi insonning shaxsiy ichki tajribasi va individual kechinmalari asosida shakllanadi;
2. **Ijobiylik** — farovonlik faqat salbiy holatlarning yo‘qligini emas, balki ijobiy his-tuyg‘ular va quvonchli tajribalarning mavjudligini ham anglatadi;
3. **Umumiylik** — farovonlik inson hayotining barcha jabhalarida namoyon bo‘ladi, u faqat bitta soha bilan cheklanmaydi hamda muayyan vaqt chegarasiga ega emas [7].

So‘nggi o‘n yilliklarda Ed Diener va uning izdoshlari subyektiv farovonlik muammosini faol ravishda tadqiq etishda davom etib, o‘z ilmiy ishlarida subyektiv farovonlik va psixologik farovonlik tushunchalari o‘rtasidagi prinsipial farqlarni asoslab bermoqdalar [9].

Psixologik farovonlik fenomeniga nisbatan biroz boshqacha yondashuvni amerikalik tadqiqotchi, psixologiya fanlari doktori Carol Ryff taklif etgan [10]. U Norman Bradburn tomonidan asos solingan ilmiy an’analarni davom ettirgan holda, uning psixologik farovonlikni ijobiy va salbiy affektlar muvozanati sifatida talqin qiluvchi nazariyasini tanqidiy jihatdan қайта ko‘rib chiqqan. Shuningdek, Carol Ryff psixologik farovonlik hamda shaxsning ijobiy psixologik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan mashhur psixologlarning nazariyalarini ham hisobga olgan. Natijada, u psixologik farovonlik tushunchasini yanada kengaytirib, unga chuqurroq ilmiy mazmun bergan. Mazkur nazariy asos tarkibiga Abraham Maslow, Carl Rogers, Gordon Allport, Carl Jung, Erik Erikson, Charlotte Buhler, Bernice Neugarten, Marie Jahoda hamda James Birren kabi olimlarning konsepsiyalari kiritilgan. Shu tariqa, Carol Ryff psixologik farovonlik tushunchasini eng to‘liq va umumlashtirilgan shaklda tavsiflab berdi hamda uning oltita asosiy tarkibiy komponentini ajratib ko‘rsatdi:

1. o‘zini o‘zi qabul qilish;
2. atrofdagilar bilan ijobiy munosabatlar;
3. avtonomiya (mustaqillik);
4. tashqi muhitni boshqara olish;
5. hayot maqsadining mavjudligi;
6. shaxsiy o‘sish.

Mazkur komponentlarda turli psixologik nazariyalarning muhim elementlari integratsiyalashgan. Jumladan, Abraham Maslow, Carl Rogers, Gordon Allport hamda Marie Jahoda tomonidan ilgari surilgan o‘zini hurmat qilish va o‘zini qabul qilish g‘oyalari, Carl Jung tomonidan ta’kidlangan insonning o‘z yutuq va kamchiliklarini tan olishi, shuningdek Erik Eriksonning inson o‘z o‘tmishini qabul qilishi haqidagi qarashlari psixologik farovonlikning “o‘zini o‘zi qabul qilish” komponentida o‘z aksini topgan [11].

Subyektiv farovonlik strukturasiga nisbatan bunday yondashuv hayotdan qoniqish holatini kompleks tarzda tahlil qilish imkonini beradi hamda uni tadqiq etishning yangi yo‘nalishlarini ochib beradi. Jumladan, insonning muayyan hayot sohasidan qoniqish darajasini va uning turli obyektiv omillar bilan o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish imkoniyati yuzaga keladi.

Shuningdek, bu yondashuv umumiy subyektiv farovonlik bilan uni belgilovchi alohida hayot sohalari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni aniqlashga ham xizmat qiladi. Hozirgi zamonaviy empirik tadqiqotlarning aksariyati psixologik farovonlikning Carol Ryff tomonidan taklif etilgan modelini asos sifatida qabul qiladi, chunki u hozirgi davrda eng mukammal va ilmiy jihatdan eng batafsil ishlab chiqilgan konsepsiyalardan biri hisoblanadi.

Amerikalik olimlar Richard Ryan va Edward Deci o‘zlarining o‘z-o‘zini belgilash nazariyasida (self-determination theory) ushbu fenomen haqidagi tasavvurlarni yanada kengaytirganlar [12].

Mazkur yondashuvda o‘z-o‘zini belgilash (self-determination) deganda insonning nafaqat tashqi, balki ichki ta’sirlardan ham nisbatan erkin bo‘lishi tushuniladi [13].

Richard Ryan va Edward Deci shaxsning rivojlanishi, optimal va to‘laqonli faoliyat yuritishini tushuntirar ekan, asosiy e’tiborni subyektning ichki faolligiga hamda ichki motivatsiyasiga qaratadilar. Ularning fikriga ko‘ra, ichki motivatsiya uchta bazaviy ehtiyojga asoslanadi:

1. avtonomiya;
2. kompetentlik;
3. boshqalar bilan bog‘liqlik.

Mazkur nazariyada avtonomiya insonning o‘z xulq-atvorini mustaqil ravishda tanlay olishi va boshqarishini anglatadi. Kompetentlik esa shaxsning atrof-muhit tomonidan qo‘yilgan vazifalarni samarali bajarishga, muvaffaqiyatga erishishga bo‘lgan intilishini ifodalaydi. Boshqalar bilan bog‘liqlik ehtiyoji esa insonning yaqin va ahamiyatli kishilar bilan ishonchli, ijobiy munosabatlar o‘rnatishga hamda ular tomonidan qabul qilinishga bo‘lgan ehtiyojini bildiradi [14].

Shuningdek, o‘z-o‘zini belgilash nazariyasining asosiy tushunchalaridan biri hisoblangan avtonomlik shaxsning o‘zining haqiqiy “Men”iga, ichki mohiyatiga mos ravishda harakat qilishini anglatadi. Bunday holat esa insonning kompetentligini oshirishga va atrofdagilar bilan ijobiy aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiladi [15].

Yuqorida qayd etilgan ehtiyojlarning qondirilishi insonning mavjud ijtimoiy muhiti bilan chambarchas bog‘liqdir. Agar ijtimoiy muhit ushbu ehtiyojlarning qondirilishiga imkon yaratsa, insonning psixologik farovonligi ortadi; aks holda esa uning darajasi pasayadi [16].

Psixologik farovonlik zamonaviy psixologiya fanining muhim va dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida insonning ruhiy salomatligi, shaxsiy rivojlanishi hamda hayotdan qoniqish darajasini ifodalovchi murakkab psixologik fenomen hisoblanadi. Mazkur maqolada psixologik farovonlikning nazariy va konseptual asoslari tahlil qilinib, uning turli ilmiy yondashuvlar doirasida shakllanishi yoritildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Norman Bradburn psixologik farovonlikni ijobiy va salbiy affektlar muvozanati orqali tushuntirgan bo‘lsa, Ed Diener ushbu fenomenni subyektiv farovonlik nuqtai nazaridan talqin qilib, hayotdan qoniqish hamda emotsional holatning o‘zaro uyg‘unligini asoslab berdi. Carol Ryff esa psixologik farovonlikni insonning to‘laqonli va barkamol faoliyat yuritishini ifodalovchi ko‘p komponentli tizim sifatida izohlab, uning o‘zini o‘zi qabul qilish, avtonomiya, hayot maqsadi, shaxsiy o‘sish va ijobiy munosabatlar kabi tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatdi. Richard Ryan va Edward Deci tomonidan ishlab chiqilgan o‘z-o‘zini belgilash nazariyasi esa psixologik farovonlikning shakllanishida avtonomiya, kompetentlik va boshqalar bilan bog‘liqlik ehtiyojlarining muhim o‘rin tutishini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Shuningdek, tadqiqot davomida psixologik farovonlik tushunchasining hali ham yagona ilmiy talqinga ega emasligi, turli nazariy yondashuvlar mavjudligi ham aniqlandi. Biroq barcha konsepsiyalarni birlashtiruvchi umumiy jihat — insonning ichki uyg‘unligi, hayotdan qoniqishi va o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga intilishi bilan bog‘liqligidir.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida insonning stressga chidamliligi, emotsional barqarorligi hamda ijtimoiy moslashuvchanligini ta’minlashda psixologik farovonlik alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ushbu fenomenni chuqur o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Шевеленкова Т.Д. Исследование личностного способа существования человека в современном мире (опыт гуманистического направления в зарубежной психологии) // Психология личности в условиях социальных изменений. М.: Институт психологии РАН, 1993. С. 21-37.
2. McLellan R., Galton M., Steward S., Page C. The impact of creative initiatives on well-being: a literature review // Newcastle: CCE. 2012. 100 p.
3. Лебедева М.В., Вербина Г.Г. Субъективное и психологическое благополучие как категории современной психологии // InternationalJournal of Medicine and Psychology / Международный журнал медицины и психологии. 2021. Т.4. №5. С. 48-52.
4. ФесенкоП.П. Что такое психологическое благополучие? Краткий обзор сновных концепций//Научные труды аспирантов и докторантов. М.:Изд-во Московского гуманитарного университета, 2005. Вып. 46. С.35-48.
5. Bradburn N.M. The structure of psychological well-being / Chicago: Aldine publishing

company. 1969. 319 p.

6. Diener E., Diener M., Diener C. Factors predicting the subjective well-being of nations // Journal of Personality and Social Psychology. 1995. Vol. 69. P.851-864.

7. DienerE.Subjectivewell-being//PsychologicalBulletin.1984.№3.P.241-245.

8. Козьмина Л.Б. Динамика психологического благополучия личности студентов-психологов: Дис. … канд. псих. наук. Иркутск, 2014. 174 с.

9. Diener E. Assessing subjective well-being: Progress and opportunities // Social Indicators Research. 1994. 31. 2. 103–157.

10. Ryff C.D. Happiness is everything, or is it? Explorations on the meaning of psychological well-being // Journal of Personality and Social Psychology. 1989. 57.P.1069-1081.

11. ШевеленковаТ.Д., Фесенко П.П. Психологическое благополучие личности (обзор основных концепций и методика исследования) // Психологическая диагностика. 2005. №3. С. 95-129

12. Ryan R. M., Deci E.L. Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being //American Psychologist. 2000. Vol. 55. P. 68-78.

13. Леонтьев Д.А. Психология свободы: к постановке проблемы самодетерминации личности // Психологический журнал. 2000. Т.21. №1. С.15-25.

14. Гордеева Т.О. Теория самодетерминации: настоящее и будущее. Часть 1: проблемы развития теории [Электронный ресурс] // Психологические исследования: электронный научный журнал. 2010. №4 (12) URL: http://psystudy.ru (дата обращения: 13.07.18).

15. Леонтьев Д.А. Психология свободы: к постановке проблемы самодетерминации личности // Психологический журнал. 2000. Т.21. №1. С.15-25.

16. Линч М. Базовые потребности и субъективное благополучие с точкизрения теории самодетерминации // Психология. Журнал высшей школы экономики. 2004. Т.1. №3. С. 137–142.

“PEDAGOGIK MAHORAT” JURNALI UCHUN MAQOLALARNI RASMIYLASHTIRISH TALABLARI

“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!

1. “**PEDAGOGIK MAHORAT**” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.

2. E’lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:

- ✓ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
- ✓maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 4-8 betgacha;
- ✓maqola nomi, annotatsiya (80-90 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.

3. Maqola boshida UDK (udc.online internet saytidan olishingiz mumkin), mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma’lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e’lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.

4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 11 shrift, maqola nomi bosh harflarda, intyerval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.

5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.

6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomyeri ko‘rsatiladi.

7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.

8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e’tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.

9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma’ruzalari chop etilmaydi. **E’lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**

10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.

12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, bosh bino, 2-qavat, 219-xona.

Web site: www.buxdu.uz

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Telegram raqami: +998 (94) 837-18-38.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi, shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

Tahririyat rekvizitlari:
Moliya vazirligi g‘aznachiligi
23402000300100001010
MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275
BuxDU 40011086006401709410035005

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2026-yil 4-son (127)

2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.

OBUNA INDEKSI: 3070

Buxoro davlat universiteti nashri

Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

Nashr uchun mas’ul:
Nigora SAYFULLAYEVA
Muharrir: Mexrigiyo SHIRINOVA
Musahhih: Sarvinoz RAXIMOVA

Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 29.04.2026
Bosmaxonaga topshirish vaqti 30.04.2026
Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8
Tezkor bosma usulda bosildi.
Shartli bosma tabog‘i – 20,6
Adadi – 100 nusxa
Buyurtma № 21
Bahosi kelishilgan narxda.

“BUKHARAHAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Buxoro shahri, J.Ikromiy MFY, Hofiz tanish Buxoriy ko‘chasi, 190 B-uy.